75.3
D-45

L.A.DJALILOVA

JISMONIY TARBIYA VA OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

L.A. DJALILOVA

JISMONIY TARBIYA VA OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

(Darslik)

Bilim sohasi:	**100 000** – Gumanitar **200 000** – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq **600 000** – Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	**110 000** – Pedagogika **210 000** – Sotsiologiya va psixologiya **610 000** – Xizmat ko'rsatish
Ta'lim yo'nalishi:	**5111000** – Kasb ta'limi (Sport faoliyati faoliyat turlari bo'yicha)) **5210200** – Psixologiya (sport)

TOSHKENT – 2018

UO'K: 796+796.032 (09) (075.8)
KBK 75.3 (5O')
D-45

"Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" fanini o'rganish jarayonida talabalarni jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish xususiyatlari, xalq milliy o'yinlari tarixi, sport turlari tarixi, olimpiya harakati tarixi, jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot ishlarining mohiyati bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Darslikda ana mavzular haqida so'z yuritilgan.

UO'K: 796+796.032 (09) (075.8)
KBK 75.3 (5O')

Taqrizchilar:

F.A.Kerimov – Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori;

A.R.Xodjanov – TIMI Jismoniy tarbiya kafedrasining dotsenti.

ISBN 978–9943–978–63–8

KIRISH

O'zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir. Mamlakatimiz qudratini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri bu shu yurtda yuksak ma'naviyatli, jismonan va ruhan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir.

Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya go'yalari va olimpiya qadriyatlarini keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Bu yo'nalishdagi ishlar talaba-yoshlarda zamonaviy dunyoqarash, ularning ongiga vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, o'z Vataniga xizmat qilish kabi yuksak tuyg'ularni kamol toptirishga qaratilgan. Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida, milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakatining xususiyatlarini, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya sporti rivojlanishinining raqamli ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlili, jismoniy tarbiya, ommaviy sport va olimpiya harakatining uzluksiz tizimlarini shakllanish jarayonlarini o'rganish eng dolzarb masalalarga kiradi.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani qadimgi zamonlardan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan davrlarda jahon xalqlarining jismoniy tarbiya va sport tarixi, xalqaro sport va olimpiya harakati tarixini o'rganadi. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi turli davrlarda jismoniy tarbiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, ularni tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

TerDU PEDAGOGIKA INSTITUTI kutubxonasi

21152

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi darsligi uchta bobdan iborat:

- Chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakati.
- O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati.
- Xalqaro olimpiya harakati tarixi.

Birinchi bobda chet el mamlakatlarida turli tarixiy davrlarda jismoniy tarbiya rivolanishining asosiy xususiyatlari, jismoniy tarbiya va olimpiya harakatining ilmiy-nazariy asoslarini rivojlanishi, jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tizimlarining shakllanishi to'g'risidagi mavzular yoritilgan.

Ikkinchi bobda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati rivolanishining bosqichlari, O'zbekiston Respublikasida mustaqillik-yillarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakatining asosiy xususiyatlarini, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya sporti rivojlanishinining raqamli ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlili, jismoniy tarbiya, ommaviy sport va olimpiya harakatining uzluksiz tizimlarinini shakllanish jarayonlarini o'rganish bo'yicha mavzular berilgan.

Uchinchi bobda olimpiya harakati va Olimpiya o'yinlari rivojlanishining xususiyatlari, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratilishi, olimpizm asosiy tamoyillari va qadriyatlarining ahamiyatini o'rganish bo'yicha mavzular yoritilgan.

"Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" fanini o'rganish jarayonida talabalarni jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish xususiyatlari, xalq milliy o'yinlari tarixi, sport turlari tarixi, olimpiya harakati tarixi, jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot ishlarining mohiyati bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti va Respublika oliy o'quv yurtlarininig jismoniy tarbiya fakultetlari, pedagogika kollejlarining jismoniy tarbiya bo'limlari, Olimpiya zaxiralari kollejlarida jismoniy tarbiya va sport tarixi, Olimpiya o'yinlari haqida atroflicha bilimlar beriladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularning nazariy bilimlari, amaliy malakalarini oshirishda «Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi» fani asosiy mutaxassislik fanlaridan biridir.

I BOB. JISMONIY TARBIYA VA OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

1-§. "Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" faniga kirish. Qadimgi davrda jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi jahon xalqlari madaniy tarixining bir qismidir. Jismoniy tarbiya tarixi fani qadimgi zamondan to hozirgi kungacha bo'lgan davrlarda jismoniy tarbiya va sportni kelib chiqishi, rivojlanishi va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi tarixiy fanning mustaqil sohasi bo'lib, jismoniy tarbiya va sportga doir ilmiy bilimlarning muhim qismini o'zda mujassamlashtiradi. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi jamiyat madaniyatining tarkibiy qismi sifatida uning vujudga kelishi va tarkib topishi haqida ma'lumotlar beradi.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani qadim zamonlardan boshlab, shu kungacha turli xalqlarda jismoniy tarbiya taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini aniqlash va o'rganish bilan shug'ullanadi. Uning vazifasi turli tarixiy davrlarda jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti, jismoniy tarbiya shakllari, usullari, vositalari va kishilarning sport sohasidagi faoliyatining tahlilini berishdan iborat.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi to'rtta asosiy davrlarga bo'linadi:

- Qadimgi dunyoda jismoniy tarbiya (miloddan avval VIII mingyillik - milodiy IV asr).
- O'rta asrlar davrida jismoniy tarbiya va sport (V- XVII asrlar).
- Yangi davrda jismoniy tarbiya va sport (XVIII – XIX asr oxiri).
- Eng yangi davrda jismoniy tarbiya va sport (XX asrning boshlari – hozirgi kungacha).

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanini o'rganish manbalariga:

➢qadimgi jismoniy tarbiyaga oid arxeologik va etnografik manbalar;

➢jismoniy tarbiya va sportga doir arxiv materiallari, ilmiy kitoblar va boshqa yozma manbalar;

➢jismoniy tarbiya va sportga oid tasviriy san'at asarlari, badiiy kitoblar, kino, foto, fonomateriallar;

➢turli xalqlar jismoniy tarbiyasining rivojlanishi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlar (sport yutuqlari, sport rekordlari);

➢jismoniy tarbiya va sportga doir hukumat qonunlari, qaror va farmonlari, maxsus rasmiy hujjatlari kiradi.

O'zbekiston Respulikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'-risida»gi qonuni, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", jismoniy tarbiya va sportga oid Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ushbu fanni o'rganishda eng asosiy manbalar hisoblanadi.

«Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi» ixtisoslikka oid maxsus fan sifatida, milliy qadriyatlar, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot natijalari, mustaqillik yillarida joriy etilgan qonunlar, qarorlar, farmonlar, nizomlar hamda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida asoslab berilgan g'oyalarga tayanadi. Ularni jismoniy madaniyat ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'ziga metodologik asos qilib olgan.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining **maqsadi** – talabalarda jismoniy tarbiya va sportning turli tarixiy davrlarda rivojlanish qonuniyatlari, g'oyalari, tizimlari, asosiy shakllari, usullari va vositalari to'g'risidagi ilmiy-nazariy bilimlarni shakllantirishdir.

Fanning asosiy **vazifalari** – talabalarga jismoniy tarbiya va sport tarixini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, jismoniy tarbiya usullari, shakllari, vositalari, sport sohasida erishilgan yutuqlar va eng ilg'or tajribalardan foydalanishni hamda O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixini o'rgatishdan iborat.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining muhim vazifasi jahon xalqlari jismoniy tarbiyasining xususiyatlarini o'rganish va uning rivojlanish yo'llarini aniqlashdir. Ijtimoiy fanlardan biri hisoblangan jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining eng muhim vazifasi – bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini yuksak g'oyaviylik, vatanga sadoqat, milliy iftixor va insonparvarlik ruhida tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda barkamol avlodning ma'naviy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashda jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslarini o'rganish muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- nazariy va amaliy mashg'ulotlarda jismoniy harakat, jismoniy tarbiyani paydo bo'lish davrlarini rivojlanish tarixi;
- O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport harakatining rivojlantirish tarixi to'g'risidagi bilimlarni;
- jismoniy tarbiya va sport tarixining asosiy davrlarini, rivojlantirish qonuniyatlarini bilishi kerak;
- fanni o'rganishning tamoyillarini, xalqaro sport va olimpiya harakati tarixini, uning rivojlanish bosqichlari va asosiy xususiyatlarini to'g'ri aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- ilmiy nazariy jihatdan olingan bilimlarni tahlil qila olishi kerak;
- amaliy mashg'ulotlarda mustaqil fikr yuritishni, mavzularga ijodiy yondashish malakalariga ega bo'lishi kerak;
- fan bo'yicha o'zining fikr-mulohazalarini to'liq bayon etishi kerak.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani o'quv rejasiga kiritilgan pedagogika, O'zbekiston tarixi, sotsiologiya, falsafa, tibbiy-biologik fanlar, tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati fanlari bilan uzviy aloqada o'qitiladi.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi ijtimoiy fandir. Bu fan jismoniy tarbiya va sport sohasiga doir hodisalarga davr talabi asosida yondashadi, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining xilma-xil shakli, uslub va vositalarini turli bosqichlarda ochib beradi, ilg'or fikr va qarashlar, amaliy tajribalar to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Jahon miqyosidagi va O'zbekiston sharoitidagi jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti fanning mazmunini tashkil etadi. Bu fan sport turlari nazariyasi va uslubiyati, pedagogika tarixi, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda va rivojlanmoqda.

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanini o'rganishda mutaxassis olimlar Rl.Ismoilov, Yu.S.Sholomitskiy, R.Abdumalikov, A.K.Akramov, H.A.Botirov, J. E.Eshnazarov va boshqalarning dars-

lik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-ommabop risolalaridan foydalaniladi. Ularning asarlariga asosan insoniyat taraqqiyotining ilk davridan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan jismoniy tarbiya tarixining rivojlanish yo'llarini o'rganish mumkin. Sobiq Ittifoq davrida R.Ismoilov va Yu.Sholomitskiy ilk bor (1969) «O'zbekistonda fizkultura tarixi» o'quv qo'llanmasini yaratgan. Unda qadimgi Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida yashagan qadimgi ajdodlarimiz jismoniy tarbiyasi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach yaratilgan ilk o'quv qo'llanmalardan biri X.A.Botirov (1993) va A.K.Akramovlar tomonidan yozilgan (1997) «Jismoniy tarbiya va sport tarixi» o'quv qo'llanmasi hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanmada ajdodlarimiz jismoniy madaniyati tarixi qisqa va umumiy tarzda yoritilgan.

R.Abdumalikov, J.E.Eshnazarov «Ajdodlar jismoniy madaniyati tarixini o'rganish masalalari» (1993) o'quv qo'llanmasida esa fanning ayrim mavzulari yoritilgan. J.E.Eshnazarovning «Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish» (2008) darsligida jismoniy tarbiya tarixi hamda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanlarining asoslari mujassam ravishda ilk bor keng va atroflicha bayon etilgan.

E. Ernazarovning "Olimpiada – jahon sporti bayrami" (2008) nomli ilmiy-ommabop kitobida xalqaro olimpiya harakati va O'zbekistonda zamonaviy sportning rivojlanish tarixiga doir ma'lumotlar olimpiya muzeyidagi ashyoviy dalillar asosida keng yoritilgan.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fanining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish maqsadida ishlangan o'quv darslik deyarli yo'q.

Mazkur darslik mazmunida Djon Xorn, Buyuk Britaniyadagi Lankashir Markaziy universitetining sport va sotsiologiya fakulteti professori va Garri Wennel, Buyuk Britaniyadagi Bedfordshird Ommaviy axborot vositalari fakulteti professori tomonidan yozilgan "Olimpiya o'yinlari konsepsiyasi" kitobidan barcha mavzularga oid ma'lumotlar olingan. *"Olimpiya o'yinlari konsepsiyasi barcha masalalarga Olimpiya o'yinlarining to'liq ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy kontekstini tadqiqot qilish yo'li orqali javob beradi. Bu jarayon Olimpiya harakati tarixi, uni Yunonistonda yuzaga kelishi davridan boshlab, uni o'n to'qqizinchi asrda yangitdan, juda ulkan tadbir sifatida qayta tiklanishi orqali kuzatiladi. "Olimpiya o'yinlari konsepsiyasi" kitobi o'quvchini Olimpiya o'yinlarini zamonaviy*

tadqiq qilishdagi barcha asosiy, jumladan quyidagi mavzular: Olimpiya o'yinlari va siyosat, milliy xarakter va internatsionalizm; soddaligi va adolatligi; tantanaliligi va tomoshabinligi bilan; shahardagi rivojlanishi, siyosiy tejamkorligi; tijorat jarayonlari; Olimpiya o'yinlari va ommaviy axborot vositalari; Olimpiya o'yinlarining xarakterli xususiyatlari bilan tanishtiradi. Ushbu kitob axborot berish uchun yozilgan bo'lib, Olimpiya o'yinlariga qiziqqanlar uchun yoki sport va jamiyat o'rtasidagi o'zaro harakatlarni o'rganish uchun juda muhim mutoala hisoblanadi"[1].

Qadimgi davrda jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning vujudga kelish xususiyatlarini o'rganishdan boshlanadi. Qadimgi dunyo jismoniy tarbiyasi deganda, insoniyat bosib o'tgan ikki tarixiy-ijtimoiy davr – ibtidoiy jamoa tuzumi va quldorlik tuzumi jismoniy tarbiyasi tushuniladi.

Insoniyatning eng qadimgi davr tarixi 3-3,5 million yil avval boshlanib, milodiy IV asrgacha davom etgan. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, odamzod dastlab Afrika, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoda paydo bo'lgan. Keyinroq esa Osiyo va Yevropaning boshqa hududlariga kirib borgan. O'rta Osiyoda ham eng qadimgi odamlarning yashashlari uchun qulay sharoitlar mavjud bo'lgan. Ilk davrlarda odamlar yashash uchun tabiat bilan kurashganlar va turli tabiiy ofatlardan saqlanish uchun harakat qilganlar.

Inson uchun kerakli hayotiy malaka va ko'nikmalar jismoniy sifatlar, malaka va qobiliyatlar ularning bevosita mehnat faoliyati jarayonlarida hosil qilingan. Yoshlar barcha mehnat va jismoniy harakat faoliyatlarini katta yoshdagilardan o'rgangan hamda ularga taqlid qilib rivojlantirgan.

Qadimgi davrda odamlar mehnatining asosini ovchilik va termachilik tashkil etgan. Bu davrda odamlar yirik hayvonlarni – mamont, ulkan ayiq, bizon, zubr, yovvoyi ot, buqa kabi hayvonlarni ovlaganlar. Yirik hayvonlarni ovlash juda qiyin bo'lgan, shuning uchun bu davrda jamoa bo'lib ovchilikning turli usullaridan foydalanganlar. Mehnat va yashash uchun kurash jarayonida qadimgi odamlarning aqliy va jismoniy rivojlanishi tezlashgan. Ular ov qurollarini yasash, olov yoqish, kiyinish, jismonan baquvvat bo'lish uchun bolalarni maxsus

[1] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012 – 1 p.

mashqlar bilan tayyorlash kabi juda ko'p ijtimoiy turmush tajribalariga ega bo'lganlar.

Turli mustahkam va o'tkir uchli yengil nayzalarning, o'q va kamonning paydo bo'lishi ovchilikning takomillashuvi va ovning rivojlanishiga olib kelgan. Buning natijasida oziq-ovqat topish uchun sarflanadigan vaqt ancha qisqargan. Natijada, o'troqlashib yashash, bolalarni tarbiyalash imkoniyatlari kengaygan. Ibtidoiy to'da davrida kashf etilgan oddiy yutuqlar urug' jamoasi va madaniyatining vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratib bergan.

Urug' jamoasi insoniyat tarixining alohida bosqichini tashkil etadi. Xo'jalikni idora qilishning yangi shakllari yuzaga kelishi bilan kishilik jamiyatini uyushtirish holatlari ancha mustahkamlanib borgan. Ona urug'i jamoalari paydo bo'lgan, ularning a'zolari qarindosh-urug'chilik munosabatlari asosida birlashib, mehnat qilganlar. Bu o'z navbatida, jamoatchilikni yuzaga keltirgan. Madaniyat sohasida ham o'zgarishlar yuzaga kelgan: masalan uy-joy qurish, hunarmandchilik, tasviriy san'at paydo bo'lgan, ijod qilingan.

Ana shu davrlarda ilohiy kuchlarga ishonish, ularga bo'ysunish, qurbonliklar keltirish kabi diniy tasavvurlar paydo bo'lgan. Mehnat bilan bog'liq bo'lgan turli musobaqalar, o'yinlar mustaqil tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi va ulardan urug' jamoasining turli yoshdagi guruhlari foydalangan. Shu davrda ilk bor mehnatning jins va yoshga qarab bo'linishi amalga oshirilgan.

San'atning paydo bo'lishi kishilarning fikr va tasavvurlarini boyitib, ularning ma'naviy dunyosini takomillashtirgan. O'yin va raqslarda takrorlanadigan mehnat va mudofaa xususiyatidagi harakatlar faqat mehnat emas, balki jismoniy mashqlar sifatida rivoj topgan. Turli xil jismoniy mashqlarning (kurash, otda poyga, nayza uloqtirish, qilichbozlik va h.k.) o'yinlar tarzida vujudga kelishi ibtidoiy jamiyat tarbiyasida tubdan o'zgarishlar yasash uchun turtki bo'lgan. Ijtimoiy mehnat va madaniyat jarayonlari deyarli barcha qit'alarda turli darajada shakllanib, keyinchalik tobora rivoj topgan.

Qadimgi davrda urug'chilik jamoasi to'da davrining davomi bo'lib, bundan 40-35 ming yillar ilgari boshlangan. Bu davrda mehnat qurollari takomillashgan, o'q-yoy kashf etilgan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq vujudga kelgan. Urug'chilik jamoasi ona urug'i (matriarxat) va ota urug'i (patriarxat)ga bo'lingan.

Ularning har biri o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot va jismoniy tarbiya xususiyatlariga ega bo'lgan.

Matriarxat taraqqiy qilgan davrda o'yin uchun maxsus tayyorlangan uskunalar (jundan qilingan to'p, nayzabozlik tayoqlari, uchi to'mtoq nayzalar, o'yinchoq, yoy, to'qmoq va h.k.) paydo bo'lgan. Yoshlarni nayza uloqtirishga, yoydan o'q otishga o'rgatish ibtidoiy jismoniy tarbiya yo'nalishlaridan hisoblanib, uning asosiy tarkibiy qismini tashkil etgan.

Patriarxat davrida esa ishlab chiqarish jarayonlari takomillashib, yanada rivojlandi. Bunda erkaklarning mehnati, yaratuvchilik fikr-mulohazalari oldingi o'rinda turgan. Temir qurollarining paydo bo'lishi, omoch, bolta bilan ishlash, dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ovning xo'jalik ahamiyatini kamaytirgan. Chorva mollarini boqish, qo'lga o'rgatish, xonakilashtirish va dehqonchilik qilishdagi tajribalar jamoada erkaklarning hukmron bo'lishini ta'minlagan. Patriarxat davrida oilalar vujudga kelgan.

Patriarxatning dastlabki bosqichida qabilalar o'rtasida nizolar, janjallar, ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qabila vakillarining yakkama-yakka kurashi bilan hal etilgan. Ba'zi hollarda janjalli masalalar birgalikda bayramlar tashkil etish, bir-biriga sovg'alar berish va h.k. bilan yakunlangan. Qabilalar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qabilalar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalar jarayonida jamoa shon-sharafi, o'zaro bir-birini quvvatlash, zaiflarga yordam qilish tushunchalari rivoj topgan.

Qadimgi mashqlar (kurash, mushtlashish, og'irlik ko'tarish, yugurish, sakrash va h.k.) asta-sekin mustaqil tur sifatida o'rganilib, an'analar, marosimlarda namoyish etilgan va musobaqa tarzida tashkil etilib, g'oliblarni olqishlash, taqdirlash kabi odatlar amalga oshirilgan. Dehqonchilik, chorvachilik va boshqa kasb-hunar bilan shug'ullanuvchilar o'z sohalari bo'yicha turli o'yinlar, mashqlarni ixtiro qilganlar.

Ibtidoiy jamoaning yemirilishi va quldorlik tuzumining shakllanishi qadimiy Germaniya, Okeaniya, hindu qabilalari (astek, ink, mayya) va boshqa joylarda ham sodir bo'lib, ularda ham o'ziga xos jismoniy mashqlar va o'yinlarning rivojlanishiga olib kelgan. Masalan, mayya qabilasida kauchukdan yasalgan koptok bilan jamoa bo'lib o'yin o'ynash an'anaga aylangan. Ya'ni uning shakli va mazmuni hozir mashhur bo'lgan sport o'yinlariga asos solgan bo'lishi

mumkin. Qadimgi Peru mamlakatida jismoniy mashqlar yoshlardan iborat harbiy qismlarni tayyorlashda eng muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

Hindular qabilasida kauchuklardan koptoklar, maxsus chana yasaganlar. Ulardan xo'jalik yumushlari va turli musobaqalarda ham maqsadli foydalanganlar. Sharqiy Afrikadagi ibtidoiy qabilalarda langarcho'p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari ham o'tkazilgan. Ularni turli bayramlarda namoyish etishgan. Shimoliy va Janubiy Amerikada Yevropaliklarning istilosiga qadar katta rezina koptok, chavgon va raketkalardan foydalanib o'ynaladigan yozgi va qishki o'yinlar rasm bo'lganligi aniq manbalarda o'z ifodasini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida suvda suzish, kanoe va baydarka xilidagi yengil uzunchoq qayiqlarda eshkak eshish ham keng qo'llanilgan. Sharqiy Braziliya xalqlari orasida qiz va yigitlar hayotida kerak bo'lgan epchillik, chaqqonlik chidamlilik, jasurlik va qat'iyatlilik kabi qobiliyatlar hamda sifatlarga ega bo'lishi lozim edi. Chunki qabilalarda yigitlar ma'lum sinovlardan o'tmagunlaricha uylanishga ruxsat berilmagan.

Turli qabilachilik holatlari o'zaro jang, nizo va urushlarni keltirib chiqargan. Shu sababdan himoya qal'alari, qurol-yaroqlar yasash kabi yangi faoliyatlar tarkib topib, ular yanada rivojlangan. Maxsus jangchilarni tayyorlash ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jangchilarning jismoniy tayyorgarligida boshqa qabila va elatlarni bosib olish, ko'pchilikni hukmron ozchilikka bo'ysundirish uchun foydalanishni ko'zda tutadigan jismoniy tarbiyaning yangi tizimi namunalari tug'ila boshladi. Bunday jarayonlar esa quldorlik tuzumini vujudga keltirgan.

Quldorlikning dastlabki davrida qabilachilik munosabatlarining xalq hokimligi an'anasi saqlanib, qabila zodagonlari hokimiyatini cheklab turgan. Lekin qabilalar o'rtasida to'qnashuvlar harbiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Ularning asosiy sababi boylik orttirish va o'z hukmronligini o'rnatishdan iborat bo'lgan. Harbiy dohiylar rahbarligida maxsus posbonlar paydo bo'lgan. Dohiylar ko'pincha qabilalarning yo'lboshchisi ham hisoblangan. Xalq kengashlari yuzaga kela boshlagan. Ularning vazifalari jamoaning barcha a'zolarini himoya qilishdan iborat bo'lgan. Qishloq istehkomlari paydo bo'lib, chet el posbonlari hujumidan harbiy mudofaa qilish madaniyati rivojlangan.

Qadimgi Sharq davlatlarida jismoniy tarbiya. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda ilk davlatlar paydo bo'lgan. Bu davrlarda yirik

davlatlar asosan qadimgi Sharqda, Gretsiya va Rimda bunyod etilgan. Qadimgi Sharq hududidagi Misr, Eron, Bobil, Ossuriya, Hindiston, Xitoy kabi davlatlardagi jismoniy tarbiya vositalarining xilma-xilligi haqida haykallar, qurilish yodgorliklaridagi devoriy suratlar, turli madaniy ashyolar, qo'lyozmalar bunga guvohlik beradi.

Miloddan avvalgi IV asrlarda O'rtayer dengizi atrofida vujudga kelgan davlatlarda jismoniy madaniyatning ilk namunalari paydo bo'lgan. Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakllari harbiy faoliyatlarda o'z ifodasini topgan. Bunda, asosan, bel ushlashib kurashish, mushtlashish, g'ildirakli aravalarda poyga qilish va merganlik san'ati kabi faoliyatlar muhim o'rinni egallagan.

Parfiyonlar, skiflar, eroniylar, arablar o'z ommaviy o'yin va an'analarini messopotamiyaliklardan o'rganganlar. Hindlar va eroniylar hayotida ham turli-tuman jismoniy mashqlar va o'yinlar vujudga kelgan. Ular tarkibida otda (tuyada, xachir va h.k.) yurish va ov qilish, qilichbozlik, aravachalarda poyga, kamondan o'q otish, to'plar va tayoqlar bilan o'ynash keng rivojlangan.

Qadimgi Eronda maxsus tashkil qilingan maktablarda zodagon yoshlarni tarbiyalash tizimi mavjud bo'lgan. Bunda yuqorida tilga olingan mashqlarni (nayza sanchish, qilich ishlatish, otdan ag'darish) o'rgatish dastur asosida olib borilgan.

Qadimgi Misrda harbiy aslzodalarni harbiy-jismoniy jihatdan maxsus tayyorlash uchun kurash, qilichbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish kabi mashqlardan foydalanishgan. Misr davlatida dinlarning ko'pligi tufayli ularning xudolariga hamda urf-odatlariga bag'ishlangan ko'pgina bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalari o'yinlar va raqslar bilan birga qo'shib olib borilgan. Keyinchalik ulardan ko'proq g'oyaviy maqsadda foydalanilgan. Hukmron doiralar xalq o'yinlari va jismoniy mashqlardan o'z kamoloti va manfaatlari yo'lida foydalanganlar.

Qadimgi Sharq davlatlarida quldorlik tuzumi davrida ozod dehqonlar, kasb-hunar egalari, savdo-tijorat xodimlari orasida rasm bo'lgan xalq jismoniy tarbiyasi shakllari va xalq mashqlarining turlari quldorlar tomonidan o'z obro'yi hamda hukmronligini kuchaytirish maqsadida o'zlashtirilgan va ulardan keng foydalanilgan.

Qadimgi Gretsiyada jismoniy tarbiya. Ijtimoiy turmushda, ayniqsa, bolalarni jismonan baquvvat qilib tarbiyalash, harbiy-mudofaa ishlarida ishtirok etuvchilarning jangovorlik holatlarini takomil-

lashtirishda Qadimgi Gretsiyada mavjud bo'lgan davlatlarning ish tajribasi keng tarqalgan edi. Bunga qadimgi greklarning jismoniy tarbiya tizimi tarixiy jihatdan e'tiborga ega. Chunki bu tizim davrlar o'tishi bilan jahonda o'z mazmuni va mohiyatiga ega bo'ldi.

Qadimgi Gretsiya davlatining tarkib topishi va rivojlanishi miloddan avvalgi III-II ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Gomerning «Iliada» va «Odisseya» asarlarida qadimgi davrdagi yunon hayotining yorqin manzaralari aks ettiriladi. Uning asarlarida qahramonlar sifatida zodagon jangchilar timsoli chizilib, ularni oddiy xalqdan ajratuvchi jismoniy sifatlari va fazilatlari talqin etiladi. Gomer asarlarining qahramonlari qabila hayotidagi biror muhim voqea sharafiga bag'ishlab tashkil etiladigan musobaqalar va o'yinlarda o'zlarining jismoniy fazilatlarini namoyish etganlar. Bunda yugurish, nayza va lappak uloqtirish, sakrash, kurash, mushtlashish kabi mashqlar orqali musobaqalashganlar.

«Odisseya» asarida «atlet» so'zi o'sha vaqtda «olijanob qahramon», «aslzoda», «zodagon» tushunchalari bilan bog'langan. Ya'ni xalq ichidagi «chaqqon odam» tushunchasiga qarama-qarshi qilib qo'yilgan. Shu sababdan, oddiy kishilar zodagon jangchilarning o'yinlarida ishtirok etmagan, faqat tomoshabin sifatida o'tirishgan. Bo'lajak jangchilar tayyorlash maqsadida mamlakatning yirik shaharlarida maxsus tarbiya tizimi yaratilgan. Ular Sparta va Afina tarbiya tizimi nomi bilan tarixda qolgan *(1-jadval)*.

Sparta tizimi. Miloddan avvalgi IX asrda Sparta shahri vujudga kelib, uning aholisini 9 mingga yaqin quldorlar oilasi, shuningdek, 30 ming hunarmandlar, savdogarlar, yer egalari va 200 ming qul tashkil etgan. Quldorlar (spaitiatlar) qullardan saqlanish va o'zlarini himoya qilishga tayyorlanish maqsadida o'ta kuchli tarbiyaviy tizimdan foydalangan.

Sparta tarbiya tizimiga ko'ra bolalar 7 yoshgacha oilada tarbiyalangan. Bu davrda ularni qorong'udan qo'rqmaslik, sovuqqa, tashnalikka, ochlikka chidashga o'rgatganlar va chiniqtirishga katta ahamiyat berganlar.

7 yoshdan 14 yoshgacha bolalar va o'smirlar davlat tizimidagi tarbiya muassasalarida asosan jismoniy tarbiya bilan shug'ullanganlar. Ularni sovuq va ochlikka bardosh berish, chaqqonlik va og'riqlarga chidash kabi faoliyatlarga o'rgatib, chiniqtirganlar. Yoshlarni nayza va disk uloqtirish, yugurish, sakrash, kurash, harbiy o'yinlar va

yovvoyi hayvonlarni ovlashga o'rgatganlar. Qo'shiq aytish, musiqa va raqs kabi sohalarga ham ko'p vaqt ajratilgan. Davlat tomonidan belgilangan rahbarlar – pedonom - yosh spartiatlarni mardlik, jasorat, qullarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalaganlar. Shu maqsadda kechalari qullarga qarshi hujumlar, bosqinlar uyushtirganlar, shubhali qullarni o'ldirishgan. 18-20 yoshli tarbiyalanuvchilar efebiya qatoriga qabul qilinib, ularga jismoniy va harbiy tayyorgarlikni o'taganlar. Keyinchalik esa ularni harbiy darajalarga ajratib, qariguncha harbiy xizmatda ushlab turishgan.

Sparta tizimida qizlarni jismoniy tarbiyasiga ham katta e'tibor qaratilgan. Sog'lom bolalarni dunyoga keltirib, ularni sog'lom qilib o'stirish uchun oilalar ham o'ta sog'lom bo'lishi ko'zda tutilgan. Shu sababli ham qiz bolalarni yugurish, kurash, nayza va lappak uloqtirish kabi mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullantirishgan. Sparta xotin-qizlari ko'proq qullarni nazorat qilish va saqlashda xizmat qilgan.

Sparta davlati tarbiya tizimini va harbiy sohadagi eng kuchli qismi Qadimgi Gretsiyada tashkil etilgan. Ular uzoq yillar davomida yengilmas deb nom qozongan. Sparta atletlari ko'pgina Olimpiya, Pifiya va boshqa o'yinlarda qatnashib, g'alabalarni qo'lga kiritgan.

Miloddan avvalgi XII-IX asrlarda qadimgi Gretsiyada oddiy zodagonlarning yugurish, kurash, qo'l jangi, nayza va disk uloqtirish, kamondan o'q otish, g'ildirakli aravalarda ot poygasi kabi o'yin musobaqalarini aks ettiruvchi chizmalar, tasvirlar, haykallar, yodgorliklar, arxeologik qazilmalarda topilgan. Ularning mazmuni, shakllari va mohiyatlari Gomerning «Iliada» va «Odisseya» asarlarida o'z ifodasini topgan.

Afina tizimi. Afinada quldorlik tizimi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda sinfiy tafovutlar kuchli bo'lgan. Afina Gretsiyaning markazi hisoblanib, bu yerda hunarmandchilik va savdo, fan hamda madaniyat rivojlangan edi. Har bir quldor jamiyat ishlarida faol qatnashish imkoniyatlariga ega bo'lgan. Ta'lim va tarbiya tizimida Afina fuqarolarining qatnashish huquqi bo'lgan.

Afina tizimi Sparta tizimidan farqli o'laroq harbiy-jismoniy ta'lim bilan birgalikda olib borilgan. Afina tarbiya tizimi bo'yicha inson har tomonlama uyg'un kamol topishi lozim edi. Bunda aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy tarbiya asosiy vosita bo'lishi talab etilgan. Bunday talab va ehtiyoj bora-bora takomillashtirilib borilgan.

Afinada bola yetti yoshgacha oilada, qullar nazorati ostida tarbiyalangan. Bu yoshda ko'proq o'yinlarga e'tibor berilgan. Keyin o'g'il bolalarni maktabga yuborishgan. Qiz bolalar esa uyda tarbiyalangan. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lganlar davlat maktabi yoki xususiy maktablarda ta'lim olishgan. Ular musiqa va gimnastika maktablari deyilgan. Ya'ni musiqa mashg'ulotlarida musiqa, raqs, o'qish-yozish bilan, gimnastika mashg'ulotlarida esa kurash bilan palestralarda shug'ullanganlar. 12-16 yoshdan boshlab birinchi o'ringa gimnastika mashg'ulotlari qo'yilgan. 16 yoshdan yaxshi ta'minlangan ota-onalar o'z farzandlarini gimnaziyalarga berishgan.

Afinada davlat hisobida uch xil gimnaziya: Akademiya, Litsey va Kinosarg mavjud bo'lgan. Bu o'quv yurtlarida yoshlar jismoniy tarbiya bilan bir qatorda siyosatshunoslik, falsafa va adabiyot fanlari bo'yicha ham ta'lim olgan.

Afinada 18 yoshli yigitlar davlat harbiy tashkiloti – efebiyaga jalb etilgan. Ular ikki yil davomida harbiy xizmatni o'tagan. Efeblar birinchi yili, jismoniy tarbiya va harbiy tayyorgarlikdan o'tishgan. Ikkinchi yili esa qalqon va nayza bilan qurollanib, davlat chegarasini qo'riqlaganlar.

Qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning pedagogik va ilmiy nazariyasi paydo bo'lgan. Qadimgi faylasuf olimlar – Platon, Aristotel va boshqalarning asarlarida ta'lim-tarbiya tizimidagi jismoniy tarbiyaga yuksak baho berilgan.

Platon (miloddan avvalgi 427-347 y.y.) Afina zodagonlari vakili, faylasuf-idealist, insonning ma'naviy va jismoniy sifatlari haqidagi nazariyaning asoschisidir. U Sparta tizimiga moyillik bildirib, harbiy-jismoniy tarbiyani aqliy tarbiya va ta'lim bilan qo'shib olib borishni ko'zda tutdi. Platon o'zining asarida shunday degan: «Yaxshi gimnastika ham oddiy bo'ladi, lekin eng avvalo, harbiy gimnastika bo'lishi lozim».

Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 y.y.) o'z davrining yirik olim va faylasufi, Platonning o'quvchisi va Aleksandr Makedonskiyning ustozi bo'lgan. Aristotel shakl va mazmun birligi haqidagi g'oyani ilgari surgan. Shu bilan birga borliqning rivojlanishini isbotlagan. Insonning ruhi va tanasi ajralmas holda bog'liq ekanligini tushuntirib bergan. Jismoniy tarbiyaning aqliy tarbiya bilan hamohangligini ta'kidlagan. Aristotel o'g'il bolalarni jismoniy jihatdan mustahkam qilib tarbiyalash tarafdori bo'lgan. U Platondan farqli o'laroq tarbiyada ko'proq ta'lim-tarbiyaga o'rin berishni, gimnastika

mashqlari hajmini kamaytirishni tavsiya etgan. Chunki gimnastikada ko'proq harbiy jismoniy tarbiya ko'zda tutilgan va u bolalar uchun juda murakkab jarayon, deb hisoblagan.

Demokrit (miloddan avvalgi 460-370 y.y.) jismoniy mashqlar insonning shakllanishida muhim o'rin tutadi, ya'ni tabiiy holatni rivojlantirishda ustunroqdir, deb ta'lim bergan.

Sokrat (miloddan avvalgi 469-399 y.y.) aytishicha, mustahkam sog'liq ko'pgina illatlardan saqlashga kafolatdir.

Gippokrat (miloddan avvalgi 460-375 y.y.) – qadimgi grek shifokori ta'biri va ta'limi bo'yicha, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish turli xil kasalliklarni oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga egadir.

Qadimgi greklarda jismoniy tarbiya asosan gimnastika va agonistikadan iborat bo'lgan. Gimnastika umumiy jismoniy tarbiyada qo'llanilgan. Agonistika tizimida esa maxsus tayyorgarlik va boshqa musobaqalarda qatnashish ko'zda tutilgan. Gimnastika maxsus tizim sifatida palestrika (kurash), orxestrika (raqs) va o'yinlarni o'z ichiga olgan. Palestrika pentatlon (besh kurash: yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va lappak uloqtirish, kurash) va pankration (kurash va qo'l jangi) dan iborat bo'lgan. Shuningdek, suzish, mushtlashish, otda yurish, kamondan o'q otish va boshqa mashqlar ham kiritilgan. Orxestrika asosan musiqa jo'rligidagi raqslardan tashkil topgan. O'yinlar esa tayoqlar, g'ildiraklar, chavgon, to'plar bilan gimnastika qilishdan iborat bo'lgan. Bu turlardan Olimpiya bayramlarida (agonlarda) ko'proq foydalanilgan.

Qadimgi Gretsiyada Olimpiya o'yinlari kabi turli xil boshqa bayramlar ham o'tkazish odat bo'lgan. Ulardan diqqatga sazovor bo'lganlari Delfiya shahrining atroflarida Appolonga bag'ishlanib o'tkazilgan Pifiya o'yinlaridir. Bunda musiqa, raqslar bilan birgalikda gimnastika o'yinlari ham o'tkazilgan. Ushbu o'yinlar oxirida g'oliblar lavr shohlaridan yasalgan gulchambar bilan taqdirlangan. Lekin Qadimgi Gretsiyaning shon-shuhratini ko'tarishda Olimpiya o'yinlari alohida o'ringa ega bo'lgan.

Miloddan avvalgi IV asrdan boshlab Gretsiyadagi quldorlik tuzumi barham topa boshlagan, umummadaniyat va jismoniy madaniyatning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Avval Makedoniya, keyinchalik esa rimliklarning hukmronligi ostida Gretsiya mustamlakachilik zulmini boshidan kechirgan. Olimpiya o'yinlarida greklarga

23218/1

mansub bo'lmagan fuqarolar, professional sportchilar qatnashishi odatga aylangan. Lekin xristian dinining kengayishi va rivojlanishi boshqa xudolar sha'niga bag'ishlab o'tkazilayotgan bayramlarga barham bergan. Shular qatorida Olimpiya o'yinlarini o'tkazish ham to'xtatilgan.

Milodiy 394-yilda Rim Imperatori Feodosiy I xristian dinining keng yoyilishi tufayli Olimpiya o'yinlarini o'tkazishni taqiqlagan. Bundan 32-yil o'tgach esa Feodosiy II barcha yodgorliklar va Olimpiya shahridagi muqaddas joylarni buzishga farmon bergan. Keyin esa katta suv toshqinlari va zilzilalar natijasida shahar vayron bolgan. Natijada, marosimlar va Olimpiya o'yinlari nomi butunlay unitilgan.

Qadimgi Rimda jismoniy tarbiya. Rim davlatining vujudga kelishi miloddan avvalgi VIII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Rim jamiyati bu davr mobaynida shohlar davri, respublika davri va imperatorlik davrlarining rivojlanish bosqichini bosib o'tgan.

Rim podsholari davrida turli xil marosimlar suvoriylar, labirintlarda musobaqa o'tkazishgan, ular «troyan o'yinlari» deb tarixda qolgan. Bu o'yinlar asosan rimlik patrisiylar (zodagonlar) uchun ahamiyatli bo'lgan. Qo'sh g'ildirakli aravada poyga, turli xil harbiy raqslar, nayza uloqtirish, kurash va boshqa mashqlar ham keng tarqalgan. Bu quldorlik jamiyati tuzumining harbiy-jismoniy faoliyatida muhim o'rin egallagan. Shu sababdan ham, jismoniy tarbiya tizimi quldorlar harbiy qudratini mustahkamlash vazifasini o'tagan.

Rim respublika sifatida mavjud bo'lib, harbiy-siyosiy tizim tarkib topgan. Shu tufayli hokimiyat harbiy xizmat faoliyatidagi kishilar qo'lida bo'lgan. Har bir fuqaro harbiy xizmatni o'tashi majburiy ravishda o'zini harbiylik faoliyatiga tayyorlashi zarur edi. Shuning uchun maxsus tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Bu yerdagi tarbiya tizimining qadimgi Gretsiyadagidan farqi shundaki, ularda beriladigan tarbiya xususiyatlariga mos kelgan.

Rimlik yigitlar harbiy xizmatga birmuncha ilgari oilada, o'z tengdoshlari orasida tayyorlangan. Jismoniy mashqlar va o'yinlar bunda asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Yigitlar 16-17 yil harbiy xizmatda bo'lganlar. Bu davrda uzoq yurishlar va harbiy-jismoniy tayyorgarlik ishlarini bajarganlar. Bu tartib miloddan avvalgi II asrgacha davom etib, professionallikka asoslangan harbiy armiya tashkil topishi davrigacha saqlanib qolgan. Jismoniy mashqlar, o'yinlar,

turli musobaqalar qadimgi rimliklarning hayotiga singib ketgan. To'p bilan o'ynaladigan har xil o'yinlar ommalashgan. Ular patrisiy (aslzodalar) va plebeylar (oddiy fuqarolar) orasida keng tarqalgan edi.

Miloddan avvalgi VI va III asrlarda sirk tomoshalari rivojlanib, maxsus inshootlar paydo bo'lgan. Aslzodalar uchun eng qulay va ommaviy sirk o'yinlari asosiy jismoniy tarbiya vositasi va tizimini tashkil etgan. Chunki sirkda turli xil attraksionlar, kulgili-hajviy va murakkab jismoniy mashqlar namoyish etilgan.

Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab har 10 yilda bir marotaba o'tkaziladigan yirik musobaqalar an'anaga aylangan. Bunda kurash, yugurish, mushtlashish kabi turlar o'rin egallagan.Uning dasturidagi qo'sh g'ildirakli aravada poyga eng qiziqarli o'yin bo'lgan.

Qadimgi Gretsiya va Rimning o'zaro aloqalari tufayli Rimga jismoniy tarbiya vositalari ham kirib kelgan. Miloddan avvalgi II asrda ba'zi rimlik faollar yunonlarning jismoniy tarbiya tizimidagi turlar va usullarni o'zlariga tatbiq etishga harakat qildilar. Miloddan avvalgi 80-yillarda Gretsiya Rim tomonidan bosib olingan. Shu davrda imperator bo'lgan Sulla Olimpiya o'yinlarini Rimga ko'chirishga uringan. Imperator Sullaning buyrug'iga binoan 175-Olimpiya o'yinlari Rimda o'tkazilishi kerak edi. Lekin bu holat rimliklar tomonidan ma'qullanmagan. Shu sababdan, miloddan avvalgi 76-yildagi o'yinlar Olimpiya shahrida tashkil etilgan. Rimda bu o'yinlarning qismlari turli bayramlarda takrorlangan.

Miloddan avvalgi II asrda vujudga kelgan yangi o'yinlardan diqqatga sazovori gladiatorlar jangi bo'lib, keyinchalik Rim tomoshalarining asosiy qismiga aylangan. Bunda avvallari sirk o'yinlarida qilichbozlik san'atini yaxshi egallagan qullardan foydalanganlar.

Miloddan avvalgi I asrga kelib, Rimda gladiatorlar tayyorlovchi maxsus maktablar tashkil etilgan. Ular davlatga yoki shaxsiy kishilarga tegishli bo'lgan. Maktablarga gunohkor bo'lgan va hukm qilingan qullar tanlab olingan. Eng katta maktab Kapuye shahrida bo'lib, o'z vaqtida bu yerda Spartak ham ta'lim olgan. Ularga asosan qilichbozlik san'ati o'rgatilgan va sirklarda namoyish etilgan. Qilichbozlik jangida omon qolgan gladiatorlar yana o'z maktablariga qaytarilgan. Miloddan avvalgi 74-71-yillarda qullar ahvolining nihoyatda yomonlashuvi Spartak rahbarligidagi qo'zg'olonga sabab bo'lgan.

Miloddan avvalgi I asr oxiri va yangi eraning boshida Rimda imperatorlik vujudga kelgan. Bunda harbiy quldorlik hukmronligi

o‘rnatilgan. Zodagonlar yengil kiyimda iliq suvlarda cho‘milish, uqalash qabul qilish, yengil gimnastika bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Yoshlar aravalarda yurish, qilichbozlik bilan shug‘ullanib, «yuventlar» (yoshlar) tashkilotini tuzganlar. Yirik tomosha o‘yinlarini sirklar, amfiteatrlarda tashkil qiluvchilar gladiatorlarning yirtqich hayvonlar (yo‘lbars, qoplon va h.k.) bilan olishuvini uyushtirganlar.

IV asrda Qadimgi Rimda xristian dini davlat tomonidan quvvatlangan. Cherkov ta’siri asta-sekin davlat va jamoa hayotining barcha sohalarini qamrab olgan. Shu sababli, Rim an’analari inqirozga uchragan. Cherkov tizimi gladiatorlarning qonli janglari, sirk tomoshalariga qarshi chiqib, 404-yilda gladiatorlar tomoshalarini taqiqlagan.

Qadimgi Rimda jismoniy mashqlarning jismoniy rivojlanish va jamiyat uchun afzalliklari haqida ko‘p fikrlar bildirilgan. Shoir Yuvenal she’rlarida ilk bor «Sog‘lom tanda - sog‘ aql» g‘oyasi ilgari surilgan va jahon xalqlarining shioriga aylangan.

Quldorlik tuzumi Qadimgi Gretsiya, Rim va boshqa davlatlarda rivoj topib, davlatchilik tizimi yuzaga kelgan. Zodagonlar va oddiy xalq o‘zlariga xos o‘yinlar, bayramlar uyushtirgan. Olimpiya o‘yinlarini tashkil qilish, unda chaqqonlik, tezlik, kuchlilik va chidamlilik sifatlarini sinash amalga oshirilgan. Qullarni gladiatorlikka tayyorlash ishlari kuchaygan va maxsus maktablar tashkil etilgan. Xristian dinining paydo bo‘lishi Qadimgi Gretsiya, Rim va boshqa davlatlarda Olimpiya o‘yinlari, sirk tomoshalarida gladiatorlar tomoshalari taqiqlangan edi.

Xulosalar

➢ Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani turli tarixiy davrlarda jismoniy tarbiya va olimpiya sporti rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi.

➢ Jismoniy tarbiya insoniyat madaniyatining muhim qismi sifatida qadimgi davrda vujudga kelgan.

➢ Jismoniy tarbiyaning vujudga kelishida qadimgi odamlarning mehnat faoliyati, ongining rivojlanishi, harakatlarga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji muhim ahamiyat kasb etgan.

➢ Quldorlik tuzumida jismoniy tarbiya harbiy xarakterga ega bo‘lgan, harbiy-jismoniy tarbiya tizimlari va maxsus maktablar paydo bo‘lgan.

Nazorat savollari:

Qadimgi davrda jismoniy tarbiya qanday xususiyatlarga ega bo'lgan?

Quldorlik jamiyatiga jismoniy tarbiya va o'yinlarning qanday xususiyatlari bo'lgan?

Qadimgi Sharq mamlakatlarida jismoniy madaniyat qanday rivojlangan?

Qadimgi Yunon gimnastika tizimi haqida nimalarni bilasiz?

Sparta va Afina jismoniy tarbiya tizimidagi farqlar nimalardan iborat?

Olimpiya bayramlari va boshqa o'yinlar qayerda va qachon o'tkazilgan?

Qadimgi Rim jismoniy madaniyatining xususiyatlari nimalardan iborat edi?

Jismoniy madaniyat qadimgi shoirlar, haykaltaroshlar, shifokorlar, notiqlar, faylasuflar tomonidan qanday talqin qilingan?

Qadimgi Yunoniston va Rimda jismoniy madaniyat rivojlanishining susayishi va tanazzulga uchrashiga sabab nima?

Qadimgi ajdodlarning ijtimoiy turmush sharoiti va unda qo'llanilgan jismoniy madaniyat haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiling.

1-jadval

VENNA DIAGRAMMASI

2-§. O'rta asrlarda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport (V–XVII asrlar)

O'rta asrlarda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiyaning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Yevropa davlatlarida feodallar, dehqonlar va shaharliklarning jismoniy tarbiyasi shakllangan. Ritsarlarni tarbiyalash tizimi paydo bo'lgan. Gumanistlarning jismoniy tarbiya to'g'risidagi pedagogik fikrlari muhim ahamiyat kasb etgan. O'rta asrlarda Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarida jismoniy tarbiya an'anaviy xarakterga ega bo'lgan.

O'rta asr davri V-XVII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda feodal tuzum G'arbiy va Sharqiy Yevropa, Osiyo hamda Shimoliy Afrikada vujudga kelib, rivojlanib borgan. Markaziy Amerika, Avstraliya qit'alari, Osiyoning shimoliy hududlarida esa bu davrda ibtidoiy jamoa tuzumi yoki ilk quldorchilik tuzumi davom etgan. O'rta asrlar Osiyo, Yevropa mamlakatlari va Afrika kabi bir qancha mamlakatlarda feodal ishlab chiqarish usuli hukmronlik qilgan davr edi. G'arbiy hamda Sharqiy Yevropaning, Hindi-Xitoyning ko'pgina davlatlari, Arab davlatlari, Turkiya, Yaponiya va boshqa davlatlar vujudga kelgan. O'rta Osiyo hududlarida ilgari paydo bo'lgan Xitoy, Hindiston, Eron kabi davlatlar ham rivojlangan. III-IV asrlarda Xitoyda, III-VII asrlarda Hindiston, Old va O'rta Osiyo mamlakatlarida, Shimoliy Afrika va Yevropada feodal munosabatlar vujudga kelgan. Ba'zi bir xalqlar quldorlik tuzumini chetlab, ibtidoiy jamoa tuzumidan feodal munosabatlarga o'tganlar.

O'rta asrlar jamiyatining asosiy tarkibini feodallar va dehqonlar tashkil etgan. Feodalizm davrida yer zodagon feodallarning mulki hisoblangan. Mehnat qurollari, mollar, xo'jalik imoratlari hukmron feodallarda ham, bevosita ishlab chiqaruvchilar - dehqonlarda ham, hunarmandlarda ham bor edi. Ular o'rtasida butun o'rta asrlar davomida qattiq sinfiy kurash olib borilgan. Bu kurash o'sha davrdagi ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalariga, shu jumladan, feodallar va xalq ommasining jismoniy tarbiyasiga ham hal qiluvchi ta'sir qilgan edi.

Cherkov feodal jamiyatining g'oyat reaksion kuchi bo'lib, xalq ijodiga, fanga qarshi kurash olib borgan. U antik madaniyat qoldiqlarini yo'q qilishga harakat qildan. Cherkov xalqning jismoniy kamolotga, tomoshalarga intilishini majusiylikning, antik diniy urf-odatlarning ko'rinishi deb bilgan. Cherkov oddiy xalqning jismoniy

tarbiya, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar bilan shug'ullanishiga qarshi bo'lgan. Ilk o'rta asr davrida cherkov feodallarning jismoniy tarbiyasiga ham salbiy munosabatda bo'lgan. Biroq salb yurishlari davrida ritsarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligiga bo'lgan o'z munosabatini o'zgartirgan. Bu vaqtlarda cherkov feodal aslzodalarning jismoniy tarbiyasini qo'llab-quvvatlagan va hatto bu tarbiyani ruhoniylar jamiyatiga olib kirgan edi. Cherkov xudoga va feodal tartiblarning mustahkamligiga bo'lgan e'tiqodni faqat butlar yordamida emas, balki qilich yordamida ham kiritishni quvvatlagan edi.

Feodallar jismoniy mashqlar bilan shug'ullanib, o'zlarini bosqinchilik urushlariga va dehqonlarning qo'zg'olonlarini bostirishga tayyorlab borganlar. Urush olib borishning yangi usuli va yangi harbiy-jismoniy tarbiya vositalari va usullarida ayrim o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ritsarlarning butun tarbiyasi harbiy-jismoniy tayyorgarlikdan iborat edi. Ritsarlik turnirlari o'sha vaqtlarda o'ziga xos ko'ngil ochish vositasi emas, balki shu bilan ayni bir vaqtda, ritsarlarning harbiy-jismoniy jihatdan tayyorgarligini namoyish etuvchi ko'rik, nayza va qilichni ishlatish mahoratiga doir musobaqa edi.

Shaharliklar va dehqonlar o'rtasida o'tkaziladigan xalq jismoniy tarbiyasi xalq an'analari asosida amalga oshirilgan. Shaharliklar orasida yugurish, sakrash, tosh uloqtirish, og'irlikni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, qilichbozlik, yoydan o'q otish, kurash va to'p o'ynash kabi jismoniy mashqlar keng tarqalgan. Ular bu mashqlar yuzasidan uyushtiriladigan musobaqalarni bayram kunlari o'tkazgan. Shaharliklar tomonidan qilichbozlik va o'q otish "birodarliklari" tashkil etilgan.

G'arbiy Yevropa davlatlarida barcha mehnatkashlar harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lgan erkin yer egalaridan iborat edi. Ular qirol yoki harbiy boshliq chaqirig'i bilan qurollangan holda yetib kelishlari va harbiy yurishlarda qatnashish uchun tayyor bo'lishlari kerak edi.

Lekin harbiy ta'lim yaxshi tashkil etilmagan, chunki aholini harbiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning uyushgan harbiy ta'lim tizimi shakllanmagan edi. Dehqonlar uchun harbiy jismoniy tarbiya faqat jangovar faoliyat uchungina emas, balki mehnat faoliyati uchun ham zarur bo'lgan. Bu davrda jismoniy tarbiyaning sinfiy xarakteri birinchi navbatda jismoniy tarbiyadan foydalanish maqsadlarida namoyon bo'lgan. Dehqonlar jismoniy tarbiyadan mehnat va jangovar

faoliyatga tayyorlash vositalaridan biri sifatida, yuqori martabaga erishgan feodal aslzodalar esa o'z qudratini mustahkamlash vositasi sifatida foydalanganlar. Feodal aslzodalar o'zlarining harbiy jismoniy tarbiya tizimlarini yaratishda xalqning jismoniy mashqlar va o'yinlar sohasidagi ijodidan keng foydalanganlar.

O'rta asrlar davomida madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiya va sport ham rivojlangan. Bir necha yuz yillar davomida katolik dini aqliy va jismoniy tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazib kelgan. Xristian dini ta'lim va tarbiya sohasida o'zining hukmronligini ustun qo'yib, bunda faqat ruhiyat va oxirat haqida ta'limot xalq ongiga singdirilgan. Dinning ta'siri natijasida maktablar va universitetlarda jismoniy tarbiyaga e'tibor berilmagan.

Ritsarlar tarbiya tizimi. Cherkov feodal tuzumiga yordam berish maqsadida ritsarlik tarbiya tizimini qo'llab-quvvatlagan. Salb yurishlaridagi ritsarlik faoliyatlarida jismoniy tayyorgarlikka ehtiyoj sezilib, ularni tayyorlashga e'tibor kuchaytirilgan va ritsarlik jismoniy tarbiya tizimi tashkil etilgan. Ritsarlarni tarbiyalashda otda yurish, qilichbozlik, ov qilish, suzish, kamondan o'q otish, shaxmat o'yini, she'r aytish kabilardan foydalanilgan.

Ritsarlar tayyorlash tizimining dastlabki bosqichida oddiy feodallar o'zlarining 7 yoshlik o'g'illarini senyor (boy feodal) qal'asiga yuborganlar. Bo'lajak ritsarlar qal'ada 7 yoshdan 14 yoshgacha paj xizmatini o'taganlar va bunda zodagon, obro'li feodal ayollar tarbiyasini olganlar. Bu davrda ular kuchli va epchil bo'lish uchun maxsus o'qituvchilar yordamida kamalak otish, tosh va nayza uloqtirish, sakrash, yugurish, suzish va otda yurish kabi mashqlar o'rgatilgan. Ularga ov qilish, harbiy-jismoniy mashqlarni bajarish va ritsarlik odob qoidalari o'rgatilgan.

Pajlik yoshida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar navbatdagi bosqichda, 14 yoshga yetgan pajlar qurolbardorlikka o'tkazilgan. Ritsarlar tayyorlash tizimining ikkinchi bosqichida qurolbardorlar maxsus o'qituvchilar rahbarligida asov otlarni minish, og'ir temir qalqonlar kiygan holda va ularsiz uzoq masofalarga chopish, xandaqlardan va devorlardan sakrab o'tish, qal'a devorlariga narvon bilan va narvonsiz chiqish, qurol bilan va qurolsiz suvda suzish, ov qilish, shaxmat o'ynash o'rgatilgan. Qurolbardorlikning oxirgi yillarida yoshlar qilichbozlik, nayza uloqtirish hamda to'la asbob-aslahalari bilan otda yurishni mashq qilganlar. Qurolbardorlarning umumiy

jismoniy va harbiy tayyorgarligi mukammal darajaga yetgandan keyin, ya'ni ular 21 yoshga kirganlarida ritsarlik unvoni berilgan.

Ritsarlik tayyorgarligi – jismoniy kamolotning uchinchi bosqichi – faqat yirik senyorlar uchun mo'ljallangan. Bu bosqichda guruh ta'limi emas, balki individual ta'lim ustun turar edi. Qal'alarga maxsus o'qituvchilar, qilichbozlik ustalari va mutaxassislar taklif etilgan.

Bunday tarbiya tizimi natijasida ritsarlar jismoniy jihatdan kuchli, epchil va matonatli kishilar bo'lib, ular harbiy harakatlarning asosiy usullarini mukammal egallaganlar. Ular o'zlarining doirasida ritsarlik odob-qoidalari degan axloqqa amal qilganlar. Ritsarlarning ko'pchiligi uchun jismoniy mashq mashg'ulotlari ko'ngil ochish vositasiga aylangan yoki turnirda ishtirok etish vositasi sifatida xizmat qilgan.

Ritsarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini sinash maqsadida ritsarlar turniri o'tkazilgan. Turnirlar ommaviy tusda va yakkama-yakka bellashuvlar shaklida tashkil etilgan. Turnirlarni tashkil qilish, asosan, jangdagi g'alaba, ritsarning uylanishi, oilada o'g'il tug'ilishi, yirik feodalning tug'ilgan kuni va boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lgan. Yakka bellashuvda ritsarlar «qirolga hayot, ayolga qalb baxsh etish va o'ziga shon-shuhrat keltirish» uchun qasamyod qilganlar. Ritsarlarning turnirlari ritsarlar harbiy sport musobaqalarining o'ziga xos shaklidan iborat edi. Ularda feodal aslzodalar harbiy-jismoniy tayyorgarligining yakuniy natijalari namoyish qilingan.

Turnirlar Fransiya, Germaniya, Angliya, Chexiya, Polsha va Ispaniyada salb yurishlari davrida ayniqsa ravnaq topgan. Turnirlar o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tgan: birinchi bosqich – harbiy o'yinlar bo'lib, bunda turnirlar namunali ommaviy xarakterga ega bo'lgan va "buxurdlar" deb atalgan; ikkinchi bosqich ritsarlarning yakka olishuvi bo'lib, "jut" yoki "t'ost" deb atalgan.

Ommaviy turnirlar "buxurdlar" keng katta maydonlarda o'tkazilgan va biror harbiy harakat manzarasini eslatgan. Keyinchalik ommaviy turnirlar cheklangan maydonda, ma'lum vaqt, qoida va tartibga asoslanib o'tkazilgan. So'ng ommaviy turnirlar jut yoki t'ost turnirlari shaklini olgan.

T'ost turnirlari XI asrda yakkama-yakka olishuvning ancha aniq shakli sifatida paydo bo'lgan. XIII asrda ular turnirning asosiy qismiga kiritilgan va ritsarlar doirasida juda keng tarqalgan. Poyga va

nayza bilan harakat qilish jut yoki t'ostda – og'ir aslaha bilan qurollangan ritsarlarning yakkama-yakka olishuvida asosiy mashqlardan edi. Belgilangan qoidaga muvofiq, chopib kelayotgan otning ustida turib, nayza zarbi bilan raqibini egar ustidan uchirib yuborish lozim edi.

Turnirlar maxsus maydonlarda – poyga va boshqa musobaqalar maydonlarida o'tkazilgan. Dastlabki turnirlar vaqtida qal'a va shaharlar yaqinidagi atrofi o'ralmagan joylar ana shunday maydonlar vazifasini o'tagan. XI asrdan boshlab maxsus maydonlarning hajmi ma'lum bir tartibga solingan. XIV asrda turnir ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida maydonlar to'siqlar bilan to'sib qo'yilgan. Raqiblar ana shu to'siqlar bo'ylab bir-birlariga qarshi harakat qilganlar. Shunday yakkama-yakka olishuvlardagi jang san'ati uchi to'mtoq nayza bilan kuchli va aniq zarba berishdan iborat bo'lgan.

Qurollangan ikki guruhning olishuvidan iborat bo'lgan ommaviy turnirlar ancha jiddiy ahamiyatga ega edi. Otryadlar maydon chekkasidagi arqon bilan to'sib qo'yilgan joyda saf tortib tizilishar edi. Signalga muvofiq, arqon uzib tashlanar va guruhlar bir-biriga qarshi hujumga o'tar edilar. O'z shlemini yo'qotgan va otdan urib tushirilgan ritsarlar safdan chiqarilgan. Eng kam zarar ko'rgan guruh turnirda g'olib chiqqan. Turnirda alohida ajralgan ishtirokchilar xonimlar qo'lidan qimmatbaho mukofot va sovg'a olganlar.

XIV asrdan boshlab o'q otadigan qurol paydo bo'lishi bilan otliq ritsarlar va ritsarlik turnirlari barham topgan. Turnirlar feodal zodagonlar uchun tomoshalarga aylanib, kambag'allashgan kichik ritsarlar turnirlardan boyish manbai sifatida foydalanganlar. O'yin va tamoshalar feodallarning, ayniqsa, ularni bolalarining harbiy-jismoniy tarbiyasida katta o'rin tutgan. O'g'il bolalar va yigitlar ixtiyorida yog'och otlar, arg'imchoqlar, shag'al toshlar bo'lgan. Bolalar va yigitlar uchun qal'alar qurilgan va ularga hujum qilib, bosib olishni mashq qilganlar. Musobaqa o'yinlari feodallarning tarbiyasida katta ahamiyatga ega edi.

Musobaqa o'yinlarini ikki guruhga: harbiy va sport guruhlariga ajratish mumkin. Feodallarning eng ommaviy sport o'yini kichik koptok – hozirgi tennis koptogiga o'xshash koptok o'yini edi. Fransiyada bu o'yin «jyo de pom» deb atalgan. Bu o'yin uchun maxsus to'r, koptoklar, raketkalar tayyorlanib, maxsus bino «o'yin

uyi» qurilgan. Katta to'p «sul» o'yini - futbol o'yinini eslatuvchi o'yin edi. Bu o'yin asosan xalq o'yini edi. Lekin qirol va uning atrofidagi aslzodalar undan hazar qilmas edilar.

Butun XV asr davomida turnirlar o'tkazib turildi, lekin endi kishilarning e'tibori turnir ishtirokchilarining mahorati va harbiy ta'limiga emas, balki kiyimlarining yaltirashiga hamda qurollarining chiroyligiga qaratilgan edi. 1487-yilda so'nggi umumgerman turniri, 1512-yilda esa oxirgi mahalliy turnirlar bo'lib o'tgan. Jangchi ritsarni tarbiyalashning qattiq tizimi asta-sekin unutib borildi. Ritsarlik tarbiya tizimi o'rnida jentlmenlar tayyorlash tizimi vujudga kelgan.

Dehqonlarning jismoniy tarbiyasi. G'arbiy Yevropa davlatlarida dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning kuchayishi va ularni harbiy ishda qatnashishdan chetlashtirilishi xalq ommasi jismoniy tarbiyasiga g'oyat darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan. Dehqonlarda ishdan bo'sh vaqt ancha qisqarib, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan moddiy imkoniyatlar kamayib ketgan. Buning natijasida o'yinlar, raqslar va turli mashqlarni o'z ichiga olgan musobaqa turlari bilan nishonlanadigan ko'pgina eski xalq bayramlari unutildi. Biroq dehqonlar o'zlarining og'ir va huquqsiz ahvollariga qaramasdan, ilgarigi davrlardagi an'anaviy jismoniy mashqlarni saqlab qolishga harakat qilganlar.

XIV-XV asrlardagi rasmlarda dehqonlarning otda chopishi, raqslari, ularning yugurishga, kurashga va langar cho'pga tirmashib chiqishga doir musobaqalari aks ettirilgan. Germaniyada yerga tashlab qo'yilgan shamshir atrofida raqsga tushish juda ommalashgan edi. Yevropaning shimoliy hududlarida, jumladan, Skandinaviyada chang'ida yurish va konki uchish ancha keng qo'llangan. Fransiyada to'p bilan o'ynaladigan o'yinlar mashhur edi. «Sul» o'yinida ko'pincha aksari qishloqlarning aholisi ishtirok etgan.

Xalq hayotida saqlanib qolgan o'yin va mashqlar dehqonlarda mehnat qilish va feodallarga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan ma'naviy va jismoniy fazilatlarning tarbiyalanishiga imkon bergan.

Feodallarga qarshi chiqadigan xalq lashkarini tayyorlashda jismoniy mashqlar katta o'rin egallagan. Yomon qurollangan piyoda dehqonlar sovutga o'ralib olgan otliq ritsarlarga qarshi jang qilishga majbur bo'lganlar. G'alayonchilar, birinchi navbatda ritsarlarni otdan urib tushirar edilar. Buning uchun esa ular otliqlarni arqon bilan urar yoki otlarning oyog'ini jarohatlar edilar. Piyoda ritsarlar beso'naqay

bo'lib, qo'zg'olonchilar ularni to'qmoq gurzi va toshlar bilan urar edilar. Bu usullar ularga o'zlarining dushmaniga jiddiy talofat yetkazish imkonini bergan. Feodallar va din peshvolari jismoniy mashqlar va xalq o'yinlariga qarshi edi. Shunga qaramasdan, xalq qadimgi o'yinlar va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishni, an'anaviy bayram va marosimlarda ularni qo'llashni davom ettirgan. Dehqonlar orasida kurash, tosh uloqtirish, yugurish, tayoqlar bilan qilichbozlik, konkida uchish, otda poyga, to'p bilan o'yin, chim ustida xokkey, chang'ida yurish kabi turlar keng tarqalgan.

XIV asrda Shveytsariyada 16-18 yoshdagi o'smirlar o'rtasida yugurish, sakrash, kurash, nayza uloqtirish, tayoqlarda qilichbozlik kabi mashq turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

XV asrda Yevropa davlatlarida dehqon va hunarmandlar katolik dini va feodallarga qarshi g'alayon va qo'zg'alonlarida jismoniy mashqlardan harbiy maqsadda samarali foydalanganlar.

Dehqonlarning mehnati feodal madaniyatining moddiy asosi edi. Feodallar, quldorlardan farqli ravishda dehqonlarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishini rasman taqiqlamagan. Biroq tinkani qurituvchi kundalik mehnat dehqonlarning butun kuchini olar edi. Ularning tomoshalar, jismoniy mashqlar uchun vaqti ham, kuchi ham yetmas edi. Cherkov xalqning jismoniy mashqlariga qarshi edi. Shu sababli, cherkov xalq orasida inson o'z tanasi haqida g'amxo'rlik qilishi gunoh ekanligi to'g'risidagi g'oyani tarqatib, o'zini tiyishni va tarki dunyo qilib hayot kechirishni targ'ib qilgan. Biroq dehqonlar o'zlarining muhitlarida qadimdan rivojlanib kelayotgan jismoniy mashq va o'yinlarni mehnat faoliyatiga, feodallarga qarshi kurashga tayyorlash, o'z qishloqlarini himoya qilish vositalaridan biri sifatida saqlab qolganlar.

Shaharliklarning jismoniy tarbiyasi. O'rta asrda shaharlarning ko'payishi xalq jismoniy madaniyati yangi shakllarining rivojlanishiga olib kelgan. Shahar hunarmandlari, mehnatkashlari shaharni himoya qilish maqsadida qilichbozlik va o'q otish bo'yicha «birodarlik» jamiyatini tuzganlar. Bunday faoliyatlar Fransiya, Italiya, Germaniya, Belgiya, Shveytsariya kabi davlatlarda namunali bo'lgan. Shu asosda turli xil o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlar ham tashkil qilingan. Angliyaning maydonlari va keng ko'chalarida "sul" o'yini ommaviy ravishda o'tkazilib, tomoshabinlarni jalb etgan. Shahardagi ommaviy

sayllarda akrobatika, kurash, mushtlashish kabi o'yin-mashqlar namoyish etilgan.

XV-XVI asrlarda shahar zodagonlari kichik doirada o'q otish va qilichbozlik bo'yicha tuzgan «birodarlik» jamiyatlari mustahkamlana borgan. Shahardagi boylar jismoniy mashqlar va o'yinlar o'tkazish uchun maxsus joylar, moslamalar qurilgan. Bunda asosan tennis, golf, kriketga katta e'tibor berilgan.

Shaharliklar feodallarga qarshi kurashda o'zlarining qo'lida bo'lgan barcha vositalardan, jumladan jismoniy tarbiyadan ham foydalanganlar. Jismoniy tarbiyaning asosini xalq jismoniy mashqlari va o'yinlari tashkil etgan edi. Sex ishlab chiqarish uyushmalari ritsarlarning hujumi vaqtida piyoda askarlar guruhiga aylanib, shahar lashkarlarini tashkil etganlar va feodal otliq askarlariga qarshi kurash olib borganlar. Keyinroq shaharlarda maxsus yoy otuvchilar hamda qilichbozlik va nayzabozlik birlashmalari vujudga kelib, ular birodarlik birlashmalari deb nom olgan. Qilichbozlar birodarliklariga nayzabozlik, qilichbozlik va oybolta irg'itishga o'rgatilar va mashq qilingan edi. Bu yerda qurol bilan zarba berish va zarbani qaytarish usullari, qurolsiz otliq askarning qurolli otliq askarga qarshi kurash usullari o'rgatilgan. Qilichbozlik birodarliklari ishtirok etishni xohlagan barcha shaharliklar o'rtasida ochiq musobaqalar o'tkazar edi. Yoy otuvchilarning birodarlik uyushmalarida shaharliklarga kamalak va kamondan, keyinchalik esa, o'q otadigan quroldan otishga o'rgatilgan edi. Yoy yoki kamon otish vaqtida masofa 125-150 qadamni tashkil etgan. O'q otadigan qurol paydo bo'lgan vaqtda otish masofasi ancha kam o'zgardi, chunki dastlabki miltiqlar hali takomillashmagan edi. Xalq bayramlari dasturiga qilichbozlik va o'q otish musobaqalaridan tashqari, odatda, yugurish, sakrash, kurash, poyga va eshkak eshish bo'yicha poyga qilishga doir musobaqalar ham kiritilgan edi.

Qirollar mahalliy feodal ritsarlarga qarshi kurashda shahar lashkarining harbiy qudratiga tayangan va shuning uchun shaharliklarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda shaharlarni qo'llab-quvvatlar edi. Shaharlarda kamalak otish odatini rag'batlantirish yuzasidan qirollarning ko'p sonli farmoyishlari chiqarilgan edi. Qirollar shaharliklarni bevosita harbiy tayyorgarlikdan chalg'itadigan o'yinlarnigina taqiqlagan edilar. Shaharliklar hayotida to'p bilan o'ynaladigan turli xalq o'yinlari keng tarqalgan edi. Ingliz shaharlari ko'chalarida futbol o'ynalar edi. Fransiyada

«kross» va «jyo de pom» singari o'yinlar juda ommalashgan edi. Shaharlar katta bo'lmaguncha, barcha o'yinlar va musobaqalar shahardan tashqaridagi yaylovlarda o'tkazilgan edi. Biroq keyinchalik shaharlar o'sib, o'yinlar shahar ko'chalarida o'tkazila boshlandi. Shahar zodagonlari bu o'yinlarni taqiqlash uchun harakat qilganlar. Masalan, 1314-yilda London savdogarlari iltimosi bilan ingliz qiroli Eduard II shahar ichida katta to'p bilan o'ynaladigan o'yinlarni tasodifiy tomoshabinlar, yo'lovchilar va hatto imoratlar uchun xavfli, deb taqiqlagan.

Fransiyada «Jyo de pom» o'yinidagi o'zgarishlar shahar sharoitlarining o'yinlar taraqqiy etishiga bo'lgan ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. «Jyo de pom» o'yini har xil joydalarda – ritsarlik qal'alarida, shahar qal'alari yonida, cherkov maydonlarida o'ynalgan edi. Keyin esa «jyo de pom» o'yini uchun atrofi yopilgan maxsus maydonlar qurilgan. XIV asr oxirida Fransiyada bu o'yin uchun hatto maxsus binolar ham qurilgan.

Angliyada futbol o'yini ham taxminan xuddi shunday taraqqiy etdi. Ilgarigi vaqtlarda bu o'yin dehqonlar o'yini edi. Hosil yig'ib olingandan keyin qo'shni qishloq dehqonlari hosili o'rib olingan dalalarda to'p bilan o'ynar edilar. Shaharliklar markaziy bozor maydonida yoki ko'chalarda futbol o'ynar edilar. Bu esa ko'pincha tartibsizlikka, shahardagi harakatning buzilishiga olib kelgan edi. Shuning uchun o'ynaladigan joy va o'yinchilar sonini cheklovchi qoidalar yaratilgan. O'rta asr shaharlarida akrobatlar va ayniqsa dorbozlarning chiqishlari juda ham ommalashgan edi. Ularning ko'pgina mashqlari, masalan, osilgan holatdan tiralib gavdani ko'tarish va turli-tuman aylanma harakatlar, keyinchalik langar cho'pga - turnikning timsoliga o'tkazilgan. Akrobatika mashqlaridan shaharliklar ichida keng ommalashgan turi piramida tuzish edi. Akrobatlar turli murakkab sakrashlarni ham bajarganlar.

O'rta asr universitetlarining o'quv dasturlarida jismoniy tarbiyaning yo'qligi talabalar orasida jismoniy mashqlarning tarqalishiga xalaqit bermadi. Ko'pgina talabalar yoy otish va qilichbozlik uyushmalariga kirar edilar. Talabalar o'rtasida ko'pincha kurash va mushtlashish musobaqalari uyushtirilgan. Talabalarning klublarida qilichbozlik, yog'och otda chavandozlik qilish va akrobatika mashqlari ham o'tkazilgan edi.

So'nggi o'rta asr davrida shaharliklar ommasi bir-biridan keskin farq qiluvchi uch guruhdan: patritsiylar, byurgerlar va plebeylar qatlamidan iborat edi. Patritsiylar va byurgerlar shaharlarning xo'jayinlari bo'lgan. Shaharlarda aslzodalar jismoniy madaniyatining ravnaq topish jarayoni va keng xalq ommasi jismoniy tarbiyasining nisbatan tushkunligi sodir bo'lmoqda edi.

XV asrda o'qchi uyushmalar shahar patritsiylarining harbiy, sport va politsiya xizmatining markaziga aylangan edi. Patritsiylar kamondan va pistoletdan o'q otish uchun maxsus uylar qurib, shahar va shaharlararo otish musobaqalari o'tkazganlar. Qilichbozlar birodarliklari ham sex aslzodalarining tashkilotiga aylanib qoldi. Bu tashkilotlarga kirish uchun nafaqat qilichbozlik san'atidan sinovdan o'tish, balki shunga muvofiq mulkka ham ega bo'lish lozim edi.

XV asrning oxirlariga kelib otish va qilichbozlik mashg'ulotlari shahar aslzodalarining foydali va ko'ngilli tomoshalaridan biriga aylangan. Shahar bayramlari professional dorbozlar, harakatli o'yinlar, raqslar bilan to'ldirib borilgan. Patritsiyan yoshlari raqslarga tushish, to'p o'ynash, otda yurish, ov qilish va usti yopiq hovuzlarda cho'milishga qiziqar edilar. Byurgerlar o'z imtiyozlarini himoya qilib, mehnatkashlarning qilichbozlik uyushmalari, qilichbozlar birodarliklarida qatnashishlariga yo'l qo'ymas edilar.

O'rta asrlarda o'q otish qurollarining kashf etilishi ritsarlik tarbiya tizimi barham topishining muhim sabablaridan biridir. Shahar va qishloq aholisi o'rtasida jismoniy mashqlar turli xil o'yinlar bilan ommaviy shug'ullanish vaziyati yuzaga kelgan edi. Shahar va qishloqlarda o'ziga xos bo'lgan an'analar, bayramlar, katta ziyofatlar uyushtirib, kurash, mushtlashish va boshqa mashq va o'yinlarni tashkil etish keng rivojlangan.

Osiyo, Afrika va Amerika qit'alarida jismoniy tarbiya. Osiyo, Amerika va Shimoliy Afrika mamlakatlarida qadimgi an'analarning uzoq saqlanishi bu hududlarda feodal tuzumi va jismoniy madaniyatning sekin rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Hindiston. O'rta asrlarda qadimgi jismoniy madaniyat tajribalari Hindistonda keng tarqalgan. Bunda kurash, kamondan o'q otish, yugurish, ot o'yinlaridan foydalanildi. Milliy raqslar bilan birgalikda xatxa-yoga, marosim o'yinlari va boshqa mashqlar ommalashgan.

Xitoy. Dehqonlarning «sariq ro'mollilar» deb nom olgan qo'zg'olonlari III-V asrlarda davom etib kelgan. Hukmdorlar aholidan

qurollarni yig'ib olgan va ularni ishlatishni taqiqlagan edi. Shu sababli xalq orasida qurolsiz jang usullari avjiga chiqqan. VI asrda Xitoy ushu gimnastikasi tez rivoj topdi. Bunda qo'l va oyoqlarni ishlatib jang qilish, kaft va uning qirralari bilan urish amalga oshirilgan. Min sulolasi hukmronligi davrida ushu keng rivojlangan edi. Unda 20 xildan ortiq qurollar va tayoqlar qo'llanilgan. Lekin o'q otish qurollarining paydo bo'lishi bu turlar taraqqiyotini ancha pasaytirgan edi. Shunga qaramasdan, ushu mashqlaridan davolash maqsadida foydalanish davom etgan. Xitoyda ot ustida chavgon va hindlarga xos xatxa-yoga bo'yicha musobaqalar o'tkazilib turilgan.

Yaponiya. O'rta asrlarda Yaponiyada jismoniy madaniyatning rivojlanishi Samuraylar institutining tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Samuraylar kichik yer egalarining harbiy-feodal tabaqasi bo'lib, ularning jismoniy tarbiya tizimi xilma-xil kurash turlari: sumo, jiu-jitsu va karate, kendo - bitta yoki ikkita qilich bilan jang qilish san'ati, noginata - nayza bilan kurashish, piyoda va otda yugurishda kamondan o'q otish, marosim bellashuvlar, turli xil to'p o'yinlari kabi mashqlardan iborat bo'lgan.

Markaziy Amerika xalqlarining jismoniy tarbiyasi. Yevropaliklar mustamlaka qilib olgan davrlargacha bu mintaqada inklar, mayya va atsteklar davlatlari mavjud bo'lgan. XII asrlarda bu mamlakatlarda ma'lum darajada jismoniy tarbiya tizimi mavjud bo'lgan. Bunda davlat miqyosida va oila sharoitida tarbiya berish amalga oshirilgan.

Maktablarda o'yinlar va boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishgan. Kamondan o'q otish, tayoqlarni uloqtirish, qilich va qalqon bilan kurash kabi harbiy-jismoniy tayyorgarlik amalga oshirilgan. Inklar va atsteklarda uzoq masofalarga yugurish hayotiy ehtiyoj bo'lib hisoblangan. Ko'pchilik o'yinlar va mashqlar bu xalqlarning diniy marosimlari, urf-odatlari bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, qabilalararo o'yinlar, diniy bayramlar, tantanalar, atletik musobaqalar tashkil etilgan. Butun jismoniy tarbiya tizimi aborigen xalqlarning mehnat, harbiy va hayotiy turmushida katta o'rin tutgan.

Yevropaliklarning bosqinchilik, talon-toroj qilish, o'ldirish, majburlash kabi harakatlari Amerika xalqlarining jismoniy madaniyat tizimi rivojlanishiga salbiy ta'sir etgan.

Afrika mintaqasidagi xalqlarning jismoniy tarbiyasi. O'rta asrlarda Afrika xalqlari orasida mehnat, harbiy ishlar va ijtimoiy turmush orqali jismoniy madaniyat shakllari belgilangan. Jismoniy

tarbiya oilada, ovchilar tomonidan qabilada va «xudo»lar uyida berilgan. Ko'pincha musobaqalashish shaklida amalga oshirilgan. Bunda kamondan o'q otish va tayoqlarni mo'ljalga tekkizish, ustunga kim o'zarga tirmashib chiqish kabilar qo'llanilgan. Raqslar bilan birgalikda harbiy mashqlar qo'shib o'rgatilgan.

Yoshlarni harbiy jihatdan tayyorlash maqsadida oilada yoki «xudo»larning uylarida qabila, urug' boshliqlari rahbarligida turli xil an'anaviy marosimlar tashkil etilgan. Harbiy-jismoniy tayyorgarlikda kurash, nayza va lappak uloqtirishdan keng foydalanilgan. O'g'il va qizlarni tarbiyalash tizimida tamtam sadolari ostidagi an'anaviy raqslar, turli harakatli o'yinlar, akrobatik mashqlar asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. An'anaviy marosimlarda kurash, chidamlilik, epchillik, jasurlikni tarbiyalovchi mashq turlaridan iborat musobaqalar tashkil etilgan. Bu, o'z navbatida, xalqlarning jipsligi, inoqligi, ahilligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bosqinchilik va mustamlakachilik tazyiqi Afrikada milliy jismoniy madaniyatning ancha susayishiga sabab bo'lgan.

Gumanistlarning jismoniy tarbiya to'g'risida ta'limoti. XVI va XVII asrlarda G'arbiy Yevropa feodal ishlab chiqarish usuli hali hukmron edi. Bu davrda taraqqiy etishni boshlagan fan va texnika ishlab chiqarishni kengaytirishga yordam bergan, texnika esa olimlar qo'liga juda ko'p sonli yangi faktlarni berib, bu faktlar fanni boyitgan. O'rta asrlarda dengizda suzish ehtiyoji natijasida kemasozlik taraqqiy etgan, ispanlar, gollandiyaliklar, inglizlar Shimoliy va Janubiy Amerikada ko'pgina geografik kashfiyotlar qilganlar. Poroxning kashf etilishi o'q otadigan qurolning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tibbiyot ham jadal sur'atlar bilan taraqqiy etib borgan edi.

Tabiatshunoslik sohasida inson faoliyatini o'rganishga doir kashfiyotlar qilingan. Leonardo da Vinchi (1452-1519) odam gavdasining mutanosibligi va uning harakati mexanikasini o'rgangan.

Gumanistlar o'rta asr ilohiy qarashlariga qarama-qarshi o'laroq, inson shaxsini ulug'ladilar, insonga, uning kuch va qobiliyatiga ishonch bilan qaradilar. Insonga bo'lgan qarashlardagi bunday o'zgarish odatda «gumanizm» - insonparvarlik tushunchasi bilan bog'langan. So'nggi o'rta asr davridagi gumanizm ikki asosiy manbadan: qadimgi xalqlar madaniyati va xalq ijodidan foydalangan. Biroq ular xalq ijodidan kam foydalanganlar, shuning uchun so'nggi

o'rta asr davrining gumanizmi asosan qadimgi dunyoda yaratilgan qadriyatlarni tiklashdan iborat edi.

Gumanistlar o'rta asrdagi quruq pedagogikaga qarama-qarshi o'laroq, kishining faqat aqlinigina emas, balki tanasini ham tarbiyalashga qaratilgan yangi pedagogikani ilgari surganlar. Ular o'z hukmronligini o'rnatish, uzoq muddatli sayohatlar qilish, yangi yerlar kashf etish, bu yangi yerlarga ko'chib kelgan xalqlarni talash va bo'ysundirishga qodir bo'lgan uddaburon, jismoniy jihatdan yetuk insonlarni tarbiyalashni istaganlar.

Vittorino da Feltre (1378-1446) Italiyada pedagogika sohasidagi dastlabki gumanistlardan biri bo'lgan. Hukmdorlar va saroy ahli bolalarini tarbiyalash uchun maktab yaratgan. Vittorino da Feltre Mantue hukmdori va zodagonlarning bolalarini tarbiyalab, saroyda yangi turdagi maktab yaratgan va uning rahbari bo'lgan. Uning maktabida o'quvchilarning bilimga qiziqishi, aqliy va jismoniy havasi har tomonlama rag'batlantirilar edi. Bunda aqliy va jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor berilib, yalqovlarni ayovsiz jazolaganlar. Feltre bolalarni sof havoda o'ynatish, suvda suzish va turli jismoniy mashqlarni bajarishga odatlantirgan. O'quvchilarni erinchoqligi, beadabligi va manmanligi uchun jazolagan edi. Quruq yodlash o'rnini ko'rsatma ta'lim usullari egallagan.

Vittorino da Feltre o'quvchilarning sog'ligi va jismony kamoloti to'g'risida ayniqsa ko'p g'amxo'rlik qilgan edi. Feltre o'quvchilarni sof havoda harakatli o'yinlar o'ynashga, suvda suzishga va jismoniy mashqlarni bajarishga odatlantirgan edi; bu esa o'quvchilarning jismoniy kuchini, epchilligini rivojlantirishga va chiroyli odob-axloqlarini tarbiyalashga yordam bergan. Uning maktabi o'quv rejasida o'yinlar, qilichbozlik, harbiy mashqlar, otda yurish va suvda *suzish ko'zga ko'rinarli o'rinni egallagan edi.*

Feltre o'quvchilarning axloqiy sifatlarini tarbiyalash to'g'risida ham gamxo'rlik qilib, ularda o'z qadrini bilish tuyg'usini, gigiyenaning elementar qoidalariga rioya qilish odatini va hokazolarni hosil qilar edi. Vittorino da Feltre maktabi oqsuyak ota-onalarning bolalarini tarbiyalash borasida ilgari tashlangan katta qadam edi.

Fransua Rable (1483-1553) fransuz yozuvchisi, o'z asarlarini lotin tilida emas, o'z ona tili – fransuz tilida yaratgan. Uning «Gargantyua va Pantagryuel» romani xalq orasida sevib o'qilgan. Unda dunyoni ilmiy anglash g'oyasi olg'a surilgan. Fransua Rable o'z

g'oyalarini qadimgi yozuvchilarning asarlaridan ko'ra, ko'proq xalq ijodidan olgan edi. O'z asarlarida Rable cherkov xodimlari, aslzoda hukmdorlar kundalik hayotini hajviy tarzda ifodalagan. Rim, Jeneva va Sorbonna bir necha bor uni la'natlagan va har xil yo'llar bilan ta'qib qilgan edi. O'sha vaqtlarda Rablening asarlariga bo'lgan talab katta edi.

Fransua Rablening «Gargantyua va Pantagryuel» nomli romani ikki oy ichida shunchalik ko'p nusxada tarqalgan ediki, hatto tavrot o'n yil ichida shunchalik tarqalmagan edi. Bu roman barcha tillarga tarjima qilingan bo'lib, hozirga qadar qayta-qayta nashr etilib kelmoqda. Rable: «O'g'il bolaning o'z murabbiylari rahbarligida ilohiy kitoblarni o'rganganidan ko'ra, umuman, o'qimagani ma'qul, chunki ularning fani bema'nilik, ularning bilimdonligi esa batamom uydirmadir»,- degan edi. Rable tarbiyada aniq tartib, ya'ni tozalik, ovqatlanish tartibi va jismoniy mashqlar bo'lishi shartligini ta'kidlagan.

Rable o'quvchilarni erkin fikrlashga va erkin harakat qilishga olib keladigan tarbiyani tavsiya qilgan. U tarbiya orqali inson shaxsining axloqiy, aqliy va jismoniy tomonlarini tarkib toptirishni istagan. Rable butun tarbiya va ta'limni o'quvchilar uchun yoqimli ifodalashni tavsiya qilgan. Tarbiyalanuvchilar uchun tartib zarurligini, ularning maishiy hayoti uchun gigiyena zarurligini, jismoniy mashqlarning aqliy mashg'ulotlar va ovqatlanish tartibi bilan birga olib borish kerakligini talab qilgan. U badanni yuvib turishni, massaj qilishni, terlagandan so'ng kiyimni almashtirishni; mashqlarni va jismoniy kuch me'yorini asta-sekin murakkablashtirib borishni tavsiya qilgan.

Rable faqat qadimgi mashqlarni emas, balki o'sha vaqtlarda shaharliklar va dehqonlar o'rtasida odat bo'lgan jismoniy mashqlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar bergan. Tarbiyalanuvchilar yugurish, sakrash va irg'itish; kamondan, eski og'ir miltiq va zambarakdan otish; ko'krak bilan, chalqanchasiga, yon bilan suzish va suvga sho'ng'ish; nayza, qilichbozlik, shamshir, rapira, oy bolta, xanjar bilan shug'ullanish; otda yurish, arqonga, daraxtlarga va qoyalarga tirmashib chiqish bilan shug'ullanish; yelkanli va eshkakli qayiqni boshqarish, ov qilish, kurash, shaxmat, yog'och otda gimnastika mashqlarini bajarish, gantellar yordamida mashq qilish; to'p o'ynash va raqs tushishlari lozim edi.

Rablening fikricha, uning xayoli bilan yaratilgan "Telem qal'asi" tarbiya muassasining namunasidir. Muassasaning nizomi: "Nimani xohlasang, shuni qil" degan tamoyildan iborat edi. Bu ishlab chiqarish tashkiloti emas, balki boylar uchun mo'ljallangan o'ziga xos o'quv-tarbiya muassasasi bo'lgan. Unda stadion, ippodrom, suzish uchun hovuz, uch pog'onali hammomlar, teatr, sayr qilish bog'i, to'p o'ynash uchun manejlar, otxonalar, lochin xizmati va itxona bor edi. Rable o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan bab-baravar qadam tashlab, gumanizm g'oyalarining o'rnatilishi uchun ko'p xizmat qilgan.

Iyeronim Merkurialis (1530-1606) mashhur italyan gumanisti gimnastikaga doir oltita kitob yozgan. Dastlabki uch kitobi jismoniy mashqlar tarixini yoritishga, qolgan uch kitobi esa jismoniy mashqlarni tibbiy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Merkurialis tibbiyotni davolash tibbiyoti va saqlovchi tibbiyot deb ikkiga ajratgan. Saqlovchi tibbiyotni buzuqchilikka va oziq-ovqat hamda sharobni ortiqcha iste'mol qilishga qarshi kurashga mo'ljalladi; bunday hollar zodagonlarning vakillariga muvofiq edi. Gimnastika va boshqa jismoniy mashqlarni davolovchi tibbiyot vositalari jumlasiga kiritgan.

Iyeronim Merkurialis barcha mashqlarni haqiqiy (davolash), harbiy (hayotiy, zaruriy) va soxta (atletik) mashqlarga ajratgan edi. Merkurialis ayrim mashqlarning ahamiyatini baholab, ko'proq jismoniy kuch talab qiladigan mashqlarni salbiy tavsiflagan. U sog'lomlashtirish-gigiyena jihatdan foyda berishi mumkin bo'lgan mashqlarni bajarishni tavsiya qilgan. Merkurialis mushtlashishni inkor qilmagan, lekin yakkama-yakka mushtlashishni emas, balki kishining soyasi bilan mushtlashishni tavsiya qilgan, chunki kishining soyasi bilan mushtlashishi qattiq kuch ishlatishni talab qilmaydi. Merkurialis suvda suzishni emas, balki cho'milishni va baliq ovini tavsiya qilgan. U jismoniy tarbiyaning musobaqa usulini foydali deb hisoblamagan va sportni inkor qilgan.

Merkurialisning xizmati shundan iboratki, u davolash-sog'lom-lashtiruvchi mashqlarini tiklagan va ularni tibbiyotning muhim vositalari sifatida himoya qilgan. U ko'p kuch sarf qiluvchi mashq-larni to'la inkor qilgan va asosan davolovchi jismoniy mashqlarni qo'llab-quvvatlagan. Ieronim Merkurialis cherkov arboblarining saroy shifokori, imperator Maksimilian II ning shifokori bo'lgan. U feodal aslzodalarning boshliqlariga ko'rsatgan xizmatlari uchun ritsarlik unvoni bilan taqdirlangan edi.

Barcha gumanistlarning progressivligi shundaki, ular o'rta asrning tarbiyasiga va tarkidunyochilik g'oyalariga qarshi faol kurashdilar, inson shaxsining erkin kamol topishini quvvatladilar va jismoniy tarbiyani umumiy tarbiya tizimining ajralmas bir qismi sifatida ilgari surdilar. Lekin gumanistlarining aksariyati xalq to'g'risida emas, balki jamiyatning bir to'da boshliqlari to'g'risida, xalqdan ajralgan va xalqni ekspluatatsiya qilgan kishilar haqida g'amxo'rlik qilganlar. Bu gumanistlar o'zlarining barcha g'ayratlarini cherkov obro'yiga qarshi kurashga qaratib, jamiyatning konservativ kuchiga aylanganlar. Xalqqa tayangan va xalq baxt-saodati yo'lida mehnat qilgan gumanistlarning ijodi esa so'nggi o'rta asr demokrat gumanistlarining ijodi sifatida bizning davrgacha yetib keldi.

Xulosalar

➢O'rta asrlar davrida jismoniy ta'lim-tarbiya va jismoniy tarbiyaga dinning ta'siri kuchli bo'lgan.

➢Yevropa davlatlarida o'rta asrlar davrida ritsarlarni tarbiyalash harbiy-jismoniy tarbiya tizimi shakllangan.

➢O'rta asrlarda xalq ommasi jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi uchun imkoniyatlari chegaralangan edi.

➢Jahonning boshqa qit'alaridagi xalqlarning jismoniy tarbiyasi an'anaviy harakatlarga ega bo'lgan.

➢Uyg'onish davrida ta'lim va madaniyat sohalarining ma'rifatparvar yo'nalishi – gumanizm vujudga kelgan.

Nazorat savollari:

O'rta asrlarda jismoniy tarbiya rivojlanishni qanday xususiyatlarga ega bo'lgan?

Feodallarning harbiy-jismoniy tayyorgarligi qanday shakllardan iborat?

Ritsarlik tarbiya tizimining asosiy maqsadi nimadan iborat bo'lgan?

Ritsarlar tarbiya tizimi qanday xarakterga ega bo'lgan?

Ritsarlar tarbiya tizimi qachon va nima sababdan barham topgan?

Yevropada shaharliklarning ilk birlashmalari qanday nomlangan?

Gumanistik g'oyalar ilk bor qaysi davlatda shakllangan?

Filantropin maktablarida o'quvchilar qanday guruhlarga bo'lingan?

O'rta asrlarda o'tkazilgan bayramlar va an'anaviy marosimlarda qanday yangi sport turlari, jismoniy mashqlar, o'yinlar yuzaga kelgan?

Osiyo va Afrika xalqlarining jismoniy tarbiyasi qanday xarakterga ega bo'lgan?

KROSSVORD



Vertikal bo'yicha:

1. O'rta asrlar davridagi insonparvarlik g'oyalari.

Gorizontal bo'yicha:

2. Fransua Rable romanining nomi «Gargantyua va ...».

3. O'rta asrlar oxirgi davridagi Italiya gumanizmining namoyandasi. 4. O'rta asrlarda buyuk chex pedagogi. 5. Fransuz gumanisti, faylasuf, yozuvchi.

6. Iyeronim Merkurialis kitobining nomi «... san'ati». 7. Uyg'onish davrida gumanizm g'oyalari ilk bor paydo bo'lgan mamlakat. 8. O'rta asrlarda diniy turmush tarzi. 9. Yaponiya ritsari.

3-§. Yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport (XVIII – XIX asrlar)

Yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariy asoslarining taraqqiy etishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Yevropa mamlakatlarida gimnastika tizimlarining vujudga kelishi. Angliya va AQSHda sport va sport o'yinlarining rivojlanishi natijasida jismoniy tarbiya va sportning ikki yo'nalishi paydo bo'lgan. Osiyo, Amerika va Afrika mamlakatlarida ham jismoniy tarbiya rivojlangan .

XVI-XIX asrlarda feodal tuzumi yemirilib, kapitalizm davri boshlangan. Bu davrda tabiatshunoslikka doir juda ko'p ilmiy kashfiyotlar qilingan. Moddiy dunyoning barqarorligi va g'ayritabiiy kuchlarning yo'qligi haqidagi fikrlarga olib kelgan. Jamiyat uchun tadbirkor, uddaburon, sog'lom ishchilar zarur bo'lgan. Odamning aqli, irodasi va jismoniy fazilatlarining namoyon bo'lishida ta'lim-tarbiya muhim o'rin egalashi yaqqol ko'ringan. Insonning pedagogikaga bo'lgan qiziqishi ortishiga va jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari amalda bajarilishiga sabab bo'lgan.

Yangi davrda Jon Lokk, Jan-Jak Russo, Iogann Pestalotssining pedagogik qarashlari, nemis filantroplarining pedagogik tajribasi jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotning taraqqiy qilishiga katta ta'sir etgan.

Jon Lokk (1632-1704) ingliz faylasufi va pedagog olimi bo'lgan. Lokk o'zining pedagogikaga doir qarashlarini "Tarbiya to'g'risidagi fikrlar" (1693) nomli kitobida bayon qilgan. Jon Lokk o'z falsafiy va pedagogik ta'limotida ingliz zodagonlarining manfaatini ifoda etgan. Jon Lokkning fikricha, tarbiyaning vazifasi – oddiy kishilar emas, balki o'z ishlarini samarali va ishbilarmonlik bilan olib bora oladigan jentlmenlarni tarbiyalashdan iborat.

Jentlmen jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya olishi lozim, lekin u bunday tarbiyani uyda olishi kerak, chunki maktab, Lokkning fikricha, har xil toifaning yomon tarbiya ko'rgan illatli farzandlaridan iborat aralash turkumi to'plangan muassasadir. Chinakam jentlmen uyda tarbiyalanadi, chunki uydagi tarbiyaning kamchiliklari ham maktabda hosil qilinayotgan bilimlar va malakalarga nisbatan foydalidir. Jon Lokk aristokrat oilalardagi tarbiya tajribasiga asoslanib, jentlmen tarbiyalash ishlarining hammasini yaxshi tayyorgarlik ko'rgan

tarbiyachiga topshirishni tavsiya qilgan. Jentlmen istalgan vaqtda qo'liga qurol olib, soldat bo'lishga tayyor bo'lib turadigan kishi qilib tarbiyalanishi lozim, degan Lokk.

Jon Lokk jentlmenlar sportining asoschisidir. Lokk jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat bergan. U sihat-salomatlik ishlarimiz va farovonligimiz uchun zarurdir, deb ta'kidlagan. Lokk Qadimgi Rim shoiri Yuvenalning "Mens sana in corpore sano" – "Sog'lom tanda sog' aql" degan so'zlariga rioya qilish kerak, deb hisoblagan. Shu sababli, bolaning yoshlik chog'idanoq tanasini chiniqtirish, charchashga, qiyinchiliklarga, o'zgarishlarga bardosh berishga o'rgatish zarur. Lokk bolaning hayotida qattiq intizom va tartibga rioya qilishning ahamiyatini asoslab, bolaning kiyimi, ovqati va kun tartibi qanday bo'lishi to'g'risida maslahatlar bergan. To'g'ri yo'lga qo'yilgan jismoniy tarbiya, bolaning mard va chidamli bo'lishiga imkon beradi. Jon Lokk insonning ichki va tashqi tajribasini bilish manbai, deb hisoblagan. Uning fikricha, tashqi tajriba bevosita mavjud bo'lgan tashqi moddiy dunyo bo'lib, u kishi tomonidan sezgi a'zolari, tasavvuri orqali idrok qilinadi. Ichki tajriba esa inson qalbining faoliyati - refleksi, demak, bu ikki manba sezgi obyekti sifatida yagona mohiyatni tashkil etadi, barcha g'oyalarimiz ana shu mohiyatdan boshlanadi, deb e'tirof etgan Lokk.

Sezgi a'zolarini (sezish, hid bilish, ko'rish, eshitish) takomillashtirish, harakat a'zolarini (qo'l, oyoq) rivojlantirish, tanani chiniqtirish, foydali amaliy ko'nikmalar (suzish, otda yurish, eshkak eshish, qilichbozlik, o'q otish) hosil qilish, jismoniy kuchlarni yuqori darajada ishga solish uchun iroda kuchi va qobiliyatni kamol toptirish zarurligini ishonchli dalillar bilan isbotlab bergan. Bu g'oyalar o'sha davr ingliz maktablaridagi jismoniy tarbiyaga kuchli ta'sir etgan.

Jan-Jak Russo (1712-1778) fransuz ma'rifatchi arboblaridan biri. U faylasuf, pedagog hamda yozuvchi bo'lgan. Russoning «Emil yoki tarbiya to'g'risida» kitobida kishini tabiatga muvofiq ravishda individual tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Uning fikricha, inson erkin bo'lib tug'iladi, lekin u yo'rgakdalik chog'idayoq, dastlab o'z odatlarining quliga, so'ngra esa jamiyat quliga aylanadi. Hech qanday odatlarga ega bo'lmaslik - eng yaxshi odatdir. Russo: «Tana jondan ilgari tug'iladi, shuning uchun dastlab tana to'g'risida g'amxo'rlik qilish kerak, bu har ikkala jins uchun ham umumiy bo'lgan tartibdir»- degan. Russo jismoniy tarbiyani tabiiy ozod

insonni tarkib toptirishning asosi, deb hisoblagan. Bunda aqliy va mehnat tarbiyasini qo'shib olib borish zarur, deb maslahat bergan.

Russo tarbiyalanuvchi bolalarning yoshini to'rt davrga ajratgan. Birinchi davr – bola tug'ilganidan boshlab 2 yoshgacha bo'lgan davri; bu davrda bolani jismoniy rivojlanishiga asosiy e'tibor berilishi kerak. Ikkinchi davr – 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davr; bu davrda asosan bolalarni tashqi sezgilarini rivojlantirish kerak. Uchinchi davr – 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davr; bu yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish kerak. To'rtinchi davr – 15 yoshdan balog'atga yetgunigacha bo'lgan davrdir. Russoning fikricha, bu davrda axloqiy tarbiyaga ko'proq e'tibor berish kerak. Barcha davrlarda bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni jismoniy jihatdan chiniqtirish bilan alohida shug'ullanish zarur, deb hisoblagan.

Russo o'zining kitobida Emilning jismoniy jihatdan tarbiyalanishiga batafsil to'xtalgan. Bolalarni chiniqtirish, ularning jismoniy kuchini mustahkamlash va tashqi sezgilarini rivojlantirish borasida bir qancha amaliy ko'rsatmalar bergan. Bolalar ko'p harakatda bo'lishi, jismoniy mehnat bilan shug'ullanishi, ko'p vaqt ochiq havoda bo'lishi kerak. Russo tabiiy va erkin tarbiya tarafdori bo'lgan.

Jan-Jak Russo bolalar tarbiyani uch manbadan: tabiat, odamlar va atrofdagi narsalardan oladilar, deb hisoblagan. Mana shu uch omilning hammasi bir-biriga uyg'un ravishda bitta yo'lga amal qilganidagina tarbiya to'g'ri berilgan bo'ladi. Russo pedagog sifatida o'rta asr maktablaridagi tartiblariga, qattiq intizom, tan jazosi berish, darslarni yodlatish kabi tartiblarga qarshi chiqqan. U bola shaxsini hurmatlashni, uning qiziqishi va istaklari bilan hisoblashishni talab qilgan. Bu uning erkin tarbiyani targ'ib etishining ijobiy tomonidir.

Jan-Jak Russoning tushunchasiga ko'ra, qizlarning tarbiyasi o'g'il bolalarning tarbiyasidan farq qilishi zarur. Ayollar va erkaklar jamiyatdagi vazifasiga mos ravishda tarbiyalanishi kerak, qizlar uy ishi uchun tarbiyalangan bo'lishi lozim, qizlar uchun hech qanday jiddiy aqliy tarbiya kerak emas, deb hisoblagan Russo.

Iogann Genrix Pestalotssi (1776-1827) shveytsariyalik buyuk pedagog-demokrat. U tarbiya asosini odamning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan, tarbiya maqsadini odamning ma'naviy qiyofasini tarkib toptirishdan iborat, degan. Uning fikricha, tana faoliyati harakatlarda namoyon bo'ladi, harakatlar esa bog'inlar tuzilishi va harakatchanligiga bog'liqdir. U bo'g'inlar uchun gimnastika element-

larini ishlab chiqdi. Bunda barcha harakatlar o'z mazmunini topgan edi. Pestalotssi elementar gimnastikani o'ziga xos «mehnat malakalari alifbosi», ya'ni ko'tarish, irg'itish yoki uloqtirish, aylantirish, urish va h.k. qilishga o'rgatish zarur, deb hisoblagan.

XVIII asrning 70-80-yillarida Germaniyada yangi yo'nalishdagi maktablar paydo bo'lgan. Bu filantroplar (insonparvarlar) ochgan maktablar edi. O'qituvchilar bunday maktablarda akademistlar, pedagogistlar va famulyantlar kabi guruhlarga bo'lingan. Akademitslar – aslzodalar, pedagogistlar – amaldorlar, famulyantlar mehnatkashlarning farzandlari bo'lgan. Bunday tartib filantroplarning feodal tabaqachilik tartiblariga qarshi emasligidan dalolat berar edi.

Filantropin maktablaridagi gimnastikaning mashhur rahbarlari Gerxard Fit (1763-1836) va Iogann Guts-Muts (1759-1839) bo'lgan edi. G.Fit «Jismoniy tarbiya ensiklopediyasi tajribalari» nomli uch tomli kitob yozdi. Kitoblarda jismoniy tarbiyaning qadimgi va o'sha davrlardagi tarixi, uning tarbiyaviy mohiyati aks ettirilgan. I. Guts-Muts «Yoshlar uchun gimnastika» kitobini yozgan (1713). Bu kitobdan Yevropa davlatlarida keng foydalanganlar.

Iogann Guts-Muts o'z kitobida jismoniy tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlari, ayniqsa, mashqlarning aniq tasviri va ularning qo'llanish usullari bilan qo'shib bergan edi. Guts-Muts tasvirlagan gimnastik mashqlarga kurash, yugurish, sakrash, uloqtirish, irg'itish, suzish, arqon, langarcho'p bilan sakrash va daraxtlarga osilibtirmashib chiqishga doir mashqlar hamda qo'l mehnati, o'yinlar kiradi. Jismoniy tarbiyaning pedagogik nazariyasi bu davrlarda turli xilda mavjud bo'lgan.

Gimnastika tizimlari. XIX asrda iqtisod, siyosat, fan va texnikaning rivojlanishi natijasida jismoniy madaniyat ham rivoj topgan. Ayniqsa, harbiy tayyorgarlikda jismoniy tarbiya vositalari maqsadli ravishda qo'llana boshlangan. Gimnastika tizimi uchun oddiy mashqlargina emas, yengil atletika, suzish, boks, qilichbozlik, harbiy qurollardan otish va boshqa ko'p mashqlar asos qilib olingan. Bunday tizimlarni ishlab chiqish va amalda qo'llash ishlariga mutaxassislar o'z hissalarini qo'shganlar.

Nemis gimnastika tizimi. 1810-yilda Berlinda «Pestalotssi do'stlari jamiyati» qoshida birinchi gimnastika to'garagi tashkil topgan. **Fridrix Yan** (1778-1852) yoshlar harakatiga boshchilik qilgan. 1811-yilda Berlin yaqinidagi joyda gimnastika maydoni tashkil

qilingan edi. Bu joyda gimnastika asbob-uskunalari o'rnatilgan. 1812-yilga kelib, to'garak qatnashchilari soni 500 kishiga yetgan. Ularning mashg'ulotlarida gimnastika va harbiy sayohat mashqlariga keng o'rin berilgan. Fridrix Yan «Gimnastika» so'zini «Turnkunst» (epchillik san'ati), shug'ullanuvchilarni esa turnerlar deb nomlagan. Keyingi yillarda turnerlar harakati ancha susaydi. 1862-yilda barcha turnerlar jamiyatlari Umumgermaniya gimnastika ittifoqiga (Doyche Turnershaft) birlashgan edi. Ularning gimnastika tizimida mashqlarni o'rgatish usullari, mashqlar tasnifi, anatomik-fiziologik xususiyatlari, yuklanma berish me'yorlari bo'yicha yagona talab yo'q edi.

Shved gimnastika tizimi. Per Ling (1776-1839) Shvetsiya hukumatining taklifiga ko'ra, Germaniya va Daniyada jismoniy tarbiyaning ahvoli bilan tanishib chiqib, o'z mamlakatida shved gimnastika tizimi asoslarini yaratgan.

Per Ling 1813-yilda Stokgolmda gimnastika institutini tashkil etgan. Gimnastikaning to'rt turini – harbiy gimnastika, pedagogik gimnastika, davolash gimnastikasi va estetik gimnastikani alohida ajratgan. Bu turlar maktablarda ham o'rgatila boshlangan. Per Lingning o'gli Yalmar Ling (1820-1886) boshchiligida gimnastika asboblari takomillashtirilgan, gimnastika devorchasi, gimnastika skameykasi, uzun kursilar, langar cho'plar, gimnastika narvonlari, arqonlar va boshqa turli xil yangi jihozlari yaratilgan. Shvedlarning gimnastika tizimi ko'pgina Yevropa mamlakalari, hatto Amerikada ham keng qo'llanilgan.

"Gimnastik mashqlarning har xil konsepsiyalariga qisman asoslangan ikkita eng kuchli sport madaniyati o'n to'qqizinchi asr davomida Germaniyada va Shvetsiyada paydo bo'ldi. U, Germaniyada Turnen jamiyatlarida o'sgan va ularning asoschisi Fridrix Yan snaryadlar bilan mashqlarni kiritgan.

Fridrix Yan shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatgan Germaniya gimnastikasining otasi Iogann Guts-Muts, o'zining "Gymnastik fur Jugend" (1793 y.) kitobida qadimgi o'yinlarni bayon qilgan.

Shvetsiya gimnastikasining asoschisi Ling bo'lib, u, uyg'unlikda ikki sportchi bajaradigan (unison) erkin mashqlarning rivojlanishiga ko'maklashgan. Gimnastikaning ushbu ikkita varianti, 1840-yillarda Angliyaning davlat maktablarida rivojlanishi boshlangan sport

madaniyati va o'yin turlari bilan bir qatorda asrning o'rtasida, sport mashqlarida uchta asosiy Yevropa an'analarini shakllantirgan".[2]

Fransuz gimnastika tizimi. Fransiyada hukumat tomonidan mamlakatda gimnastika joriy qilish ishlari polkovnik **Fransisko Amoros**ga (1770-1848) yuklatilgan edi. Fransisko Amoros 1817-yilda harbiy gimnastika maktabini tashkil qilgan. Uning «Jismoniy, gimnastika va axloqiy tarbiyaga doir qo'llanma» (1830) kitobi barcha maktablarga joriy etilgan.

«Sokol» gimnastika tizimi. Chexiyada XIX asrning 60-yillarida «Sokol» gimnastika harakati vujudga kelgan. «Sokol» gimnastikasining muallifi, mashqlarning asosiy texnikasi va usullarini ishlab chiqqan mutaxassis, estetika professori **Miroslav Tirsh** (1832-1884) bo'lgan.

1871-yilda chexiyada 130 ta «Sokol» jamiyati mavjud bo'lgan. Jamiyatda chex jismoniy tarbiyasining milliy tizimi tarkib topib, ayrim jihatlari nemis gimnastikasiga o'xshagan.

Tizimda mashqlarning gavdaga ta'siri emas, balki bajariladigan harakatlarga ko'proq e'tibor berilgan. Keyinchalik gimnastika mashqlarining odam sog'ligiga va uning irodasiga bo'lgan ta'sirini e'tirof etib, kitoblar yozishgan. Lekin ularda o'qitish usullari o'z ifodasini topmagan.

«Sokol» gimnastikasi nemis gimnastikasiga nisbatan ancha boy va uslubiy jihatdan ancha mukammal bo'lgan. O'qituvchilar ba'zi mashqlarni o'n martalab takrorlash o'rniga murakkab mashqlar majmuini bajartirish yo'llariga o'tganlar. Chexlar saf mashqlari va kiyimlarga juda katta e'tibor berishgan. Gavda hamda oyoqlarning nozik, aniq va tashqi ko'rinishi go'zal harakatlarigina amalda qo'llanilgan. Gimnastikada har xil buyumlardan: tayoqlar, sharflar, qadimiy qurol turlari nayzalar, qalqonlar va h.k.dan foydalanishgan. Turnik, bruss, konda bajariladigan mashqlar, shuningdek, erkin mashqlar musiqa jo'rligida bajarilib, turli buyumlar yordamida ijro etiladigan mashqlar, piramidalar, akrobatika mashqlari sinchiklab ishlab chiqilgan.

«Sokol» gimnastikasida mashqlar quyidagi to'rt guruhga ajratilgan: asboblarsiz bajariladigan mashqlar – erkin mashqlar va h.k.; asboblarda bajariladigan mashqlar – buyumlar bilan va asboblar

---

[2] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012.–70 p.

ustida bajariladigan mashqlar; guruh bo'lib bajariladigan mashqlar – piramidalar, o'yinlar; harbiy mashqlar – qilichbozlik, kurash, mushtlashish mashqlari.

Yangi davrda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida milliy gimnastika tizimining pedagogik, uslubiy va tashkiliy asoslari yuzaga kelgan.

Sport o'yinlari tizimi. Sport o'yinlari tizimi gimnastika tizimi qatorida jahondagi juda ko'p mamlakatlarda tashkil topgan. Ularning tashkiliy va uslubiy shakllari o'ziga xos tamoyillarda tarkib topdi. Uning asosida musobaqalar uchun mo'ljallangan va yaxshi natijalarga erishishni ko'zda tutgan mashqlar ifodalangan edi. Tizim turli mamlakat xalqlarining turmush sharoitida uchraydigan xilma-xil mashqlar va o'yinlarni o'zida mujassamlagan. Shimoliy mamlakatlarda chang'ida va konkida uchish musobaqalari o'tkazilgan. Shahar va qishloqlarning aholisi orasida otda yurish, qilichbozlik, golf o'yini, kriket, kamon va to'pponchadan o'q otish, turli xil ovlar keng rivojlangan.

Ko'pgina davlatlarda o'quv yurtlari – universitetlar, maktablar, kollejlar tashkil qilinib, ularda akademik sport va sport o'yinlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

Buyuk Britaniyada sport o'yinlari tizimi. XVII asr o'rtalarida Buyuk Britaniyada iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish yuzaga kelib, u yirik kapitalistik mamlakatga aylangan. Shu tariqa Buyuk Britaniyada boshqa mamlakatlarga nisbatan avvalroq sport o'yinlari tizimi shakllangan edi.

Buyuk Britaniya boshqa mamlakatlarni bosib olish, mustamlakachilik yo'li bilan o'z boyligini oshirish va davlatni mustahkamlashga erishgan. Bunda ulkan dengiz floti va harakatchan ekspeditsiya bo'limlari muhim rol o'ynagan edi. Ular kollejlar, universitetlar va harbiy o'quv yurtlari bitiruvchilaridan shakllangan .

Buyuk Britaniyada sport o'yinlari tizimining asoschisi Regbi shahridagi kollej direktori pedagog **Tomas Arnold** (1795-1842) bo'lgan. U o'z faoliyatida o'quvchilarning harakatchanligi va faolligini rivojlantiruvchi, qiyin sharoitlarga tezda mo'ljal olish, qo'rqmaslikni tarbiyalovchi sport turlariga katta e'tibor bergan. Sport o'yinlari tizimiga yengil atletika, boks, eshkak eshish, suzish, regbi, futbol, kriket kabi sport turlari kiritilgan. Uning ta'limoti va tizimi mamlakat va chet ellardagi o'quv yurtlarida keng qo'llanildi.

AQSHda sport va sport o'yinlari tizimi. Sport o'yinlari tizimi AQSHda keng rivojlangan. XIX asrning 20-30-yillarida mamlakatning turli o'quv yurtlari, universitetlarida jismoniy tarbiya darslari kiritilgan. 1850-1870-yillarida ba'zi sport klublari tashkil etilib, musobaqalar o'tkazilgan.

AQSHning milliy aholisi - hindular orasida turli xil o'yinlar davom etgan. Ular qilichbozlik, kamondan o'q otish, nayza uloqtirish, uzoq masofalarga yugurish, sakrash, kurash va boshqa mashqlar bilan doimiy shug'ullanganlar. Yevropadan, ayniqsa, Angliyadan o'tgan sport o'yinlari tizimi AQSHga keng tarqalgan.

1864-yilda Buyuk Britaniyada oddiy xalqdan ajralib turish maqsadida sport ishqibozlarining nizomini ishlab chiqilgan. Bunda oddiy mehnatkashlarning musobaqalarda qatnashishi mumkin emasligi ko'rsatilgan.

XIX asr oxirlarida inqiloblarning kuchayishi sababli, yoshlar sport musobaqalarida cheklangan holda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bir qator yirik mamlakatlarda gimnastika, sport o'yinlarining ko'pgina turlari shakllangan va rivoj topgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshida sport-gimnastika harakati rivojlanishida harbiy sohalarning takomillashuvi va harbiy xizmat muddatlarining qisqarishi muhim rol o'ynagan. Ko'pgina mamlakatlarda harbiy xizmat muddati 4-6 yilga kamaytirilgan edi. Bu esa xizmatchilarni uzluksiz tayyorlab turish va chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishni taqozo etgan. Shu sababdan, hukumat harbiy doiradagilarning talablariga asosan maktablar, universitetlar va sport jamiyatlarida jismoniy tarbiyani kuchaytirishga qaror qilgan edi. Eski jismoniy tarbiya tizimlari o'rniga yangi va takomillashgan tizimlar ishlab chiqilgan. Maktablar, universitetlarning o'quv dasturlariga sport va o'yinlar kiritildi. Fransiya, Angliya, AQSH, Shveysariya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda ommaviy maktablar qatorida «Yangi maktab»lar yuzaga kelgan. Bu maktablar internat xususiyatiga ega bo'lib, katta mablag'lar hisobiga faoliyat ko'rsatgan. O'qitish uchun maxsus mutaxassislar taklif etilgan. Maktab maydoni va atroflarida sport musobaqalari va o'yinlar tashkil qilingan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Angliyada yoshlarni tarbiyalashda **skaut** bo'limlariga katta e'tibor berilgan. Bu bo'lim yoshlar tashkiloti hisoblangan. Skaut otryadlarining asoschisi ingliz

harbiy generali **Robert Baden-Pauel** (1857-1941) bo'lgan. Skaut va boshqa tashkilotlarda harbiy-jismoniy tayyorgarlik, sport o'yinlariga o'rgatgan.

AQSHda 1870-yilda yoshlarning xristian tashkilotlarida sport bilan shug'ullantirish ishlari amalga oshirilgan. Bunda shved va nemis gimnastika tizimi mazmuni va usullaridan foydalanilgan. O'rgatishda diniy xodimlar ruh, aql va tana majmuidagi tushunchalar asosida sport o'yinlarini qo'llagan edi. AQSH xristian yoshlar ittifoqining g'oyalari, ish shakllari va usullari Yevropa mamlakatlariga ham keng tarqalgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Ishchi sportining vujudga kelishi va rivojlanishi kuzatiladi. Jismoniy tarbiya harakatining yanada kengroq yoyilishida ishchilar sport klublarining tashkil qilinishi va rivojlanishi alohida o'rinda turadi. 1813-yilda Germaniya birinchi Ishchilar sport uyushmasi tashkil etilgan. Birinchi marotaba 1850-yilda Germaniyada sport tashkilotlari tuzila boshlagan. Bu davrda inqiloblarning ko'payishi va kuchayishi natijasida demokratiyaning amalga oshishiga imkon yaratilgan edi. Bu esa havaskorlik sporti, gimnastika va turistik tashkilotlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Rekreatsion harakatni davlat miqyosida tashkil etuvchilardan biri amerikalik shifokor Lyuter Gulik (1866-1918) hisoblanadi. Bu harakatning mohiyatini ilmiy asoslab berish unga tegishlidir. XIX asr o'rtalaridayoq AQSHda «O'yinlar uchun maydonlar kerak» degan harakat mavjud edi. Uning «Sof havo» dasturi asosida bolalar uchun yozgi dam olish oromgohi tashkil qilingan. Boston shahrida 1868-yilda birinchi marotaba o'yinlar uchun maydonlar qurilgan. 1861-yilda Vashington atrofida yozgi dam olish oromgohi qurilgan. Shu davrlarda ilk bor rekreatsion klublar vujudga kelgan edi.

1855-yilda sog'liqni tiklash va jismoniy tarbiya Amerika Assotsiatsiyasi ta'sis etilib, u o'yin maydonlari va sog'lomlashtirish oromgohlarini qurishda yordam berdi. Shunga o'xshash muassasalar boshqa davlatlarda ham tashkil qilindi. Ular Germaniyada «Yoshlar va kattalarning o'yiniga ko'maklashish Markaziy komissiyasi», Daniyada «O'qituvchilar o'yiniga ko'maklashish milliy komissiyasi» Urugvayda - park va sport milliy kengashi, Polshada - yoshlarning o'yini va hordiq chiqarish komissiyasi, o'yinlar va sayrlar bo'yicha Shveysariya jamiyati bo'lgan.

Havaskorlik sporti. Kollejlar va universitetlardagi sport keng jamoatchilik doirasiga yoyilib, jismonan chiniqish va faol dam olish vositasiga aylangan edi. XIX asrda sport havaskorlik va professional yo'nalishlariga ajratilgan. 1894-yil Parijda havaskorlik sportining tamoyillarini o'rganish va uni keng yoyishga bag'ishlangan Xalqaro Kongressda rasmiy tasdiqlangan.

Havaskorlik sporti – aholini ixtiyoriylik asosida ommaviy sportga jalb qilish orqali odamlar sog'lig'ini mustahkamlashga qaratilgan qismi.

"Sport tashkiliy shakllariga ega bo'la boshlagan doiradagi jarayon bir-birlari bilan "sport" to'g'risidagi fikrlari bilan kurashlarda va raqobatlarda sodir bo'lgan. O'n sakkizinchi asrning lug'atlarida "sport" ochiq havoda ovlash, o'q otish va baliq ovlash bilan sport mashg'ulotlarini anglatgan. Yevropada 1900-yilga kelib, ushbu atama futbol, regbi va kriket kabi jamoaviy o'yinlari bo'lgan tashkillashtirilgan sport tadbirlarini anglatgan. Lekin Osiyoda, Afrikada va Lotin Amerikasida ushbu atama ijtimoiy tarqalganlikka ega bo'lmagan yoki boshqa assotsiatsiya bo'lgan. Yigirmanchi asrda sportning xalqaro rahbar organlari, jumladan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi "sport"ni yangidan belgilovchi tushunishni shakllanishida asosiy rol o'ynadi".[3]

Havaskorlik sportiga maqom berishdan maqsad aristokratik sport doirasidagilar va boshqa sohalardagi sportchilarni chegaralash, o'z navbatida esa jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi ishchilar, sport sohasidagi mutaxassislar, murabbiylar, pedagoglarga keng imkoniyat yaratib berishdan iborat. Mehnat jarayonida sport bilan shug'ullanib chiniqish va yana ish haqi olish havaskorlikka ziddir, degan g'oya paydo bo'ldi. Shu sababdan, bu jarayon professionallikni yuzaga keltirgan. Shu tariqa klublar tashkil etilib, havaskorlik sporti harakati rivojlana boshlagan. Sport turlari bo'yicha klublar yuzaga keldi va shular qatorida sport jamiyatlari tashkil etilgan. Sport harakatining rivojlanishi musobaqalarning qoidalarini yaratish, rekordlarni rasmiylashtirish, axborotlarni yig'ish kabi faoliyatlarni yuritishni taqozo qildi. Bu avvalo milliy, keyinchalik sp[illegible]urlari bo'yicha

[3] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012.–70 p.

xalqaro uyushmalarni tashkil qilishga olib keldi, ya'ni uyushmalar, ligalar, federatsiyalar yuzaga kelgan.

Birinchi milliy uyushma – AQSHning beysbol milliy federatsiyasi 1858-yilda ta'sis etilgan. 1863-yilda Angliya futbol ligasi tuzilgan. Keyinchalik esa gimnastika, qilichbozlik, boks va boshqa sport turlari bo'yicha milliy uyushmalar Yevropa, Amerika, Osiyo, Avstraliya mamlakatlarida ham tashkil qilingan.

Sport harakatining kengayishi, qit'alarda milliy sport uyushmalarining tashkil etilishi, xalqaro sport federatsiyalarining ta'sis etilishi va musobaqalar o'tkazilishi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini qayta tiklashga olib kelgan.

Professional sport. XVII-XVIII asrlarda professional sport paydo bo'lgan, bu savdo, ishlab chiqarish va moliyaviy kapital bilan uzviy bog'liq edi.

Professional sport – sportning sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazishga doir qismi bo'lib, sportchilar ularda o'zining asosiy faoliyati sifatida ishtirok etganligi va ularga tayyorgarlik ko'rganligi uchun mukofot va (yoki) ish haqi oladi. Professional sportchini sotib olish va sotish mumkinligi sababli yollanma ish kuchi predmetiga aylanadi. Chunki u tovarlarni reklama qilish va boshqa sohalarda katta foyda keltira boshladi. Professional sportchi va tadbirkorlarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida rasmiylashtiriladi. «Qanday bo'lmasin g'alaba» shiori ostida katta pul evaziga barcha joylarda reklama qilish professionalizm yo'lida amalga oshirib borildi.

Sportchilarga giyohvand moddalar (doping) berish, ularning jismoniy, ma'naviy xususiyatlari sun'iy ravishda kuchaytirildi. Professional sport ko'rgazmalarida jinoyatkorlik ishlari ham amalga oshirilishi ko'zda tutilgan edi. Professional sportni rivojlantirish bilan reklamalar, turli xil ayyorlik yo'liari bilan katta foydani qo'lga kiritadi.

Professional sportning salbiy tomonlari bilan birgalikda uning targ'ibot yo'lidagi ba'zi ijobiy xususiyatlarini ham tan olishga to'g'ri keladi. Ya'ni ommaning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, yoshlarni sport, o'yin va gimnastika bo'yicha tashkil qilingan klublarga jalb etishda bu sport harakatining o'ziga xos xizmatlari mavjud bo'lgan.

Birinchi jahon urushi arafasi, urush yillarida jismoniy tarbiya va sportni milliylashtirish boshlangan. Imperialistik hokimiyat harbiy

qurollanishni kuchaytirish, zaxiralarni harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlanishini yaxshilashga katta ahamiyat berilgan. 1911-yildan boshlab Germaniyadagi sport uyushmalarining barcha yo'riqnoma va dasturlari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashga da'vat etadi.

Bunda ko'proq harbiy-sport o'yinlari, katta guruhda yurishlar, sport klublari tashkil qilish avjiga chiqdi. Nemis maktablarida harbiy-jismoniy tayyorgarlik darslari tashkil qilinib, haftada 3 soatgacha mashg'ulot o'tkazila boshlangan va har kuni 10 daqiqali gimnastika va yurish mashg'ulotlari tashkil qilingan.

Jismoniy tarbiyani milliylashtirish AQSH, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda ham amalga oshirilgan. O'q otish jamiyatlari, jismoniy va harbiy tayyorgarlik qo'mitalari, skaut jangovor guruhlarining tashkil etilishi, o'quv yurtlari dasturlariga harbiy-jismoniy tayyorgarlikning kiritilishidan maqsad salomatligiga ko'ra yaroqli kishilarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat edi.

Fransuz harbiy leytenanti **Jorj Eber** (1875-1957) o'zining harbiy jismoniy tayyorgarlik usulini tashkil etgan. Bunda yurish, sakrashlar, yuk ko'tarish, uloqtirish, suzish, himoya va hujum kabi jismoniy mashqlarga tayanildi. Harbiylarga miltiq, to'pponcha, shpagadan foydalanish, otda yurish, mototsikl haydash, qayiqlarda eshkak eshish, yelkanlarni tiklash, belkurak, lom, arra, bolta va bolg'alarni qo'llay bilish kabi sifatlarni tezda o'zlashtirishni tavsiya etgan.

Eber sportga qarshi bo'lib, faqat sportdagi professionallikning jiddiy tarafdori edi. Eber «Sport jismoniy madaniyatga qarshi» nomli kitobini yozgan. U shu sohaga rahbarlik qilsada, ilmiy tayyorgarlikka ega emas edi va o'z uslubiyatini faqat tajribalar asosida tashkil etadi. Eber xotin-qizlarning jismoniy tarbiyasiga qarshi noilmiy fikrlar bildirgan. Uning fikricha, erkaklarning mashqlarini xotin-qizlar ham bajarishi lozim. Buni o'rgatilgan hayvonlar misolida ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi. Eberning uslubiyatini Fransiya va boshqa bir qator mamlakatlardagi harbiy o'quv yurtlarida harbiy-jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida qo'lladilar.

Lesgaft Pyotr Fransevich (1837-1909) pedagog, olim va Rossiyadagi jismoniy tarbiyaning eng faol ijodkori, jismoniy tarbiya ilmiy sistemasining asoschisidir. U o'zining ilmiy asarlarida jismoniy tarbiya jarayonining hamma tomonlarini aks ettirgan. 1861-yilda meditsina-xirurgiya akademiyasini tamomlagan va shu akademiyaning o'zida anatomiya o'qituvchisi bo'lib ishlay boshlagan.

P.F.Lesgaft 1865-yillarda birin-ketin ikkita dissertatsiya yoqladi hamda meditsina doktori va xirurgiya doktori degan ilmiy darajalarni olgan. Lesgaft dissertatsiyalar tayyorlayotgan vaqtidayoq antropologiyani odam haqidagi fan sifatida keng ma'noda tushundi va uni o'rganishga kirishgan edi. Xuddi shu vaqtning o'zida u odam organizmining taraqqiy etish nazariyasi asoslari ustida ham ishlay boshlagan.

Lesgaft mashqlarni butun organizmni va uning ayrim qismlarini taraqqiy ettiruvchi yagona vosita deb bilgan. Gavdaning barcha a'zolarini uyg'un ravishda mashq qildirilganda, organizm juda yaxshi taraqqiy etadi. Bu narsa Lesgaftni, jismoniy tarbiyaning ilmiy ravishda asoslangan tizimini yaratish zarur, degan fikrga olib keldi. U bu ishga ikkinchi dissertatsiyasini yoqlaganidan so'ng bir necha yil o'tgach kirishgan edi.

1874-yilda Lesgaft o'zining gimnastika masalalariga doir birinchi maqolasini chop ettirdi. Maqolada gimnastikaning asoslari haqida, asosan, uning organizmga ta'siri to'g'risida gap borar edi. So'ngra Lesgaft harbiy vazirlikning topshirig'i bilan bir yil mobaynida Yevropaning turli mamlakatlarida bo'ldi. Bundan maqsad o'sha mamlakatlarda jismoniy tarbiyaning qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish edi.

P.F.Lesgaft 1876-yilda o'zining «Anatomiyaning jismoniy tarbiyaga munosabati va maktabda jismoniy ta'limning asosiy vazifasi» degan asarini nashrdan chiqardi. Endilikda bu asarda jismoniy tarbiyaning vazifalari anchagina kengroq bayon qilingan edi. U jismoniy tarbiyaning bilim sifatidagi xarakterini ta'kidlab o'tishga harakat qilib, uni jismoniy tarbiya deb emas, balki jismoniy ta'lim deb atadi. Undan keyingi yillarda Lesgaft «Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasiga doir qo'llanma», «Nazariy anatomiya asoslari», «Oila tarbiyasi» va boshqa asarlarini yozgan.

P.F.Lesgaftning butun hayoti va faoliyati chorizm reaksion kuchlari bilan uzluksiz kurashdan, butun insoniyat manfaatlari yo'lida fan tantanasi uchun kurashishdan iborat bo'lgan.

Lesgaft biologiya, antropologiya, pedagogika, anatomiya, tarix va jismoniy tarbiya sohasida ish olib borgan. Shuningdek, u yana o'z ilmiy faoliyatini amaliyot bilan uzviy ravishda bog'lab, o'zining jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasining asosiy tamoyillarini

ishlab chiqqan. P.F.Lesgaft ishlab chiqqan jismoniy ta'lim nazariyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: [4]

Aqliy ta'lim ham, jismoniy ta'lim ham odamni butun jamiyat baxt-saodati uchun serunum mehnat qilishga tayyorlash imkonini berishi kerak. Har qanday ta'limning asosiy maqsadi odamning shaxsiy manfaatini emas, balki jamiyatga foyda keltirishni birinchi o'ringa qo'yishiga erishishdan iborat bo'lishi lozim. Odam butun umrida ijodkor bo'lishi, yodaki uslublardan foydalanmasligi darkor. Shunday qilingan taqdirdagina odamning uzluksiz shaxsiy kamolotiga va butun jamiyat madaniyatining taraqqiyotiga erishish mumkin.

Inson aqliy faoliyatida ham, jismoniy faoliyatida ham ijodiy faollikka qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun vositalar ongli ravishda tanlangan taqdirdagina erishish mumkin. Shuning uchun mashq qilish natijasida hosil bo'lgan narsalarni bir-biridan farq qila olishga odatlanishni, ularni o'zaro bir-biri bilan taqqoslay olish hamda ularga baho bera bilish, ya'ni tahlil qila olishni jismoniy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Lesgaft ana shu nuqtayi nazardan mashqlarni ko'rsatib berishni emas, balki ularni tushuntirib berishning o'zi bilan cheklanishni tavsiya qilgan. Bu narsa o'quvchini bajargan harakatini ko'r-ko'rona takror qilib berishga emas, balki uning haqida ongli tasavvur hosil qilishga, undan keyin esa o'sha harakatni takror bajarishga majbur etadi. Odam ongi uning har bir faoliyatini oldindan bajarishi kerak.

Lesgaft kishining har taraflama kamol topishi deganda, odamning aqliy va jismoniy kuchlarini bir-biriga qo'shib, to'g'ri taraqqiy ettirishni, ong yetakchi rol o'ynagan paytda kishi faoliyatida bu kuchlarning faol ishtirok etishiga imkon beruvchi ulardagi uzviy bog'liqlikni nazarda tutgan. Har bir odam jismoniy kamolotining yosh, jinsiy va individual xususiyatlarini hisobga olib, kuch sarflashdagi asta-sekinlik va izchillik tamoyiliga rioya qilgan taqdirdagina har tomonlama jismoniy kamolotga erishish mumkin.

Jismoniy ta'limning ilmiy jihatdan asoslab berilgan tizimi yordamida ish tutgan taqdirdagina to'g'ri jismoniy o'sishiga erishish mumkin. Jismoniy ta'limning tajriba tizimi ko'pchilik avlod tajribasida sinab ko'rilganidan keyingina to'g'ri tajriba deb tan olinishi mumkin. Jismoniy ta'lim tizimining o'zi esa har xil sharoitda va har

---

[4] Pyotr Fransevich Lesgaft. Tuzuvchilar:V.A.Taymazov, Yu.F.Kuramshin, A.T. Mar'yanovich. SPb.: 2006.- 102 b.

xil shaklda qo'llanuvchi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalariga qarab asta-sekin o'zgaruvchi uncha ko'p bo'lmagan harakatlar tizimidan tarkib topadi. Lesgaft yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg'itish, kurash, oddiy gimnastik mashqlar, o'yinlar va ekskursiyalarni ana shunday mashqlar[5], deb hisoblagan.

P.F.Lesgaft o'zining jismoniy ta'lim tizimini yaratib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari jismoniy tarbiya tizimini qattiq tanqid qildi. U bu gimnastika tizimi mashqlari bola organizmining anatomik tuzilishiga mos emasligini isbotlab berdi. Olim nemis va shved gimnastikasini tanqid qilgan bo'lsa ham, aksincha, gimnastika mashqlarini keng qo'llagan holda jismoniy ta'limning ilmiy jihatdan asoslab berilgan tizimini yaratish ustida ishlagan. U olimlar va pedagoglarni ijodiy faol bo'lishga, gimnastika va sportning odat tusiga kirgan chet el tizimi rus yoshlari jismoniy ta'limiga kirib kelishiga tanqidiy ko'z bilan qaramaslikka qarshi kurashishga da'vat etgan edi.

P.F.Lesgaft tizimining asosiy kamchiligi shundaki, u jismoniy tarbiyani faqat biologik nuqtayi nazardan tushuntirib bergan. Bundan tashqari, u sport musobaqalari va bolalar uchun gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlarning foydali ekanligini inkor etgan, jismoniy mashqlarga o'rgatishda ko'rgazmalik usulining ahamiyatini tushunmagan edi. Shunga qaramasdan, Lesgaft asarlari hozirgi kunga qadar ilmiy-nazariy ahamiyatga egadir.

Xulosalar

- Yangi davrda jismoniy tarbiya va sportning dastlabki ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan.
- G'arbiy Yevropa davlatlarida yangi davrda jismoniy tarbiyaning harbiy-jismoniy maqsadlarga qaratilgan ikki yo'nalishi – gimnastika va sport o'yinlari tizimlari rivojlangan.
- Filantropin maktablarida jismoniy tarbiya ilk bor o'quv dasturiga kiritilgan.
- Yangi davrda jismoniy tarbiya pedagogik asoslarining rivojlanishiga ilm-fan, texnika, biomexanika sohalarining yangi bilimlari ta'sir etgan.

---

[5] Pyotr Fransevich Lesgaft. Tuzuvchilar:V.A.Taymazov, Yu.F.Kuramshin, A.T. Mar'yanovich. SPb.: 2006.- 147 b.

CASE-STUDY

Case-study mavzusi	Yangi davrda jismoniy tarbiya va sport
Case maqsadi	Yangi davrda jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining asosiy xususiyatlarini o'rganish.
Case muammosining ifodalanishi	XIX asrda jismoniy tarbiyaning ikkita yo'nalishi – gimnastika va sport o'yinlari tizimlari paydo bo'lgan. Bu tizimlarning asosiy maqsadi yoshlarni harbiy-jismoniy tayyorgarligini oshirishdan iborat bo'lgan. Ko'p davlatlarning harbiy salohiyati yuqori darajada rivojlana boshlagan. Biroq gimnastika tizimi asosan Yevropa (Germaniya, Shvetsiya, Fransiya) davlatlarida rivojlangan, sport o'yinlari tizimi esa Angliya va AQSHda keng tarqalgan.
Case muammosi	1.Gimnastika tizimining Yevropada, sport o'yinlari tizimining Angliya va AQSHda rivojlanishi sabablarini aniqlang. 2. Jismoniy tarbiya tizimlarining davlatlar harbiy salohiyatini oshirish ishlaridagi ahamiyatini belgilang.
Case muammosining yechimi	XIX asrda Yevropa davlatlarida ommaviy piyoda harbiy armiya shakllantirilgan. Ommaviy armiya piyoda askarlarining harbiy-jismoniy tayyorgarligi uchun gimnastika mashqlari qulay vosita bo'lib xizmat qilgan. Angliya va AQSHda harbiy-dengiz floti rivojlangan edi va dengizchi askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini oshirishda sport o'yinlari (gandbol, tennis, futbol, regbi, voleybol, basketbol va h.k.) juda qulay vosita hisoblangan.

Nazorat savollari:

Yangi davrdagi jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi qanday xususiyatlardan iborat bo'lgan?

Yangi davrdagi pedagogik nazariyalarda jismoniy tarbiya masalalari qanday ifodalanadi?

Yangi davrda vujudga kelgan milliy gimnastika tizimlarining asosiy maqsadi nimadan iborat bo'lgan?

Nima sababdan Germaniya, Fransiya, Shvetsiya va boshqa bir qator Yevropa mamlakatlarida gimnastika vositasidan keng foydalanilgan?

Nima sababdan Angliya va Amerika mamlakatlarida jismoniy tarbiya vazifalari sport va sport o'yinlari vositalari yordamida hal etilgan?

Yevropada skautlar harakatining maqsadi nimadan iborat bo'lgan?

Yangi davrda havaskorlik sporti va professional sportning farqi nimadan iborat?

Birinchi jahon urushi yillarida jismoniy tarbiya va sportni milliylashtirishning sabablari nimada?

P.F.Lesgaftning ilmiy, nazariy va amaliy qarashlarining xususiyati nimalardan iborat?

Yangi davr jismoniy tarbiyaning ahamiyati nimada?

4-§. Eng yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakati (XX asr boshlari – hozirgi davrgacha)

Eng yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi ikki bosqichga ajratiladi:

I. 1920-1950-yillarda jismoniy tarbiya, sport va olimpiya harakatining rivojlanish xususiyatlari.

II.1950 - hozirgi davrgacha chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakatining rivojlanish xususiyatlari.

Eng yangi davrda Jahon urushlari bo'lib o'tgan va ular jismoniy tarbiya va sportning harbiylashtirilishiga olib kelgan. Biroq bu davrlarda sportning taraqqiy etishi, xalqaro sport tashkilotlari, xalqaro sport federatsiyalarining tuzilishi, Jahon, Yevropa va Osiyo chempionatlarining o'tkazilishi, sportning professional va zamonaviy yo'nalishlarining rivojlanish jarayonlarini Xalqaro sport va olimpiya

harakati yanada kengayishining asosiy omillari sifatida ko'rsatish mumkin.

XX asr boshlarida Ishchilar gimnastika tashkiloti uyushmalari Vengriya, Belgiya, Chexiya, Bolgariya va boshqa mamlakatlarda ta'sis etilgan edi. Tadbirkorlik sport klublari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular zavod, fabrika, turli korxona va muassasalarning rahbarlari tomonidan tashkil etilib, ishchi va xizmatchilarga qaratilgan edi.

Tadbirkorlik sport va gimnastika tashkilotlari Germaniya, AQSH, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda ham vujudga kelgan. 1913-yil Gente shahrida (Belgiya) Germaniya, Fransiya, Belgiya, Avstriya mamlakatlarining ishchilar sport tashkilotlari vakillari «Xalqaro ishchilar madaniyat va sport uyushmasi» Markaziy kengashini tuzgan. 1914-yildan boshlab Bryusselda o'z faoliyatini boshlagan. Birinchi jahon urushi yillarida ham bu tashkilot o'z faoliyatini davom ettirgan edi.

Jismoniy madaniyatda rekreatsion harakatlar rivojlana boshlagan. Rekreatsiya – qayta tiklash, sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish ma'nolarini bildiradi. Jismoniy madaniyatning taraqqiyotida rekreatsion harakat muhim o'rin tutadi.

Rekreatsion jismoniy madaniyat harakatining rivojlanishiga obyektiv sabablar ko'p. Shaharlarning kengayishi, ekologiyaning buzilishi, ishchi va mehnatkashlar ish vaqtining ko'payishi, dam olish hamda hordiq chiqarishga imkoniyatlarning kamayishidir. Yoshlar o'rtasida ichish, chekish, bezorilik va tartibsizlikning o'sishi ham ularga qarshi tadbirlar olib borishni taqozo etdi.

Fan-texnika taraqqiyoti va ba'zi kishilarning turmush sharoiti faol harakat qilishdan orqada qolib ketdi. Natijada, gipodinamiya hollari rivojlana boshladi. Bularning barchasi salomatlikning pasayishi va kasalliklarning ko'payishiga olib kelgan. Ana shu illatlardan saqlanish yo'lida jismoniy tarbiyadan foydalanish ishlari shakllandi. XX asrning 1980-1990-yillarida aholi uchun istirohat bog'lari AQSH, Germaniya, Polsha, Kanada, Fransiya, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda bunyod etilgan edi.

Jismoniy tarbiyaning harbiylashtirilishi va fashistlashtirilishi. Birinchi jahon urushidan keyin kapitalistik mamlakatlarda jismoniy tarbiyani to'g'ridan-to'g'ri keng ko'lamda harbiylashtirish, ayrim mamlakatlarda esa uni fashistlashtirish boshlanib ketgan. Chet

el mamlakatlari o'quv yurtlarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya dasturlari qayta ko'rib chiqilgan edi. Mehnatkashlarning sport tashkilotlariga kirishini yengillashtirdi, ularni korxona egasiga qarashli fabrika-zavod sport klublariga, skaut tashkilotlariga, jismoniy tarbiyaning katolik va xristian uyshmalariga jalb etish ishlarini avj oldirib yubordi. Chet el mamlakatlari sport tashkilotlarida yoshlarni jismoniy jihatdan har tomonlama o'stirish emas, balki ularga harbiy bilimlar, ko'nikma va malakalar berish, o'z g'oyalarini majburan singdirishga uringan.

Germaniyada agressiv doiralar nemis harbiy imkoniyatlarini qayta tiklash rejalarini ilgari sura boshladilar. Ular nemis yoshlarini jismoniy jihatdan baquvvat, «Buyuk Germaniya»ni tiklashni hamda nemis militaristlarining «Germaniya hammadan yuqori» degan chaqirig'ini amalga oshirishni to'la istaydigan qilib tarbiyalashga intildilar. Fashistlar qattiq terror qilish natijasida keksa nemis sport tashkilotlarining qarshiligini yengishga hamda sport harakatini fashistlarga xos tarzda yo'lga solishga muvaffaq bo'ldilar.

Fashistlarning «sport» tarbiyasi «Quvonch tufayli kuch» tashkiloti yonida tuzilgan «mehnat fronti» (fashist kasaba soyuzlari) vositalarida ham amalga oshirildi. 1936-1939-yillarda sportni fashistlashtirish yanada kuchaydi. 1938-yilda ta'sis etilgan Jismoniy mashqlar millatchilik imperiya soyuzida o'z ifodasini topdi. Fashistlar Italiyasida ham jismoniy tarbiya va sport ishlari keng miqyosda harbiylashtirildi va fashistlashtirildi. 1922-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Italiya fashizmining siyosati «Buyuk Italiya»ni tuzish uchun yangi imperialistik urushga tayyorlanishga qaratildi.

Italiyada maktab yoshidagi bolalar hamda yoshlarning jismoniy jihatdan o'sishi va ularga fashistlar tomonidan beriladigan tarbiya ishlariga maorif ministrligining jismoniy tarbiya departamenti va maxsus ijtimoiy tashkilot «Opera natsionale Balilla» rahbarlik qildi. «Balilla» asosan 8-13 yoshlardagi o'g'il bolalarni birlashtirgan. 14-18 yoshdagi o'smirlar «Avangardisti» tashkilotiga kirganlar. 8-13 yoshdagi qizlar «Pikoli italiyane» («Kichik yoshdagi italiyan qizlar»), 14-18 yoshdagi qizlar esa «Djivaniye italiyani» («yosh italiyan qizlar») tashkilotlariga birlashtirilgan.

«Opera natsionale Balilla»ning 93 ta bo'limi bo'lgan. Fashistlar «sekretarlari» rahbarligidagi bu bo'limlarning 4000 ga yaqin mahalliy tashkiloti bor edi. «Balilla» faoliyati davlat tomonidan ajratilgan yirik

mablag‘, kapitalistlar va burjua tashkilotlarining yordami bilan ta’minlandi. «Balilla» tashkilotlarida yengil atletika, qilichbozlik, gimnastika, eshkak eshish va hokazo keng qo‘llaniladi. Shu bilan bir qatorda har bir joyda geografik va iqlim sharoitlariga qarab, maxsus sport turlari: Alpda tog‘ chang‘i sporti, dengiz bo‘yida suzish, yelkan sporti, daryolarda suzish, eshkak eshish, tekislikda ot sporti, hamma joyda sport o‘yinlari (regbi, futbol, basketbol, voleybol), otish, velosiped sporti va sportning motorli turlari ham taraqqiy ettirildi.

Bularda sportning avtomobil, mototsikl, aviatsiya, planer va parashyut turlari, qilichbozlik, kurash, boks, og‘irlik ko‘tarish va gimnastikani taraqqiy ettirishga katta ahamiyat berildi. Italiyada fashistlar armiyasiga rezervlar tayyorlash maqsadida «Opera natsionale dopolivora» nomi bilan juda ko‘p tashkilotlar vujudga keltirildi.

Yaponiyada jismoniy tarbiya va sport ishlarini harbiylashtirish nihoyatda tez sur’atlar bilan olib borilgan. Siyosati yangi bosqinchilik urushiga tayyorlanish vazifalariga bo‘ysundirilgan yapon imperialistlari ana shu maqsadlarda maktab, sport va gimnastika tashkilotlaridan keng foydalanganlar. O‘quv yurtlari va sport tashkilotlari harbiy-jismoniy tarbiyaning, shovinistik va militaristik kayfiyatlarni yoyishga xizmat qiladigan asosiy markazlar bo‘lib qolgan edi. Eng yaxshi komandir va sport kadrlari yetishtirib chiqargan kollej va universitetlarda harbiy-jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari dzyu-do, qilichbozlik, otish, gimnastika, suzish, yengil atletika, voleybol, regbi va boshqa sport turlari bo‘lgan.

Jahonda jismoniy tarbiya va sport rivoji bir xilda bo‘lmagan. G‘arb mamlakatlarida sport bilan shug‘ullanuvchilar ijtimoiy guruhlarining turli yo‘nalishlari vujudga kelgan.

«Sport hamma uchun». 1975-yilda «Sport hamma uchun» Yevropa xartiyasi qabul qilingan, unda jamiyatning dasturi ishlab chiqilgan. «Sport hamma uchun» harakatining umumahamiyatga ega bo‘lgan dasturida yugurish, yurish, aerobika, atletik gimnastika, oddiy musobaqalar uyushtirish, turli xil o‘yinlar, shahardan tashqariga sayohat va sayrlar asosiy mashg‘ulot bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonlar yangi davrda vujudga kelgan rekreatsion harakatning davomi desa bo‘ladi. Bu harakat turli mamlakatlarda har xil nom bilan yuritiladi. Masalan, Norvegiya va Germaniya Federativ Respublikasida «Trimm», [illegible]ada - «Biz sizlarga taqlid qilamiz», AQSHda «Jismoniy faollik» deb nomlanadi.

«Sport hamma uchun» harakati rekreatsion jismoniy mashqlar shaklidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotidir. Bu o'z navbatida, mehnatkashlar ommaviy-jismoniy madaniyatining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

«Sport hamma uchun» harakatini keng targ'ibot qilishga ommaviy axborot vositalari jalb qilindi. Ko'p sonli ishlab chiqarish firmalari, aholining turli xil jismoniy tarbiya vositalariga qiziqishini hisobga olgan holda juda ko'p miqdorda sport buyumlari va kiyimlarini bozorga chiqardi.

Sport va biznes. Tijorat va biznes uchun tadbirkorlar professional sportdan keng foydalanganlar. Ular boks, futbol, xokkey, beysbol, avtosport va boshqa turlarni daromad manbaiga aylantirib yuborgan edilar. Professional sportchilarni sotib olish va sotish kuchayib ketgan. Professional sport ham, havaskorlik sporti ham siyosat bilan uzviy bog'lanib bordi. AQSHda professional sportchilardan prezident va senatorlarni saylashda keng foydalandilar. Turnirlarda siyosiy arboblar professional sportchilar bilan birga chiqadigan bo'ldilar. Urushdan keyingi yillarda jahonda jismoniy tarbiya va sportga monopoliyalar, trestlar, matbuot homiylari, kino va televideniya rahbarlarining qiziqishi ortib bordi.

Urushdan keyingi davrlarda G'arb mamlakatlari sport-gimnastika harakatining nazariy-amaliy faoliyatida sportdagi asosiy tamoyillardan - siyosatdan yiroqlik, insonparvarlik, havaskorlik tamoyillaridan yuz o'girish holatlari paydo bo'lgan. Ya'ni siyosatdan yiroqlashuv, insonparvarlik va havaskorlik yangi yo'nalishlarda davom etdi. Sportda kamsitish, chegaralanishga yo'l qo'yilmaslik g'oyalari rivojlandi. Lekin kamsitish o'rniga siyosiy jihatdan ba'zi mamlakatlarni o'z yo'lidan qaytarishga kirishildi. Bu xalqaro sport maydonlaridagi ba'zi davlatlarni kamsitish, xalqaro ahvolning keskinlashuviga (Vengriyada – 1956, Chexoslovakiyada – 1968 y.) sabab bo'lgan. Bunday holatlar sportdagi gumanizm tamoyillariga ham ta'sir o'tkazgan. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda insonparvarlik g'oyalaridan uzoqlashishning asosiy sabablaridan biri sportchilarning yuqori natijalarni ko'rsatishi uchun doping ishlatilishi, sportga aloqador bo'lmagan turli xil musobaqalarning uyushtirilishi (xotin-qizlar, odamlarning itlar bilan olishuvi va h.k.) sabab bo'lgan.

Havaskorlik harakatining halokatga uchrashi Ikkinchi jahon urushdan keyingi davrlardagi milliy va tashqi sabablar bilan

bog'liqdir. Ichki sabablardan biri shuki, har yili sportda eng yuqori natijalarni ko'rsatish talabi, sportdan keladigan daromadlarni yo'q qilish, bunda ommaviy axborot vositalarini ishga solish kuchaygan edi. Tashqi sabablar esa sportdagi havaskorlikning susayishi, xalqaro sport maydonlarida kuchlar tengligining o'zgarishlari hisoblanadi.

Shu sababdan, havaskorlik sport tamoyillarini saqlash eski yo'lga qaytdi, ya'ni havaskorlik sporti professional sport chegarasi doirasida rivoj topa boshladi. 1984-yilda Los-Anjelesda o'tkazilgan XXIII o'yinlardan boshlab, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) va bir qator sport federatsiyalarining (XSF) ruxsati bilan professional sportchilar Olimpiya o'yinlarida qatnashish huquqini oldilar.

Inqiroz holatlaridan ustun kelish yo'lida sportda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini qo'llash amalga oshirildi. Bu sportdagi yuksak natijalariga erishish yo'llarida ko'mak bo'ldi. AQSH, GFR, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Italiya kabi taraqqiy qilgan yirik mamlakatlarda tibbiyot, fiziologiya, psixologiya sohalarida ilmiy tadqiqot o'tkazildi. Sportga o'rgatish va mashg'ulotlarni tashkil qilish yangi usullari ishlab chiqildi. Ilmiy tadqiqot natijalariga asosan, universitetlar va kollejlarning majmualarida hamda yuqori malakali sportchilarni jalb etish yo'li bilan ilmiy markazlarda katta sinov-tajribalar amalga oshirib borilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda jismoniy tarbiya va sport jahonning barcha mamlakatlarida tezlik bilan rivojlandi.

Sportning rivojlanishi va xalqaro sport uyushmalarini tashkil topishi. Sportni rivojlantirish va xalqaro sport uyushmalarini (XSU) tuzishga bo'lgan intilish xalqaro sport va olimpiya harakatini vujudga kelishining eng muhim sabablaridan biri bo'ldi. Hozirgi davr sporti XX asrlardagi yirik ijtimoiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish jarayonidagi inqiloblar, harbiy ish, ilm-fan, madaniyat va san'atdagi taraqqiyot mahsulidir.

XX asrning ikkinchi yarmida sport o'yinlarining ko'plab zamonaviy turlari yuzaga keldi va rivojlandi. Turli mamlakatlarda sport turlari bo'yicha klublar tashkil etildi, muntazam tarzda musobaqalar o'tkaziladigan bo'ldi, sport inshootlari qurildi. Asta-sekinlik bilan zamonaviy Olimpiya o'yinlarining xalqaro miqyosda o'tkazishiga zamin yaratildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda chet el mamlakatlarida olimpiya sporti keng miqyosda rivojlanib ketdi. Bunga, asosan, ushbu

mamlakatlarda yozgi va qishki sport turlari bo'yicha Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi sabab bo'ldi. Shu asosda Yaponiyada gimnastika, dzyu-do va qishki sport turlari; Kanada va Skandinaviya mamlakatlarida konkida uchish, chang'i sport turlari, xokkey; Fransiya, GFR va Avstraliyada konkida figurali uchish, tog' chang'i sporti; Braziliya, Angliya, GFR, Gollandiya, Italiya, Argentina va boshqa mamlakatlarda futbol rivoj topdi.

Xalqaro sport harakati va olimpiya sportining rivojlanishi. G'arb davlatlarida olimpiya sport turlarini rivojlantirishda bir qator asosiy yo'nalishlar vujudga kelgan. *Birinchidan,* olimpiya sportini rivojlantirishda davlatlarning roli o'sib bordi. *Ikkinchidan,* olimpiya sportiga ta'sir etuvchi monopoliyalar, korporatsiyalar, firmalarning moliyaviy ta'minoti davlat bilan birgalikda amalga oshirildi. *Uchinchidan,* katta sportda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari keng qo'llanila boshladi. *To'rtinchidan,* sportchilarni tayyorlash maqsadida maxsus markazlar, bir necha davlatlar birlashib mashg'ulotlar o'tkazish joylari amalda qo'llanildi. Bunda Oliy o'quv yurtlariaro Milliy assotsiatsiya, Havaskorlik atletika jamiyati, Milliy Olimpiya qo'mitasi faol ishtirok etgan. Uzoq vaqtlar bu uch tashkilot o'rtasida mustahkam aloqa bo'lmagan, chunki o'zaro kelishmovchiliklar kuchli bo'lgan edi. Moliyaviy ta'minot, milliy jamoani tarkib toptirish, Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish, boshqa xalqaro musobaqalarda qatnashish kabi masalalarda o'zaro kelisha olmaganlar. Bunday holatlarni tugatishga AQSHda «Havaskorlik sporti haqida»gi qonunning qabul qilinishi (1978) sabab bo'lgan. Shu qonun asosida AQSH MOQ mamlakatdagi barcha havaskorlik sport uyushmalarini o'ziga birlashtirib olgan. Shu sababdan, barcha masalalarni MOQ hal etadi. AQSHda Olimpiya va Panamerika o'yinlarida jamoalarning qatnashish-qatnashmasligini ham MOQ hal etadi.

AQSH MOQ Olimpiya va Panamerika o'yinlariga jamoalarni tayyorlash, qatnashish va barcha faoliyatlarga rahbarlikni amalga oshiradi. Bunda moddiy-texnik bazani mustahkamlash, sportchilarning mashg'ulotlarini tashkil etish, ilmiy-uslubiy tavsiyalar tarqatish va boshqalar muhim o'rin tutadi. AQSHda olimpiya sportining deyarli barcha turlari mavjud. Ular orasida suzish, velosport, o'q otish, boks, yengil atletika kabi turlar kengroq tarqalgan. Ma'qul bo'lgan sport turlaridan ot sporti va yelkanli sport, golf, qilichbozlik kabilar hisoblanadi. Bu turlar bilan ko'pincha xususiy sport klublari

shug'ullangan edi. Ularga badavlat kishilar a'zo bo'ladilar. Shular qatorida baliq ovi, sayohat, sokker, beysbol va regbi ko'p qo'llanilgan. Amerika terma jamoalarini tayyorlash o'quv mashg'ulot markazlari Kolorado-Springs va Skvo-Vellida o'tkaziladi. Kolorado-Springs sport majmuida bir yo'la 800 sportchi shug'ullanishi mumkin. Olimpiya sportining yuqori natijalarga ko'maklashuvchi masalalarini Agoya, Arizona, Janubiy Kaliforniya universitetlarining laboratoriyalarida o'rganiladi.

Xalqaro sport harakati va Olimpiya o'yinlarining o'tkazilishi yoshlarni sportga jalb etish, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va ularning sport mahoratlarini oshirishda katta rag'batlantiruvchi kuch bo'ldi. Bu jarayonlar AQSH, GFR, Fransiya, Italiya, Skandinaviya mamlakatlari hamda Sharqda Yaponiya, Koreya kabi mamlakatlarda keng rivojlandi.

Germaniya. Nemis sportchilarining xalqaro sport va Olimpiya maydonlariga chiqish yo'li oson kechmadi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining (XOQ) qaroriga binoan Birinchi jahon urushining asosiy sababchisi sifatida Germaniya 1920 y. (Antverpen) va 1924-yilgi (Parij) Olimpiya o'yinlariga qo'yilmadi. Lekin Germaniya hukumati va jamoatchi sport tashkilotlari mamlakatda sportni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalandilar. 1926-yilga kelib, nemis sportchilari og'ir atletika, ot sporti, yengil atletika, yunon-rum kurashi, suv polosi kabi sport turlari bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarni egalladi. 1928-yilda Amsterdamdagi o'yinlarda nemis sportchilari paydo bo'lib, birdaniga yuqori natijalarga erishdi. Ular olgan medallari soniga ko'ra ikkinchi o'rinni egalladi. AQSH sportchilari birinchi o'rinda edi.

1930-yilda Germaniya 1936-yildagi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish huquqiga ega bo'lgan. Shu tariqa XI Olimpiyada Berlinda va IV qishki Olimpiyada o'yinlari Gormish - Partenkirxenda o'tkazilgan. 1933-yilda Gitler mamlakatda fashistik va militaristik tartiblarini o'rnatib, Olimpiya o'yinlari bayrog'i ostida o'zining qabih siyosatidan foydalangan edi. Bunday sharoitda Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga qarshi demokratik kuchlar qanchalik harakat qilmasin, O'yinlar Berlinda tashkil qilingan. Germaniyadagi totalitar tuzum o'zining Yevropadaga «Yangi tartibini» namoyish qilgan.

Germaniya o'z hududida o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida hammadan ko'proq medallar olishga erishgan edi: Germaniya - 89

(33-26-30), AQSH - 56 (24-20-12). Germaniya akademik eshkak eshish (baydarka va kanoe), og'ir atletika, gimnastika, ot sporti, yelkanli sport, boks kabi sport turlarida ustun edi. 1936-yilgi qishki Olimpiyadada tog' chang'isi bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasidagi musobaqalarda Germaniyaga teng keladigan raqiblar ham yo'q edi.

1938-yilda XOQ yana bir katta xatoga yo'l qo'ygan. Ya'ni sportni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun gitlerchilar Germaniyasini «Quvonch orqali kuch» kubogi bilan taqdirlagan edi.

Italiya. Jismoniy tarbiya va sport bu mamlakatda keng doirada taraqqiy etgan. Mussolinining siyosati yangi urushga tayyorgarlik va buyuk Italiyani yaratishga qaratilgan edi. Harbiy-sport ishlari sport klublar, jamiyatlar va uyushmalarda olib borildi. Italiya sport tashkilotlari Milliy Olimpiya qo'mitasi tomonidan boshqarildi va xalqaro sport hayotida faol ishtirok etdi. Italiya sportchilari 1900-yildan boshlab, uzluksiz ravishda Olimpiya o'yinlari, Yevropa chempionatlari hamda boshqa xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etib keldi, Italiyaning futbol bo'yicha terma jamoasi ikki marotaba (1934, 1938 y.y.) chempion bo'lgan. U 1936-yilda Olimpiya oltin medaliga sazovor bo'ldi. Jahon va Yevropa chempionatlarida italiyalik qilichbozlar, velosipedchilar, o'q otuvchilar, tog' chang'ilari, gimnastikachilar va boshqa bir qator sport turlari vakillari g'alabalarni qo'lga kiritdi. Italiya deyarli barcha xalqaro sport uyushmalari tarkibidan o'rin egallagan edi.

Yaponiya. Bu mamlakatda milliy xususiyatlar asosida jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishi yuqori darajada o'sib bordi. O'sha davrlarda Yaponiyaning siyosati Osiyoni bosib olishga qaratilgan edi. Shu maqsadda maktablar va sport-gimnastika tashkilotlaridan unumli foydalanildi. O'quv yurtlari va sport klublari jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning asosiy markaziga aylantirildi. Bo'lajak oddiy harbiylarni tayyorlash boshlang'ich maktablarda amalga oshirildi. Bunda eski milliy jismoniy mashqlar, ya'ni dzyu-do, kamondan o'q otish va hozirgi zamon sport turlari: gimnastika va o'yinlar qo'llanilgan. Kollejlar va universitetlarda harbiy kadrlar tayyorlanib, ularda ham dzyu-do, karate, qilichbozlik, o'q otish, gimnastika, beysbol, regbi, suzish, yengil atletika mashqlaridan maqsadli foydalanilgan. Yaponiyada sumo milliy kurashi keng tarqalgan.

Yaponiya sportchilari xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib keldilar. Ular 1912-yilgi V Olimpiadadan 1936-yildagi XI

Olimpiyadagacha doimiy ravishda ishtirok etgan. 1932-yilgi Olimpiya o'yinlarida (Los-Anjeles) yaponiyaliklar suzish bo'yicha 6 turdan beshtasida g'alabaga erishgan edi. 100 m. masofaga erkin suzish bo'yicha 15 yoshli Ya.Miyazaki birinchi o'rinni egallagan. 1500 m.ga erkin suzish bo'yicha 14 yoshli K.Kitamura g'olib chiqqan edi. U yosh bo'lsa-da, bu masofani 19 daqiqa 12,4 soniyada bosib o'tib, jahon rekordini o'rnatgan. Bu natijani boshqalar faqat 20 yildan keyin o'zgartirishga muvaffaq bo'lgan. Yaponiyalik chavandoz T.Insi o'yinlarda oltin medal sohibi bo'lgan. 1936-yilgi Olimpiadada Yaponiya sportchilari suzish bo'yicha 11 ta medalga ega bo'lib (4-2-5), bu sport turida peshqadam bo'lgan.

Germaniya, Italiya, Yaponiya uchligidagi siyosiy munosabatlar va urush harakatlari bosqinchilik hamda fashistlashish darajasiga ko'ra bir-birini to'ldirgan edi. O'quvchilar va yoshlarni harbiy-jismoniy jihatdan tayyorlash, harbiy xizmatlarning jangovarligini oshirishda sport-gimnastika tashkilotlari davlat hokimiyatiga yaqindan yordam bergan. Xalqaro sport harakati va uning g'oliblariga ma'lum darajada itoat etgan bu davlatlar Olimpiya o'yinlarida ustunlik bilan ishtirok etib keldi. Bunday jihatlar har bir mamlakatdagi sportchi yoshlarning qiziqishlarini rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan.

AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport-gimnastika harakati birmuncha o'zgacha rivojlangan.

AQSH. Urushlar oralig'i davrida AQSHda moliyaviy iqtisodiy holatga katta e'tibor berilib, bu jahonda taraqqiy etgan kapitalistik dunyoni vujudga keltirgan edi. AQSH jahonda hokim bo'lish siyosatini olg'a surgan edi. U boshqa davlatlarga "amerikacha yashash tarzini" targ'ib qila boshlagan. Bu yo'lda sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirok etishi maqsadga qaratilgan tadbirlardan biri bo'ldi.

Yoshlarni tarbiyalashning muhim vazifasi sifatida sportga alohida ahamiyat berilgan va sport tashkilotlari faoliyati qattiq nazoratga olingan. Ko'pgina shtatlardagi maktablarda jismoniy tayyorgarlik haqida qonunlar qabul qilingan edi. Shu qonunlar asosida moliyaviy yordam berish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash, jismoniy tarbiya darslariga ajratilgan vaqtlarni belgilash ko'zda tutilgan. Shu tariqa umumiy tarbiyaning bir bo'lagi sifatida jismoniy tarbiya qonunlashtirildi. 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar

maktablar sport skaut tashkilotlarida jismoniy tarbiyani olgan edilar. Bunda gimnastikaga nisbatan sport o'yinlariga ko'proq e'tibor kuchaytirilgan. Yoshlar kollejlar, universitetlarda ta'lim olib, jismoniy tarbiya bilan sport klublarida shug'ullangan. Amerikada kollejlar va universitetlar asosan sport ishlarining markazi hisoblangan. Amerikaning kollej va universitetlarida ko'proq yengil atletika, suzish, basketbol, eshkak eshish sporti, tennis, beysbol, amerikacha futbol bilan shug'ullanish tashkil qilingan. Oliy o'quv yurtlariaro universitet sportining milliy assotsiatsiyasi yetakchi tashkilot hisoblangan. Bu tashkilot 1906-yilda tuzilgan.

Amerikada havaskorlik sporti harakatida tashkil etilgan atletika uyushmasi asosiy rol o'ynagan. Bu tashkilot Amerikada mavjud bo'lgan barcha sport tashkilotlari ustidan rahbarlik qildi, faqat universitet sporti mustaqil edi. Atletik uyushma boshida yirik moliyaviy va ishlab chiqarish kapitali turar edi. Ikki urush oralig'ida Amerika sport bo'yicha jahondagi eng yirik va kuchli davlatga aylandi. Amerika sportchilari yozgi va qishki Olimpiya o'yinlari, jahon miqyosida o'tkazilgan sport musobaqalarining doimiy qatnashchisi bo'lib qoldi.

Professional sport ancha rivojlanib, bunda turli xil reklamalar, matbuot, radio va keyinchalik televideniyeda uzluksiz targ'ibot olib borish muhim rol o'ynadi. Bu o'z navbatida sport trestlari, kompaniyalar, yirik stadionlar qurish kabi maxsus tijorat ishlab chiqarish sohasini yuzaga keltirgan. Bunday sharoitlarda o'tkazilgan matchlar va tadbirlar tadbirkorlarga ulkan bo'yliklar keltirdi. Amerikada professional sport biznesga aylangan edi.

Fransiya. Yoshlar jismoniy tarbiyasi va sporti Fransiyada o'ziga xos tarzda rivojlanib bordi. 1920-yilda maktab yoshigacha bo'lgan bolalar va maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi haqida qonun qabul qilindi. Harbiy vazirlik o'quv yurtlarda jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi nizomni tasdiqladi. Jismoniy tarbiyaning vosita va usullari asosi uchun Jorj Eberning tabiiy-tayanch gimnastikasi tizimi qayta ishlangan holatda va shvedlar gimnastikasining ba'zi qismlari olingan edi. Ko'p sonli sport klublari va tashkilotlarida Olimpiya o'yinlari turlari, ayniqsa, futbol, tog' chang'isi sporti va figurali uchish kabilar keng rivojlangan edi.

1920-yillar oxiri va 1930-yillar boshida mamlakatda faol dam olish jarayonida sportdan foydalanishga katta e'tibor berilgan. Bunda

rekreatsion sport keng rivolangan. 1936-yilda sport ishlari va faol dam olish davlat boshqarmasi tashkil etilishi bilan rekreatsion sport o'z maqomiga ega bo'lgan. Parijda ikki marotaba yozgi Olimpiya o'yinlari o'tkazildi. 1924-yil Shamoni shahrida I qishki Olimpiya o'yinlari tashkil etilgan.

Rossiya. 1951-yil 7-mayda Venadagi XOQning sessiyasida Sovet mamlakati Milliy Olimpiya qo'mitasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan tan olingan. 1952-yil Xelsinkida (Finlyandiya) sovet sportchilari ilk bor Olimpiya o'yinlarida qatnashgan. Shu davrdan boshlab sovet sportchilari Xalqaro sport va olimpiya o'yinlarining eng faol ishtirokchilariga aylangan edi. 1980-yilda XXII yozgi Olimpiya o'yinlari Rossiyaning markazi Moskvada o'tkazilgan. Bu o'yinlar sotsialistik tizimdagi barcha mamlakatlar uchun birinchi bo'lgan. O'sha vaqtdagi siyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, harbiy tahdid haqidagi turli xil uydirmalarning ortib borishi sovetlar va AQSH o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtirgan edi. AQSH hukumatining Moskvadagi Olimpiya o'yinlariga boykot qilishiga olib kelgan. Shu sababli, AQSH va bir qator boshqa davlatlarning sportchilari o'yinlarda qatnashmagan.

1984-yil Los-Anjelesda (AQSH) o'tkazilgan XXIII Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari ishtirok etmagan, chunki yuqorida qayd etilgan siyosiy tahdidlar, AQSH sportchilarining Moskvadagi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etmaganligiga javob tariqasida shunday xulosalarga kelingan edi. 1988-yil yozgi XXIV Olimpiya o'yinlari Seulda (Janubiy Koreya) tashkil etilgan. Sovet va AQSH sportchilari jahondagi eng kuchli sportchilarning raqobati yana davom etdi. 1992-yil Barselona (Ispaniya) shahrida XXV Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Bunda sobiq sovet sportchilari so'nggi bor uyushgan terma jamoa sifatida o'yinlarda ishtirok etgan. Keyingi davrlardagi Olimpiya o'yinlarida Rossiya va sobiq respublikalar mustaqil ravishda ishtirok etgan.

Xulosalar

➢Eng yangi davrda insonning qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan jismoniy tarbiya taraqqiy etgan.

➢Eng yangi davrda jismoniy tarbiyaning yangi fazifalari – madaniy, ijtimoiy, psixologik, sog'lomlashtirish funksiyalari paydo bo'lgan.

➢XX asr o'rtalarida jismoniy tarbiyaning ikki yo'nalishlari – gimnastika va sport o'yinlari integratsiyalashgan.

➢Eng yangi davrda zamonaviy sportning rivojlanishida ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari va tijorat shou-biznesining ta'siri oshdi.

Nazorat savollari:

XX asr oxirida chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotining xususiyatlari nimalardan iborat?

Ikkinchi jahon urushidan keyin jismoniy tarbiya va sport sohasida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?

Chet el mamlakatlarida "jismoniy tarbiya" atamasi qanday ifodalanadi?

Xalqaro sport va olimpiya harakatining ahamiyati nimalardan iborat?

Jismoniy tarbiyaning harbiylashtirilishi va fashistlashtirilishi qachon va nima sababdan boshlangan?

Chet el mamlakatlarida sport va biznes sohalarida qanday munosabatlar mavjud?

Chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport qanday yo'nalishlarda rivojlanadi?

I BOB. MAVZULARI BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi fani nimani o'rganadi?

a) turli tarixiy bosqichlarda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini;
b) qadimgi zamondan hozirgi davrgacha sportning taraqqiyotini;
c) O'zbekiston jismoniy tarbiya va sportining rivojlanishini;
d) zamonaviy sport rivojlanishining yo'nalishlarini.

2. Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi nechta davrga bo'lingan?

a) 4 **b)** 3 **c)** 2 **d)** 5

3. Jismoniy tarbiya va sport tarixining asosiy manbalari?

a) jismoniy tarbiya va sportga oid ashyoviy va yozma manbalar;
b) tasviriy sa'nat asarlari;
c) hukumat qarorlari, qonun va farmonlar;
d) arxeologik topilmalar.

4. Qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

a) jismoniy tarbiyaning mehnat, turmush tarzi va marosimlar bilan bog'liqligi;
b) ov qilish qurollari, ovchilikni takomillashtirish;
c) jismoniy mashqlar, o'yinlar va raqslarning vujudga kelishi;
d) harakat ko'nikmalarni o'rgatish tajribasini avloddan-avlodga o'tkazish.

5. Ibtidoiy jamoa tuzumida jismoniy tarbiya kelib chiqishning sabablari?

a) mehnat, ongni rivojlanishi, harakatlarga tabiiy ehtiyoj;
b) harbiy jismoniy tayyorgarlik;
c) yosh avlodni tarbiyalash;
d) kuch sinashish musobaqalari.

6. Qadimgi davrda jismoniy tarbiya paydo bo'lishining asosiy omillari?

a) obyektiv, suybektiv, biologik;
b) iqtisodiy, ijtimoiy, suybyektiv;
c) biologik, ijtimoiy, diniy;
d) obyektiv, suybyektiv, ijtimoiy.

7. Qadimgi davrda dastlabki o'yinlar qanday xarakterga ega bo'lgan?

a) naturalistik; b) ramziy; c) ommaviy; d) milliy.

8. Jismoniy mashqlar qanday omillar ta'sirida paydo bo'lgan?

a) geografik muhit va iqlim sharoitlari;
b) raqs mashqlari;
c) harbiy raqslar;
d) diniy qarashlar.

9. Qadimgi Gretsiya gimnastikasining asosiy bo'limlarini ayting.

a) palestrika, orxestrika, o'yinlar;
b) pentatlon, pankration, o'yinlar;
c) pankration, palestrika;
d) agonistika, gimnastika.

10. Pankration qanday jismoniy mashqlardan iborat bo'lgan?

a) kurash, qo'l jangi; b) yugurish, sakrash, kurash;
c) qo'l jangi, o'yinlar; d) kurash, disk uloqtirish.

11. Sparta va Afina tarbiya tizimlari qaysi davlatda tashkil etilgan?

a) Qadimgi Gretsiyada; b) Qadimgi Rimda;
c) Qadimgi Sharq davlatlarida; d) G'arbiy Yevropada.

12. Sparta ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi?

a) harbiy-jismoniy tarbiya; b) aqliy tarbiya;
c) axloqiy tarbiya; d) estetik tarbiya.

13. Gladiatorlar jangi qachon taqiqlangan?
a) 404 y. **b)** 400 y. **c)** 394 y. **d)** 390 y.

14. Pentatlon qanday mashqlardan iborat?
a) yugurish, sakrash, nayza va disk uloqtirish, kurash;
b) kurash, qo'l jangi, yugurish, sakrash;
c) yugurish, gimnastika, o'yinlar;
d) kurash, sakrash, yugurish, kamondan o'q otish.

15. Qadimgi Rimda professional armiya qachon paydo bo'lgan?
a) miloddan avval II asrda; **b)** milodiy IV asrda;
c) miloddan avval III asrda; **d)** miloddan avval VI asrda.

16. Qadimgi Sharq mamlakatlarida zodagonlar qanday jismoniy mashqlar bilan shug'ullangan?
a) otda yurish, qilichbozlik, kamondan o'q otish;
b) nayza va disk uloqtirish, akrobatika;
c) otda yurish, tosh ko'tarish, kurash;
d) kurash, qo'l jangi, yugurish.

17. O'rta asrlar davrida Osiyo va Afrika xalqlarining jismoniy tarbiyasi qanday xarakterga ega bo'lgan?
a) an'anaviy; **b)** madaniy; **c)** milliy; **d)** atletik.

18. Feodallarning harbiy-jismoniy tayyorgarligi qanday shakllardan iborat bo'lgan?
a) ritsarlar turniri; **b)** gladiatorlar jangi;
c) pankration; **d)** pentatlon.

19. Yevropada shaharliklarning ilk birlashmalari qanday nomlangan?
a) o'q otish va qilichbozlik birodarliklari;
b) o'q otish va qilichbozlik maktablari;
c) sport va o'q otish birodarliklari;
d) zodagonlar klublari.

20. VI asrda Xitoyda qanday mashqlar tez rivojlangan edi?
a) ushu; **b)** kunfu; **c)** karate; **d)** taekvondo.

21. Hindistonda qanday jismoniy mashqlar keng tarqalgan edi?
a) xatxa-yoga; **b)** ushu; **c)** sumo; **d)** kendo.
Ritsarlar nechta fazilatga ega bo'lishi shart edi?
a) 7 **b)** 8 **c)** 5 **d)** 10

22. «Ritsarlarning fazilatlari» nimalardan iborat?
a) otda yurish, qilichbozlik, suzish, ov qilish, kamon otish, shaxmat o'ynash, she'r to'qish;
b) qilichbozlik, kamondan o'q otish, kurash, harakatli o'yinlar;
c) kurash, nayzabozlik, suzish, otda yurish, tennis, shaxmat o'ynash;
d) suzish, yugurish, sakrash, ov qilish, harakatli o'yinlar, raqs tushish.

23. Ritsarlarning ommaviy turnirlari qanday nomlangan?
a) buxurd; **b)** jut; **c)** tyost; **d)** jyo de pom.

24. Ritsarlarning tarbiya tizimi qanday xarakterga ega bo'lgan?
a) harbiy-amaliy; **b)** tarbiviy; **c)** ommaviy; **d)** kasbiy.

25. Ritsarlar tarbiya tizimi qachon va nima sababdan barham topgan?
a) XIV asrda, porox va o'q otar miltiqlar ixtiro qilinishi,
b) XVI asrda, sport musobaqalari o'tkazilishi
c) XVII asrda, sport turlari rivojlanishi
d) XIX asrda, fan va texnika rivojlanishi.

26. Ritsarlarning yakkama-yakka turnirlari qanday nomlangan?
a) jut, tyost; **b)** buxurd; **c)** jyo de pom; **d)** kunfu.

27. Fransua Rable qaysi asarida jismoniy tarbiya haqida yozgan.
a) «Buyuk didaktika»;
b) «Gargantyua va Pantagryuel»;
c) «Tarbiya to'g'risida fikrlar»;
d) «Elementar gimnastika».

28. Shvetsiya gimnastikasi nechta guruhlarga bo'lingan?
a) 4 b) 6 c) 7 d) 8

29. O'rta asrlar davrida tennis qanday nomlangan?
a) jyo de pom; b) laun-tennis; c) jiu-jitsu; d) sull.

30. Gumanizm so'zining ma'nosi nima?
a) insonparvarlik; b) xalqparvarlik;
c) vatanparvarlik; d) mehnatsevarlik.

31. Gumanistik g'oyalar ilk bor qaysi davlatda shakllangan?
a) Italiya; b) Fransiya;
c) Angliya; d) Rossiya.

32. Merkurialis qanday mashqlarni inkor etgan?
a) atletik; b) harbiy; c) davolash; d) zaruriy.

33. O'rta asr ilk gumanistlaridan biri kim bo'lgan?
a) Vittorino da Feltre; b) Jon Lokk;
c) Jan-Jak Russo; d) Tomas Arnold.

34. Iyeronim Merkurialis mashqlarni qanday guruhlarga ajratgan?
a) haqiqiy, harbiy, soxta; b) hayotiy, atletik, oddiy;
c) oddiy, zaruriy, sodda; d) oddiy, murakkab.

35. Iogann Genrix Pestalotstsi mashqlarni qanday guruhlarga ajratgan?
a) elementar va murakkab; b) murakkab;
c) oddiy va og'ir; d) gimnastika.

36. Yangi davrda milliy gimnastika tizimlarining asosiy maqsadi nimadan iborat bo'lgan?
a) yoshlarning harbiy jismoniy tayyorgarligini oshirish;
b) sport musobaqalarini uyushtirish;
c) yangi sport anjomlaridan foydalanish;
d) sport sohasida tajribalar almashish.

37. Filantropin maktablarida o'quvchilar qanday guruhlarga bo'lingan?

a) akademist, pedagogist, famulyant;
b) akademist, pedagogist;
c) realist, kadet;
d) famulyant, kadet, student.

38. Yangi davrda JTvaS sohasida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?

a) jismoniy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari yaratildi;
b) sport tadbirlari o'tkazildi;
c) milliy o'yinlar rivojlandi;
d) an'anaviy musobaqalar tashkil qilindi.

39. Jon Lokk qanday nazariya yaratgan?

a) jentlmenlar sporti; b) professonal sporti;
c) ritsarlar tarbiyasi; d) gladiatorlar tarbiyasi.

40. Shvetsiya gimnastikasining asoschisi kim bo'lgan?

a) Per Ling; b) Fridrix Yan;
c) Frantsisko Amoros; d) Tomas Mor.

41. Yangi davrda qaysi davlatlarda milliy gimnastika tizimlari rivojlangan?

a) Germaniya, Shvetsiya, Fransiya;
b) Belgiya, Shvetsiya, Fransiya;
c) Germaniya, AQSH, Angliya;
d) Avstriya, Italiya, Gollandiya.

42. Zamonaviy futbol nechanchi yilda paydo bo'lgan?

a) 1863 y. b) 1855 y. c) 1891 y. d) 1912 y.

43. Yangi davrda milliy gimnastika tizimlarining ahamiyati?

a) jismoniy tarbiya sohasi tajribalarini umumlashtirish;
b) yoshlarning harbiy jismoniy tayyorgarligini oshirish;
c) yangi sport jihozlaridan foydalanish;
d) yuqori natijalarga erishish.

44. Qaysi davlatlarda sport o'yinlari tizimi rivojlangan?

a) Angliya, AQSH; **b)** Germaniya, AQSH;
c) Italiya, Rossiya; **d)** Shvetsiya, Fransiya.

45. Yangi davrda sport o'yinlari tizimining asoschisi kim bo'lgan?

a) Tomas Arnold; **b)** Gerbert Spenser;
c) Pyotr Lesgaft; **d)** Fridrix Nitsshe.

46. Yevropada skautlar harakatining asoschisi kim bo'lgan?

a) Robert Baden-Pauel; **b)** Tomas Arnold;
c) Adolf Shpiss; **d)** Georg Demeni.

47. Rus olimi P.F.Lesgaft qanday nazariyani yaratgan?

a) maktabgacha tarbiya nazariyasi;
b) maktab uchun jismoniy tarbiya vositalari;
c) jismoniy tayyorgarlik tizimi;
d) harbiy tayyorgarlik.

48. «Fair play» so'zlari nima ma'noni anglatadi?

a) haqqoniy o'yin; **b)** ko'rgazmali o'yin;
c) milliy o'yin; **d)** oddiy o'yin.

49. Ikkinchi jahon urushidan keyin jismoniy tarbiya va sport sohasida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?

a) Jismoniy tarbiyaning ikki qarama-qarshi yo'nalishi paydo bo'lgan;
b) SSSR va AQSH orasida «sovuq urush» boshlangan;
c) mustamlaka tuzumi inqirozga uchragan;
d) xalqaro sport harakati vujudga kelgan.

50. Chet el mamlakatlarida "jismoniy tarbiya" atamasi qanday ifodalanadi?

a) physical education; **b)** physical recreation;
c) sport; **d)** fitness.

II BOB. O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA OLIMPIYA HARAKATI

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi. Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsadlari, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi»,[6]- deb yangi tariximizga yo'l ochib bergan edilar.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda jismoniy tarbiya, sport va olimpiya harakati taraqqiyotini o'rganadi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi quyidagi davrlar bo'yicha o'rganiladi:

- Qadimgi davr va o'rta asrlar davrida jismoniy tarbiya (miloddan avvalgi VIII ming yillik – milodiy XVI asr);
- Markaziy Osiyoga zamonaviy sportning kirib kelishi davri (XIX asrning oxiri- XX asrning boshlari);
- sobiq Ittifoq davrida jismoniy tarbiya va sport (XX asr);
- O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya, sport va olimpiya harakati (XX asr oxiri - hozirgi kungacha).

5-§. Markaziy Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda jismoniy tarbiya

Markaziy Osiyo xalqlari dunyoning eng qadimiy tarixga ega bo'lgan xalqlari qatoriga kiradi. Markaziy Osiyo hududida yashagan ajdodlarimiz yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirgan.

---

[6] Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.- 97 b.

O‘zbekiston xalqlari madaniyati tarixi turli manbalarda o‘z ifodasini topgan. Ularning mazmuni umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jismoniy madaniyat bilan bog‘liqdir. Qadimgi ajdodlar taraqqiyot jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘lanib kelgan.

Qadimgi ajdodlarimizning jismoniy madaniyatini va uning rivojlanish tarixini turli ijtimoiy tuzumlar davridagi madaniyat, ma’rifat, tarixiy voqealar, urf-odatlar, an’analar bilan birgalikda o‘rganish lozim.

Qadimgi ajdodlarimizning madaniyati, jumladan jismoniy madaniyatini o‘rganishda quyidagi asosiy manbalarga tayanish mumkin:

- arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyoviy dadillar;
- xalq og‘zaki ijodi - qadimgi afsonalar, rivoyatlar, xalq ertaklaridan olingan ma’lumotlar;
- buyuk mutafakkirlar, allomalarning ijodiy merosi, qo‘lyozmalari;
- qadimgi yozma manbalar, tarixiy kitoblar.

Tarixiy manbalarga qaraganda, bundan 150-140 ming yil avval o‘rta paleolitda Muz davri bo‘lgan. Odamlar yashash uchun tabiat bilan kurashganlar. Toshlardan qurol yasashni takomillashtirib, yirik hayvonlarni va baliq ovlash keng tarqalgan. Olov chiqarish vositalarini ixtiro qilib, yashash uchun g‘or, yer to‘la, chayla va boshqa boshpanalardan foydalanishgan. Bu jarayonlar esa barchaning jismonan baquvvat, epchil, kuchli, chaqqon bo‘lishini talab etgan.

Ilmiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, Teshiktosh (Surxondaryo), Afrosiyob (Samarqand), Xo‘jakent, Obirahmat (Toshkent viloyati), Farg‘ona vodiysidagi makonlar va boshqa joylarda topilgan turli ashyoviy dalillar o‘rganilgan.

Tadqiqotlarning natijalariga qaraganda, yuqorida nomlari qayd qilingan hududlarda odamlar turli qurollardan foydalanib hayvonlarni ovlaganlar. Jismoniy chiniqish va o‘ljani qo‘lga kiritish uchun turli murakkab harakatlarni bajarishga to‘g‘ri kelgan. Shu sababli bolalarni ham bunday faoliyatlarga tayyorlaganlar. Natijada, jismoniy tarbiyaning ayrim namunalari (sakrash, yugurish, kurashish, uloqtirish, suzish va h.k) yuzaga kelgan.

Yuqori paleolit davri miloddan oldingi 40 ming yillikdan 12 ming yillikka qadar davom etgan. Bu davrda Markaziy Osiyoda iqlim quruq, o‘zgarib turuvchi bo‘lgan. Sovuq iqlim sharoitida yashagan

hayvonlar-serjun karkidonlar, yovvoyi otlar, kiyiklar va boshqalar paydo bo'lgan. Hayvonlarni ovlashga ixtisoslashuv o'sha davr odamlarining yashash manbalariga aylangan.

Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi oqimidagi qator ko'llarda baliqchilik bilan shug'ullanish, ularning o'troq holda yashashiga sabab bo'lgan. Markaziy Osiyoning nihoyatda boy ovchi va baliqchi jamoalari yodgorliklari ichida Markaziy Farg'onaning neolit yodgorliklari - Zambar, Taynoq, Yangiqadam, Madiyor, Sariqsuv, Ming buloq kabilar ajralib turadi. Ibtidoiy podadan yuqori paleolitga o'tilishi bilan ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va odam qiyofasida o'zgarishlar paydo bo'lgan. Bu davrga kelib, mehnat qurollari ancha takomillashgan, suyak va shoxdan yasalgan buyumlar yasaganlar. Toshlarga hayvonlarni rasmini chizganlar.

So'nggi paleolit davrining yutuqlaridan biri – nayzaning ixtiro qilinishi bo'lgan. Nayza tufayli ovchilik rivojlangan, tirik hayvonlarni birgalashib ovlash keng tarqalgan. Nayzani ushlash, uni mo'ljalga olib, uzoqqa uloqtirish kabi mashqlar, hayvonlarni ovlash, ularni quvib yetish yetarli darajada chaqqonlik va chidamlilikni talab etadi. Bu natijalarga erishish uchun maxsus tayyorgarliklar, ularni o'rgatuvchilar, tarbiyachilar bo'lgan. Shu sababdan, oilalarda bolalarni maxsus tayyorgarlik va jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlari olib borilgan. Oilada bolalarni tarbiyalashda tabiiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, suvda suzish va h.k.) va turli harakatli o'yinlar eng asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Bolalarning yoshi, jismoniy rivojlanish holatlarini hisobga olgan holda, ularni guruhlarga ajratib, o'yinlar va jismoniy mashqlarga o'rgatish vujudga kelgan. Kichik yoshdagi bolalarga turli harakatli o'yinlarni o'rgatishdan boshlangan. O'rta yoshdagi bolalarga chaqqonlik, chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar, to'siqli yugurishlar qo'llanilgan. Katta yoshdagi bolalarga esa tez yugurish, kuch sinashish, kurash, mushtlashish, tosh ko'tarish, daraxtlarga tirmashib chiqish, suvda tez suzish, nayza sanchish kabi murakkab o'yinlar, mashqlar o'rgatilgan.

Eng qadimgi davrda yashagan ajdodlarimizning dastlabki urf-odatlari, an'anaviy marosimlari, ommaviy tadbirlari, kundalik turmush tarzi qadimgi afsonalar, rivoyatlar, xalq ertaklarida o'z aksini topgan. Bu rivoyatlar, afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi. «Avesto»,

«Alpomish», «Go'ro'g'li», «Qirqqiz», «Manas», «To'maris» kabi tarixiy manbalarda qadimgi davrda jismoniy tarbiya vositalarining - turli o'yinlar, otda yurish, kurash, kamondan o'q otish va boshqa mashqlarning qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bor.

Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-madaniy turmushi haqida ma'lumotlarga oid daliliy ashyolar ko'p uchraydi. Ularning eng muhimlari Toshkent, Samarqand, Termiz va boshqa shaharlardagi tarix, arxeologiya va san'at muzeylarida saqlanmoqda. Toshlarga chizilgan rasmlarda kishilarning ov qilishdagi shakl va harakatlari, ov qurollari, hayvonlar aks ettirilib, ularning tarixi ham bir necha o'n ming yillik davrlarni o'z ichiga oladi.

Ajdodlarimizning ijtimoiy hayotida turli xil jismoniy mashqlar, o'yinlar ko'p qo'llanilgan. Ular asosan ijtimoiy mehnat va tarbiya jarayonida keng qo'llanilgan. Tarixiy manbalarga qaraganda mamlakatimizda yashab, hayot kechirgan ilk ajdodlarimiz bundan 40 ming yillar avvalgi davrga to'g'ri keladi. Ular haqida Surxondaryoning Dalvarzintepa, Teshiktosh, Samarqandning Afrosiyob, Toshkent viloyatining Sirdaryo sohillari va boshqa joylarda o'tkazilgan arxeologik topilmalar guvohlik beradi.

Qadimgi yunon va sharq manbalarida, xususan «Avesto», «Alpomish», «Shohnoma» va boshqa manbalarda madaniyat markazlar sifatida Sug'diyona, Xorazm, Parkana, Baqtriya podsholigining katta qismi aynan respublikamiz mintaqalariga to'g'ri keladi.

Miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda Markaziy Osiyoda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya kabi yirik quldorlik davlatlari paydo bo'lgan. Ular Rim va Gretsiyadagi quldorlik tuzumidan o'ziga xos ravishda anchagina farq qilgan. Markaziy Osiyodagi davlatlarda ishlab chiqarish yuqori darajada bo'lmaganligi uchun asosan dehqonchilik, chorvachilik va mayda hunarmandchilik asosida qullar majburiy ishlatilgan.

Miloddan avvalgi 481 (480) – 431 (425)-yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning tarbiyaviy qarashlari, jumladan jismoniy tarbiyaga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Saklar, massagetlar va forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlik bo'lgan. Saklar dunyodagi barcha merganlar orasida o'qni zoye ketkazmaydigan juda mohir merganlar sifatida shuhrat qozongan edilar.

Gerodotning ma'lumotlaridan ko'ra, bizning ajdodlarimiz farzandlarini jasoratli, o'z vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir etib tarbiyalashga katta e'tibor berganlar. Qadimgi saklar o'g'il va qiz bolalarga bir xil jismoniy tarbiya berganlar. Ularning jismoniy tarbiyasi 5 yoshdan boshlangan va 20 yoshgacha uch narsaga: otda yurish, kamondan otish va kurash tushishga o'rgatilgan. Sak va xorazmiylarning ayollari harbiy yurishlar va janglarda qatnashgan, matonatda ular erkak jangchilardan qolishmagan. Sak ayollari, xuddi qochib ketayotgandek, ayyorlik bilan ot ustida erkaklardek orqaga burilib o'q uzar edilar. Yunon tarixchisi Diodor ham miloddan avvalgi I asrda saklar haqida: "Bu qabilaning ayollari mard bo'ladilar va urush xatarlarini erkaklar bilan baham ko'radilar",[7] deb yozib qoldirgan.

Qadimgi davrlarda ta'lim-tarbiyaga oid ma'lumotlarni xalq og'zaki ijodi namunalari – afsonalar, qahramonlik dostonlari, qo'shiqlar, maqol va iboralardan ham olish mumkin.

Xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashtirilgan. Ayniqsa, tarixiy shaxslar bilan bog'liq rivoyatlar buning dalilidir. Ularda muayyan shaxs faoliyati, qahramonliklari ulug'langan. Dostonlarda xotin-qizlarning aql-idroki, jasorati, erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko'satganliklari ifodalangan.

Tarixdan ma'lumki, dastlab Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar Turon, chap qirg'og'idagi yerlar esa Eron, deb yuritilgan. Miloddan oldin ahamoniylar saklar va massagetlarning yerlariga hujum qilib turgan. Eron shohi Kir sak va massagetlarga qarshi urushib 529-yilda mag'lubiyatga uchragan.

Gerodotning «Tarix» kitobida massagetlar malikasi To'marisning Eron shohi Kir bilan olib borgan jang voqealari tasvirlangan. Jangda To'maris g'olib chiqib, Kirning boshini olib, qon bilan to'ldirilgan meshga solib: «Sen umr bo'yi qonga to'ymading. O'z ontim bo'yicha seni qon bilan sug'ordim», deydi. O'sha davrlarda To'maris kabi ayollardan sarkardalar chiqqan va janglarda har tomonlama kuch ko'rsatgan.

Polienning "Harbiy hiylalar" asarida saklarga qarshi Doroning bosqinchilik yurishi to'g'risida ma'lumotlar bor. Bu asarda saklar

---

[7] Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. Darslik. T.:"Aloqachi", 2008.- 480 b.

qahramoni Shiroqning vatanparvarligi va jasorati ibrat sifatida ko'rsatilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumi, madaniyati haqidagi ma'lumotlar Xitoy manbalarida ham uchraydi. Miloddan avvalgi 138-yilda Markaziy Osiyoga kelgan Xitoy elchisi Syuan Tzyan o'zining "Tarixiy bitiklar" kitobida qiziqarli ma'lumotlar qoldirgan. Xitoy tarixchisi Syuan Tzyan Samarqand aholisining xulq-odob va axloqiy qoidalarga rioya etishda boshqalarga o'rnak bo'lganligini aytib o'tgan. Bu ma'lumotlar qadimda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarga va hunarga o'rgatilganligi, ta'limdan maqsad – bolalarni hayotga tayyorlash ekanligi haqida ma'lumot bergan.[8]

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari, qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, tarbiya jismoniy tarbiya va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar xalqimizning buyuk ma'naviy boyligidir. Xalqimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, "Avesto" deb atalgan bebaho ma'naviy boylik alohida o'rin tutadi. "Avesto"ning tub mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin.[9]

Eng qadimgi yozma manbalardan biri zardushtiylik dinining muqaddas kitobi **"Avesto"** hisoblanadi. Zardushtiylik ta'limotida ta'lim-tarbiya quyidagi bo'limlardan iborat bo'lgan:

- ma'naviy va diniy tarbiya;
- jismoniy va mehnat tarbiyasi;
- aqliy va axloqiy tarbiya.

"Avesto" bo'yicha bolalarga 5 yoshdan savod o'rgata boshlaydilar; o'qishni o'rganishi bilan savdo ishlariga o'rgata boshlaydilar. Zardusht ta'limotida 15 yosh balog'at yoshi sanalgan. Bu yoshda ularga davlat qonunlari, axloqiy qoidalar o'rgatilgan.

---

[8] Boynazarov F. Qadimgi dunyo tarixi. Darslik. T.:"Aloqachi", 2008.- 480 b.
[9] Karimov I.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.- 31 b.

Zardushtiylikning axloqiy qoidalariga binoan insonning o'z burchini his etishining eng birinchi belgisi ma'naviy poklik hisoblangan.

"Avesto"da insonning barkamol bo'lib yetishida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amallar birligiga katta e'tibor berilgan. Qadimgi ajdodlarimiz insonda juda qadrlaydigan xislatlar jasurlik, adolat, sadoqat, insoniylik bo'lgan. Bu xislatlar o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik-qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan.

Ikkita katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insondagi bu xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.

Qadimgi ajdodlar ijtimoiy turmush madaniyati, ayniqsa, sihat-salomatlik, jismonan chiniqish, mehnat hamda uzoq umr ko'rib yashash uchun yaratgan ta'lim-tarbiya jarayonlari «Avesto»da chuqur ma'no va o'rin egallagan.

Markaziy Osiyoni Eron Ahamoniylari, keyinchalik (miloddan avval 329-327-yillarda) Aleksandr Makedonskiy bosib olib, o'zlarining madaniyati, dini va ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish usullarini o'rnatganlar. O'sha davrlarda Markaziy Osiyo hududida yashagan xalqlar bosqinchilarga qarshi qo'zg'olonlar ko'targan, jiddiy kurashlar olib borgan. Bunday hollarda askarlar va xalqning asosiy jangovorlik qurollari kamondan o'q otish, nayza bilan sanchish, qilichbozlik, turli xil vositalar (to'qmoq, kaltak, bolta, pichoq va h.k.) bo'lgan. Jangchilarning ma'lum qismi otda yurishgan. Bu holat jangchidan ot ustida turib barcha qurol vositalari bilan jang qilish, otni choptira bilish hamda boshqa imkoniyatlardan o'ta ustalik bilan foydalanishni talab etgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Aleksandr Makedonskiy miloddan avvalgi 334-yilda 30000 piyoda va 5000 otliq askar bilan kichik Osiyoga, keyin Markaziy Osiyoga jangovar yurish qilgan. 327-yilda hozirgi Buxoro, Samarqand, Panjikent atrofidagi yerlarni bosib olgan. Bunda lashkarboshi Spitamen bosqinchilarga katta qarshilik ko'rsatgan. Lekin uning xotini xoinlik qilib, Spitamenning boshini kesib, Aleksandr Makedonskiyga topshiradi. Podshoh bu bevafo xotinni hamda 120 ming aholini ham qirib tashlagan, chunki uning ta'biri bo'yicha eriga, eliga vafolik qilmagan ayol boshqalarga ham vafodor bo'lmaydi.

Kushonlar davri Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston xalqlari tarixida va butun dunyo madaniyatining taraqqiyotida alohida o'rin egallagan. Markaziy Osiyodan qadimgi Ipak yo'li o'tganligi bu yerdagi xalqlarning madaniy hayotida katta burulishlarga sabab bo'lgan. Sharq mamlakatlari bilan G'arb davlatlari o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalarni o'rnatgan. Termiz yaqinidagi Ayritom, Xorazmdagi Tuproqqal'a va boshqa joylardan topilgan buyumlar, sopolga chizilgan rasmlarda qadimgi kurash, nayza uloqtirish, qilichbozlik, otda jang qilish kabi tadbirlar aks ettirilgan.

Xalq og'zaki ijodining noyob asarlaridan biri «Alpomish» dostoni avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik asaridir. Bu asarda xalqimizning matonat, mardlik, sadoqat kabi ezgu fazilatlari o'z ifodasini topgan. Asarda ajdodlarimizning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q-yoy – hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yetti yoshida o'n to'rt botmon birichdan – bronzadan yasalgan yoydan o'q otib, "alp" degan unvonga ega bo'ladi.[10]

«Alpomish» dostonining ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki, bundan bir necha ming yillar oldin mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, ayniqsa, yigit va qizlarning bir-biriga vafodorligi, jismoniy jihatdan barkamolligi, dushmanlarga shafqatsiz kurashlari odilona bayon etilgan. «Alpomish» dostonida kamondan o'q otish, merganlik, kurash, otda poyga kabi jismoniy sifatlar, vatanparvar va xalq uchun jonini ham fido qilish kabi eng ulug' insoniy fazilatlar madh etilgan.

Qadimgi ajdodlar jismoniy madaniyati xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, ko'proq ifodalangan. Dostonlarning tarbiyaviy jihatlari shundaki, xalq irodasi, an'analar, urf-odatlar mazmunida otda chopish, jang qilish, qilichbozlik, kurash, kamondan o'q otish kabi jismoniy faoliyatlar yuqori saviyada madh etilgan. Bunda mardlik dushmanlar bilan jang qilgan yigit va qizlar timsoli tasvirlangan.

Xalq og'zaki dostonlarida shuningdek xalq irodasi, yigit-qizlarning muhabbati, sadoqat, jasurlik, botirlik, pahlavonlik, mohir chavandozlik va merganlik kabi sifatlar o'z ifodasini topgan.

Qadimgi ajdodlar jismoniy tarbiyasida xalq milliy o'yinlari bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, ularning tarkibida raqslar, qo'shiqlar va boshqa san'at turlari ancha ustun turgan. Bunday o'yinlarning

---

[10] Karimov I.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.- 34 b.

deyarli barchasi ommaviy bayramlar, musobaqalar va to'ylarda keng qo'llanilgan. Qadimgi manbalar Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) daryolari o'rtasidagi vodiyda ot musobaqalari keng tarqalganidan guvohlik beradi. Nafaqat harbiy yurishlar, balki savdo-sotiq maqsadlari uchun ham chiniqqan chavandozlar va otlar kerak bo'lgan. Bu esa ot musobaqalarining ommalashib ketishiga sabab bo'lgan. So'g'diyona va Baqtriyada kurash, ot poygasi, uloq, dorbozlik juda ommalashgan edi.

O'zbek xalq o'yinlari va milliy jismoniy mashqlarini quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- kamondan o'q otish; qilichbozlik;
- kurash (buxorocha, farg'onacha, xorazmcha usullar);
- ot o'yinlari (poyga, olomon poyga, ko'pkari, uloq va h.k.);
- kuch sinashish (arqon tortishish, tosh, ot, tuya ko'tarish, buqa ag'darish);
- dorboz o'yinlari (dor ustidagi mashqlar);
- harakatli o'yinlar;
- yugurish musobaqalari (batba);
- ov qilish (o'rgatilgan qushlar bilan – lochin, burgut va h.k).

O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlarning turmush sharoitlarida, o'z vatanlarini himoya qilishda jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish kabi madaniy va jangovorlik faoliyatlari alohida o'rin tutadi. Bu davrda yashagan xalqlar o'rtasida o'z hududlarida osoyishtalikni ta'minlash, Vatanini himoya qilish uchun harbiy-jismoniy tayyorgarlik vositalaridan, turli an'anaviy jismoniy mashqlardan keng foydalanganlar.

O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlar jismoniy tarbiyasining umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- qadimgi ajdodlarimiz jismoniy tarbiyasi mehnat, harbiy ishlar, turmush tarzi, diniy marosimlar va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan.
- jismoniy tarbiya va jismoniy sifatlarga o'rgatish jarayoni an'anaviy mashqlardan iborat bo'lgan.
- jismoniy tarbiya va turli milliy o'yinlar orqali qadimgi ajdodlarimizning yuksak jismoniy, ruhiy va ma'naviy fazilatlari tarbiyalangan.

O‘rta asrlar davrida Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiya

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq mamlakat tarixini qayta yoritish va barcha voqeliklarni ochiq-oydin ko‘rsatish asosiy vazifalardan biri qilib qo‘yildi. Ma’lumki, Vatanimiz jahon madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar, buyuk olimlar, mohir sarkarda va davlat arboblari bilan mashhurdir. Milliy madaniyat taraqqiyotida O‘zbekiston dunyo davlatlari, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zining geografik va tabiiy qulayliklariga ko‘ra qadimdan insoniyat tarixining ilg‘or madaniy markazlaridan joy olib kelgan.

VII asr boshlarida Arab xalifaligi tashkil topib, uning tarkibiga butun Arabiston yarim oroli, Eron, Kavkaz orti, Suriya, Shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya kiritilgan. VII asr o‘rtalariga kelib esa arab bosqinchilari tomonidan Markaziy Osiyo yerlari ham zabt etilgan edi. Arablarga qarshi mahalliy xalqlar uzoq yillar davomida urush olib borganlar. Lekin arablar bu yerlarni to‘la istilo qilib, o‘z dini va madaniyatini o‘rnatish, Markaziy Osiyo xalqlarini Islom diniga bo‘ysunishiga erishgan edilar.

Arab xalifaligining amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy islohotlari, yagona islom dinining tarkib topishi madaniy, ma’naviy hayotga ham ta’sir etgan. Islom qadriyatlari xalq ma’naviy hayotining uzviy qismi sifatida uning turmush tarzidan, xatti-harakatidan munosib o‘rin olgan edi. Islom dinida musulmonlar jismni toza tutish, dam olish, bolalarni yoshlikdan odobli bo‘lishga o‘rgatishga da’vat qilindi. Lekin ayollarning erkinligi, ochiq yuz bilan yurishi, avvalgidek erkaklar bilan birgalikda teng mehnat qilishi, kurash, ot o‘yinlarida bellashuvi taqiqlangan edi.

VII-VIII asrlarda Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma’naviy ko‘tarilish – «Sharq Renessansi» – Uyg‘onish davrini boshlab berdi. Xalifa Xorun ar-Rashid (786-833) va uning o‘g‘li Ma’mun davrida Bag‘dodda “Baytul hikma” (Donishmandlik uyi) Akademiyasi tashkil etilgan. Butun Sharqda bo‘lgani kabi Movarounnahrda ham ilm-fan va ma’rifat sohasida o‘z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar ijod qilganlar.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850). Jahon ilm-ma'rifatining buyuk namoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783-yilda Xorazmda dunyoga kelib, 847-850-yillar oralig'ida Bag'dodda vafot etgan.

Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. «Al kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala» asarida («Aljabr va al hisobi haqida qisqacha kitob») sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar, ularni yechish yo'llarini bayon etgan. Risola uch qismdan iborat bo'lib, birinchisi – algebraik qism, uning oxirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo'lim keltirilgan. Ikkinchisi – geometrik qism algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida, uchinchi qism – vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb nomlagan va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlagan.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga va olgan bilimlaridan foydalanishiga katta e'tibor bergan. Bunda ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatilganlarni tushuntira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishiga katta baho bergan. Xorazmiy bilim berishning ko'rgazmali tajriba usullari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash usullaridan foydalangan.

Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, «mantiqiy» bayon, bilish esa haqiqiy, bilishning muhim tomonini namoyon etadi. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shgan. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov usullariga asos solgan, samoviy jismlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida, matematik masalalarni algoritm usulida yechishni ishlab chiqqan. U matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zaruriyati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari natijasida yuzaga kelishini asoslagan.

Abu Nasr Forobiy (873-950). O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega.

Mashhur yunon faylasufi Arastudan so'ng Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimi soniy» - «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy (to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) Shosh-Toshkentga

yaqin Forob degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobiy Bag'dodda matematika, mantiq, tibbiyot, musiqa, tabiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug'ullandi, turli tillarni o'rgandi. Ba'zi manbalarda Forobiy 70 dan ortiq tilni bilganligi haqida aytilgan. Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso-al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz erisha olmaydi, boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deb hisoblagan. Bunga Forobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, degan. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolotga yetkazadi. Inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi. Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat degan.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim – insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya – nazariy fazilatlarni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan axloq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deb ta'kidlagan.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi, degan. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, degan.

Insonning kamolotga yetishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy tavsiya etgan ta'lim va tarbiya usullari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida yashagan va ijod qilgan. Abu Rayhon Beruniy Xorazmning Qiyot shahrida dunyoga kelgan. Beruniy xorazm tili bilan birga so'g'diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili – sanskritni ham o'rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiya sohalari bo'yicha ham chuqur bilimga ega bo'lgan.

Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami» («Mineralogiya»), «Dorivor o'simliklar haqida kitob» («Kitob as-saydona fi-t-tibb») kabi asarlarni yozgan. Bu asarlar Beruniy nomini Yevropada, Yaqin va O'rta Sharqqa mashhur qilgan.

Milliy tariximizning yorqin namoyandalaridan biri Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berib, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni "Beruniy asri" deb ta'riflagan.[11]

Beruniyning asarlarida, o'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mazvularni qiziqarli, ko'rgazmali bayon etish kabi jihatlarga e'tibor berish kerakligi uqtiriladi[12].

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

Abu Rayhon Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o'rnini ta'kidlashini uning yuqorida qayd etilgan «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Kitob as-saydona», «Al-Qonuni al-Mas'udiy» va boshqa asarlarida ko'rish mumkin.

Beruniy fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi, degan. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi:

---

[11] Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.- 42 b.

[12] To'raqulov E. Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida T.:1992. – 40-73 b.

irsiyat, muhit, tarbiya. Bu hozirgi davr pedagogikasida ham e'tirof etilgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037). Jahon tibbiyot fanining buyuk olimlaridan biri Ibn Sino falsafa, adabiyot, musiqa va boshqa ko'p sohalarni mukammal bilgan donishmanddir. Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari beqiyos ko'p. Mutafakkir olimning 30 dan ortiq tibbiy asarlari shu kungacha yetib kelgan.

Abu Ali ibn Sinoning eng mashhur asari **«Tib qonunlari»** bo'lib, alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asar boshqa xalqlar tillariga tarjima qilishgan. «Tib qonunlari» o'zbek tilida ilk bor 1153-yilda, keyinchalik (1956, 1980, 1993) bir necha bor qayta nashr etilgan.

Respublika hukumati va jamoat tashkilotlarining tashabbusi bilan 1980-yilda Buxoroda Abu Ali ibn Sinoning tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan katta ilmiy anjuman o'tkazilgan. Bunda Ibn Sinoning asarlarida ta'lim-tarbiya va jismoniy tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilganligi ta'kidlangan. Muallifning asarlarida jismoniy tarbiyaning mohiyati, jismoniy mashqlarga oid ilg'or fikrlari va amaliy mashqlar mazmuni uchraydi.

Ibn Sino jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni hamda uning mohiyatlarini gigiyena, sog'liqni saqlash va kasalni davolashdagi majmuiy tadbirlarda berib borgan.

Ibn Sino ilk bor har bir insonning jismoniy mashqlar bilan qachon va qaysi tartibda shug'ullanishini belgilab beruvchi ta'limni, ya'ni jismoniy mashqlarning tasnifini yaratib bergan. Ibn Sinoning fikricha, «Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri - badantarbiyadir».

«Tib qonunlari» kitobning birinchi qismi inson salomatligini saqlash va uni rivojlantirishga bag'ishlangan. Kitobda inson tanasi va uning a'zolari, insonni shakllantirish hamda uning kamolotida yuz beradigan anatomik tuzilishlar, fiziologik va ruhiy jarayonlarning holati, kasalliklarning kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan bayon qilingan.

Ibn Sino o'z asarlarida jismoniy mashqlar kishining yoshiga, jinsiga, sog'lig'i, salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va uslublarda o'tkazish kerakligi haqidagi tavsiyalari juda muhimdir. Ibn Sino faoliyati va tajribalari asosida bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik davrlarida kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatda bo'lishi kerakligi masalalari bo'yicha alohida ko'rsatmalar bergan. Bu

ilmiy-pedagogik ta'lim merosi jahon xalqlari jismoniy madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Ibn Sino «Badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakat», deb ta'rif bergan. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi ingichka og'riq (a'zolarning torayishi) kasaliga uchraydi, chunki harakatsizlik natijasida uning a'zolari zaiflashadi. U badantarbiya turlarini asosan ikki guruhga ajratgan: 1) odamning ish jarayonlarida qiladigan harakatlari; 2) maxsus badantarbiya harakatlari.

Buyuk olim badantarbiya deganda, asosan maxsus badantarbiya harakatlarini nazarda tutgan. Badantarbiya turlari juda ko'p bo'lib, ular tez, nozik, yengil, kuchli va kuchsiz guruhlarga ajratib bergan.

Ibn Sino badantarbiyaning tez bajariladigan turlariga tortishish, mushtlashish, kamondan o'q otish, tez yurish, nayza otish, osilish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik, nayzabozlik va otda yurishni kiritgan. Badantarbiyaning yengil va nozik turiga arg'imchoq uchish, belanchakda tik yoki yotib uchish, qayiq va kemalarda sayr qilish va boshqa harakatlarni kiritgan. Badantarbiyaning kuchli turiga esa kishining o'z soyasi bilan olishishi, katta va kichik koptoklar bilan chavgon o'ynash, kurash, tosh ko'tarish, chopayotgan otni jilovidan tortib to'xtatish kabi mashqlarni kiritgan.

Ibn Sinoning tavsiyasiga ko'ra badantarbiya vaqtida tez va shiddatli harakatlar, yengillari bilan doim almashtirib turish, ma'lum bir harakatni uzoq vaqt bajarmaslik uslublari ko'rsatilgan. Turli kasalliklarni davolashda ruhiy ozuqa berish, xursandchilik yo'llarini, ya'ni turli xil sayrlar, sayohatlar, kemalarda suzish, tabiat manzaralaridan bahramand bo'lish omillarini ishlatishni tavsiya etgan.

Ibn Sino har bir a'zoning kasalini tuzatish uchun maxsus harakatlar - jismoniy mashqlarni tavsiya etgan. Bunda uqalash mashqlarini ham ko'zda tutib, ularni quyidagi turlarga bo'lgan: gavdani baquvvat qiluvchi kuchli uqalash; gavdani yumshatuvchi kuchsiz uqalash; ozdiruvchi davomli uqalash; gavdani o'stiruvchi mo'tadil uqalash. Shuningdek, uqalashni dag'al yoki yengil usullarga ajratgan. Dag'al uqalash dag'al latta bilan amalga oshiriladi. Yengil uqalashni yengil mato bilan bajariladi. Uqalashlar asosan bo'shashgan a'zolarni zichlatish, yumshoqlarini qotirish, dag'alini mayin qilish va qattiqlarini yumshatish maqsadida bajarilishini aytib o'tgan.

Bundan tashqari, badantarbiya bilan bog'liq uqalashlar to'g'risida ham ta'lim bergan: 1) badantarbiyaga tayyorlovchi uqalash; 2) badantarbiyadan keyin qilinadigan uqalash. Uqalash mashqlarining qon aylanish tizimini tezlatish, nafas olishni yaxshilash, hazm qilish a'zolarining ish faoliyatlarini to'g'ri yo'lga solishda muhim ahamiyat kasb etishi allomaning ilmiy-amaliy ta'limida to'la mazmun topgan. Ibn Sino salomatlikni saqlashda dam olish, uyqu va me'yorida ovqatlanish hayotiy zaruriyatligini eng asosiy omillardan deb bilgan.[13]

Ibn Sinoning badantarbiya haqidagi ta'limida eng asosiy o'rinlardan birida kurash turlari turadi. Kurashning turlari bir nechadir. Ulardan biri: ikki kurashuvchining har biri o'z raqibining belbog'idan ushlab tortadi, shu bilan birga kurashuvchi o'z raqibidan qutilishning chorasini qiladi. Ikkinchisi esa qo'yib yubormaslikka harakat qiladi. Boshqa turi: ikki kurashuvchidan biri ikkala qo'li bilan ikkinchisini mahkam quchoqlab o'ziga tortadi va yonga ag'daradi, bu vaqtda birinchi kurashuvchining o'ng qo'li ostidan o'tishi kerak, kurashuvchilar goh qadlarini tiklab, goh egiladilar, kurash turlari yana ko'krak bilan zarbani qaytarish, ikkinchi bir kishining bo'ynidan ushlab egish, bir-birovlarining oyoqlarini o'z oyoqlari bilan chalkashtirib, chalib yoki oyoqlari bilan ikkinchisining oyoqlarini yirib qilinadigan va polvonlar ishlatadigan harakatlar ham kiradi.[14]

Ibn Sino inson salomatligini jismoniy tarbiya vositalari bilan yaxshilash va uni kamolotga yetkazishda gavdaning har bir qismi uchun maxsus harakatlar borligini aniq misollarda ko'rsatib bergan. Qo'l va oyoq harakatlari, ko'krak va nafas a'zolarining hamda boshqa barcha a'zolarning tabiiy harakatlarini ishga soluvchi mashqlar majmuasini o'z asarlarida mujassamlashtirgan. Bunda tovush-og'iz bo'shlig'idagi barcha a'zolarni harakatlantirish, baland-past ovoz chiqarish, tilni chiqarish, tortish, burash, tuflash kabi mashqlarni bergan. Ichki a'zolarni ishga tushirish mashqlariga qayiqlarda, arg'imchoqda uchish, belanchakda tebratish, aravalarda yurish va boshqa mashqlarni tavsiya etgan.

Bundan tashqari, Ibn Sino asarlarida jismoniy tarbiyaning eng muhim vositalari sifatida hammomda cho'milish, sovuq suvda cho'milish, suv va ichimliklarni iste'mol qilish, ovqatlanish, uyqu va

---

[13] Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. (3 jildlik saylanma). Jild 1.– T.: 1992. – 70-115 b.
[14] O'sha kitob, – T.: 1992. – 92 b.

dam olish tartiblari ham joy olgan. Shunindek, u o'z asarlarida keksalik davridagi jismoniy tarbiya va umuman safar vaqtlarida fasllarga qarab harakat qilish asoslarini ham ko'rsatgan.

Abu Ali ibn Sino sog'liqni saqlash uchun doimiy ravishda uchta asosiy tamoyillarga rioya qilishni tavsiya etgan: jismoniy tarbiya (badantarbiya), ovqatlanish tartibi, uyqu tartibi.

Ibn Sinoning jismoniy tarbiya sohalaridagi ilmiy-pedagogik ta'limotini chuqur o'rganish, uni insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy turmush sharoitlariga qarab qo'llash usullarini hozirgi davrda ham ahamiyatga ega. Buning uchun jismoniy tarbiya ta'limini aholi orasida keng targ'ib qilish, uning insonlar salomatligini yaxshilash hamda jismoniy kamolotga erishish mohiyatlarini barcha kishilar ongiga singdirish lozim.

Mashhur alloma Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani, dunyo miqyosida "Meditsina", "Sog'lom turmush tarzi" degan tushunchalarning fundamental asosi bo'lib xizmat qilgani chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega.[15]

Amir Temur (1336-1405) – buyuk davlat va siyosiy arbob, yirik markazlashgan davlat asoschisi, sarkarda. Turon davlatining rivoj topishi va madaniyatning taraqqiy etishida Sohibqiron Amir Temurning faoliyati muhim tarixiy ahamiyatga ega. Sobiq Ittifoq davrida Amir Temurning ijobiy xislatlari va amalga oshirgan tadbirlari tilga olinmagan yoki soxtalashtirilgan, aksincha, u josus, bosqinchi, mustamlakachi, deb tavsiflangan. Biroq Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi yirik mamlakatlarda Amir Temur haqida tarixiy dalillar asosida uning ijobiy fazilatlari ta'riflab berilgan.

O'zbekiston mustaqilligi tufayli Sohibqiron Amir Temurning haqiqiy faoliyati to'g'risida xalqimizga to'la ma'lumotlar berildi va uning nomi oqlandi. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan xalqaro anjumanlar va tadbirlar o'tkazildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurga bag'ishlab katta xiyobonlar barpo etildi va uning haykallari o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan

---

[15] Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.- 43 b.

tantanada so'zlagan nutqida uning mohiyatini ochib bergan edi: «Bugun bunyod etilgan bobokalonimiz haykalida teran ramz bor – go'yoki jahongir tulporining jilovini tortib turibdi, qilichsiz qo'lini oldinga cho'zib, jahon xalqlariga omonlik sog'inmoqda, «Kuch - adolatdadir» demoqda».

Amir Temur hayoti va faoliyatiga mansub manbalar juda ko'p. Buyuk davlat arbobi Amir Temur o'z saltanatini idora qilganligi va jahon xalqlariga Islom dini ma'rifatini yoyish haqida amalga oshirgan faoliyatlarini **«Temur tuzuklari»** kitobida bayon qilib bergan. «Temur tuzuklari» ilk bor rus tiliga tarjima qilinib, (1894, 1934) Markaziy Osiyo xalqlariga ham yetib kelgan. U qayta nashr etilmaganligi uchun deyarli sobiq Ittifoq davrida Amir Temur to'g'risida bironta ijobiy baho beruvchi kitob bo'lmagan.

«Temur tuzuklari»da qo'shin va askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarlik masalalariga bag'ishlangan alohida boblari mavjud bo'lib, bunda piyoda va otda jang qilish, qilichbozlik va nayzabozlik, jangchining harbiy va jismoniy jihatdan tayyorgarligi, eng baland tog'li joylardan o'tish, daryolardan o'tish va h.k. haqida batafsil bayon qilingan. O'sha davrlardagi piyoda, otda yurish hamda jang qilish jarayonlari juda murakkab bo'lgan. Bir necha kunlab tinmay piyoda yurish, qilich, nayza, to'qmoq, xanjar va boshqa qurol-aslahalarni ishlatish, dushmanni yengishda oyoq-qo'l, gavda kuchlari, epchillik, tezlik, xushyorlikni talab etgan. Fursat kelganda raqibi bilan yakkama-yakka kurashib, uni yiqitish, taslim qilish uchun qanchadan-qancha amaliy kuch, mahorat, ustomonlik, jasurlik kerak bo'lgan.

Amir Temur qo'shinining harbiy tayyorgarlik tadbirlarini joriy qilgan:

- tashkiliy tayyorgarlik (qo'shinda qattiq intizom);
- g'oyaviy tayyorgarlik;
- harbiy-jismoniy tayyorgarlik;
- qo'shinning harbiy-texnik ta'minoti.

Amir Temur tomonidan o'z qo'shiniga askarlarni tanlab olishning asosiy tamoyillari bo'yicha yigitlardan qilichbozlik va chavandozlik mahorati, kuch sifatlari, kurash mahorati, aql va fahm-farosat fazilatlari talab etilgan.

Amir Temurning shaxsiy fazilatlari, harbiy va jangovarlik mahorati ibrat-namuna bo'lgan. Amir Temur o'zining amirlari, vazirlari, mingboshi, yuzboshi, o'nboshi va askar yigitlariga ko'p

mashqlarni o'zi o'rgatgan, shogirdlar tayyorlagan. Otda jang qilishda qilich, nayza, kamon-yoy, to'qmoq, kaltak, qamchi, arqon va hokazolardan foydalangan. Bu qurollar bilan jang qilish mahoratiga barcha askarlar mukammal ega bo'lishi shart bo'lgan. Har bir jangchi kuchli, epchil, jasur, mergan bo'lgan. Jangchilar yakkama-yakka ot ustida olishuv, tortishuv, ag'darish kabi harakatlardan ham foydalanganlar. Bu faoliyatlarni ham Amir Temur va uning maxsus sarkardalari jangchilarga o'rgatganlar.

Amir Temur dam olish vaqtlarini ov qilish, sahro va tog'larga sayr qilish bilan o'tkazgan. Bunday hollarda otda va piyoda tog'larga chiqish, arqon, tayoqlardan foydalanish usullarini o'ylab topgan. Jangchilarga dam olish bergan paytlarda ularni poyga, kurash, qilichbozlik, ko'pkari kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga da'vat etgan. Shaharlardagi qal'alarni egallashda narvon, arqondan osilib chiqish, tushish usullaridan keng foydalangan. B.Ahmedov «Amir Temur» tarixiy romanida tog'dagi yurish va janglar haqida shunday yozgan: «Hammayoq yaxmalak edi. Shuning uchun ba'zilar arqon, narvon vositasida, arqoni yo'qlar sirpanib daraga tushdilar. Hazrat Sohibqiron maxsus o'zi uchun yasalgan bir yuz ellik gazlik cho'p narvon yordamida daraga tushdi... ertasi kuni quyosh tig' urmasdan, yana bir tog' cho'qqisiga ko'tarildilar. Yana ikki kun shu tariqa kechdi». Daryolardan o'tganda esa suzish, qayiqlarni boshqarish, tezkor va katta daryolardan kechib o'tishda havo to'ldirilgan meshlar yordamida keng joylardan suzib o'tish usullaridan foydalanganlar. Amir Temur jangovorlik faoliyatida manzilga to'g'ri yo'l topib borish, yo'lda quyosh, oy, yulduzlardan foydalanishni yaxshi bilgan. Amir Temur faoliyatida harbiy-jismoniy mashqlardan foydalanishda eng ustuvor tadbirlardan biri bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) – Temuriylar orasida davlatni idora qilish, madaniy-ma'rifiy jihatdan tarixda katta o'rin egallagan. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300-yildan ortiqroq hukm surgan. Boburning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi, Farg'ona davlatining hokimi bo'lgan.

Bobur yoshligidan ilm-fanga, she'riyatga qiziqqan, dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» (Sher) taxallusini olgan. Otasining vafotidan keyin (1494 y.) 12 yoshida taxtga o'tirgan. Qisqa qilib aytganda, u taxt uchun bo'lgan kurashlarda mag'lubiyatga

uchrab, o'z yaqinlari va askarlari bilan Afg'oniston, Hindistonga yurish qilib, bir umr o'sha yerda hukmronlik qilgan.

Bobur o'z hayoti, zamonasi va barcha voqealarni **«Boburnoma»** asarda yozib qoldirilgan. Unda Hindikush tog'laridan otda uzoq mamlakatlarga o'tgani, tog'u-toshlarda chiniqish uchun yalangoyoq yurgani, kuch-g'ayrat to'plab jang qilgani haqida hikoya qilgan.

Buyuk sarkardalar Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va undan keyingi davrdagi hokimlar o'z jangchilarini jang qilish san'atini o'rgatish bilan birgalikda, askarlarni jismonan kuchli, epchil, chaqqon, chidamli bo'lishiga, ularni jangovorlik ruhida tarbiyalashga e'tibor berganlar. Buyuk sarkardalarning yoshlarni harbiy va jismoniy tayyorlashdagi amaliy faoliyatlarini o'rganish bugungi kunda juda dolzarb masalalar qatoriga kiritilgan. Xalqimizning jismoniy madaniyati mazmun jihatdan ijtimoiy-tarbiyaviy sohada o'ziga xos milliy xususiyatlar bilan boyib kelgan. Ularning tarixiy yo'nalishlari va ilmiy-nazariy jihatlarini mukammal o'rganish bugunning dolzarb muammolaridan biridir.

Xulosalar

➢ Qadimgi davrda Markaziy Osiyo va O'zbekiston hududida yashsgsn xalqlarning jismoniy tarbiyasi boshqa mamlakatlardagi kabi umumiy qonuniyatlar asosida rivojlangan, lekin o'ziga xos milliy, an'anaviy xususiyatlarga ega bo'lgan.

➢ Qadimgi Xorazm, Baqtriya, Sog'd, Parfiya davlatlarida jismoniy tarbiya harbiy xarakterga ega bo'lgan.

➢ O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyoda xalqlari Sharq Renessansining ikki bosqichini bosib o'tgan.

➢ O'rta asrlar davri buyuk mutafakkirlari tomonidan ta'lim-tarbiya, jismoniy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan.

Nazorat savollari:

Markaziy Osiyodagi arxeologik topilmalar asosida jismoniy tarbiyaga oid qanday xulosalar qilingan?

Markaziy Osiyo xalqlari jismoniy tarbiyasiga oid qadimgi yozma manbalarda qanday ma'lumotlar bor?

Qadimgi Markaziy Osiyo hududida qanday jismoniy mashqlar keng tarqalgan edi?

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari qanday an'anaviy jismoniy tarbiya vosatalaridan foydalangan?

Sharqning buyuk alloma va mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida qanday fikrlarni bildirganlar?

Xorazmiy ta'limda qanday usullardan foydalanishni tavsiya etgan?

Abu Nasr Forobiy sog'lom bo'lish uchun nimani tavsiya qilgan?

Abu Rayhon Beruniy qanday tarbiyani birgalikda berishni tavsiya qilgan?

Abu Ali ibn Sino salomatlikni saqlashda nimalarni eng asosiy omillar deb bilgan? Amir Temur askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarliklarida qanday mashqlardan foydalangan?

6-§. Markaziy Osiyo va O'zbekistonga zamonaviy sportning kirib kelishi (XIX asr oxiri – XX asrning boshlari)

Tarixiy manbalardan ma'lumki, XVI asrdan – XIX asrning birinchi yarmigacha Markaziy Osiyo hududi uchta xonlikka bo'lingan edi: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari. O'zbek xonliklaridagi ijtimoiy va davlat tuzumi feodal tuzumdan iborat edi. Bu davlatlarning boshqaruv shakli feodal monarxiyadan iborat bo'lgan.

XVII asrdan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrda Turkiston zamini siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikka yuz tutgan edi. Uch xonlikka bo'linib ketgan mintaqa uzoq muddat o'zaro ziddiyat va qarama-qarshiliklar, urushlar girdobida qolib ketgan. Bunday siyosiy vaziyat nafaqat iqtosodiy, moliyaviy va harbiy salohiyat nuqtayi nazaridan, balki ijtimoiy-ma'naviy fikr rivojida ham ko'p salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan. [16]

XVIII-XIX asrlarda xonliklarda harbiy qo'shinlar muntazam armiya tariqasida bo'lmasdan, balki asosan otliq navkarlardan iborat edi. Navkarlar xon xizmatkorlarining alohida toifasi bo'lib, soliqlardan ozod qilinganlar va urush boshlanib qolgan taqdirda butun

[16] Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2008.- 50 b.

qurol-yaroqlari va o'zlarining jangovar otlari bilan kelib, viloyat hokimi yoki bekning qo'l ostida to'planishga majbur edilar.

Buxoro amirligida davlat boshqaruvi va harbiy qo'shin. Xonlikda hokimiyat huquqi chegaralanmagan amirlar ixtiyorida bo'lgan. Jamiyat hayoti shariat qonunlariga asoslangan holda shakllantirilgan edi. Xonlikda shayxulislom katta mavqega ega bo'lgan. U eng yirik ruhoniy va sud ishlarining sardori hisoblanib, jamiyatning ma'naviy hayotini boshqargan. Undan keyingi o'rinda qozikalon (oliy sud) turgan. Shuningdek, qo'shin uchun alohida qozi tayinlangan.

Xonlikdagi qo'shin tuzilishiga doir ayrim ma'lumotlarga ko'ra, u asosan otliqlardan tashkil topib, markaz, o'ng va chap qanotlarga bo'lingan. Markaz harbiy qismining oldingi safida bayroqdor jangchilar turgan. Rus manbalarining ko'rsatishicha, xonlik qo'shinida misdan 13 ta kichkina to'p, yetarli darajada porox bo'lgan. XVIII asrning oxirgi choragiga doir ma'lumotlarga qaraganda, xon 10 ming kishi atrofida qo'shin to'plash imkoniga ega edi. XIX asrning boshlarida cho'yandan yasalgan to'plardan foydalanilgan.

XIX asrning boshlarida yollanma askarlarning soni 19 ming kishiga borib, turli shahar va harbiy istehkomlarda harbiy xizmatni o'taganlar.[17]

XIX asrning o'rtalarida harbiy qismlarning soni ancha oshib, to'plardan va miltiqlardan foydalanish nisbatan kuchayib bordi. Qo'shinda askarlarning soniga qarab yuzboshi va mingboshi singari harbiy lavozimlar mavjud edi.

Umumiy qo'mondonlikni lashkarboshi ado etgan. Harbiy sarkardalarga qilgan xizmatlari uchun tanho yer tomorqalari tortiq qilingan, oddiy navkarlarga esa xizmatlari evaziga har yili bug'doy, kiyim-kechak va bir oz pul berilgan. Navkarlarning oti o'lib qolsa xazina hisobidan unga boshqa ot berilgan.

Navkarlarning bir oz qismidagina pilta miltiqlar bo'lib, ko'pchiligi nayza va qilichlar bilan qurollangan edi. Hatto, XIX asrning boshlarida ham kamon o'qlar keng tarqalgan edi. Ba'zi navkarlarning temir yoki charm qalqonlari bo'lib, ular sovut kiyib olishardi.

---

[17] *Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.* T.: 1998.- 18 b.

XIX asrning boshlarida Buxoro amirligida 3600 ga yaqin navkar bo'lgan. Bu navkarlarning bir qismi professional jangchilar bo'lib, otish va nayza uloqtirishda mohir mergan bo'lganlar. Ular Buxoroning o'zida turar edilar.

Buxoroda muntazam qo'shinlar faqat XIX asrning 30-yillarida paydo bo'ldi va ular sarbozlar deb atalardi. 2 ming nafar sarbozlar o'ziga xos kalta, qizil forma mundir kiyib yurar, nayzali miltiq va to'pponchalar bilan qurollangan edilar. Sarbozlar oddiy xalq orasidan tanlab olinar edi. Har yili ularga harbiy yurish va qurolni ishlatish usullari o'rgatilardi. Sarbozlar qo'shini XIX asrning o'rtalarida 80 ga yaqin to'p bilan qurollangan va amirning asosiy kuchi hisoblangan. Sarbozlar shahar tashqarisida, qishloqda oilalari bilan birga yashar va xizmatdan bo'sh vaqtlarida o'z xo'jaliklari bilan shug'ullanardilar. Urush vaqtida qamal va boshqa ishlarni bajarish uchun dehqonlardan yordamchi lashkarlar – qoracherik olinar edi. Bu majburiyat dehqonlar uchun juda og'ir edi.

Madaniy hayotda ham ancha ishlar qilingan. Xon saroyida nodir asarlarni o'z ichiga olgan kutubxonaning bo'lishi diqqatga sazovordir. Misol tariqasida Abdulazizxon va Abdullaxonning kutubxonalarini ko'rsatish mumkin. Bu ilm-ma'rifat dargohida mohir xattotlar va musavvirlar ishlab nodir asarlarni tayyorlash va bezashga alohida ahamiyat berilgan. Adabiyot, tarix va boshqa fanlar sohasida qimmatli asarlar yaratilganligi ma'lum.

Xiva xonligida davlat boshqaruvi va harbiy qo'shin. Xonlik taxtida eng ko'p o'tirgan xonlardan biri Sayid Muhammad Rahim II (1865-1910) bo'ldi. Xonlikda davlat tuzilishi Buxoronikidan deyarli farq qilmagan. Xon huquqi chegaralanmagan holda davlatni boshqargan. Undan keyingi eng nufuzli lavozim vazir yoki qushbegi hisoblanib, soliqlarni to'plash va umuman xonning barcha topshiriqlarini bajarish bilan shug'ullangan. Shaharlarni hokimlar va ularning yordamchilari bo'lmish yuzboshilar va oqsoqollar idora qilganlar. Xonlik hayotida shayxulislom (oxun) va mufti salmoqli o'rin egallagan.

Xonlikning qo'shini asosan otliqlardan iborat bo'lib, unga lashkarboshi qo'mondonlik qilgan. Xiva xonligida otliq qo'shin bilan bir qatorda piyoda qo'shini ham bor edi, lekin otliq qo'shinlar piyoda qo'shinlarga qaraganda 8-9 baravar ko'p edi. Xiva xonligida 13 mingdan ko'proq otliq navkarlari bor edi. Navkarlarga qilgan

xizmatlari evaziga suvli yerlar berilib, ular soliqlardan ozod qilinar edilar. Askarlar tinchlik paytlarida dehqonchilik va boshqa kasblar bilan shug'ullanganlar. Bunday askarlikka yozilgan kishilar soni XIX asrning 30-yillarida 40 ming kishiga borgan. Askarlik xizmatidagilar soliqlardan va jamoa ishlaridan ozod etilib, har bir kishi yurishda qatnashganligi uchun 5 oltin tanga olgan. Xonning xohishiga ko'ra o'zini ko'rsatgan harbiy lavozimdagilar 10, 20, 50,100 va undan ko'proq miqdorda oltin tanga olishgan. Biylarga 50 tangadan 100 tangagacha, yuzboshilarga 10 tangadan 20 tangagacha maosh tayinlangan.

Xon saroyida yaxshi qurollangan 1000 kishi xizmat qilgan. Qo'shinning asosiy qismi qilich, o'q-yoy va nayza bilan qurollangan. Oz miqdorda pilta miltiq va to'plar bor edi. Unda o'zbeklar bilan bir qatorda turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar xizmat qilgan. Xiva xonligining qo'shini harbiy texnika jihatdan ancha orqada edi.

Xonlikda madrasalar qurishga katta e'tibor qaratilgan. 14 madrasa bunyod etilgan. Mingdan ortiq masjidlar din va xalq xizmatida edi. Maktablarda ham hayot qaynagan. Madrasalarning ko'pligi savodxonlikning ancha yuqori darajada bo'lganligidan darak beradi. Xonlikda san'at sohasida ham olg'a siljishlar yuz berganligi haqida ma'lumotlar bor. Bu davrda Xiva xonligi uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib, siyosiy tomondan ko'proq o'zaro chiqishmovchiliklar va qonli urushlar girdobida hayot kechirdi. XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida xonlikda birmuncha qulay sharoit yuzaga kelgan bo'lsada, lekin fan va madaniyatning izchillik bilan rivojlanishiga o'zaro urushlar yo'l bermadi.

Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi va harbiy qo'shin. Qo'qon xonligidagi hokimiyatni boshqaruv tartiblari Buxoro va Xiva xonliklaridan deyarli farq qilmagan. Bu yerda ham xon cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, o'zining xohish-irodasiga ko'ra ish yuritgan. Qo'shinda mingboshi, beshyuzboshi, yuzboshi va o'nboshi lavozimlari bo'lgan. Uning muayyan qismi muntazam xizmatni o'tab, ko'pchiligi tinchlik paytida dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa ishlar bilan shug'ullangan. Harbiy xizmatni o'tovchilarga bir ot va egar-jabduq berilgan. Yuzboshi bir yilga – 147 so'm, ellikboshiga – 98 so'm, o'nboshiga – 65 so'm, oddiy sarbozga – 48 so'm haq to'langan. Viloyatlardagi qo'shin hokim tomonidan ta'minlangan, poytaxtdagisi hukumat zimmasida bo'lgan. Qo'shin qilich, nayza,

piltali miltiq va to'plar bilan qurollangan bo'lib, harbiy mahorat ancha pastlashib ketgan edi. Ichki o'zaro to'qnashuvlar, ayniqsa, Buxoro xonligi bilan urushlar qo'shinning tinkasini quritgan edi.[18]

Markaziy Osiyoda asosan kurash turlari va chavandozlik sport sifatida shakllangan bo'lib, musobaqalar xalq bayramlari, milliy sayllar va turli tantanalarda tashkil qilingan. Askarlar harbiy-jismoniy tayyorgarligi milliy jismoniy tarbiya shakllari yordamida amalga oshirilgan va mamlakatni himoya qilish yo'lida ko'p asrlar davomida to'plangan tajribalar umumlashtirilgan.

XIX asr boshida yuz bergan ma'lum iqtisodiy jonlanish Afg'oniston, Eron, Xitoy, Misr va Rossiya bilan o'rnatilgan iqtisodiy aloqalarga borib taqaladi. Xonliklarda tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy va diplomatik aloqalarni rivojlantirish bilan birga adabiyot, san'at, tarix va boshqa muhim ijtimoiy fanlar, me'morchilik va hunarmandchilik sohalari ravnaqiga katta e'tibor berilgan.

Biroq ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda, uchta xonlikda yuzaga kelgan salbiy o'zgarishlar ular o'rtasidagi aloqalarning uzilishi, o'zaro nizolar, tashqi kuchlarning ta'siri va ichki ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lgan.

Xonliklarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga asketizm (yunoncha *askesis* – his-tuyg'ular ta'siri va dunyoviy hayot tarzidan voz kechish da'vatiga tayangan diniy tamoyil) diniy aqidalariga asoslangan musulmon dini katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Xonliklarda ta'lim tizimi faqat diniy o'quv muassasalaridan iborat bo'lgan. Ta'lim muassasalarining asosiy turlariga boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar kirgan edi. Madrasalarda talabalar diniy falsafa, arab tilining grammatikasi, musulmon huquqlari, mantiq ilmlarini o'rganishgan. Maktab va madrasalarda jismoniy tarbiya darslari bo'lmagan. Jismoniy mashq bajarish, hatto serharakat o'yinlar o'ynash ham ruxsat etilmagan. Madrasalarda diniy va qisman dunyoviy fanlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilgan. Ularda ta'lim va tarbiya olgan kishilar orasidan mashhur shoirlar, olimlar yetishib chiqqan.

XIX asr davomida qimmatli tarixiy asarlar yaratilgan. 1822-yilda Mirza Qalandar Isfaragiy tomonidan «Shohnoma» asari nihoyasiga

---

[18] Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.: 1998.- 23, 33 b.

yetkazilgan edi. Bu manbada xonlikning tarixiga doir qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Markaziy Osiyo hududida yashagan ajdodlarimizdan meros qolgan juda ko'p boy manbalar mavjud. Bunday tugamas boyliklar orasida jismoniy madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq o'zlarining milliy o'yinlarini tashkil qilishni davom ettirdi. Kurash, poyga, uloq, dorbozlik, akrobatika, harakatli o'yinlar keng tarqaldi. Navro'z, hosil bayrami va boshqa udumlarga bag'ishlangan xalq sayllari hamda katta to'ylarda polvonlarning bellashuvi, mohir chavandozlarning chaqqonligi, dorboz o'yinlari, arqon tortishish, tosh ko'tarish kabi o'yin va namoyishlari hammani hayratga solar va juda qiziqarli bo'lgan.

Jismoniy madaniyat insonlarni bolalikdan sog'lom qilib o'stirish, ularning jismoniy va madaniy kamolotini ravnaq toptirishi, sog'lom turmush kechirish, mehnat qobiliyatini oshirish, uzoq umr ko'rishga ko'maklashuvchi muayyan faoliyatdir. Ajdodlarimizning ov qurollarini yasash, tog', daryo, cho'llarda vahshiy hayvonlarni tutish uchun kuch-quvvat, epchillik, merganlikni o'rganganlar. Bunda otda turib kamondan o'q otish, nayza sanchish, kurashish, piyoda yugurish, to'siqlardan o'tish, an'anaviy urf-odatlar, ommaviy sayllarda harakatli o'yinlarni tashkil qilish kabi murakkab mashqlarni bajarganlar. Turli janglarda bu qurollardan mohirona foydalanganlar. Xalq o'z udumlari va an'analarida kurash, ot o'yinlari, qilichbozlik, dorboz, poyga va turli harakatli o'yinlardan foydalanganlar. Bu tadbirlar yoshlarni kuchli bo'lishi, Vatanni sevish, kasbni egallash va uddaburonlikka chorlagan.

Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiya doimo an'anaviy xususiyatlarga ega bo'lgan. Jismoniy mashqlar empirik tarzda (yunoncha *empeiria* – tajriba yo'li bilan) vujudga kelgan va ilmga asoslanmagan bo'lsa ham, hamisha chuqur xalq an'analarini o'zida saqlab kelgan. Jumladan, milliy jismoniy madaniyat asosini ifodalovchi jismoniy tarbiyaning milliy shakllari, vositalari va uslublari shakllantirilib borilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent, Samarqand va Farg'onada hukm surgan Turkiston general-gubernatorligi hududida jismoniy madaniyat rus madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib kelgan va dastavval mahalliy milliy madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lmagan. Shu yillar davomida Turkistonda zamonaviy sport turlari

joriy etilmay kelgan va mahalliy millatga mansub aholi tarkibidan yetakchi sportchilar yetishib chiqmagan. Turkiston general-gubernatori mahalliy millat vakillarining sport jamiyatini tuzishga qat'iy qarshilik qilgan. Lekin shunga qaramasdan, Markaziy Osiyo hududlarida sport turlarining rivojlanishiga real imkoniyatlar paydo bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX asrning dastlabki yillarida rus xalqini Turkiston o'lkasiga ommaviy ko'chib o'tishi, birinchidan zamonaviy sport turlarini rivojlantirishga imkon yaratgan bo'lsa, ikkinchidan mahalliy aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga turtki bergan.

Markaziy Osiyo va O'zbekistonga zamonaviy sportning kirib kelishi. XIX asr oxiri – XX asrning dastlabki yillarida Markaziy Osiyoga zamonaviy sport turlari kirib kelgan va keng tarqalgan. Bunda rus madaniyati bilan o'rnatilgan aloqalar jismoniy madaniyat va sport tizimida ham kuzatiladi.

Turkiston o'lkasi - O'zbekistonda jismoniy madaniyat va zamonaviy sport tizimining shakllanishi va rivojlanish tarixini shartli ravishda quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

❖ 1860–1890-yillar – ruslarning dastlab ilmiy ekspeditsiyalar tarkibida, keyin esa rus armiyasi bosqini oqibatida Turkistonga kelishi.

❖ 1890–1920-yillar – rus aholisini Turkistonga ommaviy ko'chib kelishi va ular tarkibida mavjud bo'lgan ko'plab ziyolilar va pedagoglarning mahalliy aholi o'rtasida rus madaniyatini shakllantirishlari.

❖ 1920–1990-yillar – O'zbekistonda sobiq ittifoq jismoniy tarbiyasi tizimiga asoslangan jismoniy madaniyat va sportni shakllanishi hamda rivojlanishi.

Turkistonda ishlagan ko'plab pedagog ziyolilar, ayniqsa, ularning o'lkada muqim qolib faoliyat ko'rsatgan qismi avvalo Turkistonning yirik shaharlarida yashagan yevropalik aholi, keyin mahalliy aholi jismoniy madaniyatini shakllanishiga hissa qo'shganlar. Bu davrda Turkiston o'lkasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan: birinchidan, O'rta Osiyoga kapitalizmning kirib kelishi, turli banklar tarmoqlarini tashkil etilishi, zavod va fabrikalar, temir yo'llarni qurilishi, ikkinchidan – mahalliy ziyolilarning yetishib chiqishi va milliy progressiv harakatning faollashishi o'lka aholisi bilimi va madaniyatini yanada o'sishiga sabab bo'ldi. Aynan shu davrda o'zbek xalqi hayoti va turmushida madaniyat

sohasiga doir yangiliklar tashviqiy-targ'ibiy nashr vositalari, jurnallar va kitoblar orqali aholi ongiga singdirilgan. O'lkada ko'plab sanoat va qishloq xo'jalik ko'rgazmalarining o'tkazilishi nafaqat iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishiga, balki barcha xalqlar madaniyatini o'zaro yaqinlashishiga asos bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida rus o'quv yurtlari tizimi yaratilgan edi. 1875-yilda Toshkent, Farg'ona, Samarqand va boshqa shaharlarda gimnaziyalar tashkil etilgan, lekin ularda mahalliy millat vakillarining foizi juda kam edi. Bu o'quv yurtlarining dasturida jismoniy tarbiya darslari umuman nazardan chetda qolgan edi. Hukumat xalq ma'rifati to'g'risida g'amxo'rlik qilmas edi. Masalan, 1914 - 1915-yillarda Turkiston xalq ta'limiga o'lka budjetining 2,3%, harbiy politsiya apparatini ta'minlash uchun esa 86,7% ajratilgan. 1914-yilda Turkiston o'lkasida 160 ta maktab bo'lib, ularda 17 ming bola ta'lim olgan. Turkiston o'lkasidagi maktablarda jismoniy tarbiya muvaqqat bo'lib, hech qanday tizimga asos solinmagan, chunki jismoniy tarbiya va sport bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bo'lmagan.[19]

1890-yil Turkiston o'lkasining harbiy maktab va bilim yurtlarida gimnastika, qilichbozlik, otish va turli o'yin mashg'ulotlari o'tkazila boshlangan. Bu davrda Turkiston o'lkasidagi ayrim o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya joriy qilishga birinchi marta urinib ko'rilgan. Biroq jismoniy tarbiya mashg'ulotlari muntazam o'tkazilmas edi, chunki o'qituvchilar, binolar va jihozlar yetishmas edi.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda milliy ziyolilarning ma'rifatparvar **jadidchilik harakati** (arabcha *jadid* – yangi) vujudga kelib, ular tomonidan yangi maqomga xos maktablar tashkil qilingan.

Jadidchilar dasturi ta'lim tizimini islohot qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'ygan edi: yoshlarga amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni berish; ta'lim sohasida, musulmon maktablaridan farqli o'laroq, o'qitishning yangi zamonaviy shakllarini qo'llash. Yangi usul maktablarida o'rta asr individual o'qitishdan sinflardagi dars tizimiga o'tilgan. Sinflarda geografik xaritalar, globuslar va boshqa ko'gazmali qurollar paydo bo'lgan, darslar orasida tanaffuslar kiritilgan, o'quvchilarni urib jazolash bekor

[19] Hoshimov K., Nishonova S., va b. Pedagogika tarixi. T.:"O'qituvchi", 1996.- 274 b.

qilingan. Shunga o'xshash barcha o'zgarishlar katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Biroq bu maktablarda ham jismoniy tarbiya darslari muntazam o'tkazilmagan, faqatgina tanaffuslarda o'qituvchilar rahbarligida harakatli o'yinlar tashkil qilingan.

Abdulla Avloniy (1878-1934). Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy Toshkent shahrida, mayda hunarmand-to'quvchi oilasida dunyoga kelgan.

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» kabi darslik va o'qish kitoblarini yozgan. Abdulla Avloniyning «**Turkiy guliston yoxud axloq**» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq haqida fikr yuritiladi.

Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda to'rt bo'limga ajratgan: 1) «Tarbiyaning zamoni», 2) «Badan tarbiyasi», 3) «Fikr tarbiyasi», 4) «Axloq tarbiyasi».[20]

Avloniy «Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlagan. Avloniy «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur» deb uqtirgan. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblagan. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushuntiradi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish lozimligini uqtiradi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».[21]

---

[20] Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi, 1992.- 22 b.

[21] Hoshimov K., Nishonova S., va b. Pedagogika tarixi. T.:"O'qituvchi", 1996.- 295-306 b.

Avloniy badantarbiya masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida va pedagogik fikrlarning rivojida Abdulla Avloniy alohida o'rin egallagan, butun faoliyati davrida u o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni yetishtirish, uning ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor bergan.

Abdurauf Fitrat (1886-1934). Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat Buxoro shahrida tug'ilgan. «Fitrat» Abduraufning adabiy taxallusi bo'lib, bu so'z tug'ma tabiat, tug'ma iste'dod degan ma'noni anglatadi.

XX asr boshlarida butun Sharqda bo'lgani kabi Buxoroda ham ijtimoiy fikr taraqqiyotida jiddiy uyg'onish boshlanib, ma'rifatparvar jadidchilik harakati keng yoyiladi. Amir boshqaruvining qattiqqo'lligi Buxoro jadidlarini maxfiy jamiyat tuzishga majbur qilgan edi. Buxoroda jadidlar «Yosh buxoroliklar» nomi bilan ish olib borgan. Fitrat «Yosh buxoroliklar» harakatining rahbarlaridan biri edi. Yosh buxoroliklar o'z faoliyatlarining boshlarida yangi usuldagi maktablar ochib, ularda boy hamda kambag'allarning bolalarini o'qitdilar.

Abdurauf Fitrat 1909-yilda «Jamiyati xayriya»ning ko'magida Turkiyaga o'qishga ketadi. 1913-yil to'rt yillik o'qishdan so'ng Fitrat Turkiyadan Buxoroga qaytib keladi. U Turkiyadan ilg'or qarashlar bilan qaytgan edi.

Fitrat 1916-yili «Oila» nomli falsafiy asarini yozadi. Fitrat 1922-1923-yillarda Buxoro Xalq Respublikasidan Germaniyaga, Turkiyaga talabalar yuborish, ilg'or Yevropa ta'lim-tarbiyasi, ilm-fan, texnika sirlarini o'rganish, yangi Buxoro Xalq Respublikasi va Turkistonda maorif va madaniyatni rivojlantiruvchi mahalliy kadrlar tayyorlash tashabbuskori va tanlovchilaridan biri bo'lgan. Leningrad Davlat universiteti 1924-yilda Fitratga o'zbek va tojik mumtoz adabiyotlari namoyondalari to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari uchun professor unvonini bergan.

Fitratning «Rahbari najot» asari ham to'la ravishda ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Ayniqsa, asarning uchinchi bobi oila, bola tarbiyasi, axloq-odob mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, bu masalalar hozirgi davrda ham katta ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligini uch tarbiyaga ajratgan:

- Jismoniy tarbiya – salomatlik,
- Aqliy tarbiya – sog'lom fikrlilik,
- Axloqiy tarbiya – axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berish kerakligini ta'kidlagan.

Abdurauf Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo'lib tarbiyalanishiga alohida ahamiyat bergan. U bolani tug'ilmasdan burun, ona qornidaligidanoq tarbiyani boshlash kerak, chunki shu 9 oy muddatda farzand ona qoni bilan tarbiyalanadi, deb uqtirgan. Keyinroq bola tug'ilgandan keyin Fitrat bolalarning toza havoda bo'lishlari, atrof, tabiat go'zalliklaridan estetik zavq ola bilishlariga ham ahamiyat beradi.

Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o'rin tutishini ham aytib o'tgan. Ota-onalarga o'z bolalarining shunday o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlarini ta'minlashlarini maslahat bergan. U bu o'yinlar orqali bolaga hayotni o'rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiysi bolani jismonan chiniqtirish, deb bilgan. Fitrat yana bolalarning sog'lom, jismonan yetuk bo'lishlari uchun tozalikning ahamiyati juda kattaligini tushuntirib, bolalarga shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishni o'rgatishni alohida ta'kidlab o'tgan.

Abdurauf Fitrat bunday ta'lim va tarbiyani, bolalarga yaxshi sharoitlar yaratib, ularning salomatliklari va yashashlari uchun g'amxo'rlikni faqat jadid maktablari berayotganini, lekin hukmron doiralar bu maktablarga qarshi chiqish bilan birga ular olib borayotgan ilg'or ta'lim-tarbiya usullariga ham qarshi chiqayotganini, bu maktablarni kofir maktabi deb, ularni faoliyat ko'rsatishga qo'ymayotganini ko'rsatib o'tgan. Shu bilan birga, eski maktablarda buning aksi bo'lib, bolalarning salomatliklari, ularning jismonan chiniqishlari uchun hech qanday sharoitlar yaratilmaganligini ko'rsatgan. [22]

Mustaqillik, demokratiya, ozodlik g'oyalari Fitratning butun faoliyati va barcha asarlari va maqolalarida bosh maqsad bo'lib qolganligi bilan hozirgi yoshlarimizga, ularning mustaqil O'zbekistonning rivojlantirishlarida ibrat-namunadir.

---

[22] Hoshimov K., Nishonova S., va b. Pedagogika tarixi. T.:"O'qituvchi", 1996.- 312 b.

O'zbekistonda birinchi sport jamiyatlarining tashkil topishi. XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida hududda zamonaviy sportning kirib kelishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar paydo bo'lgan.

Turkiston o'lkasi shaharlarida ziyolilar tashabbusi bilan sport klublari va jamiyatlari tashkil qilingan. Sport seksiyalarida shug'ullanuvchilarning asosiy tarkibi harbiy ofitserlar, xizmatchi xodimlar va ziyolilardan iborat edi. Turkiston ziyolilari chet elda dunyoviy ta'lim olgan davrning eng ilg'or ma'rifatli kishilari edi. Ular xorijiy davlatlar tajribasi bilan tanishuv hamda ma'rifiy faoliyat natijasida barkamol rivojlanishda inson uchun jismoniy tarbiyaning muhim o'rin egallashini anglab yetganlar.

Bu davrda mahalliy aholi uchun yangi bo'lgan Yevropa madaniyatining asta-sekin kirib kelishi va madaniyatlarning o'zaro ta'siri Turkiston o'lkasining turli hududlarida sportni yetarli darajada jadal rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Jumladan, velosportga qiziqish 1894-yilda **"Toshkent havaskor velosipedchilar jamiyati"ning (THVJ)** tuzilishiga olib kelgan. Jamiyat o'zining nizomini va badallarni to'lash tartibini ishlab chiqqan. 1894-yil 18-sentabrda shahar xiyobonidagi vaqtinchalik velotrekda velosport bo'yicha birinchi musobaqa o'tkazilgan. 1895-yil Samarqandda velosipedchilar to'garagi va musobaqalar tashkil etilgan va ularning birinchi musobaqasi 1895-yil 4-iyulda harbiy bo'lim maydonida o'tkazilgan. Tomoshabinlarning pullik joylaridan yig'ilgan mablag' Samarqand bolalar uyiga o'tkazilgan.

1896-yil 16-aprelda THVJ majlisida Toshkentda velotrek qurish to'g'risidagi qaror qabul qilingan. Velotrek iyul oyida qurib bitirilgan va shu yilning 4-avgustida foydalanishga topshirilgan. Yangi velotrekda o'tkazilgan musobaqalarda 4 nafar o'zbek poygachilari ishtirok etgan.

1894-1912-yillar THVJ tashabbusi bilan tashkil qilingan turli musobaqalarda Rossiyaning professional sportchilari ham qatnashgan. Bu yillarda Toshkentga "Havo trekda uchish", "Iblis poygasi", "Velosipedda yong'in" va shunga o'xshash ko'rgazmali chiqishlar bilan professional poygachilar tashrif buyurganlar. Bu davrda jamiyat faoliyati asosan mahalliy zodagonlar, savdogarlar va yuqori harbiy unvon vakillari uchun ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etishga qaratilgan bo'lsa-da, velosport rivojida progressiv rol o'ynaganini ta'kidlash mumkin.

XIX asr oxirida aholining sport kurashi va og'ir atletikaga qiziqishlari paydo bo'lgan. 1895-yilda mashhur nemis polvoni Rippel Toshkentga kelib, sirkda o'z kuchi va mahoratini ko'rsatgan. Uning og'irligi sakkiz yarim pud (133 kg.) bo'lib, sakkiz pudlik cho'yan giryani ikki qo'li bilan, 16 pudlik cho'yan giryani kifti bilan ko'tarib tomosha ko'rsatgan. Bu yillarda Toshkentning Beshyog'och mahallasidan Ahmad polvon O'rta Osiyoda eng kuchli pahlavon bo'lgan. Ahmad polvon Rippel bilan kurash tushib, uni bir lahzada yutgan. 1911-yilda Ahmad polvon fransuz qoidalari bo'yicha o'tkazilgan klassik kurashda Germaniya chempioni Giber ustidan g'alaba qozongan. Bunga o'xshagan polvonlar O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida juda ko'p bo'lgan.[23]

1903-yil Toshkentda birinchi **tennis** maydoni paydo bo'lgan. Uning ko'rinishi juda oddiy va to'siqlarsiz bo'lgan. Butun shahar bo'yicha faqatgina bilim yurti o'qituvchisi cheh millatiga mansub Van Drachek bir nechta tennis to'plari va raketkalariga ega bo'lib, uning rahbarligida o'quvchilar tennis to'rini to'qib olishgan edi. 1909-yil Toshkentda dastlabki tennis musobaqalari o'tkazila boshlagan. O'lkamizning ilk tennischi sportchilaridan biri Polina Karfung bo'lgan. Keyinchalik tennis Andijon, Buxoro, Qo'qon, Farg'ona shaharlarida ommaviylashgan. XX asrning 30-yy. tennisning rivojlanishiga Moskva shahridan kelgan mutaxassislar katta yordam berganlar.

1904-yil "Toshkent gimnastika va jismoniy mashq havaskorlari jamiyati", 1906-yil esa "Sokol" ("Lochin") **yengil atletika** guruhi tashkil topgan. 1906-yildan boshlab O'rta Osiyoda futbol rasmiy ravishda tarkib topa boshlaydi.

1908-yil Turkistonda professional kurash bo'yicha chempionat o'tkazilgan edi. Bu chempionatda jahonning taniqli kurashchilari rossiyalik Ivan Poddubniy, Ivan Zaikin ishtirok etganlar. Musobaqalar kurashning uch turidan iborat bo'lgan: o'zbek kurashi, rus belbog'li kurashi va fransuz kurashi. 1909-yilda bu musobaqalarda Rossiyadan Matyushenko va Sokolov, Ispaniyadan Karlos, Fransiyadan Strobans, Kavkazdan Chuyanidze, Germaniyadan Paulb Ban ishtirok etganlar. 1910-yilda rossiyalik Ivan Lebedev tomonidan tashkil etilgan fransuzcha kurash musobaqalarida Fransiya chempioni Shevalye, Turkiya chempioni Qoraahmad ham qatnashganlar. Ular bilan

[23] Xo'jayev F. O'zbekistonda jismoniy tarbiya. T.:1999.

mahalliy polvonlar Ahmad, Azim xo'ja, Haydar Ali, Abdurahmon Vohitov, Toji Aglayev kurash tushganlar.

1909-yil Toshkentda atletika jamiyati tashkil qilingan. Uning asoschilaridan biri Nikolay Gorizdro **og'ir atletika**da rekordchi sifatida tanilgan edi.

1910-yil Samarqandda – ovchilar jamiyati, Andijonda – "Diskobol" jamiyati tuzilgan. O'sha yili Toshkent va Farg'ona shaharlarida yugurish, sakrash va uloqtirish, atletizm va boshqa havaskor to'garaklar tashkil topgan edi. 1911-yildan boshlab esa Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlarda turli xil musobaqalar, o'zaro futbol uchrashuvlari o'tkazilgan.

1911-yil Toshkentda "Gimnastika-qilichbozlik maktabi" ochilgan va unda qilichbozlik, snaryadlar ustida gimnastika bo'yicha instruktorlar tayyorlangan. 1912-yil esa o'quv yurtlari uchun jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlaydigan birinchi gimnastika va harbiy saf kursi ochilgan. Bu maktabda 1912-yil eng yirik saralash musobaqalari o'tkazilib, Stokgolmda bo'ladigan V Olimpiada o'yinlarida Rossiya jamoasini to'ldirish uchun Turkistondan eng yaxshi sportchilar tanlab olingan edi.

1912-yil Qo'qon va Farg'onada birinchi **futbol** jamoalari tashkil qilingan. Keyingi yillarda Turkistonning boshqa shaharlarida ham futbol jamoalari tuzilib, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Andijon va Qo'qon jamoalari o'rtasida shaharlararo uchrashuvlar o'tkazilgan.

1913-yil Turkiston o'lkasida eng yirik sport jamiyati – **"Toshkent havaskor sportchilar jamiyati"** tuzilgan edi. Jamiyatda futbol, yengil atletika, tennis bo'limlari mavjud edi.

1915-1916 yy. Toshkent gimnaziyasida Turkiston o'lkasidagi birinchi skaut (inglizcha *scout* – izquvar) guruhlariga asos solingan. Skautlar saf tortib yurish tayyorgarligi bilan shug'ullangan, harakatli o'yinlar, sayrlar tashkil qilganlar. Turli sport o'yinlarini targ'ibotchilari qatorida Toshkent, Farg'ona va Turkiston o'lkasining boshqa shaharlariga yozgi ta'tilda kelgan rossiyalik talabalar bo'lgan. Ular velosport, futbol, yengil atletika va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalarning tashkilotchilari ham edilar.

Sport tobora ommalashib borayotganligi sababli sportchilarni tayyorlash uchun ustozlar yetishmasligi juda sezilgan edi. 1915-yilda

Toshkentda gimnastika o'qituvchilari tayyorlash bo'yicha birinchi kurs ochilgan edi.

1916-yilda «Sport safarbarligi» tashkiloti tuzilgan. Bunga gimnaziya, seminariya, real bilim yurti, hunar bilim yurtlarining talabalari bir oy muddatga safarbar etilar edi. Bu mashg'ulotlarda harbiy qo'shinlar uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya dasturi qo'llanilgan. Buning asosiy maqsadi yoshlarni harbiy- jismoniy tayyorlash va ko'rikdan o'tkazish bo'lgan.

1918-yil O'rta Osiyo Xalq universiteti huzurida sport to'garaklari tashkil etilgan. Ularda suzish, yengil atletika, gimnastika bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilgan va futbol jamoasi tuzilgan. «Sokol», «Sever» kabi gimnastika jamiyatlari mavjud edi.

1920-yilda Toshkentda shifokor Moisey Il'ich Slonim (1875-1945) mablag'i hisobidan davolash muolajalari maqsadida solyariy va 15-metrli suzish havzasi qurilgan. O'zbekistondagi birinchi 800 nafar shug'ullanuvchilardan iborat suzish maktabi ham aynan shu yerda tashkil qilingan.

1927-yilda Toshkent yaqinida birinchi 50-metrli suv havzasining qurilishi O'zbekiston sport hayotidagi katta voqealardan biri bo'lgan edi. O'sha yili unda Samara shahri suzuvchilari bilan shaharlararo uchrashuv o'tkazilgan.

XX asrning 1920-yillarida O'zbekistonda zamonaviy sport turlaridan birinchi yirik kompleks musobaqalari – O'rta Osiyo olimpiadasi va Umumo'zbek spartakiadalari o'tkazilgan. 1920-yil Toshkentda 15 ta sport tashkiloti tuzilgan edi. 1923-yil O'zbekistonda 70 dan ortiq turli xil sport tashkilotlari, jumladan 24 ta sport klubi, 17 ta jismoniy tarbiya to'garaklari, 14 ta skaut guruhlari, 15 ta sport bo'limlari tuzilgan edi. [24]

Xulosalar

- Markaziy Osiyo xonliklari davrida jismoniy ta'lim-tarbiya va jismoniy tarbiyaga dinning ta'siri kuchli bo'lgan.
- Markaziy Osiyo xonliklarida askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligida an'anaviy jismoniy mashqlar va vositalaridan foydalanilgan.

---

[24] Akramov A.K., O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. O'quv qo'llanma. T.: O'zDJTI nashr, 1997.

➢ Turkiston o'lkasida ma'rifatparvar jadidlar tashabbusi bilan yangi usul maktablari ochilgan va ularda ilk bor jismoniy tarbiya masalalariga e'tibor berilgan.

➢ XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo va O'zbekistonda birinchi sport to'garaklari va sport jamiyatlari tuzilgan.

Nazorat savollari:

Markaziy Osiyoda xonliklarida aholining ijtimoiy va madaniy hayotida jismoniy tarbiya qanday ahamiyatga ega bo'lgan?

Markaziy Osiyoda xonliklar qo'shinida askarlarning harbiy tayyotgarligida qanday jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanilgan?

Markaziy Osiyoda turli bellashuvlar qanday tadbirlarda tashkil qilingan?

Abdulla Avloniy qaysi asarida jismoniy tarbiya masalalarini yoritgan?

Abdurauf Fitrat qanday jismoniy tarbiya vositalarini tavsiya etgan?

Markazy Osiyoga zamoaviy sport turlari nechanchi asrda kirib kelgan?

Turkiston o'lkasida jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qanday muhim tadbirlar o'tkazilgan?

Turkiston o'lkasida birinchi boks maktabini kim tashkil qilgan?

Turkiston o'lkasida birinchi futbol jamoalari nechanchi yilda tuzilgan?

XX asr boshlarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya qanday xususiyatlarga ega bolgan?

7-§. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi (1920-1990 yy.)

Sobiq Ittifoq davlati tuzilgandan so'ng sovetlar davlatini mustahkamlash maqsadida harbiy-jismoniy tayyorgarlik ishlari kuchaytirilgan edi. Bunda eski mutaxassislardan foydalanish va yangi kadrlar tayyorlash ishlari tez amalga oshirildi. Buning yana bir sababi shundaki, 1918-yilda fuqarolar urushi boshlangan. 1918-yilning aprelidan boshlab harbiy majburiy ta'lim (Vsevobuch) e'lon qilingan edi. Unda faqat harbiy tayyorgarlikkina emas, balki jismonan sog'lom aholini majburiy ravishda o'qitish amalga oshirilgan.

1920-yilda Vsevobuch tarkibida Jismoniy tarbiya oliy Kengashi (VSFK) ta'sis etilgan. Uning raisi etib N.I.Podvoyskiy (1880-1948) tayinlangan. Sovet mamlakatida jismoniy tarbiya va sportning tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishida uning xizmatlari kattadir.

Fuqarolar urushining tugashi tufayli Vsevobuch tarkibidagi Jismoniy tarbiya oliy kengashi ham 1921-yilda tugatilgan edi. Uning o'rniga Yoshlar ittifoqi (komsomol) va Kasaba uyushmalari ittifoqi jismoniy tarbiya va sportga rahbarlik qila boshlagan. Shu tufayli Yoshlar ittifoqi «Muravey», «Spartak» kabi sport jamiyatlarini tuzgan.

Sovet davrining dastlabki yillarida (1917-1924) Turkiston umumta'lim boshqarmasi huzurida jismoniy madaniyat Markaziy Kengashi tuzilgan. Uning maqsadi barcha jismoniy tarbiya tashkilotlarini birlashtirish va mehnatkashlarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlariga yordamlashish edi.

Turkistonda zamonaviy sport turlarini keng targ'ibot qilish ishlari davom etdi. Markaziy Osiyoda, O'zbekistonda o'quv yurtlarini tashkil qilish, yoshlarni kasbga tayyorlash, ishchi yoshlarning salomatligini yaxshilash hamda ularni sportga jalb etishda bir qator ishlar amalga oshirilgan edi.

1920-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimining asosiy vazifasi harbiy tayyorgarlikdan iborat bo'lgan.

XX asrning 1920-yillarida O'zbekistonda zamonaviy sport turlaridan birinchi yirik kompleks musobaqalari – O'rta Osiyo olimpiadasi va Umumo'zbek spartakiadalari o'tkazilgan. 1920-yilda yoshlar ittifoqi va sport to'garaklari rahbarlarining tashabbusi bilan I O'rta Osiyo olimpiadasi o'tkazilib, unda poyga, gimnastika, yengil atletika, og'ir atletika, futbol, o'q otish kabi turlar bo'yicha musobaqalar

bo'lgan. 1921-yilda II O'rta Osiyo olimpiadasi bo'lib o'tgan. Unda yengil atletika, og'ir atletika (boks, kurash, shtanga), basketbol, gimnastika, futbol va shaxmat bo'yicha sport musobaqalari o'tkazilgan.

1922-yilda Toshkentda maktablarga qarashli 2 ta sport maydonchasi bo'lib, ularda 2 ming kishi sport turlari bilan shug'ullangan. Turkiston o'lkasi bo'yicha 4 ming 797 jismoniy madaniyatchi bo'lib, shundan 382 tasi xotin-qizlar edi. Mahalliy millat sportchi xotin-qizlari esa deyarli yo'q edi. O'lka jismoniy madaniyat Kengashi hisobida 2 ta gimnastika zali, 34 ta sport maydonchasi mavjud edi.[25]

Yoshlar ittifoqining tashabbusi bilan Butunrossiya Markaziy ijroiya qo'mitasi (VSFK) 1923-yil 27-iyunda «Jismoniy tarbiya va Oliy Kengash»ni tuzishga qaror qabul qilgan. Oliy kengashga sog'liqni saqlash komissari I.A.Semashko (1874-1899) tayinlangan. Kengashning zimmasiga ilmiy, o'quv va tashkiliy faoliyatlarni muvofiqlashtirib olib borish yuklatilgan edi. Shu yili «Dinamo» jamiyati ham tashkil etilgan.

1923-yilda «Dinamo» sport jamiyatining tashkil qilinishi Samarqand va Toshkent shaharlarida turli o'yin maydonlari, ayniqsa, «Dinamo» o'yingohlarining qurilishiga (1925-1927 y.) asos solingan. Shu sababdan, mahalliy millat vakillari ham rus xalqi olib kelgan futbol, voleybol, sakrash, yugurish, granata uloqtirish mashqlari bilan shug'ullana boshlagan edi. Mahallalarda terma jamoalar tuzilib, dam olish kunlari, bo'sh vaqtlarda o'zaro musobaqalar tashkil qilingan.

1924-yil 27-oktabrda O'zbekiston sovet respublikasi tashkil qilingan edi. O'sha davrda barcha ishlarga ittifoq miqyosidagi idoralar, tashkilotlar tomonidan ko'rsatma berilar edi.

1918-1924-yillarda asosan, Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Buxoro shaharlaridagi temiryo'l ishchi xodimlari, zavod-fabrikalari, ba'zi bir rus maktab yoki gimnaziyalarida sport klublari tashkil etilgan edi. U joylarda futbol, boks, velosiped, yengil atletika kabi sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil etilib, musobaqalar uyushtirilar edi. Tarixiy manbalarning tasdiqlashicha, bu musobaqalarda mahalliy millat vakillari deyarli ishtirok etmagan.

1924-yilda Umumturkiston Olimpiadasi o'tkazilgan. Bu sport musbaqalari Sharq jismoniy tarbiyachilarining bayramiga aylangan edi. Unda Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand va boshqa viloyatlarning

[25] Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Darslik. T.: 2008.

sportchilari ishtirok etib, Sirdaryo viloyati sport jamoasi g'oliblikka erishgan edi. 1924-yilga kelib, Turkistonda jismoniy tarbiya bilan shugullanuvchilar soni ancha ko'paygan edi. Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida 48 ta sport to'garaklari bo'lib, ularda 3500 nafar kishi shug'ullangan.

Mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishda turli-tuman usullardan foydalanish zaruriyati vujudga kelgan. O'zbekistonda sportning rivojlanishi quyidagi ommaviy sport tadbirlari orqali amalga oshirilgan:

1927 va 1928-yillarda respublikamizning jismoniy tarbiya tashkilotlari tashabbusi bilan I va II Umumo'zbek spartakiadalari o'tkazilgan. I va II Umumo'zbek spartakiadalarida futbol, yengil atletika, kurash, gimnastika kabi sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, respublika terma jamoalari a'zolari saralab olingan. Bu musobaqalar o'zbek sportchilari uchun 1928-yildagi Butunittifoq spartakiadasiga asosiy tayyorgarlik bo'lib xizmat qilgan edi.

1928-yil avgustda Umumittifoq I Spartakiadasi Moskvada o'tkazilgan. O'zbekiston sportchilari I Butunittifoq spartakiadasida qatnashgan. Bunda O'zbekistondan 193 sportchi ishtirok etib, bulardan 44 nafari mahalliy millat sportchilari edi. Unda barcha ittifoqchi respublikalar va ba'zi bir chet mamlakatlarning sportchilari ishtirok etgan. Sport musobaqalarida 7225 qatnashchi orasida 600 dan ortiq sportchilar Angliya, Argentina, Germaniya, Norvegiya, Urugvay, Finlyandiya, Fransiya, Chexiya davlatlaridan tashrif buyurgan edilar. Ikki hafta davomida yengil atletika, gimnastika, kurash, o'q otish, eshkak eshish va boshqa sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan. Spartakiadaning umumiy yakunlari bo'yicha Rossiya – birinchi, Ukraina – ikkinchi, Belorussiya – uchinchi, O'zbekiston – to'rtinchi, Kavkazorti – beshinchi va Turkmaniston – oltinchi o'rinni egallagan.

O'zbekiston sovet respublikasida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish, uni aholi o'rtasida targ'ibot qilish ishlarida sobiq Ittifoq partiya va hukumatining qator maxsus qarorlari (1925, 1929, 1930) jismoniy tarbiya va sport harakatini rivojlantirish, unga rahbarlik qilish yo'llarini takomillashtirishga katta yo'l ochib bergan edi. Shu qarorlar asosida mavjud bo'lgan sport to'garaklari o'rniga sport seksiyalarini tashkil etish tavsiya etilgan. Lekin bu tajribalar hayotda juda sekin amalga oshirilgan.

Partiya va hukumatning 1929-yil 23-sentabr hamda 1930-yil 1-aprel qarorlariga asosan mamlakatda jismoniy tarbiya va sport ishlariga rahbarlik qilish tartiblari o'rnatilgan. Markaziy Ijroiya qo'mita (MIQ) tarkibida Butunittifoq jismoniy tarbiya Kengashi tashkil etilgan. 1936-yilda bu Kengash «Butunittifoq jismoniy tarbiya va sport bo'yicha Qo'mita»ga aylantirilgan.

1929-yilda Xalq komissarligi maktablarda 2 soatlik jismoniy tarbiya darslarini joriy etgan. Shu bilan birga bolalar sport maktablarini tashkil etish haqida qaror qabul qilgan edi. 1929-yildan boshlab «Umumittifoq jismoniy tarbiya ikki haftaligi» kasaba uyushmalari tomonidan o'tkazila boshlagan va bunda qishloq sportchilarining ham ishtiroki amalga oshirilgan edi.

1930-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimi aholining mehnat tayyorgarliga yo'naltirilgan edi. 1930-yilda klublar tizimidan jismoniy tarbiya ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Sport klublari o'rniga jismoniy tarbiya jamoalari tuzilgan. Bunda «Har bir jismoniy tarbiyachi ilg'or, har bir ilg'or - jismoniy tarbiyachi» shiori keng tarqalgan edi.

1930-yilda Butunittifoq yoshlar tashkilotining tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan «SSSR mehnat va mudofaasiga tayyor» (MMT) jismoniy tarbiya majmui tashkil etilgan. 1931-yilda jismoniy tarbiya Oliy kengashi MMT majmuining I bosqichi va 1933-yilda II bosqichini tasdiqlagan.

1934-yilda «Mehnat va mudofaasiga bo'l tayyor» (MMBT) majmui bolalar uchun ishlab chiqilgan va tasdiqlangan edi. Bu uch bosqichli jismoniy tarbiya majmuida asosan, barkamollik va salomatlik yo'nalishlari mujassamlanib, sovet jismoniy tarbiya tizimining asosini tashkil etgan. Shu sababdan, barcha joylarda bu majmuaning talablari va me'yorlarini bajarishga bo'lgan qiziqish, intilish kuchaygan. 1940-yilda bu majmua yangidan qabul qilingan edi. Bunda majburiy va tanlov tartibiga imkoniyat berilgan. Majburiy turlarga: gimnastika mashqlari, to'siqlarni oshib o'tish, suzish, chang'i sporti, yugurish, o'q otish, gigiyenik bilimlar asosini va jismoniy tarbiya tizimini bilish talab qilib qo'yilgan. Tanlab olish turlarida 7 guruh mashqlar tavsiya etilgan, kuch, tezlik, chidamlilik, epchillik, botirlik va qat'iylik kabi sifatlarni, himoya va hujum, uloqtirish hamda otish usullarini rivojlantiruvchi mashqlar ko'zda tutilgan. MMT jismoniy tarbiya majmui va sport turlarining tayanch, sog'lom-

lashtirish va tarbiyaviy jarayonlarini hal etishga qaratilgan tadqiqotlar ham paydo bo'lgan edi.

XX asrning 1930-yillardagi sovet jismoniy tarbiya va sport tizimining muhim tomonlaridan biri siyosiy g'oyalarni singdirish va davlatni himoya qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

1935-1936-yillarda bir qator ko'ngilli sport jamiyatlari tashkil etilgan. «Dinamo», «Spartak», «Lokomotiv» jamiyatlarining ilg'or tajribalariga tayanib, Kasaba uyushmalari Markaziy Kengashi qaroriga asosan 64 ta Ko'ngilli sport jamiyatlari (KSJ) vujudga kelgan. «Dinamo», «Spartak» sport jamiyatlari tarkibida sport maktablari tashkil qilingan. 1937-yilda 200 dan ortiq bolalar sport maktablari mavjud edi. Maktab o'qituvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalarining umumittifoq sport musobaqalari tashkil qilingan edi.

Havaskorlik jismoniy tarbiya harakatida Butunittifoq ko'rik-tanlovlari o'tkazib borilgan. Bunda markaziy shaharlar sport jamiyatlari, sport klublari, jismoniy tarbiya jamoalari kengashlarining ilg'or tajribalarini ommalashtirish an'anaga aylangan. «Dinamo», «Spartak» va boshqa sport jamiyatlari juda katta tadbirlar o'tkazib, hukumatning medal va yorliqlariga sazovor bo'lgan.

1935-1937-yillarda yagona Butunittifoq sport tasnifi ishlab chiqilgan edi va hayotga tatbiq etildi, Keyinchalik bu tasnif qayta ishlab chiqilib, u ancha takomillashtirildi va o'z ichiga 34 sport turini oldi. 1939-yil 27-mayda «Xizmat ko'rsatgan sport ustasi» unvoni ta'sis etildi. 1939-yildan boshlab hukumat qarori asosida Butunittifoq jismoniy tarbiya xodimlari kunini o'tkazish odatga aylandi.

1940-yilda 62 ming jismoniy tarbiya jamoasida 5.3 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullangan, mamlakatda 378 stadion, 70 mingdan ortiq katta va kichik sport zallari qurib bitirilgan edi.

Sobiq Ittifoq respubikalarida 6 ta institut va 25 ta texnikum jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda faoliyat ko'rsatib kelgan.

1940-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimining asosiy vazifasi aholining harbiy-jismoniy tayyorgarlini oshirishdan iborat bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushidan oldingi 10 yillik davrda sovet sportchilarining xalqaro miqyosidagi obro'-e'tibori ancha oshgan edi. Sportchilarning yuqori natijalari va ommaviy sport tadbirlari jahonga

tarqala boshlagan. Bu esa sport tashkilotlarining xalqaro aloqalarini ta'minlashga va ularni rivojlantirishga katta xizmat qilgan.

Sovet sportchilari urush va fashizmga qarshi kuchlarni boshqarishda o'ziga xos faoliyat ko'rsatgan edilar. 1934-yilda Parijda fashizmga qarshi bo'lib o'tgan sportchilar namoyishida, 1937-yilda Antverpenda o'tkazilgan III xalqaro ishchilar Olimpiadasida ishtirok etganlar. Ittifoq sporti xalqaro ishchilar sport harakatining oldingi safida dadil borgan edi.

1938-1940-yillarda mamlakatga 250 dan ortiq chet el sportchilari tashrif buyurgan edi. O'z navbatida esa Ittifoq sportchilaridan 175 nafari chet mamlakatlarda bo'lgan. Sobiq Ittifoq hukumati va sport tashkilotlari chet mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik va do'stlik faoliyatlariga ma'lum darajada e'tibor berib borgan. Biroq Sovet mamlakati chet mamlakatlar bilan turli siyosiy va g'oyaviy sabablarga ko'ra mustahkam aloqada emas edi va bu sportga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

Sobiq sovetlar mamlakati tarkibida 1920-1940-yillar davomida respublikamiz sport tashkilotlari jismoniy tarbiya va sportni yo'lga qo'yish, uni rivojlantirish masalalariga doir juda ko'p muhim tarixiy tadbirlarni amalga oshirgan. Sovet sportini yanada rivojlantirish maqsadida 1927-1933-yillarda Toshkentda I-III Umumo'zbek spartakiadalari o'tkazilgan. 1934-yildan boshlab respublika kolxoz-sovxozlari spartakiadalari o'tkazilgan. 1934-yilda I O'rta Osiyo spartakiadasi o'tkazilgan. 1935-yilda respublikada Toshkent shahar oliy o'quv yurtlari va texnikumlari spatakiadasi, Respulika bolalar spartakiadasi, I Umumo'zbek ayollar jismoniy tarbiya bayrami o'tkazilgan.

1935-yilda Toshkent shahrida O'zbek davlat jismoniy tarbiya texnikumini ochish to'g'risida qaror qabul qilingan. Ilg'or tajribalar va sinov-tekshirishlar asosida sovet jismoniy tarbiya tizimining ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan edi. 1936-1937-yillarda bolalar-o'smirlar sport maktablari (BO'SM) ochilgan edi.

1936-yil sentabr oyida Toshkentda IV Umumo'zbekiston spartakiadasi o'tkazilgan. 1938-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq jismoniy tarbiya paradida respublikamiz vakillari «O'zbek xalqining suv, yuqori paxta hosili uchun kurashi» inssenirofkasini namoyish qilgan edi. 1939-yilda bo'lib o'tgan

Butunittifoq paradida O'zbekiston jismoniy tarbiyachilari gullab-yashnayotgan bog' ko'rinishida chiqish uyushtirgan edilar.

1940-yildagi paradda O'zbekiston jismoniy tarbiyachilarining mavzusi qilib yana paxta - o'zbek xalqining asosiy boyligi tanlab olingan edi.

1943-yilda to'qqiz yillik tanaffusdan so'ng Olma-Ota shahrida O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalari II spartakiadasi o'tkazilgan. 1944-yil sentabrda Toshkentda Orta Osiyo va Qozog'iston Respublikalarining III spartakiadasi o'tkazilgan. 1945-yilning 30-sentabridan 10-oktabrigacha IV Umumo'zbekiston spartakiadasi o'tkazilgan. Ushbu spartakiada parad bilan ochilib, unda 5 mingta jismoniy tarbiyachi qatnashgan.

1945-yilning 7-oktabridan 14-oktabrigacha Frunze (Bishkek) shahrida O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalarining IV spartakiadasi bo'lib o'tgan. Birinchi o'rinni egallagan respublikamiz jamoasi Butunittifoq jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlangan edi. 1946-yilda respublikamiz vakillari Butunittifoq jismoniy tarbiyachilar paradida qatnashgan. 1948-yilda V Umumo'zbekiston spartakiadasi o'tkazilgan.

1948-yil 10-15 oktabrda Dushanba shahrida komsomolning 30 yilligiga bag'ishlangan O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalarining V spartakiadasi bo'lib o'tgan edi. O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalarining VI spartakiadasi 1950-yilda Olma-Otada, VII spartakiadasi 1952-yilda Ashxobodda, VIII spartakiada 1954-yilda Toshkentda, IX spartakiada 1957-yilda Frunzeda (Bishkek) o'tkazilgan. 1934-1957-yillar ichida O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalarining spartakiadasi to'qqiz marta o'tkazildi.

O'zbekistonda 1950-yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash dolzarb masalalardan biriga aylangan edi. 1951-yilda Samarqand, Termiz va Angren shaharlarida jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtlari tashkil etildi. Ular boshlang'ich va yetti yillik maktablar uchun jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda yangidan ish boshladi.

1952-yilda Toshkent Davlat pedagogika instituti tarkibida jismoniy tarbiya fakulteti ochilgan. 1954-yilda Farg'ona, 1956-yilda Nukus DPIda ham jismoniy tarbiya fakultetlari ochilgan. 1955-yilda O'zbek Davlat jismoniy tarbiya instituti iqtidorli sportchilarni talabalikka ilk bor qabul qilgan.

1956-yil O'zbekiston sport tarixida salmoqli o'rinni egallagan edi. Shu yili «Paxtakor» sport majmui qurilgan va unda O'zbekiston sportchilarining eng katta bayrami bo'lib o'tgan. Bu tantana sobiq Ittifoq xalqlarining I Spartakiadasiga ko'rik-sinov tajribasini o'tagan edi. 1956-yildan boshlab, respublikamiz sportchilari sobiq Ittifoq xalqlarining Spartakiadalarida ishtirok etgan.

I sobiq Ittifoq xalqlari Spartakiadasi 1956-yilda, II-1959, III-1963, IV-1967, V-1971, VI-1975, VI-1979, VIII-1983, IX-1987-yilda o'tkazilgan. Hamma Spartakiadalarning final bosqichi Moskva shahrida bo'lib o'tgan.

Urushdan keyingi yillarda ko'p tarmoqli jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari tiklanib, ular o'z faoliyatlarini sportning ommaviyligini amalga oshirishga harakat qildi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda respublika va viloyatlardagi «Dinamo», «Spartak», «Paxtakor», «Fan», «Alanga» va boshqa sport jamiyatlari yangi usullar bilan faoliyat ko'rsatdi. Bunda yoshlarni sport unvonlari va darajalarini olishga bo'lgan qiziqishlari, yangi sport kiyimlari bilan ta'minlash, sport nishonlari bilan havas uyg'otish ustuvor edi.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida ulkan yutuqlarga erishilgan. Sport jamiyatlarining markazlashgan rahbarlik faoliyatlari (1957, 1987), sportga rahbarlik qilishning davlat va jamoatchilik (1959-1968) usullari birmuncha markazlashtirilgan va takomillashtirilgan edi.

Sovet O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarishning asosiy shakli – davlat va jamoat shakli hisoblangan. Jismoniy tarbiyani boshqarishning davlat shakli davlat organlari tomonidan – O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport Komiteti, jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga bevosita rahbarlik qiladigan vazirliklar, idoralar va komitetlar orqali amalga oshirilgan.

Davlat shaklidagi boshqarishning o'ziga xos xususiyati – bu davlat dasturlari, ya'ni davlat tasarrufidagi organlarning maxsus tizimi orqali sog'liqni mustahkamlash hamda yoshlarni mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlash kabi umumdavlat vazifalarini hal etish amalga oshiriladi.

Davlatni boshqarishning demokratik asoslarini rivojlantirish boshqarishdagi jamoatchilik usullarini rivojlantirish bilan bevosita

bog'liq. Jismoniy tarbiya va sportni jamoat shaklida boshqarish – bu jamoatchilik ixtiyoriyligi asosida Jamoat jismoniy tarbiya tashkilotlari faoliyati, kasaba uyushmalari, ko'ngilli sport jamiyatlari (KSJ) va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan bevosita boshqarilib turilgan. Havaskorlik tashkilotlarida o'quv, tarbiyaviy, sport ishlari tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan namunaviy dasturlar va nizomlar asosida olib borilgan.

Jismoniy tarbiyani boshqarishning davlat va jamoatchilik havaskorlik shakli jamiyat rivojlanishi talablariga bog'liq bo'lgan bir xil vazifalarni hal eta turib, bir-birini to'ldirib turgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport komitetining huquqiy maqomi komitet to'g'risidagi tegishli nizomlar bilan belgilangan. Davlat sport komitetining o'z sohasidagi qarorlari barcha vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi jamoat tashkilotlari uchun majburiy hisoblangan. Davlat sport komiteti kasaba uyushmalari, yoshlar tashkiloti, «Mehnat zaxiralari» KSJ, «Dinamo» JTSJ umumrespublika jismoniy tarbiya tizimiga kiruvchi jismoniy tarbiya tashkilotlari bilan hamkorlikda ommaviy jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish hamda sport ishlarini olib borar edi.

1970-1980-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimining asosiy maqsadi yuqori natijalar sportini rivojlantirishdan iborat bo'lgan. O'zbekiston sportchilari sobiq Ittifoq miqyosidagi yirik musobaqalarda yaxshi natijalarga erishgan edi. Bir qator iste'dodli sportchilar Ittifoq terma jamoalar tarkibida jahon sport musobaqalari hamda Olimpiya o'yinlarida ishtirok etib, yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan. Sportchi opa-singillar Tamara va Irina Press (yengil atletika), V.Bondarenko (suzish), R.Sarkisov (gimnastika) iqtidorli sportchilarni - S.Diamidov, E.Saddi, T.Ibrohimov, E.G'iyosov va h.k. tayyorlaganlar. Respublika sportini S.Babanina (suzish), R. Kazakov (kurash), S.Qurbonov (sambo), R.Risqiyev (boks), A.Yudin (velosport), V.Ballod (yengil atletika), R.Salimova (basketbol), V.Duyunova (voleybol), M.Ismoilov (ot sporti), S.Ro'ziyev (qilichbozlik) kabilar munosib himoya qilganlar.

VIII spartakiada 1983-yil sport turlari bo'yicha sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida o'tkazildi. Spartakiadaning dasturi asosida ilk bor uch guruhga bo'lib musobaqalar tashkil etilgan. Birinchi guruhda: Rossiya, Moskva, Leningrad, Ukraina, Belorussiya jamoalari edi.

Ikkinchi guruhda: Qozog'iston, Gruziya, O'zbekiston, Litva, Latviya jamoalari bo'lib, ular orasida Qozog'iston g'olib chiqqan. Uchinchi guruhda: Armaniston, Ozarbayjon, Moldaviya, Estoniya, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston jamoalarining o'zaro musobaqalari o'tkazilgan va Armaniston g'olib chiqqan edi.

Sobiq Ittifoq xalqlari spartakiadalari

Spartakiadalar	O'tkazilgan yili	O'tkazilgan joyi
I	1956	Moskva
II	1959	Moskva
III	1963	Moskva
IV	1967	Moskva
V	1971	Moskva
VI	1975	Moskva
VII	1979	Moskva
VIII	1983	Moskva
IX	1987	Moskva
X	1991	Moskva

Markaziy Osiyo spartakiadalari va o'yinlari

Spartakiadalar	O'tkazilgan yili	O'tkazilgan joyi
I	1934	Toshkent
II	1943	Olma-Ota
III	1944	Toshkent
IV	1945	Frunze
V	1948	Dushanba
VI	1950	Olma-Ota
VII	1952	Ashxobod
VIII	1954	Toshkent
IX	1957	Frunze
"Do'stlik" o'yinlari	1991	Olma-Ota
I Markaziy Osiyo o'yinlari	1995	Toshkent
II Markaziy Osiyo o'yinlari	1997	Olma-Ota
III Markaziy Osiyo o'yinlari	1999	Bishkek

IX Spartakiada 1987-yil 23 ta shaharda tashkil etilib, ularda sportning 37 turi bo'yicha musobaqalar olib borilgan. Rossiya sportning 17 turi (1-o'rin), Ukraina-12 turi (II) va Moskva shahri esa 7 tur bo'yicha (III) g'oliblikni qo'lga kiritgan. Leningrad, O'zbekiston, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkmaniston sportchilari juda sust qatnashgan edi. X Spartakiada 1991-yil 6-iyulda Moskva shahrida o'tkazilgan.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti (O'zDJTI). *"1955-yilning 13-avgustida O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutini (O'zDJTI) ta'sis etish to'g'risidagi farmoyish chiqarilgan. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha yagona oliy o'quv yurti hisoblanadi. Institutni tashkil etish va ochish birinchi rektor Arminak Tigranovich Kocharovga topshirildi. 1955-yildan 1958-yilgacha institutga rahbarlik qildi, o'quv-tarbiya jarayonini hamda oliy jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'ydi, iqtidorli sportchilarni talabalikka ilk bor qabul qildi. Institut xodimlari tarkibi sobiq Ittifoqning Moskva va Leningrad jismoniy tarbiya institutlari bitiruvchilari hisobidan to'ldirildi.*

1958-1966-yillarda O'zDJTIga Rustam Ismoilovich Ismoilov rahbarlik qildi. R.I.Ismoilov institut va uning bo'limlari tuzilmasini mahalliy xalq vakillaridan xodimlarni tayyorlashni hisobga olgan holda tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha maqsadli ishlarni amalga oshirdi. Ana shu davrda O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti jismoniy tarbiya sohasi uchun xodimlarni tayyorlash markaziga aylandi.

1967-1984-yillarda O'zDJTIga To'raxodjayev Xojiahmad Xodjayevich rahbarlik qildi. Uning boshchiligida institut ilmiy-pedagogik va ilmiy tadqiqot markaziga aylantirildi. X.X.To'raxodjayevning tashabbusi bilan sport fiziologiyasi ilmiy laboratoriyasi tashkil etildi. Laboratoriyaning asosiy vazifasi yuqori malakali sportchilarni xalqaro musobaqalarga, xususan Olimpiya o'yinlariga tayyorgarligini ilmiy asoslash, ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlashdan iborat edi. Ilmiy laboratoriyaning ilmiy tadqiqotlari institut professor-o'qituvchilar tarkibining kasbiy-pedagogik sifatlarini takomillashtirishga va institutda o'quv-tarbiya jarayoni sifatini

oshirish maqsadida yosh mutaxassislarni tayyorlashga sharoit yaratdi.

1985-2001-yillarda institutga Hamroqulov Abduhamid Qodirxonovich rahbarlik qildi. Bu davrda A.Q.Hamroqulov o'quv-tarbiya jarayoni va ilmiy-pedagogik xodimlarni tayyorlashni izchil ravishda takomillashtirib bordi.Uning tashabbusi bilan institutda aspirantura, doktorantura va professor A.Q.Hamroqulov raisligida O'zbekistonda birinchi jismoniy tarbiya va sport sohasida pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo'yicha ixtisoslashtirilgan Kengash tashkil etildi.

2001-2006-yillarda institutga Qudratov Ropijon Qudratovich rahbarlik qildi. Bu davrda institut o'quv binolarini ta'mirlash, o'quv-sport inshootlarini qayta ta'mirlash borasida ijobiy ishlar amalga oshirildi.

2006-2016-yillarda O'zDJTIga J.A.Akramov, O.A.Qurbonov, Sh.X.Isroilov rahbarlik qildilar. Bu davrda institutda jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha yangi yo'nalishlar, jumladan kasb ta'limi, sport menejmenti, sport marketing, xotin-qizlar sporti yangi yo'nalishlari ochildi. Hozirgi vaqtda O'zDJTIda 5 ta fakultet, 18 ta kafedralarda turli sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan.[26]

Xulosalar

➢ 1920-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimining asosiy vazifasi harbiy tayyorgarlikdan iborat bo'lgan.

➢ 1920-1930-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimi aholining mehnat tayyorgarligiga yo'naltirilgan edi.

➢ 1930-1940-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimining asosiy vazifasi aholining harbiy-jismoniy tayyorgarligini oshirishdan iborat bo'lgan.

➢ 1952-yildan boshlab sovet sportchilari va ularning qatorida O'zbekiston sportchilari Olimpiya o'yinlarida ilk bor ishtirok etadilar.

➢ 1950-1960-yillarda sovet jismoniy tarbiya tizimining asosiy maqsadi yuqori natijalar sportini rivijlantirishdan iborat bo'lgan.

---

[26] O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti faxriylari. T.: O'zDJTI, 2007.- 7-10 b.

➢O‘zbekistonda 1950-yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislarini tayyorlash dolzarb masalalardan biriga aylangan edi.

➢1970-1990-yillarda ommaviy jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya masalalariga e’tibor berilgan.

Nazorat savollari:

O‘zbekistonda sovet jismoniy tarbiya va sport tizimi qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?

Qanday sabablar sovet jismoniy tarbiya tizimi shakllariga ta’sir qilgan?

Spartakiada sport musobaqalari qanday ahamiyatga ega bo‘lgan?

Birinchi O‘rta Osiyo spartakiadasi qachon o‘tkazilgan?

Toshkentda jismoniy tarbiya texnikumi kimning qarori asosida ochilgan?

Ikkinchi jahon urushigacha sport sohasida qanday muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lgan?

Mehnat va mudofaaga tayyor (MMT) majmui haqida nimalarni bilasiz?

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti qachon tashkil topgan?

Sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining spartakiadalarida O‘zbekiston sportchilari qanday ishtirok etgan?

8-§. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport (1991 – hozirgi davrgacha)

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovni 1991-yil 31-avgustdagi Farmoniga asosan O‘zbekiston mustaqil Respublika deb rasmiy ravishda e’lon qilindi. O‘zbekiston umumjahon o‘zgarishlar jarayonlari oqimida o‘zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy yangilanishlari dasturiga ega bo‘lgan mamlakat sifatida o‘ziga xos mavqe egalladi. Yangi sivilizatsiya va insoniyat taraqqiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazishga qodir bo‘lgan davlat sifatida o‘zining keng imkoniyatlarini namoyon etdi.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng ko‘lamdagi ishlar hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi bilan aloqador ekanligini alohida qayd etish lozim.

Insoniyat tarixi turli davrlarda Uyg'onish hodisasini bosib o'tgan. O'zbek xalqi tarixida IX-XII asrlarda Uyg'onish davri - birinchi Renessans hodisasi bo'ldi.

Turon xalqlari tarixidagi Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar nomi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi Uyg'onish davri jahon fani, madaniyati, umuminsoniy qadriyatlarni yuksak darajada o'zida mujassam etgan milliy davlatchilik va boshqaruv tizimining shakllanishi, milliy tiklanish davri bo'lib tarixda qoldi.

XX asrning so'nggi yillari o'zbek xalqi tarixida butunlay yangi davrni boshlab berdi. O'zbekiston o'zining juda katta aqliy va jismoniy imkoniyatlarini namoyon etib, jahon siyosatiga eng zamonaviy fikrlar bilan kirib bormoqda. Davlatimiz o'zining novatorlik kuchini ko'rsatayotgan dasturiy konsepsiyalari, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini ham tubdan isloh qilishga ta'sir qiladigan g'oyatda yangi imkoniyatlarini namoyish etmoqda. Ana shu nuqtayi nazardan, mustaqillik, milliy g'oya, milliy taraqqiyot, modernizatsiya tushunchalari va bevosita uning tashabbuskori Islom Karimov nomi bilan bog'liq bo'lgan uchinchi Renessans davri boshlandi.[27]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yalpi yangilanishlar O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida, nutq va ma'ruzalari, suhbat va intervyularida ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil etilgan. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov kitoblari istiqlol davridagi yangi tariximizni o'rganishning asosiy manbalardan biri va eng muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda milliy, regional va umumjahon jarayonlar doirasida izchil kechayotgan o'zgarishlarni o'rganish, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni baholash, tahlil etish, ilmiy-nazariy umumlashtirish, yangilanishlar rivoji o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi suverenitetining birinchi yillaridan jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga milliy taraqqiyotga yordam beruvchi omil sifatida katta e'tibor qaratildi. Aynan shu maqsadlarda jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi

---

[27] Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, O'zbekistonim. O'quv-uslubiy qo'llanma. T.: 2014.–160 b.

o‘zgarishlar jamiyatimizning yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy sharoitlariga moslashtirildi.

Bunda jismoniy madaniyat va sport harakati ham o‘zining haqli ravishdagi milliy maqomiga ega bo‘ldi. Respublikaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy salohiyatida jismoniy tarbiya va sport ham o‘z o‘rni va mavqeiga egadir.

O‘zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir, deb to‘la ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Mustaqil O‘zbekistonning jismoniy madaniyat va sportini yanada rivojlantirishga asos bo‘luvchi eng muhim tadbirlar ko‘rilmoqda. Mustaqillik tufayli ma’naviy ruhiy poklanish, milliy qadriyatlarni tiklash, milliy an’analarga sadoqatli avlodni tarbiyalash va amaliyotga joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqildi, Vatan ravnaqini ta’minlab beruvchi milliy istiqlol g‘oyasi shakllandi. O‘zbek mentaliteti, milliy xarakter mazmunida yangi jihatlar tarkib topdi. Bu bevosita siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma’rifiy sohada tub yangilanishlarga ma’naviy asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun asosida joriy etilgan ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy omillar davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishga aylandi. Jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Bu yo‘nalishdagi ishlar talaba-yoshlarda zamonaviy dunyoqarash, ularning ongiga vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, o‘z Vataniga xizmat qilish kabi yuksak tuyg‘ularni kamol toptirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda istiqloldan so‘ng 1992-yil 14-yanvarda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan. 2000-yil 26-mayda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni ikkinchi tahrirda qabul qilingan.

2015-yil 5-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi **«Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»**gi Qonunining uchinchi Yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur Qonun 8 ta bob va 47 moddadan iborat. Qonunning asosiy maqsadi – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi

munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi. Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat va sportning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini belgilaydi. Qonunning 4-moddasida "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari" ko'rsatilgan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

– har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug'ullanishga bo'lgan huquqini ta'minlash;

– jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

– fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash;

– jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik;

– jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarning, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarining hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash;

– sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

– nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek, yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish;

– milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– fuqarolarni jismoniy tarbiyalashning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash;

– xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qabul qilinadigan huquqiy hujjatlar "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun normalariga mos bo'lishi shart. Ushbu qonun turli tashkilot va muassasalarda jamiyatning barcha a'zolari ishtirokidagi sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ishlarining ommaviy va individual shakllarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Qonun jismoniy tarbiya va sportni kasalliklarni oldini olish, sog'liqni mustahkamlash, shaxsning

mehnatkashlik xususiyatini ta'minlash, vatanparvar fuqarolarni tarbiyalash, millatlararo do'stlikni rivojlantirish va mustahlamlash vositasi deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonunida xalqaro hujjatlarda aks etgan inson va fuqaro huquqlariga oid normalar o'z aksini topgan. Qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodlari, shaxsiy va jamiyatdagi holatidan qat'i nazar, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida qatnashishga, jismoniy tarbiya-sport jamoatchilik birlashmalarini tuzishga, jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarishda ishtirok etish huquqlariga ega. Chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy tarbiya va sport sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega, deb belgilangan.

Qonunda O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi, jismoniy tarbiya-sport jamiyatlari, sport turlari bo'yicha federatsiyalar, jamg'armalar, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, sport klublari va asosiy maqsadi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdan iborat bo'lgan boshqa jamoat birlashmalarining vakolatlari belgilangan. Mazkur tashkilotlar o'z faoliyati doirasida qonun, davlat boshqaruv organlari huquqiy normalariga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni barcha aholining sog'lig'ini mustahkamlash, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berish kafolatlarini beradi.

O'zbekiston hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy-me'yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni bilan 1993-yil martda «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etildi. Ta'lim-tarbiya va tibbiyot sohalarida a'lo darajada xizmat qilgan xodimlar, rahbarlar va yosh avlodni tarbiyalashga ulkan hissa qo'shgan shaxslarga I-III darajali ordenlar beriladi. «Sog'lom avlod» davlat dasturi ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Dasturning asosiy yo'nalishi tibbiyot, ta'lim, mahalla va boshqa sohalarda aholining salomatligini muhofaza qilish, sog'liqni yaxshilash bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarini yanada yaxshilash, bunda oila, mahalla va mehnat jamoalarda ijtimoiy turmush sharoitni yaxshilashga qaratilgan

tadbirlarni maqsadli o'tkazish ko'zda tutildi. Unda shuningdek «Sog'lom ona va sog'lom bola» shiori ustuvor bo'lishi ta'kidlangan.

O'zbekiston mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport ishlari ancha rivoj topdi. Futbol, tennis, o'zbek kurashi, boks, sharqona yakka kurashlar (karate, dzyu-do, taekvando, ushu, qo'l to'pi va h.k.) yoshlar orasida tobora ommalashmoqda.

O'zbekistonda futbol, tennisni rivojlantirish, boks va kurash bo'yicha xalqaro turnirlar o'tkazish haqidagi hukumat qarorlari muhim ahamiyatga egadir.

«O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-maydagi qarori barcha davlat idoralari hamda nodavlat va jamoat tashkilotlari uchun katta ahamiyatga ega. Bu qaror asosida aholining barcha tabaqalari, ishlab chiqarish korxonalari, tarbiya, o'quv muassasalari sohalarida jismoniy tarbiya va sportni keng yo'lga qo'yish vazifalari belgilangan.

«O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va uning asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning Davlat dasturi Konsepsiyasi jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rivojlanishining tashkiliy-huquqiy va moliyaviy asoslarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Jismoniy tarbiya va sporti rivojlantirish Davlat dasturi Konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar qabul qilindi:

- jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish;
- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlarini va sportning milliy turlarini rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya hamda sportni ilmiy-uslubiy va tibbiy ta'minlash;
- jismoniy tarbiya va sport tizimi imkoniyatlarini rivojlantirish;
- jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, nodavlat sektorini rivojlantirish.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, unga jalb qilish hamda targ'ib [illegible] oid tashkiliy-huquqiy masalalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasining [illegible] 6-iyundagi "O'quvchi va

talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi Qarorida umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport musobaqalari tashkil qilindi.

Madaniyat va sportni rivojlantirish muammolarini kompleks tarzda hal etish, jismonan sog'lom, ma'naviy jihatdan barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish, sog'lom turmush tarzi va sportga muhabbat tuyg'usini singdirish, shuningdek, madaniyat va sport sohasini boshqarishni takomillashtirish, bu sohada davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini ko'rtarish maqsadida 2004-yil 27-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilingan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tugatilib, ularning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tashkil qilingan edi.

Mazkur farmonni bajarish yuzasidan hamda madaniyat va sport sohasida davlat siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish darajasini oshirish maqsadida 2004-yil 30-sentabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2017-yil 15-fevralda Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport Davlat Qo'mitasi tashkil etildi.

Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida:

- jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy-sport ishlari va milliy sport turlari rivojlantirildi;
- jismoniy tarbiya va sport sohasini mablag' bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi, nodavlat sektor rivojlantirildi;
- jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi;

▪ milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Eslab qoling!

❖ **1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan (birinchi tahrir).**

❖ **2000-yil 26-mayda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni ikkinchi tahrirda qabul qilingan.**

❖ **2015-yil 5-sentabrda O'zbekiston Respublikasi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonunining uchinchi Yangi tahriri qabul qilingan. Qonun 8 ta bob va 47 ta moddadan iborat.**

❖ **«Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonunning asosiy maqsadi – jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.**

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini to'rtta asosiy yo'nalishlarda kuzatish mumkin: ommaviy sport, bolalar sporti, xotin-qizlar sporti, yuqori natijalar sporti.

Ommaviy sport. Aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan musobaqalar orqali barcha ijtimoiy qatlamga mansub aholi vakillari sportga jalb qilinmoqda. Har yili yoshlar, ishchi va xizmatchilar, madaniyat, huquq-tartibot, mudofaa xodimlari o'rtasida "Kamolot kubogi", milliy o'yinlar bo'yicha "Alpomish" sport musobaqalari, yoshlarning "Shunqorlar" harbiy sport musobaqalari, ayollarning "To'maris" sport festivali, nogironlarning "Jasorat-iroda-g'alaba" sport musobaqalari, o'quvchi va talabalarning uzluksiz sport musobaqalari muntazam o'tkazilmoqda.

Mamlakatda milliy sport turlari va xalq o'yinlarini tiklash, ularni ommalashtirish va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. 1994-yilda birinchi marta Jizzax viloyatining Forish tumanida I Xalq o'yinlari festivali o'tkazildi. O'sha davrdan boshlab muntazam ravishda, har ikki yilda bir marta (1998-yildan "Alpomish" milliy sport turlari va o'yinlari festivali nomi bilan) o'tkazilmoqda. Festivallarda Xalq o'yinlari bo'yicha musobaqalar bilan bir qatorda ilmiy amaliy anjumanlar ham o'tkaziladi. 1999-yildan esa xotin-qizlar

o‘rtasida “To‘maris” milliy sport turlari va Xalq o‘yinlari festivali ham o‘tkazila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi Qonunining (Yangi tahriri) 20-moddasida “O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari”ni rivojlantirish belgilab berilgan.

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosining ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va Vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga intilish tuyg‘ularini tarbiyalash poydevoridir.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, shuningdek boshqa tashkilotlar:

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashadi hamda ularni aholi o‘rtasida yoyish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini mustahkamlashga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasiga kiritish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Sportning ommaviy o‘yin turi – futbolni yanada rivojlantirish maqsadida barcha viloyatlar va shahar markazlaridagi stadionlar qayta ta’mirlandi, futbol maydonlari rekonstruktsiya qilindi, futbol maktab-internatlari tashkil etildi, futbolni professional klublar tizimiga o‘tkazilishining asosiy tamoyillari belgilandi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida sportning o‘yin turlari qatorida katta tennis ommaviy ravishda, tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakat aholisi o‘rtasida tennisni targ‘ib etish, shug‘ullanuvchilarga tegishli sharoitlar yaratish maqsadida 1998-yilda Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekistonda tennisni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, bir necha yilda jahon andozalari talablariga javob beradigan tennis kortlari bunyod etildi, ular negizida turli darajadagi xalqaro musobaqalar o‘tkazilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sportni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilish, uning mohiyatini mamlakat aholisiga yetkazish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2003-yilda "Ommaviy sport targ‘ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori

qabul qilinib, unga binoan, O'zbekiston televideniesida maxsus "Sport" kanali tashkil etildi.

Mazkur ishlar sport bilan shug'ullanuvchilar sonini ortib borishiga zamin yaratmoqda. Masalan, 2008-yilda futbol bilan shug'ullanuvchilarning soni 1991-yildagiga nisbatan 80,6 foiz, kurash bilan shug'ullanuvchilar esa 89,8 foizga ko'paygan. 1991-yilda yurtimizda 52 sport turi mavjud bo'lsa, bugungi kunda 74 ta sport turidan 65 dan ortig'i barcha hududlarda keng rivoj topib, ularni ommalashtirish uchun sharoitlar yaratilmoqda.

Yurtimizda o'zbek kurashi bo'yicha Jahon chempionati, boks, erkin kurash, yunon-rum kurashi, shaxmat, pauerlifting va sambo bo'yicha Osiyo chempionatlari, taekvondo (ITF) bo'yicha jahon chempionati, yunon-rum, erkin va ayollar kurashlari, shaxmat va boshqa ko'plab sport turlari bo'yicha an'anaviy yirik xalqaro turnirlar o'tkazilmoqda.

Toshkentda "Paxtakor" stadioni qayta rekonstruktsiya qilindi, Qarshi shahridagi "Nasaf" va Toshkent shahridagi "Bunyodkor" stadionlari xorijiy stadionlar bilan teng raqobat qila oladigan talabda tez fursatda qurildi.

Bolalar sporti. Yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy-texnik bazasini yaratish, zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etish, sport uskunalari va jihozlari bilan ta'minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida 2002-yil oktabr oyida "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylangan edi.

O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi 2002-yilda tashkil etilgan. Bolalar sportini rivojlantirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamg'armaning asosiy maqsadi bolalarga sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni barpo etishdan iborat. Yosh avlodni bolaligidan sportga qiziqishini uyg'otish, ularni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash Jamg'armaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2011-yilda "Bolalarni asraylik" xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O'zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g'amxo'rlik ko'rsatayotgan eng ilg'or yetakchi o'n

mamlakat qatoriga kiritilgani yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalash yo'lidagi amaliy sa'y-harakatlarning yana bir xalqaro e'tirofidir.

Mazkur jamg'arma mablag'lari hisobidan 2003-2013-yillarda 1816 ta sport obyektining ishga tushirilib, bolalarni sport bilan muntazam shug'ulllanishiga xizmat qilmoqda. 2014-yilda 115 ta bolalar sporti obyektini qurish va rekonstruksiya qilish, ularni asosan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlash uchun 107 milliard so'm mablag' ajratildi.

Maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etish 20,4 foizdan 40,5 foizga, jumladan qizlar o'rtasida 16,4 foizdan 32,5 foizga o'sdi. Umumta'lim maktablaridagi sport to'garaklari soni 65432 ta bo'lib, ularda jami 1637933 nafar o'quvchilar, shu jumladan 706878 nafari qizlar sport bilan muntazam shug'ullanmoqda. So'nggi o'n yilda qishloq joylarda bolalarning sport bilan muntazam shug'ullanishi 14,5 foizdan 39 foizga o'sdi. 1990-yilda 448 ming 800 nafar o'quvchilarning 7,4 foizi sport bilan muntazam shug'ullangan bo'lsa, 2014-yilda 2 million 219 ming nafar o'quvchilarning 34,8 foizi sport bilan muntazam shug'ullanmoqda.

O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilgandan buyon o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda qariyb 1500 ta zamonaviy bolalar sporti obyekti barpo etildi. Yurtimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar 2008-yildagi 29,2 foizdan 2011-yilda 34,9 foizgacha, jumladan, qiz bolalar o'rtasida 24,1 foizdan 31,4 foizgacha oshdi. Sport bilan muntazam shug'ullanish yoshlarning jismoniy holatiga, salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, 2005-2011-yillarda mutlaq sog'lom bolalar mamlakat bo'yicha 52,7 foizdan 62,9 foizgacha o'sdi, surunkali kasalliklarga chalingan bolalar soni esa keskin kamaydi. O'g'il va qiz bolalarning o'rtacha bo'yi va salmog'i oshmoqda. Harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar o'rtasida xizmatga loyiq deb topilganlar sezilarli darajada ortgani ham bu boradagi ishlarning amaliy natijasidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda 2 millionga yaqin bolalar, shu jumladan, 842 ming qizlar 30 dan ortiq sport turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Bu raqam 2003-yilga nisbatan 1,4 barobar ko'pdir. Bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan aniq maqsadli ishlar natijasida yoshlar muntazam shug'ullanadigan sport turlarining soni 2005-yilda 43 tadan 2015-yilda 59 tagacha yetdi.

O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining faoliyati natijalarini aniq raqam va misollar asosida ko‘rsatish mumkin. 2005-yilda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning 30 foizi, jumladan, qishloq joylarga 29 foizi sport bilan shug‘ullangan bo‘lsa, 2015-yilda bu raqamlar tegishli ravishda 57,2 foiz va 56 foizni tashkil etdi.[28]

2015-yilda Jamg‘arma mablag‘lari hisobadan 24 ta davlatdan ortiq mamlakatda bo‘lib o‘tgan 53 ta xalqaro sport musobaqalarida sportning 27 turida 479 nafar (166 nafari qizlar) o‘quvchi-yoshlar ishtirok etib, jami 314 ta medal (140 ta oltin, 83 ta kumush, 91 ta bronza) olganlar (2014-yilga nisbatan oltin medallar soni 14 taga ko‘paygan) (*2-jadval*).

2-jadval

O‘zbekiston yoshlarining xalqaro sport musobaqalaridagi natijalari

Yil	oltin	kumush	bronza
2005	5	6	5
2014	126	105	160
2015	140	83	91

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan Bolalar sporti obyektlarini barpo etish, bolalar-o‘smirlar sport maktablaridan foydalanish darajasini va ular faoliyatini samaradorligini yanada oshirishga doir takliflarni ishlab chiqish, ularni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarni sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalb etishni kengaytirish maqsadida 2015-yil 11-dekabrda “Bolalar-o‘smirlar sport maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 356-sonli qaror qabul qilindi.

2016-yilda ta’lim sohasiga ajratilgan mablag‘lar doirasida 280 ta sport zallarini qurish va bu maqsadlarga budjetdan 154 mlrd.so‘m ajratildi. Har bir tumanda kamida bittadan zamonaviy, zarur uskunalar va inventarlar bilan jihozlangan Bolalar va o‘smirlar sport maktabini tashkil etish maqsadida 25 ta sport maktablarini to‘liq modernizatsiya

[28] Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi me’yoriy huquqiy hujjatlar to‘plami.T.:2016.- 215 b.

qilish rejalashtirildi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun budjetdan 80 mlrd.so'm ajratildi. 2016-yilda Madaniyat va sport sohasi xarajatlari ham 2015-yilga nisbatan 16 foizga oshirildi va 449 mlrd.so'mni tashkil etdi.[29]

Xotin-qizlar sporti. O'zbekiston dunyoning 125 davlati orasida xotin-qizlar uchun qulay sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish borasida yetakchi o'rinlardan birini egallab turibdi. Jahon reytingida mamlakatimiz ona va bola salomatligiga eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatayotgan 10 ta davlat safidan joy oldi. Aholi genofondini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ayollarning o'rtacha umri 66 yoshdan 73,5 yoshga uzaydi. Onalar va go'daklar o'limi 3 barobar kamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida «Sog'lom avlod uchun» sovrini uchun qizlar o'rtasida sport musobaqalari, shu jumladan sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish vazifasi davlat organlariga yuklatilgan. Respublika hududlarida O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan 2005-yildan boshlab "Gimnastika barcha uchun" sport festivali, "Otam, onam va men sportchi oila", "Sog'lom ayol – sog'lom jamiyat" shiori ostida sport musobaqalari tashkil etilib, ularda har yili 500 mingdan ortiq xotin-qizlar ishtirok etmoqda.

Mamlakatimizda ayollarga xos sport turlarini rivojlantirish, sport bilan shug'ullanishni aholining kundalik turmush tarziga aylantirish va shu orqali ayollar salomatligini asrash, ayolda o'z sog'ligiga bo'lgan mas'uliyatni kuchaytirish, sog'lom avlod tug'ilishini ta'minlash masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida "Xotin-qizlar sportini rivojlantirish yo'nalishi" tashkil etilib, yuqori malakali ayol trenerlar va jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida 25169 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchilari, shundan 6763 nafari ayol, bolalar va o'smirlar sport maktablarida esa jami 9983 nafar murabbiylar, shundan 2536

[29] Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami.T.:2016.- 220 b.

nafari ayol murabbiylar faoliyat ko'rsatmoqda. 2015-yilda bolalar sporti obyektlaridagi murabbiy-o'qituvchilar soni 10612 nafar, jumladan ayollar 2 809 nafarni (26,5 foiz) tashkil etadi.

Shundan ma'lumoti darajasi bo'yicha – oliy ma'lumotli murabbiylar 5045 (47,5 foiz), ulardan ayollar 1327 nafari ayollar (47,2 foiz) tashkil etadi.[30]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 1-aprelda qabul qilgan "Qishloq joylardagi bolalar sport obyektlarida band bo'lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Bunda qishloq joylarda faoliyat ko'rsatayotgan ayol jismoniy tarbiya o'qituvchilari va murabbiylar ish haqiga 15 foiz qo'shimcha ta'riflar berish belgilandi.

Yuqori natijalar sporti. Yuqori natijalar sporti yoki katta sportning rivojlanish dinamikasini O'zbekiston terma jamoalarining xalqaro sport musobaqalari, Olimpiya va Osiyo o'yinlaridagi yutuqlari asosida kuzatish mumkin. Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari ko'pgina nufuzli xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib kelmoqdalar.

O'zbekiston jahonda sport jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rin oldi. Ayniqsa, O'zbek kurashini o'rganish va o'rgatish borasida respublika murabbiylari Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi, Avstraliya, Afrika, Amerika va Yevropa qit'alariga borib kelishmoqda. O'z navbatida barcha qit'alarning rasmiy vakillari O'zbekistonda bo'lib, kurash va boshqa sport turlari bo'yicha tajribalar almashishmoqda. Bu esa sportchilarning xalqaro turnirlar, o'rtoqlik uchrashuvlari va boshqa musobaqalarni tashkil qilishga zamin tayyorlamoqda.

2004-yilda Rustam Qosimjonov Jahon shaxmat federatsiyasi – FIDE yo'nalishi bo'yicha jahon chempioni bo'ldi. Iroda To'laganova eng nufuzli Uimbldon turnirida g'olib chiqqan, o'zbek bokschisi Abbos Atoyev 2007-yil AQSHning Chikago shahrida o'tkazilgan jahon birinchiligida o'z vaznida chempion bo'lgan.

O'zbekiston terma jamoalarining xalqaro sport musobaqalari, Olimpiya, Osiyo, Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlaridagi erishgan natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqillikdan avval

---

[30] Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami.T.:2016 - 195 b.

O‘zbekistondan 10 ta yozgi Olimpiya o‘yinlarida 59 nafar sportchi ishtirok etgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin birgina Atlanta shahrida bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida mamlakatimizning 76 nafar sportchisi qatnashdi.

Mustaqillik yillarida futbol bo‘yicha Jahon chempionatlari tarixida eng ko‘p o‘yinlarni boshqargan Ravshan Irmatov Jahonning eng yaxshi hakami nomzodiga sazovor bo‘ldi, sportchilarimiz Server Jeparov – Osiyoning eng yaxshi futbolchisi, Rustam Qosimjonov – shaxmat bo‘yicha jahon chempioni, Dilshod Mansurov – erkin kurash bo‘yicha jahon chempioni, Ruslan Nurudinov – og‘ir atletika bo‘yicha jahon chempioni, Abdusattarov Nodirbek, Sindarov Islom va Sindarov Javohir – shaxmat bo‘yicha Jahon chempionlari unvonlariga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston sportchilari mustaqillik yillarda xalqaro sport musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, ko‘plab medallarni qo‘lga kiritganlar (*3-jadval*).

Jismoniy tarbiya va sport rivojining moliyaviy ta’minlanishini O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Jahon chempionatlarida yuqori natijalarga erishgani uchun O‘zbekiston Respublikasi sportchilarini mukofotlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2008-yilgi Farmonida ko‘rish mumkin.

3-jadval

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sportchilarining yutuqlari

Jahon va Osiyo chempionatlari 1991-2014 yy.	
Oltin	799
Kumush	884
Bronza	472
Jami	2155

Xalqaro sport musobaqalari 1991-2014 yy.	
Oltin	2874
Kumush	2909
Bronza	3471
Jami	9254

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2007-yil yanvarda qabul qilingan sportchilarni rag‘batlantirish bilan bog‘liq bir qator nizomlar, jumladan, “Osiyo o‘yinlarida qo‘lga kiritilgan yuksak natijalar uchun O‘zbekiston Respublikasi sportchilariga bir martalik mukofotlarni to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom” hamda 2009-

yilda "Jahon chempionatlarida yuqori natijalarga erishgani uchun O'zbekiston Respublikasi sportchilariga bir martalik pul mukofotlarini to'lash tartibi to'g'risida Nizom" qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasiga ko'ra, yuqori malakali sportchilarni va sport zaxirasini tayyorlash ixtisoslashtirilgan sport ta'limi muassasalari hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Hozir O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimida ommaviy sport, yuqori natijalar sporti faoliyatning huquqiy me'yorlari shakllanmoqda. "Professional sport" yuqori natijalar sporti (yoki katta sport) hisoblanib, unda davlat miqyosidagi yoxud xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan musobaqalarda sportchilar erishgan g'alabalar, o'rnatgan rekordlar birinchi o'rinda turadi. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasi "Havaskorlik sporti va professional sport" masalalariga bag'ishlanib, uning huquqiy asoslari ko'rsatilgan.

2015-yil 23-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

O'zbekiston sharafini jahon sport maydonlari – Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, Jahon va Osiyo chempionatlarida, boshqa xalqaro sport musobaqalarda munosib himoya qilishga qodir bo'lgan xalqaro darajadagi sportchilarni tayyorlash bo'yicha samarali tizimni yaratish, buning uchun xalqaro standartlarga javob beradigan, zamonaviy sport uskunalari bilan jihozlangan o'quv-mashq bazalarini shakllantitish, sportchilarni tayyorlash jarayoniga eng yangi ilmiy-metodik texnologiyalarni egallagan yuqori malakali murabbiy-o'qituvchi kadrlarni keng jalb qilish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish rejalashtirildi (*4-jadval*).

Yoshlar sporti. Respublikamizda millat genofondini yaxshilash, xalq salomatligini mustahkamlash va xalqaro maydonda shon-shuhrat qozonishning eng ommalashgan vositalaridan biri - sportni aholi orasida keng targ'ib etish, iqtidorli bolalarni aniqlab, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

4-jadval

2016–2020-yillarda tashkil etiladigan Oliy mahorat sport maktablari ro'yxati

T/r	Oliy mahorat sport maktablari nomi	Ixtisoslashtirilgan sport turi	Yangi qurish, rekonstruksiya qilish muddati
1.	Nukus Oliy mahorat sport maktabi	Sport kurashlari	2018-2019-yillar
2.	Andijon Oliy mahorat sport maktabi	Boks	2016-2017-yillar
3.	Buxoro Oliy mahorat sport maktabi	Gimnastika	2017-2018-yillar
4.	Jizzax Oliy mahorat sport maktabi	Boks	2018-2019-yillar
5.	Qarshi Oliy mahorat sport maktabi	Dzyudo	2017-2018-yillar
6.	Navoiy Oliy mahorat sport maktabi	Suv sporti turlari	2018-2019-yillar
7.	Namangan Oliy mahorat sport maktabi	Velosport	2018-2020-yillar
8.	Samarqand Oliy mahorat sport maktabi	Yengil atletika	2016-2017-yillar
9.	Termiz Oliy mahorat sport maktabi	Sportning yakkakurashi	2019-2020-yillar
10.	Guliston Oliy mahorat sport maktabi	Tennis, stol tennisi	2017-2018-yillar
11.	Toshkent viloyati Oliy mahorat sport maktabi	Sport o'q otish	2017-2019-yillar
12.	Farg'ona Oliy mahorat sport maktabi	Taekvondo	2019-2020-yillar
13.	Urganch Oliy mahorat sport maktabi	Og'ir atletika	2019-2020-yillar
14.	Toshkent Oliy mahorat sport maktabi	Sport o'yinlari	2016-2018-yillar

Respublika yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" uch bosqichli sport musobaqalari an'anaga aylanib, nafaqat sportchi yoshlar ko'rigi bo'lib qoldi, ular O'zbekistonning taraqqiyot sari ishonch bilan bosgan odimlari ifodasidir. Mamlakatimizda "Universiada", "Barkamol avlod", "Umid nihollari" kabi o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida uzluksiz sport musobaqalarining tantanali ravishda o'tkazilib kelinayotganligi iqtidorli va iste'dodlilar safini kengaytirish bilan birgalikda shahar va qishloqlarimizda sport inshootlarini ko'paytirish imkoniyatini ham yaratdi. O'quvchi yoshlar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish, ularni ommaviy ravishda jismoniy-tarbiya va sport harakatiga jalb qilishga qaratilgan sport musobaqalarining uch bo'g'inli yagona tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi.

"Umid nihollari". O'zbekiston maktab o'quvchilarining I Respublika sport o'yinlari "Umid nihollari" 2002-yilda Farg'ona viloyatida o'tkazilgan.

Uch bosqichli tizimning uzviy qismi bo'lgan "Umid nihollari" musobaqalarida mahoratini oshirgan yoshlarimizning ko'pchiligi bugun xalqaro arenalarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilmoqda. Yildan-yilga musobaqalar ommaviyligi oshib bormoqda. O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan oxirgi o'n yil davomida viloyatlarda, chekka qishloqlarda o'nlab sport inshootlari qurildi, mavjudlari ta'mirlandi.

O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilgandan buyon o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda qariyb 1500 ta zamonaviy bolalar sporti obyekti barpo etildi. Mamlakatimizda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar 2008-yildagi 29,2 foizdan 2011-yilda 34,9 foizgacha, jumladan, qiz bolalar o'rtasida 24,1 foizdan 31,4 foizgacha oshdi.

2002-yilda Farg'ona viloyatida o'tkazilgan "Umid nihollari" sport musobaqalarida 11 ta sport turi kiritilgan bo'lsa, 2015-yilda Xorazmdagi "Umid nihollari" musobaqalari 17 ta sport turi bo'yicha o'tkazildi.

"Barkamol avlod" Uch bosqichli tizimning o'rta bo'g'ini sanalgan akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining I Respublika «Barkamol avlod» sport musobaqalari 2001 Jizzax shahrida o'tkazilgan. Sport musobaqalari 8 ta sport turi:

basketbol, voleybol, kurash, belbog'li kurash, futbol, yengil atletika, tennis, suzish bo'yicha o'tkazilib, jami 1862 nafar o'g'il-qizlar ishtirok etgan.

Mamlakatimizda minglab yoshlarning jismoniy holatiga, salomatligiga sport ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2005-2011-yillarda mutlaq sog'lom bolalar mamlakat bo'yicha 52,7 foizdan 62,9 foizgacha o'sdi, surunkali kasalliklarga chalingan bolalar soni esa keskin kamaydi. O'g'il va qiz bolalarning o'rtacha bo'yi va salmog'i oshmoqda. Harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar o'rtasida xizmatga loyiq deb topilganlar sezilarli darajada ortgani ham bu boradagi ishlarning amaliy natijasidir. 2011-yilda "Bolalarni asraylik" xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O'zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g'amxo'rlik ko'rsatayotgan eng ilg'or yetakchi o'n mamlakat qatoriga kiritilgani yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalash yo'lidagi amaliy sa'y-harakatlarning yana bir xalqaro e'tirofidir.

"Universiada" – oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun tashkil qilingan musobaqalar hisoblanadi. "Kichik olimpiada"- O'zbekistonda bu musobaqalarni shunday ataydilar. Mazkur musobaqalar dastlab har ikki yilda, 2004-yildan boshlab esa har uch yilda o'tkazilmoqda.

"Universiada" yoshlar uchun tashkil qilingan "Umid nihollari" va "Barkamol avlod" musobaqalarining ramziy davomidir. Yoshlar sporti tizimning yuqori bosqichi bo'lgan Universiada musobaqalari dastlab 9 ta sport turi bo'yicha tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib sport turlari 15 taga yetdi. Bular sportning basketbol, voleybol, kurash, belbog'li kurash, dzyudo, yengil atletika, tennis, stol tennisi, futbol, gandbol, shaxmat va suzish turlaridir.

O'zbekiston talaba yoshlarining I Universiadasi 2000-yil Namangan shahrida o'tkazilgan. Universiada o'yinlarida 1717 nafar talabalar voleybol, futbol, kurash, yengil atletika, tennis, stol tennisi, shaxmat bo'yicha musobaqalarda qatnashgan. Mamlakatimiz talaba-yoshlarining katta sport bayramiga Buxoro (2002-yil), Samarqand (2004) viloyatlari hamda Toshkent (2007), Andijon (2010), Buxoro (2013), Farg'ona (2016) shaharlari mezbonlik qilgan.

1-rasm. O'zbekiston talabalar Universiadalarining emblemasi.

II Universiada 2002-yil Buxoroda bo'lib o'tgan va unda 2848 nafar talaba ishtirok etgan. 2004-yilda Samarqandda III Universiada yana ham keng miqyosli bo'lgan. III Universiada musobaqalarida 2600 dan ziyod talaba-sportchi qatnashgan. Musobaqa dasturiga mini-futbol va og'ir atletika kiritilgan. Universiada o'yinlarida 230 ta oltin, 230 ta kumush va 251 ta bronza medallari uchun musobaqalari o'tkazilgan. Umumjamoa hisobida birinchi o'rinni "Toshkent-1" jamoasi egallagan.

"Universiada-2010" musobaqalari Andijon viloyatida bo'lib o'tgan. Musobaqa o'z ichiga 12 sport turi bo'yicha ayollar va erkaklar bellashuvini olgan. Universiadaning Respublika sport musobaqalari final bosqichida 1178 nafar sportchilar, 238 nafar murabbiylar, 154 nafar hakamlar, 450 nafar ommaviy axborot vositalari vakillari, vazirlik bo'limlari va oliy o'quv yurtlarining 209 nafar vakillari ishtirok etgan.

2013-yili Buxoro viloyatida o'tkazildi. O'zbekiston talaba yoshlarining "Universiada" musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish uchun zarur sharoitlar yaratilib, sport majmualari qurildi, rekonstruksiya va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

«Universiada – 2016» musobaqalarining final bosqichi Farg'ona shahrida bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan jamoalar sportning 15 turi bo'yicha bellashdi. Sport musobaqalarida 1068 nafar sportchi va murabbiy, 155 nafar hakam hamda yurtimizning mashhur sportchilari, ommaviy

axborot vositalari xodimlari qatnashdi. Sport musobaqalari 12 ta zamonaviy sport inshootlarida o'tkazildi.

5-jadval

O'zbekistonda yoshlarning uch bosqichli sport musobaqalari

«Umid nihollari»		«Barkamol avlod»		«Universiada»	
				2000	Namangan
		2001	Jizzax		
2002	Farg'ona			2002	Buxoro
2003	Urganch	2003	Andijon		
				2004	Samarqand
		2005	Toshkent		
2006	Qarshi				
				2007	Toshkent
		2008	Nukus		
2009	Guliston				
				2010	Andijon
		2011	Termiz		
2012	Termiz				
				2013	Buxoro
		2014	Farg'ona		
2015	Xorazm				
				2016	Farg'ona
		2017	Jizzax		

Sport mashg'ulotlariga o'quvchilarni ommaviy ravishda, uzluksiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida yoshlarning uch bosqichli "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o'tkazish rejasi belgilandi *(5-jadval)*.

O'zbekiston yoshlarining «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport o'yinlarini o'z ichiga olgan uch bosqichli noyob tizim bugun millionlab o'g'il-qizlarni ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lom bo'lib ulg'ayishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston talaba yoshlarining Jahon Universiadalarida *(6-jadval)*. O'zbekiston sportchi talabalari 1999-yildan boshlab Jahon Universiadasida ishtirok etmoqda. 2003-yilda Tegu shahrida (Janubiy Koreya) o'tkazilgan Jahon Universiadasida A.Tangriyev va E.Akbarov dzyudo bo'yicha oltin medalga, M.Xalikulov kumush, A.Amanmurodova bronza medallarga sazovor bo'lganlar. 2005-yilda Izmir shahrida (Turkiya) o'tkazilgan Jahon Universiadasida D.Mansurov erkin kurash bo'yicha oltin medal olgan. 2007-yilda Bangkok shahrida (Tailand) o'tkazilgan Jahon Universiadasida X.Nabiyev dzyudo bo'yicha oltin medal olgan. 2009-yilda Belgrad shahrida (Serbiya) o'tkazilgan Jahon Universiadasida dzyudo bo'yicha U.Kurbanov va G. Esimbetov bronza medallar olganlar. 2011-yilda Shenchjen (Xitoy) o'tkazilgan Jahon Universiadasida O'zbekistondan 19 nafar sportchi qatnashgan va 1 ta sportchi kumush medal olgan.

6-jadval

O'zbekiston talaba yoshlarining Jahon Universiadalarida ishtiroki

O'yin	Yil	O'tkazilgan joyi	Sport-chi soni	Medallar turi va soni		
				oltin	kumush	bron
XX	1999	Palma-de-Mal'yorka, Ispaniya	6	0	1	0
XXI	2001	Pekin, Xitoy	8	1	2	2
XXII	2003	Tegu, Koreya	7	2	0	1
XXIII	2005	Izmir, Turkiya	6	1	0	0
XXIV	2007	Bangkok, Tailand	6	1	0	1
XXV	2009	Belgrad, Serbiya	7	0	0	0
XXVI	2011	Shenchjen, Xitoy	19	0	1	0
XXVII	2013	Qozon, Rossiya	51	2	7	10
XXVIII	2015	Kvanjou, Koreya	37	1	0	0
Jami:			147	8	11	14

2013-yilda Kozon shahrida (Rossiya) o'tkazilgan Jahon Universiadasida O'zbekiston terma jamoasi tarkibida 55 nafar sportchi

Jahon Universiadalari

Yozgi Universiada			Qishki Universiada		
№	Yili	O'tkazish joyi	№	Yili	O'tkazish joyi
I	1959	Turin, Italiya	I	1960	Shamoni, Fransiya
II	1961	Sofiya, Bolgariya	II	1962	Villar, Shveysariya
III	1963	Portu-Alegri, Braziliya	III	1964	Shpindlerov Mlin, Chehosl.
IV	1965	Budapesht, Vengriya	IV	1966	Sestriere, Italiya
V	1967	Tokio, Yaponiya	V	1968	Innsbruk, Avstriya
VI	1970	Turin, Italiya	VI	1970	Rovaniyemi, Finlyandiya
VII	1973	Moskva, SSSR	VII	1972	Leyk-Plesid, AQSH
VIII	1975	Rim, Italiya	VIII	1975	Livinyo, Italiya
IX	1977	Sofiya, Bolgariya	IX	1978	Shpindlerov-Mlin, Chehosl.
X	1979	Mexiko, Meksika	X	1981	Xaka, Ispaniya
XI	1981	Buxarest, Ruminiya	XI	1983	Sofiya, Bolgariya
XII	1983	Edmonton, Kanada	XII	1985	Belluno, Italiya
XIII	1985	Kobe, Yaponiya	XIII	1987	Shtrbske-Pleso, Chehoslov
XIV	1987	Zagreb, Yugoslaviya	XIV	1989	Sofiya, Bolgariya
XV	1989	Duysburg, Germaniya	XV	1991	Sapporo, Yaponiya
XVI	1991	Sheffild, Angliya	XVI	1993	Zakopane, Polsha
XVII	1993	Buffalo, AQSH	XVII	1995	Xaka, Ispaniya
XVIII	1995	Fukuoka, Yaponiya	XVIII	1997	Mudju, Koreya
XIX	1997	Sitsiliya, Italiya	XIX	1999	Poprad, Slovakiya
XX	1999	Palma-de-Mal'yorka, Isp.	XX	2001	Zakopane, Polsha
XXI	2001	Pekin, Xitoy	XXI	2003	Tarvizio, Italiya
XXII	2003	Tegu, Koreya	XXII	2005	Insbruk, Avstriya
XXIII	2005	Izmir, Turkiya	XXIII	2007	Turin, Italiya
XXIV	2007	Bangkok, Tailand	XXIV	2009	Xarbin, Xitoy
XXV	2009	Belgrad, Serbiya	XXV	2011	Erzurum, Turkiya
XXVI	2011	Shenchjen, Xitoy	XXVI	2013	Maribor, Sloveniya
XXVII	2013	Qozon , Rossiya	XXVII	2015	Granada, Ispaniya

bo'lgan. O'zbekiston sportchilari 2 ta oltin, 7 ta kumush va 10 ta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida 22-o'rinni egallagan. O'zbekiston bu natijalar bo'yicha Osiyo mamlakatlari orasida 7-o'rinni, MDH davlatlari orasida 6-o'rinni egallagan.

2015-yilda Kvanjou shahrida (Koreya) o'tkazilgan Jahon Universiadasida O'zbekiston terma jamoasi tarkibida 37 nafar sportchi bo'lgan va taekvondo boyicha D. Shokin oltin medal olgan.

Xulosalar

➢ O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

➢ Mustaqillik-yillarida jismoniy tarbiya va sportning huquqiy asoslari yaratildi.

➢ jismoniy tarbiya va sport sohasini mablag' bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi, nodavlat sektor rivojlantirildi;

➢ jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi;

➢ milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

➢ O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi: ommaviy sport, milliy sport, bolalar sporti, xotin-qizlar sporti, nogironlar sporti, yuqori natijalar sporti.

Nazorat savollari:

Mustaqillikning dastlabki yillarida jismoniy taibiya va spoit sohasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?

Mustaqillikning dastlabki yillarida jismoniy taibiya va spoit sohasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?

O'zR "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining Birinchi tahriri qachon qabul qilingan?

"Sog'lom avlod uchun" Davlat dasturida qanday vazifalar belgilangan?

"Sog'lom avlod uchun" Davlat dasturida jismoniy tarbiya va sport qanday ahamiyatga ega?

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi qarorlarda qanday tamoyillar ishlab chiqilgan?

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport qaysi yo‘nalishlarda rivojlantiriladi?

O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida qanday sport musobaqalari o‘tkaziladi?

9-§. O‘zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi

Zamonaviy Olimpiya o‘yinlarining asoschisi Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan olimpiya g‘oyalari, olimpiya ruhi va qadriyatlarining barhayotligi isbotlandi, sportning bugungi kunda insoniyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati katta ekanligi tasdiqlandi. Bugungi kunda ma’naviy barkamol va jismoniy sog‘lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya go‘yalari va olimpiya qadriyatlarini keng targ‘ib etishga xizmat qilmoqda.

Mustaqil O‘zbekistonda olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmalari shakllandi. O‘zbekiston Respublikasi sportchilari Olimpiya o‘yinlari va xalqaro sport musobaqalarida mustaqil jamoa sifatida qatnashish huquqiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o‘rin egallashga bor imkoniyatlarini namoyon etmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sportchilari ko‘pgina nufuzli xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib kelmoqdalar. O‘zbekiston sportchilarining Olimpiya, Osiyo, Paralimpiya o‘yinlaridagi g‘alabasi sharafiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi va Davlat bayrog‘i ko‘tariladi.

O‘zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi ikki bosqichdan iborat va o‘ziga xos xususiyatlarga ega (*7-jadval*):

I. 1952-1992-yillarni o‘z ichiga olgan birinchi davrda mamlakatimiz olimpiya sporti 1991-yilgacha sobiq Ittifoq bo‘yicha amal qilgan hukmron tizimning bir qismi bo‘lib, yurtimiz bu masalada xalqaro maydonga mustaqil chiqish va o‘z imkoniyatlarini namoyon etish huquqiga ega bo‘lmagan. O‘zbekiston sobiq Ittifoq davrida jahon sport hamjamiyatlariga a’zo bo‘lmagan. Sharq va G‘arb mamlakatlari bilan sport aloqalar faqat sovet hukumati ruxsati va nazorati ostida o‘tkazilgan.

II. 1992-yildan – hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ikkinchi davrda mustaqil O'zbekiston Respublikasida olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmasi tarkib topdi, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi tashkil qilindi va xalqaro olimpiya harakatiga a'zo bo'ldi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o'rin egallashga imkoniyatlar yaratildi.

7-jadval

O'zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanish xususiyatlari

I bosqich 1952–1992 yy.	**II bosqich 1992 – hozirgi davrgacha**
O'zbekiston sportchilari Olimpiya o'yinlarida sobiq ittifoq terma jamoasi tarkibida ishtirok etgan.	Mustaqil O'zbekistonda olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmalari shakllandi: MOQ, O'zOA va h.k.
O'zbekiston sportchilarining sobiq ittifoq terma jamoasi tarkibidagi soni bir nechta nafar ishtirokchilar bilan chegaralangan.	O'zbekiston Respublikasi terma jamoasining Olimpiya o'yinlarida ishtiroki xalqaro olimpiya harakatining qoidalari asosida shakllandi.
Sobiq ittifoq markaziy organlari tomonidan tanlab olingan sportchilar sobiq ittifoq terma jamoasi tarkibiga kiritilgan.	O'zbekiston Respublikasi sportchilari Olimpiya o'yinlari va xalqaro sport musobaqalarida mustaqil jamoa sifatida qatnashish huquqiga ega bo'ldi.
O'zbekiston sportchilarining Olimpiya o'yinlaridagi g'alabasi sharafiga sobiq ittifoqi madhiyasi chalingan va qizil bayrog'i ko'tarilgan.	O'zbekiston sportchilarining Olimpiya, Osiyo, Paralimpiya o'yinlaridagi g'alabasi sharafiga O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi va Davlat bayrog'i ko'tariladi.
O'zbekistonda sobiq ittifoq davrida olimpiya g'oyalarini targ'ibot qilish ishlari yo'lga qo'yilmagan.	O'zbekiston Respublikasida olimpizm, olimpiya ta'limi va olimpiya sport turlarini targ'ibot qilish bo'yicha markazlar tuzildi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi (O'zMOQ) **1992-yil** 21-yanvarda tashkil etildi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ)ning 1993-yil sentabrda Monakoda bo'lib o'tgan 101-sessiyasida O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi XOQ tomonidan tan olindi. XOQ xartiyasi asosida va jahon sport harakatining ilg'or tajribalariga tayangan holda MOQ Nizomi ishlab chiqildi va qabul qilindi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi – nodavlat notijorat tashkilot bo'lib, uning asosiy vazifasi O'zbekistonda olimpiya harakatini boshqarish va rivojlantirishdan iborat. O'z MOQning asosiy ichki va tashqi vazifalarga ajratish mumkin, ular quyidagilardan iborat: (*8-jadval*).

O'z MOQ faoliyatining asosiy **maqsadi**: olimpiya harakati va havaskorlar sportini rivojlantirish, Olimpiya xartiyasi asosida mamlakatda olimpizm tamoyillarini himoya qilishga yordam berish, Olimpiya o'yinlarida Respublika sportchilarining ishtirok etishini ta'minlashdan iborat.

O'z MOQning asosiy **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- O'zbekistonda olimpiya harakatini rivojlantirish, olimpizm g'oyalarini keng targ'ib etish;
- XOQ, Osiyo Olimpiya Kengashi, boshqa mamlakatlar milliy olimpiya qo'mitalari, Xalqaro sport federatsiyalari va uyushmalari bilan hamkorlik qilish, XOQning "Olimpiya birdamligi" dasturida ishtirok etish;
- Mamlakat terma jamoalari va sport zaxiralarini tayyorlashda davlat, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga ko'maklashish;
- Respublika aholisini jismoniy va ma'naviy tarbiyalashga, jismoniy tarbiya va sport, milliy sport turlarini, nogironlar o'rtasida sportni rivojlantirishni ta'minlash;
- Yoshlarni boshqa mamlakatlar sportchilari bilan do'stlik va birodarlikni mustahkamlash, musobaqalarda halol kurashish, raqibiga olijanoblik bilan munosabatda bo'lish tamoyillari asosida tarbiyalash;
- O'zbekiston sportchilari yutuqlarini keng targ'ib qilish;
- Sport kadrlari o'rtasida tajriba almashish, ular malakalarini oshirish uchun anjumanlar tashkil etish.

8-jadval

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasining asosiy vazifalari

Ichki vazifalar	Tashqi vazifalar
O'zbekistonda olimpiya harakatini Olimpiya xartiyasining asosiy tamoyillari asosida rivojlantirish	Xalqaro sport maydonida O'zbekiston Respublikasi mavqeini oshirish va mustahkamlash
Respublika aholisining ma'naviy va jismoniy tarbiya ishlariga hissa qo'shish	O'zbekiston Respublika sport delegatsiyasini Olimpiya, Osiyo, Paralimpiya, Jahon yoshlar o'yinlaridagi ishtirokini ta'minlab berish
O'zbekistonda ommaviy jismoniy tarbiya va sport, milliy sport turlari, nogironlar sportini rivojlantirish	XOQ ning "Olimpiya hamkorligi" dasturida ishtirok etish, Osiyo olimpiya kengashi, XSF va MOQlar bilan aloqalarni rivojlantirish
Mamlakatimizda terma jamoalar va sport zaxiralarini tayyorlashda davlat va jamoat tashkilotlariga yordam berish	Respublika sport federatsiyalari va sport tashkilotlariga xalqaro sport birlashmalari bilan hamkorlik ishlariga ko'maklashish.
Yoshlarni haqqoniy sport bellashuvi, xalqlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va do'stlik ruhida tarbiyalash	MOQ vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha chet el firma va tashkilotlari bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish.
O'zbekistonda olimpizm, olimpiya ta'limi va olimpiya sport turlarini targ'ibot qilish, sport kadrlarining malakasini oshirish va tajriba almashish bo'yicha anjumanlar, seminarlar tashkil qilish.	Xalqaro sport tashkilotlarida O'zbekiston olimpiya harakati va sport tashkilotlarining manfaatini himoya qilish.
Mamlakatimizda sportni rivojlantirish maqsadida homiylik jamg'armalari va tashkilotlarni tuzishni qo'llab-quvvatlash; sport faxriylari, murabbiylar, hakamlar manfaatlarini himoya qilish.	Xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish va ular bilan hamkorlik qilish; turli hudud va mamlakatlarning sport tashkilotlari bilan shartnoma tuzish.

O‘zMOQ o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, XOQning Olimpiya xartiyasiga, O‘zMOQ Nizomiga muvofiq amalga oshiradi. Nizomga ko‘ra O‘zMOQ faoliyatini yurituvchi ijroqo‘m a’zolari, Olimpiya akademiyasi va boshqa tuzilmalar tashkil etilgan edi.

O‘zMOQ **tarkibi**: O‘zMOQ prezidenti, bosh kotibi, vitse-prezidentlari va a’zolari; Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport federatsiyalari vakillari; noolimpiya sport turlari va milliy sport federatsiyalari vakillari; Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sport tashkilotlari vakillari; Olimpiya o‘yinlari ishtirokchilari bo‘lgan sportchilar vakillaridan va boshqa alohida shaxslardan iboratdir.

O‘zMOQning rahbar **organlari**: Bosh assambleya, Ijroiya qo‘mita, hisoblanadi. Bosh assambleyalar oralig‘ida O‘zMOQ faoliyatiga Ijroiya qo‘mita rahbarlik qiladi. O‘zMOQning doimiy komissiyalari mavjud: Atletlar komissiyasi; Ayollar va sport komissiyasi; Sport va atrof-muhit komissiyasi. O‘zbekiston MOQ xuzurida Olimpiya akademiyasi tashkil etilgan. O‘zMOQ Nizomiga ko‘ra uning ramzlari kiritilgan (*2-rasm).*

O‘zbekiston MOQning birinchi prezidenti etib Obid Nazirov saylangan. MOQ vitse-prezidenti bo‘lgan Sobir Ro‘ziyev 1994-yilda O‘zMOQning ikkinchi prezidenti etib saylangan.

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunining (2015) 17-moddasi “O‘zbekiston olimpiya harakati. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi”ga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasi “O‘zbekiston olimpiya harakati. O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi”, deb nomlanadi. Unda O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasining aniq vazifalari belgilangan, ya’ni:

- olimpiya harakati tamoyillarini ommalashtiradi, yuksak yutuqlarga erishiladigan sportni va ommaviy sportni rivojlantirishga ko‘maklashadi;
- XOQ Olimpiya xartiyasiga muvofiq Olimpiya o‘yinlarida va XOQ boshchiligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish yuritadi;
- sportchilarni Olimpiya o‘yinlarida va XOQ boshchiligida o‘tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishga tayyor-

lashning zarur darajasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

➢ sportda dopingning oldini olish hamda unga qarshi kurashishga, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitish va zo'ravonlikning har qanday shakllari yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashadi;

➢ XOQ va O'zMOQ olimpiya ramzlari, shiori, bayrog'i, madhiyasidan, "olimpiya", "olimpiada" nomlaridan foydalanishga bo'lgan haquqlarini O'zbekiston Respublikasi hududida himoya qilish choralarini ta'minlaydi.

2-rasm. O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasining ramzi.

O'zbekiston olimpiya harakati Xalqaro olimpiya harakatining tarkibiy qismi bo'lib, uning maqsadi olimpiya harakati tamoyillarini ommalashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish, sport sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, Olimpiya o'yinlarida va XOQ boshchiligida o'tkaziladigan boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishdan iboratdir.

O'zMOQ o'zining rasmiy anjumanlarida eng muhim masalalarni muhokama qilmoqda. Bunda rejalarini tasdiqlash, xalqaro olimpiya harakatida ishtirok etish, olimpiya g'oyalarini keng yoyish, sportchilarni Osiyo, jahon chempionatlari, xalqaro turnirlar va Olimpiya o'yinlariga tayyorlash bilan bog'liq masalalarni doimiy ravishda muhokama qilib bormoqda. Davlat O'zMOQ nizomida belgilangan maqsadlarini amalga oshirishiga har tomonlama

ko'maklashgan holda O'zbekiston olimpiya harakatini tan oladi va qo'llab-quvvatlaydi. O'zMOQ o'z vakolatlarini maxsus vakolatli davlat organi, sport federatsiyalari va boshqa tashkilotlar bilan vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. O'zMOQ Milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi – ANOKning teng huquqli a'zosidir.

O'zbekiston MOQ xodimlari, sport federatsiyalarning rahbarlari, mutaxassis olimlar va boshqa rasmiy kishilar XOQ joylashgan Lozzana va juda ko'p mamlakatlarning MOQ huzurida bo'lib, Kongresslar, sessiyalar va ilmiy anjumanlarda ishtirok etmoqda.

1996-yil sentabrda Toshkentda Olimpiya shon-shuhrati muzeyi ochildi. O'zbekiston Olimpiya shon-shuhrati muzeyida mamlakatimiz sport tarixi, olimpiya harakati, sportchilarning erishgan yutuqlari o'z ifodasini topdi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratildi, sportchilarimizning Olimpiya, Osiyo o'yinlari, qit'a va jahon chempionatlarida, xalqaro turnirlarda ishtirok etishi ta'minlandi. "Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi,"[31]- degan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Sportchilarimizning mustaqillik-yillarida xalqaro maydonlarda erishgan g'alabalarini yurtboshimiz so'zlariga tasdiq sifatida misol qilish mumkin.

O'zbekiston sportchilari yozgi Olimpiya o'yinlarida. O'zbekiston terma jamoasining yozgi Olimpiya o'yinlarida mustaqil ishtiroki 1996-yilda boshlangan *(9-jadval).*

XXVI yozgi Olimpiya o'yinlari 1996-yil 19-iyul – 4-avgust sanalarida Atlanta shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Bu O'yinlarda dunyoning 197 mamlakatidan 10320 sportchi 26 ta sport turi bo'yicha 271 ta medallar komplekti uchun kurash olib borgan. O'zbekiston sportchilari dzyu-do bo'yicha Armen Bagdasarov kumush, boks bo'yicha Karim To'laganov bronza medallarini qo'lga kiritganlar. XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 197 mamlakat orasida 58-o'rinni egallagan.

XXVII yozgi Olimpiya oyinlari 2000-yil 16-30-sentabrda Sidney shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan. Mazkur Olimpiya o'yinlariga 199 davlatdan 10651 nafar sportchi qatnashib, ular 37 ta sport turi

---

[31] Karimov I. A. Toshkentdagi I xalqaro tennis turniri ochilishi marosimida so'zlagan nutq. (1994-yil 30-may). «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». T.2. –T.: O'zbekiston, 1996.

bo'yicha 300 ta medallar komplekti uchun bellashgan. Mamlakatimiz terma jamoasi tarkibidagi 77 nafar sportchi Olimpiya o'yinlari

9-jadval

O'zbekiston sportchilarining Olimpiya o'ymlaridagi yutuqlari

Olimpiya o'yinlari	Yil	O'tkazil-gan joyi	Sportchilar I.F.	Sportchi olgan o'rni	Sport turi
XXVI	1996	Atlanta AQSH	A. Bagdasarov	2	dzyudo
			K. To'laganov	3	boks
XXVII	2000	Sidney Avstraliya	M. Abdullayev	1	boks
			A. Taymazov	2	erkin kurash
			R. Saidov	3	boks
			S.Mixaylov	3	boks
XXVIII	2004	Afina Gretsiya	A. Taymazov	1	erkin kurash
			A. Dokturashvili	1	kurash
			M. Ibragimov	2	kurash
			U. Haydarov	3	boks
			B. Sultonov	3	boks
XXIX	2008	Pekin Xitoy	A. Taymazov	1	erkin kurash
			A. Tangriyev	2	dzyudo
			S. Tigiyev	3	kurash
			R. Sobirov	3	dzyudo
			E. Xilko	3	trampolin
			A. Fokin	3	gimnastika
XXX	2012	London Angliya	A. Taymazov	1	erkin kurash
			R. Sobirov	3	dzyudo
			A.Atoyev	3	boks
XXXI	2016	Rio-de-Janeyro Braziliya	X.Do'smatov	1	boks
			R.Nuruddinov	1	og'ir atletika
			Sh. Zoirov	1	boks
			F.G'oyibnazarov	1	boks
			Sh. G'iyosov	2	boks
			B.Meliqo'ziyev	2	boks
			D. Urazboyev	3	dzyudo
			R. Sobirov	3	dzyudo
			M. Ahmadaliyev	3	boks
			R. To'laganov	3	boks
			E. Tasmuratov	3	yunon-rum kur.
			M. Ibragimov	3	erkin kurash
			I. Navro'zov	3	erkin kurash

dasturining 13 sport turi bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarida Muhammadqodir Abdullayev boks bo'yicha oltin, Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha kumush, Rustam Saidov va Sergey Mixaylov boks bo'yicha bronza medallari sovrindori bo'lganlar. Olimpiya terma jamoamiz norasmiy umumjamoa hisobida 199 ta mamlakat orasida 41-o'rinni egallagan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi sportchilarini Afina shahrida (Gretsiya) o'tkaziladigan XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida (2004 y.) munosib ishtirok etishlarini ta'minlash to'g'risida»gi qarori 2004-yil 7-iyunda qabul qilingan.

XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimizdan 69 nafar sportchi o'yinlar dasturiga kiritilgan sportning 37 turidan 15 ta turi bo'yicha musobaqalarda qatnashgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha Olimpiada chempioni bo'lgan.

Olimpiya musobaqalarida yunon-rum kurashi bo'yicha 74 kg vaznli sportchilar orasida Aleksandr Dokturashvili oltin medalga sazovor bo'lgan. Erkin kurash bo'yicha 96 kg vaznli sportchilar o'rtasida Magamed Ibragimov kumush medal sovrindori bo'lgan. Boks bo'yicha O'tkir Haydarov 81 kg, Bahodir Sultonov 51 kg vaznli boks ustalari o'rtasida bronza medallariga sazovor bo'lgan.

XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston Respublikasi milliy olimpiya jamoasi 202 davlat o'rtasida 34-o'rinni egallagan. Mamlakatimiz vakillari norasmiy umumjamoa hisobida Sidney Olimpiadasiga nisbatan yetti, 1996-yilgi Atlantadagi o'yinlarga nisbatan esa yigirma to'rt pog'ona yuqoriga ko'tarilgan edilar. Bu Olimpiya o'yinlari natijalari bo'yicha O'zbekiston sportchilari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari o'rtasida beshinchi, Markaziy Osiyoda esa birinchi o'rinni egallagan.

XXX yozgi Olimpiya o'yinlari 2012-yil 27-iyul – 16-avgust kunlari London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida jahonning 205 davlatidan 10500 nafar sportchi 302 komplekt medallari uchun 26 sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etishdi. Olimpiya o'yinlari davomida jami 44 ta jahon va 117 ta olimpiya rekordlari o'rnatildi.

Olimpiya musobaqalarida O'zbekiston sportchilaridan 4 nafari sovrindor, 14 nafari kuchli sakkizlikka kirgan. Olimpiya o'yinlarida

jahon chempioni Artur Taymazov uchinchi marta Olimpiada chempioni nomiga sazovor bo'lgan, bronza medallar bilan taqdirlangan Rishod Sobirov (dzyudo), Abbos Atoyev (boks) yuksak mahorat va matonat namunasini ko'rsatgan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 14-avgust kuni qabul qilingan "London shahrida bo'lib o'tgan XXX yozgi Olimpiada o'yinlarida yuksak natijalarga erishgan sportchilarimizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan sportchilar taqdirlandi.

Olimpiya o'yinlarida erishgan yutuqlari bilan Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga qo'shgan katta hissasi uchun bronza medallari sohiblari bo'lgan Rishod Sobirov "O'zbekiston iftixori", Abbos Atoyev "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonlari bilan taqdirlandi.

London Olimpiadasi chempioni Artur Taymazov yurtimizning sport sohasidagi shon-shuhratini yuksaltirish ishiga qo'shgan ulkan hissasi, Olimpiada o'yinlarida yuksak natijalarga erishgani uchun "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlandi.

Davlatimiz Birinchi rahbari I.A. Karimov tomonidan Artur Taymazovga mashhur sportchimizning O'zbekiston bayrog'ini baland tutib turgan oltin suvi yuritilgan haykalchasi taqdim etilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2013-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston sportchilarini 2016-yilda Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tadigan XXXI yozgi Olimpiyada va XV Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarligi to'g'risida"gi qarori muhim dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari 2016-yil 5 – 21-avgust kunlari Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tdi. Rio-2016 Olimpiadasida O'zbekiston boks terma jamoasi 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medallar bilan umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. O'zbekistonlik bokschi Hasanboy Do'smatov esa texnikasi eng yuqori bo'lgan bokschiga beriladigan "Vel Barker Kubogi" taqdim etildi va mazkur sovrinni qo'lga kiritgan birinchi o'zbekistonlik bokschi bo'ldi. "Vel Barker Kubogi" 1920-yilda Xalqaro yarimprofessional boks assotsiatsiyasi tomonidan ta'sis etilgan bo'lib, 1936-yildan buyon Olimpiada o'yinlarida texnikasi eng yuqori bo'lgan bokschiga beriladigan mukofotdir.

O‘zbekiston sportchisi Ruslan Nurudinov og‘ir atletikaning 105 kg vazni bo‘yicha jami 431 kg og‘irlikni yengib, Olimpiada chempioni bo‘ldi va yangi olimpiya rekordini o‘rnatdi.

XXXI yozgi Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston terma jamoasi 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida 207 davlat orasida 21-o‘rinni egalladi (*10-12-jadvallar*). Ushbu natijalar bo‘yicha O‘zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida 4-o‘rinni, MDH davlatlari orasida 2-o‘rinni, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 1-o‘rinni egalladi.

10-jadval

XXXI yozgi Olimpiya o‘yinlarida medallar soni va umumjamoa natijalari

O‘rin	Davlatlar	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
1	**AQSH**	**46**	**37**	**38**	**121**
2	**Buyuk Britaniya**	**27**	**23**	**17**	**67**
3	**Xitoy**	**26**	**18**	**26**	**70**
4	Rossiya	19	18	19	56
5	Germaniya	17	10	15	42
6	Yaponiya	12	8	21	41
7	Fransiya	10	18	14	42
8	Janubiy Koreya	9	3	9	21
9	Italiya	8	12	8	28
10	Avstraliya	8	11	10	29
11	Gollandiya	8	7	4	19
12	Vengriya	8	3	4	15
13	Braziliya	7	6	6	19
14	Ispaniya	7	4	6	17
15	Keniya	6	6	1	13
16	Yamayka	6	3	2	11
17	Xorvatiya	5	3	2	10
18	Kuba	5	2	4	11
19	Yangi Zellandiya	4	9	5	18
20	Kanada	4	3	15	22
21	**O‘zbekiston**	**4**	**2**	**7**	**13**

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlar o'rtasida olimpiya harakatini targ'ib etishdagi faol ishtiroki, Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlaridagi yuksak sport mahorati va mardligi, xalqaro spor maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tborini oshirishga qo'shgan katta hissasi uchun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 12-iyuldagi PQ-2558-sonli qaroriga muvofiq g'olib sportchilar pul mukofoti bilan taqdirlandilar.

11-jadval

O'zbekiston sportchilarining yozgi va qishki Olimpiya o'yinlaridagi natijalari

O'yin	Yil	Shahar, mamlakat	Jami davlat	Jamoa tarkibi	Medallar turi va soni			O'z R o'rni
					olt	kum	br	
XXV	1992	Barselona, Ispaniya	169	17	3	1	-	MDH
XVII	1994	Lillexammer, Norv.	67	7	1	-	-	14
XXVI	1996	Atlanta, AQSH	197	76	-	1	1	58
XXVII	2000	Sidney, Avstraliya	199	77	1	1	2	41
XXVIII	2004	Afina, Gretsiya	202	69	2	1	2	34
XXIX	2008	Pekin, Xitoy	204	58	1	2	3	40
XXX	2012	London, Angliya	205	56	1	-	2	47
XXXI	2016	Rio-de-Janeyro, Braziliya	206	70	4	2	7	21

O'zbekiston sportchilari qishki Olimpiya o'yinlarida. O'zbekiston Respublikasi terma jamoasi qishki Olimpiya o'yinlarida ilk bor 1994-yildan boshlab ishtirok etgan.

XVII qishki Olimpiya o'yinlari 1994-yil 12-27-fevral kunlari Lillexammer shahrida (Norvegiya) bo'lib o'tgan. Bu Olimpiya o'yinlariga 67 davlatdan 1923 nafar sportchi tashrif buyurgan. Mazkur qishki Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchisi Lina Cheryazova fristayl bo'yicha Olimpiyada chempioni bo'lib, oltin medalni qo'lga

kiritgan. O'zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida 67 mamlakat orasida 14-o'rinni egallagan (*11-jadval*).

12-jadval

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilarining natijalari Rio-de-Janeyro –2016

Medal	Sportchining F.I.	Sport turi	Vazni	Sana
Oltin	Do'smatov Hasanboy	Boks	46 kg	14 avgust
	Nuriddinov Ruslan	Og'ir atletika	105 kg	15 avgust
	Zoirov Shahobiddin	Boks	52 kg	21 avgust
	G'oyibnazarov Fazliddin	Boks	64 kg	21 avgust
Kumush	G'iyosov Shahram	Boks	69 kg	17 avgust
	Meliqo'ziyev Bektemir	Boks	79 kg	20 avgust
Bronza	O'rozboyev Diyorbek	Dzyudo	60 kg	6 avgust
	Sobirov Rishod	Dzyudo	66 kg	7 avgust
	To'laganov Rustam	Boks	91 kg	13 avgust
	Tasmurodov Elmurat	Yunon-rum kurashi	59 kg	14 avgust
	Ahmadaliyev Murodjon	Boks	56 kg	18 avgust
	Navro'zov Ixtiyor	Erkin kurash	65 kg	21 avgust
	Ibragimov Magomed	Erkin kurash	97 kg	21 avgust

XVIII qishki Olimpiya o'yinlari 1998-yil 7-22-fevral kunlari Nagano shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. Naganoga jahonning 72 mamlakatidan kelgan 2302 nafar sportrchi 14 ta qishki sport turi bo'yicha 68 ta medallar komplekti uchun kurashgan. O'zbekiston

milliy olimpiya terma jamoasi sportchilaridan musobaqalarda Lina Cheryazova (fristayl) - 13-o'rin, Tatyana Malinina (figurali uchish) - 8-o'rin, Roman Skornyakov (figurali uchish) - 19-o'rin, Komil O'rinboyev (tog' chang'isi sporti) - 29-o'rinni egallaganlar.

XIX qishki Olimpiya o'yinlari 2002-yil 8-24-fevral kunlari Solt-Leyk-Siti shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Mazkur Olimpiyadada ishtirok etish uchun 77 mamlakatdan 2399 nafar sportchi tashrif buyurgan. Sportchilar sportning 15 turi bo'yicha 78 ta medallar komplekti uchun musobaqalarda qatnashgan.

O'zbekiston terma jamoasi tarkibiga 6 nafar sportchi kirgan: Kamil Urunbayev va Elmira Urunbayeva (tog' chang'isi); Tatyana Malinina, Roman Skornyakov, Natalya Ponomaryova va Yevgeniy Sviridov (figurali uchish).

Olimpiya o'yinlari musobaqalarida K.Urunbayev 79 nafar sportchi orasida 36-o'rinni, E.Urunbayeva – 32 o'rinni, R.Skornyakov 29 nafar sportchi orasida 19-o'rinni, N.Ponomaryova va Ye.Sviridov 18-o'rinni egallaganlar. T. Malinina 13-o'rin egallagan edi, biroq tibbiy komissiya tomonidan gripp sababli musobaqalardan chetlatilgan.

XX qishki Olimpiada o'yinlari 2006-yil 10-28-fevral kunlari Turin shahrida (Italiya) o'tkazilgan. Unda 85 mamlakatdan kelgan 2600 dan ziyod sportchi qishki sportining 15 turi bo'yicha o'zaro bellashgan. O'zbekistondan tog' chang'i sportida Kayrat Ermetov, figurali uchishda yakkalik musobaqalarida Anastatsiya Gimazetdinova, juftlikda esa Marina Aganina va Artyom Knyazev qatnashganlar. Qishki Olimpiya o'yinlari tarixida ilk bor O'zbekiston vakili Yevgeniy Roxin figurali uchish musobaqalarida hakamlik qilgan.

XXI qishki Olimpiada o'yinlari 2010-yil 12-28-fevral kunlari Vankuver shahrida (Kanada) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarida 80 ta mamlakatdan 5500 nafarga yaqin sportchilar qatnashgan. Ular 15 ta qishki sport turlari bo'yicha musobaqalarda medallar uchun kurash olib borganlar. O'zbekistondan 3 nafar sportchi: tog' chang'isi sporti bo'yicha Kseniya Grigoryeva va Oleg Shamayev, konkida figurali uchish bo'yicha Anastatsiya Gimazetdinova ishtirok etgan.

XXII qishki Olimpiada o'yinlari 2014-yil 10-26-fevral kunlari Sochi shahrida (Rossiya) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarida O'zbekistondan uch nafar sportchi qatnashgan - Kseniya Grigoryeva va Ar-

tyom Voronov (tog' chang'isi sporti), Misha Ge (muz ustida konkida figurali uchish).

O'zbekiston sportchilari Osiyo o'yinlarida. Osiyo qit'asida eng yirik va ommaviy musobaqalardan biri – Osiyo o'yinlari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi mustaqililk davrida Osiyo o'yinlarida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan.

XII yozgi Osiyo o'yinlari 1994-yil Xirosima shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. Bu Osiyo o'yinlarida 7300 nafar sportchilar 34 ta sport turi bo'yicha musobaqalarda qatnashgan va 337 ta medallar komplekti uchun kurash olib borilgan. O'zbekiston sportchilari Osiyo o'yinlarida ilk bor qatnashib, umumjamoa hisobida 42 ta mamlakat ichida 5-o'rinni egallagan. O'zbekiston sportchilari musobaqalarda jami 40 ta – 10 ta oltin, 11 ta kumush, 19 ta bronza medallarni olgan.

XIII yozgi Osiyo o'yinlari 1998-yil 6-20-dekabr kunlari Bangkok shahrida (Tailand) o'tkazilgan. O'yinlarda 41 ta mamlakatlardan 6554 sportchi qatnashgan. O'yinlarda 44 ta sport turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda sportchilar 379 ta oltin, kumush va 478 ta bronza medallari uchun kurash olib bordilar. Respublikamiz sportchilari Bangkokda o'tkazilgan XIII Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi qit'aning 41 mamlakatlari orasida 10-o'rinni egallagan (40 ta – 6 ta oltin, 22 ta kumush, 12 ta bronza medallar olgan).

XIV yozgi Osiyo o'yinlari Pusan shahrida (Janubiy Koreya) 2002-yil 29-sentabr – 14-oktabr kunlari o'tkazilgan. O'yinlarda Osiyo qit'asining 44 mamlakatlaridan 7711 nafar sportchilar ishtirok etgan. Musobaqalar 38 sport turi bo'yicha 419 ta medallar komplekti uchun olib borilgan. Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi jami 51 ta – 15 ta oltin, 12 ta kumush, 24 ta bronza medallar olgan va qit'aning 44 mamlakatlari orasida 5-o'rinni egallagan.

XV yozgi Osiyo o'yinlari Doha shahrida (Qatar) 2006-yil 1-15-dekabr kunlari o'tkazilgan. O'yinlarda 9520 nafar sportchilar qatnashgan. Musobaqalarda 39 sport turlari bo'yicha 424 medallar komplekti uchun bo'lib o'tgan. O'yinlarda O'zbekiston terma jamoasi jami 40 ta – 11 ta oltin, 14 ta kumush, 15 ta bronza medallar bilan 7-o'rinni egallagan.

XVI yozgi Osiyo o'yinlari 2010-yil 12-27-noyabr kunlari Guanjou (Xitoy). O'yinlarda 45 ta mamlakatdan 9704 sportchi ishtirok etgan. Bu Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi jami

56 ta – 11 ta oltin, 22 ta kumush, 23 ta bronza medallar olgan va qit'aning 45 mamlakatlari orasida 8-o'rinni egallagan.

13-jadval

O'zbekiston sportchilarining Osiyo o'yinlaridagi ishtiroki

O'yin	Yil	Shahar (Mamlakat)	Tarkib soni	Jami medal	oltin	kum	bron	O'rin
XII	1994	Xirosima (Yaponiya)	135	42	11	12	19	**5**
XIII	1998	Bangkok (Tailand)	168	44	6	23	15	**10**
XIV	2002	Pusan (Janubiy Koreya)	175	51	15	12	24	**5**
XV	2006	Doha (Qatar)	250	39	11	14	14	**8**
XVI	2010	Guanjou (Xitoy)	220	56	11	22	23	**8**
XVII	2014	Incheon (Janubiy Koreya)	228	44	9	14	21	**11**

XVII yozgi Osiyo o'yinlari 2014-yil 19-sentabr – 4-oktabr kunlari Inchxon shahrida (Janubiy Koreya) o'tkazilgan. O'yinlarda 45 ta mamlakatdan 9700 sportchi ishtirok etgan. O'yinlarda O'zbekiston terma jamoasi jami 44 ta – 9 ta oltin, 14 ta kumush, 21 ta bronza medallar bilan 11-o'rinni egallagan *(13-jadval)*.

O'zbekiston sportchilari Paralimpiya o'yinlarida. 2007-yil 27-fevralda "O'zbekiston Milliy Paralimpiya Assotsiatsiyasi" Adliya vazirligidan 341-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tgan. Hozirgi kunda Assotsiatsiya O'zbekiston Respublikasi miqyosida o'zining ish faoliyatini boshlagan. Assotsiatsiyaning Andijon, Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo viloyat va Toshkent shahar bo'limlari tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining (2015) 31-moddasi "Moslashtiruvchi jismoniy

tarbiya va moslashtiruvchi sport. Nogironlarni va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilish"masalalariga bag'ishlangan.

Moslashtiruvchi jismoniy tarbiya jismoniy tarbiyaning nogironlarni va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilishning kompleks vositalaridan foydalanuvchi qismidir. Moslashtiruvchi sport nogironlarni va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilishga hamda ijtimoiy moslashtirishga qaratilgandir.

Nogironlarning va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarning moslashtiruvchi sportini rivojlantirish sport bilan shug'ullanishning ustuvorligi, ommalashuvi va ochiqligi prinsiplariga asoslanadi. Nogironlarni va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarni moslashtiruvchi jismoniy tarbiya va moslashtiruvchi sport usullaridan foydalangan holda jismoniy reabilitatsiya qilish hamda ijtimoiy moslashtirish jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarida, shu jumladan reabilitatsiya markazlarida, nogironlarning jismoniy tarbiya-sport klublarida amalga oshiriladi.

Tegishli ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar uchun mashg'ulotlar bunday ta'lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va sog'lig'i holati hisobga olingan, moslashtiruvchi jismoniy tarbiya va moslashtiruvchi sport vositalaridan foydalanilgan holda tashkil etiladi.

Maxsus vakolatli davlat organi mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va nogironlarning jamoat birlashmalari bilan birgalikda nogironlarning hamda jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarning jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari vositasida jismoniy tarbiya, jismoniy kamol toptirish va jismoniy tayyorgarlik tizimiga uyg'unlashuviga ko'maklashadi.

Maxsus vakolatli davlat organi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya-sport tashkilotlari, shuningdek, nogironlarning jismoniy tarbiya-sport birlashmalari nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar ishtirokida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'tkazilishini tashkil etadi, bolalar-o'smirlar sport-moslashtiruvchi maktablarini, moslashtiruvchi bolalar-o'smirlar jismoniy tayyorgarlik klublarini tashkil qiladi.

2008-yilda ilk bor O'zbekiston Milliy Paralimpiya Assotsiatsiyasi Xalqaro Paralimpiya Qo'mitasining a'zosi sifatida Pekinda (Xitoy) XIII yozgi Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etgan. Bu O'yinlarda ikki nafar sportchi - Ravil Diganshin (yengil atletika, pauerlifting) va Farxod Sayidov (suzish bo'yicha) qatnashgan.

2010-yil Guanchjou shahrida (Xitoy) o'tkazilgan Osiyo Paralimpiya Qo'mitasi Bosh Assambleyasida O'zbekiston Markaziy Osiyoda eng rivojlangan Milliy Paralimpiya Qo'mitasi deb tan olingan va Markaziy Osiyo davlatlari Milliy Paralimpiya Qo'mitalari (Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) ishini rivojlantirish vazifasi yuklatilgan. 2010-yil Guanchjou shahrida (Xitoy) o'tkazilgan Paraosiyo o'yinlarida O'zbekiston paralimpiya sportchilari 1 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medaliga sazovor bo'lgan.

2012-yilning 29-avgust – 9-sentabr kunlari London shahrida (Buyuk Britaniya) XIV yozgi Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tgan. Paralimpiya o'yinlarida dunyoning 166 davlatidan 4200 sportchi 20 ta sport turi bo'yicha ishtirok etgan. Paralimpiya o'yinlarida 10 nafar O'zbekiston paralimpiya sportchilari 4 ta sport turlari - dzyudo, suzish, yengil atletika va pauerlifting sport turlari bo'yicha musobaqalarda qatnashgan. Husniddin Norbekov yengil atletikaning disk uloqtirish musobaqalarida 4-o'rinni, Kirill Pankov suzish bo'yicha 6-o'rinni egallagan va ikki marta Osiyo rekordini yangilagan. Sharif Xalilov dzyudo bo'yicha kumush medal sovrindori bo'lgan. Bu Paralimpiya o'yinlarida rasman ikkinchi bor ishtirok etgan O'zbekiston delegatsiyasi tomonidan qo'lga kiritilgan dastlabki medal bo'ldi. XIV Paralimpiya o'yinlarining ochilish va yopilish marosimiga O'zbekiston bayrog'ini olib o'tish sharafi Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlari sovrindori Sharif Xalilovga berilgan.

2014-yilda Incheon shahrida (Janubiy Koreya) bo'lib o'tgan II Paraosiyo o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari yuqori natijalarga erishgan edi. Paraosiyo o'yinlarida ishtirok etgan 27 nafar sportchimiz 22 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza jami 31 ta medalga sazovor bo'lib, umumjamoa hisobida 41 davlat orasida faxrli 5-o'rinni egallagan. Mamlakatimiz sportchilari Paraosiyo o'yinlarida 12 marotaba Osiyo rekordini yangilashga ham muvaffaq bo'lganlar.

2014-yilda Markaziy Osiyoda O'zbekiston Milliy Paralimpiya Qo'mitasi eng rivojlangan deb e'tirof etildi. O'zbekiston Paralimpiya sportchilari qo'lga kiritilgan medallar bo'yicha Markaziy Osiyo

davlatlari orasida birinchi, MDH mamlakatlari o'rtasida oltinchi, jahonda esa 67-o'rinni egallagan.

2016-yil 7-18-sentabr kunlari Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) XV yozgi Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tgan. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari jasorat va matonat namunasini ko'rsatib, yuksak natijalarga erishdilar. O'zbekiston Paralimpiya terma jamoasining 32 nafar sportchilari 31 ta (8 ta oltin, 6 ta kumush, 17 ta bronza) medalni qo'lga kiritib, Paralimpiya o'yinlarida yuz foizlik natija ko'rsatdilar. O'zbekiston paralimpiyachilari Rio o'yinlarida 6 ta jahon, 12 ta Osiyo va 7 ta paralimpiya rekordini yangiladilar. O'zbekiston Paralimpiya terma jamoasi umumjamoa hisobida 176 ta davlatlar orasida 16-o'rinni, Markaziy Osiyoda birinchi, MDH va Osiyoda ikkinchi o'rinni egallagan (*14-jadval*).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra XV yozgi Paralimpiya o'yinlarida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylar "O'zbekiston iftixori", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport murabbiysi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvonlari, "Do'stlik" ordeni va "Jasorat", "Shuhrat" medallari bilan taqdirlandilar.

Xulosalar

➢Mustaqil O'zbekistonda olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmalari shakllandi.

➢O'zbekiston Respublikasi sportchilari Olimpiya o'yinlari va xalqaro sport musobaqalarida mustaqil jamoa sifatida qatnashish huquqiga ega bo'ldi.

➢O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida xalqaro sport harakatida munosib o'rin egallashga bor imkoniyatlarini namoyon etib kelmoqda.

➢Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari ko'pgina nufuzli xalqaro sport musobaqalarida, Olimpiya, Osiyo, Paralimpiya o'yinlarida faol ishtirok etib, yuksak natijalarga erishdilar.

➢O'zbekiston Respublikasida olimpizm, olimpiya ta'limi va olimpiya sport turlarini targ'ibot qilish bo'yicha markazlar tuzildi.

Nazorat savollari:

O‘zR “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Yangi taxriridagi Qonun qachon qabul qilingan?

O‘zR Milliy Olimpiya Qo‘mitasi (MOQ) qachon tashkil qilingan?

MOQning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

Qachon Mustaqil O‘zbekiston sport jamoasi birinchi marta Osiyo o‘yinlarida ishtirok etgan?

Qachon Mustaqil O‘zbekiston sport jamoasi birinchi marta qishki Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan?

Qachon Mustaqil O‘zbekiston sport jamoasi birinchi marta yozgi Olimpiya o‘yinlarida ishtirok etgan?

Mustaqillik-yillarida jismoniy taibiya va spoit sohasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?

2016-yilda Olimpiya o‘yinlarida sportchilarimizning natijalari qanday bo‘ldi?

14-jadval

XV yozgi Paralimpiya o‘yinlarida medallar soni va umumjamoa natijalari

O‘rin	Davlatlar	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
1	**Xitoy**	**107**	**81**	**51**	**239**
2	**Buyuk Britaniya**	**64**	**39**	**44**	**147**
3	**Ukraina**	**41**	**37**	**39**	**117**
4	AQSH	40	44	31	115
5	Avstraliya	22	30	29	81
6	Germaniya	18	25	14	57
7	Gollandiya	17	19	26	62
8	Braziliya	14	29	29	72
9	Italiya	10	14	15	39
10	Polsha	9	18	12	39
11	Ispaniya	9	14	8	31
12	Fransya	9	5	14	28
13	Yangi Zellandiya	9	5	7	21
14	Kanada	8	10	11	29
15	Eron	8	9	7	24
16	**O‘zbekiston**	**8**	**6**	**17**	**31**

Eslab qoling!

❖ **O'zbekiston sportchilari ilk bor mustaqil terma jamoa sifatida XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida (1996 y. Atlanta) ishtirok etib, 197 mamlakat orasida 58-o'rinni egallagan.**

❖ **XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida (2016, Rio-de-Janeyro) O'zbekiston terma jamoasi 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida 207 davlat orasida 21-o'rinni egalladi.**

❖ **Umumiy natijalar bo'yicha O'zbekiston Osiyo mamlakatlari orasida 4-o'rinni, MDH davlatlari orasida 2-o'rinni, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 1-o'rinni egalladi.**

II BOB. MAVZULARI BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Teshiktosh g'ori topilmalari asosida jismoniy tarbiyaga oid qanday xulosa qilingan?

a) qadimgi ajdodlarimiz kuchli, mohir ovchi bo'lgan;
b) qadimgi odamlar tosh qurollarini yasagan;
c) qadimgi odamlar yaxshi hunarmand bo'lgan;
d) qadimgi odamlar chorvachilik bilan shug'ullangan.

2. Zarautsoy g'orida topilgan rasmda nima tasvirlangan?

a) ov qilish; **b)** otda yurish; **c)** olov yoqish; **d)** kitob o'qish.

3. Kamon va o'q yoy qaysi davrda ixtiro qilingan?

a) mezolit; **b)** neolit; **c)** eneolit; **d)** bronza davri.

4. Qadimgi Markaziy Osiyo hududida qanday jismoniy mashqlar keng tarqalgan edi?

a) kamondan o'q otish, otda yurish, kurash;
b) qo'l jangi, yugurish;
c) kurash, qilichbozlik;
d) poyga, yugurish, kurash.

5. Markaziy Osiyo xalqlari jismoniy tarbiyasiga oid eng qadimgi yozma manbaga nima kiradi?

a) Zardushtiy dinining «Avesto» kitobi;
b) Gerodotning «Tarix» kitobi;
c) Strabonning «Geografiya» kitobi;
d) «Alpomish» dostoni.

6. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Parfiya harbiy sohada qaysi davlat bilan raqobatlashgan?

a) Qadimgi Rim; **b)** Qadimgi Misr; **c)** Xitoy; **d)** Yaponiya.

7. Markaziy Osiyo xalqlari qanday mashqlarni mukammal egallagan?

a) kamondan o'q otish; **b)** yugurish; **c)** sakrash; **d)** qo'l jangi.

8. Gerodot qaysi qadimgi xalqlarni dunyodagi eng mohir merganlar degan?

a) saklarni; **b)** minglarni; **c)** eftalitlarni; **d)** barloslarni.

9. «Avesto» bo'yicha tarbiya qanday bo'limlardan iborat?

a) diniy, aqliy, harbiy- jismoniy, ma'naviy;
b) aqliy, jismoniy, diniy;
c) harbiy- jismoniy;
d) diniy, aqliy.

10. Qadimgi davr ayol qahramonlaridan qaysi biri jismoniy barkamollik timsoli bo'lgan?

a) Tumaris; **b)** Roksana;
c) Kleoparta; **d)** Bibixonim.

11. Al-Xorazmiy asarining qaysi qismida tarbiya haqidagi fikrlar ifodalagan?

a) «Vasiyatlar kitobi»;
b) «Algebra»;
c) «Geometriya»;
d) «Tarbiya kitobi»;

12. Sug'diyona va Baqtriyada qanday mashqlar keng ommalashgan edi?

a) ot poygasi, kurash, uloq, dorbozlik;
b) kuch sinashish, arqon tortishish;
c) to'p o'yinlari, akrobatika;
d) harakatli o'yinlar.

13. Xorazmiy ta'limda qanday usullardan foydalanishni tavsiya etgan?

a) ko'rgazmali usullar;
b) an'anaviy usullar;

c) amaliy usullar;
d) matematik usullar.

14. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari"da jismoniy tarbiya to'g'risidagi bob qanday nomlanadi?
a) «Sog'liqni saqlash to'g'risida»;
b) «Tarbiya haqida»;
c) «Davolash haqida»;
d) «Dori-darmon to'g'risida».

15. Abu Ali ibn Sino mashqlarni qanday guruhlarga ajratgan?
a) kuchli va kuchsiz, tezkor va sekin;
b) og'ir va tezkor;
c) oddiy va murakkab;
d) harbiy va jismoniy.

16. Ibn Sino badantarbiya turlarini nechta guruhga bo'lgan?
a) 2 **b)** 3 **c)** 5 **d)** 6

17. Ibn Sino badantarbiya deganda qanday harakatlarni nazarda tutadi?
a) maxsus badantarbiya harakatlarini;
b) harakatli o'yinlarni;
c) gimnastika mashqlarini;
d) barcha harakatlarni.

18. Abu Ali ibn Sino sog'liqni saqlash uchun qanday tadbirlarni tavsiya qilgan?
a) jismoniy tarbiya, ovqatlanish tartibi, uyqu tartibi;
b) badantarbiya, chiniqtirish suzish;
c) jismoniy mashqlar, mehnat;
d) harakatli o'yinlar, sayr qilish.

19. Ibn Sino uqalash mashqlarini nechta turga ajratgan?
a) 4 **b)** 6 **c)** 8 **d)** 7

20. Abu Nasr Forobiy asarida shahar nima bilan taqqoslangan?

a) odam organizmi;
b) odam mushaklari;
c) odam miyasi bilan;
d) odam yuragi bilan.

21. Abu Nasr Forobiy sog'lom turmush uchun nimani tavsiya qilgan?

a) sog'lom turmush tarzini shakllantirishni;
b) jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni;
c) aqliy mehnatni;
d) aqliy tarbiyani.

22. Abu Rayhon Beruniy qanday tarbiyani birgalikda berishni tavsiya qilgan?

a) jismoniy va mehnat tarbiyasi;
b) ma'naviy va oilaviy tarbiya;
c) estetik va jismoniy tarbiya;
d) aqliy va mehnat tarbiyasi.

23. Beruniy ota-onalarga bola tarbiyasiga oid qanday maslahatlar bergan?

a) o'qituvchi va murabbiyni to'g'ri tanlashni;
b) bolaga aqliy tarbiya berishni;
c) bolaga sharoit yaratib berishni;
d) oilada tinch-totuv yashashni.

24. Amir Temurning harbiy san'ati qaysi kitobda ko'rsatilgan?

a) «Temur tuzuklari»; **b)** «Zafarnoma»;
c) «Shohnoma»; **d)** «Boburnoma».

25. A.Avloniy bola tarbiyasini nechta bo'limga ajratgan?

a) 4 **b)** 2 **c)** 6 **d)** 5

26. Markaziy Osiyoda turli bellashuvlar qanday tadbirlarda tashkil qilingan?

a) xalq bayramlari, milliy tantana va marosimlarda;
b) siyosiy tadbirlarda;

c) ma'rakalarda;
d) sayohatlarda.

27. Amir Temur askarlarni tanlashda qanday fazilatlarga e'tibor bergan?

a) kuch, qilichbozlik va chavandozlik mahorati, aql va fahm-farosat;
b) chidamlilik, qilichbozlik;
c) kuch va aql, tezkorlik kurash;
d) otda yurish, chidamlilik, ishbilarmonlik.

28. Markazy Osiyoga zamoaviy sport turlari nechanchi asrda kirib kelgan?

a) XVIII asrda; **b)** XIX asr oxirida; **c)** XX asr o'rtalarida;
d) XXI asrda.

29. Amir Temur askarlarining harbiy-jismoniy tayyorgarligida qanday mashqlardan foydalanilgan?

a) otda yurish, qilichbozlik, suzish, kurash, otdan otga sakrab o'tish;
b) tosh ko'tarish, otda yurish, chavgon;
c) poyga, olomon-poyga, ko'pkari;
d) kurash, otda yurish, yugurish, sakrash.

30. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari qo'shinida askarlar qanday nomlangan?

a) navkar; **b)** sipoh; **c)** askar; **d)** otliq.

31. Abdulla Avloniy qaysi asarida jismoniy tarbiya masalalarini yoritgan?

a) «Turkiy guliston yoxud axloq»;
b) «Muallimi soniy»;
c) «Maktab gulistoni»;
d) «Usuli jadid».

32. *Abdurauf Fitrat qanday jismoniy tarbiya vositalarini* tavsiya etgan?

a) harakatli o'yinlar; **b)** chiniqtirish; **c)** gimnastika; **d)** suzish.

33. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida qaysi sport jamiyati eng yirik bo'lgan?

a) «Toshkent havaskorlar sport jamiyati»;
b) «Toshkent havaskor velosipedchilar jamiyati»;
c) «Mehnat» sport jamiyati;
d) «Spartak» sport jamiyati.

34. Turkiston o'lkasida birinchi futbol jamoalari nechanchi-yilda tuzilgan?

a) 1912 y. **b)** 1922 y. **c)** 1934 y. **d)** 1956 y.

35. Turkiston o'lkasida birinchi boks maktabini kim tashkil qilgan?

a) S.L.Jakson; **b)** T.Aglayev; **c)** R.Riskiyev; **d)** Sh.Nazarov.

36. Qanday sabablar sovet jismoniy tarbiya tizimi shakllariga ta'sir qilgan?

a) g'oyaviy, siyosiy;
b) demokratik;
c) gumanistik;
d) milliy.

37. I Butun ittifoq Spartakiadasida (1928) O'zbekiston terma jamoasi nechanchi o'rinni olgan?

a) IV o'rin; **b)** III o'rin; **c)** I o'rin; **d)** VI o'rin.

38. Birinchi O'rta Osiyo spartakiadasi qachon o'tkazilgan?

a) 1934 y. **b)** 1936 y. **c)** 1946 y. **d)** 1948 y.

39. Toshkentda jismoniy tarbiya texnikumi kimning qarori asosida ochilgan?

a) Y.Oxunboboyev; **b)** A.Avloniy;
c) M. Behbudiy; **d)** I.Karimov.

40. "Paxtakor" markaziy stadioni nechanchi yilda qurilgan?
a) 1956 y. b) 1951 y. c) 1996 y. d) 2012 y.

41. Qachon sobiq ittifoq terma jamoasi ilk bor Olimpiya o'yinlarida qatnashgan?
a) 1952 y. b) 1948 y. c) 1956 y. d) 1992 y.

42. O'zbekistondan kim ilk bor Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan?
a) Galina Shamray; b) Sobir Ruziyev;
c) Larisa Pavlova; d) Artur Grigoryan.

43. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti qachon tashkil topgan?
a) 1955 y. b) 1960 y. c) 1965 y. d) 1975 y.

44. XXI (yozgi) Olimpiya o'yinlarida qaysi sportchi kumush medal sovrindori bo'lgan?
a) Rufat Riskiyev; b) Rustam Kazakov;
c) Elvira Saadi; d) Mamadjon Ismoilov.

45. O'zbekiston Respublikasida ta'sis etilgan birinchi orden
a) «Sog'lom avlod uchun» b) «Do'stlik» c) «Mehnat shuhrati»
d) «Mustaqillik»

46. «Sog'lom avlod uchun» Davlat dasturining asosiy vazifasi?
a) sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
b) yosh avlodni tarbiyalash;
c) jasmoniy tarbiya darslarini tashkil qilish;
d) sportni rivojlantirish.

47. O'zR "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Yangi tahriridagi Qonun qachon qabul qilingan?
a) 2015 y. b) 1997 y. c) 1999 y. d) 1992 y.

48. "Paxtakor" ko'ngilli sport jamiyati qachon tashkil etilgan?
a) 1950 y. **b)** 1955 y. **c)** 1960 y. **d)** 1956 y.

49. O'zbekiston nechanchi yilda XOQga qabul qilindi?
a) 1993 y. **b)** 1991 y. **c)** 1994 y. **d)** 1992 y.

50. O'zR Milliy Olimpiya Qo'mitasi (MOQ) qachon tashkil qilingan?
a) 21-yanvar 1992y.
b) 29-dekabr 1991y.
c) 14-yanvar 1992 y.
d) 18-noyabr 1991y.

51. O'zR MOQning birinchi prezidenti etib kim saylangan?
a) O.N.Nazirov; **b)** S.S.Ro'ziyev;
c) R.D.Kurbonov; **d)** J.A.Akramov;

52. O'zR MOQning maqsadi va vazifalari?
a) olimpiya g'oyalarini himoya qilish, milliy terma jamoalarni Olimpiya o'yinlariga tayyorlash;
b) olimpizmni targ'ibot qilish;
c) professional sportni rivojlantirish;
d) milliy sport uyushmalarini tuzish.

53. O'zbekistonda birinchi Xalqaro tennis turniri qachon o'tkazilgan?
a) 1994 y. **b)** 1996 y. **c)** 1998 y. **d)** 2000 y.

54. O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo'mitasi qachon tashkil qilingan?
a) 1991 y. **b)** 1992 y. **c)** 1994 y. **d)**1995 y.

55. Qaysi sportchi sharafiga xalqaro musobaqalarda ilk bor O'zR Davlat bayrog'i ko'tarilgan?
a) Gennadiy Chetin; **b)** Lina Cheryazova;
c) Iroda Tulyaganova; **d)** Nariman Atayev.

56. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezident I.A.Karimovga Olimpiya Oltin ordeni qachon taqdim etilgan?

a) 1992 y. **b)** 1994 y. **c)** 1996 y. **d)** 2000 y.

57. Tennis bo'yicha Prezident Kubogi nechanchi yilda tashkil etilgan va birinchi g'olib kim bo'lgan?

a) 1994 y. Chak Adams;
b) 1995 y. Marat Safin;
c) 1996 y. Oleg Ogorodov;
d) 1997 y. Dmitriy Tomashevich.

58. Qaysi sportchi sharafiga Olimpiya o'yinlarida ilk bor O'zR Davlat bayrog'i ko'tarilgan?

a) Lina Cheryazova;
b) Armen Bagdasarov;
c) Muhammadqodir Abdullayev;
d) Oksana Chusovitina.

59. Qaysi o'zbekistonlik sportchi sobiq sovet terma jamoasi tarkibida ilk bor Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan?

a) Sobir Ruziyev; **b)** Galina Shamray;
c) Elvira Saadi; **d)**Vera Duyunova.

60. Qachon Mustaqil O'zbekiston sportchilari birinchi marta Yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etganlar?

a) 1994 y. **b)** 1996 y. **c)** 1992 y. **d)** 1988 y.

61. O'zbekiston sportchilari XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida umumjahon hisobida nechanchi o'rinni egallagan?

a) 41 o'rin; **b)** 58 o'rin; **c)** 48 o'rin; **d)** 26 o'rin.

62. O'zR Prezidenti «Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni qachon e'lon qilingan?

a) 1999 y. 1-fevral;
b) 1993 y. 4-mart;
c) 1995 y. 2-sentabr;
d) 1992 y.14-yanvar.

63. Nechanchi Olimpiada o'yinlarida o'zbekistonlik fristaylchi Lina Chereyazova g'olib bo'lgan?

a) 1994 y. XVII Olimpiya o'yinlarida;
b) 1992 y. XXV Olimpiya o'yinlarida;
c) 1998 y. XVIII Olimpiya o'yinlarida;
d) 2000 y. XXVII Olimpiya o'yinlarida.

64. XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston nechanchi o'rinni egallagan?

a) 34-o'rin **b)** 40-o'rin **c)** 41-o'rin **d)** 35-o'rin

65. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari qachon joriy qilingan?

a) 01.01. 2000-yil **b)** 27.05.1999-yil
c) 01.06.1992-yil **d)** 21.01.1992-yil

66. Qachon Toshkentda Olimpiya Shon-shuhrat muzeyi ochilgan?

a) 31-avgust 1991y.
b) 10-may 1993 y.
c) 18-oktabr 1996y.
d) 1-sentabr 1996 y.

67. Qachon O'zbekiston futbol terma jamoasi Osiyo o'yinlari chempioni bo'lgan?

a) 1994 y Xirosima
b) 1996 y Dubay
c) 1992 y Seul
d) 1995y Toshkent

68. Markaziy Osiyo o'yinlari qaysi davlat tashabbusi bilan ta'sis etilgan?

a) O'zbekiston; **b)** Qozog'iston;
c) Tojikiston; **d)** Rossiya.

69. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari qaysi yoshdagi aholiga mo'ljallangan?

a) 6 yoshdan-60 yoshgacha va undan yuqori;
b) 15 yoshdan18 yoshgacha;

c) barcha yoshdagilar;
d) 7 yoshdan70 yoshgacha.

70. Birinchi Markaziy Osiyo o'yinlari qachon va qayerda o'tkazilgan?

a) 3-8-sentabr 1995y, Toshkent;
b) 5-10-sentabr 1997y, Ashxabod;
c) 10-15-sentabr 2001y, Olmata;
d) 12-17-sentabr1999y, Toshkent.

71. Qachon Mustaqil O'zbekiston sport jamoasi birinchi marta yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan?

a) 1996 y. Atlanta; b) 1994 y. Lillexammer;
c) 1988 y. Seul; d) 1992 y. Barselona.

72. O'zbekiston Olimpiya Shon-shuhrati muzeyi qachon ochilgan?

a) 1996 y. 2-sentabr b) 1991 y. 31-avgust
c) 1996 y. 18-oktabr d) 1993 y. 10-may

73. O'zbekistonda 1999-yil 27-mayda qaysi yo'nalishda qaror qabul qilingan?

a) jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish;
b) futbolni ommalashtirish;
c) bolalar sportini rivojlantirish;
d) sportni targ'ibot qilish.

74. O'zbekistondagi I-Universiada qachon va qayerda o'tkazilgan?

a) 2000-yil, Namangan; b) 2000-yil, Toshkent;
c) 2000-yil, Farg'ona; d) 2002-yil, Samarqand.

75. XXX yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zRning qaysi sportchisi oltin medal oldi?

a) Artur Taymazov; b) Rishod Sobirov;
c) Abbos Atoyev; d) Bahodir Sultonov.

76. "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmon qachon qabul qilingan?

a) 2002 y. 24-oktabr; **b)** 2004 y. 16-fevral;
c) 2007 y. 6-noyabr; **d)** 2011 y. 27-avgust.

77. O'zbekistonda "Bolalar sportini rivojlantirish to'g'risida"gi qaror qachon qabul qilingan?

a) 2002 y. 31-oktabr;
b) 2006 y. 20-may;
c) 2008 y. 24-mart;
d) 2012 y.10-sentabr.

78. XXVII yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallagan?

a) 41-o'rin; **b)** 34-o'rin; **c)** 58-o'rin; **d)** 40-o'rin.

79. O'zR Madaniyat va sport ishlari Vazirligi qachon tashkil etilgan?

a) 2004 y. 30-sentabr;
b) 2006 y. 11-sentabr;
c) 2010 y. 16-iyul;
d) 2012 y. 8-dekabr.

80. XXIX yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallagan?

a) 40-o'rin; **b)** 47-o'rin; **c)** 34-o'rin; **d)** 41-o'rin.

81. "Barkamol avlod" sport musobaqalarida kimlar qatnashadi?

a) kasb- hunar kollejlari o'quvchilari;
b) maktab o'quvchilari;
c) maktabgacha tarbiya bolalari;
d) oliy o'quv yurti talabalari.

82. XXX yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekistondan qaysi sportchi bronza medalini olgan?

a) Rishod Sobirov
b) Anton Fokin

c) Vadim Menkov
d) Armen Bagdasarov.

83. O'zR "Ommaviy sport targ'ibotini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qachon qabul qilingan?
a) 2003 y. 4-noyabr;
b) 2004 y. 20-aprel;
c) 2009 y. 12-yanvar;
d) 2012 y.27-iyun.

84. XXX yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallagan?
a) 47-o'rin; **b)** 40-o'rin; **c)** 41-o'rin; **d)** 56-o'rin.

85. O'zbekistonda sport to'g'risidagi qarorlarda qanday tamoyillar ishlab chiqilgan?
a) sport turlarini professional asosda tashkil etish va rivojlantirish;
b) sport turlarini yoshlar orasida ommaviylashirish;
c) o'quv yurtlarida futbol, tennis, kurashni rivojlantirish;
d) sport inshootlarini qurish.

86. O'zR Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan qanday taqdirlangan?
a) Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan Oltin ordeni berilgan;
b) Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan Oltin kubok berilgan;
c) Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan Faxriy yorliq berilgan;
d) Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan Diplom berilgan.

87. Sidneydagi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi uchun kim oltin medal keltirgan?
a) Muhammadqodir Abdullayev;
b) Dilshod Mansurov;
c) Artur Grigoryan;
d) Rustam Qosimjonov.

88. XV yozgi Paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallagan?

a) 16-o'rin **b)** 24-o'rin **c)** 12-o'rin **d)** 10-o'rin

89. XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarida umumjamoa hisobida nechanchi o'rinni egallagan?

a) 37-o'rin **b)** 40-o'rin **c)** 21-o'rin **d)** 59 -o'rin

90. XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari natijalari bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi Osiyo mamlakatlari, MDH davlatlari, Markaziy Osiyo davlatlari orasida nechanchi o'rinni egallagan?

a) 2, 5, 3 **b)** 4, 3, 1 **c)** 2, 4, 5 **d)** 4, 2, 1.

III BOB. XALQARO OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

10-§. Olimpiada va Olimpiada sari yo'l. Qadimgi Olimpiya o'yinlari

Mavzuni o'rganishdan asosiy maqsad – Qadimgi Olimpiya o'yinlari tarixini chuqur va atroflicha o'rganish orqali qadimgi Olimpiya o'yinlari ahamiyatini tushunish.

Nazariy mashg'ulotlar mazmunida asosiy vazifalar –

- Qadimgi Olimpiya o'yinlari xususiyatlarini tahlil qilish;
- olimpiya sporti tarixi, jahon xalqlarining sport sohasidagi yutuqlari bilan tanishtirish;
- olimpizmning insonparvarlik qadriyatlari ahamiyatini ifodalash kabi masalalardan iborat.

Mashg'ulotlarda talabalar va mutaxassislardan - olimpizm tushunchalari va ularning mohiyatini bilish; olimpiya bilimlarini targ'ibot qilish vositalaridan foydalanish shakllarini o'rganish; mustaqil fikr yuritish, bilimlarga ijodiy yondashish talab etiladi.

Olimpiya o'yinlari tarixini o'rganish manbalariga:

- qadimgi Olimpiya o'yinlariga oid ashyoviy yodgorliklar va arxeologik topilmalar;
- olimpiya sportiga doir arxiv materiallari, ilmiy kitoblar va boshqa yozma manbalar;
- olimpiya sportiga oid tasviriy san'at asarlari, badiiy kitoblar, xalq rivoyatlari va afsonalari, kino, foto, fonomateriallar;
- turli mamlakatlarda sportning rivojlanishi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlar, ya'ni sport yutuqlari va sport rekordlari kiradi.

Yozma manbalarga ko'ra, qadimgi Olimpiya o'yinlarining boshlanishi ikki Qadimgi Gretsiya davlatlari – Elida va Sparta o'rtasida tinchlik o'rnatilishi bilan bog'liq bo'lgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlari. Qadimgi Gretsiyaning Olimpiya shahri Olimpiada o'yinlarining vatani hisoblanadi. Olimpiya shahri Peloponnes yarim orolining g'arbiy qismida joylashgan. Qadimgi yunonlar Olimpiya o'yinlarini buyuk xudolari - qudratli va dono Zevsga bag'ishlaganlar. Yunonlar oliy iloh Zevsni "yashin

chaqnatuvchi", "bulutlarni haydovchi", beqiyos qudrat timsoli, "hayot baxsh etuvchi", "xaloskor" ma'budi sifatida e'zozlaganlar.

Miloddan avvalgi V asrda yunon me'mori Libon loyihasi asosida Olimpiya shahrida Zevs maqbarasi qurilgan. Bu yerda o'rnatilgan Zevsning juda katta, oltin va fil suyagidan yasalgan haykali dunyodagi yetti mo'jizaning biri deb tan olingan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining tarixi to'rt davrdan iborat bo'lib, ular Qadimgi Gretsiyaning afsonaviy badiiy merosiga asoslanadi.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining birinchi davri – qahramonlik davri hisoblanib, rivoyatlarga ko'ra bu musobaqalarda ma'budlar, shohlar, afsonaviy qahramonlar o'zaro kuch sinashganlar. Gomerning mashhur "Illiada" dostonida Qadimgi Gretsiyada Troya urushining buyuk qahramoni Axilles tashkil etgan o'yinlarda ot aravalardagi poygalarda Frakiya shohi Diomed, Miken shohi Menelay, Pilos shohi Nestor marraga birinchi bo'lib yetib kelganlar. Gomer ularni musht jangida teng keladiganlar topilmagan Evrial, kurashda barcha raqiblarining kuragini yerga tekkizgan shoh Ayaks Telamanid, yugurishda Odissey, nayza uloqtirishda yunon qo'shinlari lashkarboshisi Agamemnon, kamon otishda Odisseyning eng sodiq xizmatkori Evmey va boshqa afsonaviy qahramonlarning fazilatlarini madh etgan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining ikkinchi – *afsonaviy davri* Geraklga bag'ishlab tashkil etilgan umumellin musobaqalari to'g'risidagi rivoyatlarga asoslangan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining uchinchi – yarim afsonaviy davr miloddan avvalgi IX asrga to'g'ri kelib, bunda olimpiya o'yinlari Likurg va Ifit tomonidan tashkil etilganligi to'g'risidagi haqiqiy voqealar rivoyatlarda saqlanib kelgan. [32]

Qadimgi olimpiya o'yinlarining to'rtinchi – qadimgi olimpiya o'yinlarining tarixiy davri. Miloddan avvalgi **776-yilda** birinchi qadimgi olimpiya o'yinlari bo'lib o'tgan va olimpiya o'yinlari to'g'risida yozma manbalar topilgan. Bu aniq ma'lumotlarga asoslangan sana Olimpiya o'yinlari vujudga kelgan yili, deb qabul qilingan.

Qadimgi olimpiya o'yinlari haqida juda ko'p afsonalar va rivoyatlar mavjud. Birinchi afsonada xudo Kronos o'g'illaridan birining qo'lidan halok bo'lishini bashorat qiluvchi tushga ishonib, yangi tug'ilgan farzandlarini yutib yuborishni boshlagan. Uning

[32] Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. T.: "Sharq", 2008.

rafiqasi Reya navbatdagi yangi tug'ilgan farzand o'rniga yo'rgakka tosh o'rab, uni berahm otaga beradi. O'g'lini esa cho'ponga berib yuboradi, bola o'sib-ulg'ayadi, chaqmoq va momaqaldiroq xudosi qudratli Zevsga aylanadi. Zevs shavqatsiz otasini jangga chaqiradi va g'alaba qozonadi, shu orqali aka-singillarini qutqaradi, ular keyinchalik xudolarga aylanishadi. Zevs g'alaba sharafiga musobaqalar o'tkazishni buyurgan. Bu o'yinlar o'tkazilgan joy nomi bilan Olimpiya o'yinlari deb atalgan.

Yana boshqa afsonaga ko'ra o'yinlarni Zevsning o'g'li Gerakl tashkil qilgan. Olimpiya o'yinlari Geraklning eng shavkatli g'alabalaridan biriga bag'ishlangan. Gerakl yugurish masofasini belgilab bergan va u 600 ta oyoq qadamiga (192m 27sm) to'g'ri kelgan.

Qadimgi Gretsiyada bu o'lchov «stadiy» deb yuritilgan, shundan «stadion» so'zi kelib chiqqan. Ko'p yillar davomida yugurish bo'yicha g'olib aynan shu masofada aniqlangan.

Olimpiya o'yinlari Zevsning nevarasi Pelops tomonidan tashkil qilingan degan afsona ham bor. Podshoh Enomayning juda go'zal qizi bo'lgan. Enomay o'z kuyovining qo'lidan halok bo'lishini tushida ko'rgan va bunga ishonib, qizini qo'lini so'rab kelgan yigitlarga shart qo'yib, ular bilan ot aravada poyga o'ynagan. Poygada mag'lub bo'lgan yigitlarni o'limga hukm qilgan.

Pelops Enomayning qiziga o'n to'rtinchi kuyov edi. Oldingi o'n uchta kuyov ot aravada poyga o'ynashda Enomay qo'lidan halok bo'lgan edi. Enomayning qizi Gippodamiya Pelops bilan birga Enomay ot aravasining boshqaruvchisi Mirtilosni g'ildiraklarni ushlab turuvchi bronzali ushlagichni mumlisiga almashtirib qo'yishga ko'ndirishadi.

Poyga paytida g'ildiraklar chiqib ketadi va Enomay halok bo'ladi. Xudolarga minnatdorchilik bildirib, Pelops Olimpiya o'yinlarini ta'sis etadi va ot aravada poyga asosiy musobaqalardan biriga aylangan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlari doimiy ravishda har 4 yilda bir marta kabisa yilida o'tkazilgan. Yunon rivoyatlari va ko'plab afsonalarida kabisa yili ofat keltiruvchi yil, deb ifodalangan. Shuning uchun qadimgi davrda yunonlar kabisa yilida xudolardan rahm-shavqat so'rab, ular sharafiga bayramlar uyushtirganlar va qurbonliklar qilganlar.

Olimpiya shahrida maxsus hay'at har to'rt yilda bir marta olimpiya o'yinlari tantanali ochiladigan sanani belgilab bergan. An'anaga binoan, bu sana yozda quyosh eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilib, osmonda to'lin oy paydo bo'ladigan birinchi kun bo'lgan.

"Olimpiada" atamasi ikki olimpiya o'yinlari oralig'idagi to'rt yil – 1447 kunni bildirgan. Yunonlar uchun bu taqvim sitsiliyalik tarixchi Timey tomonidan miloddan avvalgi 264-yilda kiritilgan.

O'yinlar o'tkaziladigan vaqtda Qadimgi Gretsiyada muqaddas tinchlik **"ekexeyriya"** e'lon qilingan va 3 oy davom etgan. Maxsus jarchilar muqaddas tinchlik kuchga kirganini hammaga ma'lum qilib chiqqanlar. Muqaddas tinchlik davrida, ya'ni ellinlar taqvimi bo'yicha ikki apolloniy va perfiniy oylarida har qanday jangovar harakatlar to'xtatilgan. Bu qat'iy qonunni buzganlarga ma'budlar tomonidan kulfat yog'dirilishi haqidagi har bir yunonga ma'lum bo'lgan aqida dahshati eng urishqoq elatlarni ham to'xtatgan. Bu davrda Olimpiya shahriga qurol-yarog' bilan kirish taqiqlangan. Polis hukmronlari olimpiya o'yinlari paytida musobaqa ishtirokchilari, murabbiylar va barcha tomoshabinlarning xavfsizligini kafolatlagan.

Sulh shu qadar muqaddas hisoblanganki, olimpiya o'yinlari o'tkazilgan bir necha yuzlab yillar davomida unga atigi ikki marotaba rioya etilmagan hol bo'lgan. Birinchisi, Filipp Makedonskiy lashkari askarlari olimpiya o'yinlariga ketayotganlarni yo'lda tunaganlar. Bosqinchilar nafaqat ularning pul va mollarini qaytarib berishga majbur qilinganlar, balki musobaqa tashkilotchilariga juda katta miqdorda jarima ham to'laganlar. Makedonskiy o'zining lashkarlari sulhni buzganliklari uchun olimpiya o'yinlari tashkilotchilaridan rasmiy kechirim ham so'rashga majbur bo'lgan. Ikkinchisi, miloddan avvalgi 420-yilda spartaliklar muqaddas sulh amal qilib turgan vaqtda Lepreya shahrini qamal qilganliklari uchun olimpiya kengashi tomonidan O'yinlar ishtirokchilari ro'yxatidan chiqarilgan.

Olimpiya o'yinlari dastlab **bir kun** bo'lgan va bayram o'tkazilgan kunlar "iyeromeniya" – "muqaddas oy", deb nomlangan. Bu bayram vujudga kelgan paytida diniy xarakterga ega bo'lgan, lekin uning asosiy mazmunini atletika musobaqalari tashkil etgan. Miloddan avvalgi V asrga kelib, qadimgi Olimpiya o'yinlari **5 kun** davom etgan.

Birinchi kun. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimi bo'lgan. Olimpiya bayramining boshlanishi to'rt marotaba

karnay chalinishi bilan bildirilgan. Musobaqa ishtirokchilari, murabbiylar va hakamlar Zevs xudosiga qasamyod aytganlar.

Tantanali ochilish marosimi davomida jangchi tomonidan qatnashuvchi atletlarning ismi, kasbi, kelgan shahri e'lon qilingan. Olimpiadaning birinchi kunida xudolarga qurbonliklar keltirilgan.

Ikkinchi kun. Yoshlar o'rtasida yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish, qo'l jangi bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

Uchinchi kun. Olimpiadaning eng katta kuni – katta yoshli atletlar o'rtasida yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish, kurash, qo'l jangi bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

To'rtinchi kun. Eng nufuzli hisoblangan ot aravalarda poyga bo'yicha hamda qurol aslaha bilan yugurish musobaqalari o'tkazilgan.

Beshinchi kun. G'oliblar e'lon qilingan, taqdirlash marosimi bo'lgan. Qadimgi Olimpiya o'yinlarining g'oliblari **olimpionik** deb nomlangan va ular sharafiga qo'shiqlar aytilgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlarga **ellanodik** – hakamlar rahbarlik qilgan. Ellanodiklar Elida fuqarolari orasidan o'yinlar boshlanishidan bir yil oldin chek tashlash asosida 9 nafar kishidan 18 nafar kishigacha saylangan. Ellanodiklarning vazifasi musobaqalar joyini tayyorlash, musobaqa ishtirokchilarini tanlash, musobaqalarning borishini kuzatib turish va musobaqa g'oliblariga mukofotlar berishdan iborat bo'lgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlarining dasturi ko'p yillar mobaynida o'zgarmagan va musobaqalarning eng qadimgi turi 1 stadiyga (stadiodrom) yugurishdan iborat bo'lgan. Qadimgi 14-o'yinlardan boshlab musobaqalar dasturiga 2 stadiyga yugurish - diaulos, 15-olimpiada o'yinlaridan boshlab esa chidamliligini sinash uchun 24 stadiyga yugurish - dolixodrom kiritilgan.

Qadimgi 18-Olimpiya o'yinlardan boshlab dasturga pentatlon bo'yicha musobaqalar kiritilgan. Pentatlon – yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish, kurash mashqlaridan iborat bo'lgan.
25-o'yinlarda – ot aravalarda poyga. 33-o'yinlarda – pankration (qo'l jangi va kurash) musobaqalari dasturga kiritilgan *(15-jadval).*

Olimpiya shahrining sharqiy qismida o'sha davrlarda ot aravalar poygasi o'tkaziladigan ulkan gippodrom joylashgan va 730x336 metr kattalikda bo'lgan. Bundan tashqari, bu yerda xususiy sport maktabi - gimnasiya, uning o'rtasida 66x66 metr kattalikdagi palestra joylashgan. Gimnasiya yaqinida esa olimpiya o'yinlari paytida atletlar yashaydigan "olimpiya qishlog'i" bo'lgan. Qadimgi olimpiya

o‘yinlariga faqat ozod yunon fuqarolari qatnashishi huquqiga ega bo‘lganlar. O‘yinlarga qullar, ayollar, bolalar, xorijliklar, jinoyatchilar va qurollangan odamlar kiritilmagan. Miloddan avvalgi 632-yildan qadimgi 37-Olimpiya o‘yinlardan boshlab o‘yinlarda bolalar qatnashgan va ularning chiqishlari uchun alohida kun ajratilgan.

15-jadval

Qadimgi olimpiya o‘yinlariga yangi musobaqalarning kiritilish sanalari

O‘yin	Yil	Musobaqa turi
1	mil.av. 776-yil	1 stadiy (192 m 27 sm) stadiodrom
14	mil.av. 724-yil	Diaulos (2 stadiy)
15	mil.av. 720-yil	Dolixodrom (24 stadiy)
18	mil.av. 708-yil	Pentatlon (beshkurash)
23	mil.av. 688-yil	Qo‘l jangi
25	mil.av. 680-yil	Ot aravalar poygasi
33	mil.av. 648-yil	Pankration va ot poygasi
37	mil.av. 632-yil	O‘g‘il bolalar uchun kurash va ot poygasi
38	mil.av. 628-yil	O‘g‘il bolalar uchun pentatlon
41	mil.av. 616-yil	O‘g‘il bolalar uchun qo‘l jangi
65	mil.av. 520-yil	Qurol-aslaha bilan yugurish
70	mil.av. 500-yil	Xachir qo‘shilgan aravalar poygasi
71	mil.av. 496-yil	Biyalarda poyga
84	mil.av. 444-yil	Xachir va biya poygalarining bekor qilinishi
93	mil.av. 408-yil	Ikkita ot qo‘shilgan aravalar poygasi
99	mil.av. 384-yil	To‘rtta toy qo‘shilgan aravalar poygasi
128	mil.av. 268-yil	Toylarda poyga
131	mil.av. 256-yil	Ikkita toy qo‘shilgan aravalar poygasi
145	mil.av. 200-yil	O‘g‘il bolalar uchun pankration

Qadimgi yunonlar Olimpiya o‘yinlari qahramonlari nomlarini Alfey daryosi yaqinida o‘rnatilgan marmar ustunlarga o‘yib yozishgan. Birinchi Olimpiya o‘yinlarining g‘olibi Elida shahridan

oshpaz Koroibos to'g'risida ana shu marmar ustundagi yozuvlardan ma'lum bo'lgan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlari ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Ular Qadimgi Gretsiyaning ko'pgina shaharlarini birlashuviga, quldorlarning o'zaro shartnomalar asosida tinchlik haqidagi kelishuvlariga, iqtisodiy jipslashuviga sabab bo'lgan. Olimpiya o'yinlari millatni birlashtiradigan va o'zaro totuvlikka xizmat qiladigan umumyunon bayrami hisoblangan. Bu o'yinlar polis quldorlarining harbiy qudratini ham namoyish qilgan.

Olimpiya o'yinlari – Qadimgi Gretsiyaning eng mashhur va eng ommaviy musobaqalari hisoblanib, alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Olimpiya o'yinlari qadimdan eng e'zozlangan bayramlardan biri bo'lgan. Qadimgi yunonlar insonning barkamol rivojlanishi aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy tarbiyadan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaganlar.

Qadimgi Gretsiya davlatlarida ta'lim-tarbiya tizimi barcha to'la huquqli fuqarolarga mo'ljallangan edi. Tarbiya tizimi harbiy-jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmasdan, har tomonlama tarbiya berilgan.

Olimpiya o'yinlarining asosiy g'oyasi inson barkamolligi, aqliy va jismoniy yetukligini namoyishi bo'lgan. Shuning uchun ilk umumellin bayramlarida kuchlilik, chaqqonlik, epchillik bo'yicha musobaqalar musiqa, she'riyat tanlovlariga ulanib ketgan. Olimpiadalarda jismoniy go'zallikka aqliy salohiyat, musiqiy, badiiy, tasviriy iste'dod ruhi uyg'un bo'lgan.

Qadimgi yunon madaniyati va san'atining barcha ko'zga ko'ringan namoyandalari bevosita musobaqalar, tanlovlar ishtirokchilari, tomoshabin sifatida qatnashganlar. Mashhur tarixchi Gerodot Olimpiya shahriga Afinadan yayov kelgan. Matematik Pifagor umumellin sport musobaqalarida qo'l jangi bo'yicha g'olib bo'lgan. Gippokrat kuchli kurashchi va mohir chavandoz edi. Faylasuf Platon mashhur Istmiya o'yinlarida kurash bo'yicha musobaqalarda g'olib chiqqan. Olimpiadalarda shoirlar Sofokl va Evripid, yozuvchi Lukian, notiq Demosfen Olimpiya o'yinlari doirasida o'tkazilgan san'at, adabiyot, musiqa, me'morchilik bo'yicha tanlovlarda ishtirok etganlar.

Qadimgi davrda olimpiya o'yinlarining jamiyatdagi o'rni va nufuzi juda yuqori bo'lib, ular Qadimgi Gretsiyaning ijtimoiy-siyosiy,

iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan *(16-jadval).*

16-jadval

Qadimgi Olimpiya o'yinlarining ijtimoiy-madaniy ahamiyati

Iqtisodiy ahamiyati	Olimpiya shahri savdo-sotiq markaziga aylangan va polislararo shartnomalar tuzilgan.
Siyosiy ahamiyati	Ekexeyriya tufayli polislar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar yaxshilangan.
Harbiy ahamiyati	Qadimgi o'yinlarda davlatlar o'z harbiy qudrati va jangchilarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini namoyish qilganlar.
Madaniy ahamiyati	O'yinlarning madaniy dasturida faylasuflar, matematik, tarixchi olimlar, shoir va yozuvchilar o'z asarlari bilan qatnashganlar.

Qadimgi Gretsiyada jismoniy mashqlarning ikki xil usuli bo'lgan: gimnastika – umumiy jismoniy tarbiya; agonistika – maxsus tayyorgarlik va musobaqalarda ishtirok etish.

Agonistika (*agon* – musobaqa) gimnastik o'yinlar va musiqa musobaqalaridan (musiqa, raqs, she'riyat sohalari bo'yicha) iborat bo'lgan. Qadimgi davrda Nemeya o'yinlari, Istmiya o'yinlari, Pifiya o'yinlari, Panafina o'yinlari kabi musobaqalar keng tarqalgan edi.

Nemeya o'yilari Zevs xudosiga bag'ishlangan bo'lib, ilk bor milloddan avvalgi 573-yilda Argolida shahrida o'tkazilgan. Nemey o'yinlari har ikki yilda bir marta – olimpiadaning ikkinchi yilida kuz faslida va to'rtinchi yilida - qishda o'tkazilgan. O'yinlar dasturida yugurish, kurash, pentatlon va pankration bo'lgan. G'oliblar selderey barglari bilan taqdirlangan.

Pifiya o'yinlari Delfa shahrida Apollon xudosiga bag'ishlab o'tkazilgan. Apollon sozanda, raqqos va hofizlar rahnamosi bo'lganligi uchun, dastlab o'yinlar dasturiga musiqa musobaqalari kiritilgan.

Tarixiy ma'lumotlar asosida miloddan avvalgi 586-yilda yunon shaharlari o'rtasidagi urushlar qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan ot

arava poygalari ilk bor o'tkazilganligi aniqlangan. Delfa shahridagi mahalliy bayramlar miloddan avvalgi 582-yildan boshlab umumyunon o'yinlarga aylangan. Pifiya o'yinlari g'oliblari Apollon xudosiga bag'ishlab ekilgan daraxtdan uzib olingan olmalar bilan taqdirlangan, keyinchalik esa lavr daraxti novdalaridan yasalgan gulchambar berilgan.

Istmiya o'yinlari dengiz hukmdori Poseydon xudosiga bag'ishlangan. Bu o'yinlar miloddan avvalgi 572-yildan boshlab har ikki yilda bir marta – olimpiada yilining birinchi va uchinchi yillari – bahorda Korinfda o'tkazilgan. Istmiya o'yinlari dasturi yugurish, kurash, qo'l jangi, pentatlon, pankration, ot arava poygalari va ot poygalari bo'yicha musobaqalardan iborat bo'lgan. Bundan tashqari musiqa dasturi bo'yicha nay va kifara cholg'u ijrochilarning chiqishlari namoyish qilingan. Korinf shahri boy va badavlat bo'lganligi sababli Istmiya bayramlari katta tantanalar bilan tashkil qilingan. Istmiya o'yinlari g'oliblari qarag'ay daraxti novdalaridan yasalgan gulchambar bilan taqdirlangan va she'rlarda sharaflangan. Miloddan avvalgi 228-yildan boshlab O'yinlarda rimliklar ham ishtirok etgan.

Qadimgi olimpiya o'yinlarining taqiqlash sabablari xristian dinining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. **394-yilda** Rim imperatori Feodosiy I xristianlikni majburiy joriy etib, ko'p xudoliklar bayramlarini man etish to'g'risida farmon chiqargan. Feodosiy II muqaddas Olimpiya shahriga o't qo'yib, yondirib yuborishga buyruq bergan. Qadimgi davrda jami 293 ta olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari XII asr davom etgan.

"Qadimgi Olimpiya o'yinlari to'rt yilda bir marta ming yildan ortiq muddat davomida (eramizdan 776 asr avval va eramizning 260 asri oralig'ida) Elidaning Olimpiya shahrida o'tkazilgan. Ular, ayrim tanaffuslar bilan eramizning 393-yiliga qadar, xristian diniga mansub bo'lgan imperator Feodosiy boshqa bayramlarni, jumladan o'yinlarni man qilguniga qadar davom etgan. Ular, qadimgi Yunonistonda yagona bo'lmagan, u yerda Pifiya o'yinlari, Nemeya o'yinlari va Istmiya o'yinlari hamda kichik tadbirlar o'tkazilgan, lekin Olimpiya o'yinlari eng asosiy va davomiyligi bo'yicha uzoq muddatli bo'lgan. Ushbu o'yinlarning barchasi, xarakteri bo'yicha ilohiy va diniy hisoblangan, Apollon va Poseydon kabi xudolarga ma'qul bo'lish uchun o'tkazilgan, Olimpiya o'yinlari esa, Zevs xudosiga bag'ishlangan. Ular, Qadimgi dunyo mo'jizalaridan biri hisoblangan,

oltindan, kumushdan va fil suyagidan ishlangan 40 futlik haykali o'rnatilgan Zevs ibodatxonasi oldidagi joyda o'tkazilgan. Musobaqalar ishtirokchilari, ularning murabbiylari va hakamlar haykal oldida turib barcha o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga qasamyod qilishgan. Haykal oldida buqalarni qurbonlik qilishgan va g'oliblar taqdirlangan. O'yinlarni minglab tomoshabinlar ko'rgan. [33]

Dastlab, 190 metrga bir martalik yugurish tashkil qilingan, lekin sekin-asta dastur kengaytirilgan va sportning ko'proq turlarini o'z ichiga olgan: yugurishdagi bellashuvlar, boks, kurash, pankration (qurolsiz qo'l jangi) va beshkurash (disk uloqtirish, nayza uloqtirish, sakrashlar, yugurish va kurash). Mifologik sport turlaridan farqli ravishda jamoaviy o'yinlar bo'lmagan. O'n to'qqizinchi asrda O'yinlar havaskorlik xarakteriga ega bo'lmagan – qadimgi rimliklar bunday konsepsiya to'g'risidagi tushunchaga ega bo'lmaganlar. G'oliblarga beriladigan mukofotlar katta miqdorda berilgan. Pullik taqdirlashlar, subsidiyalar va sovg'a-salomlar odatiy bo'lgan va Olimpiya o'yinlarida g'alaba qozonish siyosatda karerani muvaffaqiyatli boshlash uchun platforma bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan.

Ekspertlarning fikrlari, o'yinlardagi g'alaba uchun moddiy rag'batlar masalasida har xil bo'lgan. Agarda, bevosita mukofotlar oliva daraxti gulchambari bilan chegaralangan bo'lsa, g'oliblar uylariga qaytishganida naqd pul va imtiyozlar bilan taqdirlanishgan, deb hisoblash qabul qilingan. Yang kabi ayrim tadqiqotchilar, barchasi aniq holatga bog'liq bo'lgan, deb hisoblashadi, Pleket kabi boshqa mutaxassislar esa, qadimgi o'yinlarning ancha keyingi erasida mumkin bo'lganligini ta'kidlashadi.

Uchinchilari, o'sib borayotgan professionalizmni Rimga taalluqli deyishadi. Dalillar chegaralangan va kam. Ayrim bellashuvlar bizga o'ta qattiqdek tuyuladi. Kurash, ko'pincha ishtirokchining birini o'limiga qadar davom etgan.

Musobaqalar Qadimgi Gretsiyadagi harbiy va jangovar madaniy muhit kontekstida harbiy tayyorgarlikning oqibati sifatida yuzaga kelgan. O'yinlar qancha davom etishi kerak bo'lsa, shuncha davom etgan, xuddi qadimdagidek, olimpiya tinchligi tamoyili bilan urushlar to'xtatilgan paytda o'tkazilgan. Buni, musobaqalar

---

[33] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012.- 67 p.

ishtirokchilari va tomoshabinlarni xavfsiz harakat qilishlari talab qilgan. Tinchlik tamoyili O'yinlar davom etguniga qadar, boshqa mamlakatlarni Elidaga hujum qilishi man etilgan. Shu usulda, Elida qo'shni mamlakatlar hujumidan himoya qilingan. Tinchlik urushlarni oldini olmagan, lekin u, Olimpiya o'yinlarini urushning buzg'unchilik kuchidan himoya qilgan.[34]

Yunon shahar-davlatlarining iqtisodiy va siyosiy tizimi quldorlikka va patriarxal tuzumga asoslangan. Ular, uncha katta bo'lmagan, hokimiyati va gullab-yashnashi tutqun mehnatga asoslangan, zodagon erkaklar guruhi tomonidan boshqarilgan.

Ko'pchiligi qul bo'lgan ayollar siyosiy huquqqa ega bo'lishmagan. Hattoki, Afinada eng sezilarli bo'lgan demokratiyaning murakkab shakllari rivojlana boshlaganda ham tutqunlik mehnatiga tobelik davom etgan. O'yinlarda faqatgina erkin erkaklar ishtirok etgan, ayollarning tomoshabin bo'lishi ham man etilgan. Shunga qaramasdan, Gera xudosiga bag'ishlangan ayollar musobaqalari ham o'tkazilgan.[35]

Xulosalar

➢Qadimgi olimpiya o'yinlarining tarixi to'rt davrdan iborat bo'lib, ular Qadimgi Gretsiyaning afsonaviy badiiy merosiga asoslanadi.

➢O'yinlar o'tkaziladigan vaqtda Qadimgi Gretsiyada muqaddas tinchlik "ekexeyriya" e'lon qilingan.

➢Olimpiya o'yinlari – Qadimgi Gretsiyaning eng mashhur va eng ommaviy musobaqalari bo'lgan.

➢Qadimgi olimpiya o'yinlari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan.

Nazorat savollari:

Qadimgi Olimpiya o'yinlari vujudga kelishiga qanday sabablar asos bo'lgan?

Qadimgi Olimpiya o'yinlari necha kun davom etgan?

---

[34] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012.- 67 p.

[35] O'sha kitob, 2012.- 67 b

Nima sababdan Olimpiya o‘yinlari har 4 yilda o‘tkazilgan?

«Olimpiada» so‘zi nima ma’noni anglatgan?

Qanday mashq turi qadimgi olimpiya o‘yinlarida asosiy hisoblangan?

Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida hakamlar qanday tanlangan?

Pentatlon qanday mashqlardan iborat bo‘gan?

Qadimgi Olimpiya o‘yinlarining ijtimoiy ahamiyati nimadan iborat edi?

Qadimgi olimpiya o‘yinlari qanday tarixiy omillar sababli taqiqlangan?

Zamonaviy Olimpiya o‘yinlarida qadimgi Olimpiya o‘yinlarining qanday an’analari saqlab qolingan?

KROSSVORD



Vertikal bo‘yicha:

1. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida 175 m dan 192 m 27 sm gacha yugurish masofasi.

Gorizontal bo‘yicha:

2. Qadimgi Gretsiyada pentatlon bilan shug‘ullanish maxsus joyi 3. Qadimgi Gretsiyada kurash va qo‘l jangidan iborat jismoniy mashq nomi. 4. Qadimgi Gretsiyada sportchi 5. Qadimgi Gretsiyada eng qisqa masofaga yugrish. 6. O‘yinlar oralig‘dagi to‘rt yillik davr. 7. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida hakamlar. 8. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida 24 stadiyga yugurish masofasining nomi. 9. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida muqaddas tinchlik. 10. Qadimgi Gretsiyada agonlarga tayyorgarlik tizimi. 11. Qadimgi Olimpiya o‘yinlarida g‘olib atamasi.

11-§. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi. Tarixiy sharh

Olimpiya o'yinlarining qayta tiklash g'oyalarining rivojlanishi. "O'yinlarning vujudga kelishi va qayta tiklanishi." Tabiiyki, qadimgi Olimpiya o'yinlarini insoniyat xotirasidan o'chirib bo'lmas edi. 1419-yilda Olimpiya o'yinlari to'g'risida ko'p jildlik kitob nashr qilingan. Olimpiya o'yinlari to'g'risida Shekspir va Milton, Gyote, Russo va Bayron o'z asarlarida eslatganlar. Volter "Jeux olympiques", Flober va Gayd – olimpik so'zidan sportga doir bo'lmasa-da, foydalanganlar. Lekin aynan uyushgan sportning zamonaviy shaklda paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan birga o'n sakkizinchi asrdan boshlab va keyingi davrlarda "olimpiya" tushunchasi keng foydalanilgan. Yevropada o'rta asrlardan buyon sport tadbirlari bilan o'tkaziladigan bayramlar odatiy hol bo'lgan.

O'n yettinchi asrda Robert Dover "Kotsvold Olimpiya o'yinlarini tashkil qilgan va ayrim uzilishlar bilan keyingi 250 yil davomida o'tkazilgan. Robert Dover Norfolkda 1575 va 1582-yillar oralig'ida tug'ilgan va 1652-yilda vafot etgan. Robert Dover Kotsvold o'yinlarining asoschisi bo'lganligi to'g'risida dalillar yo'q va uning ishtiroki 1612-yildan boshlangan. O'yinlar paydo bo'lishi o'rta asrlarda Angliyada bayramlar o'tkazish an'anasi bilan bog'liq. Ularga rapirada qilichbozlik, yakkakurash, qo'l jangi, dubulg'a bilan jang, raqslar, qoplarda sakrash, oyoqlari boylangan holda kurash bo'yicha musobaqalar kiritilgan. [36]

XVIII asrda Olimpiya shahrida birinchi arxeologik qazilmalar olib borilgan. Yevropa arxeologlarining diqqat-e'tiborini qadimgi Olimpiada o'yinlarining o'rni o'ziga jalb etgan edi. 1723-yilda fransuz olimi Don Bernar de Monfokon qadimgi Olimpiya shahrida arxeologik qazilmalarni olib borishni tavsiya qilgan. Biroq bu ekspeditsiya ishlari amalga oshirilmagan. 1766-yilda Oksford olimi Richard Chandler arxeologik ishlarini olib borishga harakat qilgan.

1824-yilda lord fon Stankof Olimpiya shahrida arxeologik qazilmalarni olib borgan va uning chizmasini tuzgan. Bu esa Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini rivojlantirishga turtki bo'lgan.

---

[36] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 75 p.

1874-1881-yillarda nemis arxeologi Ernst Kursius (1814-1896) boshchiligida o'tkazilgan arxeologik qazilma ishlari ancha muvaffaqiyatli bo'lgan. Ekspeditsiya natijasida Olimpiya shahrida ko'p sonli arxitektura inshootlari va haykallarning qoldiqlari topilgan. 1887-yil arxeologik qazilma ishlarining natijalari matbuotda e'lon qilingan edi.

"Qadimgi Gretsiyaga va umuman Olimpiya o'yinlariga ortib borayotgan qiziqish, xususan arxeologik qazishlar va bir qator joylarda, jumladan Troyada, Mikeni va Olimpiyada amalga oshirilayotgan yer qazish ishlari tomonidan qizitilib turadi. Qadimgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan joylarda yer qazish ishlarini amalga oshirish g'oyasi o'n sakkizinchi asrda bahslarning asosi bo'lgan va 1766-yilda qazishlar paytida, ular o'tkazilgan joy aniqlandi, qo'shimcha ishlar 1787-yilda amalga oshirilgan. Qazish ishlari 1829-yili fransuzlar tomonidan amalga oshirilgan, 1852-yilda esa, nemis arxeologlari haqiqiy yangilik yaratishdi, shunga qaramasdan, 1875-yilga qadar keng masshtabli yer qazish ishlari o'tkazilmagan va keng masshtabli tadqiqotlardan o'n yildan keyin 1886-yilda Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan joyda Arxeologik muzey ochilgan. Parijda 1889-yilda bo'lib o'tgan «Exposition Universelle» ko'rgazmada artefaktlarning namunalari namoyish qilingan.[37]

Qadimgi Olimpiya qishlog'ini arxeologik qazilmalar natijasi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu esa qadimgi olimpiya o'yinlariga bo'lgan qiziqish va havasni oshirib yubordi. Shu asosda jamoatchilik doirasida olimpiya harakatini tiklash g'oyalari paydo bo'lgan.

"O'n to'qqizinchi asrning oxirida XOQning ta'sis etilishi va zamonaviy Olimpiya o'yinlarini bog'liq holda ko'rish zarur. O'n sakkizinchi asrning oxiri va o'n to'qqizinchi asr mobaynida Gretsiya, Skandinaviya, Shimoliy Amerika va Birlashgan Qirollikda turli shakllardagi sport bayramlari rivojlangan. Shotlandiyada 1820-yillarda qayta tiklangan o'yin an'analari 1850-yillarda Amerikada tarqalgan. Parijda 1820-yillarda va Nyu-Yorkda 1850-yillarda rim sirki elementlaridan iborat sirk tomoshalari rivojlangan. Doktor Uilyam Penni Bruks tomonidan 1830-yillardan Skandinaviyada va 1849-yilda Liverpulda "olimpiya" va "olimpiyachi" tushunchalaridan foydalanilgan, bu o'z navbatida Kubertenga katta ta'sir etgan.

[37] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 75 p.

Yunonlar 1859-yildan boshlab va keyingi yillarda Olimpiya o'yinlarini qayta tiklashga harakat qilganlar. Shunday qilib, Kubertenning shaxsiy loyihasi bo'sh joyda rivojlanmagan.

Qadimgi Olimpiya o'yinlarining xayoliy va ideallashtirilgan shaklini ko'rgazmali qo'llashning eng erta misollardan biri – Dreberg modeli hisoblanadi, u, Germaniyaning g'arbida Verlitsa shaharchasida paydo bo'lgan. Shahzoda Frans 1777 va 1799-yillar oralig'ida bayram musobaqalarini tashkil qilgan, qadimdagi Olimpiya o'yinlariga asoslangan bo'lsa ehtimol. O'yinlar tarkibiga otda poygalar va gimnastika bo'yicha musobaqalar kirgan. Musobaqalar ishtirokchilari qo'shni maktablarda o'qiydigan o'g'il va qiz bolalar bo'lishgan va ular shahzoda tomonidan ishlab chiqilgan Das Philanthropinni mutolaa qiladigan o'quvchiga orientirlangan progressiv ta'lim modeliga asoslangan.

Fransiyada 1796-yilda Parijdagi Champ de Mars dagi Revolutsiya paytida «Jeux Olympiques» o'yinlari tashkil qilingan (Kidd, 1984 y.). Shvetsiyada 1834 va 1836-yillarda Gyustav Djoan Shato "Olimpiya o'yinlari" deb nomlangan sport tadbirini Ramlosda tashkil qilgan. Shato gimnastika asoschisi Lingning fikrlarini ma'qullagan.[38] Vengriyada ham "Olimpiya o'yinlari" stilidagi tadbirlar o'tkazilgan. Fransiyada "Olimpiya o'yinlari"ni 1832-yilda Grenob yaqinidagi Dominikan seminariyasi talabalar uchun tashkil qilingan bo'lib, ular keyinchalik yigirmanchi asrga qadar ikki yilda bir marta o'tkazilgan.

Birinchi g'olib 1846-yilda G.Didon bo'lgan, u, keyinchalik rohib bo'lgan va Kubertenga Olimpiya shiori bo'lgan «Citius, Altius, Fortius – Tezroq, Balandroq, Kuchliroq» iborasini taklif qilgan (sanasi keltirilmagan).

Xuddi ta'lim sohasidagi kabi ommaviy tomoshalar ichida "Olimpiya" atamasi qo'llanilgan. O'n to'qqizinchi asrning boshida Champs-Elysees yopiq turdagi ippodrom shaklidagi Cirque des Champs-Elysees deb nomlangan sirk tashkil qilingan. Olimpiya sirki 1827-yilda Templa yaqinidagi binoda tashkil qilingan. 1853-yilda tashkil qilingan Frankoni ippodromida aravalarda poygalar va rim sirk tomoshalari o'tkazilgan. 6 000 kishiga mo'ljallangan arena amerikalik Shoumen tomonidan qurilgan va u, o'z oilasi bilan Parijdagi Olimpiya sirkida ishtirok etgan italiyalik chavandoz Antonio Frankoni sharafiga

[38] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 69 p.

nomlangan. Monrealda 1842-yili Olimpiya klubi qurilgan. Unda, 1844-yilda ikki kunlik "Olimpiya o'yinlari" o'tkazilgan bo'lib, ular mahalliy aholini kelgindilarga qarshi ishtiroki bilan birinchi ommaviy sport musobaqalari o'tkazilgan. Lekin o'n to'qqizinchi asr davomida shotlandiyadagi "tog' o'yinlari" va "sport yurishi" (professional sportchilar) sport tadbirlaridagi ancha ta'sirchan va ommaviy sport turlariga aylandi. Shimoliy Amerikaga immigratsiya qilingan minglab irlandiyaliklar va shotlandiyaliklar o'zlari bilan an'analarini ham olib ketgan, buni Bostonda (1853-y.) va Nyu-Yorkda (1856-y.) tashkil qilingan "Kalendon O'yinlari" ko'rsatadi.[39]

"Much Wenlock" o'yinlari va Milliy olimpiya assotsiyatsiyasi o'n to'qqizinchi asrning o'rtalarida "olimpiya" va "olimpiyachi" tushunchalaridan foydalanish namunalari ko'paydi. Bu davrda sport novatorlari faoliyatida uchta ijtimoiy mavzu birlashdi. Birinchi – qadimgi yunon madaniyatiga, ayniqsa barkamol, aqliy va jismoniy rivojlanish konsepsiyasiga qiziqishni uyg'otish. Ikkinchi – bu davrda atletikaning mavqei oshib, ingliz davlat maktablarida rivojlangan. Uchinchisi – ratsional hordiqni tashkil qilish.

Uilyam Penni Bruks tomonidan 1850-yilda asos solingan "Much Wenlock" o'yinlari muntazam ravishda o'tkazilgan musobaqalardan biri edi. Bruks bu davrda birinchilardan bo'lib sport bayrami, olimpiya tushunchasi va yunon falsafiy tamoyillarini birlashtirgan. Tarixchi Devid Yang fikricha, zamonaviy Olimpiadalar asoschisi deb Bruksni ko'rish mumkin, Mak Alun fikricha esa, Kuberten loyihasi xalqaro darajada muhim bo'lgan.

Bruks 1809-yilda Venlokda doktor oilasida tug'ilgan, o'zi ham doktor va 1841-yilda sudya lavozimini egallagan. Bruks 1850-yilda birinchi "Much Wenlock" Olimpiya o'yinlarini tashkil qilgan. Ularga atletika, halqalarni nishonga otish, futbol va kriket kiritilgan. Bruks yunon madaniyati va Robert Dover "Kosvold o'yinlari" bilan qiziqqan. U, "foydali axborot" olish uchun va "Olimpiya o'yinlari" ishtirokchilari (ya'ni olimpiya sinfi) (1860-yilda "Venlok Olimpiya Jamiyati" deb qayta nomlangan) shaharcha va Venlok atrofidagi aholini axloqiy, jismoniy va intellektual o'sishiga ko'maklashishi uchun agronomik mutolaa klubiga asos solgan. U, 1850-yilda birinchi Venlok Olimpiya o'yinlarini tashkil qilgan bo'lib, ular tarkibiga

[39] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 69 p.

atletika, halqalarni nishonga uloqtirish, futbol va kriket kiritilgan. Bruks yunon madaniyati bilan qiziqqan, lekin u, Robert Doverning Kosvold o'yinlari to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lgan. Olimpiya Jamiyati har yili o'tkaziladigan o'yinlarni tashkil qilgan bo'lib, ular, vaqt o'tishi bilan, o'zining profili bo'yicha ancha sportga taalluqli va milliy bo'lib qoldi. Shifokor bo'lib ishlagan Bruks sport va dam olishning faol shakllarini ratsional havaskori bo'lgan, maktablarda jismoniy tarbiyalashning zarur ekanligiga ishongan.[40]

"Birinchi milliy Olimpiya o'yinlari Germaniya gimnastika jamiyatidagi (GGS) Uilyam Penni Bruks, Jon Xalli va Ernst Ravenshteyn tomonidan tashkil qilingan. Angliyada 1868-yildan keyin faqat "Much Wenlock" o'yinlari qolgan. Bruks 1850-yildan boshlab, to 1895-yilda vafot etguniga qadar, Olimpiya o'yinlari g'oyasini ilgari surish uchun ko'p ishlagan, bu, taqdirning taqozosiga ko'ra, birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini tashkil qilinishidan bir yil oldin sodir bo'lgan. To'rtinchi Milliy Olimpiya o'yinlari 1874-yilda Venlokda, beshinchisi – 1877-yilda Shruzberida va yakuniysi 1883-yilda Xadlida bo'lib o'tgan.

Bruks tashkil etgan olimpiya bayramlari Olimpiya o'yinlarining ahamiyatli o'tmishdoshi sifatida ko'rib chiqish mumkin emas. Lekin ular o'n sakkizinchi asrning oxiridan to o'n to'qqizinchi asrning yakuniga qadar, sport bayramlarini belgilash paytida "olimpiya" atamasini qo'llanishi tarixiga o'zining hissasini qo'shib kelgan.

Gretsiya, Sutsos, Zappas, Yunon o'yinlarini qayta tiklash g'oyasini Panagiotis Sutsos yaratgan, – shoir, noshir va vatanparvar. 1833-yildan va keyingi davrda Olimpiya o'yinlari to'g'risida uning dostonlarida yozilgan.

1835-yilda hukumatga 25-mart kuni milliy bayram deb e'lon qilish taklifi bilan murojaat qilgan va qayta tiklangan Olimpiya o'yinlarini kiritishni tavsiya qilgan. U O'yinlarni to'rt yillik siklda to'rtta yunon shaharlarida o'tkazishni tavsiya qilgan. Sutsos o'z tashabbus kampaiyasini 1840-yillargacha davom ettirgan, lekin kelgusida ishlarni Evangelos Zappas amalga oshirgan.

Evangelos Zappas (1800–1965) yunon millatiga mansub yirik tadbirkor bo'lgan. U 1856-yilda Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash va moliyalash loyihasini tavsiya qilgan. 1859-yilda Zappas Birinchi

---

[40] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 70 p.

Olimpiya o'yinlarni tashkil qilgan. Zappas tomonidan qayta tiklangan Olimpiya o'yinlari 1859, 1870, 1875 va 1889-yillarda Afinada o'tkazilgan. Doktor Uilyam Penni Bruks 1859-yilda Olimpiya o'yinlari g'oliblari uchun yunonlarga 10 funt sterling pul jo'natgan. Bruks, yunon hukumatiga Buyuk Britaniya elchisi orqali murojaat qilib, qadimgi o'yinlarni qayta tiklashga qat'iy undagan.

Rekonstruksiya qilingan stadionda 1870-yilda o'tkazilgan O'yinlar Zappas tomonidan qayta tiklangan Olimpiya o'yinlarining barchasidan eng muvaffaqiyatlisi bo'lgan. Ular, 30000 tomoshabinlarni to'plagan va gazetalarda yuqori baho berilgan. Afinalik elita vakillari O'yinlarda faqatgina yuqori darajali sportchilarni ishtirok etishini va bellashuvlarda oddiy odamlarni ishtirokini man qilish taklif qilingan. Bunday ijtimoiy man qilinish 1875-yilda O'yinlarni muvaffaqiyatsizlikka olib keldi, ularda 25 nafar sportchilar ishtirok etgan va kam tomoshabinlar bo'lgan.

1875-yilgi Olimpiadani "halokat" deb atagan. Keyingi hodisa 1889-yilda gimnaziyada o'tkazilgan yomon tashkil qilingan tadbir bo'ldi, 1891 va 1893-yillarda estafetani Umumgrek gimnastika jamiyati qabul qilgan. Zappas tomonidan qayta tiklangan Olimpiya o'yinlari va Venlok o'yinlari ko'pchilik boshqa hodisalarga qaraganda to'liq tiklanish yo'lidagi ancha muhim oraliq tadbirlar bo'lib, ular olimpiya atamalarini qo'llash bilan o'tkazilgan."[41]

Xalqaro sport va olimpiya harakati XIX asrning oxirida vujudga kelgan. Xalqaro sport va olimpiya harakati vujudga kelishining eng muhim sabablaridan biri sportni rivojlantirish va xalqaro sport uyushmalarini tuzish bo'lgan. Zamonaviy sport XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish, harbiy ishlar, fan, madaniyat va san'at sohalaridagi taraqqiyot mahsuli sifatida vujudga kelgan.

XIX asrning boshlarida sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazib borilgan. 1829-yil Angliyada Kembrij va Oksford universitetlari o'rtasida eshkak eshish bo'yicha musobaqa uyushtirilgan. 1838-yildan boshlab esa Xenleyn parus va eshkak eshish regatasi o'tkazilgan.

1845-yilda Angliyaning Iton shahrida yengil atletika birinchi xalqaro musobaqalari o'tkazilgan. 1847-yilda Rossiyaning Peterburg shahrida yelkanli sport bo'yicha birinchi rasmiy musobaqa

---

[41] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 74 p.

o'tkazilgan. 1852-yilda AQSHda Vinnipeg ko'lida eshkak eshish bo'yicha musobaqa tashkil etilgan. Vengriya, Gretsiya va boshqa bir qator mamlakatlarda, Amerika, Avstraliyada suzish bo'yicha musobaqalar tashkil etilgan.

1860-yillarda Angliyada 15 ta klub mavjud bo'lib, ular o'rtasida musobaqalar o'tkazish an'anaga aylangan. 1863-yilda Angliyada futbol ligasi tashkil etilgan. Futbol texnikasi va taktikasi ancha takomillashtirilgan. Bu hozirgi davr futbolining yaratilish asosini tashkil etgan edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida juda ko'p zamonaviy sport turlari va sport o'yinlari vujudga kelgan. Turli mamlakatlarda sport klublari tashkil etilib, musobaqalar o'tkazilgan, sport inshootlari qurilgan. Bu davrda ko'pgina sport o'yinlari ham rivojlangan. Rossiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya kabi mamlakatlarda asosan kurash mashhur edi. Shu asrning oxirlariga kelib jismoniy mashqlar, gimnastika, sport o'yinlari va turizmni bir-biridan ajratish, alohida turlarga bo'lish tizimiga asos solingan. Angliyada laun-tennis va kriket rivoj topgan, ular uchun maxsus o'yin maydonlari qurilgan. Yevropa mamlakatlarida velosport vujudga kelgan. Bunda rezinali kameraning yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Shu asrda rivoj topgan sport turlaridan yana biri boks edi. Angliyada bu sport turi keng tarqalib, professional turga aylangan. Fransiya, Italiya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Shvetsiya kabi mamlakatlarda shpaga va rapirada qilichbozlik xalq orasida keng tarqalgan sport turi hisoblangan. Ot sporti, miltiq, to'pponcha va kamondan o'q otish ham rivojlangan edi.

XIX asrda ayrim mamlakatlarda Olimpiya o'yinlarini amaliy jihatdan tiklashga harakat qilingan. 1834–1836-yillarda Shvetsiyada ikki marotaba Skandinaviya Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Uning dasturidan qisqa va o'rta masofalarga yugurish, balandlikka va langarcho'p bilan sakrash, kurash kabi turlar joy olgan. Bu o'yinlar Lind universitetining professori Gustav Iogann Shartau tashabbusi bilan o'tkazilgan. Uning taklifi bilan qadimgi olimpiadalar haqida ma'ruzalar o'qilgan.

Gretsiya tomonidan qadimgi olimpiya o'yinlarini qayta tiklash haqidagi takliflar ko'p takrorlangan. Mamlakat mustaqilligi tarafdori bo'lgan Evangelis Sappas har to'rt yilda o'yinlarni o'tkazish va unda sport, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'rgazmalarini tashkil

etishni taklif qilgan edi. Evangelis Sappas olimpiya o'yinlari jarayonida ko'rgazmalar asosida savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarning o'zaro kuchayishini ko'ra bilgan, o'z mablag'lari hisobiga savdo va ko'rgazma zallari qurdirgan. 1859-yilda uning tashabbusi bilan Afinada "Olimpiyalar" o'tkazilib, unda faqat yunonlar ishtirok etgan. Moddiy ta'minotning talabga javob bermagani sababiga ko'ra, bu o'yinlar (1870, 1875, 1888-yil) muntazam o'tkazilmagan.

Bu davrda ko'p mamlakatlardagi sport klublari milliy uyushmalar, ligalar va assotsiatsiyalarga birlasha boshlagan. 1868-yilda Germaniyada gimnastika uyushmalari Nemis gimnastika uyushmasiga birlashgan. 1888-yil AQSHda havaskor atletik uyushmasi, 1903-yil Shvetsiyada - umumshved sport uyushmasi tashkil etilgan. Umummilliy sport tashkilotlari boshqa mamlakatlarda ham yuzaga kelgan. Germaniya, Angliya, Fransiya, AQSH, Rossiya, Italiya kabi taraqqiy etgan davlatlar iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha yuqori darajaga ko'tarilgan. Bu davrda ishlab chiqarish, fan, ta'lim tez rivojlandi. Bu jarayonlar ishlab chiqarish, xalqaro uyushmalar, trestlar, sindikatlarni va bir qator boshqa yangi tarmoqlarni tashkil etish bilan birgalikda davom etgan. Xalqaro sport aloqalarining vujudga kelish sabablaridan biri jahon mamlakatlarida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning rivojlanishidadir.

Yevropa mamlakatlari va Amerikada ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonining mahsuli sifatida aloqa va kommunikatsiya vositalari yuzaga kelgan. Bunday sharoitda turli sohalar bo'yicha xalqaro munosabatlarni kuchaytirish, ya'ni iqtisodiy, ilmiy, madaniy va sportdagi aloqalarni bog'lash qonuniyat darajasiga yetgan. Bu holat mamlakatlararo aloqalar va sportni rivojlantirishga qulaylik yaratgan. Jamoat harakatlari, yoshlar orasida jismoniy tarbiyani rivojlantirish bo'yicha ommaviy harakatlarning yuzaga kelishi ham bunga katta sabab bo'lgan.

XIX asrning so'nggi choragi jamoat arboblari, tibbiyotchilar, pedagoglarning yoshlarga ta'lim berish, jismoniy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlari ancha kengaygan davr edi. Bu jarayonlarda jismoniy tarbiya va sportning yangi shakllari, usullari, vositalari yaratilgan. Mutaxassislar milliy jismoniy tarbiya va sport bilan chegaralanib qolmasdan, balki xalqaro sport aloqalarini

o'rnatishni tavsiya etganlar. Bu yo'lda Fransiya, Gretsiya, Angliya, Germaniya, Rossiya, AQSH, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarning jamoatchiligi o'z faoliyatlari bilan alohida ajralib turar edi. Yoshlarni jismoniy tarbiyalash maqsadida olimpiya o'yinlaridan foydalanish kabi fikrlar ham bildirilgan. Bu haqida fikrlarni chex pedagogi Yan Amos Komenskiy, nemis gimnastika maktabining asoschilari Iogann Guts-Muts va Gerxard Fit, rus jismoniy ta'limi tizimining asoschisi Pyotr Fransevich Lesgaft va boshqalar bir necha bor ta'kidlaganlar.

XIX asrning oxirida Olimpiya shahrida olib borilgan arxeologik qazilmalar va ularning tahlili natijasida Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyalarining rivojlanishi davom etgan edi. Pyer de Kuberten tashabbusi bilan zamonaviy olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasining hayotga tatbiq etilishi Xalqaro sport va olimpiya harakatining shakllanish jarayonlarini tezlashtirib yuborgan edi.

Xalqaro sport va olimpiya harakati vujudga kelishining asosiy sabablari:

- Sport, gimnastika va sport o'yinlarini xalqaro miqyosda rivojlanishi;
- Jismoniy tarbiyaning takomillashgan uslublari, shakllari va vositalarining ishlab chiqilishi;
- Milliy va xalqaro sport federatsiyalarning tashkil qilinishi;
- Sport musobaqalari qoidalari va tartiblarinining ishlab chiqilishi;
- Xalqaro sport musobaqalarining tashkil qilinishi va o'tkazilishi;
- Davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi va sport sohasida tajribalar almashishni yo'lga qo'yilishi;
- Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasining vujudga kelishi va rivojlanishi.

❖ **XIX asrning oxirida fransuz jamoat arbobi Pyer de Kuberten zamonaviy Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini hayotga tatbiq etgan.**

Pyer de Kuberten (1863-1937)

Pyer de Kuberten (1863–1937) Parijda 1863-yilda aristokrat oilasida to'rtinchi farzand bo'lib tug'ilgan. Iezuit maktabi va kollejida o'qigan, 1881-yilda fanlar bakalavri unvonini olgan. Uning ta'lim va sportga qiziqishlari natijada Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash bo'yicha hayotiy loyihasiga olib kelgan. Pyer de Kuberten 1895-yilda Mari Rotan, protestant qizga uylangan (u 1963-yilda 102 yoshida vafot etgan). Ularning birinchi farzandi - o'g'li 1896-yilda tug'ilgan va u bolaligida oftob urganidan umri mobaynida aziyat chekkan. Ularning qizi Reni 1902-yilda tug'ilgan. Kuberten moliyaviy muammolarga duch kelib, oilaviy uyini sotib yuborishga majbur bo'lgan. U 1937-yilda 74 yoshida vafot etgan".

1892-yil 25-noyabrda Kuberten o'zining mashhur «Olimpiya Renessansi» mavzusidagi ma'ruzasini Sorbonna universitetida o'qib eshittirgan.

"O'n to'qqizinchi asrda "olimpiya" tushunchasi umumiylashib, sport tadbirlari Buyuk Britaniya va Gretsiyada o'tkazilgan. Kuberten modeli yagona bo'lgan, pirovard natijada bir qator voqealar tufayli yetakchi o'rinni egallagan. Kubertenning tashkiliy va diplomatik qobiliyatlari va ijtimoiy aloqalari asosiy rolni o'ynagan. Kuberten 1875-yilda 12 yoshida o'qigan Tomas Xyuzning "Tom Braunning maktab kunlari" kitobi uning ingliz maktablaridagi sport dunyosiga romantik qiziqishi va bog'lanishida muhim rol o'ynagan. Kuberten, 1880-yillar davomida ta'lim tizimini o'rganish uchun bir necha marta Angliyaga borgan. 1883-yili Oksford va Kembridjga hamda Regbi bo'yicha davlat maktabiga, Xarrou va Itonaga tashrif buyurgan. U,

1887-yili Vinchester, Vellington, Marlboro, Charterxauz, Kuperz Xill, Vestminster va Xristos gospitali bilan tanishgan. Fransiya maktablarida jismoniy tarbiyaning yo'qligini va Angliya maktablaridagi faol jismoniy tarbiyani taqqoslagan. U, jo'shqin kurashchi va lobbist bo'lib qolgan; jismoniy tarbiya masalalari bo'yicha Fransiya hukumatiga hisobot tayyorlash uchun Buyuk Britaniya va AQSH ga borgan. O'zini AQSH to'g'risidagi hisobotida, Amerika Buyuk Britaniyaning jamoaviy o'yinlari foydasiga Lingning gimnastika tizimidan voz kechilgan joy deb tasavvur qilgan. Kuberten diplomatiyadan xabardor bo'lgan va siyosiy ittifoqchilarni topish uchun bir qator murakkab manevrlarni amalga oshirgan.

Bruks 1881-yili Fransiyaga tashrif buyurgan va u yerda aholini jismonan degeneratsiyalanganligidan hayratda qolgan va bu to'g'risida Fransiyaning hukumatiga yozib bergan. Bruks 1890-yilning yanvar oyida Kubertenga xat yozgan, ular o'rtasida xat almashish boshlangan va oktabr oyida Kuberten Venlokda Bruksning oldiga borgan. Bruks 80 yoshga kirgan, Kuberten esa – 26 yoshga to'lgan. Bruks va Kuberten xat yozishni davom ettirishgan va Bruks Olimpiya loyihasini qo'llab-quvvatlagan. Kuberten 1890-yilda ' La Revue Athletique"da – "Agarda, zamonaviy Gretsiya qayta tiklashga qodir bo'lmagan Olimpiya o'yinlari bizning davrimizda davom ettirilsa, bu greklar tufayli bo'lmaydi, balki Doktor U.P.Bruksning sharofati bilan bo'ladi", deb yozgan. Kuberten 1894-yili Bruksni Kongressga taklif qiladi, lekin Bruks juda kasal edi va keyingi yili vafot etadi, Olimpiadaning qayta tiklanishigacha bir yil qolgan edi.

Kuberten Zappasning ishlari to'g'risida ham xabardor bo'lgan. Kuberten ayrim baholashlar bilan keyinchalik indamaslikka va o'zidan oldingilarning – Zappas va Bruksning rolini minimumga tushirishga moyil bo'lib qolgan. Shu bilan birga, u, Bruksga bag'ishlangan nekrologni New York Review of Books da chop etgan va unda, Bruksni o'zining "qariya do'sti" deb atagan.[42]

Kuberten sportning tijoratlashtirilishini xohlamagan, uni xavf deb bilgan va u, havaskorlik sport musobaqalarining qadr-qimmati va o'ziga xosligi kabi ko'rib chiqiladigan zodagonlarcha aloqalar va jentelmenlar klublari dunyosining orientiri deb hisoblagan. Lekin u, hech qachon havaskorlik sportiga eng muhim masala sifatida

---

[42] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 79 p.

qaramagan. Shunga qaramasdan, zamonaviy Olimpiya o'yinlari sinfiy diskriminatsiya oqibatida yuzaga kelgan "havaskorlik" tushunchasini meros qilib olgan va keyingi 90-yillarda asos solingan. Kuberten, Bruks, Zappas yoki boshqa kimdir asosiy figura unvoniga intilishga ko'proq huquqqa ega ekanligi unchalik muhim emas, lekin Kuberten zamonaviy olimpizmning tashkilotchisi unvoniga da'vogar sifatida ko'proq ilinjga ega". [43]

1894-yil 16–23-iyunda Kuberten tashabbusi bilan Parij shahrida I Xalqaro atletik kongressi o'tkazilgan. Kongressda 12 ta davlatdan 72 ta vakil qatnashgan, 21 ta davlat o'z roziligini yozma ravishda yuborgan.

Kongressda Pyer de Kuberten taklifi bilan **1894**-yil 23-iyunda **Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ)** tashkil etilgan. Uning tarkibiga 12 davlatdan 14 ta vakil kiritilgan. I Kongress 1894-yil 16–23-iyunda o'rkazilgan va to'rtta asosiy masala muhokama qilingan: havaskorlik va professional sporti haqida; Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash to'g'risida; Olimpiya o'yinlarining dasturi va uni o'tkazish tartiblari; Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining tarkibi to'g'risida.

I Kongress Xalqaro olimpiya harakatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Kongress Olimpiya o'yinlarini qadimgi an'analar bo'yicha har 4 yilda bir marta o'tkazish to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan. Kongressda I Olimpiya o'yinlarini Gretsiyaning Afina shahrida o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Kongressda XOQning asosiy hujjati – Olimpiya Xartiyasi tasdiqlangan va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining huquqiy maqomi Olimpiya Xartiyasida belgilab berilgan. XOQ a'zolarining ro'yxati Kuberten tomonidan tuzilgan bo'lib, unga Ernest Kallo (Fransiya), general Aleksey Butovskiy (Rossiya), professor Uilyam Sloen (AQSH), huquqshunos Irji Gut-Yarkovskiy (Bogemiya, Avstro-Vengriya), Ferents Kemen (Vengriya), kapitan Viktor Bal'k (Shvetsiya), Charlz Xerbert va lord Anptxill (Buyuk Britaniya), doktor Xose Benxamin Subiaur (Argentina), Leonard Kaff (Yangi Zelandiya), graf Lukkezi Palli va D'yuk Andriya Karafa (Italiya), graf Maksim de Buzi (Belgiya).

---

[43] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 80 p.

I Kongressda XOQning prezidenti saylangan. XOQning birinchi Prezidenti etib Gretsiya vakili Demetrius Vikelas saylangan. Pyer de Kuberten XOQning Bosh kotibi etib tayinlangan. 1896-yilga Kuberten XOQning ikkinchi Prezidenti etib saylangan.

3-rasm. XOQ asoschilari: o'tirganlar (chapdan o'ngga) Pyer de Kuberten – bosh kotib, Demetrius Vikelas – prezident (Gretsiya), Aleksey Butovskiy (Rossiya); turganlar V.Gebxard (Germaniya), I.Gut-Yarkovskiy (Bogemiya), F.Kemen (Vengriya), V.Balk (Shvetsiya).

"1894-yilgi Kongress va 1896-yilgi O'yinlar. O'n to'qqizinchi asrning oxirgi o'n yilida Kuberten tomonidan g'oyani ilgari surilishi ko'p vaqt kutilgan natija berdi. Sorbonnada 1892-yilda bo'lib o'tgan konferensiyada, u, Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash loyihasi to'g'risida qiziqarli gap yuritgan. Kuberten 1892-yilda Fransiyaning sport jamiyatlari Ittifoqining (USFSA) besh yilligidan O'yinlarni qayta tiklash bo'yicha loyihasini taklif qilishda foydalandi. U ikki nafar kuchli yordamchilarni – Angliya va Uelsning Atletika bo'yicha havaskorlik assotsiatsiyasi (AAA) kotibi Charlz Gerbertni va Prinston universiteti professori Uilyam Slounni jalb qila oldi. Kongress 1894-yili Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga asos soldi va 1896-yili Afinada bo'lib o'tishi kerak bo'lgan, birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini

rejalashtirish tashabbusini ilgari surdi. Afinani tanlash masalasi katta darajadagi sarosimaning predmetiga aylandi. Bayonnomaning guvoh berishiga qaraganda, delegatlar Londonni tanlashga ovoz berganar. Kubertenning o'zi oldin Londonni tanlab, keyin chaqqonlik va ayyorlik bilan Afinani tanlagan.

1894-yilgi Kongressda 49 ta tashkilotlar va 12 ta mamlakat vakillari bo'lgan 79 nafar delegat ishtirok etgan. Kongress ancha darajada yevropaliklardan iborat bo'lgan, bunda Avstraliya va AQSH yagona Yevropaga mansub bo'lmagan mamlakatlar bo'lgan. Aslida, XOQda faqat erkaklardan iborat 13 nafar a'zo bo'lgan. Ularning ikki nafari Buyuk Britaniya va Fransiyalik hamda Italiya, Gretsiya, Rossiya imperiyasi, Avstro-Vengriya, Norvegiya-Shvetsiya va Bogemiyadan bir nafardan a'zo bo'lgan. Bu yerda, yevropalik bo'lmagan uch nafar a'zolar AQSH, Yangi Zellandiya va Argentinadan. XOQ organ sifatida shunday tuzilganki, uning a'zolari tashqi organlar vakili bo'lmagan va biron-bir tashqi tashkilot oldida javobgar bo'lmagan. Olimpiya o'yinlarining egasi "olimpizm"ni boshqargan XOQ bo'lgan, xolos. U, Kongresslarni muntazam – bir necha yilda bir marta o'tkazilishini "sessiyalar" deb nomlangan har yilgi yig'ilishlar bilan birgalikda belgilagan. XOQning qoidalari, sportning asosi hisoblangan jismoniy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga ko'maklashishi orqali, zamonaviy sportni maqsadli yo'nalishlarda rivojlantirishga yo'naltirishga chaqiradi".[44]

Olimpiya o'yinlari rivojlanish davrlarining umumiy tavsifi

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining tarixiy rivojlanishi to'rtta asosiy davrlardan iborat:

I. 1896–1912-yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari.

II. 1920–1936-yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari.

III.1948–1988-yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari.

IV.1992-hozirgi davrgacha o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari.

Olimpiya o'yinlari rivojlanish davrlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Olimpiya o'yinlari rivojlanishining birinchi va ikkinchi davrlari Pyer de Kuberten rahbarligida bosib o'tilgan. Bu davrlar xalqaro olimpiya harakatining shakllanish va zamonaviy Olimpiya

---

[44] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York. 2012. – 81 p.

o'yinlarining tiklanish davri hisoblanadi. Olimpiya harakati tarixida bu davr "Kuberten davri" deb nomlanadi.

Bu davrlarda Xalqaro olimpiya harakatining rivojlanishi uning huquqiy asoslarini yaratilishi, tashkiliy tuzilmasi va tarkibining shakllanishi, tashkiliy tadbirlarining yo'lga qo'yilishi, moddiy-texnik ta'minlanishi bilan bog'liq bo'lgan.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlari rivojlanishining **birinchi davrida** 1896-yildan 1912-yilgacha beshta Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan (*17-jadval*).

17-jadval

1896–1912-yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlari

№	Yil	O'tkazilgan joyi	Mamlakat soni	Sportchi soni	1-o'rin (davlat)
I	1896	Afina, Gretsiya	14	295	Gretsiya
II	1900	Parij, Fransiya	24	1225	Fransiya
III	1904	Sent-Luis, AQSH	13	689	AQSH
IV	1908	London, Angliya	22	2035	Angliya
V	1912	Stokgolm, Shvetsiya	28	2547	Shvetsiya
VI	1916	Berlin, Germaniya	o'tkazilmagan		

I–V Olimpiya o'yinlarida, ya'ni birinchi beshta O'yinlarda faqat mezbon davlat jamoasi g'olib bo'lgan. Buning sababi sportchilar soni bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda ayrim davlat rahbarlari va sport tashkilotlari Olimpiya o'yinlarining mohiyatini tushunmagan va o'z sportchilari uchun mablag' ajratmagan. Natijada Olimpiya o'yinlarini o'tkazgan davlat sportchilarining soni ko'pchilikni tashkil qilgan. Masalan, Afinada 295 ta sportchidan 200 tasi Gretsiya sportchilari, Parijda esa 1225 ta sportchidan 700 tasi fransiyalik sportchilar bo'lgan va h.k.

VI (yozgi) Olimpiya o'yinlari Birinchi jahon urushi sababli o'tkazilmagan.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlari rivojlanishining **ikkinchi davrida** 1920-yildan 1936-yilgacha yana beshta Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Ikkinchi davrning asosiy xususiyati Pyer de Kuberten

tomonidan ishlab chiqilgan olimpiya ramzlarining joriy qilinishidir. Bundan tashqari, qishki Olimpiya o'yinlarining alohida o'tkazilishi, olimpiya harakati mavqeining yanada oshganligini namoyish etgan. XII (1940) va XIII (1944) yozgi Olimpiya o'yinlari Ikkinchi jahon urushi sababli o'tkazilmagan (*18-jadval*).

18-jadval

1920–1936-yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlari

O'yin	Yil	O'tkazilgan joyi	Mamla-kat	Sport-chi	1-o'rin
VII	1920	Antverpen, Belgiya	29	2669	AQSH
VIII	1924	Parij, Fransiya	44	3092	AQSH
IX	1928	Amsterdam, Gollandiya	46	3014	AQSH
X	1932	Los-Anjeles, AQSH	37	1408	AQSH
XI	1936	Berlin, Germaniya	49	4066	Germaniya
XII	1940	Tokio, Yaponiya	o'tkazilmagan		
XIII	1944	London, Angliya	o'tkazilmagan		

Olimpiya o'yinlari rivojlanishining uchinchi va to'rtinchi davrlari Ikkinchi Jahon urushidan keyin boshlanib, bugungi kungacha davom etmoqda. Bu davrlarda Olimpiya o'yinlarining rivojlanishi Xalqaro olimpiya harakati saflarining geografik va mintaqaviy jihatdan kengayishi, jahonda olimpiya sport turlarining keng tarqalishi bilan bog'liq.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlari rivojlanishining **uchinchi davrida** 1948-yildan 1988-yilgacha 11 ta yozgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Bu davrning asosiy xususiyati siyosatning olimpiya sportiga aralashuvida namoyon bo'lgan. Olimpiya o'yinlari rivojlanishining uchinchi davrida olimpiya harakatida juda ko'p muammolar ham mavjud bo'lgan va ularni bartaraf etish yo'llari XOQ kongresslari va sessiyalarida muhokama qilingan (*19-jadval*).

19-jadval

1948–1988-yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlari

№	Yil	O'tkazilgan joyi	Mamlakat	Sportchi	1-o'rin
XIV	1948	London, Angliya	59	4099	AQSH
XV	1952	Xelsinki, Finlandiya	69	4925	AQSH
XVI	1956	Melburn, Avstraliya	67	3184	SSSR
XVII	1960	Rim, Italiya	83	5348	SSSR
XVIII	1964	Tokio, Yaponiya	93	5140	SSSR
XIX	1968	Mexiko, Meksika	112	5530	AQSH
XX	1972	Myunxen, GFR	121	7123	SSSR
XXI	1976	Monreal, Kanada	92	6028	SSSR
XXII	1980	Moskva, SSSR	80	5217	SSSR
XXIII	1984	Los-Anjeles, AQSH	140	6797	AQSH
XXIV	1988	Seul, Koreya	159	8465	SSSR

20-jadval

1992–2016-yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlari

№	Yil	O'tkazilgan joyi	Mamlakat	Sportchi	1-o'rin
XXV	1992	Barselona, Ispaniya	172	10563	MDH
XXVI	1996	Atlanta, AQSH	197	10318	AQSH
XXVII	2000	Sidney, Avstraliya	199	10651	AQSH
XXVIII	2004	Afina, Gretsiya	202	10625	AQSH
XXIX	2008	Pekin, Xitoy	204	11500	Xitoy
XXX	2012	London, Angliya	205	10500	AQSH
XXXI	2016	Rio-de-Janeyro, Braziliya	206	11500	AQSH

Zamonaviy Olimpiya o'yinlari rivojlanishining **to'rtinchi davrida** 1992-yildan 2016-yilgacha 6 ta yozgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. Hozirgi davrda Olimpiya o'yinlari eng yirik xalqaro sport musobaqalari hisoblanadi. Ularni tashkil qilish va o'tkazish har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va sport sohalarini rivojlanishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda *(20-jadval)*.

Xulosalar

- Zamonaviy Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasining vujudga kelishi o'rta asrlar davrida boshlangan.
- Sport, gimnastika va sport o'yinlari xalqaro miqyosda rivojlangan.
- Xalqaro sport va olimpiya harakati vujudga kelishining asosiy sabablari namoyon bo'lgan.
- XIX asrning oxirida fransuz jamoat arbobi Pyer de Kuberten zamonaviy Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini hayotga tatbiq etgan.

Nazorat savollari:

Zamonaviy olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasi kim tomonidan tavsiya qilingan?

Birinchi Xalqaro sport federatsiyasi nechanchi yilda tashkil qilingan?

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) qachon tashkil qilingan?

XOQning faoliyatida qanday hujjat asosiy hisoblanadi?

XOQning asosiy hujjati Olimpiya Xartiyasi qachon tasdiqlangan?

Olimpiya Xartiyasi nechta bo'limdan iborat?

XOQning birinchi prezidenti etib kim saylangan?

XOQ I Olimpiya o'yinlari qachon va qayerda o'tkazilgan?

Olimpiya harakatining rivojlanishi nechta bosqichdan iborat?

Zamonaviy olimpiya harakatining ahamiyati nimadan iborat?

12–§. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi va strategik jarayon

Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi. XIX asrning oxirida Pyer de Kuberten tomonidan olimpiya sportining asosiy tamoyillari, uning tuzilmasi, faoliyat asoslari ishlab chiqilgan va hozirgi davrgacha saqlanib qolgan.

Olimpiya Xartiyasi – olimpiya sportining asosiy huquqiy hujjati bo'lib, xalqaro olimpiya harakatining tashkiliy tuzilmasi, maqsadi, mazmuni hamda demokratik xususiyatini belgilab beruvchi o'ziga xos nizom hisoblanadi. XOQ tomonidan tan olinish, Olimpiya Xartiyasiga amal qilishga rozilik bildirish sport tashkilotlarining olimpiya harakatiga qo'shilganligi mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Olimpiya Xartiyasida olimpiya harakatining g'oyaviy-nazariy asoslari bayon qilingan, uning maqsad va vazifalari belgilab berilgan: insonni har tomonlama rivojlantirish, yaxshi va tinch jamiyat qurish, yoshlarni olimpizm ruhida tarbiyalash, butun jahon davlatlari va qit'alar o'rtasida do'stlik munosobatlarini rivojlantirishdan iborat.

Olimpiya Xartiyasi XOQning I Kongressida (1894) tasdiqlangan. Xartiyada XOQning maqsadi va vazifalari, Olimpiya o'yinlarining tartib-qoidalari va ular bilan bog'liq tashkiliy masalalar ifoda etilgan. Xartiya mazmuni beshta bobdan iborat bo'lib, I – "Olimpiya harakati", II– "Xalqaro olimpiya qo'mitasi", III – "Xalqaro sport federatsiyalari", IV– "Milliy olimpiya qo'mitalari", V – "Olimpiya o'yinlari" masalalariga oid moddalar berilgan.

Xartiyaning **I bobida** XOQning maqsadi, umumiy vazifalari va roli, sport tashkilotlarining Olimpiya harakatiga doir vakolatlari, Olimpiya kongressining tuzilmasi, olimpiya harakatining asosiy tushunchalari, olimpiya ramzlarining mohiyati va huquqlariga oid masalalar bayon etilgan.

II bobda XOQning yuridik mavqei, XOQ a'zoligiga saylash huquqlari, XOQ a'zolarining majburiyatlari va vazifalari, XOQning tashkiliy tuzilmasi – asosiy organlari Sessiya, Ijroiya qo'mita, Prezident, ularning vakolatlari to'g'risida masalalar yoritilgan.

III bobda Xalqaro sport federatsiyalarining olimpiya harakatidagi roli, ularni XOQ tomonidan tan olinishiga qo'yilgan talablar belgilangan.

IV bobda Milliy olimpiya qo'mitalarining Olimpiya harakatiga doir vakolati va mavqei, ularning tarkibi, XOQ tomonidan tasdiqlanishiga qo'yilgan talablar belgilab berilgan.

V bobda to'rtta bo'limlar mavjud bo'lib, ularning mazmuni "Olimpiya o'yinlarining ma'muriyati va ularni tashkil qilish", "Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish qoidalari", "Olimpiya o'yinlarining dasturi", "Bayonnoma" kabi masalalarga bag'ishlangan.

Xalqaro olimpiya tizimining umumiy tuzilmasi. Hozirgi davrda xalqaro olimpiya harakatining murakkab tashkiliy tuzilmasi hosil bo'lgan, ya'ni uning **uchta** asosiy tarmog'i: Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro sport federatsiyalar, Milliy olimpiya qo'mitalariga birlashtirilgan.

- **Xalqaro Olimpiya qo'mitasi;**
- **Xalqaro sport federatsiyalar;**
- **Milliy olimpiya qo'mitalari.**

Xalqaro olimpiya tizimiga Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasi, regional olimpiya qo'mitalari, milliy assotsiatsiyalar, klublar va ularga tegishli shaxslar, jumladan sportchilar kiradi. Bu tashkilotlar o'z faoliyatida Olimpiya Xartiyasiga tayanadi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi – xalqaro nodavlat tashkilot bo'lib, yuridik shaxs maqomi bilan assotsiatsiya shaklida tuzilgan. Olimpiya Xartiyasiga binoan XOQning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– havaskorlik sporti asosi hisoblangan jismoniy va axloqiy sifatlarni rivolantirishga yordam berish;

– yoshlarni sport yordamida o'zaro kelishuv va do'stlik ruhida tarbiyalash;

– butun dunyoga olimpiya tamoyillarini keng yoyish, xalqlar o'rtasida yaxshi niyat muhitini yaratish;

– jahon sportchilarini har 4 yilda bir marta Olimpiya o'yinlarida uchrashtirish.

XOQ a'zolari (115 ta) Olimpiya xartiyasiga binoan o'z mamlakatlarida uning vakili hisoblanadilar. Mamlakatda XOQning bitta a'zosi saylanadi, lekin XOQ ikkinchi a'zoni Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan davlatlardan saylashi mumkin. XOQ a'zosi 70 yoshga to'lganda iste'foga chiqishi lozim.

XOQ majburiyatiga yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarini muntazam o'tkazish, ularni doimiy takomillashtirib borish, butun

dunyoda sportning rivojlanishiga rahbarlik qilish kiradi. Olimpiya Xartiyasida XOQning rasmiy tili – fransuz va ingliz tillari, deb belgilangan. XOQ shtab-kvartirasi Shveysariyaning Lozanna shahrida joylashgan.

"XOQ nima? XOQ mamlakatlarning vakolatxonasi emas, balki o'z ishtirokchilarini qoidalarga ko'ra, ushbu tashkilot tomonidan belgilangan doiradagi buyuk tashkilot bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. XOQ o'n sakkizinchi asr uchun xarakterli va jentelmenlar klubi bilan bog'liq a'zolik to'g'risidagi zodagonlik tushunchalarga asoslangan klub bo'lib qolmoqda. XOQ o'n to'qqizinchi asrda yuzaga kelib, Pyer de Kubertenning tamoyillari va mafkurasini va Olimpiya harakatini universalligi va insonparvarligi asosida, u, an'analarni, milliy qurilishni kashf qilinishi jarayoniga ko'p tomonlama ko'maklashgan.

XOQ hozirgi vaqtda o'zining a'zolarini tasdiqlaydi va ular mamlakatlarining delegatlari emas, balki a'zolar XOQni o'z mamlakatlaridagi vakili bo'ladi ("XOQning a'zolari uni va Olimpiya harakati masalalarini o'z mamlakatlarida va Olimpiya harakati tashkilotlarida qo'llab-quvvatlaydi" – XOQ, 2004: 28) XOQ a'zolarining geografik taqsimlanishi tashkilotning Yevropada yuzaga kelganligini aks ettiradi: Yevropa – 44%, Osiyo – 20%, Afrika – 15%, Amerika – 15% va Okeaniya – 5%.

XOQda 28 nafar faxriy a'zolar mavjud bo'lib, ulardan – ayollar va bir nafar faxriy a'zo – AQSH ning sobiq Bosh kotibi Genri Kissinjer. Yoshga oid chegaralashlar XOQ a'zolari o'rtasidagi bahslarning predmeti bo'lgan. 1894-yilda a'zolarning o'rtacha yoshi 38 yoshni tashkil qilgan, ularning ichida eng yoshi ulug'i 59 yoshda bo'lgan. Yoshga oid chegara, 1966-yilda 72 yosh deb belgilangan va 1975-yilda 75 yoshgacha ko'tarilgan. 1980-yilda 81 nafar a'zolarning o'rtacha yoshi 67 yoshni tashkil qilgan, eng yoshi ulug'i 94 yoshda bo'lgan. Yoshga oid chegaralashlar 1995-yilda yana 80 yoshga qadar ko'tarilishiga qaramasdan, o'rtacha yosh taxminan 62 yoshni tashkil qilgan. XOQning 101-majlisidan boshlab, 1999-yilda a'zolarning o'rtacha yoshi, yangi tasdiqlanadigan a'zolar uchun 70 yoshgacha pasaytirilgan.

Kuberten, avvaliga Olimpiya o'yinlarini qabul qiladigan shaharga bog'liq holda prezidentlikni almashtirishga intilgan, lekin 1900-yilgi Parijda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlaridan keyin, u, uzoq

muddatga prezident etib saylangan va ushbu lavozimni 1925-yilga qadar egallab kelgan. Oxirgi qoidalar sakkiz yil prezident bo'lishni tavsiya qiladi (ikki muddat), lekin yana bir qo'shimcha muddatga saylanish imkoni qoldirilgan.

XOQ o'zining asosiy tashkiliy shaklini urushlar davri oralig'i davomida qabul qilgan. XOQning 1921-yilda tashkil qilingan Rayosati hozirgi vaqtda Prezidentdan, Vitse-prezidentlardan va boshqa 10 nafar a'zolardan tashkil topgan. Rayosatning barcha a'zolar XOQning majlisida yashirin ovoz berish bilan, ko'pchilik ovoz olish orqali to'rt yillik muddatga saylanadi.

XOQ, ko'pchilik majburiyatlari bilan birgalikda nazoratni amalga oshiradi va XOQning majlisida Marketing komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va taklif qilingan marketing siyosatini tasdiqlaydi. XOQ, o'zining a'zolarini ushbu mamlakatlarni XOQdagi vakillari sifatida emas, balki o'z mamlakatlaridagi olimpiya harakatining diplomatik vakillari sifatida ko'radi.

Shu bilan birga, Milliy olimpiya qo'mitalari (NOC) o'yinlarda ishtirok etish uchun milliy jamoalarni tashkil qiladi va qabul qiluvchi tomon hisoblanib, ular XOQ tarkibida rasmiy tarzda bo'lmasalar ham tadbirlarni tashkil qilishda yetakchi rolni o'z zimmalariga olishadi.[45]

Olimpiya jamg'armasi XOQning Prezidenti tomonidan boshqariladi, XOQning sobiq Prezidenti Xuan Antonio Samaranch tomonidan Lozannada tashkil qilingan XOQning muzeyi Olimpiya o'yinlari to'g'risidagi yozma, ko'ruv va grafik xotiralarning universal saqlash joyi sifatida faoliyat yuritadi. Chunki Olimpiya o'yinlari – bu, sportning ko'p turlarini o'z ichiga oladigan tadbir hisoblanadi, ular uchun mos ravishdagi sport turlarini xalqaro darajada tashkil qilinishini talab qiladi. XOQ 1918-yildan to 1939-yilga qadar bo'lgan davrda "xalqaro sportning birlamchi vakolatli organi va harakatdagi tashkiloti sifatida shakllangan, uning O'yinlari buyuk sport tadbiriga aylangan va uning to'rt yillik taqvimi jahon sportining strukturasini hosil qilgan". Olimpiya xartiyasining birinchi varianti 1908-yilda paydo bo'lgan. Oxirgi varianti 2010-yilning boshida nashr qilingan. Olimpiya Xartiyasi, "Olimpizmning asosiy tamoyillarini va qadr-qimmatlarini" bayon qiladi va "Olimpiya tashkilotlarining huquqlari

[45] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 28-29 p.

va majburiyatlarini" belgilaydi, ular "Olimpiya Xartiyasiga mos kelishi kerak".

Pyer de Kubertenning tashabbusiga ko'ra 1894-yili Parijda Xalqaro Yengil atletika Kongressi tashkil qilingan bo'lib, u zamonaviy olimpizmni ishlab chiqqan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1894-yilning 23-iyun kuni tashkil qilingan. Olimpiya xartiyasi – XOQ tomonidan qabul qilingan Asosiy tamoyillarni, Qoidalar va Qarorlarni tartibga soluvchi hujjat hisoblanadi. U, olimpiya harakatini tashkil qilishni va faoliyatini boshqaradi va Olimpiya o'yinlarini o'tkazilishi shartlarini ko'rib chiqadi.[46]

Kuberten tomonidan 1894-yili tashkil qilingan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi – olimpiya harakatining yuqori organi hisoblanadi va uning vazifasi "olimpizmni butun dunyoda ommalashtirish va olimpiya harakatini boshqarish"dan iborat. XOQ Shveysariyaning Lozanna shahrida shtab-kvartirasiga ega bo'lib, 1980-yildan boshlab, tashkilot sifatida 400 dan ortiq xodimlarga ega. XOQ Shveysariyada past soliq to'lovlariga ega bo'lib, bu, unga, har qanday boshqa mamlakatdagiga nisbatan, o'z daromadlarining katta qismini tejab qolishiga imkon beradi (FIFA va UEFA shtab-kvartiralari ham xuddi shu sabablarga ko'ra Shveysariyada joylashgan).

XOQ tarkibi va asosiy organlari. XOQning asosiy organlariga – Sessiya, Ijroiya qo'mita va Prezident kiradi.

Sessiya– XOQ a'zolarining umumiy yig'ilishi bo'lib, har yili o'tkaziladi, olimpiada yilida esa ikki marta chaqiriladi. Sessiya XOQning oliy organi hisoblanadi va uning qarorlari o'zgartirilmaydi.

Sessiyani o'tkazish joyi XOQ tomonidan belgilanadi, navbatdan tashqari sessiyalarni – Prezident chaqiradi. Sessiyaning kun tartibi o'tkazish kunidan bir oy oldin tarqatilishi lozim. XOQ sessiyalarida Olimpiya xartiyasi muhokamasi, Olimpiya o'yinlarining tashkiliy masalalari, nomzod shaharlar muhokamasi, saylovlar o'tkaziladi.

Ijroiya qo'mita sessiyalar o'rtasidagi davrda XOQ ishlarini boshqarib boradi. Uning tarkibiga XOQ prezidenti, 4 ta vitse-prezident va 10 ta qo'mita a'zolari kiradi va ularning vakolat muddati 4 yil davom etadi.

Prezident XOQ a'zolari tarkibidan saylanadi. Olimpiya xartiyasi bo'yicha XOQ Prezidenti yashirin ovoz berish asosida 8 yilga va yana

---

[46] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 31 p.

bir marta 4 yilga vakolat muddatini uzaytirish imkoniyati bilan saylanadi. Prezident maxsus hay'atlar va ishchi guruhlar tuzib, uning yordamida XOQ faoliyatining umumiy strategiyasini ishlab chiqadi.

XOQ prezidentlarining faoliyati. Zamonaviy olimpiya harakati tarixining 120 yildan ortiq davrida (1894 – 2016-yy.) Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Prezidenti etib 10 nafar kishi saylangan. XOQning har bir Prezidenti o'z faoliyatini turli tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda amalga oshirgan (*21-jadval*).

Demetrius Vikelas (1835-1908) – Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining birinchi Prezidenti. 1894-yil iyunda Parijda Xalqaro atletika ta'sis kongressida zamonaviy olimpiya harakati muammolari muhokama qilingan sho'baga rahbarlik qilgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining a'zosi bo'lgan. I Kongressda 1896-yilda I Olimpiya o'yinlarini Afinada o'tkazishni taklif qilgan. Olimpiya Xartiyasi bo'yicha Olimpiya o'yinlarini o'tkazadigan davlat vakili prezident etib saylanishi kerak edi. Shuning uchun XOQ prezidenti lavozimiga Gretsiya vakili Demetrius Vikelas saylangan.

Vikelas I Olimpiya o'yinlarini tashkiliy ishlarida faol qatnashgan va katta hissa qo'shgan. Olimpiya o'yinlaridan so'ng 1896-yil 10-aprelda Demetrius Vikelas iste'foga chiqqan. Keyingi Olimpiya o'yinlari Parijda o'tkazilishi belgilangan va Olimpiya Xartiyasi bo'yicha Fransiya vakili Pyer de Kuberten XOQning ikkinchi prezidenti lavozimini egallagan.

Pyer de Kuberten (1863-1937) – Xalqaro olimpiya harakatining buyuk arbobi, zamonaviy olimpiya harakatining asoschisi, XOQning ikkinchi Prezidenti (1896–1915-yy.), (1919–1925-yy.).

Pyer de Kuberten zodagon oilasida tug'ilib, mukammal tarbiya olgan. Kuberten kollejda o'qib yurgan paytlaridayoq qadimgi olimpiya qazilmalari to'g'risida bilib, do'stlari bilan olimpiyaning avvalgi qudratini tiklashda reja tuzgan. 12 yoshlik chog'ida u sport klubi tuzadi. Bu yerda bolalar futbol, qilichbozlik va eshkak eshish bilan shug'ullangan.

Baron Pyer de Kuberten o'z zamonasining iqtidorli, shijoatli, qiziquvchan, ajoyib insoni sifatida tarix sahifalaridan o'rin olgan. Kuberten Yevropadagi eng qadimgi va eng yaxshi Parij universtiteti - Sorbonnani tamomlagan. Tarix, pedagogika, falsafa, siyosat bilan qiziqqan. Kuberten yoshligida chavandozlik, qilichbozlik va eshkak eshish sport turlari bilan shug'ullangan. Kuberten 20 yoshida qadimgi

Ellada madaniyati va adabiyoti tarixi bilan chuqur qiziqib, olimpiya o'yinlarini qayta tiklash to'g'risida fikr bildirgan va butun hayotini mana shu maqsadini amalga oshirishga bag'ishlagan.

Pyer de Kuberten –1894-yilda XOQning Bosh kotibi, 1896-yilda XOQ prezidenti etib saylangan. Kubertenning rahbarligida 7 ta Olimpiada - II, III, IV, V, VII, VIII yozgi Olimpiya o'yinlari va I qishki Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan. 1925-yilda iste'foga chiqqan va 1937-yilgacha Kuberten XOQning Faxriy Prezidenti bo'lgan. U Olimpiya harakati, sport tarixi, sotsiologiya, falsafa, siyosat, arxeologiya va fanning boshqa sohalariga oid 30 ta kitob, 50 ta risola, 1200 tadan ortiq maqolalar muallifidir. Kuberten 29 yil XOQning prezidenti bo'lgan. Olimpiya ramzlari, belgilari, mukofotlari, sportchilar qasamyodi matni Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan. Uni xizmatlariga yarasha "Olimpizm otasi" deb atashadi. Pyer de Kuberten vasiyatiga ko'ra tanasi Shveysariyaning Lozanna shahriga, yuragi esa Olimpiya shahrida marmar yodgorlik ostida dafn etilgan.

Godfrua de Blone (1869-1937) – 1916–1919-yillarda XOQning vaqtinchalik prezidenti lavozimini bajargan. Baron Godfrua de Blone 1869-yil 25 iyulda Nidershyontal shahrida (Shveysariya) tavallud topgan. XOQ tarkibida 1899-yildan boshlab Shveysariya vakili sifatida faoliyat ko'rsatgan. Kuberten Birinchi jahon urushiga ketganda, prezident lavozimiga neytral davlat vakili G.de Blone tayinlangan. Godfrua de Blone Shveysariya olimpiya qo'mitasining asoschilaridan biri bo'lib, 1912–1915-yillarda shu qo'mitani boshqargan. 1937-yil 14-fevralda Biskra shahrida (Jazoir) vafot etgan.

Anri de Baye-Latur (1876–1942) – XOQning uchinchi Prezidenti. 1903-yilda Belgiyadan XOQ a'zosi etib saylangan. Anri de Baye-Latur 1905-yilda XOQning III kongressini tashkiliy ishlariga katta hissa qo'shgan. 1906-yilda Belgiya Milliy olimpiya qo'mitasi ta'sischilaridan biri bo'lgan. 1920-yilda Antverpenda VII yozgi Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasining raisi bo'lgan. 1925–1942-yillarda XOQ Prezidenti etib saylangan. Baye Latur rahbarligida II, III qishki va IX, X, XI yozgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan.

Yuxannes Zigfrid Edstryom (1870–1969) – XOQning 1942–1952-yillarda faoliyat ko'rsatgan Prezidenti. 1921-yilda XOQ a'zosi, XOQ Ijroiya qo'mitasining a'zosi, 1931-yilda XOQning vitse-prezidenti etib saylangan. Yu.Edstryom havaskor sportni rivojlantirish tarafdori va olimpiya harakatida millatchilikning har qanday

ko'rinishiga qat'iy qarshi edi. XOQning 1949-yildagi 44-sessiyasida Xalqaro olimpiya akademiyasini tashkil etish taklifini qo'llab-quvvatlagan. 1950-yilda XOQning 45-sessiyasida san'at tanlovlarini olimpiya dasturidan chiqarish, turli festivallar, ko'rgazmalari o'tkazish taklifini kiritgan. 1952-yil 16-iyulda Yu.Edstrem o'z iltimosi bilan iste'foga chiqqan va keyingi yillarda XOQning faxriy prezidenti bo'lib xizmat qilgan.

Eyveri Brendej (1887–1975) – 1952–1972-y. faoliyat ko'rsatgan XOQning beshinchi Prezidenti. 1909-y. AQSHning Illinoys shtati universitetini tugallagan. U yengil atletika ko'pkurashi bo'yicha AQSH birinchiligining 1910-yil sovrindori bo'lgan. 1912-y. Stokgolm Olimpiadasida AQSH terma jamoasi tarkibida beshkurash bo'yicha 5-o'rinni egallagan. Keyin u gandbol bilan shug'ullangan va AQSHning eng yaxshi 10 ta o'yinchisi qatoriga kirgan. E.Brendej 1925–1927-yy. gandbol bo'yicha milliy qo'mita raisi, 1928–1935-yy. AQSH Havaskor atletika assotsiatsiyasi, 1928–1952-yy. AQSH Milliy olimpiya qo'mitasi prezidenti bo'lgan. 1930-y. Xalqaro havaskor yengil atletika federatsiyasi prezidenti, 1936-y. XOQ a'zosi, 1937-y. XOQ Ijroiya qo'mitasi a'zosi, 1945-y. XOQ vitse-prezidenti, 1946-y. birinchi vitse-prezidenti etib saylangan. E.Brendej birinchi bo'lib XOQning Oltin ordeni bilan taqdirlangan. E.Brendej 85 yoshida o'z ixtiyoriga ko'ra iste'foga chiqqan, hayotining so'nggi yillarini Germaniyaning Garmish-Partenkirxen shahrida o'tkazgan.

Maykl Morris Killanin (1914–1999) – Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 1972–1980-yillarda faoliyat ko'rsatgan oltinchi Prezidenti. 1950-y. Irlandiya milliy Olimpiya qo'mitasining Prezidenti, 1952-y. XOQ a'zosi, 1967-y. XOQ Ijroiya qo'mitasi a'zosi, 1968-y. XOQning vitse-prezidenti etib saylangan. Killanin XOQning Olimpiya birligi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish tashabbuskori bo'lgan. Uning rahbarligida XOQ Monreal va Moskvadagi yozgi Olimpiya o'yinlarini, Insbruk va Leyk Plesiddagi qishki Olimpiya o'yinlarini o'tkazgan. 1980-yilda Maykl Killanin iste'foga chiqqan.

Xuan Antonio Samaranch (1920–2011) – XOQning 1980–2001-yillarda faoliyat ko'rsatgan Prezidenti. U yoshligida boks, rolikli konkida xokkey bilan shug'ullangan. Keyinchalik Samaranch ustozlik qilgan Ispaniyaning rolikli xokkey jamoasi jahon chempioni bo'lgan. Samaranch universitetning tijorat fakultetini tugallagan, biznes faoliyatini sport ustozligi bilan qo'shib olib borgan.

1940–1950-yy. Samaranch Barselona munitsipalitetining rahbari, so'ng Ispaniya rolikli xokkey milliy federatsiyasining prezidenti lavozimida ishlagan. Samaranch 1955-y. Barselonada o'tkazilgan ikkinchi O'rtayer dengizi o'yinlarining tashkilotchilaridan biri bo'lgan. Samaranch 1956-yil qishki VII Olimpiada, 1960-yil XVII va 1964-yildagi XVIII yozgi Olimpiya o'yinlarida Ispaniya sport delegatsiyasining rahbari bo'lgan.

1963-yilda Samaranch Ispaniyaning sport oliy kengashi rahbari lavozimiga tayinlangan. 1967-yilda Samaranch Ispaniya milliy olimpiya qo'mitasining prezidenti etib saylangan. Samaranch 1968-yildan XOQ protokoli rahbari, 1970-yildan XOQ Ijroiya qo'mitasi a'zosi, 1974-yildan XOQ vitse-prezidenti, 1977-yildan Ispaniyaning sobiq Ittifoq elchisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.

1980-yilda XOQning 83-sessiyasida Samaranch XOQ Prezidenti etib saylangan. 2001-yilda Xuan Antonio Samaranch o'zining 20 yillik samarali faoliyatini yakunlab, iste'foga chiqqan.

Jak Rogge 1942-yil 2-may kuni Gent shahrida tug'ilgan. Jak Rogge tibbiyot fanlari doktori, jarroh, sport tibbiyoti mutaxassisi; ingliz, fransuz, nemis, golland va ispan tillarini biladi. Rogge yelkanli kema sporti va regbi bilan shug'ullangan, yelkanli kema sporti bo'yicha Belgiya chempioni, Olimpiada (1968, 1972, 1976-yy.) o'yinlari ishtirokchisi. Jak Rogge Yevropa Olimpiya qo'mitasi Prezidenti (1989-y.) Insbruk, Kalgari shaharlarida o'tkazilgan qishki Olimpiya o'yinlari missiyasi rahbari, Moskva (1980), Los-Anjeles (1984) va Seul (1988) Olimpiadalari missiyasi rahbari bo'lgan. Dopingga qarshi Butunjahon Ittifoq agentligi a'zosi, 1991-yildan XOQ a'zosi, olimpiada harakati, dasturi va komissiyasi a'zosi. XXVII va XXVIII Olimpiada o'yinlarini muvofiqlashtirish komissiyasining rahbari bo'lgan. 2001–2013-yillarda XOQ Prezidenti lavozimida rahbarlik qildi. 2013-yilda Jak Rogge iste'foga chiqdi.

Tomas Bax 1953-yilda Vyurtsburg shahrida (Germaniya) tavallud topgan. Yoshligida futbolga qiziqqan, lekin ota-onasi uni qilichbozlik seksiyasiga olib borgan. Bu sport turida Tomas Bax juda katta natijalarga erishdi, Germaniyaning ko'p karra chempioni va qilichbozlik (rapira) bo'yicha ikki karra Jahon chempioni bo'ldi. Tomas Bax XXI Olimpiya o'yinlarida (1976, Monreal, Kanada) Germaniya terma jamoasi tarkibida oltin medalga sazovor bo'lgan.

Tomas Bax huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha Vyurtsburg universitetini tamomlagan.

T. Bax XOQning Sport arbitraj sudi doping muammolari bo'yicha appelatsiya bo'limini boshqargan. 2013-yil 10-sentabrda Tomas Bax XOQ Prezidenti etib saylandi.

21-jadval

XOQ PREZIDENTLARI

№	XOQ prezidenti	Rahbarlik yillari	Davlat vakili
1	Demetrius Vikelas	1894–1896	Gretsiya
2	Pyer de Kuberten	1896–1916, 1919–1925	Fransiya
3	Godfri de Blone	1916–1919	Shveysariya
4	Anri de Baye-Latur	1925–1942	Belgiya
5	Yuxanes Zigfrid Edstryom	1942–1952	Shvetsiya
6	Eyveri Brendej	1952–1972	AQSH
7	Maykl Morris Killanin	1972–1980	Irlandiya
8	Xuan Antonio Samaranch	1980–2001	Ispaniya
9	Jak Rogge	2001–2013	Belgiya
10	Tomas Bax	2013- hozirgi davrgacha	Germaniya

Olimpiya xartiyasining 1-qoidasiga ko'ra Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) olimpiya harakatining oliy organi hisoblanadi. Xartiyaning 3-qoidasi esa xalqaro olimpiya harakatini XOQdan tashqari Xalqaro sport federatsiyalari (XSF), Milliy olimpiya qo'mitalari (MOQ), Olimpiya o'yinlarining tashkiliy qo'mitalari (OO'TQ), milliy assotsiatsiyalar, klublar, ularga tegishli shaxslar (atletlar, hakamlar, referilar, murabbiylar va boshqa sport mutaxassislari), shuningdek, XOQ tomonidan tan olingan boshqa tashkilot va muassasalar ham tashkil etishi belgilangan.

Xalqaro sport federatsiyalari – bu aniq bir sport turi (turlari) bo'yicha milliy federatsiyalarning birlashma, ittifoqlarini tashkil

etuvchi xalqaro sport tashkilotlaridir. Milliy sport federatsiyasi mamlakatda sport turini yoki sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirishni amalga oshiradi hamda respublika va xalqaro miqyosdagi barcha tadbirlar va musobaqalarda sportchilar va boshqa mutaxassislar nomidan ish yuritadi.

XIX asr oxirida mamlakatlardagi sport tashkilotlarining o'zaro tajriba almashish faoliyatlari yuzaga kelib, keyinchalik ular Xalqaro sport uyushmalariga asos solganlar. 1881-yilda jahonda birinchi Xalqaro sport federatsiyasi - Yevropa gimnastika uyushmasi va shu yilning o'zida Xalqaro gimnastika federatsiyasi tashkil topgan. 1892-yilda konkida uchish Xalqaro uyushmasi va Xalqaro eshkak eshish federatsiyasi, 1900-yilda Xalqaro velosport uyushmasi, 1904-yilda Xalqaro futbol federatsiyalar assotsiatsiyasi, 1908-yilda Xalqaro havaskorlik suzish federatsiyasi va Xalqaro muz ustida xokkey ligasi, 1912-yilda Xalqaro yengil atletika havaskorlik federatsiyasi, 1913-yilda Xalqaro qilichbozlik federatsiyasi tashkil etilgan.

Hozirgi kunda dunyoda 200 dan ortiq Xalqaro sport federatsiyalari mavjud bo'lib, ularning 30 dan ortig'i olimpiya sport turlari bo'yicha federatsiyalardir. Zamonaviy xalqaro sport harakatida xalqaro sport federatsiyalarining ikki toifasini ajratib ko'rsatish mumkin: Olimpiya o'yinlari dasturiga kiruvchi sport turlari bo'yicha xalqaro sport federatsiyalari hamda Olimpiya o'yinlari dasturiga kirmaydigan sport turlari bo'yicha xalqaro sport federatsiyalari.

Olimpiya o'yinlari dasturiga kiruvchi sport turlari bo'yicha xalqaro sport federatsiyalari. Bunday tashkilotlarga 35 sport turi ustidan rahbarlikni amalga oshiradigan (28 ta yozgi va 7 ta qishgi) va Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishda bevosita ishtirok etadigan xalqaro sport federatsiyalari kiradi. Bu toifaga kiruvchi barcha federatsiyalar Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan rasman tan olingan.

Birinchi toifaga quyidagi federatsiyalarni misol sifatida ko'rsatish mumkin: Xalqaro gandbol federatsiyasi (IHF); Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF); Xalqaro basketbol federatsiyasi (FIBA); Havaskorlik boksi xalqaro assotsiatsiyasi (AIBA); Xalqaro havaskorlik kurashi federatsiyasi (FILA); Xalqaro velosportchilar ittifoqi (USI); Xalqaro voleybol federatsiyasi (FIVB); Xalqaro gimnastika federatsiyasi (FIG); Xalqaro eshkak eshish federatsiyasi (FISA); Xalqaro futbol assotsiatsiyalar federatsiyasi (FIFA).

Olimpiya o'yinlari dasturiga kirmaydigan sport turlari bo'yicha xalqaro sport federatsiyalari mavjud bo'lib, bu xalqaro sport federatsiyalar tomonidan ham xalqaro darajadagi kompleks sport musobaqalari, Noolimpiya sport turlari bo'yicha xalqaro o'yinlar uyushtirib turiladi. Bunday yirik musobaqalar dasturida sambo, karate-do, rolik konkilardagi xokkey, sport akrobatikasi, suv chang'ilari kabi sport turlarini ko'rishimiz mumkin.

Xalqaro sport federatsiyalari nafaqat yuqori natijalar sportini rivojlantirishni ko'zlab, balki ommaviy sportni taraqqiy ettirish uchun ham tuziladi va faoliyat yuritadi. Shunga muvofiq xalqaro sport federatsiyalarining nizomlarida tegishli normalar ham belgilab qo'yiladi. Masalan, Xalqaro tennis federatsiyasi nizomining federatsiya vazifalari belgilangan qismida – turli mamlakatlarda tennis rivojiga zamin yaratish vazifasi qayd etilgan.

Xalqaro sport tashkilotlarining alohida guruhini professional sport sohasidagi xalqaro tashkilotlar tashkil etadi. Bunday tashkilotlarga Milliy basketbol assotsiatsiyasi (NBA), Milliy xokkey ligasi (NHL), Bosh beysbol ligasi (GBL) va boshqalar misol bo'la oladi. Ularni bir qit'aning bir necha mamlakat sport klublari (ligalari, ittifoqlari va h.k.)ni birlashtirgan professional sportning hududiy xalqaro tashkilotlari sifatida e'tirof etish mumkin.

Xalqaro sport harakatining amal qilishi va rivojlanishi uchun hozirgi bosqichda umumiy tamoyillar qabul qilindigan. Bunday tamoyillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– sportning har tomonlama rivojlanishi;

– sportda siyosiy va irqiy kamsitishlarga qarshi kurash;

– milliy sport tashkilotlarining suvereniteti va teng huquqliligini tan olish;

– milliy sport tashkilotlarining faoliyatiga aralashmaslik;

– xalqaro sport tashkilotlarining tashkil etilishi va faoliyatining demokratik asosda ekanligi;

– dunyoda tinchlik va o'zaro tushunishga erishish uchun kurashda ishtirok etish va boshqalar.

Milliy Olimpiya qo'mitalari – mamlakatlarda olimpiya harakatiga rahbarlik qiluvchi organ hisoblanadi. MOQ asosiy vazifasi o'z mamlakatida olimpiya harakatini Olimpiya xartiyasi asosida rivojlantirish va olimpiya g'oyalarini himoya qilishdan iborat. MOQ xalqaro olimpiya harakatining asosiy bo'g'inlaridan hisoblanadi.

Milliy olimpiya qo'mitalari XOQ tomonidan rasman tan olinadi. XOQ tomonidan rasman tan olingan Milliy olimpiya qo'mitalari Olimpiya harakatiga a'zo bo'ladi.

MOQning tan olinishi uchun mamlakatda olimpiya sport turlari bo'yicha Xalqaro sport federatsiyalari tarkibiga kiruvchi kamida 5 ta sport federatsiyasi mavjud bo'lishi kerak. Har bir MOQning Nizomi doimiy ravishda Olimpiya xartiyasiga mos kelishi lozim. 1894-yilda ikkita MOQ tuzilgan bo'lsa, hozirgi kunda 205 dan ortiq MOQ tashkil etilgan.

22-jadval

XOQ KONGRESSLARI

Kongress	O'tkazilgan yil	O'tkazilgan joyi
I	1894	Parij, Fransiya
II	1897	Gavr, Fransiya
III	1905	Bryussel, Belgiya
IV	1906	Parij, Fransiya
V	1913	Lozanna, Shveysariya
VI	1914	Parij, Fransiya
VII	1921	Lozanna, Shveysariya
VIII	1925	Praga, Chexoslovakiya
IX	1930	Berlin, Germaniya
X	1973	Varna, Bolgariya
XI	1981	Baden-Baden, Germaniya
XII	1994	Parij, Fransiya
XIII	2009	Kopengagen, Daniya

Olimpiya kongressi – olimpiya harakatining asosiy tashkilotlari ishtirokida o'tkaziladigan anjumandir. Xalqaro olimpiya harakati rivojlanishining dastlabki yillarida Kongresslar har yili o'tkazilgan va Olimpiya o'yinlarining tashkiliy masalalari muhokama qilingan (*22-jadval*).

Olimpiya xartiyasi bo'yicha Olimpiya kongresslari 8 yilda bir marta o'tkaziladi. Olimpiya kongresslarini o'tkazish muddatini XOQ belgilab beradi. Kongress XOQ prezidenti tomonidan chaqiriladi va konsultativ ahamiyatga ega.

Olimpiya kongressida XOQ, MOQ va XSF vakillari, faxriy prezident va a'zolar, sportchilar va taklif etilgan shaxslar ishtirok etadi. Olimpiya kongressi kun tartibini XOQ Ijroiya qo'mitasi belgilaydi. Kogressda XOQ prezidenti raislik qiladi va uning tadbirlarini belgilaydi. Olimpiya kongresslarida olimpiya harakatining dolzarb muammolari muhokama qilinadi.

Zamonaviy olimpiya harakatining tarixiy davlarida 13 ta Olimpiya Kongresslari o'tkazilgan. 1894-yildan 1930-yilgacha 9 ta Olimpiya Kongressi bo'lib o'tgan. 1930-yillarda olimpiya harakatida vujudga kelgan inqiroz, olimpiya harakatining asosiy tashkilotlari XOQ, MOQ va XSF o'rtasidagi o'zaro hamkorlik rishtalari uzilishiga olib kelgan. Shu sababli 1930-yildan 1973-yilgacha Olimpiya Kongresslari chaqirilmagan.

I Olimpiya Kongressi 1894-yil 16–23-iyun kunlari Parijda (Fransiya) Pyer de Kuberten rahbarligida o'tkazilgan. Kongress dasturi ikki qismdan iborat bo'lgan: "Havaskorlik va professionalizm" va "Olimpiya o'yinlari". Kongressda Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan Olimpiya xartiyasi tasdiqlangan. Kongressda Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash, havaskorlik va professional sporti, Olimpiya o'yinlarining dasturi va uni o'tkazish tartiblari, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining tarkibi to'g'risidagi asosiy masalalar muhokama qilingan.

II Olimpiya Kongressi 1897-yilda Gavrda (Fransiya) Pyer de Kuberten tashabbusi bilan tashkil etilgan. Kongressda gigiyena, pedagogika, jismoniy tarbiya va sportning boshqa ilmiy yo'nalishlari muhokama qilingan.

III Olimpiya Kongressi 1905-yilda Bryusselda (Belgiya) Pyer de Kuberten rahbarligida o'tkazilgan. Kongressda XOQ va XSF o'zaro hamkorlik munosabatlarining masalalari muhokama qilingan.

IV Olimpiya Kongressi 1906-yilda Parijda (Fransiya) o'tkazilgan. Kongressda Olimpiya o'yinlari dasturiga san'at konkurslarini kiritish masalasi muhokama qilingan.

V Olimpiya Kongressi 1913-yilda Lozannada (Shveysariya) bo'lib o'tgan. Kongressda sport psixologiyasi va fiziologiyasining muammolari muhokama qilingan.

VI Olimpiya Kongressi 1914-yilda Parijda (Fransiya) o'tkazilgan. Kongressda Olimpiya o'yinlarida sport turlaridan

musabaqalarni tashkil qilish va o'tkazish masalasi bo'yicha qaror qabul qilingan.

VII Olimpiya Kongressi 1921-yilda Lozannada (Shveysariya) bo'lib o'tgan. Kongress hakamlik masalalari, XOQ sessiyalari to'g'risida masalalar muhokama qilingan. Olimpiya Kongresslariga XOQning oliy organi maqomi berilgan.

VIII Olimpiya Kongressi 1925-yilda Praga shahrida (Chexoslovakiya) o'tkazilgan. Kongressda Olimpiya o'yinlarining dasturi va qoidalari, havaskorlik muammolari, ayollar ishtiroki, MOQ huquqlari, XOQ, MOQ va XSF o'zaro munosabatlari muhokama qilingan.

IX Olimpiya Kongressi 1930-yil 25–30-may kunlari Berlinda (Germaniya) bo'lib o'tgan. Kongressda Olimpiya o'yinlarining dasturi, havaskorlik maqomi, Olimpiya o'yinlarida ayollar ishtirokining masalalari ko'rib chiqilgan.

X Olimpiya kongressi 1973-yil Varna shahrida (Bolgariya) o'tkazilgan. Olimpiya kongressi olimpiya harakati muammolarini bartaraf etishga e'tiborni qaratgan edi. Kongressning kun tartibida: hozirgi davr olimpiya harakati va uning rivojlanish istiqbollari; XOQ, XSF va MOQning o'zaro munosabatlari, keyingi olimpiya o'yinlarining qiyofalari kabi masalalar muhokamaga qo'yildi. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha uch tomonlama (XOQ, MOQ va XSF) komissiya tuzildi. Kongress yakuniy hujjatlari - «Uch tomonlama komissiyaning xulosalari», «Jahonning barcha sportchilariga murojaat» qabul qilingan.

Sportning ijtimoiy-tarbiyaviy va iqtisodiy salohiyati tobora oshib borayotganligi tufayli davlat rahbarlariga uni tobora rivojlantirishda yordam ko'rsatib turishlari tavsiya etildi. Hozirgi davr muammolaridan biri XOQ, MOQ, XSF faoliyatlarini muvofiqlashtirib turishdan iborat. Keyingi olimpiya o'yinlarining talab darajasi tashkil qilinishi shunga bog'liq bo'lib qolmoqda. MOQ hukumat tashkilotlari bilan, XOQ esa YUNESKO va BMT bilan uzviy aloqada ish olib borishi kerak.

XI Olimpiya Kongressi 1981-yilda Baden-Badenda (Germaniya) o'tkazilgan va harakatni yanada rivojlantirish maqsadida muhim ahamiyat kasb etgan. Bunda uchta masala muhokama qilingan: keyingi olimpiya o'yinlari; sportda xalqaro do'stlik aloqalari; olimpiya harakatining istiqbol yo'llari.

XI Kongressda XOQ 82 a'zosi, XSF 37 vakili, MOQ 149 vakili ishtirok etgan va ilk bor 34 nafar olimpiya chempionlari ham qatnashgan. Kongress tomonidan Deklaratsiya qabul qilingan va unda quyidagi muhim qarorlar bayon qilingan:

– Olimpiya o'yinlarida «ochiq o'yinlar» uchun joy yo'q; .

– Olimpiya o'yinlariga sportchilarni qo'yish tamoyillari («26-qoida» Olimpiya xartiyasi) saqlanib qolaveradi;

– Olimpiya marosimlari har doimgidek davom etadi;

– Olimpiya o'yinlarini turli mamlakatlarda o'tkazish amaliyoti davom ettiriladi;

– Olimpiya o'yinlarini tashkil qiluvchi qo'mita va XOQ, XSF, MOQlarining o'zaro munosabatlari yanada mustahkamlab boriladi;

– doping iste'mol qiluvchilarni yanada qattiqroq jazolash choralari ishlab chiqiladi;

– sportda kamsitish faoliyatlariga qarshi kurash davom ettiriladi;

– «Olimpiya birdamligi» dasturini bajarishda qatnashuvchilar sonini ko'paytirish, taraqqiy etayotgan mamlakatlarga ko'maklashish tadbirlari rejalashtiriladi;

– matbuot, teleradio orqali sport harakatidagi ijobiy jihatlarni ko'proq yoritish, yoshlarning sportga qiziqishini tarbiyalashga e'tibor berish;

– mamlakatlarning hukumatlaridan olimpiya harakatini rivojlantirishda ko'mak so'rash;

– xotin-qizlarning sport harakatiga rahbarlik qilishlariga keng yo'l ochish.

XII Olimpiya kongressi 1994-yil 29-avgust – 3-sentabrda Parijda o'tkazilgan. Kongressga to'rtta masala muhokama etilib, har biri bo'yicha tavsiyalar qabul qilingan:

- Hozirgi davr Olimpiya harakatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qo'shayotgan ulushlari.
- Jamiyatda sportchining o'rni va roli.
- Sport ijtimoiy hayotda (sport va siyosat, sport va iqtisod, "sport barcha uchun", taraqqiy etayotgan mamlakatlarda sport).
- Sport va ommaviy axborot vositalari.

Kongressdagi mulohazalar, muzokaralarda XX asr davomida sportchilar mahoratini oshirish, yoshlarni tarbiyalashda olimpiya harakati, olimpiya o'yinlari g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi ta'kidlangan. Jismoniy tarbiya va sportning mohiyati, olimpiya

g'oyalarining ahamiyati o'sib borayotganligini e'tiborga olgan holda, matbuot, teleradiokompaniyalar faoliyatlarini maqsadli yo'naltirish ham taklif etilgan.

XIII Olimpiya kongressi 2009-yil 3–5-oktabr kunlari Kopengagen shahrida (Daniya) o'tkazilgan. Kongressda olimpiya harakati vakillarining ijodiy ma'ruzalari taqdim etilgan.

Zamonaviy olimpiya harakatining dolzarb muammolari. Hozirgi davrda XOQ rahbarligida Olimpiya kongresslari va sessiyalarida olimpiya harakati muammolari muhokama qilinadi, ularni butunlay hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'riladi. Zamonaviy olimpiya harakatida juda ko'p muammolar mavjud bo'lib, ulardan eng dolzarb muammolar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- XOQ, MOQ, XSF faoliyatida hamkorlik muammosi;
- professional sport va tijorat sporti muammosi;
- irqchilik va millatchilik muammosi;
- sportda doping iste'mol qilish muammosi;
- sportda haqqoniy hakamlik qilish muammosi;
- sportda terrorizm va tajovuzkorlik muammosi;
- olimpiya sport inshootlari muammosi;
- olimpiya o'yinlari dasturi muammosi;
- olimpiya o'yinlari shaharini tanlash muammosi;
- olimpiya ta'limi muammosi.

Hozirgi kunda xalqaro olimpiya harakatining ko'p muammolari hal qilingan. Jumladan, dastlabki Olimpiya o'yinlarida paydo bo'lgan **irqchilik va millatchilik muammosi** XX asrning ikkinchi yarmida sportda kamsitish holatlariga qarshi olib borilgan keskin kurash natijasida bartaraf etilgan.

«Irq» va Xalqaro olimpiya Qo'mitasi: olimpiya sporti – "irqiy" farqlarni sinovdan o'tkazish vositasi sifatida. Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq bo'lgan "irq" siyosatining uchta asosiy shakllarini aniqlashgan. Birinchisi, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida institutsional irqchilik mavjud, bu, xususan, 1904-yilgi (Sent-Luis va Antropologiya kunlari) va 1936-yilgi (Berlin va ariyalik "irqni" va natsistlar rejimini ustunligini isbotlashga urinish) O'yinlarda yaqqol ko'rinib turgan. Ikkinchisi – bu, irqchilikni yengib o'tish va unga norozilik bildirish imkoniyati – bu yerda, 1968-yil (Mexiko) ajralib turadi. Uchinchisi – bu, etnik kelib chiqish, irq va sport yutuqlari

o'rtasidagi munosabatlar. Antropologiya kunlari (1904-yil), masalan, mohiyati bo'yicha "irqni" natijalar va erishilgan yutuqlarni tushuntirish sifatida o'lchash va namoyish qilish uchun tashkil qilingan irqchilik musobaqalari bo'lgan.

Kassius Kleyni 1960-yilgi Rimda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlaridagi erishgan yutuqlari afro-amerikaliklarni diqqat markaziga qo'ydi. 1960-yillarda AQSH da inson huquqlari uchun harakat yuqori darajada bo'lganida, Djon Karlos va Tommi Smit qora tanlilar huquqlari uchun harakatni 1968-yili Mexikoda global auditoriyagacha ilgari surdilar.

"Qora tanli milliy yulduzlar, OAV larda yoritilgan sport hodisalariga jalb qilinishi vositasida global ahamiyatga ega bo'ldilar". Afroamerika sport tarixi ichidagi ayrim boshqa eng ahamiyatli momentlari AQSH hududidan tashqarida– Jess Ouens Berlinda 1936-yili va Vilma Rudolf Rimda 1960-yilda sodir bo'ldi. Undan tashqari, ushbu erishilgan yutuqlar qora tanli sportchilarning muvaffaqiyatli chiqishlaridan kutilgan natijalarga ham ko'maklashadi.[47]

2000-yilgi Sidneydagi Olimpiya o'yinlarida 200 metrlik sprintning finalida g'olib bo'lgan Kostas Kenderisning fotosuratini talabalarga ko'rsatilgan. U, talabalardan fotosuratdagi qanday belgilar o'xshamaganligini so'ragan. Deyarli barcha talabalar – oq tanli sprinter qora tanli sportchilar oldida finishga birinchi kelgan, degan bir xil fikrni bildirishgan. Qora tanli sportchilarning yengil atletikadagi erishgan yutuqlari, boshqa olimpiya sport turlaridagi yetarli bo'lmagan yutuqlar kabi an'anaviy tomosha bo'lib qolgan. Shuning uchun, Sidneyda Erika Mussambani ismli sportchining suzishi, uni qora tanli afrikaliklarni Buyuk Britaniyaning OAV larida suvdagi universal vakili darajasiga ko'tardi («Erik Ugor» kabi). U bilan taqqoslanganda, 1988-yili Kalgarida Eddi Edvardsni ("Eddi burgut" laqabini olgan) chang'ida sakrashlarda erishgan yutuqlari, uning biologiyasida kamchiliklarga olib kelmagan va uni butun kontinetning vakili darajasiga ko'tarmadi.

"Baynalmilallik ruhi va milliy kurash. Olimpiya o'yinlari, qisman xalqaro uchrashuvlar joyi sifatida yuzaga kelgan va birinchi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining tarkibiga xalqaro tinchlikparvar

---

[47] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 168 p.

tashkilotlarda faol rol o'ynagan bir nechta shaxslar kirgan. Milliy bayroqlar, jamoalar, uniforma, taqdirlashning tantanali marosimlaridagi madhiyalar va ommaviy axborot vositalaridagi medallarning "norasmiy" jadvallari – buning barchasi Olimpiya o'yinlarining obrazini mamlakatlar o'rtasidagi ramziy musobaqa sifatida yaratishga ko'maklashadi. 1908-yilgi O'yinlar vaqtida Buyuk Britaniyalik va Amerikalik mansabdor shaxslar o'rtasida bir nechta qattiq bahslar bo'lib o'tgan.[48]

1936-yilgi O'yinlar "natsistlarning o'yinlari" sifatida tarixda qoldi, sovuq urush davrida esa, O'yinlar sharq va g'arb, kommunizm va kapitalizm o'rtasida kurashning ramziy maydoniga aylandi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Germaniya, Koreya va Xitoydagi jamiyatlarning har tomonga tortadigan qarama-qarshiliklarini; Isroil davlatini tuzilishi va falastinliklarni quvib chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, Yaqin sharqdagi xavfli munosabatlarni e'tiborsiz qoldirmasligi; dekolonizatsiyaning ta'siri va mustaqil rivojlanayotgan davlatlarning paydo bo'lishi, aparteid va Janubiy Afrikani izolatsiya qilinishini hisobga olishi va uddalashi kerak edi.

Ikkinchi jahon urushini tugashidan buyon, zamonaviy dunyoda millat bo'lish ikkita jihatni anglatadi: Birlashgan Millatlar Tashkilotiga mansub bo'lish va Olimpiya o'yinlarining ochilishi marosimida marshirovka qilish. Lekin shu narsa ma'lumki, butun dunyoda mamlakatlar va davlatlarning statusi bahslarga uchramoqda. Irlandiya, Kataloniya, Basklar Mamlakati, Tayvan, Gonkong, ikkala Koreya, Falastin va Belgiya milliy chegaralar va davlat hokimiyatining bahslashish tabiatiga turli misollar hisoblanadi.

"Millat"ni nima belgilaydi? Har xil kontekstlarda (Millatlar Ligasi, BMT va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi) millatning har xil mezonlari va belgilanishlari qo'llanilgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tarkibiga kiradigan mamlakatlar ro'yxati BMT ning ro'yxatidan uzunroq: Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tarkibiga 12 ta "millat"lar kiradi, BMT ga emas. Ularning ko'pchiligini dekolonizatsiyaning hal qilinmagan muammolari sifatida ko'rib chiqish mumkin. 12 ta mamlakat Buyuk Britaniyaning uchta hududlarini (Bermud orollari, Buyuk Britaniyaning Virgin orollari, Kayman orollari); Amerikaning to'rtta hududlarini (Amerika Samoasi, Puerto-

---

[48] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 168 p.

Riko, Guam, Amerikaning Virgin orollari) va ikkita Gollandiya hududlarini (Aruba, Niderlandiyaning Antil orollari); ikkitasi Xitoy bilan bog'liq (Xitoy Taypeyi, Gonkong), yana biri – Falastin. Milliy mamlakat asosiy yuridik shaxs hisoblanadi va dunyo unga bo'lingan, milliy davlatning birinchiligi – nisbatan yaqindagi hodisa".[49]

Hozirgi davr muammolaridan biri, XOQ, MOQ, XSF faoliyatlarini muvofiqlashtirib turishdan iborat. Keyingi olimpiya o'yinlarining talab darajasi tashkil qilinishi shunga bog'liq bo'lib qolmoqda. MOQ hukumat tashkilotlari bilan, XOQ esa YuNESKO va BMT bilan uzviy aloqada ish olib borishi kerak.

Olimpiya harakatining asosiy tashkilotlari XOQ, MOQ, XSF o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining keskinlashuviga olib kelgan. Olimpiya kongressida (1973) bu muammo muhokama qilingan.

Kongressning kun tartibida: **XOQ, XSF va MOQning o'zaro munosabatlari muammosi**, hozirgi davr olimpiya harakati va uning rivojlanish istiqbollari; keyingi olimpiya o'yinlarining istiqbollari kabi masalalar muhokamaga qo'yilgan. Ushbu masalalarning muhokamasi natijalari asosida uch tomonlama XOQ, MOQ va XSF komissiyasi tuzilgan. Olimpiya harakati tizimining asosiy tarmoqlari - XOQ, MOQ, XSF o'zaro munosabatlarining mustahkamlanishi olimpiya harakatining yanada rivojlanishiga olib keladi.

Doping muammosi 1950-yillarda paydo bo'lib, bugungi kunda sport harakatining eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. "Doping" so'zi inglizcha "dops" so'zidan olingan bo'lib, narkotik berish degan ma'noni bildiradi.

Sportdagi doping – jismoniy va psixologik ishchanlik qobiliyatini rag'batlantirish orqali yuqori sport natijalariga erishish maqsadida qo'llaniluvchi farmakologik preparatlar va usullardir.

Doping (ingl. dope – og'u, narkotik) preparatlari katta sportga ko'rsatkichlarni sun'iy ravishda oshirish maqsadida qo'llanilgan. Sport natijalarni oshirish maqsadida qilinadigan har xil psixologik ta'sirlar ham doping turiga kiradi. Shunday qilib, sportchilar organizmiga har xil usullar bilan bevosita musobaqalar oldidan va musobaqalar davomida sun'iy ravishda ish qobiliyatini va sport natijalarini oshirish uchun har xil moddalarni yuborish-doping qabul

---

[49] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012 – 109 p.

qilish hisoblanadi. Bu holda sportchi musobaqalarda qatnashishi qat'iyan man etiladi.

1962-yil Moskvada bo'lib o'tgan XOQ sessiyasida maxsus rezolutsiya qabul qilingan. 1968-yildan boshlab Olimpiya o'yinlarida doping nazorati kiritilgan. XOQ va Jahon Doping nazorati Assotsiatsiyasi tomonidan doping iste'mol qiluvchi sportchilarni yanada qattiqroq nazorat qilish choralari ishlab chiqilgan.

1970–2005-yillar orasida har xil sport turlarida jiddiy, fojiaviy hodisalar hisobga olingan. IX Panamerika mintaqaviy o'yinlarda AQSHning 13 ta yengil atletikachisi doping ishlatganligi uchun o'yinlardan chetlatilgan. XII Osiyo o'yinlarida (Xirosima, 1994) 11 ta Xitoy sportchisi man etilgan gormonal preparatlarni ishlatganligi uchun musobaqalardan ozod qilingan.

1998-yilda XOQ sportdagi doping muammosi bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazish to'g'risidagi qarorni qabul qilgan.

1999-yil 2–4-fevral kunlari Lozanna shahrida sportdagi doping muammosi bo'yicha Xalqaro konferensiya o'tkazilgan. Konferensiya natijasi sportdagi doping to'g'risidagi Lozanna konvensiyasining qabul qilinishi bo'ldi. Konvensiyada dopingga qarshi kurashning asosi sifatida Dopingga qarshi Kodeks qabul qilinishi kerakligi belgilandi.

Dopingga qarshi Kodeks qoidalari olimpiya harakati doirasida tashkil etilgan musobaqalarda yoki ularga tayyorgarlik mashg'ulotlarida ishtirok etuvchi barcha sportchilarga, murabbiylarga, instruktorlarga, rasmiy shaxslarga, sportchilar bilan ishlaydigan butun tibbiy xodimlar personaliga qo'llanilishi lozimligi qayd etildi.

Dopingni qo'llaganlik uchun sanksiyalar masalasida eng yengil jazo sifatida – birinchi martasida sportchini barcha musobaqalardan ikki yil muddatga chetlashtirish belgilandi.

Dopingga qarshi kurashni XOQ 1999-yil 11–12-dekabr kunlari Lozanna shahrida o'tgan 110 – sessiyasida quyidagi qarorlarni qabul qilish bilan davom etdi:

➢Olimpiya harakati a'zolarining qasamyodi dopingsiz sport to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga olishi kerak. Ushbu qoida ilk bor 2000-yilda Sidneyda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida qo'llanilgan edi.

➢Olimpiya o'yinlariga kiritilish uchun har bir atlet samarali doping nazoratini o'tkazish va sportchi salomatligi holatini kuzatib

borish imkonini beruvchi "pasport"ga ega bo'lishi kerak. Bu tizimni WADA joriy etishi belgilandi.

➢Olimpiya o'yinlaridagi doping nazorati bo'yicha mas'ul tashkilot sifatida XOQ atletlarning akkreditatsiyasiga parallel ravishda musobaqalardan tashqari doping nazoratini o'tkazib boradi. Belgilangan sanksiyaga qarshi apelatsiya keltirilgan holatlarda V probasi, A probasi olingan laboratoriyadan boshqasida amalga oshiriladi.

➢Olimpiya harakatining Dopingga qarshi Kodeksiga rioya qilmaydigan, xususan WADA qoidalariga asosan musobaqalardan tashqari doping nazoratini o'tkazmaydigan sport turlari Olimpiada dasturidan chiqarib tashlanadi.

2003-yil mart oyida Dopingga qarshi kurash Kopengagen Deklaratsiyasi qabul qilindi. Uning asosiy maqsadi – Antidoping Kodeksini qabul qilish va Butunjahon dopingga qarshi kurash agentligining o'rnini oshirish hisoblanadi. Hozirgi kunda Dopingga qarshi kurash Kopengagen Deklaratsiyasi 163 ta davlat hukumati tomonidan tasdiqlangan.

2005-yil 19-oktabrda Yunesko Bosh Konferensiyasi Parijdagi 33-sessiyada Sportda dopingga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya qabul qilindi. Konvensiya xalqaro miqyosda bir-birini tushunish va tinchlikni mustahkamlashga yordam berishda ham muhim rol o'ynashi kerakligini ta'kidlandi.

Mamlakatimizda 2010-yil 27-dekabrda "Sportda dopingga qarshi kurash to'g'risidagi xalqaro konvensiyani (Parij, 2005-yil 19-oktabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunning qabul qilingani yurtimizda sportni xalqaro me'yorlar asosida rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Mazkur qonun yurtimizda sportda dopingga qarshi nazoratni olib borish, inson manfaatlari, salomatligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, yosh avlodni jismonan va ma'nan sog'lom insonlar etib tarbiyalashning huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi.

O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning (Yangi tahriri, 2015) 27-moddasida "Sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish" masalalariga doir vazifalar belgilangan. Mamlakatimizda sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan bir qatorda ularni halollik, o'zaro hurmat, bag'rikenglik, faqat o'z kuchi va salohiyatiga ishongan holda

maqsad sari intilish kabi yuksak ma'naviy me'yorlar asosida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilayotgani ana shunday illatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi zamon xalqaro sport va olimpiya harakatida qator jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Ulardan biri dopingdan foydalanish, ikkinchisi Olimpiya o'yinlari va boshqa musobaqalarda hakamlikdagi odillik masalasidir.

Haqqoniy hakamlik muammosi Olimpiya o'yinlarida 1968-yilda "Hakamlarning olimpiya qasamyodi" kiritilishi orqali bartaraf etilishiga harakat qilingan. Bu muammo sport musobaqalarida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish yordamida hal qilinadi. Sportda bellashuvlarning halol, odilona bo'lishini ta'minlashda hakamlik omili ancha ustuvor turadi. XOQ xartiyasi va XSFning nizomlarida hakamlarning haqqoniy, adolatli bo'lishi alohida ta'kidlangan. Olimpiya o'yinlari, xalqaro sport musobaqalari va ular bilan aloqador faoliyatlarda hakamlar, tashkilotchi rahbarlar orasida g'irromlik, vijdonsizlik, hatto sotqinlik holatlari ko'p uchramoqda. Ularni butunlay yo'q qilish yo'lida mutaxassislar, ommaviy axborot vositalari izchil kurash olib bormoqda.

1984-yilning noyabrida Lozannada (Shveysariya) XOQ tomonidan Xalqaro sport hakamlik sudi (SAS), (ingl.- *Court of Arbitration for Sport* (CAS), tashkil qilingan. SASning huquqiy maqomi 1994-yil 22-noyabrda kuchga kirgan Sport hakamlik sudi Kodeksi bilan belgilanadi.

Bugungi kunga kelib, SAS xalqaro darajada yuzaga keladigan sport sohasidagi nizolarini ko'rib chiquvchi ixtisoslashgan organga aylandi. Hakamlik protsedurasi SAS tarkibidagi ikkita palatalarning birida – Oddiy hakamlik palatasi yoki Apellatsion hakamlik palatasida amalga oshirilishi mumkin.

1994-yildagi XOQ doirasidagi islohotlar natijasida Parijda Sport sohasidagi xalqaro hakamlik kengashi (ingl.- *International Council of Arbitration for Sport*) tashkil qilinib, uning huquqiy maqomi ham Sport hakamlik sudi Kodeksi bilan belgilanadi.

Olimpiya xartiyasining 59-qoidasiga muvofiq "Olimpiya o'yinlari munosabati bilan va ularga bog'liq ravishda yuzaga keluvchi barcha nizolar, faqat Xalqaro sport hakamlik sudida Sport hakamlik sudi Kodeksiga muvofiq hal qilinishi lozim".

Professional sport muammosi Olimpiya xartiyasi bo'yicha hal qilingan. 1980-yillargacha professional sportchilar Olimpiya o'yinlariga kiritilmagan, chunki Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar bo'yicha Olimpiya o'yinlari faqat havaskorlik sportini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda sport o'yinlari va musobaqa qoidalarida katta farqi bo'lmagan ayrim sport turlari bo'yicha professional sportchilar Olimpiya o'yinlariga kiritiladi.

Olimpiya o'yinlari shahrini tanlash muammosi. Olimpiya o'yinlari o'tkazilmaydigan yillarda, XOQning majlisida yoki sessiyasida yetti yildan keyin Yozgi yoki Qishki Olimpiya o'yinlari qayerda o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Shaharlar, tijorat va mablag'lar uchun yangi maqsadlar sifatida yoki sayohat punktlari sifatida, o'zini jahondagi mavqeini belgilash uchun arxitekturani va shahar fazosini borgan sari ko'p qurmoqda va undan foydalanmoqda. O'yinlar, arxitektorlar va shahar hokimlarining, quruvchilar va loyihachilarning, rahbarlar va tadbirkorlarning hamda siyosatchilarning orzularini rag'batlantiradi.

Sport mega-hodisalari va shaharning rivojlanishi. Sport mega-tadbirlarini o'tkazishning jozibaliligi oxirgi 25 yil ichida kuchli darajada ortdi. Los-Anjelesda 1984-yili Yozgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilganida raqobat qiluvchi mamlakatlar bo'lmagan. Nagoya shahri Seul uchun 1988-yilgi Yozgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga yagona raqobatchi bo'lgan. Geosiyosiy holatdagi ancha darajadagi o'zgarishlar – Sovet Ittifoqining parchalanishi, Berlin devorining ramziy buzib tashlanishi va ular bilan bog'liq bo'lgan 1980-yillarning oxirida sharqiy Yevropa mamlakatlari blokining parchalanishi – Olimpiya "mega" rivojlanishini, u, hozirgi vaqtda jahon tasavvurida va jahon iqtisodiyotida egallagan holatiga yetib kelishiga yordam bergan. Sport inshootlari va binolar – sport merosining va sport mega-hodisalarining ham salbiy va ham ijobiy bo'lgan merosi hisoblanadi. Yozgi Olimpiya o'yinlari – bu, "shaharning global statusini yaratish, mustahkamlash va konsolidatsiya qilish malakasi" bo'lgan mega-hodisa".[50]

Olimpiya o'yinlarining dasturiy muammosi qattiq kurashlarga sabab bo'lmoqda. Sport turlarini kamaytirish yoki ko'paytirishga qaratilgan harakatlar o'yinlarning to'xtatilishi darajasigacha olib

---

[50] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 191 p.

borishi mumkin. Sport turlari hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotiga mos kelishi lozim. O'yinlar ilmiy-texnika taraqqiyoti, umumiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini hisobga olgan holda, sportning hamjamiyatlik va do'stona muhitini yaratish tamoyillariga tayanishi shartdir.

XX asrning ikkinchi yarmida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlari, kongresslari va turli sport tadbirlari Olimpiya harakatini rivojlantirishi hamda uni davr talablari asosida demokratlashtirish yo'llari ancha ijobiy bo'ldi. Bunda XOQ prezidentlari, Xalqaro sport uyushmalari rahbarlari, eng muhimi Olimpiya o'yinlarini o'tkazuvchi mamlakatlarning hamkorliklari ancha kuchaydi. Hozirgi davr xalqaro sport va olimpiya harakati muammolarini hal etishda jahon jamoatchiligi birdamligi yuzaga keldi.

Olimpiya ta'limi muammosi XX asrning 90-yillarida paydo bo'lib, olimpizm g'oyalari va olimpiya tamoyillari asosida sportchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish orqali hal qilinmoqda. Bunday vazifa olimpiya madaniyati qadriyatlarini egallash usullari yordamida hal etiladi. Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya go'yalari va tamoyillarini keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Xulosalar

- XIX asrning oxirida Pyer de Kuberten tomonidan olimpiya sportining asosiy tamoyillari, uning tuzilmasi, faoliyat asoslari ishlab chiqilgan.
- XX asrda xalqaro olimpiya harakatining murakkab tashkiliy tuzilmasi hosil bo'ldi va uning asosiy tarmog'i: Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro sport federatsiyalar, Milliy olimpiya qo'mitalari shakllandi.
- Zamonaviy xalqaro sport va olimpiya harakatida qator jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.
- Hozirgi davr olimpiya harakati xalqaro miqyosda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Nazorat savollari:

Pyer de Kubertenning Olimpiya o'yinlarini tiklashdagi asosiy faoliyatlari nimadan iborat edi?

Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?

XX asrning birinchi yarmidagi XOQ prezidentlari kimlar edi?

Xalqaro olimpiya tizimiga qanday tashkilotlar kiradi?

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi faoliyatida qanday hujjat asosiy hisoblanadi?

Olimpiya Xartiyasi nechta bo'limlardan iborat?

XOQ tarkibida qanday asosiy organlar faoliyat yuritadi?

XOQ va uning Prezidentlari Olimpiya harakati rivojiga qanday hissa qo'shganlar?

Olimpiya kongresslari va ulardagi muhokama qilingan asosiy masalalar nimalardan iborat?

Zamonaviy olimpiya harakatining qanday dolzarb muammolari mavjud?

CASE-STUDY

Savol	Javob
1. Qadimgi Olimpiya o'yinlari qachon va qayerda o'tkazilgan?	a) 1896-yil Afina (Gretsiya).
2. Qachon va nima sababdan Qadimgi Olimpiya o'yinlari taqiqlangan?	b) 1894-yil 23-iyun, Parij (Fransiya).
3. Nechanchi yilda va kimning tashabbusi bilan zamonaviy Olimpiya o'yinlari qayta tiklangan?	c) Demetrius Vikelas (Gretsiya)
4. Nechanchi yilda va qayerda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tashkil qilingan?	d) 1894-yil. Pyer de Kuberten
5. Birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlari nechanchi yilda va qayerda o'tkazilgan?	e) Miloddan avvalgi 776-yil, Olimpiya shahrida.
6. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining birinchi prezidenti etib kim saylangan?	f) Rim imperatori Feodosiy I 394-yil, xristian dinining tarqalishi.

KROSSVORD



***Vertikal bo'yicha*:**

1. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining asoschisi.

***Gorizontal bo'yicha*:**

2. Xalqaro olimpiya harakatining asosiy tashkiloti (qisqart.) 3. Sport tashkilotining asosiy hujjati (rus.) 4. I Olimpiya Kongressi o'tkazilgan Parij universiteti 5. XOQning birinchi prezidenti. 6. Qadimgi Gretsiyada uzoq masofaga yugurish. 7. XOQing asosiy huquqiy hujjati. 8. 4x100, 4x200 masofalarga yugurish nomi. 9. XOQning shtab-kvartirasi joylashgan shahar.

13-§. Olimpiya ta'limi tizimi

Hozirgi davrda olimpiya ta'limi tizimining tashkiliy tuzilmasiga Xalqaro Olimpiya akademiyasi (XOA), milliy olimpiya akademiyalari (MOA), olimpiya ta'limi bo'yicha xalqaro va milliy markazlari, olimpiya muzeylari, Pyer de Kuberten, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va boshqa tashkilotlar kiradi. Olimpiya ta'limi masalalari 1897-yilda Gavr shahrida (Fransiya) o'tkazilgan XOQning sessiyasida ilk bor muhokama qilingan.

Xalqaro Olimpiya akademiyasi 1961-yilda tashkil qilingan. XOA manzili, ya'ni shtab-kvartirasi – Olimpiya shahrida joylashgan. Bu tashkilot olimpiya harakati g'oyalari va tamoyillari, jismoniy tarbiya nazariyasi va sport amaliyotini o'rganish hamda targ'ib qilish bo'yicha ixtisoslashgan muassasa bo'lib, XOQ rahbarligi ostida faoliyat ko'rsatadi. XOA 100 dan ortiq davlatlarning milliy olimpiya akademiyalarini tan olgan. Uning faoliyati XOQning maxsus komissiyasi tomonidan boshqariladi va nazorat qilinadi.

XOA har yili haftalik sessiyalar o'tkazadi. Ularning dasturidan falsafa va sportning mafkuraviy muammolari, olimpiya harakati tarixi, sport tayyorgarligi, jismoniy tarbiyaning nazariy va amaliy seminarlari joy olgan. Ushbu sessiyalarga yetakchi olimlar, trenerlar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, talabalar, aspirantlar, sportchilar – umumiy soni 4000 dan ziyod kishilar taklif etiladi. 1987-yil 18-fevralda sobiq Ittifoq olimpiya akademiyasi tashkil qilingan.

"XOQ sportning har xil jihatlari bilan bog'liq bo'lgan bir nechta rollarni bajaradi: sportdagi etika, yoshlarni sport vositasida tarbiyalash, halol o'yin ruhini quvvatlash, sportni va sport musobaqalarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, ayollarni sportda o'sishi, sportda dopingga qarshi kurashish, sportchilar salomatligini himoyalash, bu va sportni inson xizmatiga qo'yish vazifasi orqali tinchlik uchun kurashni rag'batlantirish, olimpiya harakatiga zarar yetkazadigan taqibning har qanday shakliga qarshi kurashish, sportchilarning professional va ijtimoiy kelajagini ta'minlash, sportni barqaror rivojlantirish, sport barcha uchun va Olimpiya o'yinlarini tashkil qiladigan shaharlar va mamlakatlar uchun Olimpiya o'yinlaridan pozitiv meros qoldirish, sportni madaniyat va ta'lim bilan birlashtirish va Gretsiyaning Olimpiyasida Xalqaro olimpiya akademiyasi (XOA) faoliyatini hamda faoliyati olimpiya ta'limiga bag'ishlangan boshqa muassasalarni qo'llab-quvvatlash.

Kubertenning vafotidan bir yil o'tgach (1938-y.) va uning shaxsiy xohishiga ko'ra, uning yuragi Olimpiyadagi memorial devorning ichiga qo'yilgan. Bu, Olimpiyada Olimpiya o'yinlari markazini barpo qilish g'oyasini yuzaga keltirdi va Xalqaro olimpiya akademiyasi 1961-yilning 14-iyunida rasmiy ravishda tantanali tarzda ochildi. Hozirgi vaqtda Olimpiyadagi XOQining binolarida har yili 40 tadan ortiq turli tadbirlar o'tkaziladi".[51]

O'zbekiston Olimpiya Akademiyasi (O'zOA) 1993-yil 18-aprelda tashkil topgan. O'zOA birinchi prezidenti A.Q.Hamroqulov va ijroiya direktori B.S.Radjapov saylangan. O'zOA delegatsiyasi 1994-yilda Olimpiya shahrida o'tkazilgan XOAning navbatdagi sessiyasida ishtirok etgan. O'zOAning 12 nafar kishidan iborat Ijroiya qo'mitasi

[51] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 33 p.

tarkibiga yetakchi olimlar, o'qituvchilar, trenerlar va olimpiya harakati arboblari kiritilgan. O'zOA nizomi bo'yicha Olimpiya Akademiyasi O'zMOQ rahbarligida faoliyat ko'rsatadigan ko'ngilli jamoat tashkiloti hisoblanadi. Respublika Olimpiya Akademiyasiga O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti rektori rahbarlik qiladi.

O'zOA maqsadi olimpiya harakati va Olimpiya o'yinlarining insonparvar qadriyatlari, olimpizm tamoyillari va g'oyalarini o'rganish, targ'ibot qilish, ommalashtirish hamda rivojlantirishdan iborat. O'zROAning dolzarb vazifasi mamlakatimizda olimpiya ta'limotining tashkiliy va ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish, mintaqaviy Olimpiya akademiyalari bilan aloqalar o'rnatish hisoblanadi.

Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya go'yalari va olimpiya qadriyatlarini keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Olimpiya madaniyati qadriyatlari. Bugungi kunda xalqaro olimpiya harakati sport jarayonining asosini tashkil etadi. Ushbu ijtimoiy jarayonni uchta tushunchalar – «olimpizm», «olimpiya harakati» «olimpiya o'yinlari» tavsiflaydi.

Olimpizm – bu tana, iroda va ong qadr-qimmatini muvozanatlashgan bir butunlikka birlashtiruvchi hayot falsafasidir.

Olimpiya harakati – bu olimpizm tamoyillariga asoslangan, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va tinchlikni mustahkamlash maqsadida sportni rivojlantirishga qaratilgan demokratik ijtimoiy jarayondir. Olimpiya harakati insoniyat faoliyatining ko'p sohalari: ta'lim, tarbiya, san'at, fan, madaniyat, texnika taraqqiyoti, xalqlar o'rtasida do'stlik va tinchlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olimpiya o'yinlari – bu individual va jamoaviy sport turlari bo'yicha mamlakatlar o'rtasida emas, balki sportchilar o'rtasida o'tkaziladigan musobaqalardir. Olimpiya o'yinlari – har 4 yilda bir marta XOQ rahbarligida o'tkaziladigan eng yirik xalqaro kompleks sport musobaqalaridir.

Mazkur tushunchalar yig'indisi olimpiya harakatining va ularning tashkiliy shakllaridan ajralib turadigan xususiyatlarini aks ettiradi. Olimpiya harakati alohida ma'naviy asosga ega.

Olimpiya Xartiyasida olimpizm tushunchasining ma'nosi yoritib berilgan. Olimpizm tushunchasini keng ma'noda ifodalash uchun unga quyidagi ta'riflarni ham berish mumkin:

➢ olimpizm – bu alohida, insoniyat tomonidan hosil qilingan yuksak axloqiy qadriyatlarga ma'naviy asosdir;

➢ olimpizm – bu jamiyatning o'ziga xos holatidir, bunda tajovuzkorlik, urush harakatlarini olib borish axloqsizlik hisoblanadi;

➢ olimpizm – bu sport, san'at, madaniyat, fan va texnikaning o'ziga xos uyg'unlashuvidir. Olimpiadalar moddiy va ma'naviy madaniyatning turli tomonlarini rivojlantirish omillaridan biri bo'ldi. Bunday uyg'unliksiz Olimpiya o'yinlari o'zining bu darajada maftunkorligiga ega bo'lmas edi;

➢ olimpizm – bu turli davlatlar sportchilarining yagona ahil oilaga birlashishidir. Bu o'zaro yordam, birdamlik, halollikka asoslangan do'stona munosobatlarni rivojlantirishdir, bu har qanday diskriminatsiyaning yo'qligidir;

➢ olimpizm nafaqat jismoniy sifatlarni, balki tana va ruh uyg'unligini tarbiyalashga qaratilgan ta'limdir, bu sportchilarda jasurlik, or-nomus, qadr-qimmatni tarbiyalashdir;

➢ olimpizm deganda madaniyat va san'at, fan va texnika, ma'naviyat sohalarida sport faoliyatining ilg'or tajribalari va yutuqlari bilan uyg'unlashishiga qaratilgan qarashlar tizimi tushuniladi;

➢ olimpizm – sport harakatining ma'naviy asosi bo'lib, unda gumanistik - insonparvar g'oyalar, insonlarning yaxshi niyatlari, tinchlik, hamkorlikka intilishi aks etadi;

➢ olimpizmning mazmun-mohiyati insonga, shaxsga, jamiyatga xizmat qilishdan iborat; Olimpiya sporti gumanizm, halol o'yin (feyr-pley), olimpizm falsafasini shakllantiruvchi tinchliksevar an'analarni oldinga suradi.

Sportni madaniyat va ta'limot bilan birlashtiruvchi olimpizm sa'y-harakatidan quvonish, yaxshi namuna hamda asosiy umumiy axloqiy tamoyillarni hurmat qilishning tarbiyaviy qiymatiga asoslangan turmush tarzini yaratishga intiladi. Olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog'liq.

Olimpizm o'z rivojlanishida uchta bosqichni bosib o'tgan:

- qadimgi davr (mil.av. 776-y. – milodiy 394-y.)
- Kuberten davri (1894 – 1936-yy.)
- zamonaviy davr (1948-y. – hozirgi davrgacha) .

Har bir bosqichda olimpizm yangi mazmun, an'analar, urf-odatlar bilan boyib borgan. Lekin uning yetakchi gumanistik tamoyillari saqlanib qolgan. Bu tizim insonning jismoniy, ma'naviy va

axloqiy talablariga javob beradi, olimpiya g'oyalari va tamoyillari atrofida jahon xalqlarini birlashtiradi va ular xalqaro olimpiya harakatini tashkil etadi.

"Asosiy tamoyillar (Olimpiya xartiyasida ko'rsatilgan)" Pyer de Kuberten, zamonaviy olimpizm asoslarini ishlab chiqqan. Olimpiya xartiyasi – XOQ tomonidan qabul qilingan Asosiy tamoyillarni, Qoidalar va Qarorlarni tartibga soluvchi hisoblanadi. U, olimpiya harakatini tashkil qilishni va faoliyatini boshqaradi va Olimpiya o'yinlarini o'tkazilishi shartlarini ko'rib chiqadi. Olimpiya xartiyasida shakllantirilgan Olimpiya harakatining keyingi Asosiy tamoyillari 2004-yilning 1-sentabridan boshlab kiritildi.

– Olimpizmning maqsadi – sportni, inson qadr-qimmatini saqlab qolish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan tinchlikparvar jamiyatni yaratishga ko'maklashishi orqali, odamlarni uyg'un rivojlantirishga xizmat qilishdan iborat.

– Olimpiya harakati XOQning rahbarligi ostida amalga oshiriladigan, olimpizm qadr-qimmatlaridan ilhom oladigan barcha shaxslar va tashkilotlarning uyg'un, tashkillashgan, universal va doimiy faoliyatidan iborat. Ushbu faoliyat beshta qit'ani qamrab olgan. Uning eng yuqori cho'qqisi – butun jahon sportchilarini buyuk sport bayrami – Olimpiya o'yinlariga birlashtirish hisoblanadi. Olimpiya harakatining ramzi – beshta o'zaro qo'shilgan halqalar hisoblanadi.

– Sport bilan shug'ullanish – inson huquqlaridan biri hisoblanadi. Har bir odam, kamsitilmagan holda, olimpizm ruhi asosida sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, bu, do'stlik, hamkorlik va halol o'yin ruhidagi o'zaro tushunishni nazarda tutadi. Sportni tashkil qilinishi, boshqarilishi va rahbarlik qilinishi mustaqil sport tashkilotlari tomonidan nazorat qilinishi kerak.

– Har qanday shaxsga yoki mamlakatga nisbatan irqiy, diniy, siyosiy yoki boshqa xarakterdagi yoki jinsiy belgisiga ko'ra kamsitilishning har qanday shakli Olimpiya harakatiga mansublik bilan to'g'ri kelmaydi.

– Olimpiya harakatiga mansublik, Olimpiya xartiyasining qoidalariga rioya qilishni va XOQ tomonidan tan olinishini talab qiladi (XOQ, 2009-y. 44).

Olimpizm – bu, Pyer de Kuberten tomonidan vasiyat qilingan «falsafa» va harakat. U tana, iroda va ongning balanslashtirilgan bir

butun qadr-qimmatini yuqori darajaga ko'taradigan va birlashtiradigan hayot falsafasiga mansub. U, "sportni madaniyat va ta'lim bilan uyg'unlashtirish"ga va "zo'r berishdan quvonishga, yaxshi o'rnakning tarbiyaviy qimmatiga, ijtimoiy mas'uliyatga va umumbashariy etnik tamoyillarga nisbatan hurmatga" asoslangan turmush tarzini targ'ib qilishga uringan. Insonparvarlik ideallarini jismoniy faollik bilan bunday uyg'unlashtirish G'arb falsafiy an'analari uchun toki ingliz xususiy maktablarida atletizm rivojlanmaguncha nooddiy bo'lgan. U, olimpiya harakati ideal standartlarga asoslangan axloqiy ko'rsatmaga ega bo'lganligi uchun ushbu harakat o'zining shaxsiy standartlaridan chetga chiqqan paytda tanqidga ochiq bo'lishini nazarda tutgan. [52]

Sport tarixchisi va Olimpizmning tadqiqotchisi Bryus Kidd yozishicha: "Sportning axloqiy da'volari, uni kurash maydoni sifatida qonunlashtiradi". Bu, Olimpiya harakati, Olimpizm va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi uchun juda to'g'ri.

Olimpiya harakati – Olimpiya xartiyasi rahbarligiga rozi bo'lgan tashkilotlar, sportchilar va boshqa odamlarni qamrab olgan falsafa va harakatni o'z ichiga olgan sportdagi noyob harakat hisoblanadi. A'zolikka qabul qilish uchun mezon bo'lib, XOQ hisoblanadi. "Olimpiya harakatining maqsadi – yoshlarni olimpizm g'oyalari va uning qadr-qimmatlari bilan mos ravishda sport vositasida tarbiyalash orqali tinch va ancha yaxshi dunyoni tuzishga ko'maklashish hisoblanadi".

Shunday qilib, Olimpiya harakati sport doirasidan chiqishga va butun jahonda tinchlikni va inson huquqlarini mustahkamlashga intiladi.

Olimpiya qadriyatlari ("Olimpiya o'yinlari" va "Olimpiada") tushunchalari ramz, bayroq, shior, gimn, emblema, mash'al kabi vositalarni qamrab olgan. Olimpiya qadriyatlariga egalik qilish hamda daromad olish uchun tijorat va reklama maqsadlarida foydalanish huquqlari faqat XOQga berilgan. Bu huquqlar qonun, jumladan, Olimpiya o'yinlarini tashkilotchi mamlakat tomonidan himoya qilinadi. Ramzlar, g'oyalar, afsonalar, konsepsiyalar va tarix muntazam tadbirlarni tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Eng

---

[52] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 31 p.

avval aniq an'analar o'ylab topilgan. O'yinlarda – bu ochilish marosimi, tayanch ritual ifodali jumlalar bilan ochilishi. G'oliblarga kumush medal va zaytun yaprog'i taqdim etilgan. Yugurish bo'yicha g'oliblarga – bronza medali va lavr yaprog'i berilgan. Tantanali taqdirlash marosimida milliy bayroqlar ko'tarilgan.

Kuberten "Tezroq, Balandroq, Kuchliroq" shiorini dominikan ruhoniysi Genri Didon 1891-yilda so'zlagan nutqidan olgan. O'yin ishtirokchilari tomonidan aytiladigan Olimpiya qasamyodi so'zlarini Kuberten 1906-yilda yozgan, lekin ular 1920-yilgacha ishlatilmagan. Olimpiya shaharchasi, olimpiya mash'ali va olimpiya estafetasi esa keyinroq paydo bo'lgan".[53]

Olimpiya ramzlari Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan va uning tashabbusi bilan Olimpiya o'yinlariga kiritilgan. Olimpiya ramzlaridan XOQ bugun dunyoda olimpiya g'oyalarini yanada keng targ'ib qilish maqsadida foydalanadi. Olimpiya ramzlarining mohiyati va huquqlari Olimpiya xartiyasida belgilangan. Olimpiya ramzlariga emblema, bayroq, madhiya, qasamyod, shior, mash'ala, medallar, talisman kiradi.

Olimpiya emblemasi – Olimpiya xartiyasining 8-moddasida olimpiya belgisi beshta olimpiya halqalaridan iborat, deb ko'rsatilgan. Olimpiya halqalarining rangi quyidagi tartibda bo'lishi shart: ko'k, qora, qizil, sariq va yashil. Bunda ko'k, qora va qizil rangli halqalar – yuqori qatorda, sariq va yashil rangli halqalar – pastki qatorda joylashgan (*4- rasm*). Halqalar bayroq bilan birga tasdiqlangan.



4-rasm. Olimpiya halqalari.

[53] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 32 p.

OLIMPIYA HALQALARINING RANGLARI	
Ko'k	Yevropa
Qora	Afrika
Qizil	Amerika
Sariq	Osiyo
Yashil	Avstraliya

5-rasm. Olimpiya halqalarining rangi.

1957-yildan XOQ qarori bilan halqalar qit'alarni ifodalagan. Olimpiya belgisi ramziy ma'noda jahonning beshta qit'asini bildiradi: ko'k – Yevropa, qora – Afrika, qizil – Amerika, sariq – Osiyo, yashil – Avstraliya *(5-rasm)*.

Olimpiya bayrog'i – oq rang 2x3m hajmdagi matodan bo'lib, uning o'rtasida beshta rangli olimpiya halqalarining tasviri bor (Olimpiya xartiyasi, 9-modda). Olimpiya bayrog'i 1913-yilda Kuberten tomonidan tavsiya qilingan, 1914-yilda XOQning sessiyasida tasdiqlangan va 1920-yilda VII yozgi Olimpiya o'yinlarida Belgiyaning Anverpen shahrida ilk bor ko'tarilgan (*6-rasm*).

6-rasm. Olimpiya bayrog'i.

Olimpiya shiori – (lotincha) ***"Citius, Altius, Fortius"*** – "Tezroq, Kuchliroq, Balandroq" so'zlarini ifodalaydi (Olimpiya xartiyasi, 10-modda). 1896-yilda Kuberten tomonidan shior kiritilgan.

Olimpiya shiori olimpiya harakatining barcha ishtirokchilariga qaratilgan bo'lib, insonlarni barkamolikka intilish va Olimpiya o'yinlari ruhini saqlashga chaqiradi. Olimpiya o'yinlarining norasmiy

shiori ham mavjud - "Olimpiya o'yinlarida asosiysi g'alaba emas, ishtirok etish!" Bu so'zlar IV Olimpiya o'yinlarida ingliz ruhoniysi nutqida aytilgan.

Olimpiya madhiyasi – XOQning 1958-yil Tokioda o'tkazilgan 55-sessiyasida tasdiqlangan va uning nota (partitura)lari XOQning shtab-kvartirasida saqlanadi. (Olimpiya xartiyasi, 12-modda). Olimpiya madhiyasi musiqiy asar bo'lib, Spiros Samaras tomonidan yozilgan.

Olimpiya mash'ali – XOQ rahbarligida Olimpiya shahrida quyosh nurlaridan yoqiladi. Olimpiya fakeli – XOQ tomonidan tasdiqlangan olimpiya olovini yoqish uchun mo'ljallangan uskuna. (Olimpiya xartiyasi, 13-modda). Olimpiya mash'ali birinchi marta 1928-yilda IX yozgi Olimpiya o'yinlarida Gollandiyaning Amsterdam shahrida yoqilgan. Olimpiya mash'ali estafeta orqali Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan shaharga olib kelinadi. Birinchi olimpiya estafetasi 1936-yilda XI yozgi Olimpiya o'yinlarida Germaniyaning Berlin shahrida o'tkazilgan.

Olimpiya medallari. Olimpiya medallari 1894-yilda I Olimpiya Kongressida ta'sis etilgan Olimpiya Xartiyasiga binoan oltin, kumush va bronza medallari eng yuqori natijani ko'rsatgan uch nafar sportchilarga, ya'ni 1, 2, 3 - o'rinlarga beriladi; 4, 5, 6- o'rinlarga olimpiya diplomlari beriladi. Oltin medalning asosi kumushdan bo'lib, ustiga 6 gr oltin suvi yuritilgan bo'ladi. Daslabki olimpiya medallarining diametri 60 mm, qalinligi 3 mm bo'lgan. (*7-rasm*).



7-rasm. Olimpiya medallari.

Bundan tashqari I Olimpiya o'yinlaridan boshlab Olimpiya kuboglari beriladi. Ular ayrim shaxlar yoki davlat arboblari tomonidan ta'sis etiladi. I Olimpiya o'yinlarida akademik Mishel Breal o'z Olimpiya kubogi mukofotini marafon musobaqalari g'olibiga bergan.

1975-yildan boshlab XOQ tomonidan xalqaro olimpiya harakatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan shaxslarga Olimpiya ordenlari beriladi. Olimpiya ordeni uch toifada – oltin, kumush, bronza bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A Karimov 1996-yilda "Olimpiya oltin ordeni" bilan taqdirlangan. 1998-yilda O'zbekiston MOQning sobiq prezidenti S.S. Ro'ziyev Olimpiya kumush ordeni bilan taqdirlangan.

Olimpiya qasamyodi. Sportchilarning Olimpiya qasamyodi 1920-yilda Antverpenda bo'lib o'tgan VII yozgi Olimpiya o'yinlarida kiritilgan. Olimpiya qasamyodining matnini Pyer de Kuberten yozgan.

Olimpiya qasamyodi hamma sportchilar nomidan Olimpiya o'yinlarini o'tkazadigan mamlakatning eng yaxshi sportchisi tomonidan ingliz yoki fransuz tilida beriladi. Hakamlarning Olimpiya qasamyodi 1968-yilda Meksikaning Mexiko shahrida XIX yozgi Olimpiya o'yinlarida kiritilgan. Olimpiya o'yinlarini o'tkazadigan mamlakatning eng yaxshi hakami tomonidan beriladi.

Olimpiya talismani 1968-yilda XIX yozgi Olimpiya o'yinlarida ilk bor kiritilgan. 1972-yilda XX yozgi Olimpiya o'yinlarida olimpiya talismani rasmiy tarzda tasdiqlangan. Har bir Olimpiada talismani o'yinlarga mezbonlik qilayotgan davlat tomonidan tanlanadi. Olimpiya o'yinlari talismani hayvonlar va boshqa narsalardan tanlab olinadi.

8-rasm. Pekin-2008 Olimpiya o'yinlarining talismani.

Masalan, Xitoyning Pekin shahrida 2008-yilda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarining talismani "Omad bolalari" deb nomlangan beshta o'yinchoqlar bo'lgan: baliq, panda, olov, sayg'oq (kiyik) va qaldirg'och *(8-rasm)*.

Olimpiya o'yinlarining an'anaviy marosimlari. Olimpiya o'yinlarining an'anaviy ochilish marosimlari olimpiya bayrog'i ko'tariladi va olimpiya madhiyasi yangraydi, olimpiya qasamyodi beriladi. Olimpiya o'yinlarini ochiq deb e'lon qilinishi mezbon davlatning Prezidenti tomonidan so'zlagan nutqining yakunida aytiladi. Olimpiya o'yinlari ishtirokchilarining tantanali chiqishini Gretsiya sport delegatsiyasi boshlab beradi, keyingi jamoalar alfavit bo'yicha chiqishadi. Olimpiya o'yinlarini yopilish marosimida olimpiya bayrog'i tushiriladi, XOQ Prezidenti tomonidan Olimpiya o'yinlarini yopiq deb e'lon qilinadi. Olimpiya o'yinlarining yakuniy paradida butun dunyo sportchilari birlashib, yagona jamoa bo'lib chiqadilar.

Olimpiya madaniyati – bu Olimpiya xartiyasi g'oyalari, olimpizm falsafasiga mos bo'lgan, inson tomonidan to'plangan bilimlar, me'yorlar, qadriyatlar, xatti-harakat namunalarining yig'indisidir. Uning asosida inson turmush tarzi va shaxsning yashash usuli shakllanadi. Ushbu bilimlar ta'lim va tarbiya orqali beriladi. Bunda pedagogik jarayonning insonparvarlik mohiyatiga katta e'tibor qaratish lozim.

Pedagogik jarayon mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

❖ Olimpiya o'yinlari, olimpiya harakati tarixi, olimpizmning gumanistik g'oyalari va qadriyatlari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish jarayoni;

❖ sportga bo'lgan qiziqish, sport mashg'ulotlariga bo'lgan talab, sportdagi natijaga, musobaqalarda g'alabaga erishishga bo'lgan intilishni shakllantirish jarayoni;

❖ aholini, ayniqsa bolalar va yoshlarni turli yo'nalishdagi jismoniy tarbiya, sport faoliyatiga jalb qilish.

Olimpiya madaniyatini shakllantirish usullari. Yoshlarni sport faoliyatiga nafaqat jalb qilish, balki ularni sportning insonparvar g'oyalarini, qadriyatlarini egallashga yo'naltirish lozim. Har bir sportchi, birinchi navbatda, o'zida o'z Vatani sharafini himoya qiladigan, halol kurashadigan, qo'pollik, ochko'zlik, kuch ishlatish, yovuzlik, ya'ni shaxsni, jamiyatni yemiruvchi hodisalarga qarshilik

ko'rsatadigan insonni tarbiyalashi lozim. Bunday vazifa olimpiya madaniyati qadriyatlarini egallash yo'li orqali hal etiladi, olimpizm falsafasini g'oyaviy asos sifatida o'z ichiga oladi. Uning zamirida chuqur tarixiy, ijtimoiy, falsafiy dunyoqarashlar ifodalangan.

Olimpiya madaniyatining ijtimoiy qadriyatlari jamiyat tomonidan tarixiy bilimlar, ijtimoiy-ruhiy me'yorlar, sport harakati, olimpizm, olimpiya harakati, Olimpiya o'yinlari ko'rinishida yaratilgan.

Olimpiya madaniyatining tarixiy qadriyatlari sport tarixi, olimpiya harakati genezisi to'g'risidagi bilimlar, sport, qadriyatlar, me'yorlar evolutsiyasi, olimpizm ma'nosi to'g'risidagi bilimlarning shakllanish tarixini o'z ichiga olgan.

Olimpiya madaniyatining tafakkur qadriyatlari sport faoliyatiga falsafiy yondashish, sportning insonparvarlik asoslarini ishlab chiqish, Olimpiya Xartiyasi g'oyalari asosida olimpiya harakatini rivojlantirishda ifodalangan.

Olimpiya madaniyatining kommunikativ qadriyatlari sportni muloqot vositasi, xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida yorqin namoyon bo'lib, sport faoliyatining baynalmilalligini aks ettiradi.

Olimpiya qadriyatlari Olimpiya o'yinlari ramzlarining mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalari orqali boyitiladi va takomillashadi.

Olimpiya ta'limi va tarbiyasi jarayonida ma'naviy tarbiya masalalariga yetarlicha e'tibor qaratmaslik sportchilarda mahmanlik, ochko'zlik, molparastlik kabi salbiy sifatlarining shakllanishiga olib keladi. Insonparvarlik tamoyillariga asoslangan olimpiya ta'limi sportchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Olimpiya ta'limida nafaqat tarixiy sanalar, faktlar, olimpiya rekordlari raqamlarini eslab qolish orqali bilimni egallashga, balki yoshlarni sportga faol jalb etish, ularda shaxsiy sport rekordlarini o'rnatishga bo'lgan intilishni rivojlantirish, birinchi navbatda, o'z ustidan g'alaba qozonishga o'rgatish zarur. Olimpiya tarbiyasiga bunday yondashish yuksak madaniyat, tafakkurga ega bo'lgan, ya'ni har tomonlama rivojlangan shaxslar bilan sportchilar qatorini to'ldirishga imkon beradi.

Olimpiya bilimlarini targ'ibot qilish vositalari. Targ'ibot – g'oya va bilimlarni tashuntirish, ommalashtirish tushunchasidan

olingan. Olimpiya bilimlarini targ'ibot qilish ishlarining asosiy maqsadi – jismoniy tarbiya, sport, sog'lom turmush tarzi, olimpiya sporti, olimpiya qadriyatlari to'g'risida maxsus bilimlarni keng tarqatib, insonlar, ayniqsa yoshlar ongida jismoniy tarbiya va sportga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat.

Olimpiya bilimlarini targ'ibot vositalari og'zaki, nashriy va ko'rgazmali shakllardan iborat. Targ'ibotning og'zaki shaklining asosiy vositalariga ma'ruza, suhbat, munozara, anjumanlar va uchrashuvlar kiradi. Targ'ibotning nashriy shaklining asosiy vositalariga gazeta, jurnallar, ommaviy risolalar, uslubiy tavsiyalar va kitoblar kiradi. Sport nashriyoti eng samarli targ'ibot vositalaridan hisoblanadi. Respublikamizda «Sport», «Futbol+» gazetalari hamda 2004-yildan buyon O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining «Fan-sportga» ilmiy-nazariy jurnali doimiy ravishda nashr qilinadi.

Olimpiya bilimlari targ'ibotining ko'rgazmali shakliga stendlar, fotovitrinalar, plakatlar, afishalar va h.k. kiradi. Ko'rgazmali targ'ibot shaklining eng muhim vositalariga sport musobaqalari, sport bayramlari, sport inshootlari va sport muzeylariga tashkil qilingan maxsus ekskursiyalar kiradi.

Hozirgi kunda olimpiya g'oyalarini targ'ibot qilishning yangi vositasi – sport tarixi va olimpiya muzeylari yaratilgan. Olimpiya va sport muzeylari – bu doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi informatsion targ'ibot muassasalaridir.

Birinchi Olimpiya muzeyi 1993-yil 23-iyunda X.A.Samaranch tashabbusi bilan Lozanna shahrida (Shveytsariya) tashkil qilingan. Lozannadagi Olimpiya muzeyi olimpiya harakati tarixining asosiy markazi hisoblanadi. Shu bilan birga olimpiya muzeyi Xalqaro olimpiya harakati o'tmishi va hozirgi davrini birlashtiruvchi samarali axborot-targ'ibot markazidir. Jahonning bir qator davlatlarida ham olimpiya muzeylari tashkil qilingan, jumladan: Saloniki Olimpiya muzeyi (Gretsiya), Lozanna Olimpiya muzeyi (Shveytsariya), Barselona Olimpiya-sport muzeyi (Ispaniya), Seul Olimpiya muzeyi (Koreya), va b.q.

O'zbekiston Olimpiya Shon-shuhrati muzeyi 1996-yil 1-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan tashkil topgan. Olimpiya Shon-shuhrati muzeyi faoliyatida turli targ'ibot vositalarining majmuasidan foydalaniladi.

Xulosalar

➢Olimpiya ta'limi masalalari Pyer de Kuberten tashabbusi bilan XOQning sessiyasida ilk bor muhokama qilingan.

➢Olimpiya ramzlari Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan va uning tashabbusi bilan Olimpiya o'yinlariga kiritilgan.

➢Olimpiya ramzlarining mohiyati va huquqlari Olimpiya xartiyasida belgilangan.

➢Hozirgi davrda olimpiya ta'limi tizimining tashkiliy tuzilmasi shakllangan.

➢Hozirgi kunda olimpiya g'oyalarini targ'ibot qilishning yangi vositasi – sport tarixi va olimpiya muzeylari yaratilgan.

Nazorat savollari:

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarida qadimgi olimpiya o'yinlarining qanday an'analari saqlanib qolgan?

Olimpiya harakatining asosiy tamoyillari qaysi hujjatda bayon etilgan?

Olimpiya o'yinlarining ramzlari kim tomonidan yaratilgan?

Olimpiya ramzlari va belgilari nimalardan iborat?

Olimpiya o'yinlarida qanday mukofotlar beriladi?

Olimpiya medalining hajmi va tarkibi qanday belgilangan?

Olimpiya madaniyati tushunchasiga nima kiradi?

Olimpiya madaniyati qadriyatlariga nimalar kiradi?

Olimpiya muzeylarining asosiy maqsadi nimadan iborat?

Zamonaviy Olimpiya harakatini targ'ibot qilishda qanday vositalar qo'llaniladi?

Eslab qoling!

Olimpizm – tana, iroda va ongning muvozanatlashgan bir butun qadr-qimmatini yuqori darajaga ko'taradigan va birlashtiradigan hayot falsafasidan iborat.

14-§. Olimpiya o'yinlari

Olimpiya o'yinlari – har 4 yilda bir marta XOQ rahbarligida o'tkaziladigan eng yirik xalqaro kompleks sport musobaqalaridir.

Yozgi Olimpiya o'yinlari – yozgi sport turlari bo'yicha har 4 yilda bir marta XOQ rahbarligida o'tkaziladigan xalqaro kompleks musobaqalaridir.

I yozgi Olimpiya o'yinlari 1896-yil 6–15 aprelda Afina shahrida (Gretsiya) bo'lib o'tgan. I yozgi Olimpiya o'yinlarida 14 mamlakatdan 295 nafar sportchi ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga 9 ta sport turlari: yengil atletika, gimnastika, suzish, og'ir atletika, yunon-rum kurashi, o'q otish, qilichbozlik, velosport va tennis kiritilgan. Bu o'yinlarda AQSH sportchilari yengil atletika bo'yicha yuqori natijalarni namoyish etganlar.

Garvard universitetining talabasi Jeyms Konnoli sakrash bo'yicha birinchi Olimpiya chempioni bo'lgan. Amerikalik Robert Garret disk uloqtirishda va yadro irg'itishda g'olib bo'lgan, uzunlikka sakrashda ikkinchi va balandlikka sakrashda uchinchi o'rinni egallab, barchaning e'tiborini qozonishga sazovor bo'lgan. Qiziqarli tomoni shundaki, Robert Garret umrida disk uloqtirmagan, faqat o'yindan uch kun oldin mashq qilib o'rgangan. Uning tabiiy qobiliyati va sportdagi yutuqlari chempion bo'lishga sabab bo'lgan. Germaniya sportchisi Karl Shuman yunon-rum kurashi bo'yicha 4 ta oltin medalga sazovor bo'lgan. Gretsiyalik marafonchi Spiridon Luis Olimpiada o'yinlarining qahramoni bo'lgan. Gretsiya sportchilari otish va qilichbozlik bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishganlar.

Gretsiya qiroli Georg I Olimpiya o'yinlarining g'oliblariga medallarni taqdim etgan. Birinchi o'rin uchun kumush medallari, ikkinchi o'rin bronza medallari, zaytun novdalari berilgan. Marafon yugurishini dasturga kiritishni tavsiya etgan akademik Mishel Breal uning g'olibi Spiridon Luisga Olimpiya kubogini taqdim etgan. Taqdirlash marosimidan so'ng atletlar olimpiya madhiyasi sadolari ostida stadiondan tantanali yurib o'tgan edilar. 1896-yildan boshlab Olimpiya o'yinlari g'oliblari sharafiga davlat madhiyasi ijro etilib, davlat bayrog'i ko'tarish an'anasi kiritilgan.

"1896-yili Afinada 12 ta mamlakatdan kelgan 81 nafar sportchi va Gretsiyadan sportning 9 ta turi bo'yicha 43 ta musobaqalarda ishtirok etgan 230 nafar sportchi ishtirok etgan. O'yinlar tarkibiga,

1894-yilgi Kongressdan keyinroq fransiyalik faylasuf Maykl Bril tomonidan o'ylab topilgan marafon kiritilgan (Derri, sanasi yozilmagan). Sportning 9 ta turi bo'lgan: velosiped, qilichbozlik, gimnastika, tennis, o'q otish, suzish, yengil atletika, og'ir atletika va qo'l jangi. Shunday qilib, o'yinlarning o'zi va ularni tashkil qilinishi deyarli to'liq yevropalik bo'lgan, lekin Kuberten bunday shou boshqa joylarga ko'chirilishi tarafdori bo'lgan. Kuberten yunonlar o'yinlarni tashkil qilishlari mumkinligini kutmagan, lekin Dimetrius Vikelas tomonidan bu masalani hal qilish mumkinligiga ishontirgan. Yunonlar bir marta o'yinlarni tashkil qilishgan va ular Kubertenni chekkaga chiqarishga urinishgan. Kuberten, taklif qilingan ishtirokchi bo'lmagani uchun xafa bo'lgan. U, rasmiy hisobotda bir marta qayd qilingani uchun o'zini chetda qolgan deb his etgan va javob choralarini ko'rgan, Olimpiadani o'zining bolasi sifatida yangi sanoq boshlaganini e'lon qilgan: "Men, o'zimning otalik huquqim to'g'risida ma'lum qilish uchun ovozimni baland ko'taraman". Yunon qiroli o'yinlar doimiy ravishda Yunonistonda o'tkazilishini xohlagan va Kuberten umumyunon Olimpiya o'yinlarini o'tkazilishi joylarini ajratish uchun bor diplomatik iste'dodi va malakasini ishlatishiga to'g'ri kelgan. Kezi kelganda aytish kerakki, bu, faqatgina 1906-yili amalga oshirilgan".[54]

I yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari bo'yicha umumjamoa hisobida 1- o'rinni Gretsiya (10-17-19), 2- o'rinni AQSH (11-7-2), 3- o'rinni Germaniya (6-5-2) egallagan.

II yozgi Olimpiya o'yinlari 1900-yil 14-may – 13-sentabrda Parij shahrida (Fransiya) o'tkazilgan. Bu o'yinlar Pyer de Kuberten vatanida tashkil etilgan. Olimpiya o'yinlariga 24 davlatdan 1225 nafar (ulardan 22 nafari ayol) sportchilar ishtirok etgan. O'yinlarni o'tkazish uchun tashkiliy qo'mita tuzilib, uning birinchi majlisi 1898-yil 29-mayda bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlari Jahon badiiy ko'rgazmasi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan va bu holat o'yinlar ahamiyatini pasaytirgan. Sport musobaqalari uchun maxsus sport inshootlari qurilmagan.

Olimpiya musobaqalari 20 ta sport turi bo'yicha 95 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Amerikalik yengil atletikachilar Elvin Krenslayn (4 ta oltin), Rey Yuri (3 ta oltin) yugurish va sakrash

---

[54] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 83 p.

bo'yicha eng yaxshi natija ko'rsatib, Olimpiya o'yinlari qahramoni bo'lganlar. Olimpiya o'yinlarida ilk bor ayollar 1900-yildan boshlab ishtirok etgan. Tennis bo'yicha Sharlotta Kuper, golf bo'yicha Margaret Ebbot, Polin Uitter va Darya Prett ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni unvoniga sazovor bo'lganlar. II yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – Fransiya (26-41-34), 2-o'rin – AQSH (19-14-14), 3-o'rin – Buyuk Britaniya (15-6-9)

III yozgi Olimpiya o'yinlari 1904-yil 1-iyul–29-oktabrda Sent-Luis shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida 13 ta davlatdan 689 nafar (ulardan 6 nafar ayol) sportchilar ishtirok etgan. Bu Olimpiada Amerika qit'asida bo'lganligi sababli juda kam sportchilar qatnashgan. Yevropa, Osiyo va Avstraliya ko'p jamoalari moddiy qiyinchiliklar tufayli ishtirok etmagan. Olimpiya o'yinlari Jahon texnik ko'rgazmasi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan va o'yinlar ahamiyatini pasaytirgan, chunki tomoshabinlar ko'proq ko'rgazma bilan qiziqqan edi.

Olimpiya o'yinlarida 18 ta sport turidan 94 ta medallar komplekti uchun musobaqalar o'tkazilgan. Eng yaxshi sport natijalarini amerikalik yengil atletikachilar Rey Yuri, Archi Xan, gimnastika bo'yicha Anton Xeyda (5 ta oltin), Jorj Eyser (3 ta oltin), velosport bo'yicha Markus Xarli (4 ta oltin) ko'rsatgan edi. 1904-yildagi Olimpiya o'yinlaridan boshlab g'oliblarga oltin, kumush va bronza medallar berish an'anasi kiritilgan. III yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – AQSH (78-82-78), 2-o'rin – Germaniya (4-4-5), 3-o'rin – Kuba (4-2-3).

IV yozgi Olimpiya o'yinlari 1908-yil 27-aprel – 29-oktabrda London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 22 ta davlatdan 2035 nafar (ulardan 37 nafar ayol) sportchilar ishtirok etgan. Musobaqalar 22 ta sport turi bo'yicha 110 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Dasturga ilk bor chim ustida xokkey kiritilgan. Qirol Eduard VII ning talabiga ko'ra marafon yugurish masofasi 40 km 23 m dan 42 km 195 mga uzaytirilgan, chunki qirolning oilasi Vindzor qal'asi balkonidan marafon startini ko'rishni istagan. Keyingi o'yinlar dasturlarida 42,142 km klassik marafon masofasi bo'lib qolgan.

Londonda sport musobaqalari uchun 70 ming o'rinli stadion, 100 metrli suzish havzasi, velotrek va boshqa maxsus sport inshootlari qurilgan. Bu davrda London shahrida muz ustida uchish maydoni

bo'lganligi uchun Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor qishki sport turi konkida figurali uchish kiritilgan. Sport musobaqalari davomida yuqori sport natijalari ko'rsatilib, yengil atletika bo'yicha 3 ta jahon, 13 ta olimpiya rekordlari, suzish bo'yicha 6 ta jahon va olimpiya rekordlari o'rnatilgan. Angliya sportchisi Genri Teylor suzish bo'yicha 3 ta oltin medalga sazovor bo'lib, Olimpiya o'yinlarining qahramoniga aylangan.

1908-yildagi Olimpiya o'yinlaridan boshlab g'oliblarni norasmiy jamoa ochko hisobi bo'yicha aniqlash qoidasi kiritilgan. O'yinlar davrida ingliz ruhoniysi Etel'bert Talbot tomonidan "Eng asosiysi g'alaba emas, ishtirok etishdir" so'zlari aytilgan. IV yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – Buyuk Britaniya (56-51-39), 2-o'rin – AQSH (23-12-12), 3-o'rin – Shvetsiya (8-6-11).

V yozgi Olimpiya o'yinlari 1912-yil 5-may – 22-iyulda Stokgolm (Shvetsiya) shahrida bo'lib o'tgan. O'yinlarda 28 ta davlatdan 2547 nafar (ulardan 37 nafar ayol) sportchilar ishtirok etgan. Musobaqalar 14 ta sport turi bo'yicha 109 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Musobaqalar uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan "Qirol" stadioni qurilgan. Olimpiya o'yinlarining eng yaxshi sportchisi deb, amerikalik hindu Jim Torp tan olingan. 1912-yildagi Olimpiya o'yinlaridan boshlab Olimpiya o'yinlarining ochilish va yopilish marosimlari kiritilgan. Bu Olimpiya o'yinlarida oxirgi marta sof oltin medallar berilgan. V Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor san'at tanlovi kiritilgan. Pyer de Kuberten san'at tanlovida Martin Eshbax va Jorj Xoxrod taxalluslari ostida ishtirok etgan va "Sport madhiyasi" she'ri uchun oltin medal bilan taqdirlangan.

V yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – Shvetsiya (24-24-17), 2-o'rin – AQSH (25-19-19), 3-o'rin – Buyuk Britaniya (10-15-16).

1896–1912-yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- I yozgi Olimpiya o'yinlari dasturiga ayollar sporti kiritilmagan.
- Olimpiya o'yinlari dasturida yozgi va qishki sport turlari bo'lgan

- sportchilarni va sport rekordlarini ro'yxatga olish bo'yicha tashkiliy hay'at tuzilmagan.
- Olimpiya o'yinlari jihozlanishi past darajada bo'lgan: maxsus sport inshootlari yetishmagan.
- Olimpiya shaharchasi, sportchilarning yetib kelish sanasi va o'yinlar vaqtidagi aniq jadvallar bo'lmagan.
- I–V Olimpiya o'yinlarida faqat mezbon davlat jamoasi g'olib bo'lgan.

"Dastlabki bosqichdagi zamonaviy Olimpiya o'yinlari: 1896–1904-y.y." 1896-yilda Afinada o'tkazilgan birinchi Olimpiya o'yinlari tizimsiz va ko'rimsiz bo'lgan. Ular kam sonli ishtirokchilari, kuchsiz reklamasi bilan Yevropa matbuotida deyarli yoritilmagan. 1894-yil Parijdagi Olimpiya Kongressida o'yinlarga qadar 13 ta davlat vakillari qatnashgan, 21 ta mamlakat yozma ravishda roziligini yuborgan, lekin faqat 12 ta davlat Afinada ishtirok etgan (AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Fransiya, Daniya, Gretsiya, Shvetsiya, Shveysariya, Bolgariya, Vengriya va Chili). Olimpiadaga to'qqizta sport turi kiritilgan: velosiped sporti, qilichbozlik, gimnastika, katta tennis, o'q otish, suzish, yengil va og'ir atletika, qo'l jangi. Sportchilar asosan yevropalik bo'lgan, Kuberten Olimpiya "shou"lari boshqa mamlakatlarda ham o'tkazilishi tarafdori bo'lgan.

1900-yil Parijda Olimpiya o'yinlari Butunjahon ko'rgazmasi sababli ikkinchi darajali bo'lib qolgan. Dastlab o'yinlar ikkinchi darajali voqea hisoblanib, "Ko'rgazma doirasidagi musobaqalar" sifatida reklama qilingan edi.

Yirik stadionlar izini ham topib bo'lmas edi, chunki asosiy stadionning o'zi yo'q edi – yengil atletika sport turlarining ko'p qismi Bulon o'rmonining dalalarida, suzish bo'yicha musobaqalar esa – Sena daryosida o'tkazilgan.

Uchinchi Olimpiada Butunjahon ko'rgazmasining bir qismi sifatida 1904-yil Sent-Luisda tashkil qilingan, Luizian savdo ko'rgazmasi sifatida tanilgan.

London Rimning voz kechganidan so'ng 1908-yilda Olimpiya o'yinlarini o'tkazish joyi bo'lgan. 1904-yilda Londonda o'tkazilgan XOQ sessiyasida 1908-yilda Olimpiya o'yinlari Rimda o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan edi.

Birinchi marta ko'rgazma o'tkazish tashabbusi fransuz Savdo palatasi va London Lord-meridan kelib chiqqan, Fransiya va Angliyaning

maqsadi o'zlarining sanoat yutuqlarini namoyish qilishdan iborat bo'lgan.

1908-yil stadionda yugurish va velosiped yo'laklari, ochiq suv havzasi va futbol, xokkey, regbi va laskross uchun maydonlar bo'lgan, stadion 93 000 tomoshabinlarni sig'dirgan.

1904-yilgi antropologiya kunlari. Anglo-amerikaliklar uchun Sent-Luis boshqalarning «ibtidoiy» tabiati ustidan ustunligi to'g'risida xabar qilgan joy bo'lgan. Ular, Yaponiyadan Ainus, Patagoniyadan Ehuelche hindulari, Markaziy Amerikadan pigmeylar, Filippinda hosil bo'lgan ko'p sonli etnik guruhlar va mahalliy amerikaliklar vakillari bo'lgan ko'pchilik boshqa qabilalar bo'lgan. Ushbu antropologiya kunlarini targ'ibot qilish maqsadida apachi qabilasining afsonaviy sardori bo'lgan Djeronimoni kelishga ishontirishgan.

Bu, «yot odamlar» odatiy o'tkaziladigan musobaqalarda hamda loydagi kurash va sirpanchiq ustun bo'ylab ko'tarilish kabi yangi turlarda bellashganlar. Pushti provinsiyadagi universitetning ikki nafar qora tanli talabalari Len Tau va Yan Mashiani Janubiy Afrikalik birinchi olimpiyachilar bo'lishgan. Lekin, ular to'g'risida «yovvoyi-zuluslar» sifatida e'lon qilingan va ular, Antropologiya kunlarida o'tkazilgan musobaqalardagina ishtirok etgan.[55]

Umumjahon ko'rgazmasining Antropologik bo'limi boshlig'i V.Dj. Makgi xabar bergan: «Umumjahon ko'rgazmasining Antropologik bo'limining maqsadi – odamlar jamiyatining progressini qora tanlilardan toki inson ma'rifatiga qadar, ibtidoiylikdan to fuqarolik tashkilotigacha, egoizmdan to altruizmgacha taqdim qilishdan iborat».

Antropologiya kunlari ishtirokchilarining ichida Qo'shma shtatlardan krou, siu, pauni, navaxo va chippeva; Yaponiyadan aynu; Meksikadagi pastki kaliforniyadan sosora; ikki nafar «Beyrutlik suriyalik»lar; Janubiy Amerikalik paiagonlar, Afrikaning zuluslari va pigmeylari va Filippindan – moro, negritos va Igorots qabilalarining vakillari bo'lishgan. Yana bir afrikalik Teobang, oddiygina qilib, kannibal sifatida bayon qilingan.[56]

---

[55] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 88 p.

[56] O'sha kitob, 2012.- 88 b.

VI yozgi Olimpiya o'yinlari (1916-y.) Birinchi Jahon urushi sababli o'tkazilmagan.

VII yozgi Olimpiya o'yinlari 1920-yil 20-aprel–12-sentabr kunlari Antverpen shahrida (Belgiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga 29 ta davlatdan 2669 nafar (69 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlariga Germaniya kiritilmagan, chunki bu davlat I Jahon urushi sababchisi bo'lgan. Sovet davlati Olimpiya o'yinlarida sovet Milliy Olimpiya qo'mitasi XOQ tomonidan tan olinmaganligi sababli ishtirok etmagan. VII Olimpiya o'yinlarida birinchi marta olimpiya bayrog'i ko'tarilgan va sportchilarning olimpiya qasamyodi kiritilgan. Belgiyaning eng yaxshi sportchisi Viktor Boen olimpiya qasamyodini aytish sharafiga ega bo'lgan. Olimpiya bayrog'i Pyer de Kuberten tomonidan 1913-yilda tavsiya etilib, 1914-yilda XOQning 20 yilligiga bag'ishlangan Kongressda tasdiqlangan edi.

Sport musobaqalari 26 ta sport turi bo'yicha 154 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Olimpiya musobaqalari natijalari bo'yicha Finlandiya sportchisi Paavo Nurmi yengil atletikaning 10 000 m va kross yugurish masofalarida 3 ta oltin va 1 ta kumush medallarga ega bo'lib, Olimpiada qahramoni, deb tan olingan.

VII yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari: 1-o'rin – AQSH (41-27-27), 2-o'rin – Shvetsiya (19-20-25), 3-o'rin – Buyuk Britaniya (16-15-13).

VIII yozgi Olimpiya o'yinlari 1924-yil 5–27-iyul kunlari Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga 44 ta davlatdan 3092 nafar sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida 17 ta sport turlari bo'yicha 126 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Sport musobaqalarida yengil atletika bo'yicha 8 ta jahon va 14 ta olimpiya rekordlari, suzish bo'yicha 4 ta jahon va 11 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan edi.

Finlandiya sportchisi Paavo Nurmi yugurish bo'yicha 5 ta oltin medalga sazovor bo'lgan. Paavo Nurmi 1921–1929-yillar oralig'ida 1500 m dan 20 km gacha yugurish masofalari bo'yicha 29 ta jahon rekordlarini o'rnatgan. Amerikalik Jonn Vaysmyuller suzish bo'yicha 3 ta oltin medalga, fransiyalik Roje Dyukre qilichbozlik bo'yicha 5 ta medalga (3 tasi oltin) sazovor bo'lgan.

1924-yildan boshlab sport musobaqalari natijalarini norasmiy jamoa ochko hisobi asosida aniqlash qoidasi kiritilgan, ya'ni oltita sovrinli o'rinlar uchun ochko belgilangan: birinchi o'rin – 7 ochko,

ikkinchi o'rin – 5 ochko, uchinchi o'rin – 4 ochko, to'rtinchi o'rin – 3 ochko, beshinchi o'rin– 2 ochko, oltinchi o'rin – 1 ochko. Bu o'yinlarda ilk bor olimpiya shiori – "Citius, Altius, Fortius" – "Tezroq, Balandroq, Kuchliroq" so'zlari yangragan. Bu o'yinlar Kuberten rahbarligida o'tkazilgan oxirgi Olimpiya o'yinlari bo'lgan.

VIII (yozgi) Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – AQSH (45-27-27), 2-o'rin – Fransiya (13-15-10), 3-o'rin - Finlandiya (14-13-10).

IX yozgi Olimpiya o'yinlari 1928-yil 17-may – 12-avgust kunlari Amsterdam shahrida (Gollandiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga 46 ta davlatdan 3014 nafar (277 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. 1928-yildan boshlab olimpiya mash'alasini yoqish an'anasi kiritilgan. Zamonaviy Olimpiya o'yinlari mash'alasi Gretsiyaning Alfey daryosi *vodiysidagi Kronos tog'i yonida yoqiladi va Olimpiya o'yinlari* o'tkaziladigan shaharga keltiriladi. Olimpiya o'yinlari ochilish marosimida tinchlik ramzi sifatida ilk bor oq kabutarlar uchirilgan.

Olimpiya o'yinlarida 14 ta sport turlari bo'yicha 109 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Jonni Vaysmyuller (AQSH) suzish va Paavo Nurmi (Finlyandiya) yengil atletika bo'yicha ikkinchi marta olimpiya chempioni bo'lganlar. IX yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – AQSH (22-18-16), 2-o'rin – Germaniya (10-7-14), 3-o'rin – Finlandiya (8-8-9).

X yozgi Olimpiya o'yinlari 1932-yil 30-iyul – 14-avgust kunlari *Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan.* O'yinlarga 37 ta davlatdan 1408 nafar (126 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida Xitoy va Kolumbiya sportchilari ilk bor qatnashgan. Olimpiya o'yinlarida 17 ta sport turlari bo'yicha 116 ta medallar komplekti uchun musobaqalar o'tkazilgan. O'yinlar davomida 116 ta olimpiya va 21 ta jahon rekordlari o'rnatilgan. Bunda Yaponiya sportchisi Kusuo Kitamura 14 yoshida 1500 m masofaga suzish bo'yicha ko'rsatgan natijasi (19.12.4.) keyingi 20 yil mobaynida o'zgarmagan. Shvetsiya sportchisi Karl Vestergren sport kurashi bo'yicha uch karra (1920,1924,1932) olimpiya chempioni unvoniga sozovor bo'lgan. *Eng ko'p olimpiya rekordlari suzish* (36 ta) va yengil atletika (54 ta) sport turlarida o'rnatilgan. Bu o'yinlarda g'olib sportchilarni podiumga chiqarib taqdirlash an'anasi kiritilgan. Los-Anjeles shahrida sportchilar uchun 700 ta turar uy-joylari qurib

berilgan va keyingi davrlarda olimpiya shaharchalarini barpo etish an'anaga aylangan.

X yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – AQSH (41-32-30), 2-o'rin – Italiya (12-12-12), 3-o'rin – Fransiya (10-5-4).

XI yozgi Olimpiya o'yinlari 1936-yil 1 – 16-avgust kunlari Berlin shahrida (Germaniya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga 49 ta davlatdan 4066 nafar (328 nafar ayol) sportchi tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida Afg'oniston, Bermud, Boliviya, Kosta-Rika va Lixtenshteyn sportchilari ilk bor qatnashgan.

Olimpiya o'yinlari davomida Adolf Gitler targ'ib etgan irqchilik va millatchilik siyosati yaqqol ko'zga tashlanib turgan. Germaniya natsional-shovinistlari tomonidan Osiyo, Afrika qit'alari vakillari, yahudiylar, turli mamlakatlardan kelgan negr irqiga mansub sportchilar kamsitilgan. Shunga qaramasdan, AQSH sportchisi Jeyms Ouens yengil atletika bo'yicha 4 ta oltin medallarga sazovor bo'lib va 4 ta olimpiya rekordlarini o'rnatib, Olimpiada qahramoniga aylangan. AQSH terma jamoasining yana 10 nafar qora tanli sportchilari 11 medallarni (ulardan 6 ta oltin) egallashga muvaffaq bo'lganlar.

Olimpiya o'yinlarida 19 ta sport turlari bo'yicha 129 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Olimpiya dasturi basketbol, gandbol, baydarkada eshkak eshish sport turlari bilan to'ldirilgan. XI yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – Germaniya (33-26-30), 2-o'rin – AQSH (24-20-12), 3-o'rin – Vengriya (10-1-5).

1920 -1936-yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- Olimpiya o'yinlarida birinchi marta olimpiya bayrog'i ko'tarilgan va sportchilarning olimpiya qasamyodi kiritilgan.
- ilk bor olimpiya shiori - "Citius, Altius, Fortius" yangragan.
- Qishki olimpiya o'yinlari alohida o'tkazila boshlagan.
- olimpiya mash'alasini yoqish an'anasi kiritilgan.
- Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari va sportchilar uchun ilk bor maxsus olimpiya shaharchasi qurilgan.

"Urushlar oralig'ida: kommunizm va fashizm. Germaniya, Rossiya, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida 1914-yilga kelib taranglikning ortishi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga ta'sir ko'rsatdi,

Berlin 1916-yilgi Olimpiya o'yinlarining poytaxti sifatida tanlangan edi. Birinchi jahon urushi boshlanganida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Buyuk Britaniyalik a'zosi Teodor Kuk nemis ishtirokchilarini chiqarib tashlanishini talab qilgan va bu talab rad qilinganida, u iste'foga chiqqan. Undan farqli o'laroq, Kuberten Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini himoya qilishga qaror qilgan va uning shtab-kvartirasini neytral shveysariyaga o'tkazgan, u, hozirgi vaqtda ham o'sha yerda joylashgan.

1920-yilning o'yinlarini Antverpenda o'tkazishga qaror qilingan, bunda, Belgiya urushning birinchi qurboni bo'lganligi hisobga olingan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tashkiliy qo'mita nomiga taklifnoma yuborib, o'zining shaxsiy siyosatini o'tkazgan va Germaniya 1920-yilgi va 1924-yilgi o'yinlarga taklif qilinmagan.

Uning, nozik sozlangan xalqaro diplomatiyani his qilishi, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi yuzaga kelayotgan mamlakatlarning talablarini, ularni o'yinlarda ishtirok qilishlari to'g'risida qaror qabul qilishi bilan qayd qilishga moyillik ko'rsatgan. 1940-yilda bekor qilingan o'yinlar Tokioda o'tkazilishi kerak bo'lgan, Xitoyning iqtisodiy dinamizmi va siyosiy ahamiyatining ortishi, oxir oqibatda, 2008-yilgi o'yinlar bilan taqdirlangan. 2016-yilgi Olimpiya o'yinlari Rioda o'tkazildi va keyingi 30-yilda Olimpiya o'yinlarini Janubiy Afrikada va Hindistonda o'tkazilishi mantiqan to'g'ri bo'lar edi. Shuni ham aytish lozimki, 1916-yili Berlinda ham va 1940-yili Tokioda ham o'yinlar taklif qilingan tashkilotchi mamlakatlar jalb qilingan, jahondagi konfliktlar tufayli o'tkazilmagan. Ikkita katta urushlardan keyin tashkiliy qo'mitalar g'oliblarning g'azabiga javob berishgan, siyosiy xushmuomalalikni namoyon qilishgan va mag'lub bo'lgan mamlakatlar taklif qilinmagan.

Olimpiya o'yinlari, dastlabki yillarda, o'yinlarning baynalmilalchilik va milliy jihatlari marosimlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan an'analarni yaratishi bilan qiziqarli misol bo'lgan. 1920-yili olimpiya qasamyodini va olimpiya bayrog'ini qabul qilish marsoimi kiritildi. Har safar har xil bo'lgan Olimpiya madhiyasi Rimdagi Olimpiya o'yinlariga qadar qo'llanilgan, ulardan keyin 1960-yilgi versiyasi doimiy olimpiya madhiyasi bo'lib qoldi. Birinchi Olimpiya shaharchasi Parijdagi 1924-yilgi o'yinlar uchun qurilgan. 1924-yilgi o'yinlar Parijda o'tkazilishi

to'g'risida qaror qabul qilinganida, arxitektor "jahonda eng chiroyli stadion" loyihasini taklif qilgan. [57]

Birinchi olimpiya olovi 1928-yili stadionda yoqilgan, olimpiya olovi estafetasi 1936-yili kiritilgan. Olimpiya qasamyodi tarang holat to'g'risida aniq tasavvurni beradi, uni xalqaro guruhdan barcha ishtirokchilar nomidan aytishadi va shunga qaramasdan, u, ularni "bizning mamlakatimiz sharafi uchun va sportning shon-shuhrati uchun" musobaqalashishga majbur qiladi. Milliy jihati taqdirlash marosimini yaratilishi, milliy bayroqlarni ko'tarilishi, davlat madhiyalarini ijro etilishi va ochilish marosimida milliy terma jamoalar tarkibida tantanali yurish bilan yuzaga kelgan. Baynalmilalchilikka nisbatan impuls yangi mamlakatlarni uzluksiz to'plashga olib keldi, shu bilan birga, milliy raqobat va siyosiy jihatdan tarang bo'lgan munosabatlar ayrim mamlakatlarni chiqarib yuborilishi mumkinligini anglatadi.

Kommunistik Rossiya 1920-yilgi O'yinlarga taklif qilinmagan. Birinchi jahon urushi uchun mas'ul bo'lgan mamlakatlarga mas'uliyat yuklatilgan va ular ishtirok etishdan chetlatilgan va shu tufayli, Germaniya, Avstriya, Bolgariya, Vengriya va Turkiya mamlakatlarining sportchilari kuzatuvchilar statusiga o'tkazilgan. Germaniya 1928-yilga qadar readmissirlanmagan.

O'yinlar 1932-yilgi Los-Andjlesdagi o'yinlarda ishtirok etgan mamlakatlarning kamayishiga qaramasdan, urushlar oralig'idagi davrda ortishida davom etgan. Urushdan keyingi yillardagi Yevropadagi davr, Birinchi jahon urushi g'oliblari tomonidan amalga oshirilgan yomon o'ylangan tartibga solish, fashizmni yuzaga kelishi va sho'rolar kommunizmini o'rnatilishi bilan bog'liq holda, siyosiy nostabillik bilan tavsiflanadi. Veymar respublikasini parchalagan, boshqarib bo'lmaydigan inflatsiyadan, Nyu-York fond birjasida 1929-yili qimmatli qog'ozlarning kursini halokatli pasayib ketishidan to 1930-yillardagi Depressiyagacha kelib chiqqan moliyaviy inqirozlar nostabillikning ortishiga ko'maklashgan. Axloq sohasida ijtimoiy revolutsiya sodir bo'ldi, zodagonlarga kamroq darajadagi hurmat bilan munosabat paydo bo'ldi va ayollarning emansipatsiyasi tezlashdi.

---

[57] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 113 p.

Ushbu davrda Olimpiya harakati hozirgi vaqtgacha ishchilarning sport harakatini eng ahamiyatli bo'lgan muammosi bilan to'qnashdi va uning obro'siga birinchi marta 1936-yili dog' tushirildi. Berlin 1936-yil: «Fashistlar o'yinlari». Millatchilik Olimpiya marosimlariga kiritilib bo'lgan bo'lsada, 1936-yilgi O'yinlar "natsistlar Olimpiya o'yinlari" sifatida nom olib, milliy hokimiyatni yangi dramatik darajagacha dolzarblashtirgan.[58]

1936-yilgi o'yinlar olimpiya harakatining baynalmilallikka tinchlikka intilishi milliy hokimiyatning va u bilan bog'liq bo'lgan realliklarga qarshi turishga majbur bo'lgan. Natsistlarni hokimiyat teppasiga kelishi, nemis yahudiylariga bo'lgan munosabat tufayli, butun dunyoda ortib borayotgan xavotirlik paytida sodir bo'lgan. Xart-Deyvis (1986) ning ta'kidlashicha, o'yinlar paytida Germaniya, to'g'ri jamiyat ekanligi to'g'risida fikr uyg'otishga uringan, lekin 1933-yildan buyon barpo qilingan konsentratsion lagerlar to'g'risida AQSH va Buyuk Britaniyaning elchilari o'z hukumatlariga alohida muhim bo'lgan axborot jo'natayotganliklari to'g'risida barchaga ma'lum edi va bu, yetarlicha jiddiy qabul qilinmagan. Bu, umumiy tarzda, 1933-yildan boshlab yahudiylarni tashkillashtirilgan sportdan sekin-asta chiqarib yuborilgan usullarni ko'rsatgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bunday hodisalarni bo'lmasligiga va'da olishga uringan va nemislar olimpiya tamoyillariga rioya qilishlarini, lekin antisemistcha sport siyosatini to'liq o'zgartirish niyatida emasliklarini aytishgan. Berlin o'yinlari, ayrim paytlarda ta'kidlanishicha, oddiygina targ'ibot platformasi sifatida qo'llanilgan, haqiqatda esa, natsistlar hokimiyati o'yinlar paytida, ular amalga oshirayotgan mafkuraviy g'oyaning haqiqiy xarakterini niqoblash uchun barcha vositalardan foydalanishgan.

Bunga qaramasdan, buyuk nemis millatining qudratini ko'klarga ko'tarish bo'yicha umumiy xohish, olimpiya olovi estafetasini kiritilishi bilan o'yinlarning taqdim etilishini o'zgartirgan. Berlindagi Olimpiya o'yinlarining tashkilotchisi Karl Diyemni qadimgi Gretsiyaga akademik qiziqishi bo'lgan va doriylar arxitekturasini yaxshi ko'rgan Gitlerdan qo'llab-quvvatlanishga erishgan. Olimpiya

---

[58] John Horne, Garry Whannel Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 113 p.

olovi estafetasi qadimgi yunonlar ildiziga qaytish sifatida afsonalashtirilgan.[59]

Qadimgi yunonlar haqiqatan ham estafeta yugurishining bosqichlarini o'tkazishgan bo'lib, unda, ular mash'alalar ko'tarib yurishgan, lekin buni, ular Olimpiya o'yinlari munosabati tufayli amalga oshirishganligi to'g'risida dalolat yo'q. Diyem, qadimgi idishlardagi rasmlarda kelib chiqqan holda, estafetani taklif qilgan. Gitler, Uchinchi reyx Olimpiyadagi joriy arxeologik qazishlarga homiylik qilishi kerakligiga ishongan. Kuberten g'oyani qo'llab-quvvatlagan, chunki bu, qadimgi va zamonaviy o'yinlar o'rtasidagi aloqani qonunlashtirishga yordam berishi mumkin edi. Nemis qurollari ta'minotini amalga oshirgan Krupp mash'alalarni yaratgan va yetkazib bergan. Natsistlar madhiyasi «Xorst Vessel'» olov yondirilgan paytda, qadimgi Olimpiyada ijro etilgan.

1936-yilda Olimpiyada olovini yondirish marosimida Kubertenning "kulgili uzun" nutqi qo'yib eshittirilgan. Kubertenni natsistlar sovg'a-salom berganidan keyin qo'rqitishgan, deb taxmin qiladi. Qariyotgan Kuberten o'zining oxirgi xabarida "ulkan o'yinlarni" maqtagan, uning ta'kidlashicha, ular Olimpiya idealiga juda yaxshi xizmat qiladi. O'yinlar texnika darajasida katta muvaffaqiyatga ega bo'lsada, u, o'zining tinch baynalmilallikka intilishi bo'lgan olimpiya harakati uchun faxrlanish momenti bo'lmagan. Olimpiya o'yinlari, bu vaqtga kelib, soddalashtirilgan va siklik marosim sifatida o'rnatilgan bo'lib, ularni bekor qilinishi, jahondagi konflikt diplomatik munosabatlarni dramatik uzilishigi olib kelganligini belgilagan. Tokioda 1940-yili o'tkazilishi va 1944-yili Xelsinkida o'tkazilishi belgilangan Olimpiya o'yinlari o'tkazilmagan."[60]

- **XII yozgi Olimpiya o'yinlari (1940) va**
- **XIII yozgi Olimpiya o'yinlari (1944) Ikkinchi jahon urushi sababli o'tkazilmagan.**

XIV yozgi Olimpiya o'yinlari 1948-yil 29-iyul – 14-avgust kunlari London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida 59 ta davlatdan 4099 nafar sportchi (3714 erkak, 385 ayol) ishtirok etib, 17 sport turidan 136 ta medallar jamlanmasi uchun muso-

---

[59] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. - 115 p.
[60] O'sha kitob, - 117 b

baqalarda qatnashgan. Olimpiya o'yinlariga SSSR, Germaniya va Yaponiya kiritilmagan. O'yinlarda birinchi marta Venesuela, Livan, Birma, Suriya, Puerto-Riko va Shri-Lanka davlatlari jamoalari ishtirok etgan.

XIV Olimpiya o'yinlarining sport musobaqalari ilk bor milliy televideniya orqali translatsiya qilingan. Bu Olimpiya o'yinlaridan boshlab volontyorlarning yordam ko'rsatish ishlari tashkil etilgan.

XIV yozgi Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – AQSH (38-27-19), 2-o'rin – Shvetsiya (16-11-17), 3-o'rin – Fransiya (10-6-13).

XV yozgi Olimpiya o'yinlari 1952-yil 19-iyul – 3-avgust kunlari Xelsinki shahrida (Finlyandiya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida 69 ta mamlakatdan 4955 sportchi (518 nafar ayol) ishtirok etib, 21 ta sport turi bo'yicha 149 ta medallar jamlanmasi uchun kurashdilar. Olimpiya o'yinlarida ilk bor Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) jamoasi ishtirok etgan. Lekin Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR) jamoasi O'yinlarga kiritilmagan.

Sobiq SSSR Milliy Olimpiya qo'mitasi XOQ tomonidan 1951-yil 7-mayda tan olingan edi. Bu Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari ilk bor ishtirok etgan. Sovet sportchilari 2 ta jahon va 6 ta olimpiya rekordlarini o'rnatgan. Olimpiada medallari uchun raqobat kurashi asosan Sovet Ittifoqi, AQSH, Vengriya va Shvetsiya mamlakatlari o'rtasida keskin ravishda o'tgan. Olimpiada musobaqalari davomida 18 ta jahon va 66 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan. Chexoslovakiya sportchisi Emil Zatopek 5000m, 10000m va marafon yugurish masofalarida birinchi orinni egallagan. XOQ prezidenti Zigfrid Edstryom Olimpiya o'yinlarining yopilish marosimidagi nutqida "XV Olimpiya o'yinlarini yopiq deb e'lon qilaman" so'zlarini unutib qo'ygan, shuning uchun XV Olimpiya o'yinlari rasman yopilmagan, deb hisoblanadi. XV yozgi Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (40-19-17-76), 2-o'rin – SSSR (22-30-19-71), 3-o'rin – Vengriya (16-10-16-42).

XVI yozgi Olimpiya o'yinlari 1956-yilda Melburn shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan, ot sporti musobaqalari karantin sababli Stokgolm shahrida (Shvetsiya) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarida yengil atletika, suzish, og'ir atletika, o'q otish turlari bo'yicha 14 ta jahon va 65 ta olimpiada rekordlari o'rnatilgan. Sovet sportchilari

624,5 ochko bilan Olimpiada chempioni bo'ldi. Sovet Ittifoqi Amerikaning Olimpiya o'yinlaridagi 60 yillik hukmronligini puchga chiqardi.

XVI yozgi Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – SSSR (37-29-32), 2-o'rin – AQSH (32-25-17), 3-o'rin – Avstraliya (13-8-14).

XVII yozgi Olimpiya o'yinlari 1960-yil 25-avgust – 11-sentabr kunlari Rim shahrida (Italiya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida GDR va GFR birlashgan jamoada qatnashgan. Vengriya sportchisi Aladar Gerevich 50 yoshida qilichbozlik bo'yicha 6 karra olimpiya chempioni (1932, 1936, 1948, 1952, 1956, 1960) unvoniga sazovor bo'lgan. Sovet sportchisi Larisa Latinina sport gimnastika bo'yicha 6 ta (3-oltin, 2-kumush, 1-bronza) medalni qo'lga kiritgan. Valeriy Brumel balandlikka sakrashda jahon rekordini o'rnatgan. Yuriy Vlasov uch kurashda 537,5 kg (jahon va olimpiya yangi rekordi) natija bilan Olimpiadaning eng yaxshi sportchisi, deb tan olingan. Efiopiya sportchisi Abebe Bikila marafon bo'yicha olimpiya chempioni bo'lgan, masofani oyoq yalang yugurgan. Olimpiya o'yinlari davomida Daniya velosportchisi K.Enemark Yensen doping sababli vafot etgan.

XVII yozgi Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – SSSR (43-29-31), 2-o'rin – AQSH (34-21-16), 3-o'rin – Italiya (13-10-13), 4-o'rin – Germaniya (12-19-11).

XVIII yozgi Olimpiya o'yinlari 1964-yil 10 – 24-oktabrda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlari birinchi marta Osiyo qit'asida o'tkazilgan. Bu o'yinlarda 94 ta mamlakat jamoalari ishtirok etgan: Yevropadan – 28, Afrikadan - 22, Osiyodan - 20, Amerikadan - 21, Avstraliya va Okeaniyadan 2 ta jamoa kelgan. Musobaqalar 23 sport turi bo'yicha 163 medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor voleybol va dzyudo kiritilgan. Sport musobaqalari davomida 81 ta olimpiya va 32 ta jahon rekordlari o'rnatilgan. XVIII yozgi Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamoa hisobi natijalari: 1-o'rin – AQSH (36-26-28), 2-o'rin – SSSR (30-31-35), 3-o'rin – Yaponiya (16-5-8), 4-o'rin – Germaniya (10-22-18).

XIX yozgi Olimpiya o'yinlari 1968-yil 12–28-oktabrda Mexiko shahrida (Meksika) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida 112 ta mamlakatdan 5530 nafar (4750 erkak, 780 ayol) sportchi ishtirok

etgan. O'yinlarda 20 sport turidan 172 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Mexiko shahri dengiz sathidan 2240 m balandlikda joylashgan bo'lib, uning iqlim sharoiti sportchilarga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramasdan, sport musobaqalari davomida 79 ta olimpiya va 28 ta jahon rekordlari o'rnatilgan. Eng yuqori natijalar yengil atletika bo'yicha - 30 ta olimpiya va 14 ta jahon rekordlari ko'rsatilgan. AQSH sportchisi Robert Bimon uzunlikka sakrashda 8 m 90 sm natija ko'rsatib, jahon rekordini birdaniga 55 smga oshirgan. Richard Fosbyuri (AQSH) balandlikka sakrashning yangi texnik usulini birinchi marta namoyish qilgan. Alfred Orter (AQSH) disk uloqtirish bo'yicha to'rt karra (1956,1960,1964,1968) olimpiya chempioni bo'lgan. XIX yozgi Olimpiya o'yinlarining norasmiy umumjamoa hisobi natijalari: 1-o'rin – AQSH (45-28-34), 2-o'rin – SSSR (29-32-30), 3-o'rin – Yaponiya (11-7-7), 4-o'rin – Vengriya (10-10-12).

XX yozgi Olimpiya o'yinlari 1972-yil 26-avgust – 12-sentabr kunlari Myunxen shahrida (Germaniya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida 121 ta mamlakat ishtirok etgan, jumladan 11 ta mamlakat jamoalari yangi kiritilgan. Olimpiya o'yinlariga shovinizm va siyosiy mojarolar sababli Janubiy Rodeziya kiritilmagan. Olimpiya o'yinlarida 7170 nafar (ulardan 1095 ayol) sportchi 26 sport turidan 195 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalarda qatnashgan. O'yinlarda 46 ta jahon va 94 ta olimpiya rekordi o'rnatilgan. Sovet sportchilari Lyudmila Turisheva va Olga Korbut (gimnastika), Valeriy Borzov (sprint) olimpiada chempioni bo'lganlar. Kuba sportchisi Teofilo Stivenson eng yaxshi bokschi deb tan olingan va Olimpiada Kubogi ham berilgan. AQSH sportchisi Mark Spitts suzish bo'yicha 7 ta oltin medallarni egallab, har bir suzish masofalarida jahon rekordini o'rnatgan.

Germaniya sportchisi Ulrike Mayfart balandlikka sakrash boyicha 16 yoshda, sobiq Ittifoq sportchisi Anatoliy Roshin yunon-rum kurashi bo'yicha 40 yoshda oltin medallarga sazovor bo'lganlar. Yaponiya sportchisi Savao Kato gimnastika bo'yicha uch karra olimpiya chempioni bo'lgan.

1972-yil 5-sentabrda olimpiya sporti tarixida eng katta fojia sodir bo'lgan. Falastin "Qora sentabr" tashkilotining terrorchilari olimpiya shaharchasidagi 31-binoga hujum qilib, Isroil delegatsiyasi a'zolarini

garovga olgan. Bavariya politsiyasi bilan otishmalar natijasida 11 kishi halok bo'lgan. O'yinlar vaqtincha to'xtatilgan.

XX yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – SSSR (50-27-22), 2-o'rin – AQSH (33-31-30), 3-o'rin – GDR (20-23-23).

XXI yozgi Olimpiya o'yinlari 1976-yil 17-iyul – 1-avgust kunlari Monreal shahrida (Kanada) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida 92 ta mamlakatdan 6028 nafar (4781 erkak, 1247 ayol) sportchi 21 sport turi bo'yicha 198 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalarda qatnashdilar. O'yinlarda 34 ta jahon va 82 ta olimpiada rekordlari o'rnatilgan. Yunon-rum va erkin kurash bo'yicha sovet sportchilari 12 ta oltin medallarga ega bo'lgan.

Olimpiya o'yinlari ochilishida Afrika mamlakatlarining 28 jamoasi norozilik ifodasi sifatida chiqib ketgan. Chunki Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) va bu mamlakat bilan sport aloqalarini o'rnatgan Yangi Zellandiya, irqchilikka yo'l qo'yganligiga qaramasdan, o'yinlarga taklif etilgan edi.

Olimpiada natijalari Afrikada sportning rivoj topayotganligini namoyish etgan. Efiopiya, Keniya, Tunis va boshqa mamlakatlarning sportchilari yaxshi natijalar ko'rsatgan. Bu Olimpiya o'yinlarida irqchilik muammosidan tashqari, doping muammosi ham avj olgan edi. O'yinlar davomida doping qabul qilgan 12 nafar sportchi ro'yxatga olingan.

XXI yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – SSSR (49-41-35), 2-o'rin – GDR (40-25-25), 3-o'rin – AQSH (34-35-25).

XXII yozgi Olimpiya o'yinlari 1980-yil 19-iyul – 3-avgust kunlari Moskva shahrida (Sovet Ittifoqi) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlariga Vetnam, Angola, Zimbabve, Mozambik mamlakatlari birinchi marotaba tashrif buyurgan.

Olimpiya o'yinlari birinchi marta sotsialistik davlatda o'tkazilgan. Biroq "sovuq urush" siyosati olimpiya harakatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan va bir qator kapitalistik mamlakatlarning sportchilari O'yinlarda qatnashmagan. AQSH boshchiligida GFR, Yaponiya, Kanada, Shveysariya, Norvegiya, Argentina milliy olimpiya qo'mitalari Olimpiya o'yinlariga ishtirok etmagan. Buning sabablari, birinchidan, "sovuq urush" siyosati ta'sirida, ikkinchidan, Jahon hamjamiyati Sovet Ittifoqi harbiy qo'shinlarining

Afg'onistondan chiqib ketishini talab qilganligi, lekin bu talab bajarilmaganligi oqibatida sodir bo'lgan. O'yinlarda jami 80 ta mamlakatdan 5179 nafar (1115 ayol) sportchilar 25 sport turi bo'yicha 203 medallar komplekti uchun musobaqalarda qatnashgan. Sport musobaqalari davomida 36 ta jahon, 74 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan. Eng yuqori natijalar og'ir atletika bo'yicha ko'rsatilgan: 23 ta olimpiya va 13 jahon rekordlari.

XXII yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – SSSR (80-69-46), 2-o'rin – GDR (47-37-42), 3-o'rin – Bolgariya (8-16-17).

XXIII yozgi Olimpiya o'yinlari 1984-yil 28-iyul – 12-avgust kunlari Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida sovet sportchilari va bir qator sotsialistik davlatlar ishtirok etmagan, chunki AQSH hukumati sportchilar xavfsizligini ta'minlanishiga kafolat bermagan edi. O'yinlarda siyosiy sabablarga ko'ra GDR, Bolgariya, Polsha, Kuba, Mongoliya va boshqa davlatlarning sportchilari ishtirok etmagan. Olimpiya o'yinlarida 140 mamlakatdan 6829 nafar (1566 ayol) sportchilar qatnashgan.

XXIII yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (83-61-30), 2-o'rin – Ruminiya (20-16-17), 3-o'rin – GFR (17-19-23).

XXIV yozgi Olimpiya o'yinlari 1988-yil 17-sentabr – 2-oktabr kunlari Seul shahrida (Janubiy Koreya) bo'lib o'tgan. XOQ Prezidenti Xuan Antonio Samaranch va Xalqaro sport uyushmalarining rahbarlari tomonidan olib borilgan faol harakatlar tufayli Sovet Ittifoqi va AQSH sportchilari yana Olimpiya o'yinlarida uchrashdilar. O'yinlarda 159 mamlakatdan 8473 nafar sportchi ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarida 29 sport turi bo'yicha 237 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga birinchi marta stol tennisi kiritilgan, tennis esa qayta tiklangan. Bu Olimpiya o'yinlarida 101 ta olimpiya va 28 ta jahon rekordlari o'rnatilgan.

XXIV yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – SSSR (55-31-46), 2-o'rin – GDR (37-35-30), 3-o'rin –AQSH (36-31-27).

1948-1988-yillarda o'tkazilgan yozgi Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- Xalqaro olimpiya harakatida "sport va siyosat" muammosi paydo bo'lgan.
- Sobiq Ittifoq terma jamoasi Olimpiya o'yinlarida yetakchi pozitsiyalarni egallab olgan.
- XOQ, MOQ va XSF o'zaro munosabatlari yaxshilangan. Olimpiya kongresslari 43 yillik inqirozdan so'ng yana o'z faoliyatini boshlagan.
- XOQ tomonidan yangi milliy olimpiya qo'mitalarining tan olinishi hisobidan olimpiya harakati saflari yanada kengaygan.
- Xalqaro olimpiya harakatida doping va haqqoniy hakamlik muammosi paydo bo'lgan.

"1948-yil Olimpiya o'yinlari. Agar 1908-yilda Imperiyaning yetakchi mavqei hali ham saqlangan, 1924-yil – u xavf ostida bo'lgan vaqt hisoblangan bo'lsa, 1948-yilda Olimpiya o'yinlari Imperiyasi vayron bo'layotgan mamlakat tomonidan tashkil qilingan. Britaniya iqtisodiyoti urush sababli inqirozga uchragan edi. Urushdan keyingi tiklash ishlari endigina o'z ta'sirini ko'rsatayotgan edi.

Biroq televideniyani qayta ishga tushirilishi 1948-yilda o'yinlarni televideniya orqali jonli efirda translatsiya qilingan birinchi o'yinlarga aylanishiga imkon bergan". Londonda 1948-yili o'tkazilgan o'yinlar televideniyada namoyish qilingan birinchi o'yinlar bo'lgan, shu bilan birga Buyuk Britaniya aholisida deyarli televizor bo'lmagan.

1948-yilgi Olimpiya o'yinlari atrofidagi qizg'in bahslarga va natijalar bo'yicha xavotirlikka qaramasdan, ular katta muvaffaqiyatga ega bo'lgan. 59 ta mamlakatlardan kelgan 4000 nafarga yaqin sportchilar musobaqalarda ishtirok etgan.

Yangi zodagonlar jamiyati va sovuq urush. Ikkinchi jahon urushidan keyin 1956-yilgi Melburndagi Olimpiya o'yinlarida boykotning ta'siri ostida, uncha katta bo'lmagan pasayishdan keyin, o'yinlar o'zining o'sish trayektoriyasini davom ettirgan. Lekin urushning tugashi tinchlikka yoki 1930-yillarning muhitiga qaytishni anglatmagan. Yangi, murakkab geosiyosiy muhit yuzaga keldi, chunki AQSH va Sovet Ittifoqi Yevropa xaritasini o'zgartirib yuborishdi. Keyingi bir necha o'n yilliklar kapitalistik Amerika va kommunistik

Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy kurash ostida o'tgan. Ikkala mamlakatlar yadro quroliga ega bo'lganligi to'g'ridan-to'g'ri harbiy konfrontatsiyani oldini olgan, lekin butun dunyoda xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi kurash, dominant davlatlarning hududiy omillarini kuchli ta'siri ostida bo'lgan.

"Zamonaviy Olimpiya o'yinlari odamning va borliqning ideallari o'rtasidagi kurash ramzi bo'lib, u, ushbu muhitda yashashi kerak. Ushbu fikr, sovuq urush va ramziy kurash davri to'g'rsidagi fikr yuritilishiga olib keladi, u, 1945-1989-yillardagi Olimpiya harakatini o'rab turgan. Urushdan keyingi birinchi Olimpiya o'yinlariga Germaniya va Yaponiya kabi mag'lubiyatga uchragan mamlakatlar taklif qilinmagan, lekin shunga qaramasdan Italiya taklif qilingan va Sovet Ittifoqi sport musobaqalarida ishtirok etmagan.

Sovet Ittifoqi revolutsiyadan keyingi 1930-yillarda xalqaro sportdan, asosan o'zini tiygan, xalqaro federatsiyalar va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tarkibiga kirmagan va buning o'rniga ishchi sport internatsionalini rivojlantirishga ko'maklashgan (RSI). Lekin u, ikkinchi jahon urushidan keyin kommunistik tizimning ustuvorligini namoyish qilish uchun xalqaro musobaqalarda ishtirok etish strategiyasini qabul qilgan.[61]

Shunga qaramasdan, 1948-yili SSSR Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan tan olinmagan va uning Milliy olimpiya qo'mitasi bo'lmagan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining amerikalik vitse-prezidenti chinakam antikommunist Eyveri Brendedj kommunistlarni Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi a'zoligiga qabul qilinishiga qarshi bo'lgan, lekin mamlakatlarni siyosiy tizimi asosida Olimpiya harakatidan chetlashtirilishini qo'llab-quvvatlamagan.

Xitoy musobaqalarda ishtirok etish niyatida bo'lgan, lekin 1947-yilgi kommunistik revolutsiyaning muvaffaqiyatli kulminatsiyasi ushbu rejalarni barbod qilgan. Londondagi 1948-yilgi ochilish marosimi bir soatni tashkil qilgan va muhim shaxslarni va kolonnada kelayotgan jamoalarni tanishtirishdan iborat bo'lgan. Bizga ma'lumki, shundan buyon puxta tayyorlangan marosim televideniya uchun ancha darajada o'zgargan.

---

[61] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Taylor-Francis Group. London-New York, 2012. – 98 p.

Dekolonizatsiya va mustaqillik olgan mamlakatlar. Urushdan keyingi davrda oxirgi yevropalik imperiya – Buyuk Britaniya imperiyasi parchalandi. Urushdan keyin kuchsizlangan Buyuk Britaniya mustaqillik uchun harakatlar bilan kurashishga qobilityasiz bo'lgan. Hindistonning mustaqilligi (1947-y.) ajralish bilan belgilangan vaqtda, dekolonizatsiya jarayoni uzoq davom etgan. Kolombo mamlakatlari (Birma, Seylon Oroli, Hindiston, Indoneziya va Pokiston) guruhi tomonidan tashkil qilingan Bandungdagi 1955-yilgi konferensiyada 24 ta Afrika va Osiyo mamlakatlarining vakillari ishtirok etishgan bo'lib, unda umumiy iqtisodiy maqsadlar va kolonializmning tugallanishi muhokama qilingan. Osiyo O'yinlari xo'jayini Indoneziya 1962-yilda tayvanlik va isroillik ishtirokchilarga viza berishdan bosh tortgan. Keyingi yili, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi olimpiya harakatidan chiqqan Indoneziyaning Milliy Olimpiya qo'mitasini chetlatgan. Indoneziya prezidenti Suxarto GANEFO (qisqartilgan inglizchadan – Games of the New emerging Forces – yangi rivojlanayotgan kuchlar o'yinlari. PRIM.) tashkilotini tuzish tashabbusini o'z zimmasiga olgan. [62]

Kambodja, Xitoy, Gvineya, Indoneziya, Iroq, Mali, Pokiston, Shimoliy Vetnam, BAR va Sovet Ittifoqidan delegatlar va Seylon hamda Yugoslaviyadan kuzatuvchilar ishtirok etgan ta'sis konferensiyasi 1955-yilgi Bandungdagi konferensiyadan ilhom olishgan. Xitoy ushbu takliflarning harakatlantiruvchi kuchi deb aytilgan.

GANEFO ning birinchilari 1963-yilda tashkil qilingan, ikkinchilari Qoxirada 1967-yili belgilangan. Albatta, ushbu geosiyosiy poydevorning qismi Xitoy-Sovet Ittifoqi o'rtasidagi munosabatning buzilishi ostida bo'lgan, bu, "uchinchi dunyo"ga ta'sir o'tkazish uchun Xitoy va Sovet Ittifoqi bloki o'zaro hamda G'arb bilan ham raqobatlashganligini anglatgan. GANEFO Kengashining 1965-yilda Pekinda o'tkazilgan sessiyasini Osiyo GANEFOsini Olimpiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Osiyo o'yinlari o'tkaziladigan bir vaqtda o'tkazilishi bo'yicha qaror qabul qilingan. Qoxira, moliyaviy sabablarga ko'ra, keyingi GANEFOni 1967-yilda o'tkazilishidan voz kechgan. Xitoy, Madaniy revolutsiya vaqtida ko'proq ichki omillar hisobiga rivojlanishga orientirlangan va Espining aytishiga

---

[62] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 123 p.

qaraganda "GANEFO sekin o'lgan". Separatizmning ushbu qisqa epizodidan keyin Uchinchi dunyo mamlakatlari Olimpiya o'yinlariga ko'proq e'tibor qarata boshlashgan va ushbu hodisani, o'zini jahon arenasida mustaqil mavjudligi to'g'risida e'lon qilishni ramziy imkoniyati sifatida qo'llashgan va Milliy Olimpiya qo'mitalarining soni ushbu intilishlarni aks etgan holda barqaror ortgan. Musobaqalarda ishtirok etuvchi mamlakatlarning soni 1976-yilga qadar ortib borgan, 1980-yili AQSH boshchilik qilgan boykot tufayli qisqargan.[63]

XXV yozgi Olimpiya o'yinlari 1992-yil 25-iyul – 9-avgust kunlari Barselona shahrida (Ispaniya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlariga 172 davlatdan 10563 sportchi (2704 ayol) kelgan. Ular o'rtasida 257 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar olib borilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga badminton, beysbol va ayollar dzyudosi kiritilgan.

Olimpiya o'yinlarida sobiq Yugoslaviya respublikalari – Bosniya va Gertsegovina, Sloveniya, Xorvatiya sportchilari alohida jamoalar sifatida qatnashgan. O'yinlarda Latviya, Litva va Estoniya sportchilari ham ilk bor alohida mustaqil jamoa sifatida ishtirok etgan. Sobiq Sovet Ittifoqi sportchilari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) terma jamoasiga birlashgan. MDH terma jamoasida jami 483 nafar (312 erkak va 171 ayol) sportchi bo'lib, ulardan 276 nafar sportchi Rossiya, 83 – Ukraina, 53 – Belorussiya, 18 – Qozog'iston, 17– O'zbekiston, 10 – Gruziya va Moldaviya, 5 – Ozarbayjon, 4 – Armaniston, 3 – Qirg'iziston va Tojikiston vakillari bo'lgan.

MDH Birlashgan jamoasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasining 17 nafar sportchisi kiritilgan edi. Ular 3 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medalini qo'lga kiritganlar. O'zbekistondan sport gimnastikasi bo'yicha Oksana Chusovitina va Rozaliya Galiyeva, yengil atletika bo'yicha 4x400 m estafeta g'olibi Marina Shmonina oltin medallarga sazovor bo'lganlar. Og'ir atletikachi Sergey Sirtsov va o'q otish sporti bo'yicha Anatoliy Asrabayev kumush medalga sazovor bo'lganlar. Qilichbozlik sportida esa hamyurtimiz Valeriy Zaxarevich jamoa musobaqalarida bronza medali bilan taqdirlangan. MDH Birlashgan jamoa sportchilarining g'alabasi sharafiga olimpiya bayrog'i ko'tarilgan va olimpiya madhiyasi ijro etilgan. XXV yozgi

---

[63] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 123 p.

Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – MDH (45-38-29), 2-o'rin – AQSH (37-34-37), 3-o'rin –Germaniya (33-21-28).

XXVI yozgi Olimpiya o'yinlari 1996-yil 19-iyul – 4-avgust kunlari AQSHnig Atlanta shahrida bo'lib o'tgan. Bu o'yinlar 19-iyuldan 4-avgustgacha davom etdi. Ularda 197 milliy olimpiya qo'mitalarining 10318 nafar (ulardan 3512 ayol) sportchilari ishtirok etgan. Musobaqalar 35 sport turi bo'yicha 271 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga ilk bor sohil voleyboli, ayollar futboli, softbol, mauntinbayk kiritilgan. Bu Olimpiya o'yinlaridan boshlab O'zbekiston, Armaniston, Belorussiya, Gruziya, Moldaviya, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston mustaqil davlatlar sifatida ishtirok etgan. Chexiya, Slovakiya, Makedoniya davlatlari ham ilk bor alohida qatnashgan.

XXVI Olimpiya o'yinlari davomida ko'ngilsiz hodisa sodir bo'lgan. 27-iyul kuni Istirohat bog'ida bomba portlagan, 44 yoshli amerikalik ayol va 40 yoshli telekommentator vafot etgan. AQSH Prezidenti Bill Klinton mintaqaning barcha hududlardagi qo'poruvchilarni qoralagan. XOQ bir daqiqa motam sukutini o'tkazib, o'yinlarni davom ettirishga qaror qilgan edi. XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (44-32-25), 2-o'rin – Rossiya (26-21-16), 3-o'rin –Germaniya (20-18-27).

XXVII yozgi Olimpiya o'yinlari 2000-yil 15-sentabr – 1-oktabr kunlari Sidney shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan. Olimpiada o'yinlariga 200 davlatdan 10651 nafar (ulardan 4069 ayol) sportchilar tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlarida Koreya– KXDR va Janubiy Koreya – ilk bor birlashgan jamoa sifatida qatnashgan.

Sport musobaqalari davomida 45 ta jahon rekordlari o'rnatilgan, ulardan 26 ta og'ir atletika va 15 ta suzish sport turlari bo'yicha bo'lgan. Niderlandiya sportchisi Inge de Breyn suzish bo'yicha ayollar o'rtasida 50 m va 100 m erkin usul, 100 m batterflay masofalarida oltin medallarni olgan. Xitoy sportchilari og'ir atletika musobaqalarida jami 7 ta (ulardan 5 ta oltin) medallarga ega bo'lgan. Olimpiya dasturiga ayollar o'rtasida og'ir atletika ilk bor kiritilgan. Boks bo'yicha Rossiya va Kuba sportchilari bilan bir qatorda O'zbekiston, Qozog'iston, Tailand, Fransiya, Buyuk Britaniya

bokschilari birinchi o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'lganlar. Bu Olimpiada XX asrning oxirgi O'yini sifatida tarixda qolgan.

XXVII yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (40-24-33), 2-o'rin – Rossiya (32-28-28), 3-o'rin –Xitoy (28-16-15).

XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlari 2004-yil 13–29-avgust kunlari Afina shahrida (Gretsiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarga 202 davlatdan 10625 nafar (ulardan 4392 ayol) sportchilar tashrif buyurgan. Olimpiya musobaqalari 37 ta sport turi bo'yicha 301 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Afinada Olimpiya o'yinlari ochilishi marosimi katta tantana bilan boshlanib, qadimgi yunonlarning milliy an'analari namoyish qilingan. Olimpiada mash'alasini yoqish sharafi yunon yaxtachisi Nikolas Kaklamanisga nasib etgan. Olimpiya o'yinlarining yopilish marosimida XOQ Prezidenti Jak Rogge: "O'yinlar tinchlik va do'stlik ruhida o'tkazildi"- deb ta'kidlagan edi. Bu Olimpiya o'yinlari XXI asrning ilk O'yini sifatida tarixda qolgan.

XXVIII yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (35-38-29), 2-o'rin – Rossiya (27-27-38), 3-o'rin –Xitoy (32-17-14).

XXIX yozgi Olimpiya o'yinlari 2008-yilda Pekin shahrida (Xitoy) bo'lib o'tgan. Olimpiada o'yinlarida jahonning 204 davlatidan 11500 nafar sportchi 28 sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan.

Olimpiada-2008 ramziy timsoli "Fuva" – omad farzandlari, deb nomlangan. Ular beshta bo'lib, nomlari xitoy ierogliflarida *bey-bey* – baliq, *sin-sin* – panda, *xuan-xuan* – olov, *in-in* – kiyik, *ni-ni*– qaldirg'och ma'nolarini bildiradi. Bu so'zlarni qo'shib o'qiganda "Beyjinga xush kelibsiz" jumlasi kelib chiqadi.

XXIX yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Xitoy (51-21-28), 2-o'rin – AQSH (36-38-36), 3-o'rin – Rossiya (23-21-28).

XXX yozgi Olimpiya o'yinlari 2012-yilda London shahrida (Angliya) bo'lib o'tgan. Olimpiada o'yinlarida jahonning 205 davlatidan 10500 nafar sportchi 302 komplekt medallari uchun 26 sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan. Olimpiada o'yinlari davomida jami 44 ta jahon va 117 ta olimpiya rekordlari o'rnatilgan.

XXX yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (46-29-29), 2-o'rin – Xitoy (38-27-22), 3-o'rin – Angliya (29-17-19), 4-o'rin – Rossiya (24-25-33).

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari 2016-yilda Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tgan. Olimpiada o'yinlarida jahonning 207 davlatidan 10500 nafardan ziyod sportchi 302 komplekt medallari uchun 28 sport turlari bo'yicha musobaqalarda ishtirok etgan. Olimpiada o'yinlarida shaxsiy natijalarga ko'ra AQSH sportchilari Maykl Felps, Ketlin Ledeki (suzish) va Simona Bayls gimnastika) eng ko'p medallarga sazovor bo'ldilar. Maykl Felps suzish bo'yicha 5 ta oltin va 1 ta kumush medallarini qo'lga kiritdi. Uning Olimpiadalarda to'plagan oltin medallarining umumiy soni 23 taga yetdi.

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (46-37-38), 2-o'rin – Buyuk Britaniya (27-23-17), 3-o'rin – Xitoy (26-18-26), 4-o'rin – Rossiya (19-18-19).

1992-2016-yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari:

- Olimpiya harakati safiga sobiq Ittifoq tarkibidan ajralgan yangi Mustaqil davlatlar qo'shilgan.
- "Sovuq urush" davri barham topib, sport va siyosat muammosi bartaraf etildi.
- Xalqaro olimpiya harakatida Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlarining mavqei oshdi.
- Yoshlar olimpiya o'yinlari joriy qilindi va ular umumjahon ahamiyatga ega bo'ldi.
- Olimpiya sporti tayyorgarligining ilmiy-nazariy asoslari, texnik-taktik usullari, tibbiy-biologik ta'minoti, moddiy-texnik bazasi yanada takomillashdi.

"London, ko'rgazmalar va Olimpiya o'yinlari". Mazkur mavzuda ikkita masalani ko'rish mumkin. Birinchidan, ko'rgazmalarda kapitalizmning, millatchilikning va imperializmning rivojlanishi aks ettiraladigan vositalarni ko'rib chiqiladi. Ikkinchidan, ularni zamonaviy jamoat madaniyatidagi xalqaro ko'rsatkichlarni paydo bo'lishining asosiy momentlari sifatida baholash mumkin. Ko'rinib turibdiki, bu yerda, hayotiy loyihasi zamonaviy Olimpiya o'yinlarini ta'sis etish bo'lgan baron Pyer de Kuberten timsolidagi

qarama-qarshiliklarni namoyon qiladigan potensial qarama-qarshiliklar mavjud.[64]

Kuberten, chinakamiga berilgan baynalmilalchi bo'lib, u, Olimpiya o'yinlarining ta'sis hujjatlariga, tashkil qilish usullariga va marosimlariga yozib qo'ygan, bu, keyingi bobda ancha keng ko'rib chiqiladi.

Lekin u, vatanparvar ham bo'lib, fransiyalik yoshlarning yomon jismoniy holati va intizomsizligi, o'z mamlakatidagi inqiroz va Germaniyaning ortib borayotgan quvvati to'g'risida tashvishlangan.

Millatchilik va baynalmilalchilik o'rtasidagi taranglik Olimpiya o'yinlarining sezilarli qirrasi bo'lib qolmoqda. Kuberten kim bo'lishidan qat'i nazar, u, iqtisodchi bo'lmagan va qayta tiklanayotgan Olimpiya o'yinlarini qo'llab-quvvatlash uchun aniq moliyaviy strategiyasining yo'qligi, bizningcha, Kubertenni 1900 va 1904-yillardagi O'yinlarni mos ravishdagi Parij va Sent-Luisdagi Umumjahon ko'rgazmalariga birlashtirishga majbur qilgan".

"Alternativ sport tadbirlari va Olimpiya o'yinlari". 1920-yillarga kelib, xalqaro sportda bugungi kunga qadar uncha-muncha saqlanib qolgan faoliyatning bo'linishi aniqlangan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi – demokratik bo'lmagan hamda Yevropaga orientirlangan va yevropalik boylar hokimiyatining "klubi" bo'lib, Olimpiya o'yinlarining dasturini, joylashishini va umumiy falsafasini belgilagan. Milliy Olimpiya qo'mitalari ishtirok etishni boshqargan Xalqaro Federatsiya esa, me'yorlarni belgilagan va sportchilarni ishtirok etishga to'g'ri kelishi to'g'risida yakuniy qarorlar qabul qilgan. FIFA kabi boshqa sport tashkilotlari bilan birgalikda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi sportni xalqaro rejim sifatida shakllanishiga ko'maklashgan – joylardagi qoidalar va normalar asosidagi hukumatlarsiz boshqarish shakli. Sportning "o'ylab topilgan" jismoniy va vaqtinchalik joylashishini ta'minlaydigan sport festivallarining ommaviyligini borgan sari ortishiga ko'maklashgan. [65]

Marosimlar va ramzlar yaratilgan bo'lib, ular, o'z navbatida, sport va global kuch to'g'risidagi tasavvurni ta'minlagan. Bu – sportga "odatdagi" hayotdan va ijtimoiy kontekstdan avtonomlikni his qilishni berdi. Erishilgan narsalar – Olimpiya harakatini

---

[64] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 92 p.

[65] O'sha kitob, 2012. – 92 b.

umumjahon tarixiga qo'shgan hissasi hisoblanadi. Albatta, sport aslida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy kontekstlardan unchalik farq qilmaydi. Olimpiya o'yinlarini asosiy yirik sport hodisasi sifatida rivojlanishi kelishuvlar va kurash orqali borgan.

Ikkinchi Jahon urushidan oldin olimpiya harakatining ta'siri kuchli bo'lgan raqiblari – Yevropada ishchilarning sporti va gimnastikasi, jahonning boshqa qismlarida an'anaviy o'yinlar va musobaqalar hamda boshqalar qatorida Eichberg (1998) ham bo'lgan. Ishchilarning Olimpiya o'yinlari, ayollarning sport musobaqalari va professional futbol bo'yicha Jahon chempionatlari rivojlangan va alohida ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda mavjud bo'lmagan.

Ikkinchi Jahon urushidan oldin, so'l harakat vakillari sportni "burjuaziya sporti" bo'lganligi asosida tanqid qilishgan. U, ushbu nuqtayi nazardan, ishchilarni real manfaatlaridan chalg'itish uchun o'ylab topilgan "non va tomosha" shakli sifatida ko'rib chiqilgan. Buning o'rniga, ishchilar sporti jamoatchilikni, ommaviy ishtirok etishni, jinslarning tengligini va baynalmilalchilikni targ'ibot qilgan. Germaniyada eng kuchli bo'lgan sport tashkilotlari ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida mavjud bo'lgan".

Masalan, o'n mingalb ishtirokchilar va yuz minglab tomoshabinlar 1931-yilgi Venadagi hodisalarga jalb qilingan edi. Ishchilar uchun tadbirlardan tashqari sho'rolar o'yinlari va ayollar o'yinlari ham bo'lgan.

Sovet Ittifoqida sekin-asta siyosat o'zgargan. Alternativ tadbirlarni yaratish emas, balki burjuaziya sporti bilan o'zaro hamkorlik alternativ iqtisodiy tizimning ichki va tashqi qonuniyligini ta'minlashi mumkin, deb hisoblanadigan vosita bo'lib qoldi. Sportga alternativ bo'lgan, birinchi o'ringa mahsulotlar yoki natijalarni emas, balki jarayonni ilgari surgan, masalan, Germaniyadagi Turnen kabi harakatlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, xuddi shu tarzda, ular sekin-asta sport bilan assimilatsiya qilgan. Sportga alternativlikdan, ular ko'pchilik o'rtasidagi alternativ sportga aylanishgan. Xalqaro sport musobaqalari o'yin maydonlariga va mafkuraviy tizimlar o'rtasidagi sun'iy maydonga aylanib qolgan. [66]

---

[66] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 102 p.

Sent-Luisdagi ko'rgazma bilan kombinatsiya qilingan, uncha katta bo'lmagan va kuchsiz bo'lgan va uning ishtirokchilari Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishayotganligini bilishmagan (to'rt yil oldin xuddi Parijdagi kabi) 1904-yilgi Olimpiya o'yinlaridan boshlab, to 2008-yilgacha va Pekindagi Yozgi Olimpiya o'yinlari (204 ta Milliy olimpiya qo'mitalaridan 10000 nafar sportchilar musobaqalarda ishtirok etgan, ushbu o'yinlarni 159 ta mamlakatdan 24562 nafar akkreditatsiya qilingan OAV xodimlari kuzatishgan), sportning va ayniqsa, Olimpiya sportining ijtimoiy va jahondagi ahamiyatini sezilarli darajadagi o'zgarishi sodir bo'ldi. Sport – to'lqinlantiradigan, tomoshabop, iqtisodiy va siyosiy qo'llash uchun mos keladigan resurs sifatida yirik hodisalarni yuzaga keltiradigan madaniy shakl bo'lib qoldi, ular Yer sharini televideniya orqali ko'rsatish orqali birlashtiradi. Hodisani televideniya orqali yoritilishining o'sishi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etadigan mamlakatlar, Milliy olimpiya qo'mitalari va sportchilar (jumladan, ayollarning) sonining ortishida aks etgan.

Londondagi 1908-yilgi Olimpiya o'yinlari Umumjahon ko'rgazmasiga bog'liq bo'lgan va imperiya quvvati va hokimiyati bayramining bir qismi bo'lgan. Buyuk Britaniyaning ilmiy va texnik ustuvorligiga qarshi chiqish zarurati bo'lib qolgan. 1948-yilga kelib, imperiya to'liq buzilgan. Buyuk Britaniya endigina, o'zini urushdan keyingi siyosiy rolini anglay boshlagan.

1948-yilgi O'yinlar, qisman, "teshiklarni doimiy yamash"dan kelib chiqqan harbiy davr hamkorligining, jamoatchilik ruhining mardonavor harakati bo'lgan. "Buyuk Britaniya zarbaga uchragan". [67]

O'yinlar televideniya bo'sag'asida turgan, bunda, o'yinlar hali televideniyaning ta'siri ostida madaniy va iqtisodiy jihatdan o'zgarishi uchun yana 20 yil kerak bo'lgan. 1936-yildan boshlab televideniyaning rivojlanishi, Olimpiya o'yinlari va FIFAni futbol bo'yicha Jahon chempionatlari kabi eng muhim yirik sport tadbirlarini Umumjahon ko'rgazmalariga nisbatan ancha muhim bo'lishiga olib keldi. Bugun Olimpiya o'yinlari – bu, davlat siyosatini ilgari surish va infrastrukturaga investitsiyalarni jalb qilishning nafaqat kuchli richagi hisoblanadi, davlat investitsiyalari, shaxsiy foyda kabilar ham – jahonni yagona fazo sifatidagi konsepsiyasini

---

[67] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 103 p.

asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Eng yirik sport tadbirlarini, ayniqsa (va nafaqat), ularni biron narsada ifodalangan shaklini, zamonaviy dunyoni yaratilishi va betakrorligini qayta tiklaydigan vositalarning biri ta'minlaydi. Ular, "zamonaviy bosqichni tavsiflaydigan xotirada va kutishda, uzoq hayot dunyosida vaqtli va fazoviy istiqbolni tiklash va qaytadan takrorlash" imkonini beradi.

Bugungi kunda, Olimpiya o'yinlarining asosiy iqtisodiy harakatga keltiruvchi kuchlari jahon hamjamiyatining globallashuvi, transmilliy korporatsiyalar, shaharlarni modernizatsiya qilish, iste'mol va yangi urbanizatsiya bilan bog'liq. Agarda, 1908-yili diqqat markazida savdo va ishlab chiqarish bo'lgan bo'lsa, 2012-yilga kelib, tomoshalar va iste'mol savdo markazlari tufayli, markaziy masalalar bo'lib qoldi.[68]

Olimpiya o'yinlarining dasturi. Olimpiya harakati rivojlanishining dastlabki davrida, 1896-yilda olimpiya dasturiga 9 ta sport turlari va 43 ta sport musobaqalari kiritilgan bo'lsa, 2014-yilda ularning soni 37 ta sport turlari va 301 ta sport musobaqa turlarini tashkil etdi. 1924-yilda qishki olimpiya sport turlarining soni 7 ta va qishki sport musobaqa turlari 39 ta bo'lgan. 2014-yilda esa qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga 15 ta sport turlari va 80 ta sport musobaqa turlari kiritilgan.

Olimpiya o'yinlari dasturi – bu XOQ tomonidan tasdiqlangan Olimpiya o'yinlari uchun sport turlari va sport musobaqalarining ro'yxati. Dastur olimpiya sportining muhim jihatlaridan biri bo'lib, uning tuzilishi Olimpiya o'yinlari ommaviyligining o'sishiga ta'sir etadi va jahonda sport rivojining strategiyasini belgilab beradi.

Olimpiya o'yinlari dasturining rivojlanishi turli omillarning ta'siri bo'yicha to'rtta asosiy davrdan iborat:

I. 1896-1912-yillarda olimpiya dasturi Tashkiliy qo'mita tomonidan tuzilgan va barqaror bo'lmagan. Olimpiya dasturining o'zgarishiga Pyer de Kubertenning fikri va shaxsiy pozitsiyasi o'z ta'sirini ko'rsatgan.

II. 1912-1952-yillarda olimpiya dasturining shakllanish jarayoniga XOQ faoliyatining ta'siri kuchli bo'lgan. XOQ mustaqil ravishda olimpiya dasturlari mazmunini belgilagan.

---

[68] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group London and New York. 2012. - p.

III. 1952-1980-yillarda olimpiya dasturi siyosiy va mafkuraviy omillar ta'sirida shakllangan.

IV. 1980-yillardan hozirgi davrgacha olimpiya dasturining mazmuniga siyosiy omillar bilan bir qatorda iqtisodiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Olimpiya dasturi bilan bog'liq masalalar 1907-yil XOQning 7-sessiyasida ilk bor muhokama qilingan va bunda Londonda o'tkaziladigan Olimpiya o'yinlarining dasturi tasdiqlangan. 1909-yilda XOQning 11-sessiyasida olimpiya dasturini tuzish jarayonida Olimpiya o'yinlari xalqaro sport musobaqa ekanligi va ular tashkilotchi mamlakatlarga qulay sport musobaqalaridan iborat bo'lishiga e'tibor berish kerakligi ta'kidlangan. 1912-yilda XOQning 15-sessiyasida sport turi 6 ta mamlakatda keng rivojlangan bo'lsa dasturga kiritilishi mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilingan.

1920-yildan boshlab olimpiya dasturiga sport turlarini kiritish faqat XOQ tomonidan amalga oshirilgan. Sport turlariga qo'yilgan talablar ham yildan-yilga o'zgarib borgan va qiziqishi kamaygan sport turlari dasturga kiritilmagan.

Xalqaro olimpiya harakati rivojlanishining dastlabki yillarida olimpiya dasturiga faqat sportning havaskor turlari kiritilgan. Shuning uchun 1928-yilda dasturdan tennis chiqarilgan. 1979-yildan esa dastur sport turlarining kontinentlarda keng rivojlanganlik mezonlariga ko'ra tuzilgan. Hozirgi davrda Olimpiya xartiyasiga binoan olimpiya dasturiga XOQ tomonidan tan olingan, yozgi sport turlari erkaklar uchun jahonning 75 ta mamlakatlar va to'rtta kontinentida, ayollar uchun 40 ta mamlakatlar va uchta kontinentda keng ommalashgan bo'lishi shart. Qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga jahonning 25 ta mamlakatlari va uchta kontinentida keng rivojlangan qishki sport turlari kiritiladi.

Olimpiya o'yinlari dasturiga sport turlarini kiritish va ularni dasturdan chiqarish huquqi faqat Xalqaro Olimpiya qo'mitasiga berilgan. Olimpiya dasturiga oid barcha masalalar XOQ sessiyasi, Ijroiya qo'mitasi tomonidan muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. 1968-yilda XOQning 67-sessiyasida olimpiya dasturi bo'yicha doimiy Hay'at tuzilgan. Hay'at olimpiya dasturini tuzish bo'yicha amaliy tavsiyalarni tasdiqlagan, dasturning mazmuni va aniq mezonlarini belgilab bergan.

Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish tartibi. Olimpiya xartiyasi bo'yicha Olimpiya o'yinlari har 4 yilda bir marta o'tkaziladi. 1994-yildan boshlab yozgi va qishki olimpiya o'yinlarining orasidagi farq ikki yilni tashkil qiladi. Yozgi olimpiya o'yinlari 16 kun va qishki olimpiya o'yinlari 12 kun davom etadi.

Olimpiya o'yinlari planetar ahamiyatga ega bayram bo'lib, ularni yuqori saviyada tashkil qilish va o'tkazish har bir mamlakat uchun katta sharafdir. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish huquqi XOQ tomonidan tanlangan va tasdiqlangan shaharga beriladi. Nomzod shaharlar tomonidan XOQ Ijroiya qo'mitasiga berilgan talabnomada Olimpiya o'yinlarini o'tkazish vaqti va sanasi ko'rsatiladi.

Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun shaharni tanlab olish huquqiga faqat XOQ egadir. Shahar nomzodi mamlakat emas, shaharning nomidan tavsiya qilinadi. Nomzod shahar hokimiyatining talabnomasi mazkur mamlakatning hukumati va milliy olimpiya qo'mitasi tomonidan ma'qullangan bo'lishi kerak. Bunda milliy olimpiya qo'mitasi shaharning o'z zimmasiga olgan barcha majburiyatlari uchun mas'ul tashkilot hisoblanadi.

XOQ Ijroiya qo'mitasi tomonidan "Nomzod shaharlar uchun shartlar" ishlab chiqilgan bo'lib, har bir nomzod shahar ushbu shartlarga rioya qilishi to'g'risidagi kafolat hujjatini XOQga yozma ravishda taqdim etishi kerak. Ushbu "Shartlar"da Olimpiya o'yinlarining Olimpiya Xartiyasi va olimpiya sport turlari bo'yicha Xalqaro sport federatsiyalarining talablariga muvofiq o'tkazilishi kafolatlangan. Ular xavfsizlikni ta'minlash, moddiy va moliyaviy kafolatlardan iborat. Barcha nomzod shaharlar XOQ sessiyasidan 6 oy oldin Ijroiya qo'mitaga moliyaviy kafolatlarini berishi lozim.

1999-yilda XOQning 110-sessiyasida ikki bosqichdan iborat tanlov qoidalari tasdiqlangan. Tanlovning birinchi bosqichida XOQning ma'muriy vakillari va tashqi ekspertlardan tuzilgan ishchi guruh nomzod shaharlardagi asosiy texnik talablarni o'rganib, XOQ Ijroiya qo'mitasiga ma'lumotlarni beradi. Ijroiya qo'mita tanlovning birinchi bosqichidan o'tgan nomzod shaharlar ro'yxatini tasdiqlaydi. XOQ Ijroiya qo'mitasiga nomzod shaharlar to'g'risida barcha ma'lumotlar taqdim etilganidan so'ng tanlovning ikkinchi bosqichida XOQning nomzodlarni baholash Hay'ati har bir shaharga tashrif buyuradi. Hay'at tarkibi olimpiya harakatining barcha tashkilotlari XOQ, XSF, MOQ, Xalqaro Paralimpiya qo'mitasi a'zolari,

sportchilar, ekspertlardan iborat bo'ladi. Nomzodlarni baholash Hay'ati har bir nomzodni o'rganib chiqib, shahardagi sport inshootlarini tekshirib, nomzod shahar tanlovi o'tkaziladigan sessiyagacha bo'lgan ikki oy muddat ichida har bir nomzod to'g'risidagi yozma hisobotni XOQga berishi lozim.

Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun nomzod shaharlarni ko'rib chiqish jarayoni qo'yidagi asosiy tadbirlardan iborat:

- XOQ va nomzod shaharlarning axborot uchrashuvi;
- Nomzodni ko'rib chiqish jarayoni to'g'risidagi tadbirlarni imzolash;
- Nomzod taqdimoti uchun uning emblemasini yaratish;
- XOQ Ijroiya qo'mitasiga nomzod shahar kichik delegatsiyasining taqdimoti. Taqdimot maqsadi - XOQ Ijroiya qo'mitasini nomzod shaharlarning o'z rahbariyati va boshqaruvi bilan tanishtirishdir;
- XOQga nomzod shaharning o'zi haqidagi ma'lumotlari bilan birgalikda 150 ming AQSH dollari miqdorida badal puli to'lanadi. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish huquqini olmagan nomzod shaharlarga badal puli foizi bilan qaytariladi;
- XOQ Ijroiya qo'mitasi tomonidan nomzod shaharlarni tasdiqlash va kelgusida XOQ sessiyasida Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan shaharni tanlash;
- XOQ sessiyasi tomonidan Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan shaharni tanlash.

Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish huquqini olish uchun nomzod shahar sessiyada qatnashayotgan XOQ a'zolarining eng ko'p ovozini to'plashi kerak (ovozlarni yarmi va yana bir ovoz). Agarda ovoz berishning birinchi va keyingi bosqichlarida shaharlarning hech biri talab etilgan ovozlar sonini to'play olmasa, ulardan eng kam ovoz olgani nomzodlar orasidan chiqariladi va ovoz berishning yangi bosqichi o'tkaziladi.

Olimpiya sportining obro'sini tushirishiga sabab bo'ladigan turli xil qoidabuzarlik va suiiste'molchilik holatlariga yo'l qo'ymaslik uchun XOQ tomonidan Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun nomzod shaharlarni tanlab olishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Shu tarzda nomzod shaharlar uchun ma'lumotnoma ishlab chiqilgan bo'lib, uning moddalari nomzodning faylida yoritilishi kerak. Mazkur ma'lumotnomaning mazmunida bu masalalar bo'yicha XOQning

bugungi kundagi nuqtayi nazari ifodalangan. Ma'lumotnoma mazmuni 18 ta mavzudan iborat: nomzod shaharning milliy va mintaqaviy tavsifi; huquqiy asoslari; bojxona va immigratsion rasmiyatchiliklar; atrof-muhit himoyasi va meteorologik sharoitlar; moliya; marketing; umumiy sport konsepsiyasi; sport turlari; paralimpiya o'yinlari; olimpiya shaharchasi; tibbiy xizmat va sog'liqni saqlash xizmati; xavfsizlik; joylashtirish; transport; texnologiyalar; aloqa va mediaservis xizmati; olimpizm va madaniyat; kafolatlar.

Hozirgi kunda Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish katta moddiy xarajatlarni va ulkan tayyorgarlik ishlarini talab etadi. Shuning uchun talab etilgan moddiy-texnik bazasi, vositalari va ish tajribasi mavjud bo'lgan shaharlar Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish imkoniyatiga ega. Bunda tashkilotchi shaharga qo'yiladigan talablarning oshishi va ishtirokchilar sonining ko'payishi hisobidan Olimpiya o'yinlarini o'tkazish qiymati ham yildan-yilga o'sib borishini e'tiborga olish zarur.

Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va ularga qadar tayyorgarlik ishlari XOQ tomonidan shahar joylashgan mamlakatning Milliy olimpiya qo'mitasiga topshiriladi. Olimpiya o'yinlariga mezbon bo'ladigan shahar e'lon qilingandan keyin XOQ va MOQ o'rtasida shartnoma tuzilib, bunda tashkilotchi shaharning majburiyatlari bayon etiladi. Shartnoma imzolangandan so'ng 5 oy muddat ichida MOQ Olimpiya o'yinlarining Tashkiliy qo'mitasini tuzishi kerak. Tashkiliy qo'mita ta'sis etilgan kunidan boshlab bevosita XOQ bilan bog'lanib, uning instruksiyasini oladi. Tashkiliy qo'mitasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi lozim. Tashkiliy qo'mita tarkibiga jamoat arboblari va mutasaddi rahbarlardan tashqari o'sha mamlakatdan bo'lgan XOQ a'zolari, MOQ prezidenti va bosh kotibi, tashkilotchi shaharning vakili kiritiladi.

Olimpiya o'yinlari tashkiliy qo'mitasi faoliyatining asosiy mazmuni quyidagi ishlardan iborat:

- Olimpiya dasturida har bir sport turi uchun teng sharoitlarni hamda olimpiya musobaqalarini XSF qoidalariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;
- Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan shahar hamda uning atrofida siyosiy namoyishlar va chiqishlarga yo'l qo'ymaslik;

▪ Olimpiya o'yinlari o'tkazish uchun sport inshootlarini tanlab olish yoki zaruriyat paydo bo'lsa ularni yaratish, barcha zarur jihozlar bilan ta'minlash;

▪ Sportchilar, rasmiy vakillar, yordamchi personallarni joylashtirish;

▪ Tibbiy xizmatni tashkil qilish;

▪ Transport muammolarini hal etish;

▪ O'yinlar jarayonini yoritish uchun ommaviy axborot vositalari talablarini qoniqtirish;

▪ Olimpiya o'yinlari o'tkazishning ajralmas qismi bo'lgan madaniy tadbirlarni tashkil qilish;

▪ Olimpiya o'yinlari to'g'risida ikkita rasmiy tillarda yakuniy hisobotni taqdim etish va uni o'yinlardan so'ng ikki yil mobaynida tarqatish.

"Olimpiya o'yinlarini tashkil qilishni kim ta'minlaydi? Ushbu masalaga ikkita asosiy tashkilotlar -- Olimpiya o'yinlarining Tashkiliy qo'mitasi (OCOG) va Olimpiya o'yinlarini o'tkazish bo'yicha Qo'mita (ODA) jalb qilingan. OCOG o'tkazishni tashkil qilishga javob beradi, ODA esa, infrastrukturani ta'minlashga javobgardir. Keyinchalik, qo'shimcha organ ta'sis qilingan bo'lib, unga, Olimpiya o'yinlari yakunlanganidan keyin olimpiya obyektlaridan foydalanish yoki ularni utilizatsiya qilishni tashkil qilish uchun majburiyat yuklangan. Milliy olimpiya qo'mitasi -- tender jamoasini shakllantirishga ko'maklashgan holda, Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga talabnomani shakllantiradi, lekin talabnoma g'olib deb topilganidan keyin, tashkiliy qo'mitani tuzish zarur bo'lib, u, Olimpiya o'yinlarini tashkilotchisi bo'lgan shahar va qabul qiluvchi mamlakat manfaatlarini himoya qilishi ham lozim.

Buning sarf-xarajatlari qancha bo'ladi? Olimpiya o'yinlarini moliyalashtirishni ikkita tarkibiy qismlarga ajratish qabul qilingan -- Olimpiya o'yinlarini o'tkazish sarf-xarajatlari va obyektlarni ta'minlash sarf-xarajatlari. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish budjeti televideniya va XOQ homiylarining daromadlari, chiptalarni sotish, mahalliy homiylik va tovarlar savdo-sotig'ining ulushi ekspluatatsion sarf-xarajatlarni qoplashini oldindan hisoblashga asoslangan.

Ushbu mablag'lar nimalarga ishlatiladi? Qurilishning boshlanishidan favquloddagi sarf-xarajatlar fondining ko'p qismi foydalanish uchun qo'llanilgan yoki assignatsiya qilingan. Olimpiya

o'yinlarini o'tkazish bo'yicha Qo'mita loyihalarni boshqaruvchi guruhni yollaydi, u, o'z navbatida, subpudratchi quruvchilar bilan ishlarni amalga oshirish bo'yicha shartnomalarni tuzadi.

Asosiy vazifalar – qurilish maydonlarini tayyorlash va asosiy stadionni, suv markazini, kattaligi bo'yicha kichikroq bo'lgan bir qator stadionlarni, Olimpiya shaharchasini, axborot-markazini va translatsiya markazini qurish hisoblanadi.[69]

Ushbu sarf-xarajatlar oldingi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish bo'yicha sarf-xarajatlar bilan qanday nisbatda bo'ladi? Har bir Olimpiya o'yinlari hisob-kitobning xususiy usullariga ega bo'ladi, holatlar bir mamlakatdan boshqasiga qarab o'zgaradi, valuta ayirboshlash kursi va inflatsiyaning farq qiluvchi darajalari hisob-kitoblarni murakkablashtiradi. Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq bo'lgan infrastrukturali xarajatlarni kiritilishi yoki olib tashlanishi bir Olimpiya o'yinidan boshqasiga qarab variatsiya qiladi. Odatda, hukumatlar aniq sarf-xarajatlarni kamaytirib ko'rsatishga harakat qilishadi, ayrim sarf-xarajatlar umumiy davlat budjetida yashiringanligini ta'kidlashadi. Shunga qaramasdan, ikkinchi jahon urushidan boshlab, inflatsiyadan tashqari, ushbu umumiy sxemadagi ayrim og'ishlar bilan sarf-xarajatlarning o'sishi kuzatiladi.

Monrealdagi 1976-yilgi o'yinlarning sarf-xarajatlari nazoratdan chiqib ketgan va asosiy stadionning qurilishi juda qimmatga tushgan. Los-Andjelesda (1984-yil) fuqarolar shahar hisobidan davlat tomonidan moliyalashtirishga qarshi ovoz berishganidan keyin, Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish uchun mas'uliyatli bo'lgan xususiy qo'mita sarf-xarajatlarni chegaralanishiga nisbatan juda katta bosimga uchragan. Buning oqibatida, yangi obyektlarga juda kam mablag' ajratilgan. Shahar tomonidan Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga sarf-xarajatlarga kiritilmagan va shu tufayli sun'iy tarzda pasaytirilgan transportni, qo'riqlashni va boshqa xizmatlarni ta'minlash ko'rinishidagi ancha darajadagi qo'llab-quvvatlash amalga oshirilgan.

Bunga qarama-qarshi tarzda Pekin uchun sarf-xarajatlar infrastrukturaga bo'lgan ancha darajadagi umumiy sarflarni o'z ichiga olgan, masalan, oldingi Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga kiritilmagan transport loyihalari kiritilgan. Olimpiya o'yinlarini

---

[69] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 3 p.

o'tkazishga beriladigan arizalar oddiygina berilmaydi, ular, bizning davrimizda, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining o'yinlarni tashkil qilish xohishi mahsuli va muhim katalizator hisoblanadi.[70]

Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga arizani berish – bu, uzoq muddatli va qimmat turadigan jarayon bo'lib, milliy hukumat tomonidan ham va hududiy hokimiyatlar tomonidan ham hamkorlikni va faol qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish infrastrukturaga katta davlat mablag'larini talab qiladi. Ushbu sarf-xarajatlarni 15 kunlik tadbirni o'tkazishni tashkil qilish asosidagina asoslash, u, jahon miqyosida jozibali bo'lishiga qaramasdan , borgan sari qiyin bo'lmoqda.

Hukumatlar va siyosiy partiyalarni Olimpiya o'yinlarining keng qamrovliligi va ommaviy axborot vositalari tomonidan keng targ'ib qilinishi hamda xalqni, umuman olganda, birlashtiruvchi va shijoatiga potensial tarzda ijobiy ta'sir ko'rsatishi jalb etiladi.

Shaharsozlar, Olimpiya o'yinlarini hattoki ariza g'olib chiqmasa ham strategik loyihalar uchun – yangi avtomobil va temir yo'llar, sanoatning rivojlanishi va uy-joy qurilishi uchun moliyalashtirish vositalarini olish sifatida qabul qiladi. Arxitektorlarni stadionlar va boshqa binolarni qurlishi uchun moliyalashtirishni olish imkoni o'ziga jalb qiladi. Quruvchilar va ular bilan bog'liq bo'lgan subpudratchilar yirik pudratli ishlarni olish imkonini ko'rishadi. Mahalliy siyosatchilar yangi bog'larni va sport inshootlarini barpo bo'lishi hamda mahalliy aholini ish bilan ta'minlanishi imkonini nazarda tutishadi.

Afinadagi 1896-yilgi Olimpiya o'yinlaridan keyingi uchta Olimpiya o'yinlari xalqaro ko'rgazmalar va savdo yarmarkalariga qo'shimcha sifatida o'tkazilgan. Faqatgina 1920-yildan keyin ushbu tadbirning ahamiyati orta bordi. Hukumatlar Olimpiya o'yinlarini milliy iftixorni namoyish qilish sifatida idrok qila boshlashdi, bu, 1936-yili "natsistlar" Olimpiya o'yinlarini o'tkazilishi paytida, ayniqsa, ko'zga tashlandi, ushbu o'yinlar Germaniyaning nemis millati sifatidagi ustuvorligini va kuch-qudratini namoyish qilishdan

---

[70] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 3 p.

iborat bo'ldi. "Sovuq urush" yillarida Olimpiya o'yinlari kurashning ramziy maydoniga aylandi. [71]

Televideniyani 1960-yildan boshlab tarqalishi o'yinlarni ommaviy yoritilishini oshirdi va daromadlar oqimini doimiy ortishini yuzaga keltirdi. Lekin Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga sarf-xarajatlar ham orta boshladi. Monrealdagi 1976-yilgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga sarf-xarajatlar budjetdan shunchalik ortiq bo'lganki, aholi ushbu xarajatlarni yuz yillikning oxiriga qadar to'lashgan. Los-Andjeles – Olimpiya o'yinlari sarf-xarajatlarni qoplashi va hattoki "o'sish"ini (Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi "daromad" degan so'zni qo'llamaydi) yuzaga keltirishi mumkin, degan afsonani yuzaga keltirgan. Aslida esa, transport infrastrukturasi, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash ko'rinishidagi davlat tomonidan yashirin qo'llab-quvvatlash amalga oshirilgan.

Olimpiya o'yinlari bo'yicha hisobotni taqdim qilishda o'yinlarni o'tkazishga sarf-xarajatlar va Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq bo'lgan infrastrukturaga sarf-xarajatlar tizimli tarzda ajratilgan. Hisobot, televideniya ekranlarida namoyish qilishga huquq uchun, homiylardan, chiptalarni va boshqa tovarlarni sotishdan kelib tushgan mablag'larning ulushi Tashkiliy qo'mita tomonidan olingan mablag'larni to'liq qoplashini ko'rsatishi mumkin. [72]

Xulosalar

➢Olimpiya o'yinlari – har to'rt yilda bir marta XOQ rahbarligida o'tkaziladigan eng yirik xalqaro kompleks sport musobaqalaridir.

➢Dastlabki bosqichdagi zamonaviy Olimpiya o'yinlarida olimpiya ramzlari olimpizm g'oyalarini targ'ibot qilish vositalari sifatida kiritildi.

➢Xalqaro olimpiya harakatida Paralimpiya va Paraosiyo o'yinlarining mavqei oshdi.

---

[71] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 6 p.
[72] O'sha kitob, 2012. – 8 b.

➢Olimpiya sporti tayyorgarligining ilmiy-nazariy asoslari, texnik-taktik usullari, tibbiy-biologik ta'minoti, moddiy-texnik bazasi yanada takomillashdi.

Nazorat savollari:

Olimpiya o'yinlari qanday sport musobaqalari hisoblanadi?

Yozgi Olimpiya o'yinlari qanday xususiyatlarga ega?

Nechanchi Olimpiya o'yinlari Butun jahon ko'rgazmalari bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan?

VI, XII, XIII Olimpiya o'yinlari nima sababdan o'tkazilmagan?

Olimpiya o'yinlari dasturi qanday ro'yxat hisoblanadi?

Olimpiya o'yinlari dasturining rivojlanishi nechta davrdan iborat?

Olimpiya dasturi masalalari qachon ilk bor muhokama qilingan?

Olimpiya xartiyasiga binoan olimpiya dasturiga kiritilishi uchun sport turlari nechta kontinent va mamlakatlarda keng ommalashgan bo'lishi shart?

Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazish tartibi nimalardan iborat?

Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasining asosiy vazifalari nimadan iborat?

Eslab qoling!

- **yozgi Olimpiya o'yinlari – 16 kun,**
- **qishki Olimpiya o'yinlari – 12 kun davom etadi.**

YOZGI OLIMPIYA OYINLARI

№	Yil	O'tkazilgan joyi	Mamla-kat soni	Sportchi soni	1-o'rin (davlat)
I	1896	Afina, Gretsiya	14	245	Gretsiya
II	1900	Parij, Fransiya	24	1225	Fransiya
III	1904	Sent-Luis, AQSH	13	689	AQSH
IV	1908	London, Angliya	22	2035	Angliya
V	1912	Stokgolm, Shvetsiya	28	2547	Shvetsiya
VI	1916	Berlin, Germaniya	o'tkazilmagan		
VII	1920	Antverpen, Belgiya	29	2669	AQSH
VIII	1924	Parij, Fransiya	44	3092	AQSH
IX	1928	Amsterdam, Golland	46	3014	AQSH
X	1932	Los-Andjeles, AQSH	37	1408	AQSH
XI	1936	Berlin, Germaniya	49	4066	Germaniya
XII	1940	Tokio, Yaponiya	o'tkazilmagan		
XIII	1944	London, Angliya	o'tkazilmagan		
XIV	1948	London, Angliya	59	4099	AQSH
XV	1952	Xelsinki, Finlyandiya	69	4925	AQSH
XVI	1956	Melburn, Avstraliya	67	3184	SSSR
XVII	1960	Rim, Italiya	83	5348	SSSR
XVIII	1964	Tokio, Yaponiya	93	5140	SSSR
XIX	1968	Mexiko, Meksika	112	5530	AQSH
XX	1972	Myunhen, FRG	121	7123	SSSR
XXI	1976	Monreal, Kanada	92	6028	SSSR
XXII	1980	Moskva, SSSR	80	5217	SSSR
XXIII	1984	Los-Andjeles, AQSH	140	6797	AQSH
XXIV	1988	Seul, Koreya	159	8465	SSSR
XXV	1992	Barselona, Ispaniya	169	9367	MDH
XXVI	1996	Atlanta, AQSH	197	10320	AQSH
XXVII	2000	Sidney, Avstraliya	199	10651	AQSH
XXVIII	2004	Afina, Gretsiya	202	11400	AQSH
XXIX	2008	Pekin, Xitoy	204	11500	Xitoy
XXX	2012	London, Angliya	205	10500	AQSH
XXXI	2016	Rio-de-Janeyro, Brazil	208	11000	AQSH

CASE-STUDY

Case -study mavzusi	Olimpiya o'yinlari
Case maqsadi	Olimpiya o'yinlari tarixini o'rganish
Case muammosining ifodalanishi	XV yozgi Olimpiya o'yinlarida sobiq Ittifoq terma jamoasining debyut ishiroki bo'lgan edi. Olimpiya musobaqalarining natijalari bo'yicha norasmiy umumjamoa hisobida AQSH va sobiq Ittifoq terma jamoalari teng ochko to'plaganlar - 494,5. Biroq hakamlarning munozaralaridan so'ng 1-o'rin AQSH terma jamoasiga berilgan.
Case muammosi	1. Muammoni asosiy sabablarini aniqlang. 2. Hakamlar qarori to'g'ri yoki noto'g'ri qabul qilinganligini aniqlang.
Case muammosining yechimi	1. Hakamlar ikkala jamoaning oltin medallari sonini hisoblashni tavsiya qilganlar. Natijada AQSH sportchilari 40 ta oltin, sobiq Ittifoq sportchilari – 22 oltin medal olganligi aniqlangan. Umumiy medallar soni bo'yicha AQSH – 76, sobiq Ittifoq – 71ta medal olgan edi. 2. Umumjamoa o'rinlar haqqoniy berilgan va hakamlar qarori to'g'ri qabul qilingan.

CASE-STUDY

Case -study mavzusi	Olimpiya o'yinlari
Case maqsadi	Olimpiya o'yinlari tarixini o'rganish
Case muammosining ifodalanishi	1956, 1960, 1964-yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida sobiq Ittifoq terma jamoasi 1-o'rinlarni egallagan edi. 1968-yilda o'kaziladigan navbatdagi Olimpiadaga sobiq Ittifoq terma jamoasining tayyorgarlik mashg'ulotlari O'zbekistonda tashkil qilingan va yuqori saviyada o'tkazilgan. Biroq Mexiko-

	1968-yilda sobiq Ittifoq sportchilari 2-o'rinni egallagan.
Case muammosi	1. Muammoni asosiy sabablarini aniqlang. 2. Bir qator yuqori natijalardan keyin sobiq Ittifoq terma jamoasi mag'lubiyatining sabablarini aniqlang.
Case muammosining yechimi	1.O'zbekistonning tog'li joylari Mexiko sharoitiga mos bo'lgan, shuning uchun terma jamoaning tayyorgarligi bizning mamalakatda o'tkazilgan. 2. Mexiko shahri dengiz sathidan 2240 m balandlikda joylashgan bo'lib, uning issiq iqlimi va havosi Yevropa sportchilarining moslashuvi uchun to'sqinlik qilgan. 3. O'sha davrda O'zbekistondan Meksikaga to'g'ridan-to'g'ri uchadigan aviareys bo'lmagan, shuning uchun terma jamoa dastlab Moskvaga (ya'ni tog'likdan pastga), keyin esa yana tog'lik va issiq iqlimga tushgan. 4. Qisqa vaqt ichida sportchilarning bunday keskin iqlim o'zgarishlariga moslashishi qiyin bo'lgan.

CASE-STUDY

Case -study mavzusi	**Olimpiya o'yinlari**
Case maqsadi	Olimpiya o'yinlari tarixini o'rganish
Case muammosining ifodalanishi	XVI yozgi Olimpiya o'yinlari 1956-yil 22-noyabr – 8-dekabr kunlari Avstraliyaning Melburn shahrida o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan ot sporti musobaqalari esa Shvetsiyaning poytaxti Stokgolm shahrida 1956-yil 10-17-iyun kunlarida tashkil qilingan.
Case muammosi	XVI yozgi Olimpiya o'yinlarida ot sporti bo'yicha olimpiya musobaqalarining Stokgolm shahrida o'tkazilganligining sabablarini aniqlang.

Case muammosining yechimi	1. Avstraliya qonuni bo'yicha mamlakatga olib kiriladigan hayvonlar uchun 6 oylik karantin muddati belgilangan edi. 2. Ot sporti bo'yicha olimpiya musobaqalarida ishtirok etgan jamoalar asosan Yevropa mamlakatlarining vakillari bo'lgan. 3. XOQ qarori bo'yicha ot sporti musobaqalari asosiy o'yinlardan oldinroq o'tkazilgan.

15-§. *Qishki Olimpiya o'yinlari*

Qishki Olimpiya o'yinlari – qishki sport turlari bo'yicha har 4 yilda bir marta XOQ rahbarligida o'tkaziladigan kompleks musobaqalardir (*23- jadval).*

Olimpiya harakati rivojlanishining dastlabki yillarida qishki sport turlari yozgi Olimpiya o'yinlarining dasturiga kiritilgan edi: muz ustida konkida figurali uchish (1908 va 1920), shaybali xokkey (1920).

Qishki Olimpiya o'yinlari Pyer de Kuberten tashabbusi bilan boshlangan. 1921 va 1922-yillarda Kuberten Qishki Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish bo'yicha hay'at tuzib, uning tarkibiga Shvetsiya, Fransiya, Norvegiya, Shveysariya va Kanada vakillarini kiritgan. 1922-yilda Parijda bo'lib o'tgan XOQning sessiyasida "VIII Olimpiya o'yinlariga bag'ishlangan xalqaro sport haftaligi"ni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Birinchi qishki Olimpiya o'yinlari 1924-yilda Xalqaro sport haftaligi sifatida tashkil qilingan. Sport haftaligi yuqori saviyada tashkil qilingan. Qishki o'yinlarni o'tkazish to'g'risidagi qaror XOQning 1925-yilda Praga shahrida bo'lib o'tgan sessiyasida qabul qilingan.

1992-yilga qadar qishki va yozgi Olimpiya o'yinlari bir yilda o'tkazilgan, 1994-yilda ularning oralig'i 2 yilni tashkil etishi to'g'risida qaror qabul qilingan.

Olimpiya xartiyasiga binoan qishki Olimpiya o'yinlari ham yozgi Olimpiya o'yinlari uchun belgilangan tartib-qoidalar bo'yicha tashkil qilinadi.

Qishki Olimpiya o'yinlarining rivojlanish davrlari, yozgi Olimpiya o'yinlari kabi, tarixiy davrlarda jamiyatdagi siyosiy,

iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy omillarning olimpiya harakatiga ta'siri bilan bog'liq holda belgilangan. Hozirgi davrgacha bo'lib o'tgan qishki Olimpiya o'yinlarining tarixida uchta asosiy bosqichlarni kuzatish mumkin:

- I - VI qishki Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan davr (1924-1952 yy.)
- VII - XVI qishki Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan davr (1956-1992 yy.)
- XVII – XXII qishki Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan davr (1994-2014 yy.)

1924-1952-yillardagi qishki Olimpiya o'yinlarida shimoliy Yevropa mamlakatlarining - Norvegiya, Shvetsiya, Finlandiya sportchilari yetakchilik qilgan, ularning asosiy raqiblari AQSH, Kanada, Germaniya, Shveysariya, Avstriya sportchilari bo'lgan. Bu davrda qishki Olimpiya o'yinlarida asosan erkaklar ishtirok etgan, ayollar faqat figurali uchish bo'yicha qatnashgan.

1956-1992-yillardagi qishki Olimpiya o'yinlari safida mamlakatlar soni ko'payib borgan. 1956-yildan boshlab qishki Olimpiya o'yinlarida sobiq Ittifoq terma jamoasi qatnashib kelmoqda. Bundan tashqari, qishki Olimpiya o'yinlariga qishki sport turlari rivojlanmagan mamlakatlar – Puerto-Riko, Gvatemala, Boliviya, Livan, Yamayka, Marokash, O'zbekiston – sportchilari qo'shildi.

1994-2014-yillardagi qishki Olimpiya o'yinlarida ilm-fan va texnika yutuqlaridan foydalanish orqali qishki sport turlarini rivojlantirishga e'tibor berildi. Jahonning janubiy mamlakatlarida ham qishki sport turlarini rivojlantirish maqsadida qishki sport turlari bilan shug'ullanish uchun zamonaviy sport inshootlari qurildi. Janubiy mamlakatlar sportchlarining Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishi uchun bu yerga mutaxassislarni yuborish va amaliy yordam berish ishlari yo'lga qo'yilmoqda.

Turli mamlakatlarning qishki Olimpiya o'yinlaridagi natijalari, qishki olimpiya sport turlarining rivojlanish darajasi sport jihozlari va sport inshootlari, ya'ni moddiy-texnik bazaning mavjudligi bilan bevosita bog'liq.

Qishki Olimpiya o'yinlarining rivojlanishida, yozgi Olimpiya o'yinlari kabi, bir qator muammolari paydo bo'lgan, jumladan, sport va siyosat muammosi, sport inshootlari muammosi, doping

muammosi, professional sport muammosi, olimpiya dasturi muammosi va h.k.

I qishki Olimpiya o'yinlari 1924-yil 25-yanvar – 4-fevral kunlari Shamoni shahrida (Fransiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 16 ta davlatdan 293 nafar (11 ayol) sportchi ishtirok etgan. Dastlab bu musobaqalar "VIII yozgi Olimpiya o'yinlariga bag'ishlangan Xalqaro sport haftaligi" sifatida tashkil qilingan. Musobaqalar yuqori saviyada tashkil etilganligi va katta qiziqish uyg'otganligi sababli XOQ qarori bilan 1 qishki Olimpiya o'yinlari, deb hisoblangan. Dasturga bobsley, chang'i sporti, tramplindan sakrash, konkida tez yugurish, xokkey, konkida figurali uchish kiritilgan. Ayollar uchun faqat konkida figurali uchish musobaqalari o'tkazilgan. Kyorling va harbiylar o'rtasida chang'i sporti bo'yicha ko'rgazmali musobaqalar tashkil qilingan.

Norvegiya va Finlyandiya sportchilari chang'i sporti turlarida eng yuqori natijalarga erishgan edi. Norvegiya sportchisi Turleyf Xaut 3 ta oltin va 1 ta bronza medallarga sazovor bo'lgan. Finlandiya sportchi Klas Tunberg chang'i sportining 1500m va 5000m masofalarida hamda ko'pkurashda birinchi o'rinlarni egallagan.

I qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin –Norvegiya (4-7-7), 2-o'rin – Finlandiya (4-3-3), 3-o'rin – AQSH (1-2-0).

II qishki Olimpiya o'yinlari 1928-yil 11–19-fevral kunlari Sent-Moris shahrida (Shvetsariya) o'tkazilgan. O'yinlarda 25 ta davlatdan 464 nafar (26 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Dasturga bobsley, chang'i sporti, tramplindan sakrash, konkida tez yugurish, xokkey, skeleton, konkida figurali uchish kiritilgan. Harbiylar o'rtasida chang'i sporti bo'yicha ko'gazmali musobaqalar o'tkazilgan.

II qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin –Norvegiya (6-4-5), 2-o'rin – AQSH (2-2-2), 3-o'rin – Shvetsiya (2-2-1).

III qishki Olimpiya o'yinlari 1932-yil 4–15-fevral kunlari Leyk-Plesid shahrida (AQSH) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarini Nyu-York shtatining gubernatori Franklin Delano Ruzvelt rasmiy ochib bergan. O'yinlarda 17 ta davlatdan 464 nafar (21 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Qishki Olimpiya o'yinlari birinchi marta Shimoliy Amerikada tashkil qilingan. Leyk-Plesidga yo'l haqqi narxining qimmatligi sababli davlatlar ishtiroki va sportchilar soni oldingi

o'yinlarga nisbatan keskin qisqargan. Qishgi sport turlari rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olgan Shvetsiya – 12 nafar sportchi, Finlandiya – 7 nafar sportchidan iborat delegatsiyalari qatnashgan. AQSH va Kanada sportchilari o'yin ishtirokchilarining 50 foizini (150 nafar) tashkil etgan.

Musobaqalarda AQSH sportchilari konkida tez yugurish bo'yicha eng ko'p medallarga sazovor bo'lgan, chang'i sporti bo'yicha esa Norvegiya sportchilari eng yuqori natijalarni ko'rsatgan. Avstriya sportchilari konkida figurali uchish, Kanada jamoasi shaybali xokkey bo'yicha olimpiya chempioni bo'lganlar.

III qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – AQSH (6-4-2), 2-o'rin – Norvegiya (3-4-3), 3-o'rin –Kanada (1-1-5).

IV qishki Olimpiya o'yinlari 1936-yil 6–16-fevral kunlari Garmish-Partenkirxen shahrida (Germaniya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 28 ta davlatdan 646 nafar (80 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Birinchi marta qishki Olimpiya o'yinlarida Avstraliya, Bolgariya, Gretsiya, Ispaniya, Lixtenshteyn va Turkiya sportchilari qatnashgan. Jahonning progressiv sport jamoatchiligi Olimpiya o'yinlari fashistik davlatda o'tkazilishiga qarshi bo'lgan. Lekin XOQ o'z qarorini o'zgartirmagan. Olimpiya o'yinlarini Germaniya kansleri Adolf Gitler rasman ochib bergan.

Dastlabki qishki olimpiada musobaqalarida asosan Skandinaviya mamlakatlari, ayniqsa Norvegiya sportchilari katta muvaffaqiyatlarga erishgan. 1932 va 1936-yillardagi o'yinlarda g'alaba qozongan novregiyalik figurachi Soniya Xeni olimpiya chempioni bo'lgan. Shvetsariya sportchilari bobsley, Germaniya sportchilari chang'i sporti bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan.

IV qishki Olimpiya o'yinlarining natijalari – 1-o'rin – Norvegiya (7-5-3), 2-o'rin – Shvetsiya (2-2-3), 3-o'rin – Germaniya (3-3-0).

V qishki Olimpiya o'yinlari 1948-yil 30-yanvar – 8-fevral kunlari Sankt-Morits shahrida (Shveysariya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 28 ta davlatdan 669 nafar (77 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o'yinlarida birinchi marta Daniya, Islandiya, Livan, Chili, Janubiy Koreya sportchilari qatnashgan. Olimpiya o'yinlarini Shveysariya prezidenti Enriko Selio rasman ochib bergan. Sport musobaqalarida Ikkinchi jahon urushida qatnashmagan davlatlarning terma jamoalari yaxshi natijalarga ega bo'lgan. Shvetsiya sportchilari

chang'i sporti va konkida tez yugurish, Shveysariya – bobsley va tog' chang'isi sporti, AQSH sportchilari konkida figurali uchish bo'yicha eng yaxshi natijalar ko'rsatgan.

V qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Shvetsiya (4-3-3), 2-o'rin – Norvegiya (4-3-3), 3-o'rin – Shveysariya (3-4-3).

VI qishki Olimpiya o'yinlari 1952-yil 14–25-fevral kunlari Oslo shahrida (Norvegiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 30 ta davlatdan 694 nafar (109 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o'yinlarida ilk bor Yangi Zellandiya, Portugaliya va GFR sportchilari tashrif buyurgan. Olimpiya dasturiga to'pli xokkey bo'yicha ko'rgazma uchrashuvlari o'tkazilgan. Sport musobaqalarida eng ko'p medallarni Norvegiya sportchilari olgan.

VI qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Norvegiya (7-3-6), 2-o'rin – AQSH (4-6-1), 3-o'rin – Finlandiya (3-4-2).

VII qishki Olimpiya o'yinlari 1956-yil 26-yanvar – 5-fevral kunlari Italiyaning Kortina-d'Ampetso shahrida o'tkazilgan. O'yinlarda 32 ta davlatdan 821 nafar (134 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o'yinlarida ilk bor sobiq SSSR, Boliviya va Eron terma jamoalari ishtirok etgan. 1956-1964-yillarda GDR va GFR sportchilari Birlashgan Germaniya jamoasi sifatida qatnashgan edi.

VII qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – sobiq Ittifoq (7-3-6), 2-o'rin – Avstriya (4-3-4), 3-o'rin – Shvetsiya (2-4-4).

VIII qishki Olimpiya o'yinlari 1960-yil 18-28-fevral kunlari Skvo-Velli shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 31 ta davlatdan 665 nafar (144 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarini AQSH vitse-prezidenti Richard Nikson rasman ochib bergan. VIII qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – sobiq Ittifoq (7-5-9), 2-o'rin – AQSH (3-4-3), 3-o'rin – Germaniya (4-3-1).

IX qishki Olimpiya o'yinlari 1964-yil 29-yanvar – 9-fevral kunlari Insbruk shahrida (Avstriya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 37 ta davlatdan 1091 nafar (199 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Bu Olimpiya o'yinlarida ilk bor Hindiston va Mongoliya terma jamoalari ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarini Avstriya prezidenti Adolf Shyurf rasman ochib bergan.

IX qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – sobiq Ittifoq (11-8-6), 2-o'rin – Norvegiya (3-6-6), 3-o'rin – Avstriya (4-5-3).

X qishki Olimpiya o'yinlari 1968-yil 6–18-fevral kunlari Grenobl shahrida (Fransiya) o'tkazilgan. O'yinlarda 37 ta davlatdan 1158 nafar (211 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Bu Olimpiya o'yinlaridan boshlab GDR va GFR sportchilari alohida jamoalar bo'lib qatnashgan, Marokash terma jamoasi ilk bor ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarini Fransiya prezidenti Sharl de Goll rasman ochib bergan. X qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Norvegiya (6-6-2), 2-o'rin – sobiq Ittifoq (5-5-3), 3-o'rin – Avstriya (3-4-4).

XI qishki Olimpiya o'yinlari 1972-yil 3–13-fevral kunlari Sapporo shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 35 ta davlatdan 1006 nafar (206 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Qishgi Olimpiya o'yinlari ilk bor Osiyo qit'asida o'tkazilgan. Bu Olimpiya o'yinlarida Filippin sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Olimpiya o'yinlarini Yaponiya imperatori Xiroxito rasman ochib bergan. XI qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – sobiq Ittifoq (8-5-3), 2-o'rin – GDR (4-3-7), 3-o'rin – Norvegiya (2-5-5).

XII qishki Olimpiya o'yinlari 1976-yil 4–15-fevral kunlari Insbruk shahrida (Avstriya) o'tkazilgan. O'yinlarda 37 ta davlatdan 1123 nafar (231 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. XOQ ikkinchi marta Insbruk shahrini tanlagan va bu safar ham olimpiya musobaqalari yuqori darajada tashkil etilgan edi. Bu Olimpiya o'yinlarida Andorra va San-Marino sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Olimpiya o'yinlarini Avstriya prezidenti Rudolf Kirxshlayger rasmiy ochib bergan.

XII qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari: 1-o'rin – sobiq Ittifoq (13-6-8), 2-o'rin – GDR (7-5-7), 3-o'rin – AQSH (3-3-4).

XIII qishki Olimpiya o'yinlari 1980-yil 13–24-fevral kunlari Leyk-Plesid shahrida (AQSH) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 37 ta davlatdan 1072 nafar sportchi qatnashgan. Qishgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun Leyk-Plesid shahri ikkinchi marta tanlangan. Bu Olimpiya o'yinlarida Kipr, Xitoy va Kosta-Rika sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Olimpiya o'yinlarini AQSH vitse-prezidenti

Uolter Mondeyl rasman ochib bergan. XIII qishki Olimpiya o'yinlarining *umumjamoa hisobi natijalari* – 1-o'rin – sobiq Ittifoq (10-6-6), 2-o'rin – GDR (9-7-7), 3-o'rin – AQSH (6-4-2).

XIV qishki Olimpiya o'yinlari 1984-yil 8–19-fevral kunlari Sarayevo shahrida (Yugoslaviya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 49 ta davlatdan 1272 nafar (ulardan 274 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o'yinlarini Yugoslaviya prezidenti Mika Spilyak rasman ochib bergan.

Finlandiya sportchisi Mar'ya Liisa Xyamyalaynen 5, 10, 20 km chang'i poygasi va estafeta bo'yicha birinchi o'rinlarni egallab, Olimpiada o'yinlari qahramoniga aylangan. Shvetsiya sportchisi Gunde Svan 15, 30 va 50 km poyga musobaqalarida oltin medallarga sazovor bo'lgan. XIV qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – sobiq Ittifoq (6-10-9), 2-o'rin – GDR (9-9-6), 3-o'rin – Finlandiya (4-3-6).

XV qishki Olimpiya o'yinlari 1988-yil 13–28-fevral kunlari Kalgari shahrida (Kanada) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 57 ta davlatdan 1423 nafar (ulardan 301 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o'yinlarini Kanada general-gubernatori Jan Savve ochib bergan. XV qishki Olimpiya o'yinlarining *umumjamoa hisobi natijalari* – 1-o'rin – sobiq Ittifoq (11-9-9), 2-o'rin – GDR (9-10-6), 3-o'rin – Shveysariya (5-5-5).

XVI qishki Olimpiya o'yinlari 1992-yil 8–23-fevral kunlari Albervil shahrida (Fransiya) o'tkazilgan. O'yinlarda 64 ta mamlakatdan 1801 nafar (ulardan 488 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o'yinlarini Fransiya prezidenti Fransua Mitteran rasman ochib bergan.

Bu Olimpiya o'yinlarida Sloveniya, Xorvatiya, Braziliya, Irlandiya, Jazoir, Bermud orollari, Svazilend va Gonduras sportchilari birinchi marta ishtirok etganlar. Sobiq Ittifoq sportchilari MDH Birlashgan terma jamoasi sifatida qatnashgan. MDH Birlashgan terma jamoasi tarkibiga 129 nafar sporchi: 110 – Rossiya, 8 – Qozog'iston, 7 – Ukraina, 4 – Belorussiya, 1 nafari O'zbekiston vakillari bo'lgan. Latviya, Litva va Estoniya ilk bor mustaqil davlat sifatida qatnashgan. Musobaqalar 12 ta sport turida 57 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. O'zbekiston sportchisi Lina Cheryazova fristayl bo'yicha ko'rgazmali musobaqalarda ishtirok etib, faxrli 5-o'rinni egallagan.

XVI qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Germaniya (10-10-6), 2-o'rin – MDH (9-6-8), 3-o'rin – Avstriya (6-7-8).

XVII qishki Olimpiya o'yinlari 1994-yil 12–27-fevral kunlari Lillexammer shahrida (Norvegiya) o'tkazilgan. O'yinlarida 68 ta mamlakatdan 1737 nafar (522 ayol) sportchi ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarida sobiq Ittifoq respublikalari Belorussiya, Ukraina, Qozog'iston va O'zbekiston mustaqil davlatlar sifatida ilk bor tashrif buyurgan. Olimpiya o'yinlari dasturida 12 sport turi bo'lib, ular qatoriga fristayl, 500 m va 1000 m short-trek kiritilgan. Norvegiya xalq ertaklarining qahramonlari aka-singil "Xakon va Kristin" o'yinlarning ramziy belgisi sifatida tanlangan.

O'zbekiston terma jamoa tarkibi 7 nafar sportchidan iborat bo'lib, ular Aliki Sergiadu, Dinara Nurbayeva, Muslim Sattarov, Yuris Razgulyaev – figurali uchish; Larisa Udodova, Dmitriy Brener va Lina Cheryazova – fristayl bo'yicha musobaqalarda qatnashgan. Mustaqil O'zbekiston olimpiya harakati tarixida ilk bor Lina Cheryazova olimpiya oltin medaliga sazovor bo'lgan. XVII qishki Olimpiya o'yinlarida umumjamoa hisobida O'zbekiston terma jamoasi 68 ta mamlakat orasida 14-o'rinni egallagan. Fristayl bo'yicha 13 ta mamlakatdan kelgan 22 nafar sportchilar orasida L.Cheryazova birinchi o'rinni egallagan.

XVII qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Norvegiya (10-10-6), 2-o'rin – Germaniya (9-6-8), 3-o'rin – Rossiya (6-7-8).

XVIII qishki Olimpiya o'yinlari 1998-yil 7–22-fevral kunlari Nagano shahrida (Yaponiya) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarida 72 ta mamlakatdan 2176 nafar (ulardan 787 nafar ayol) sportchi ishtirok etgan. Qishki Olimpiya o'yinlarida ilk bor Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Qirg'iziston, Moldova, Isroil, Keniya, JAR, Trinidad va Tobago, Venesuela, Urugvay, Makedoniya, Bosniya va Gertsegovina davlatlarining terma jamoalari qatnashgan. Olimpiya o'yinlarini Yaponiya imperatori Akixito rasman ochib bergan.

O'yinlarning dasturi 14 ta sport turidan iborat bo'lib, dasturga kyorling, snoubording, slalom-gigant kiritilgan. Olimpiya o'yinlarining ramziy belgisi sifatida «Sukki, Nokki, Lekki, Sukki» - to'rtta boyqushi (O'yinlar har 4 yilda o'tkazilishi ma'nosida) tanlangan edi.

Mazkur qishki Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoa tarkibi 13 nafar sportchidan iborat bo'lib, ular 3 ta sport turlari bo'yicha musobaqalarda qatnashgan. O'zbekiston sportchilari yaxshi natijalarga erishib, Tatyana Malinina figurali uchish bo'yicha 30 nafar sportchilar orasida 8-o'rinni, Lina Cheryazova fristayl bo'yicha 24 nafar sportchidan 13-o'rinni, Komil Urunbayev 50 mamlakat sportchilari orasida 28-o'rinni, Roman Skornyakov 24 ta mamlakatdan 29 nafar sportchi orasida figurali o'chish bo'yicha 19-o'rinni egalladilar. Mamlakatimiz sportchilarining qishki Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi O'zbekiston sportining jahondagi mavqeini yanada mustahkamladi.

XVIII qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Germaniya (12-9-8), 2-o'rin – Norvegiya (10-10-5), 3-o'rin – Rossiya (9-6-3).

XIX qishki Olimpiya o'yinlari 2002-yil 8–24-fevral kunlari Solt-Leyk-Siti shahrida (AQSH) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarida 77 ta mamlakatdan 2399 nafar (886 nafar ayol) sportchi qatnashgan. Olimpiya o'yinlarida ilk bor Gonkong, Kamerun, Nepal, Tojikiston va Tailand terma jamoalari ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimi 56500 tomoshabinga mo'ljallangan "Rice Eccles Olympic Stadium" sport kompleksida namoyish etilgan. Olimpiya o'yinlarini AQSH prezidenti Jorj Bush rasman ochib bergan.

XOQ tomonidan Olimpiya o'yinlari yuqori saviyada o'tkazilganligi uchun Solt-Leyk-Siti Tashkiliy qo'mita rahbari Oltin Olimpiya ordeni bilan taqdirlangan. Olimpiya o'yinlari dasturida 15 sport turi bo'lib, ularga bobsley (ayollar), skeleton, biatlon, 1500 m short-trek kiritilgan. Sport musobaqalari 78 ta medallar jamlanmasi uchun o'tkazilgan. Ayollar o'rtasida ikki ekipajli bobsley musobaqalarida AQSH sportchilari Jill Bakken va Vonetta Flauers birinchi o'rinni egallaganlar.

Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi tarkibida 6 nafar sportchi qatnashdan: Kamil Urunbayev va Elmira Urunbayeva (tog' chang'isi); Tatyana Malinina, Roman Skornyakov, Natalya Ponomaryova va Yevgeniy Sviridov (figurali uchish).

Olimpiya o'yinlarining ramziy belgisi sifatida quyon «Pouder» («Poroh»), koyot «Kopper» («Mis») va qora ayiq «Koul» («Ko'mir») tanlangan.

XIX qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Germaniya (12-16-8), 2-o'rin – AQSH (10-13-11), 3-o'rin – Norvegiya (13-5-7).

XX qishki Olimpiya o'yinlari 2006-yil 10–26-fevral kunlari Turin shahrida (Italiya) bo'lib o'tgan. Olimpiya o'yinlarida 80 ta mamlakatdan 2508 nafar sportchi qatnashgan. Qishki Olimpiya o'yinlarida Jazoir, Senegal, Efiopiya vakillari ilk bor ishtirok etgan. Olimpiya musobaqalari 15 ta sport turidan 84 ta (erkaklar o'rtasida 45 ta, ayollar – 37 ta, aralash turlarda – 2 ta) medallar komplekti uchun o'tkazilgan. O'zbekiston terma jamoasi tarkibiga Kayrat Ermetov (tog' chang'isi), Marina Aganina va Artem Knyazyev (figurali uchish), Anastatsiya Gimazetdinova (figurali uchish) kirganlar. Qishki Olimpiadalar tarixida ilk bor O'zbekiston vakili Yevgeniy Rohin figurali uchish musobaqalarida hakamlik qilgan. XX qishki Olimpiya o'yinlarida umumjamoa hisobida 1-o'rinni Germaniya, 2 -o'rinni AQSH, 3 -o'rinni Avstriya egallagan.

XXI qishki Olimpiya o'yinlari 2010-yil 12–28-fevral kunlari Vankuver shahrida (Kanada) o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlarida 82 ta mamlakatdan 2574 nafar sportchi qatnashgan. Olimpiya o'yinlarining ochilish va yopilish marosimlari Vankuver markazida joylashgan va 55 ming tomoshabinlarga mo'ljallangan «BC Place» yopiq stadionida namoyish etilgan. Olimpiya dasturi 15 ta sport turidan iborat bo'lgan. Olimpiya o'yinlari g'oliblari uchun 615 ta olimpiya va 399 ta paralimpiya medallari ishlab chiqilgan va ularning diametri 100 mm, qalinligi 6 mm, og'irligi 500 dan 576 grammgacha bo'lgan.

O'zbekistondan bu Olimpiya o'yinlariga 3 nafar sportchi - Kseniya Grigoryeva va Oleg Shamayev (tog' chang'isi), Anastatsiya Gimazetdinova (figurali uchish) ishtirok etgan.

XXII qishki Olimpiya o'yinlari 2014-yil 7–23-fevral kunlari Sochi shahrida (Rossiya) o'tkazilgan. Bu Olimpiya o'yinlarida 88 ta davlatdan 2800 nafar sportchi qatnashgan. Olimpiya mash'alasi estafetasi Moskva shahrida boshlanib, 123 kun davomida Rossiya Federatsiyasining 83 ta hududini bosib o'tgan va 40 ming kilometrdan ortiq masofani tashkil etgan. Olimpiya estafetasida 14 ming sportchi ishtirok etgan. Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimi "Fisht" stadionida namoyish etilgan. O'yinlar dasturiga 15 ta sport turidan 98 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkazilgan. Sochi

Olimpiya o'yinlarining ramziy belgisi sifatida "Oq ayiq", "Qor yo'lbarsi" va "Oq quyoncha" tanlangan.

XXII qishki Olimpiya o'yinlarining umumjamoa hisobi natijalari – 1-o'rin – Rossiya (13-11-9), 2-o'rin – Norvegiya (11-5-10), 3-o'rin – Kanada (10-10-5).

Qishki olimpiya sport turlarining tavsifi. Olimpiya Xartiyasi talabiga ko'ra olimpiya dasturiga kiritilishi uchun qishki sport turi jahonning 2 ta kontinenti va 25 ta mamlakatlarida keng rivojlangan bo'lishi kerak. Qishki Olimpiya o'yinlarining zamonaviy dasturiga – konkida yugurish, chang'i poygasi, short-trek, chang'ida tramplindan sakrash, bobsley, tog' chang'isi sporti, chana sporti, skeleton, fristayl, konkida figurali uchish, snoubording, shaybali xokkey, kyorling, biatlon, chang'ida ikki kurash kiritilgan.

Konkida tez yugurish sport turi 500, 1500, 5000 va 10000 m masofalaridan iborat. Konkida tez yugurish musobaqalari I qishki Olimpiya o'yinlari (1924 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Charlz Jutrou 500 m masofasida g'olib bo'lgan. VIII qishki Olimpiya o'yinlari (Skvo-Velli, 1960 y.) dasturiga ilk bor ayollar o'rtasida 500,1000,1500 va 3000 mga konkida tez yugurish musobaqalari kiritilgan. Ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni sobiq Ittifoq sportchisi Lidiya Skoblikova bo'lgan.

Qishki Olimpiya o'yinlari tarixida konkida tez yugurish musobaqalarida Norvegiya sportchilari eng ko'p medallarga (78 ta) sazovor bo'lgan. Keyingi o'rinlarni Niderlandiya (66 ta medal), sobiq Ittifoq (60), AQSH (56), Germaniya, Finlandiya, Kanada, Shvetsiya Yaponiya, Avstriya terma jamoalari egallagan.

Chang'i poygasi – chang'ida tez yugurish musobaqalari I qishki Olimpiya o'yinlari (Shamoni,1924 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – Norvegiya sportchisi Turleyf Xaut 18 va 50 km masofaslarida g'olib bo'lgan.

Qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga erkaklar o'rtasida 4x10 km chang'i estafetasi, 15 km (18 km o'rniga), 30 km chang'ida poyga, ayollar o'rtasida 10 kmga chang'i poygasi va 3x5 km chang'i estafetasi kiritilgan. VI qishki Olimpiya o'yinlari (Oslo, 1952 y.) dasturiga ilk bor ayollar o'rtasida 10 kmga chang'ida yugurish musobaqalari kiritilgan. Ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni – Finlandiya sportchisi Lidiya Videman bo'lgan.

Short-trek – (ingl. *short* – qisqa, *track* – yo'l) konkida tez yugurishning o'ziga xos turi bo'lib, muz ustida xokkey maydonining ichida belgilangan maxsus aylanma yo'laklarda qisqa masofalarga konkida yugurish musobaqalaridan iborat. XV qishki Olimpiya o'yinlarida (Kalgari, 1988 y.) short-trek bo'yicha ko'rgazmali musobaqalar o'tkazilgan. XVI qishki Olimpiya o'yinlarida (Albervil, 1992 y.) ilk bor short-trek olimpiya dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – Koreya sportchisi Kim Ki Xun 1000 m masofasida g'olib bo'lgan. Ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Keti Terner 500 m masofasida g'olib bo'lgan.

Chang'ida tramplindan sakrash – chang'i sportining bir turi bo'lib, uning vatani Norvegiya hisoblanadi. I qishki Olimpiya o'yinlarida chang'ida tramplindan sakrash ilk bor olimpiya dasturiga kiritilgan. Bu sport turidan musobaqalar faqat erkaklar o'rtasida o'tkaziladi. Birinchi olimpiya chempioni – Norvegiya sportchisi Yakob Tullin Tams bo'lgan. 1972-yildan boshlab "o'rta" va "katta" tramplindan sakrash (70 m va 90 m) musobaqalariga "chang'ida parvoz", deb nomlangan turi qo'shilgan. 1992-yilda 70 m va 90 m tramplindan sakrash musobaqalari 90 m va 120 m tramplindan sakrash musobaqalariga o'zgartirilgan. Qishki Olimpiya o'yinlarida umumjamoa medallar hisobida 1-o'rinni Norvegiya, 2-o'rinni – Finlandiya, 3-o'rinni Avstraliya terma jamoasi egallagan. Finlandiya sportchisi Matti Nyukyanen tramplindan sakrash bo'yicha eng ko'p medallarga (5 ta oltin va 1 ta kumush) sazovor bo'lgan.

Bobsley – chanada maxsus muz trassa bo'ylab tog'dan tez uchib tushish musobaqasidir. Bobsley uchun trassa turli keskin burilishlardan iborat muz yo'lak shaklida bo'lib, uning asosi temir-beton bilan qoplangan. Bobsley chanasining trassa tezligi soatiga 100 km gacha yetadi, uning boshqaruv ruli va tormozi bor. Bobsley trassasining uzunligi, start va finish orasidagi balandlik, yo'lakdagi burilishlar soni doimiy bir xil bo'lmagan. Masalan, Leyk-Plesid (1932 y.) da trassa uzunligi 2366 m, vertikal balandlik o'zgarishlari – 228 m, trassa burilishlari – 26 ta bo'lgan. Lillexammerda (1994 y.) esa bobsley musobaqalari 1365m - trassa, 107 m - balandlik va 16 ta burilishlardan iborat bo'lgan. Ko'p yillar mobaynida bu sport turi bo'yicha musobaqalar faqat erkaklar o'rtasida o'tkazilgan.

Bobsley vatani Shveysariya hisoblanadi. 1896-yilda Sankt-Morits shahrida bobsley bo'yicha birinchi sport klubi tashkil qilinib, musobaqa qoidalari ishlab chiqilgan. Dastlab bobsley chanasining ekipaj a'zolari besh kishidan iborat bo'lgan, keyinchalik esa ularning tarkibi ikki, to'rt, sakkiz nafargacha o'zgargan.

Bobsley musobaqalari ilk bor I qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempionlari – Shveysariya terma jamoasining to'rttalik chana ekipaj a'zolari bo'lgan. XIX qishki Olimpiya o'yinlari (2002 y.) dasturiga ilk bor ayollar o'rtasida bobsley kiritilgan. Bobsley bo'yicha ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchilari Jil Bakken va Vonetta Flauers bo'lganlar. Qishki Olimpiya o'yinlarida bobsley bo'yicha eng ko'p medallar hisobida 1-o'rinni Shveysariya, 2-o'rinni–AQSH, 3-o'rinni Germaniya sportchilari egallagan.

Skeleton – (ingl. *skeleton* – skelet) chana sportining turi bo'lib, sportchi harakat yo'nalishi bo'yicha chanada boshi oldinga, yuzi pastga qaragan holatda joylashgan bo'ladi. Skeleton chanasining boshqaruv ruli bo'lmaydi va chana oyoq kiyimining maxsus bo'rtmalari orqali boshqariladi. Skeleton vatani – Shveysariya. 1887-yilda Sankt-Morits shahrida birinchi skeleton chanasi yasalgan va sport musobaqalari boshlangan.

Skeleton musobaqalari ilk bor II qishki Olimpiya o'yinlari (1928 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Jennison Xiton bo'lgan. Skeleton 1948-yilda 20 yillik hamda 2002-yilda 54 yillik tanaffusdan so'ng yana olimpiya dasturiga kiritilgan. Ko'p mamlakatlarda xalqaro talablarga javob beradigan skeleton trassalari bo'lmaganligi sababli, bu sport turi uzoq vaqt davomida olimpiya dasturiga kiritilmagan. 2002-yilda ayollar o'rtasida musobaqalar o'tkazilgan va skeleton bo'yicha birinchi ayol olimpiya chempioni – AQSH sportchisi Tristan Geyl bo'lgan. Qishki Olimpiya o'yinlari tarixida umumjamoa hisobida 1-o'rinni – AQSH, 2-o'rinni – Buyuk Britaniya, 3-o'rinni Italiya sportchilari egallagan.

Snoubording – (ingl. *snow* – qor, *board* – taxta) qishki sport turi bo'lib, sportchi maxsus taxta ustida tik turgan holatda qor bilan qoplangan yarim aylana shaklidagi inshoot ichida akrobatik mashqlarni bajaradi. Snoubording inshooti yarim quvur shaklida quriladi, shuning uchun uning nomi half-payp inglizcha "half" –

yarim, "pipe"- truba, quvur ma'nolarini anglatadi. Musobaqalar ikki xil - half-payp va slalom-gigant snoubordingdan iborat.

Sport turi sifatida snoubording 1960-yillardan boshlab rivojlangan va aynan shu yillarda amerikalik kashfiyotchi Sherman Poppen qorli qoyalarda qor taxtacha ustida uchishni o'ylab topgan. Snoubording bo'yicha birinchi musobaqalar 1981-yilda Vudston (AQSH) o'tkazilgan, 1982-yilda esa Vermont shtatida (AQSH) bu sport turi bo'yicha birinchi xalqaro musobaqalar bo'lib o'tgan. 1983-yilda Soda-Spring shahrida (Kaliforniya) snoubording bo'yicha birinchi Jahon chempionati o'tkazilgan. 1990-yillarda Xalqaro snoubording federatsiyasi (ISF) tashkil topgan.

Snoubording musobaqalari ilk bor XVIII qishki Olimpiya o'yinlari (Nagano,1998 y.) dasturiga kiritilgan. Birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Shveysariya sportchisi Jan Simmen, ayollar o'rtasida – Germanya sportchisi Nikolya Tost bo'lgan. Qishki Olimpiya o'yinlarida snoubording bo'yicha eng ko'p medallarga AQSH, Fransiya, Shveysariya, Germaniya sportchilari sazovor bo'lgan.

Fristayl – (ingl. *free* – erkin, *style* – usul), qishki sport turi, uch xil musobaqalardan iborat: mogul (murakkab sakrashlar bilan notekis trassadan chang'ida uchib tushish), chang'ida akrobatika, chang'ida balet. Fristayl sport turi sifatida ilk bor 1966-yil AQSHning Attitash shahridagi musobaqalarda namoyish qilingan. 1975-yildan boshlab har yili fristayl bo'yicha Jahon kuboklari o'tkazilmoqda. 1979-yilda Xalqaro chang'i sporti federatsiyasi (FIS) tarkibida fristayl bo'yicha texnik qo'mita tuzilgan va bu sport turi FIS rahbarligida o'tkaziladigan xalqaro musobaqalar dasturiga kiritilgan. 1980-yillarga kelib fristayl 30 dan ziyod mamlakatlarda rivojlangan. 1986-yil Fransiyada bu sport turi bo'yicha birinchi Jahon chempoinati o'tkazilgan.

XV qishki Olimpiya o'yinlarida (Kalgari, 1988 y.) fristayl bo'yicha ko'rgazmali musobaqalar o'tkazilgan. XVI qishki Olimpiya o'yinlari (1992 y.) dasturiga fristaylning mogul musobaqalari kiritilgan. Mogul bo'yicha birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Fransiya sportchisi Edgar Grospiron, ayollar o'rtasida – AQSH sportchisi Donna Ueynbrext bo'lgan.

XVII qishki Olimpiya o'yinlari (1994 y.) dasturiga fristaylning mogul va chang'ida akrobatika turlari kiritilgan. Chang'ida akrobatika bo'yicha birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Shveysariya sportchisi Andreas Shyonbexler, ayollar o'rtasida O'zbekiston

sportchisi Lina Cheryazova bo'lgan. Fristayl bo'yicha eng ko'p medallarga AQSH, Norvegiya, Kanada, Fransiya, Finlandiya sportchilari sazovor bo'lgan.

Kyorling – (ingl. *curl* – aylantirmoq), muz ustida kegli o'yinining turi, XIV asrda Shotlandiyada paydo bo'lib, so'ng Yevropa va Kanada mamlakatlarida keng tarqalgan. XIX asrda uning shotlandcha, nemischa va shveysarcha o'yin usullari mavjud bo'lgan. 1950-yilda Yevropa va Amerika bir qator mamlakatlarining milliy federatsiyalari tashabbusi bilan Xalqaro kyorling federatsiyasi (FIK) tashkil topgan. 1951-yildan boshlab bu sport turi bo'yicha Yevropa chempionatlari muntazam o'tkazilmoqda.

Zamonaviy kyorling – qishki sport o'yini, 40x30 m muz maydonida o'ynaladi. O'yin maqsadi – muz ustuda chizilgan nishonga bitta – diskni (20 kg) tushirish. Bitta chizig'i nishondan 31 m masofada bo'ladi. Kyorling bo'yicha ko'rgazmali musobaqalar I, III, IV, IX, XV, XVI qishki Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. Nihoyat, 1994-yilda XOQ sessiyasida kyorling sport turini olimpiya dasturiga kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilingan. XVIII qishki Olimpiya o'yinlarida (1988 y.) kyorling musobaqalari ilk bor o'tkazilgan. Kyorling bo'yicha birinchi olimpiya chempionlari – erkaklar o'rtasida Shveysariya, ayollar o'rtasida – Kanada terma jamoalari bo'lgan. Olimpiya musobaqalarida kyorling bo'yicha eng ko'p medallarga Kanada, Shveysariya, Norvegiya sportchilari sazovor bo'lgan.

"Olimpiya musobaqalarining o'sish darajasi. 1980-yillarning boshida havaskorlik statusidan voz kechilgan, O'yinlarga aniq ijtimoiy-sinfiy xarakter berildi. Dastlabki o'yinlarga ayollar umuman qatnashmagan va faqatgina 1980-yillardan boshlab, ular uchun to'liq dasturlar ochila boshlandi. Hattoki hozirgi vaqtda ham chang'ida sakrashda bahslashish va ziddiyatlar sohasi qolmoqda. Paralimpiya o'yinlari dasturga kiritilishi uchun uzoq vaqt davom etgan kurashdan keyin ham hozirga qadar alohida tadbir bo'lib qolmoqda.

Sportda halollik va teng o'yin maydonlariga erishish qiyin, chunki moddiy sharoitlardagi tengsizlik millatlar o'rtasidagi resurslarda juda katta farqlar uchun asos bo'ladi. Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlarda millatchilik, elita bo'lgan atletik tanalarni va yuqori ixtisoslashgan sportchilarni ishlab chiqish vositasida oltin medallarga erishishga intilishni tezlatadi. Olimpiya oltin medalining qiymati oshdi.

23-jadval

1924 – 2014-yillarda o'tkazilgan Qishki Olimpiya o'yinlari

№	Yil	O'tkazilgan joyi	Mam-lakat	Sport-chi	1-o'rin (davlat)
I	1924	Shamoni, Fransiya	16	293	Norvegiya
II	1928	Sankt-Morits, Shveysariya	25	464	Norvegiya
III	1932	Leyk-Plesid, AQSH	17	252	AQSH
IV	1936	Garmish-Partenkirxen, Germaniya	28	646	Norvegiya
V	1948	Sankt-Morits, Shveysariya	28	669	Shvetsiya
VI	1952	Oslo, Norvegiya	30	694	Norvegiya
VII	1956	Kortina-d'Ampettso, Italiya	32	821	SSSR
VIII	1960	Skvo-Velli, AQSH	30	665	SSSR
IX	1964	Insbruk, Avstriya	36	1091	SSSR
X	1968	Grenobl, Fransiya	37	1158	Norvegiya
XI	1972	Sapporo, Yaponiya	35	1006	SSSR
XII	1976	Insbruk, Avstriya	37	1123	SSSR
XIII	1980	Leyk-Plesid, AQSH	37	1072	SSSR
XIV	1984	Sarayevo, Yugoslaviya	49	1274	GDR
XV	1988	Kalgari, Kanada	57	1634	SSSR
XVI	1992	Albervil, Fransiya	64	1801	Germaniya
XVII	1994	Lillexammer, Norvegiya	67	1923	Rossiya
XVIII	1998	Nagano, Yaponiya	72	2176	Germaniya
XIX	2002	Solt-Leyk-Siti, AQSH	77	2399	Germaniya
XX	2006	Turin, Italiya	84	2573	Germaniya
XXI	2010	Vankuver, Kanada	82	2574	Kanada
XXII	2014	Sochi, Rossiya	88	2800	Rossiya
XXIII	2018	Pxyonchxan, Jan. Koreya			

Qishki Olimpiya o'yinlari 1924-2014-yillar davomida jami 22 marotaba o'tkazildi.

- **I qishki Olimpiya o'yinlarida (Shamoni, 1924 y.) 16 ta mamlakadan 293 nafar sportchi qatnashgan.**
- **XXII qishki Olimpiya o'yinlarida (Sochi, 2014 y.) 88 ta davlatdan 2800 nafar sportchi qatnashdi.**

Jins masalasi: olimpiya sporti – jinsiy farqlarni namoyish qilish vositasi sifatida. Ayollar ilk bor, 1900-yili Parijda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlariga kiritilgan, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, ushbu o'yinlarda 22 nafar ayol ishtirokchi bo'lgan yoki musobaqalar ishtirokchilarining umumiy sonidan 2,3% (Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 2010a). Pekinda, 2008-yili ayollarning ishtiroki ulushi – 42% bo'lgan, bu, 1960-yildagi 12% (Rim), 1980-yili 22% (Moskva) va 2000-yili 38% (Sidney) ga nisbatan rekord darajani tashkil qilgan. Ayollar 28 ta olimpiya sport turlaridan 26 tasida va 137 ta musobaqa turlarida ishtirok etishgan. Bu, erkaklar musobaqalashgan 137 ta tur bilan taqqoslanganida kam va shu tarzda, ushbu disbalans – tanqidiy diqqatni o'ziga jalb qilinishini davom ettiradigan bir soha hisoblanadi.[73]

Kubertenni "Agarda, ayrim ayollar futbol o'ynashni yoki boksni xohlashsa, bunday hodisa tomoshabinlarsiz o'tishi sharti bilan o'ynayversinlar, chunki bunday musobaqalarga bormoqchi bo'lgan tomoshabinlar, u yerda sportni tomosha qilish uchun bormaydilar" degan fikriga qaramasdan (Kuberten 2000 [1928]: 189), 2009-yilning avgust oyida XOQ havaskorlik boksining Xalqaro assotsiatsiyasidan (IABA) ayollarni boks bellashuvlariga kiritishni so'ragan. Londonda 2012-yili ayollar boksi birinchi marta Yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan.

XOQ 2011-yilning aprel oyida, birinchi marta, chang'ida tramplindan sakrash bo'yicha ayollar sakrashlari Sochi shahrida (Rossiya) 2014-yili bo'lib o'tadigan Qishki Olimpiya o'yinlariga kiritilganligini e'lon qildi. 2010-yilning oktabr oyida XOQning Ijrochi Kengashi o'zining qarori ijrosini keyinga surdi. Chang'i sportining Xalqaro federatsiyasi, umumjahon rahbar organi, sportning ushbu turini kiritilishini qo'llab-quvvatladi. Bu ham Olimpiya o'yinlarida qo'shimcha (ayollar) sport turi uchun tasdiqni olishga urinishda e'tiborga molik. Bu, kanadalik hakam 2009-yili qaror qilgan,

---

[73] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 170 p.

Vankuverda 2010-yili bo'lib o'tadigan Qishki Olimpiya o'yinlaridan oldin, ayollar diskriminatsiyaga uchragan bo'lsalar ham, masala XOQning majburiyatiga kirgan va shu tarzda, Kanadaning qonunlariga bo'ysinmagan.

Ayollarni tramplindan chang'ida sakrashlari: olimpiya sport turi bo'lish huquqi uchun kurash. Tramplindan chang'ida sakrashlar (erkaklar uchun) Qishki Olimpiya o'yinlari tarkibiga 1924-yilgi Shamoni Mon-Blandagi birinchi o'yinlar davridan boshlab kiritilgan. [74]

Ayollar musobaqalarisiz, erkaklar musobaqalarining mavjudligi, elita ayollar musobaqalari sohasi o'sishi bilan birga asosiy nizo bo'lib qoldi. Chang'i sportining Xalqaro federatsiyasi (MFLS) 2006-yilning may oyida Chexiya Respublikasi Liberets shahrida 2009-yili bo'lib o'tgan sportning chang'i turlari bo'yicha Jahon chempionatida ayollarni tramplindan chang'ida sakrashlarga qo'yishga (g'olib – Lindsi Van, AQSH), keyin esa, 2011-yili Oslo shahridagi Jahon chempionatida ayollar uchun jamoaviy musobaqalarni tashkil qilishga qaror qilgan. MFLS ayollar uchun tramplindan chang'ida sakrash bo'yicha jahon Kubogi turnirini 2011-2012-yillardagi mavsumda boshlashni ham rejalashtirgan. Ayollar, 2005-yildan boshlab, kontinental Kubok seriyalarida musobaqalashganlar.

MFLS 2006-yili Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga ayollarni 2010-yili Vankuverda bo'lib o'tadigan Qishki Olimpiya o'yinlariga qo'yish taklifini kiritishga qaror qilgan. O'sha yilning noyabr oyida, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Ijrochi Qo'mitasi 2010-yildagi ayollar uchun tramplindan chang'ida sakrash bo'yicha musobaqalar to'g'risidagi taklifni rad qilgan. Sababi sifatida sportchi ayollar sonining kamligi hamda sportning ushbu turida ishtirok etadigan mamlakatlar sonining yetishmasligi ko'rsatilgan. Ijrochi Qo'mitaning ta'kidlashicha, ayollar uchun tramplindan chang'ida sakrashlar, xalqaro darajada hali to'liq o'z o'rnini topgan emas. Jak Rogge ayollar uchun tramplindan chang'ida sakrash musobaqalarida potensial ishtirok etuvchilarning soni nisbatan kamligini ko'rsatgan holda, ayollar uchun tramplindan chang'ida sakrashlar olimpiya sport turi

---

[74] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 146 p.

bo'lmasligini, chunki "biz, medalning qadr-qimmati aralashib va yuvilib ketishini istamaymiz" deb aytgan. [75]

Tramplindan chang'ida sakrashlarda ayollarning soni yetarli bo'lmasa ham, mazkur soha iqtidorlilari qismida ancha keng bo'lib qoldi. Iqtidor sohasi, barcha erkaklar yuqori pog'onadagi musobaqalardagi kuchi bo'yicha o'xshash darajada joylashishgan, ayollar esa, hattoki yuqori pog'onalarda ham katta farq qiladi.

Ayollar uchun tramplindan chang'ida sakrash tarafdorlari, boshqa tomondan, 16 ta mamlakatlarda yuksak darajaga ega bo'lgan 135 nafar tramplindan chang'ida sakraydigan ayollar borligi ta'kidlanadi, bu, Qishki o'yinlar tarkibiga kirgan sportning ayrim boshqa turlarida bunday darajada musobaqalashadigan ayollar sonidan ko'pdir.

Tramplindan chang'ida sakrash musobaqalarida ishtirok etgan 15 nafar ayollar guruhi Vankuverning Tashkiliy qo'mitasi (VANOC) ustidan da'vo arizasi berishgan, unda tramplindan chang'ida sakrash bo'yicha erkaklar o'rtasida musobaqalarni 2010-yilgi Vankuverdagi Olimpiya o'yinlarida ayollar musobaqalarisiz o'tkazilishi, Kanada Huquqlar va Erkinliklar Xartiyasining 15 bo'limini buzadi, deb yozishgan. Ayol sportchilar, VANOC ayollar o'rtasida tramplindan chang'ida sakrash musobaqalarini 2010-yili yo o'tkazilishi yoki tramplindan chang'ida sakrash bo'yicha barcha musobaqalarni bekor qilish kerakligi to'g'risida sudning qarorini talab qilishgan.

VANOC ning ta'kidlashicha, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi o'yinlarga sportning qaysi turlari kiritilishini hal qiladi va Xartiya bunga taalluqli emas. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, o'z tomonidan, ayollar o'rtasida tramplindan chang'ida sakrash musobaqalarini 2010-yilgi Vankuverdagi Olimpiya o'yinlarida o'tkazilmasligi to'g'risidagi qarori diskriminatsiya jihatidan emas, balki texnika nuqtayi nazaridan kelib chiqilganini aytgan. Mazkur da'vo arizasi bilan bog'liq bo'lgan argumentlar 2009-yilning aprel oyida sud tomonidan ko'rib chiqilgan va qaror chang'ida tramplindan sakraydigan ayol sportchilarga qarshi qabul qilingan. Sudya, ayollar diskriminatsiya qilinganligiga qaramasdan, masala Xalqaro Olimpiya

---

[75] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 170 p.

Qo'mitasi majburiyatiga kirishi va shunday qilib, Kanadaning Xartiyasiga bo'ysunmasligi to'g'risida qaror qabul qilgan.[76]

Sud, qo'shimcha tarada qabul qilgan qarorida Kanada Huquqlar va Erkinliklar Xartiyasi VANOC ga taalluqli emasligini ta'kidlagan. Buning oqibatida, Britaniya Kolumbiyasining uch nafar sudyalari appelatsion arizani 2009-yilning 13 noyabrida bir ovozdan rad qilishgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 2006-yili bergan xabari bo'yicha, oldingi jahon chempionatlari ayrim musobaqalarning qaysilari 2010-yilgi Qishki Olimpiya o'yinlariga kiritilishini aniqlash uchun qo'llanilgan bir nechta mezonlarning biri bo'lgan. "Musobaqalar miqdori bo'yicha ham va geografiyasi bo'yicha ham tan olingan xalqaro ahamiyatga ega va kamida ikki marta jahon va kontinental chempionatlar tarkibiga kiritilgan bo'lishi kerak".

Berilgan xabarda ta'kidlanishicha, kyorling o'yiniga aralash juftliklarni va ayollar o'rtasida tramplindan chang'ida sakrashlarni 2010-yilning Qishki o'yinlariga kiritilmasligi to'g'risidagi qaror qabul qilingan, chunki ularning rivojlanishi hali ancha erta bosqichida va shunday qilib, musobaqa dasturga kiritilishi uchun talab qilinadigan ishtirokni va texnik standartlarni xalqaro tarqalganligi yetarli emas". Lekin, ayollar o'rtasida tramplindan chang'ida sakrashlarni kiritsh tarfadorlarining aytishicha, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi ushbu talabni 2007-yili rasmiy tarzda rad qildi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini boshqaradigan Ijrochi qo'mita 2010-yilning oktabr oyida, Prezident Jak Rogge raisligi ostida Milliy Olimpiya Qo'mitalari bilan qo'shma majlis o'tkazdi. Ijrochi Kengash ayollar o'rtasida tramplindan chang'ida sakrashlarni uchinchi marta kiritish masalasini ko'rib chiqqan. MFLS Prezidenti Djan-Franko Kasper xabariga ko'ra, u, taklif qilingan beshta chang'i musobaqalarining barchasi birdaniga bo'lmasa ham kelgusi oylarda tasdiqdan o'tishi to'g'risida optimizmga to'la. Uning aytishicha "Ular uchun qo'shimcha kurslarning yoki biron-bir narsani qurishning keragi yo'q va dasturda joy yetarli". Lekin Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi qaror qabul qilishni 2011-yilning aprel oyiga qadar qoldirgan.[77]

---

[76] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 171 p.

[77] «O'sha kitob», 2012. – 172 b.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Ijrochi Kengashi xabar qilishicha, ularga yakuniy qaror qabul qilishlari uchun ko'proq vaqt kerak va u, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Prezidenti Jak Rogge tomonidan, mazkur sport turlari bo'yicha jahon chempionatlari o'tkazilganidan keyin qabul qilingan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining aytishicha, sport turlarining kiritilishi universallikni, jinslarning tengligini va yoshlar uchun jozibaligini oshiradi va umuman olganda, o'yinlarga qadr-qimmatni qo'shadi, lekin ularni o'rganish uchun ko'p vaqt ajratilishini xohlaydi.

Oslo shahrida 2011-yilning fevral oyida o'tkazilgan jahon chempionatidan keyin MFLS Prezidenti Djan-Franko Kasper ayollar o'rtasida tramplindan chang'ida sakrashlar 2014-yilgi Olimpiya o'yinlariga kiritiladi, deb optimizmga to'la ekanligini aytgan. Lekin Xalqaro Olimpiya Qo'mitasidan yakuniy tasdiqlanishini 2011-yilning aprel oyidagi majlisga qadar kutish kerak.

Sportda jinsiy belgilari bo'yicha ajratish sport imkoniyatlaridagi real jinsiy farqlanishlarni aks etmaydi, lekin buning o'rniga, erkaklar tabiatan atletik jihatidan ayollardan ustun, degan taxminni tartiblashtirish va hayotga tatbiq etishga yordam beradi. Ushbu taxmin, uchta farazlarda tuzilgan bo'lib, ular o'n to'qqizinchi asrdagi ayollar sport tanasi va ayolni jamiyatdagi tegishli roli to'g'risidagi ishonchdan boshlanadi: ayollarni erkaklar bilan taqqoslangandagi to'la qimmatli emasligi; ayollarni musobaqalar paytida jarohatlanishlardan himoya qilishning zarurligi; erkaklar bilan bevosita raqobat qiladigan ayollarning axloqsizligi.[78]

Taxminlarga ko'ra, ushbu takliflar bo'yicha to'rt bosqichli jarayondan o'tishni talab qiladi: (1) ayollarni sportning ma'lum bir turlarida ishtirok etishlari to'g'risida bahslashish; (2) ayollarni jinslarni ajratish asosida sport faoliyatiga ruxsat berish; (3) ayollarni jinslarni ajratish asosida sport dasturlariga kiritish; (4) ayollarga sport faoliyatini jinsiy belgilar bo'yicha birlashtirish yoki ajratishni (ya'ni majburiy emas, balki ixtiyoriy tarzda jinsi bo'yicha ajratish asosida) tanlashga ruxsat berish. Muammo shundaki, bu, to'g'ri liniyali jarayon emas, balki chekinishlarni hamda oldinga borishlarni anglatishi mumkin bo'lgan kurashga asoslangan. Ayollar sporti Fondi (WSF) uchun (2009) "Ayollar 2000, 2004 va 2008-yillardagi Olimpiya va

[78] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 173 p.

Paralimpiya o'yinlarida" nomli ma'ruzadasi, quyidagi xulosalar qilingan:

Progressga erishilgan bo'lsa ham Olimpiya o'yinlari – bu, juda katta korxona bo'lib, unda progress va tengsizlik birgalikda mavjud bo'ladi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 2008-yili 45 foizni ayollar uchun rejalashtirgan, lekin aslida, ushbu oshirilish ishtirok etadigan ayollar sonini erkaklarning sonini kamaytirilishi hisobiga ortishi natijasi bo'lgan. Ishtirok etuvchi ayol sportchilar va erkak sportchilar o'rtasidagi farq to'g'risidagi muammo, keyingi oxirgi ikkita olimpiadalar davomida, asosan erkaklar ulushining kamaytrilishi hisobiga hal qilingan. Bu, paralimpiya ishtirokchilari bo'lgan ayollar va erkaklar uchun ham haqiqiydir. Paralimpiya dasturiga bir nechta korreksiyalar kiritilgan bo'lib, u, ayol sportchilar uchun tasniflarning sonini oshirish bilan birga, erkak sportchilar uchun kamroq tasniflarni taklif qiladi.

"Bayram, tomosha, karnaval va iste'mol". *«Olimpiya o'yinlari televizion tomosha va xalq bayrami bo'la olmaydi». Olimpiya o'yinlari madaniy tadbir sifatida bayram hamda tomosha jihatlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, Olimpiya o'yinlariga, ular o'rtasidagi taranglikka va diqqatni festivalga ham va bitta mega-hodisadagi ko'rsatuvga ham qaratib turishning qiyinligiga nisbatan har xil qarashlarni ko'rsatadi. Lekin katta shaharda bunday yirik hodisani tashkil qilinishi qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi – odamlar buni tantana qilishni va bayramona tashkil etishni xohlashadi.* [79]

Olimpiya o'yinlari stadionlar bilan chegaralanmaydi va ularni bayram hamda xursandchilik atmosferasini tashkil qilish mumkin bo'lgan uylarda, barlarda, savdo markazlarida va bog'larda ham televizor orqali tomosha qilishadi. Olimpiya bog'i bayram markazi bo'lishi mumkin. Olimpiya olovini olib o'tilishi, xuddi fazodagi va vaqt ichidagi kabi olimpizm atmosferasini kengroq yaratadi. O'z-o'zidan tadbirlar, noformal tantanalar, rejalashtirilmagan xursandchiliklar va liboslar bilan karnavalli ko'rsatuvlar tashkil qilinadi. Bunday harakatlarni rag'batlantirish va ularga ko'maklashish yoki ular ustidan politsiyaning nazorati, o'yinlarga shaharning jamoatchiligi his qiladigan mos ravishdagi tusni berishga yordam beradi.

---

[79] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 174 p.

Xavfsizlik talablari tashkiliy qo'mitalarni umumiy tomoshabinlardan shubhalanish an'anasiga ega bo'lib, ular, o'z tartibsizligi bilan bayramga o'z ulushini qo'shadigan faol ishtirokchilar sifatida emas, balki ko'proq darajada nazorat qilinadigan, yo'naltiriladigan va tashkil qilinadigan element sifatida ko'rib chiqiladi.

Hokimiyatlar, yirik sport tadbirlari vaqtida, ko'pincha chiptalari bo'lmagan fuqarolar uchun ekranlar o'rnatishadi. Bu, jamoatchilik nazorati nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir, odamlarni maxsus uchastkalarda mujassam bo'lishlarini rag'batlantirish orqali politsiya tomonidan nazorat qilinishi oson bo'ladi. Hattoki Pekinda, ekranlar shahar atroflarida ham o'rnatildi. Olimpiya o'yinlarining oxirgi bir necha kunida ko'chalardagi olomonni ko'rib, asablar chidamaydigandek tuyuldi. Ochilish marosimi paytida, bevosita ko'rsatadigan ko'pchilik ekranlar ishlab turdi. Xitoy fuqarolari ko'chalarga chiqmaslikka majbur bo'lishgan va ochilish marosimini uylarida ko'rishgan. [80]

O'yinlarning birinchi kunlarida, Pekin markazida o'rnatilgan bevosita translatsiya qiladigan ekranlar bevosita sport musobaqalarini emas, balki oldingi musobaqalarni, jumladan xorijdan kelgan mehmonlarni olqishlagan Xitoy rahbarlarini toliqtiradigan tahrir qilingan momentlarini ko'rsatgan. Bundan farqli ravishda 2012-yilgi Londondagi o'yinlarda jonli uzatadigan ekranlar butun mamlakat bo'yicha – bog'larda, barlarda, skverlarda, savdo markazlarida o'rnatilgan.

Olimpiya binolari borgan sari e'tiborli joyga aylangan, lekin xavfsizlik masalalari, ko'pincha chiptalari bo'lmagan odamlar masofadan turib kuzatish bilangina chegaralanishini anglatadi.

Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining yuzaga kelishi festivalni o'ziga jalb qildi, "Much Wenlock" o'yinlari o'z xarakteri bo'yicha bayromana bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda. O'yinlarning rivojlanishi bilan ularning marosimlari ham, jumladan ochilish va yopilish marosimlari rivojlangan. Televizor ixtiro qilinguniga qadar, tabiiyki, tomoshalarning ushbu shakllari juda farq qiladigan xarakterga ega bo'lgan, ular faqatgina arenaga tashrif buyurgan tomoshabinlar uchun ishlab chiqilgan, sodir bo'layotgan hodisalarni elektron uzatgichlar bo'yicha butun dunyoga kuzatish uchun

[80] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 146 p.

tarqatishning iloji bo'lmagan. Bunda, olimpiya harakatining bayramona va tomosha jihatlari o'rtasidagi aloqalar ko'rib chiqiladi.

Festival, tomosha va karnavallar. «Festival» so'zi bayramga nisbatan qo'llaniladi va demak, xursandchilikni anglatadi. Festival kundalik turmushdan farq qiladi va bayram hodisasi hisoblanadi. Ushbu mazmunda, siklik hamda takrorlanadigan va bayram qilinishiga majbur qiladigan sport hodisalari bayram hodisasi hisoblanadi. Tomosha va festivalni to'liq bir-biridan ajratish qiyin.

Bayramlar, odatda, o'z ichiga o'yin-kulgu, ovqat, ichimliklar iste'mol qilish va tovarlarni chakana savdo qilishni ta'minlashni hamda jamoatni beixtiyor hislarini oladi. Bayramning umumiy elementlaridan biri – mushakbozlikni tashkil qilish hisoblanadi. Mushakbozlik tomosha hisoblanadimi? Mushakbozlik eng tomoshali bo'lgani paytida, hokimiyat tomonidan shou sifatida an'anaviy ta'minlanadi. Lekin mushakbozlik, zavq olish hissini chaqiradi, u, hech qachon toliqtirmaydi. Mushakbozlik shousi – tomoshabop zavq olish shakli, lekin maftun qiladigan shakli hisoblanadi. [81]

Mushakbozlikni deyarli qo'ldan-qo'lga o'tkazib tashkil qilish mumkin emas. Ular paydo bo'lishi bilan birga tezda yo'q bo'ladi. Ularni samarali tarzda televideniya orqali ko'rsatib bo'lmaydi, suratga olish yoki suratini chizishning ham iloji yo'q, ularni faqatgina joyida tomosha qilish kerak.

Tomoshaning hech qanday rejimi mushakbozlik shousining amaldagi kattaligini yetarli darajada yetkizib bera olmaydi. Mushakbozlik shousi bepul bo'lishi yoki u o'tkaziladigan joyga kirish uchun haq olinishi mumkin, bunda, mushakbozlik shousini stadionda o'tirgan tomoshabinlarning ko'rish chegarasidan tashqarida to'sib qo'yishning iloji yo'q. Mushak tovar hisoblanadi, lekin mushakbozlik shousini tovarlashtirish qiyin, uni bitta xona, xoll, hattoki stadion chegarasida qamrab olish mumkin emas, u, takroran ko'rsatilishi mumkin bo'lgan mahsulot emas, balki jarayon hisoblanadi.

"Tomosha" so'zi ko'rish paytida olinadigan lazzatlanishni va demak, ma'lum bir darajada hodisa, tomosha yoki obyekt va tomoshabin o'rtasidagi aloqani anglatadi. Ushbu mazmunda, u, "bayram"ni anglatadigan lazzatlanishning kamroq darajadagi interfaol modelini anglatadi.

---

[81] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 146 p.

"Karnaval" so'zi bayramonalikning maxsus va aniq shaklini anglatadi. Karnaval paradlar, ekstravagant liboslar bilan bog'liq kundalik ahamiyatga ega bo'lgan tomosha. Karnaval niqoblar va liboslar bilan assotsiatsiya qilina boshlandi.

Karnavalning asosiy xususiyati – ijrochi va tomoshabin o'rtasida aniq farqni bo'lmasligi hisoblanadi: karnaval "aktyorlar va tomoshabinlar o'rtasida biron-bir farqni tan olmaydi". Agar Olimpiya o'yinlarini "zodagonlarning zamonaviy marosimi" deb hisoblaydigan bo'lsak, u, olimpizmni madaniy ijro sifatida to'rtta janrini belgilaydi – tomosha, festival, marosim va o'yinlar.

Rasmiy ommaviy tadbirlar, ko'pincha o'z ichiga tomoshani, siyosiy quvvatni namoyish qilishni va texnologik ishlab chiqarishni namoyish qilishni uyg'unligini kiritadi. Festival va karnavalning barcha shakllari o'z ichiga tomoshaning ayrim elementlarini kiritadi. Tomoshalar kam holatlarda bayramning ma'lum bir kattaligisiz va karnavalli portlashsiz bo'lmaydi.

Sport tomoshalalarini tahlil qilish. Tabiiyki, ko'pchilik yirik sport tadbirlarida tashkilotchilar bunday holatni yaratishga ko'maklashadi va hattoki rag'batlantiradi. Turindagi 2006-yilgi Qishki Olimpiya o'yinlarida tashkilotchilar Olimpiya servis majmuasini yaratishgan bo'lib, unda medallar bilan taqdirlash marosimlari o'tkazilgan.

"Pekinda 2008-yili ochilish marosimida televideniya orqali ko'rsatilgan "Raqamli usul yordamida kattalashtirilgan mushakbozlik" juda katta talabga ega bo'ldi. Mushakbozlik shousining bir qismi "haqiqiy" va jonli bo'lgan, qolgani qismi esa, oldindan yozib olingan va televizion tasvirni kattalashtirish uchun foydalanilgan, degan fikrlar bildirilgan. Bunday ayblashlar, agarda Olimpiya o'yinlari televizion hodisa sifatida emas, balki televizor orqali ko'rsatiladigan hodisa sifatida konseptuallashtirilgan mazmunga ega.

Shu narsa ravshanki, ochilish marosimi – shou-biznes an'analari bo'yicha san'atkorlarning aniq rejalashtirilgan ishi hisoblanadi va u, qanday ishlab chiqilganiga qarmasdan, har doim o'z tarkibiga tutun va toshoynalarni olgan.

Pekinda ochilish marosimida stadionda haqiqiy mushakbozlik tashkil qilinga. Mushakbozlik keng geografik zonani qamrab olgan (bundan bir kun oldin Olimpiya stadionidan bir necha mil uzoqda, shaharning har xil qismlarida, jumladan Tyan'an'men' maydonida

mushakbozlik uchun to'plar batareyasini ko'rish mumkin edi). Faqatgina televizor orqali butun holat bo'yicha to'liq raqamli kattalashtirilgan to'g'ri tasavvurga ega bo'lish mumkin edi. Bayramlar va tomoshalar bunday holatlarda bir-biri bilan qo'shilib ketadi.

"Pekin Olimpiya o'yinlariga tomosha tayyorgarliklari, ko'pchilik jihatlari bo'yicha targ'ibot instrumenti rolini va aholining diqqatini Xitoyda sodir bo'layotgan yer bilan keng tarqalgan chayqovchilik, korrupsiya va notekis rivojlanish bilan birgalikdagi tezkor iqtisodiy qayta qurishlardagi kamchiliklardan chalg'itish uchun yarashtirish instrumenti rolini o'ynagan". Shunday qilib, tomosha bostirish va nazorat qilish bilan bog'liq bo'lib qoladi, kambag'alchilik va ijtimoiy uzoqlashishni niqoblash uchun qo'llanilishi mumkin.[82]

Masofadan turib ajratish yoki ijro va auditoriya o'rtasidagi ma'lum bir chegaraning biron-bir shaklini o'rnatadigan tomoshalarning barcha shakllarini, qisman, tomoshaning shakli sifatida hisoblash mumkin. Bu, o'zicha negativ yoki pastga uradigan "tomosha" atamasini qo'llanilishini talab qilmaydi.

Oxirgi yillarda, bahslashish mumkin bo'lsa ham, asosiy sport tadbirlarida karnavalli xulq-atvorni ko'rsatish ham joy olgan – feys-art, yumoristik bannerlar, g'alati va koordinatsiyalangan, ko'p hollarda ma'lum darajada erkin fasonli liboslarni kiyish (masalan, vikinglarning dubulg'asini).

Tomosha va bayramning ushbu o'zaro bog'liqligining qayerida va qay tarzda siyosat ifodalanadi? Nostabillik, destabilizatsiya, ajralishlar, uzilishlar va muammolarning momentlari qanaqa? Ularning mavjud bo'lishi shartlari qanaqa?

Dovyurak siyosat qudratlilar va ta'sir o'tkaza oladiganlarning jinoyatlarini, ularning boy yashashi sabablarini va u qayerdan olinishini ko'rstaib berish orqali ochib tashlashga urinadi. U, kambag'allik sharoitlarini ham yoritishga urinadi.

Londondagi 2012-yilgi Olimpiya o'yinlarida stadion savdo-tomosha markazi sifatida foydalanishning alternativ zamonaviy saroyiga yaqin bo'lib qolgan. Stadion ideal tarzda trenirovka qilgan tanalarni musobaqa harakatlaridagi tomoshani ta'minlaydi va

---

[82] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 149 p.

ko'rsatish imkonini beradi. Savdo markazi tovarlar tomoshasini taklif qiladi. Sport va dam olish uchun kiyimlar Nike va Adidas brend tovarlari shaklida stadion va savdo markazini bog'laydi.

Olimpiya o'yinlari vaqtiga to'liq rekvizitsiya qilingan markaziy Pekindagi yirik mehmonxona qarshisidagi dabdabali savdo markazida, mazkur tomosha ekspozitsiyasi, yugurish yo'lakchasini yaxshi jismoniy formaning xushbichimliligini namoyish qilish uchun yuqorigi ko'prik sifatida qayta tiklaydi.[83]

Olimpiya o'yinlari – girdob kabi tomosha hisoblanadi, ular yangiliklar kun tartibida vaqtincha dominant sifatida diqqatni ancha darajadagi jadallik bilan o'ziga jalb qiladi. Butun dunyo bo'yicha televizion ekranlar, gazetalar, internet-saytlar, bloglar va suhbatlar qisqa ikki hafta ichida Olimpiya o'yinlarida mujassamlashtiriladi. Olimpiya maydonchasi jahonning markaziga aylanadi. Lekin Olimpiya o'yinlari ham – taqsimlangan tomosha hisoblanadi. Ular, butun jahon bo'ylab televideniyada, internet-saytlarda va ommaviy axborot vositalarining nashriy vositalarida iste'mol predmeti bo'lib qolishi mumkin va shunday ham bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri efir uchun gigant ekranlar bog'larda, shahar maydonlarida va savdo markazlarida o'rnatiladi (buning barchasi futbol bo'yicha Jahon kubogida ancha kuchli bo'ladi va oxir oqibatda, vatanparvarlikni namoyon qilinishiga ancha samarali ko'maklashadi).

Televideniyada translatsiya qilinadigan global yirik hodisalar markazdan qochuvchi hamda markazga intiluvchi xarakterga ega bo'ladi. Barcha narsalar qabul qiladigan shaharda hamda qabul qiladigan mamlakatda mujassamlashtiriladi va bunda, tomoshalar hamma joyda iste'mol qilinishi mumkin. Undan tashqari, ular, ayrim paytlarda, masofadan turib ishtiyoq bilan iste'mol qilinadi. Pekinda 2008-yilda bo'lish, «Sinerama» panoramali film ko'rishga urinish kabi juda zich his qilingan.

Tomoshabin tadbirda bo'lganida, farqlash mazmunida, bevosita ishtirok etish va o'z tajribasida hayajonlanish, to'liqlik, yakunlanganlik va texnologik mahorat hissi bilan taqqoslanganda, televideniya beradigan qisman va to'liq bo'lmagan tajribadek

---

[83] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 150 p.

tuyuladi. Bu yerda, sport tomoshasini ishlab chiqishda, uchta fazani ko'rish mumkin. [84]

Birinchidan, televideniya orqali namoyish qilishdan oldin yirik hodisalarni umumjahon yarmarkasi kabi joyida his qilish mumkin.

Ikkinchidan, televideniya sportni jonli translatsiyasini butun dunyo bo'ylab uy sohasiga tarqatadi.

Uchinchidan, elektron tasvirning barcha joyga yetib borishi, raqamlashtirilgan va yangi OAV ushbu tasvirni ikkita yo'l orqali yetkazib bergan tasvir, jonli kuzatishga nisbatan yaxshiroq, aniqroq, yaqinroq, ancha analitik bo'lib qoldi va u hammabop, barcha joylardagi ommaviy muassasalarda – barlarda, bog'larda va ko'chalarda haqiqatan ham namoyish qilinmoqda.

Shunday qilib, O'yinlar xuddi futbol bo'yicha Jahon kubogi kabi taqsimlangan tomoshaga aylandi – global auditoriya, uning shaxsiy tajribasi bilan xuddi maydondagi tomoshabinlar kabi hodisaning muhim qismi hisoblanadi. Olimpiya obrazlari ham ko'p sonli media-platformalar orqali xilma-xil shakllarda – tovarlar savdosi, tumorlar, kompyuter o'yinlari, ringtonlar, oboylar shakllarida tarqatiladi. Taqsimlangan tomoshaning qiziqarli o'lchami – Ochilish marosimi vaqtida harakatlar joyini o'zlarining kameralari va uyali telefonlariga tasvirga olayotgan rasmiy shaxslar va sportchilarni ommaviy ko'rinib turishi hisoblanadi.

Buning natijasida paydo bo'ladigan tasvirlar butun dunyo bo'ylab, televideniya orqali uzatilganidek yengil sayohat qilishi mumkin. Shunday qilib, Olimpiya o'yinlari taqsimlangan tomoshaning ko'paytirilgan shakliga ega bo'lib, uni har xil hududlarga tarqatishning shakllari deb hisoblash mumkin, bunda, aniq joyni moddiylashtirilishi va shaharlarning ommalashtirilishi, ya'ni konkret hududga bog'lanishi sodir bo'ladi.

Lekin O'yinlar nafaqat joylar bo'yicha, balki vaqt bo'yicha ham tarqalgan. Ko'rik va ko'rikda g'alaba qozonishga davogarlik qilishni ommaviy tadbirlar seriyasi bilan bayram qilish mumkin bo'lib, ular tomoshaboplikni va bayramonalikni hattoki karnaval darajasida safarbar qiladi. Mash'ala estafetasi butun dunyo bo'ylab taqsimlangan bayram uchun sabablarning qo'shimcha to'plamini ta'minlaydi (mash'alali estafeta 2008-yilda inson huquqlari bo'yicha

---

[84] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 150 p.

noroziliklar uchun foydalanganligiga qaramasdan olimpiya doirasidagi manbalarni bashorat qiladi – bu, tashkil qilingan oxirgi global mash'alali estafeta).[85]

Olimpiya o'yinlari va futbol bo'yicha Jahon kubogi kabi global televizion hodisalar keyinchalik tarqatilgan tomosha bo'lib qoldi, ular oddiygina maydonda sodir bo'lib qolmasdan, butun dunyo bo'ylab har xil milliy umidlar va fantaziyalar bilan o'ralgan millionlab joylarda – uylarda, barlarda, savdo markazlarida, maydonlar va bog'larda sodir bo'ladi.

"Xavfsizlik, xavf-xatar va kuzatish". Yopiq arenalarga kirish uchun haq to'lash belgilanganidan keyin ichkaridagi va tashqaridagi fazo o'rtasida chegarani bo'linishi, kirish huquqiga ega bo'lmaganlarni kirishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida to'siqlarni va nazorat mexanizmlarini o'rnatishni talab qildi. Xavf-xatarlar jamiyatida real xavf-xatar va sezuvchanlikni nazorat qilishni, chegaralar va kuzatishni keskin oshirdi.

11 sentabrdan keyin yuzaga kelgan atmosfera, albatta xavf-xatar ham, qo'rquv ham ancha yuqori darajaga ko'tarildi. Korporativ arxitektura o'rta asr qasrlarining moslamalarini zamonaviy versiyalariga – chuqurlar, ko'tariladigan ko'priklar va tushiralidagan panjaralarga, ruxsat berilmaganlarni kirib kelish xavfini pasaytirish uchun murojaat qilishga majbur qildi.

Olimpiya o'yinlari oldingi 1968-yildan to 1984-yilga qadar bo'lgan davrdan eson-omon o'tdi, ularni global hodisa sifatidagi ko'rinishigina, ularga ramziy siyosiy san'at uchun katta kuch bag'ishladi. Olimpiya o'yinlaridan shunday platforma sifatida foydalanishi mumkinligini idrok qilinadigan xavf, xavfsizlik uchun sarf-xarajatlarni yangi balandlikka ko'tardi. Ushbu sarf-xarajatlar puxta tekshirishdan o'tishi tushunarsiz, oxir oqibatda, qaysi siyosatchi o'zini xavfsizlik budjetini qirqqan rahbar sifatida eslab qolishlarini xohlaydi? Olimpiya o'yinlari, o'zining boshqa ko'psonli rollari ichida, xavfsizlikning eng zamonaviy texnologiyalarini ta'minlash uchun gigant sinov stendi sifatida harakat qiladi.[86]

11 sentabrdan keyingi yuqori qo'rquv atmosferasi Afinadagi 2004-yilgi o'yinlarning tashkiliy qo'mitasi Yevropa Ittifoqi va

---

[85] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 152 p.
[86] O'sha kitob, 2012. – 153 b.

AQSH dan xavfsizlikka budjetni oshirish bo'yicha bosimni his qilishini anglatgan. Gretsiya, tadbir vaqtida rekord 1,5 milliard mablag'ni xavfsizlikka sarf qilgan, xavfsizlikni ta'minlash uchun 70 000 dan ortiq xodimlar xizmatidan foydalangan.

Hech kim "qal'a ichidagi Olimpiadani xohlamaydi", lekin bunda, sportchilarga ham va tomoshabinlarga ham xavfsiz muhit kerak. Xavfsizlik shundan iboratki, xavf-xatarni boshqarish – yetakchi kuch hisoblanadi va u, o'zicha o'yinlarni eslab qolinishi kerak bo'lgan quvnoq hodisaga aylantiradigan tasodifiy tamoyillarni bostiradi".

Usullarning xilma-xilligi bilan birga, nazorat madaniyati Olimpiya o'yinlarining ancha sezilarli belgisi bo'lib qoldi.

Mash'ala estafetasi – mazmuni bo'yicha bayramona hodisa bo'lib, ko'chadagi odamlarni Olimpiadani o'z-o'zidan bayram qilishiga imkoniyat beradi. Aslida, mash'ala estafetasining ortib borayotgan masshtabi homiylar tomonidan, arenada reklama qilish man qilinganini hisobga olgan holda, maksimal reklama imkoniyatlarini olish ishtiyoqi bilan chaqirilgan.

2008-yilgi mash'ala estafetasi yo'lining London qismi bayroqlar, bannerlar, gigant qo'lqoplar, plakatlar va o'z brendlarini ko'rsatish uchun qo'llash mumkin bo'lgan barcha narsalarni namoyish qilgan vakillar bilan to'lib ketgan.

2008-yili erkin Tibet tarafdorlari mash'ala estafetasidan o'z talablarini ilgari surish uchun foydalanishlari va ayrim guruhlar estafetani faol tarzda buzishga urinayotganligi ko'rinib turganligi tufayli, mash'alani sport kiyimlarini kiyib olgan harbiylar tomonidan qo'riqlashga to'g'ri keldi, ularning roli har qanday namoyishchilarni chetlatishdan iborat bo'ldi. [87]

Buyuk Britaniyadagi Xitoy Xalq Respublikasining elchixonasi Buyuk Britaniyada istiqomat qiladigan xitoylik talabalarni kontr-namoyish qilish maqsadida safarbar qildi, ular olqishlashlarni baqirib, Xitoy bayrog'ini baland ko'tarishgan. Xitoy tashkilotchilari tomonidan bayram xarakteriga ega bo'lgan tomoshani qo'yishga urinishlari, karnaval xarakteridagi va tashkilotchilar va homiylar qo'lidan tashabbusni tortib olgan alternativ siyosiy teatrni yuzaga keltirgan guruhlar tomonidan puchga chiqarildi. Bu, rejalashtirilgan tomosha buzilgan holatdagi ommaviy qiziqarli misol bo'lgan.

---

[87] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 154 p.

Karnaval, ko'chalar to'lgan odamlarni nazarda tutadi, lekin Olimpiya o'yinlari vaqtida ko'chalar Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan egallab olinadi. OKOI ning talablaridan biri shundan iboratki, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi va Olimpiya oilasi a'zolari uchun mehmonxonalar va O'yinlar o'tkaziladigan joylar o'rtasidan tezkor o'tish ta'minlanishi zarur. Bu, Olimpiada bilan bog'liq bo'lgan harakatlanishlar ustuvorlikka ega bo'ladigan olimpiya marshrutini belgilash yo'li orqali bajariladi. Bu, harakatning maxsus olimpiya chiziqlarini, svetofor va chorrahalardagi ustuvorlikni va boshqa choralarni o'z ichiga olishi mumkin.

Olimpiya o'yinlarini o'tkazish bo'yicha qo'mita 2008-yilda hukumatdan "Olimpiya marshrutlari tarmog'i"ni yaratishni talab qildi va olimpiya yo'l harakati ustuvorlikka ega bo'ladigan yo'llarning ushbu tarmog'i, Londondagi saytda (http://www.london 2012.com/olympic-route-network) 2012-yilda ko'rsatilgan. London aholisi, ularning shahrini chet elliklar okupatsiya qilganligini va egallab olganligini sezishi qiyin bo'lmadi. VIP-personalarni olib yurish uchun olimpiya avtomobillarini katta darajada qo'llanilishi, londonlik taksistlar uchun yaxshi xabar emasligi, ehtimol. 1992-yilda Barselonada taksistlar o'zlarining eski avtomobillarini yangi kichik hajmdagi avtomobillarga almashtirishlari uchun rag'batlantirilgan va ingliz tili va xushmuomalalik kurslarida o'qidilar. [88]

Lekin Barselonadagi Tashkiliy qo'mita Olimpiya oilasi uchun 2000 tadan ortiq avtomobillarni, OAV uchun avtobuslarni va rasmiy olimpiya yo'l harakati uchun tadbirlarni o'tkazilishi joylariga chegaralangan borishni ta'minladi. Bu, taksistlarni juda g'azablantirib, ularning o'n nafar yetakchilari ochlik e'lon qilgan.

Bularning birontasi ham o'yinlarning bayramona kattaligiga ta'sir qilmagan, albatta, lekin bayramonalik pasaygan, tartib va tashkil qilinishi bilan nazorat qilingan, u, kuzatish va politsiya nazorati ostiga olinadigan chegaralari belgilangan fazoga qo'yilgan.

---

[88] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 155 p.

Xulosalar

➢Qishki Olimpiya o'yinlari Xalqaro sport haftaligi sifatida tashkil qilingan.

➢Qishki Olimpiya o'yinlaridagi natijalari, qishki olimpiya sport turlarining rivojlanish darajasi moddiy-texnika bazaning mavjudligi bilan bevosita bog'liq.

➢Yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarning rivojlanishi bilan ularning marosimlari ham, jumladan ochilish va yopilish marosimlari rivojlangan.

➢Olimpiya o'yinlari madaniy tadbir sifatida festival, bayram, karnaval hamda tomosha jihatlarini qamrab oladi.

Nazorat savollari:

Qishki O'yinlarni o'tkazish to'g'risidagi qaror qachon qabul qilingan?

Birinchi qishki I Olimpiya o'yinlari qachon o'tkazilgan?

Qishki Olimpiya o'yinlari qanday xususiyatlarga ega?

Nechanchi yilgacha qishki va yozgi Olimpiya o'yinlari bir yilda o'tkazilgan?

Nechanchi yilda yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarining oralig'i 2 yilni tashkil etishi to'g'risida qaror qabul qilingan?

Olimpiya dasturiga kiritilishi uchun qishki sport turi jahonning nechta mamlakatida keng rivojlangan bo'lishi kerak?

XVII qishki Olimpiya o'yinlarida umumjamoa hisobida O'zbekiston terma jamoasi nechanchi o'rinni egallagan?

Kyorling qachon va qayerda paydo bo'lgan?

Qachon snoubording musobaqalari ilk bor Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan?

Qishki Olimpiya o'yinlarida ayollar o'rtasida birinchi uch karra olimpiya chempioni kim bo'lgan?

16-§. Kontinental va regional o'yinlar

Hozirgi davrda Olimpiya sporti bilan bog'liq xalqaro kompleks sport musobaqalari quyidagi guruhlarga ajratiladi: Kontinental o'yinlar, Regional o'yinlar, Butunjahon Universiadalari, Jahon yoshlar o'yinlari, Milliy, diniy, kasbiy va boshqa xususiyatlarga ega o'yinlar.

Kontinental o'yinlar Osiyo, Amerika, Afrika qit'alarining MOQ assotsiatsiyalari tomonidan o'tkaziladigan xalqaro kompleks musobaqalardir. Kontinental o'yinlar tarkibiga Panamerika, Osiyo va Afrika o'yinlari kiradi. Ularda bir qit'a mamlakatlarining sportchilari ishtirok etishi mumkin.

Olimpiya sporti bilan bog'liq bo'lgan uyushma va birlashmalar tomonidan milliy, diniy, kasbiy va boshqa xususiyatlarga ko'ra ham turli musobaqalar muntazam ravishda tashkil etilmoqda. 1922-yildan 1934-yilgacha ayollar o'yinlari o'tkazilgan. Quyidagi xalqaro kompleks sport musobaqalari o'tkazilmoqda: tibbiy reabilitatsion yo'nalishdagi o'yinlar, kasbiy o'yinlar, o'quvchi yoshlar o'yinlari, faxriylar o'yinlari, tijorat yo'nalishidagi o'yinlar, ayrim sport federatsiyalar o'yinlari, bo'yi past odamlar o'yinlari, ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi o'yinlar va h.k. Bulardan tashqari XOQ rahbarligida MDH, Boltiq va Rossiya hududlari davlatlarining (sobiq mustamlaka yoki ittifoq davlatlar) hamdo'stlik davlatlar o'yinlari, xalqaro yoshlar o'yinlari o'tkaziladi. Olimpiya sporti bilan bog'liq xalqaro kompleks sport musobaqalari olimpizm g'oyalariga asoslangan.

Osiyo o'yinlari – Osiyo qit'asida XOQ va Osiyo Olimpiya Kengashi rahbarligida o'tkaziladigan xalqaro kompleks musobaqalaridir (*24-jadval*).

I yozgi Osiyo o'yinlari 1951-yil Dehli shahrida (Hindiston) bo'lib o'tgan. Osiyo o'yinlari 1951-yildan boshlab olimpiya sport turlari bo'yicha har 4 yilda bir marta o'tkazilmoqda. Osiyo o'yinlari Olimpiya o'yinlaridan 2 yil o'tgandan so'ng o'tkaziladi. O'yinlarda Osiyo mamlakatlarining havaskor sportchilari qatnashishi mumkin. Hozirgi davrda Osiyo o'yinlarida 40 dan ortiq mamlakat sportchilari qatnashib, 42 ta sport turidan 470 ta medallar jamlanmasi uchun musobaqalar o'tkaziladi.

Osiyo o'yinlarining tarixi Uzoq Sharq chempionatlari bilan bog'liq bo'lib, ular 1913-yildan 1934-yilgacha asosan Xitoy, Yaponiya va Filippin vakillari o'rtasida tashkil qilingan edi. Osiyo

qit'asida olimpiya sport turlarini yanada ommalashtirish maqsadida 1949-yilda Osiyo o'yinlari Federatsiyasi tuzilgan va uning dastlabki majlisida Osiyo o'yinlarini o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilingan. 1949-yilda Dehlida Osiyo o'yinlari Federatsiyasining tashabbuskorlari va ta'sischilari Afg'oniston, Birma, Hindiston, Pokiston va Filippin davlatlari bo'lgan bo'lsa, keyin boshqa mamlakatlar ham qo'shildi va ularning soni 20 taga yetdi.

Osiyo o'yinlari Federatsiyasi XOQ tomonidan 1982-yilda tan olingan. 1982-yii 16-noyabrda Nyu-Dehli shahrida bo'lib o'tgan Bosh assambleya yig'ilishida Federatsiya nomi Osiyo Olimpiya Kengashi, deb o'zgartirilgan.

24-jadval

Yozgi Osiyo o'yinlari

O'yin	Yil	Shahar, davlat	Davlat	Sport turi	Sportchi soni
I	1951	Dehli, Hindiston	11	6	500
II	1954	Manila, Filippin	18	8	1241
III	1958	Tokio, Yaponiya	20	13	1692
IV	1962	Jakarta, Indoneziya	17	13	1527
V	1966	Bangkok, Tailand	18	14	2500
VI	1970	Bangkok, Tailand	18	13	2500
VII	1974	Texron, Eron	25	16	3000
VIII	1978	Bangkok, Tailand	25	19	4000
IX	1982	Dehli, Hindiston	33	21	4500
X	1986	Seul, Janubiy Koreya	27	25	4839
XI	1990	Pekin, Xitoy	37	27	6122
XII	1994	Xirosima, Yaponiya	42	34	7300
XIII	1998	Bangkok, Tailand	41	36	9141
XIV	2002	Pusan, Koreya	44	38	9919
XV	2006	Doha, Qatar	45	37	8753
XVI	2010	Guanchjou, Xitoy	45	42	9704
XVII	2014	Inchxon, Jan. Koreya	45	42	9700

Hozirgi davrda Osiyo Olimpiya Kengashiga Osiyo qit'asidan 44 ta davlat, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasidan beshta mustaqil

davlatlar – O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston kirgan. Osiyo o'yinlarida ishtirokchilar soni muntazam kengaymoqda va dasturga kiritilgan sport turlari ham yildan-yilga ko'payib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining terma jamoasi 1994-yildan boshlab Osiyo o'yinlarida ishtirok etib kelmoqda.

XII yozgi Osiyo o'yinlari 1994-yil Xirosima shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. Bu Osiyo o'yinlarida 7300 nafar sportchilar 34 ta sport turi bo'yicha musobaqalarda qatnashgan va 337 ta medallar komplekti uchun kurash olib borilgan. O'zbekiston sportchilari Osiyo o'yinlarida ilk bor qatnashib, umumjamoa hisobida 42 ta mamlakat ichida 5-o'rinni egallagan (*jadvallarni qarang*).

XII yozgi Osiyo o'yinlarining natijalari

O'rin	Mamlakat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Xitoy	125	83	58	266
2	Yaponiya	64	75	79	218
3	Janubiy Koreya	63	56	64	183
4	Qozog'iston	25	26	26	77
5	**O'zbekiston**	**10**	**11**	**19**	**40**
17	Turkmaniston	1	3	3	7
23	Qirg'iziston	0	4	5	9
32	Tojikiston	0	0	2	2

XIII yozgi Osiyo o'yinlari 1998-yil 6–20-dekabr kunlari Bangkok shahrida (Tailand) o'tkazilgan. O'yinlarda 41 ta mamlakatlardan 6554 sportchi qatnashgan. O'yinlarda 44 ta sport turi bo'yicha musobaqalar o'tqazilgan 379 ta oltin, kumush va 478 ta bronza medallari uchun kurash olib bordilar. Respublikamiz sportchilari Bangkokda o'tkazilgan XIII Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi qit'aning 41 mamlakatlari orasida 10-o'rinni egallagan (*jadvalni qarang*).

XIV yozgi Osiyo o'yinlari Pusan shahrida (Janubiy Koreya) 2002-yil 29-sentabr – 14-oktabr kunlari o'tkazilgan. O'yinlarda Osiyo qit'asining 44 mamlakatlaridan 7711 nafar sportchilar ishtirok etgan. Musobaqalar 38 sport turi bo'yicha 419 ta medallar jamlamasi uchun olib borilgan.

XIII yozgi Osiyo o'yinlarining natijalari

O'rin	Mamlakat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Xitoy	129	78	67	274
2	Janubiy Koreya	65	46	53	164
3	Yaponiya	52	61	68	181
4	Tailand	24	26	40	90
5	Qozog'iston	24	24	30	78
10	**O'zbekiston**	**6**	**22**	**12**	**40**
23	Turkmaniston	1	0	1	2
24	Qirg'iziston	0	3	3	6

XV yozgi Osiyo o'yinlari Doha shahrida (Qatar) 2006-yil 1–15-dekabr kunlari o'tkazilgan. O'yinlarda 9520 nafar sportchilar qatnashgan. Musobaqalarda 39 sport turlari bo'yicha 424 medallar jamlamasi uchun bo'lib o'tgan.

XVI yozgi Osiyo o'yinlari 2010-yil 12–27-noyabr kunlari Guanjou (Xitoy). O'yinlarda 45 ta mamlakatdan 9704 sportchi ishtirok etgan.

XVII yozgi Osiyo o'yinlari 2014-yil 19-sentabr – 4-oktabr kunlari Inchxon shahrida (Janubiy Koreya) o'tkazilgan. O'yinlarda 45 ta mamlakatdan 9700 sportchi ishtirok etgan (*quyidagi jadvallarni qarang*).

XIV yozgi Osiyo o'yinlarining natijalari

O'rin	Mamlakat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Xitoy	150	84	74	308
2	Janubiy Koreya	96	80	84	260
3	Yaponiya	44	74	72	190
4	Qozog'iston	20	26	30	76
5	**O'zbekiston**	**15**	**12**	**24**	**51**
20	Qirg'iziston	2	4	6	12
25	Turkmaniston	1	2	1	4
28	Tojikiston	0	2	4	6

XV yozgi Osiyo o'yinlarining umumjamoa medallar hisobi

O'rin	Mamlakat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Xitoy	165	88	63	316
2	Janubiy Koreya	58	52	82	192
3	Yaponiya	50	71	78	199
4	Qozog'iston	23	20	42	85
7	**O'zbekiston**	**11**	**14**	**15**	**40**
24	Tojikiston	2	0	2	4
28	Qirg'iziston	0	2	6	8
33	Turkmaniston	0	1	0	1

XVI yozgi Osiyo o'yinlarining umumjamoa medallar hisobi

O'rin	Mamlakat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Xitoy	199	119	98	416
2	Janubiy Koreya	76	65	91	232
3	Yaponiya	48	74	94	216
4	Eron	20	14	25	59
5	Qozog'iston	18	23	38	79
6	Hindiston	14	17	33	64
7	Tayvan	13	16	38	67
8	**O'zbekiston**	**11**	**22**	**23**	**56**

XVII yozgi Osiyo o'yinlarining umumjamoa medallar hisobi

O'rin	Mamlakat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Xitoy	151	108	83	342
2	Janubiy Koreya	79	71	84	234
3	Yaponiya	47	76	77	200
4	Qozog'iston	28	23	33	84
5	Eron	21	18	18	57
6	Tailand	12	7	28	47
7	KXDR	11	11	14	36
8	Hindiston	11	10	36	57
9	Tayvan	10	18	23	51
10	Qatar	10	0	4	14
11	**O'zbekiston**	**9**	**14**	**21**	**44**

Qishki Osiyo o'yinlari – Osiyo Olimpiya kengashi a'zolari bo'lgan davlatlar o'rtasida qishki sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan sport musobaqalaridir (*25–26-jadvallar*).

I qishki Osiyo o'yinlari 1986-yil 1–8-mart kunlari Sapporo shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. Yaponiya Milliy olimpiya qo'mitasi tashabbusi bilan 1982-yilda qishki Olimpiya o'yinlarini o'tkazish g'oyasi tavsiya etilgan. 1984-yilda Osiyo Olimpiya Kengashi tomonidan qishki Olimpiya o'yinlarini o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilingan.

I qishki Olimpiya o'yinlarida 7 sport turi bo'yicha 35 medallar komplekti uchun musobaqalar o'tkazilgan. Olimpiya o'yinlari dasturiga tog' chang'isi sporti, biatlon, chang'ida poyga, figurali uchish, konkida yugurish, shaybali xokkey, short-trek va ko'rgazmali tur sifatida tramplindan sakrash kiritilgan. Olimpiya o'yinlari natijalari bo'yicha umumjamoa hisobida Yaponiya – 1-o'rin (29-23-6), Xitoy – 2-o'rin (4-5-12), Janibiy Koreya – 3-o'rinni (1-2-5) egallagan.

II qishki Osiyo o'yinlari 1990-yil 9–14-mart kunlari Sapporo shahrida (Yaponiya) o'tkazilgan. Eron, Tayvan va Filippin davlatlari qishki Osiyo o'yinlarida ilk bor ishtirok etgan. O'yinlar dasturiga kiritilgan 6 sport turidan 33 medallar komplekti uchun musobaqalar bo'lgan. O'yinlar dasturiga figurali uchish kiritilmagan. O'yinlarda eng yuqori natijalarga Yaponiya sportchilari erishgan edi. Sportchilar Seyko Xasimoto konkida yugurish bo'yicha 4 ta oltin medallar, Fumiko Aoki chang'i sporti bo'yicha 3 ta oltin medallarni olganlar.

III qishki Osiyo o'yinlari 1996-yil fevralda Xarbin shahrida (Xitoy) o'tkazilgan. Bu qishki Osiyo o'yinlarida ilk bor yangi mustaqil davlatlar – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston qatnashgan. O'yinlar dasturiga 8 sport turidan birinchi marta fristayl kiritilgan. O'zbekiston terma jamoasi 17 mamlakat orasidan 5-o'rinni egallagan.

Qishki Osiyo o'yinlarining umumjamoa medallar hisobi natijalari bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi Osiyo qit'asida 6-o'rinni egallab turibdi.

25-jadval

Qishki Osiyo o'yinlari

O'yin	Yil	O'tkazilgan joyi	Davlat	Sportchi	Sport turi	1-o'rin
I	1986	Sapporo, Yaponiya	7	439	7	Yaponiya
II	1990	Sapporo, Yaponiya	10	310	6	Yaponiya
III	1996	Xarbin, Xitoy	17	453	8	Xitoy
IV	1999	Kanvondo, Janubiy Koreya	14	798	7	Xitoy
V	2003	Aomori, Yaponiya	17	641	10	Yaponiya
VI	2007	Chanchun, Xitoy	25	796	10	Xitoy
VII	2011	Olma-Ota, Qozog'iston	26	1134	11	Qozog'iston

26-jadval

Qishki Osiyo o'yinlarining umumjamoa medallar hisobi natijalari

T/r	Davlat	O'yinlar	Oltin	Kumush	Bronza	Jami
1	Yaponiya	7	114	126	92	332
2	Xitoy	7	82	71	96	249
3	Qozog'iston	5	69	51	44	164
4	Janubiy Koreya	7	58	65	76	199
5	Shimoliy Koreya	5	1	4	11	16
6	**O'zbekiston**	**5**	**1**	**2**	**4**	**7**
7	Livan	4	1	1	0	2
8	Mongoliya	7	0	1	6	7
9	Eron	5	0	1	2	3
10	Qirg'iziston	4	0	0	1	1

Panamerika o'yinlari – Amerika qit'asida XOQ rahbarligida o'tkaziladigan xalqaro kompleks musobaqalardir. Panamerika o'yin-

lari 1951-yildan boshlab olimpiya sport turlari bo'yicha har 4 yilda bir marta o'tkazilmoqda. Ko'p yillar davomida bu o'yinlarda yetakchi pog'onalarni AQSH terma jamoasi egallab kelmoqda (*27-jadval*).

27-jadval

Panamerika o'yinlari

O'yin	Yil	Shahar, davlat	Dav-lat	Sport turi	Sport-chi soni	1-o'rin
I	1951	Buenos-Ayres, Argentina	21	18	2513	Argen-tina
II	1955	Mexiko, Meksika	22	17	2583	AQSH
III	1959	Chikago, AQSH	25	18	2263	AQSH
IV	1963	San-Paulu, Braziliya	22	19	1165	AQSH
V	1967	Vinnipeg, Kanada	29	19	2361	AQSH
VI	1971	Kali, Kolumbiya	32	17	2935	AQSH
VII	1975	Mexiko, Meksika	33	20	3146	AQSH
VIII	1979	San-Xuan, Puerto-Riko	34	22	3700	AQSH
IX	1983	Karakas, Venesuela	36	22	3426	AQSH
X	1987	Indianapolis, AQSH	38	27	4453	AQSH
XI	1991	Gavana, Kuba	39	27	4519	Kuba
XII	1995	Mar-del'-Plata, Argent	42	34	5114	AQSH
XIII	1999	Vinnipeg, Kanada	42	35	5000	AQSH
XIV	2003	Santo-Domingo, Dominikan Respublikasi	42	35	5196	AQSH
XV	2007	Rio-de-Janeyro, Brazil	42	34	5633	AQSH
XVI	2011	Gvadalaxara, Meksika	42	36	6003	AQSH
XVII	2015	Toronto, Kanada	42	36	6000	AQSH

Panamerika o'yinlarini tashkil qilish g'oyasi 1926-yilda Mexiko shahrida bo'lib o'tgan I Markaziy Amerika o'yinlaridan keyin XOQ Prezidenti Anri de Bayye-Latur tomonidan ilgari surilgan. 1932-yildagi Olimpiya o'yinlari davomida Amerika mamlakatlari vakillarining uchrashuvi bo'lib o'tgan, 1936-yilda esa bu g'oya qit'a sport rahbarlari tomonidan ma'qullangan. 1937-yilda AQSH Olimpiya Assotsiatsiyasining prezidenti Eyveri Brendej Amerika qit'asi sportchilarini Dallasda o'tkaziladigan musobaqalarga taklif etgan. Bu musobaqalarda Argentina, Braziliya, Kuba, Kanada, Kolumbiya, Chili, AQSH, Paragvay va Peru sportchilari ishtirok etgan. 1940-yilda Argentina MOQ tashabbusi bilan Buenos-Ayresda Amerika qit'asi mamlakatlarining I kongressi o'tkazilib, bunda 16 davlat vakillari qatnashgan. Kongressda Panamerika sport qo'mitasi tashkil topib, 1942-yildan boshlab Panamerika o'yinlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan. Biroq Ikkinchi jahon urushi bu g'oyani amalga oshirishga to'sqinlik qilgan. 1945-yilda Panamerika o'yinlari g'oyasi yana qayta tiklangan va 1948-yil Londonda II Amerika sport kongressida Panamerika o'yinlarini o'tkazilishi to'g'risidagi qaror tasdiqlangan.

Panamerika o'yinlari Olimpiya o'yinlaridan bir yil oldin tashkil qilinib, har 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Bu sport musobaqalariga XOQ va MOQ Assotsiatsiyasi tomonidan tan olingan Panamerika sport tashkiloti rahbarlik qiladi. Hozirgi kunda bu tashkilot Shimoliy, Markaziy, Janubiy Amerika va Karib dengizi hududidagi 42 ta davlat Milliy Olimpiya qo'mitalarini birlashtiradi.

I yozgi Panamerika o'yinlari 1951-yil Buenos-Ayres shahrida o'tkazilgan va bunda Amerika qit'asining 21 davlatidan 2500 sportchi ishtirok etgan. I qishki Panamerika o'yinlari 1990-yil Las-Lenas shahrida (Argentina) o'tkazilib, bunda 10 ta davlat sportchilari qatnashgan. Lekin 1993-yildan keyin bu o'yinlar o'tkazilmagan.

Afrika o'yinlari. I Afrika o'yinlari 1965-yil Brazzavil shahrida (Kongo) o'tkazilib, 29 davlatdan 2500 sportchi ishtirok etgan. O'yinlar dasturida erkaklar o'rtasida 10 ta sport turlari, ayollar 2 ta sport turi bo'yicha musobaqalar bo'lgan. Bunda Misr va Suriya sportchilari eng ko'p medallarga sazovor bo'lganlar.

II Afrika o'yinlari Lagos shahrida 1973-yil 40 davlatdan 5000 sportchi ishtirokida o'tkazilgan. III Afrika o'yinlari 1978-yil Aljirda bo'lib o'tgan, bunda 45 davlatdan 3000 dan ortiq sportchi ishtirok

etgan. IV Afrika o'yinlari 1987-yilda Nayrobi shahrida bo'lib o'tgan va bunda 38 davlatdan 3170 sportchi qatnashgan.

Regional o'yinlar. Regional o'yinlarga Markaziy Amerika va Karib dengizi o'yinlari, O'rtayer dengizi o'yinlari, Yevropa kichik mamlakatlari o'yinlari, Bolqon o'yinlari, Bolivar o'yinlari, Markaziy Amerika o'yinlari, Janubiy-Sharqiy Osiyo o'yinlari, Sharqiy Osiyo o'yinlari, Tinch okeani janubiy qismi o'yinlari, Arab davlatlari o'yinlari va boshqalar kiradi. Regional o'yinlar olimpizm g'oyalari asosida o'tkaziladi.

Olimpiya sporti bilan bog'liq bo'lgan uyushma va birlashmalar tomonidan milliy, diniy, kasbiy va boshqa xususiyatlarga ko'ra ham turli musobaqalar muntazam ravishda tashkil etilmoqda.

I Markaziy Amerika va Karib dengizi o'yinlari Mexiko shahrida bo'lib o'tgan. Kuba terma jamoasi ko'p o'yinlarda birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Markaziy Amerika va Karib dengizi o'yinlari 1926-yildan boshlab o'tkaziladi. Hozirgi davrda bu o'yinlarda 20 dan ortiq davlat vakillari qatnashmoqda.

O'rtayer dengizi o'yinlari asoschisi XOQning a'zosi, Misr qilichbozlik federatsiyasi prezidenti Muhammad Tohir Poshsho bo'lib, ular 1951-yildan boshlab har 4 yilda o'tkaziladi. Bu O'yinlarda O'rtayer dengizi atrofidagi davlatlar ishtirok etishi mumkin.

I (birinchi) O'rtayer dengizi o'yinlari Iskandariya shahrida bo'lib o'tgan va 10 ta davlat vakillari qatnashgan. Hozirgi davrda o'yinlarda 30 ga yaqin davlat vakillari qatnashmoqda. O'rtayer dengizi o'yinlarida Italiya, Fransiya, Turkiya, Ispaniya, Gretsiya sportchilari yetakchilik qilib kelmoqda.

Yevropa kichik mamlakatlari o'yinlari 1985-yildan boshlab o'tkazilmoqda. Bu o'yinlarda aholisi 1 milliondan kam bo'lgan Monako, Lyuksemburg, Andorra, Kipr va boshqa davlatlar sport jamoalari qatnashadi

Paralimpiya o'yinlari – tayanch-harakat apparati shikastlangan va imkoniyati cheklangan, kar va soqov, ko'zi ojiz, aqliy zaif sportchilarning xalqaro kompleks sport musobaqalaridir (*28- jadval*).

XIX asrning 1880-yillarida Berlinda kar va soqovlar uchun birinchi sport klubi ochilgan. Kar va soqovlar uchun Paralimpiya o'yinlari 1924-yil 17-avgustda Parijda bo'lib o'tgan. Bunda Belgiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Polsha, Fransiya va Chexoslovakiya sportchilari qatnashgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin 1948-yilda Stok-Mendevil reabilitatsiya gospitali shifokori **Lyudvig Guttman** Britaniya urush faxriylari uchun sport musobaqalari tashkil qilgan. Bu musobaqalar ***"Stok-Mendevil o'yinlari"***, deb nomlangan va bunda 130 nafarga yaqin harakati chegaralangan nogiron sportchilar qatnashgan.

"Paralympic" so'zi dastlab ikki xil ma'noni bildirgan: "paraplegic" (paralich) va "olympic" (olimpiya). Biroq Paralimpiya o'yinlarida turli guruh nogironlari ham ishtirok etganidan so'ng "paralimpiya" so'zi boshqa ma'noni anglatgan: "para" (lot. birlashish, qo'shish) va "olympic" (olimpiya), ya'ni Olimpiya o'yinlariga qo'shilgan musobaqalar.

I yozgi Paralimpiya o'yinlari 1960-yilda Rim shahrida (Italiya) bo'lib o'tgan. Bunda nafaqat nogiron, balki oddiy sport ustalari ham ishtirok etgan. O'yinlarda 23 ta mamlakatdan 400 nafarga yaqin sportchi qatnashgan. O'yinlar dasturiga 8 ta sport turidan 57 komplekt medallari uchun musobaqalar kiritilgan.

II yozgi Paralimpiya o'yinlari 1964-yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan. Bunda 22 davlatdan 390 nafar sportchi qatnashgan. O'yinlar dasturiga ilk bor aravalarda sprint (60m), disk uloqtirish, pauerlifting kiritilgan edi.

III yozgi Paralimpiya o'yinlari 1968-yilda Tel-Aviv shahrida (Isroil) o'tkazilgan bo'lib, unda 29 davlatdan 750 nafar sportchi ishtirok etgan. Paralimpiya o'yinlari natijalari bo'yicha norasmiy umumjamoa hisobida AQSH terma jamoasi – 1-o'rin, Buyuk Britaniya – 2-o'rin, Isroil – 3-o'rinni egallagan.

IV yozgi Paralimpiya o'yinlari 1972-yilda Geydelberg shahrida (Germaniya) o'tkazilgan va 44 davlatdan 1004 nafar sportchi qatnashgan. Bu Paralimpiya o'yinlari "1000 nafar ishtirokchilar – 1000 ta chempionlar!" shiori asosida yetti kun musabaqalarida 26 ta jahon rekordlari o'rnatilgan.

V yozgi Paralimpiya o'yinlari 1976-yilda Toronto shahrida (Kanada) o'tkazilgan. Bu o'yinlarda 42 davlatdan kelgan 1657 nafar sportchi, ulardan 253 nafar ayol sportchilar ishtirok etgan.

V yozgi Paralimpiya o'yinlarida 261 nafar oyoq yoki qo'li amputatsiya qilingan sportchi va ilk bor 187 nafar ko'rish qobiliyati sust bo'lgan sportchilar qatnashgan. O'yinlarda 38 ta jahon va 1 ta paralimpiya rekordi o'rnatilgan.

VI yozgi Paralimpiya o'yinlari 1980-yilda Anxem shahrida (Gollandiya) o'tkazilgan, unda 42 davlatdan kelgan 2500 nafar sportchi ishtirok etgan. Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) uning aparteid siyosati sababli O'yinlarga kiritilmagan.

28-jadval

Yozgi Paralimpiya o'yinlari

O'yinlar	O' tkazilgan yili	O'tkazilgan joyi (shahar, davlat)
I	1960	Rim, Italiya
II	1964	Tokio, Yaponiya
III	1968	Tel-Aviv, Isroil
IV	1972	Geydelberg, Germaniya
V	1976	Toronto, Kanada
VI	1980	Arnem, Gollandiya
VII	1984	Stok-Mendevil, Angliya
VIII	1988	Seul, Janubiy Koreya
IX	1992	Barselona, Ispaniya
X	1996	Atlanta, AQSH
XI	2000	Sidney, Avstraliya
XII	2004	Afina, Gretsiya
XIII	2008	Pekin, Xitoy
XIV	2012	London, Angliya
XV	2016	Rio-de-Janeyro, Braziliya

VII yozgi Paralimpiya o'yinlari 1984-yilda Nyu-York (AQSH) va Stok-Mandevil (Buyuk Britaniya) shaharlarida o'tkazilgan. Nyu-Yorkda 41 davlatdan 1780 nafar sportchi qatnashgan bo'lsa, Stok-Mandevilda 45 davlatdan kelgan 2300 nafar sportchi ishtirok etgan.

1988-yildan boshlab yozgi Paralimpiya o'yinlari yozgi Olimpiya o'yinlari bo'lib o'tadigan shaharlarda o'tkazilmoqda.

VIII yozgi Paralimpiya o'yinlari 1988-yilda Seul shahrida (Janubiy Koreya) o'tkazilgan. Unda 61 davlatdan 3053 nafar sportchi ishtirok etgan.

IX yozgi Paralimpiya o'yinlari 1992-yilda Barselona shahrida (Ispaniya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 90 davlatdan 3000 dan ortiq sportchi ishtirok etgan.

X yozgi Paralimpiya o'yinlari 1996-yilda Atlanta shahrida (AQSH) o'tkazilgan. Bu Paralimpiya o'yinlarida 103 davlatdan 3195 nafar sportchi ishtirok etgan. XI yozgi Paralimpiya o'yinlari 2000-yilda Sidney shahrida (Avstraliya) bo'lib o'tgan. O'yinlarda 127 davlatdan 3843 nafar sportchi ishtirok etgan.

XII yozgi Paralimpiya o'yinlari 2004-yilda Afina shahrida (Gretsiya) o'tkazilgan. Bu Paralimpiya o'yinlarida 136 davlatdan 3800 nafar sportchi ishtirok etgan. XIII yozgi Paralimpiya o'yinlari 2008-yilda Pekin shahrida (Xitoy) o'tkazilgan. O'yinlarda 148 davlatdan 4000 nafar sportchi ishtirok etgan.

XIV yozgi Paralimpiya o'yinlari 2012-yil London shahrida (Buyuk Britaniya) bo'lib o'tgan. Dunyoning 167 davlatidan kelgan 4461 nafar sportchilar 12 kun mobaynida sportning 20 ta turi bo'yicha g'oliblik uchun kurash olib borgan. Bu Paralimpiya o'yinlarida eng ko'p davlat Yevropa qit'asidan (47 ta) ishtirok etgan, Afrikadan 43 ta, Osiyodan 41 ta, Amerikadan 28 ta, Okeaniya qit'asidan esa 8 ta davlat qatnashgan. Eng ko'p sportchi ham Yevropa qit'asidan tashrif buyurgan. Yevropa vakillari (2201 nafar) Paralimpiya o'yinlari jami qatnashchilarining deyarli yarmini tashkil etgan. Paralimpiya o'yinlarida 92 ta mamlakat vakillariga medallarni qo'lga kiritish nasib etmagan.

XIV yozgi Paralimpiya o'yinlari natijalari bo'yicha umumjamoa hisobida birinchi o'rinni Xitoy delegatsiyasi a'zolari qo'lga kiritgan. Xitoyning jami 294 nafar vakili sportning 16 turida - 95 ta oltin, 71 ta kumush hamda 65 ta bronza, jami 231 ta medalga sazovor bo'lgan. Xitoyliklar birgina yengil atletika va suzish musobaqalarida jami 57 ta oltin, 42 ta kumush va 45 ta bronza medallariga sazovor bo'lgan. Ikkinchi o'rinni Rossiya (36-38-28), uchinchi o'rinni esa musobaqa mezbonlari Buyuk Britaniya sportchilari (34-43-43) qo'lga kiritganlar. Shaxsiy hisobda eng ko'p medalga avstraliyalik J.Freney erishgan. Suzish bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda J.Freney 8 ta oltin medal sohibi bo'lgan. Amerikalik Jesika Long "Paralimpiya-2012" o'yinlarida jami 8 ta (5 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza) medalga sazovor bo'lgan.

XV yozgi Paralimpiya o'yinlari 2016-yil 7-18-sentabr kunlari Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tgan. Ushbu Paralimpiya o'yinlarida jahonning 176 davlatidan 4500 nafar sportchisi ishtirok etgan. Musobaqalar dasturiga 22 sport turida 528 medallar komplekti kiritilgan. XV yozgi Paralimpiya o'yinlari natilalari bo'yicha umumjamoa hisobida Xitoy terma jamoasi 239 ta medal (ulardan 107 ta oltin, 81 ta kumush va 51 ta bronza) - 1-o'rinni, Buyuk Britaniya – 147 ta medal (64-39-44) - 2-o'rinni, Ukraina – 117 ta medal (41-37-39) - 3-o'rinni egallagan.

29-jadval

Qishki Paralimpiya o'yinlari

O'yinlar	O'tkazilgan yili	O'tkazilgan joyi (shahar, davlat)
I	1976	Ornskoldsvik, Shvetsiya
II	1980	Geylo, Norvegiya
III	1984	Insburk, Avstriya
IV	1988	Insburk, Avstriya
V	1992	Tignes, Fransiya
VI	1994	Lillexammer, Norvegiya
VII	1998	Nagano, Yaponiya
VIII	2002	Solt-Leyk-Siti, AQSH
IX	2006	Turin, Italiya
X	2010	Vankuver, Kanada
XI	2014	Sochi, Rossiya
XII	2018	Pxonchxan, Janubiy Koreya

I qishki Paralimpiya o'yinlari 1976-yil Ornskoldsvik shahrida (Shvetsiya) bo'lib o'tgan. Bunda nafaqat kolyaska nogironlari, balki boshqa guruhlarga mansub nogironlar ham qatnashgan. Xuddi shu yil Toronto shahrida (Kanada) yozgi Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tgan, bu o'yinlarda 40 dan ortiq mamlakatlardan 1600 nafar sportchi qatnashgan (*29-jadvalni qarang*).

"Nogironlar uchun sport: paralimpizm – farqlarni yo'qotish uchun mexanizm sifatida. Londonda 2012-yilda bo'lib o'tgan o'yinlar faqatgina ikkita rasmiy tumorga ega bo'lgan: Venlok va Mandevil. Much Wenlock shropshirda o'n to'qqizinchi asrda o'yinlarni qabul

qilgan bo'lib, unda Kuberten o'zining zamonaviy olimpizmi uchun model izlab yurgan paytida ishtirok etgan. Boshqa tomondan, Mandeville birinchi Paralimpiya o'yinlarni qabul qilgan, Londondan shimolga qarab bir necha mil' masofada joylashgan Eylsberi, Bakingemshir kasalxonasining – Stoke Mandeville Hospital nomidan kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtda, Olimpiya o'yinlarini qabul qiladigan mamlakatga qo'yiladigan talablar – Paralimpiya o'yinlarni kiritilishi hisoblanadi. Oxirgi o'n yilliklarda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi o'z tarkibiga Xalqaro Paralimpik Qo'mitani kiritgan.

Kolin Barns (1992) ning aytishicha, nogironlar OAV larida odatda nogironlik to'g'risida takrorlanadigan o'nta stereotip aniqlangan. Ushbu stereotiplar bo'yicha nogiron, bu:

1. Nochor va baxtsiz; 2. Qiziqish yoki qattiq munosabatda bo'lish obyekti; 3. G'amgin yoki jahldor; 4. Umuman majruh; 5. Holatni oshirib yuboradi; 6. Kulgili; 7. O'ziga-o'zi eng yomon dushman; 8. Ortiqcha yuk; 9. Jinsiy jihatdan yoqimsiz; 10. Kundalik turmushda ishtirok etishga qobiliyatsiz.[89]

Chegaralangan imkoniyatlar va nogironlik to'g'risidagi tasavvurlarni tadqiq qilish 1980-yillarda boshlangan. Nogironlar, ko'proq darajada, yetakchi OAV larida yoritilmasligi aniqlangan. Seriallarda yoki boshqa uzun televizion dramalarda nogiron personajlar bo'lmagan. Nogironlar paydo bo'lganida, ular hayotining odatiy belgilariga – sevgiga, oshiq-mashuqlikka yoki shahvoniy hislarga e'tibor qaratilgan va asosiy e'tibor, nogironlarni sog'liqni saqlash va ularni parvarish qiladigan ijtimoiy xizmat mutaxassislari bilan o'zaro aloqalarida mujassamlashtirilgan. Drama, ular o'zlarining chegaralangan qobiliyatlari bilan qay tarzda yashayotganliklarida mujassamlashtirilgan. Televizion tasvirlar achinish, qo'rquv, xavf solish, jirkanish, begunohlik va chidamlilik kabi mavzular bilan qo'llab-quvvatlangan. Ular, shaxsiy fojialari va alohida erishgan yutuqlari bilan shug'ullanishgan.

Nogironlikni gazetalarda yoritilishida ham xuddi shunday holat bo'lgan. Matbuot o'z e'tiborini salomatlikda, mablag' yig'ish va xayr-saxovat hamda nogironligi bo'lgan odamlar to'g'risidagi hodisalarning shaxsiy tragediyasi kattaliklarida mujassamlashtirishga

---

[89] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 155 p.

intilgan. Tadqiqotchilar, imkoniyatlari chegaralangan odamlarning negativ madaniyati stereotiplarini yetarlicha kelishilgan holda yaratilishini aniqlashgan. OAV dagi tasavvurlar ko'proq darajada jismoniy mehnat qobiliyati to'g'risidagi madaniy qoidalar bilan mustahkamlangan. Alternativ kontr-tasavvurlarni taklif qilish, auditoriya nafratini va qo'rquvni chaqirishi xavfiga ega. Nogiron odamlarni OAV larida yoritilishini tarixiy tadqiq qilishlar, uni "farqlar tomoshasi" sifatida bayon qilinganligi ko'rkamligini aniqlagan. Ular, nogiron obrazini yo fojiali yoki uni mayib qiladigan holatning dovyurak qurboni sifatida mustahkamlash uchun xizmat qiladi.[90]

Barns va Merser (2003) nogiron odamlarni OAV larida yoritilishi tadqiqotlarini ko'rib chiqib, madaniy dominant muammosini – "undagi guruhlar ramziy qadrsizlanishni boshidan kechiradi" – xavotirlikning markaziy predmeti sifatida aniqlashgan. Lekin ular, nogironlar qanday yoritilishida o'zgarish sodir bo'lganini ham taxmin qilishadi, ko'p nogironlar sodda operalarda va dramatik seriallarda "odatiy" sifatida paydo bo'lmoqda. Nogironlar uchun sportni yoritish o'zgarishlar sodir bo'layotgan yana bir soha bo'lishi mumkin.

OAV va boshqa madaniy tomoshalar nogironlikning mazmunini ijtimoiy belgilashda va qayta tiklashda konstruktiv rol o'ynashini tan olinishiga qarmasdan, nogironlikning ahamiyatini sportda ayollarni va qora tanli va etnik jihatidan kam sonli odamlarni mavjudligini tadqiq qilish bilan taqqoslanganida, OAV larida nogiron sportchilarni yoki sportda ishtirok etadigan imkoniyatlari chegaralangan odamlarni yoritilishiga mujassamlashtirilgan materiallar kam bo'lgan. Anderson (2000) ning aytishicha, "butun tarix davomida nogironlar sporti OAV larida biron-bir marginallashtirilgan narsa bo'lgan. Har qanday sport kabi shunchalik qo'zg'atuvchan va hissiy bo'lishiga qaramasdan, nogironlar sporti ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan". Haqiqatan ham filmlar arxivi sport bilan shug'ullanadigan "super-majruh" nogironlarga misollar sifatida ko'pincha namoyish qiladi.

Paralimpik o'yinlarni va nogironlar sportini OAV larida yoritilishini tizimli ravishda tahlil qilinishi, umuman olganda yaqinda

---

[90] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 155 p.

rivojlana boshladi. Tomas va Smit (2003) Buyuk Britaniya OAVlarida Sidneydagi 2000-yilgi Paralimpik o'yinlarni yoritilishini tahlil qildi. Ularning tadqiqotlari nashriy OAVlarida mujassamlangan va u, sportchilar erishgan yutuqlarni tasvirlash uchun qo'llaniladigan til va obrazlarni o'rgangan. Ular, quyidagi asosiy xulosalarga kelishgan:[91]

1. Nashriy OAV lari uchun tibbiy xarakterdagi nogironlikni bayon qilish an'anasi bo'lgan (sportchilar o'zlarining tibbiy muammolarini yengishiga e'tiborni qaratgan holda).

2. Fotografik tasvirlar, ko'pincha sportchilarning kamchiliklarini yashirgan.

3. Paralimpiya o'yinlardagi ayol sportchilar erkak sportchilarga qaraganda, faol pozada tasvirlanishini kam darajada ma'qul ko'rgan.

4. Tasvirlar nogironlikni stereotip tarzda idrok qilishni kuchaytirish va sog'lom mehnat qobiliyati tushunchasini yangitdan tasdiqlash an'ansiga ega bo'lgan (masalan, Paralimpiya o'yinlardagi sportchilar, sog'lom sportchilar bilan qanday raqobat qilishga urinishlariga e'tiborni qaratgan holda).

Paralimpiya o'yinlarni rivojlanishi bilan nogironlarni sportda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydigan AQSH dagi "Sport imkoniyati" kabi dasturlarda ham "savdogarlar ushbu bozorga e'tibor qaratishadi". Amerika Qo'shma shtatlaridagi Niksonning (2000: 425) aytishicha, "Biz, nogiron sportchilarni «Wheaties» bodroqlari korobkasida ham ko'rdik, u yerda eng dongdor amerikalik qahramon sportchilar namoyish qilinadi".

Shuni ta'kidlash mumkinki, Paralimpik o'yinlarning rivojlanishiga, ularning vazifalarini – nogironlarni foydali sportda ishtirok etishlari orqali yaxshi xodimlarga aylantirishdan tortib, ulardan kengaytirilgan sport tomoshalarida foydalanish vositasida, ularni yaxshi iste'molchilarga aylantirishgacha transformatsiya qilinishi ko'maklashgan. Sport shunday joyga aylanishi mumkinki, u yerda hattoki nogironlik ham tovar sifatida ko'rib chiqiladi. Bunga, nogiron sportchilarni OAV larida barcha shakllarda yoritilishini o'zgarishi qo'shilishi mumkin. Ayrim tadqiqotchilarning aniqlashicha, bu, hozirda sodir bo'lmoqda."[92]

---

[91] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 155 p.

[92] O'sha kitob, 2012 – 155 b.

Xulosalar

➢Osiyo, Amerika, Afrika qit'alarining olimpiya sporti bilan bog'liq xalqaro kompleks musobaqalari MOQ assotsiatsiyalari tomonidan o'tkaziladi.

➢Olimpiya sporti bilan bog'liq Kontinental va Regional o'yinlari XOQ rahbarligida Olimpiya xartiyasiga binoan tashkil qilinadi.

➢Kontinental va Regional o'yinlarida bir qit'a mamlakatlari hamda jahonning turli hududlari sportchilarining ishtirok etishi mumkin.

➢Paralimpiya o'yinlari nogironlarni sportda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi.

Nazorat savollari:

Kontinental o'yinlarning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
Kontinental o'yinlarga qanday o'yinlar kiradi?
Regional o'yinlarning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
Regional o'yinlarga qanday o'yinlar kiradi?
Qadimgi davrda regional o'yinlar bo'lganmi?
Osiyo o'yinlari qaysi tashkilot rahbarligida o'tkaziladi?
Birinchi Yozgi Osiyo o'yinlari nechanchi yilda o'tkazilgan?
Qishki Osiyo o'yinlari nechanchi yildan boshlab o'tkazilmoqda?
Paralimpiya o'yinlari qanday xususiyatlarga ega?
Qishki Paralimpiya o'yinlari dasturiga qanday sport turlari kiritilgan?

Eslab qoling!

Olimpiya sporti bilan bog'liq kontinental va regional o'yinlar olimpizm g'oyalari va olimpiya tamoyillariga asoslangan.

Paralimpiya o'yinlari har 4-yilda bir marta XOQ rahbarligida Olimpiya o'yinlaridan keyin ikki hafta o'tgandan so'ng o'tkaziladi.

Yozgi va Qishki Olimpiya o'yinlarning rivojlanishi bilan ularning marosimlari ham, jumladan:

Ochilish va Yopilish marosimlari xilma-xil ko'rgazmali va har bir Olimpiya o'yinlari tantanali bayram tadbirlari sifatida tashkil qilinmoqda.

17-§. Olimpiya sporti va televideniya

Hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televideniya va radiosiz umuman tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda.

Shu sababli o'tkir ta'sir kuchiga ega bo'lgan televideniya va radio sohasini izchil taraqqiy ettirish jamiyatning doimiy e'tibor markazidadir. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi asosiy milliy tele-radiokanallar aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo'lish huquqini ta'minlash, aholining madaniy saviyasi, bilim va dunyoqarashini oshirish, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lida munosib xizmat qilmoqda.

Televideniya davlat va jamiyatni bog'lab turadigan jonli muloqot vosatasiga aylanib, efir orqali bugungi kunning dolzarb muammolarini ko'proq aks ettirish, jumladan xalqaro olimpiya harakati to'g'risadagi ma'lumotlarni berish, sport hodisalarini yoritib borish, jismoniy tarbiya va sport masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Hozirgi davrda jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda televideniyani zamon talablari asosida rivojlantirish eng muhim maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda.

"Olimpiya o'yinlari televideniyasiz bunday global ta'sir ko'rsatmagan bo'lar edi. Olimpiya o'yinlari, hozirgi vaqtda, o'zining mavjud ko'rinishga ega bo'lib, tomoshalarning jonli tasvirlarini global masshtabda qayta tiklaydigan va tarqatadigan televideniyaning mahsuli hisoblanadi. O'yinlar, aslida, sport hodisasiga ko'ra, televideniyaning hodisasi sifatida yaxshiroq idrok qilinadi. Olimpiya turlarining barchasini ichida faqatgina yengil atletika, tennis, futbol, basketbol va boks Olimpiya o'yinlari tashqarisida ancha ko'p tomoshabinlarga ega, shuning uchun tennis, futbol, basketbol va boks holatida Olimpiya o'yinlari, ularning taqvimi va musobaqalari formatida uncha katta bo'lmagan qismga ega.

Olimpiya o'yinlarini e'tiborga olmagan holda, atletik ommaviylikda va moliyaviy potensialida futbol, basketbol, tennis, avtomobil poygasi va ameriakacha futbol kabi asosiy tijoratlashtirilgan sport turlariga o'rnini boy beradi. Olimpiya o'yinlarini kuzatadigan ko'pchilik odamlar, Olimpiya o'yinlarida yorqin namoyish qilinadigan – yengil atletika, suzish va gimnastika kabi tanlangan sport turlarini ham muntazam tomosha qilmaydilar.

Olimpiya o'yinlari, tomoshabin sifatida yoxud ishtirokchi sifatida sportning asosiy turlarini muntazam kuzatilishi tufayli ommaviy bo'lib qolmasa kerak, ularning ommaviyligi, jahonda eng yaxshi hisoblangan sportchilarning ishtirokida televizion shoularni tashkil qilinishi oqibatida yuzaga keladi.

Olimpiya o'yinlari nafaqat globalligi, televideniya orqali ommaviyligi tufayligina emas, balki tijorat manbalardan keladigan ulkan daromadlari va o'zining gigant sarf-xarajatlari tufayli ulkan tadbirga aylangan. O'yinlar, daromadning to'rtta asosiy manbasini yuzaga keltiradi – chiptalarni sotish, televizion huquqlarni sotish, homiylik va mahsulotlarni ilgari surish bilan litsenziyalashtirish. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi televizion huquqlarni sotishdan va homiylardan kelib tushadigan mablag'larni to'playdi va ushbu mablag'larni Tashkiliy qo'mitaga, Milliy olimpiya qo'mitalariga va xalqaro federatsiyalarga qayta taqsimlaydi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi a'zolarining yo'lkira va yashash bo'yicha sarf-xarajatlarini o'z ichiga olgan, shaxsiy joriy sarf-xarajatlarni qoplash uchun Xalqaro Olimpiya Qo'mitasida tijorat daromadlarining 10% qoldiriladi. Mahalliy homiylik va tovarlarni ilgari surishdan kelib tushadigan daromadlar mablag'lari Tashkiliy qo'mita hisobiga o'tadi.[93]

To'rt yillik davrda – 2005-yildan to 2008-yilgacha Olimpiya o'yinlaridan tushgan umumiy daromad 5 milliard AQSH dollaridan ko'p bo'lgan, ularning 47% televideniya huquqlaridan, 45% – homiylardan va faqat 5% – chiptalarni sotishdan kelib tushgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining raqamli ma'lumotlari oxirgi o'n yilda daromadlarning barqaror o'sishini ko'rsatadi. Bundan mustasno – chiptalarni sotish hisoblanadi, shu bilan birga, o'yinlardan-o'yinlarga qarab o'zgarishlar mahalliy omillar, ya'ni

---

[93] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 155 p.

chiptalarning narxi, xarid qilinishi mumkin bo'lgan chiptalar soni va sotilgan chiptalarning foizi bilan tushuntiriladi.

Oxirgi vaqtga qadar, homiylikdan kelib tushadigan daromadlarning keskin o'sishi paytida, televideniya huquqlarini sotishdan kelib tushadigan mablag'lar olimpiya daromadlarining ustuvor qismini tashkil qiladi, bu mablag'larning katta hajmi amerikaning yetakchi tarmoqlaridan kelib tushgan.

Televideniyadan kelib tushgan daromadlar 2010-2012-yillarda 3 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lib, ularning uchdan ikki qismi huquqlarni xarid qilish uchun NBC dan o'tkazilgan.

Televideniyadan kelib tushadigan daromadlarning 88% Amerikadan va Yevropadan o'tkaziladi. Internet tarmog'ining keng tarqalganligi va oddiyligiga qaramasdan "yangi ommaviy axborot vositalari" tomonidan huquqlarni xarid qilish uchun ajratilgan mablag'lar 1% daromadlarning yarmidan kamini tashkil qiladi. Ushbu yirik televizion daromadlarning sezilarli qismi Tashqiliy qo'mitalarning sarf-xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladi.[94]

Amerika manbalaridan olingan huquqlarni olish uchun birinchi to'lovlar, 1960-yilda yirik amerika televideniya tarmoqlari o'rtasidagi korrupsiya bilan birga o'tgan bo'lib, bu, daromadlarni tez sur'atlar bilan o'sishiga olib keldi. Televideniyadagi Olimpiya dasturlarini oddiyligi, hozirgi vaqtda ortiqcha to'yinganlikka ega – O'yinlarni ko'rishni istagan odamlarning ko'p qismi buni oson amalga oshiradi va televideniya, auditoriya uchun va oqibatda, reklamadan tushadigan daromadlar uchun yangi ommaviy axborot vositalari bilan to'qnash keladi. Lekin televideniyada ko'rsatish o'zining absolyut birinchiligini yo'qotishi mumkin bo'lgan davrda, Olimpiya o'yinlari hodisalarning jonli va oldindan aytib bo'lmaydigan dramasini taklif qiladi, bu, faqatgina sportda mumkin bo'ladi va televideniyaning efiri bunday hodisalarni mos ravishda yoritishi mumkin.

O'yinlar va ommaviy axborot vositalari (OAV). Ushbu global tomosha qay tarzda rivojlanadi? Davrlashtirishning barchasi shartli an'analarga ega va bu yerda biz, ko'rib chiqish uchun to'rtta bosqichni taklif qilamiz:

- 1896-yil va 1935-yillar oralig'idagi televideniyagacha bo'lgan davrni;

---

[94] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 47 p.

- televideniyani yangi texnologiya sifatida 1936 va 1967-yillar oralig'ida paydo bo'lish davri;
- televideniyani 1968-yil va 1987-yillar oralig'idagi texnologiyalarni takomillashtirilishi va globallashuvi davri;
- 1988-yildan hozirgi vaqtga qadar televideniyani raqamli transformatsiya davri.

O'yinlarni o'tkazishga ko'maklashish: 1896–1935. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarini o'tkazilishining boshlanishiga o'n to'qqizinchi asrning oxirida asos solingan, bu davrda ommaviy axborot vositalarining zamonaviy tizimi ham rivojlana boshlagan. Fotosuratlarni, simsiz telegrafni, mutoala qiluvchilarning keng doirasini va tadbirkorlik investitsiyalarining uyg'unligi zamonaviy ommaviy matbuotni yuzaga kelishiga ko'maklashgan.

Birinchi filmlar asrning oxirida paydo bo'lgan, lekin bunda televideniya va kinoxronika hali axborot uzatish vositasi bo'lmagan, musobaqalarda ishtirok etishgina odamlarni rivojlanayotgan hodisalarni va sport tadbirlarini kuzatishiga imkon bergan.[95]

O'n to'qqizinchi asrning boshida kinematograf jahon bo'ylab tez tarqaldi va 1920-yillarda birinchi radiotranslatsiya paydo bo'lgan. 1912-yilgi Olimpiya o'yinlari haqidagi fotosuratlar sotila boshlagan. 1924-yilgi O'yinlar ilk bor radio orqali efirga uzatilgan. Xronika tasvirlarini kinoga oladigan apparatlar 1932-yilda 100 metrlik masofaga yuguruvchi g'oliblarni suratga olgan.

Televideniyaning paydo bo'lishiga qarmasdan 1930-yillardan boshlab radio yana ko'p yillar davomida Olimpiya o'yinlaridan reportajlarni uzatishning muhim vositasi bo'lib qolgan.

1932-yilda 1500 atrofidagi havaskor-radioreportyorlar o'yinlardagi yangiliklarni jahon bo'ylab uzatish bo'yicha o'z yordamlarini taklif qilishgan. Berlindagi 1936-yilgi o'yinlarning tarnslatsiyasi qisqa to'lqinlar bo'ylab 40 dan ortiq mamlakatlarga 105 nafar radio-reportyorlar va 41 ta xorijiy kampaniyalar tomonidan uzatilgan bo'lib, ular jahonning barcha qismlariga 2328 ta reportajlarni tayyorlashgan. Radio, 1950-yillarda axborotni tarqatishning muhim vositasi bo'lib qolgan, lekin 1960-yilda televideniya Olimpiya o'yinlarini translatsiya qilishda ustuvor ommaviy axborot vositalariga aylangan.

---

[95] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 47 p.

Televizion texnologiyalarning paydo bo'lishi: 1936–1967. Ikkinchi jahon urushiga qadar faqatgina to'rtta mamlakat (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya) harakatdagi rivojlangan televizion texnologiyalarga ega bo'lgan.

Olimpiya o'yinlari uchun televideniya davri 1936-yili Berlindan boshlangan. Tasvirlar bevosita ommaga translatsiya qilinmagan, balki 28 ta mahalliy zallardagi 150 000 tomoshabinlarga yetkazib berilgan. Tasvirning sifatida har xil baholangan: "a'lo"dan toki "qoniqarsiz"gacha. 1936-yildagi O'yinlardan keyin uch oy o'tgach BBS kampaniyasi London atrofida muntazam televizion xizmat ko'rsatishni kiritgan.

Lekin Olimpiya o'yinlaridan uzatilgan birinchi real televideniya Londonda Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish paytida 1948-yilda amalga oshirilgan. Tasvirlarni faqatgina London atrofida ko'rish mumkin bo'lgan. Televizion litsenziyalar 1948-yilning boshida faqatgina 35000 ta uyga uzatishga berilgan, lekin olimpiada tufayli, ushbu raqam uch baravar ortgan. Translatsiya hodisalarni 7,5 soatdan uzatish bilan 70 soat hajmda bo'lgan.

Bunga qaramasdan, televizion texnologiyalar filmlar va kinematografga nisbatan sekin tarqalgan. 1960-yilga qadar 25 tadan kam mamlakatlar muntazam televizion xizmatni amalga oshirishgan va shuning uchun, sport televizion uzatishning jahon tizimi hali rivojlanishi kerak bo'lgan. Xelsinkidagi 1952-yilgi Olimpiya o'yinlarini ikkita mamlakatlar translatsiya qilishgan.

Melburndagi Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik paytida, AQSH ning televizion tarmoqlari hodisalarni translatsiya qilish huquqi uchun to'lovlarga qarshilik ko'rsatishgan, shu sababli amerikalik va yevropalik televideniya bilan muzokaralar muvaffaqiyatsiz tugagan. Buning natijasida, AQSH ning bir nechta mustaqil kanallarida faqatgina oltita oldindan ro'yxatdan o'tgan yarim soatlik dasturlar uzatilgan. Melburndagi 1956-yilgi Olimpiya o'yinlarida televizion kameralar ilk bor Matbuot-markazida o'rnatilgan bo'lib, jurnalistlar ro'y berayotgan hodisalardan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan. Oltita telekanal yopiq tarmoqqa ulangan, kameralar musobaqalarni va natijalarni Matbuot-markaziga translatsiya qiladigan tabloga yo'naltirilgan.

Taqqoslash uchun Rimda 1960-yilda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlari Yevrovidenie orqali 12 ta mamlakatga translatsiya qilingan.

Amerikaning CBS tarmog'i 380000 AQSH dollari to'lagan va kundalik yozuvlar retranslatsiya qilinishi uchun Atlantik okeandan oshib o'tgan. Olimpiya o'yinlarini televideniya orqali 21 ta mamlakatda ko'rishgan *(quyidagi jadvallarga qarang).*

O'yinlarni kuzatgan tomoshabinlar auditoriyasining potentsiali to'g'risida CBS auditoriyaning 36% li ulushi to'g'risida xabar berganidan ma'lum bo'lgan, bu, ko'rik-tanlov savdosini boshlanishiga asos bo'lgan va u, keyingi o'n yilda huquq uchun to'lov miqdorini tez o'sishiga olib kelgan.[96]

Yangi telekommunikatsion sputniklar (masalan, Telstar, Syncom 3) ilk bora, 1964 va 1968-yillarda kontinentlararo bevosita translatsiya qilish imkonini bergan va tomoshabinlar birinchi marta Olimpiya o'yinlarini rangli tarzda tomosha qilishgan. Televideniya rivojlanib borgan va umuman sportga va xususan Olimpiya o'yinlariga transformatsiyalovchi ta'sir ko'rsatgan.

Yozgi Olimpiya o'yinlari				**Qishki Olimpiya o'yinlari**			
Yil	**Shahar**	**TV huquq**	**O'sish foizi**	**Yil**	**Shahar**	**TV hu-quq**	**O'sish foizi**
1960	Rim	1,2		1960	Skvo-Velli	0,05	
1964	Tokio	1,6	33	1964	Insbruk	0,93	1,760
1968	Mexiko	10	525	1968	Grenobl	2.6	180
1972	Myunxen	18	80	1972	Sapporo	8,5	226
1976	Monreal	35	94	1976	Insbruk	11,6	37
1980	Moskva	88	151	1980	Leyk-Plesid	20,7	78
1984	Los-Anjeles	287	226	1984	Sarayevo	102,7	396
1988	Seul	403	40	1988	Kalgari	324,9	216
1992	Barselona	636	58	1992	Albervill	291,9	-10
1996	Atlanta	898	41	1994	Lillexammer	352,9	21
2000	Sidney	1,332	48	1998	Nagano	514	46
2004	Afina	1,49	12	2002	Solt-Leyk-Siti	738	44
2008	Pekin	1,739	16	2006	Turin	831	13

[96] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 51 p.

Televizion huquqlarini sotishdan olingan daromadlar AQSH million dollarida)

Barcha 10 milliondan yuqori bo'lgan raqamlar unga yaqin milliongacha yaxlitlangan.

Manba: XOQ (2010 y.) Olympic Marketing Fact File (Lausanne: IOC).

Tasvirni mukammallashtirish: 1968–1987. Televizion sportning rivojlanishi Buyuk Britaniyadagi BBS va AQSH dagi ABS kampaniyalari bilan yaqindan bog'liq. Xususan ABS, hodisalarning dramasiga diqqatni mujassamlashtirishi paytida kayfiyatni yuzaga keltirgan, yulduzlar: "Batafsil va mustaqil" va "G'alabaning hayajoni, mag'lubiyatning talvasasi" kabi ikkita eng ma'lum shiorlarni o'zlarida mujassam qilishgan. ABS ning stili yirik planda ko'rsatishni, grafikani uzatishdan iborat bo'lgan va mikrofonlar sodir bo'layotgan harakatlar tovushini qabul qilish uchun joylashtirilgan. ABS 1968-yili 48 soatlik reportajlarni rejalashtirgan (to'g'ridan-to'g'ri efirda), bu, 1964-yildagiga nisbatan uch marta ko'p.[97]

Aloqa sputniklari va televideniyaning tarqalishi O'yinlarni jahon bo'ylab global televizion hodisaga aylantirdi. Bu, o'z navbatida, ramziy siyosiy aktlar uchun platforma sifatida juda katta potensial bergan. Mexiko shahrida 1968-yilda "Qora hokimiyat"ning chiqishlari, Myunxenda 1972-yilda Isroillik sportchilarni falastinlik harbiylar tomonidan asrda ushlab turilishi va 1976-yildan to 1984-yilga qadar o'yinlarga ta'sir ko'rsatgan boykotning oqibatlari, ushbu imkoniyatdan foydalanishning uchta umuman farq qiladigan holatlarini ko'rsatadi.

Olimpiya o'yinlarini global televizion hodisa sifatidagi shakllanishi, ularni "sovuq urush" davrida ramziy ahamiyatga ega maydonga aylantirdi. 1980-yilgi o'yinlar Moskva shahriga berilganidan keyinoq, lobbistlar guruhlari boykot qilishni talab qila boshlashgan.

Lekin 1979-yilga qadar, Afg'onistonga sho'rolar armiyasining kirishiga qadar, hukumatlar tomonidan bunday harakatlar uchun sabab paydo bo'lganida, AQSH Prezidenti Jimmi Karter Olimpiya o'yinlariga boykot e'lon qilgan va boshqa G'arb mamlakatlarini boykotga qo'shilishga majbur qilish uchun katta kuch sarf qilgan. Ushbu boykot ham va kamroq samarali bo'lgan, g'arbiy blok tomonidan 1984-yilda tashkil qilingan boshqa boykot ham o'yinlarni televi-

[97] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 51 p.

deniyadagi ommaviyligini pasaytirmagan. Aslida, Olimpiya o'yinlari yaxshi tashkil qilingan va bebaho asosni yuzaga keltirgan holda barcha reytinglari bo'yicha yuqori bo'lgan, uning atrofida televizion tarmoqlar o'zlarining kuzgi rejalarini e'lon qilish imkoniga ega bo'lishgan. Huquq uchun 1960-yildan to 1988-yilgacha AQSH gi to'lovlar diagrammasi uzluksiz va hayratda qoladigan darajada oshgan.[98]

Ushbu davrda Olimpiya o'yinlari AQSHning televizion tarmoqlari o'rtasidagi kurashlar maydoniga aylandi. Kun davomida va kech tunda hamda tinch bo'lgan yoz vaqtida juda katta auditoriyalarni to'plash imkoniyati reklamadan qo'shimcha daromad olish imkonini berdi.

Yozgi Olimpiya o'yinlari			Qishki Olimpiya o'yinlari		
Yil	**Shahar**	**Davlat**	**Yil**	**Shahar**	**Davlat**
1936	Berlin	1			
1948	London	1			
1952	Xelsinki	2			
1956	Melburn	1	1956	Cortina	22
1960	Rim	21	1960	Skvo-Velli	27
1964	Tokio	40	1964	Insbruk	30
1968	Mexiko		1968	Grenobl	32
1972	Myunxen	98	1972	Sapporo	41
1976	Monreal	124	1976	Insbruk	38
1980	Moskva	111	1980	Leyk-Plesid	40
1984	Los-Anjeles	156	1984	Sarayevo	100
1988	Seul	160	1988	Kalgari	64
1992	Barselona	193	1992	Albervill	86
1996	Atlanta	214	1994	Lillexammer	120
2000	Sidney	220	1998	Nagano	160
2004	Afina	220	2002	Solt-Leyk-Siti	60
2008	Pekin	220	2006	Turin	200

Televizion huquqlarini sotishdan olingan daromadlar (AQSH million dollarida)

10 milliondan yuqori bo'lgan barcha raqamlar unga yaqin milliongacha

Manba: XOQ (2010 y.) Olympic Marketing Fact File (Lausanne: IOC).

[98] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 52 p.

1980-yilga kelib, huquqlarni olish uchun to'lovlarning o'sishi reklamadan kelib tushadigan daromadlar darajasini oshirilishi xavfini tug'dirdi.

Qishki 1988-yilgi Olimpiya o'yinlarini o'tkazilishi Kalgari shahrida rejalashtirilgan edi, bu, amerika televideniyasi uchun qulaylik nuqtayi nazaridan deyarli mukammal joy hisoblangan, chunki musobaqalarning ko'pchiligi tushdan keyingi vaqtda ham va qirg'oqning ikkala tomonidagi hududlardagi avjiga chiqqan vaqtda ham (amerikalik auditoriyaning ko'p qismi sharqiy va g'arbiy qirg'oqoldi soat mintaqasida yashaydi) to'g'ridan-to'g'ri translatsiya qilinishi mumkin bo'lgan. Demak, ko'rik, ayniqsa shiddatli bo'lgan. [99]

ABS kampaniyasi o'zining olimpiada tarmog'ini saqlab qolishi to'g'risida qaror qabul qilganidan so'ng, Qishki Olimpiya o'yinlarini barcha televizion sohalarda translatsiya qilishi uchun 309 million AQSH dollari taklif qilgan. Bunday katta miqdordagi mablag'ni to'lash ABS uchun ham juda sezilarli bo'lib, u, reklamadan tushadigan daromadlar bilan qoplanmasligi mumkin bo'lgan.

Amerikaning iqtisodiyoti 1980-yillarning o'rtasidan to oxiriga qadar pasaygan vaqtda pessimizm yanada ortgan. Amerikalik televizion tarmoqlar qolganlardan huquq uchun to'lovlarni yuqoriroq olish maqsadida Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga bosim uyushtira boshlagan, bunda, televideniyaning rahbar xodimlari shubhali sovg'a olishganligini ta'kidlashgan.

1992-yilgi Qishki Olimpiya o'yinlari boshqalariga nisbatan kamroq foyda keltirgan, lekin keyingi yillarda, AQSH uchun to'lovlar o'sishda davom etgan. Joylarda o'zlarining shaxsiy televizion uzatuvchi tashkilotlari bo'lishini xohlagan mamlakatlar soni ortib borgan va ular, Matbuot-markazidan alohida diktorning sharhlari bilan, televizion dasturlarni ishlab chiqish uchun jihozlari va tahrir uchun dasturiy-apparatli vositalari bilan Xalqaro televizion markaz tuzishni taklif qilgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi AQSH dan tashqari boshqa mamlakatlar ham o'z huquqlari uchun kattaroq mablag'larni to'lashlari uchun urinishlarni amalga oshira boshlagan. 1988-yilgi Qishki Olimpiya o'yinlari vaqtida huquqlar xaridorlari o'rtasidagi

---

[99] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 51 p.

raqobat bir qator o'zgartirishlarni kiritilishi oqibatida narxlarni 309 million AQSH dollariga qadar ko'tarib yuborgan. [100]

Buning natijasida ABS televideniyasi sport huquqlarini xarid qilishga yangi budjetli chegaralashlar bilan bir qator poytaxt shaharlarida taxtga o'tirib olgan. Bu, o'zini "Olimpiya o'yinlari tarmog'i" deb e'lon qilgan ABS davrining yakuni bo'lgan, lekin hozirda, NBC kampaniyasi bilan raqobat qilish uchun o'z pozitsiyalarini yo'qotmoqda. Iqtisodiy holatlarni 1980-yillardagi yomonlashuvi va ABS kampaniyasining ta'sirini pasayishi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini amerikalik tarmoqlarga huquqlarni sotishdan olinadigan daromadlarni pasayib ketishi mumkinligi to'g'risida tashvishga solgan (bu, to'g'ri chiqmadi).

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 1986-yilgi sessiyasida ABS kampaniyasining o'rgatishiga ko'ra, yangi grafiklar amalga kiritilgan – Barselonadagi 1992-yilgi o'yinlardan keyin Lillexammerda 1994-yilgi Qishki Olimpiya o'yinlari bo'lishi kerak edi, bu, Yozgi va Qishki olimpiada o'yinlari alohida o'tkazilishini boshlab berdi. Bu, amerikaning tarmoqlarini bir yilda ikkita Olimpiya o'yinlari o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlarni to'lash zaruratidan himoya qilish uchun rejalashtirilgan edi. 1980-yillar davomida butun jahondagi teletomoshabinlarni Olimpiya o'yinlarini ko'rish imkoniyatlari ortdi. Soni birdan toki ikki milliardgacha bo'lgan auditoriyaning talabi qondirilgan.

Qancha odam olimpiya o'yinlarini tomosha qilishi bizga aniq ma'lummi? Televideniyaning auditoriyasi to'g'risidagi ma'lumot uy sharoitida olib boriladigan hisoblagich va taqvim-kitobchalar yordamida amalga oshiriladi. Odatda, mingta uy xo'jaligi uchun mo'ljallangan panelga hisoblagichlar o'rnatiladi, taqvim-kitobchalar har oyda to'ldiriladi. Schyotchiklar televizorni ishga tushirish vaqtini va kanalni ishga tushirish vaqtini uch daqiqalik bo'laklar paytida qayd qiladi. Bunday usullar universal bo'lmagan, lekin 54 ta mamlakatda, ular har xil variantlarda qo'llanilgan. Ushbu mamlakatlarda jahonning 75% aholisi, teletomoshabinlarning 90% yashaydi.

Sport tashkilotlari tomoshabinlar bo'yicha statistikani, homiylarni jalb qilish maqsadida televideniya huquqi uchun o'zining to'lov majburiyatlarini qismi sifatida olib borishadi. Bir qator

---

[100] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 51 p.

mamlakatlar bo'yicha nisbatan ishonchli statistika teletomoshabinlarni televizor ko'rishini va yangi OAV ning "televizion faolligi"ni o'rtacha darajasini butun dunyo bo'yicha qo'shimcha baholash bilan to'ldiriladi. Teleko'rsatuvlarni barlarda va boshqa jamoatchilik joylarida yoxud kompyuter yoki mobil telefonlar orqali tomosha qiladigan odamlar miqdorini baholash bo'yicha aniq ma'lumotlar yo'q.[101]

Obyektiv ma'lumotlar to'g'ri keladigan 54 ta mamlakatlar hisobga olinmaganida, qolgan 166 ta mamlakatlar 2008-yildagi Olimpiya o'yinlaridan ayrim reportajlar to'g'risida ma'lumotlar berishgan. Ayrim mamlakatlarda taqvim-kitobchalardagi yozuvlardangina foydalaniladi. Ushbu usul, ta'kidlanishicha, aniq ma'lumotlar olish imkonini bermaydi. Ko'pchilik mamlakatlarda auditoriyaning miqdorini baholash bo'yicha urinishlar bashorat qilingan xolos.

Televizion auditoriya statistikasining standart birligi – dasturni o'rtacha auditoriyasi (o'yin/match/musobaqani to'liq tomosha qilgan tomoshabinlar asosida) hisoblangan vaqtda sport tashkilotlari qoidaga ko'ra boshqa vositalarni qo'llashgan. Ular odatda, 1,5 baravar ko'p bo'lgan maksimal qiymatlarni (tadbir jarayonida ma'lum bir nuqtada auditoriyaning maksimal kattaligini) keltirishadi, yoxud minimum uch daqiqa davomida ko'rsatuvlarni tomosha qilgan har bir odamni qamrab olinishini ko'rsatishadi, bu, odatda, auditoriyaning kattaligidan ikki marta yuqori bo'ladi.

Undan tashqari, barcha musobaqalar bo'yicha auditoriyaning raqamli ma'lumotlarini ta'minlash uchun, ular umumlashtirilgan auditoriyani olish uchun qamrab olish bo'yicha ma'lumotlarni birlashtirishadi, natijada bu, masalan 2006-yildagi Jahon kubogi musobaqalarini 26,29 milliard tomoshabinlar ko'rishganini ta'kidlashga olib kelgan.

Umumlashtirilgan ma'lumotlarni berishning boshqa shakli tomoshabin tomonidan televizor ko'rishning umumiy soati ko'rinishida berilgan. Bu ma'lumotlar, dasturning davomiyligini tomoshabinlarning soniga ko'paytirish orqali olingan. Bunday raqamlar, ayniqsa, ular qisman baholashga asoslanganida, oldindan past statistik ahamiyatga va aniqlikka ega bo'ladi.

---

[101] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 51 p.

"The Independent" tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar aniq kuzatiladigan qonuniyatni aniqlagan, unda, sport tashkilotlariga kerak bo'lgan auditoriya, tekshirish mumkin bo'lgan qismidan bir necha marta katta bo'lgan (qamrab olinishi mumkin bo'lgan auditoriyaning 90% asosida). [102]

Asosiy sport hodisalari uchun, jumladan Olimpiya o'yinlari uchun ham talab qilinadigan auditoriya ancha katta e'tiborni talab qilishi aniq isbotlangan. Olimpiya o'yinlari auditoriyaning e'tiborini quyidagi global masshtabda jalb qiladi:

1988-yil Seul 10,4 milliard
1992-yil Barselona 16,6 milliard
1996-yil Atlanta 19,6 milliard.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar "umumlashtirilgan auditoriya"ga asoslangan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 2000-yilda "ko'rishning umumiy soati" bo'yicha raqamli ma'lumotlarga o'tgan, bu, auditoriyani jalb qilish bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni olish imkonini bergan:

2000-yil Sidney 36,1 milliard
2004-yil Afina 34,4 milliard.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, televideniyadan daromadlarni yakka tarzda kelib tushishi xavfini 1980-yillardan boshlab anglashi orqali, Horst Dassler of Adidas bilan birgalikda global homiylik sxemasi uchun dasturni ishlab chiqishni boshlagan. Internetni 1990-yillardan boshlab rivojlanishi Olimpiya harakatini rivojlanishi uchun imkoniyat yaratdi, lekin bu ham istiqbolga qaratilgan vazifa edi. U, barcha tadbirlarni 24 soat davomida ko'rish paytida to'g'ridan-to'g'ri efirga erishishga potensial imkon berishi mumkin. Lekin hozirgi vaqtda, u, televizion uzatish bilan raqobat qilish uchun daromadlar oqimini yuzaga keltirishi mumkin.[103]

Raqamli transformatsiyalar: 1988-yildan toki hozirgi vaqtga qadar. 1988-yildan boshlab, Internet orqali tarqatishning raqamlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan va globallashtirilgan usullari paydo bo'ldi va rivojlana boshladi. Olimpiya o'yinlari uchun kompyuterni qo'llanilishi uzoq muddatli tarixga ega. Tokioda 1964-yilda bo'lib o'tgan o'yinlarning Tashkiliy qo'mitasi va IBM sport

---

[102] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 55 p.
[103] O'sha kitob, 2012. – 55 b.

hodisalari to'g'risidgi ma'lumotlarni xabar qilish, yozib olish va uzatish uchun elektron kompyuter tizimini yaratishgan.

Monrealdagi 1976-yilgi o'yinlarda televideniya natijalarning markaziy kompyuterlashtirilgan tizimiga ulangan. Internetning rivojlanishi va "Jahon o'rgimchak to'rini" paydo bo'lishi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yuzaga keltirgan, lekin xavfni ham paydo qilgan. Tarmoq, o'yinlarni, homiylarni va olimpizmni qo'llab-quvvatlash uchun radikal yangi vositalarni taklif qilgan, lekin u ham ma'lumotlarni tarqatishning yangi vositasiga aylanishi xavfini tug'dirgan, bu, televizion auditoriyaning bir qismini daromadlarni to'ldirmasdan turib, potensial tarzda o'g'irlash imkonini yuzaga keltirgan.

1988-yilga kelib, sharqiy hududlarda kommunizm tugadi va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi boykotlar davridan ozod bo'lgan bosqichga o'tdi. 1988-yilda Seulda juda katta obyektlar barpo qilindi, lekin Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Tashkiliy qo'mitalar televizion tasvirlar uchun stadionlarni to'ldirish maqsadida katta miqdordagi o'quvchilarni ta'minlashi kerakligini talab qila boshladi. Bu, televideniyaning ehtiyojlari qanchalik markazlashtirilganligini namoyish qiladi.

1984 va 2008-yillar oralig'ida televizion ko'rsatuvlardan kelib tushgan daromadlar 10 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'ldi. Lekin 1980-yillarning oxiridan boshlab, boshqarish yoki nazorat qilish, ko'p kanalli televideniyani paydo bo'lishi, Internetni yuzaga kelishi va rivojlanishi va raqamlashtirishni bekor qilish tufayli yangi muammolar yuzaga keldi, bu, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bilan televideniya o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtirdi.[104]

Amerika televideniyasi bor kuchi bilan olingan huquqi uchun juda katta to'lovlarni oqlashga urindi. Hattoki Yozgi va Qishki Olimpiadalar ajratilganidan keyin ham va ular har xil yillarda o'tkazilishidan keyin ham sarf-xarajatlarni oqlash uchun yetarli miqdorda reklamani sotish qiyin bo'lmoqda. NBC 1992-yili televideniya orqali ko'rish uchun to'lovlarga obuna bo'lishni kiritishga urindi va kabel televideniyasi bo'yicha reklamasiz paketni kengaytirdi, lekin ushbu sxema o'yinlarning ko'p qismini tekinga ko'rayotgan tomoshabinlarni jalb qila olmadi. CBS, TNT birlashmasi

---

[104] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 56 p.

bilan birgalikda o'zining efir vaqtini 50 foizini Turner kompaniyasiga sotgan va Turner o'zining huquqlari uchun 50 million AQSH dollari to'lagan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1980-yillarda huquqlar va homiylik kelishuvlari to'g'risidagi munozaralar ustidan nazoratning ko'p qismini o'ziga olgani kabi, 1990-yillar davomida, u teleko'rsatuvlarning xalqaro to'rini, tashkilotchi kompaniya beradigan televizion tasvirlarni ham o'z nazorati ostiga olishga qaror qilgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 2001-yilda O'yinlardan translatsiyalarni tashkil qilish uchun Olimpiya televizion xizmatini (OBS) tuzdi. OBS – bu, teleko'rsatuvlar jihatlarini ta'minlash uchun butun jahon bo'ylab dongdor telekompaniyalarni va ta'minotchi kompaniyalarni tayinlaydigan qo'mita. Masalan, 2008-yil Pekinda, OBS bilan mahalliy tashkiliy qo'mita (BOCOG) o'rtasidagi birgalikdagi korxona tomonidan Pekin teleko'rsatuvlarini uzatuvchi korxona – 2008-yilgi o'yinlarni tashkil qiluvchi mahalliy korxona tuzilgan.

2001-yilda xalqaro sport va bo'sh vaqtni tashkil qilish bo'yicha tashkilot tugatilganidan keyin Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi televideniya ustidan nazorat qilishni va huquqlarni sotishni o'z tasarrufiga olgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 2005-yilda televizion va marketing xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha alohida kompaniya tuzdi "Television and marketing Services SA".[105]

Internetning tez rivojlanishi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bugungi kunda ham tashvishlantirishda davom etmoqda. Atlantadagi o'yinlarni 1996-yilda tashkil qilish paytida Olimpiya o'yinlarining birinchi veb-saytini 189 million ko'rish amalga oshirilgan. Sayt 1995-yilning aprel oyida ochilgan bo'lib, uni kuniga 10 000 marta ko'rishgan, o'yinlar vaqtida ularning miqdori 400 000 taga yetgan. Undan tashqari, onlayn rejimida barcha chiptalarning 12-15% xarid qilingan. Ikki yidan keyin Naganodagi o'yinlarning veb-saytiga 634 ta ulanishlar, 2000-yili esa, Sidney veb-saytiga 11,3 million kirishlar amalga oshirilgan. NBC va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi uchun kontent ustidan nazoratni yo'qotilishi, sarf-xarajatlarni kompensatsiyasiz auditoriyaning ancha darajadagi qismini televideniyadan yo'qotilishi bilan xavf tug'dirishi ortgan. Bunday qo'rquvlarning belgilaridan biri – televizion huquqlarni sotishdagi keskin siljish

---

[105] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 56 p.

bo'ldi, bu, NBC tomonidan bir nechta o'yinlarga huquqni oldindan xarid qilish imkonini berdi. Undan tashqari, televizion va homiylik huquqlari o'zaro bog'liq bo'lib qoldi, bunda, NBC ning yetakchi kompaniyasi – General elektrik bosh homiy bo'lishga rozilik berdi.

Majburiyatlarning 5,7 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan umumiy summasi, oxir oqibatda, o'z huquqlarini 1996, 2000, 2008 va 2012-yillarga saqlab qoldi. 2003-yili amalga oshirilgan bitta kelishuv uchun NBC 2010-yilning Qishki Olimpiadasi va 2012-yilning Yozgi Olimpiada o'yinlari bo'yicha 2 milliard AQSH dollaridan ortiq summaga kelishuvni tuzdi. Bunga, General elektrikning minimum 160 milliard AQSH dollari, maksimum 200 milliard AQSH dollariga teng homiylik to'lovlari kiradi. NBCni 2012-yilgi Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan joy tanlanguniga qadar, oldindan kelishuvni tuzish ishtiyoqi, joyni tanlanishi huquqlarning ahamiyatini aniqlash paytida hal qiluvchi hisoblanmay qolganligini taxmin qilish fikriga olib keladi.

Televideniyani yetkazib berish vositasi sifatidagi kelajagiga nisbatan bir qator noaniqliklarga qaramasdan Wi-Fi va yuqori tezlikdagi, keng diapazondagi aloqa televideniya va Internetning o'zaro harakat qilishini yaqinlashtiradi, AQSH ning asosiy televizion tarmoqlari bo'lajak Olimpiya o'yinlari uchun televizion huquqlarni himoyalashi aniq holat, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bunday kelishuvlarni ma'qullamaydi.

"The Washington Post"ning ta'kidlashicha, tikilgan pul tavakkalchilik bo'lgan, lekin potensial foydali va kabel orqali uzatuvchilar tarmoqlarning ta'sirini buzayotgan davrda, tarmoqlar ommaviy tomoshabop tadbirlar bilan shug'ullanishni davom ettirishga urinishi maqsadga muvofiq. [106]

Lekin ularga ham NBC Olimpiya hodisalarini translatsiya qilish uchun o'zining shaxsiy kabel tarmoqlarini – MSNBC, CNBC va Bravo kabilarni qo'llashi e'lon qilingan, bunda, iloji boricha katta auditoriya jalb qilinishi va reklamadan tushadigan mablag'larni maksimumga yetkazishga erishish maqsad qilib qo'yilgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi homiylarni kelishuvlarni tuzishda ishtirok etishi to'g'risidagi e'lonidan keyin General elektrik NBC ga kelishuv bo'yicha kafolatlarni ta'minlashda yordam berish majburiyatini

---

[106] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 57 p.

olgan. Tuzilgan kelishuvlar o'yinlarning va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining juda katta tijorat qiymatini ko'rsatadi.

Aslida, tuziladigan kelishuvlar, qay tarzda o'yinlar taniladigan, tomoshaning ratsionallashtirilgan va marosim shakli bo'lib qolganligini ta'kidlashini ko'rsatadi, unda, tomoshabinlar yulduzlarni ko'rishi, hodisalarni ko'rishi va milliy o'ziga xosliklar bilan tanishishi mumkin. Internet ishlanmalarning sur'atlaridagi ehtiyotkorlikka qaramasdan, Internetdan sekin-astalik bilan nazorat qilinadigan foydalanish va kanallarga to'lovlar amerikalik tomoshabinlarga katta diapazonni va qamrash chuqurligini olish imkonini bergan.

Xizmatlarni geografik zonada raqamli blokirovka qilish texnologiyalarini ishlab chiqilishi, raqamli oqimlarga boshqa mamlakatlardan ulanishning va boshqa veb-saytlarni dublyaj qilinishini oldini olish uchun raqamli huquqlarni boshqarish tizimini yaratish imkonini berdi.

Xitoy va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan Internetni nazorat qilish bo'yicha hamkorlikdagi loyiha, 2008-yildagi o'yinlar vaqtida 400 ta noqonuniy uzatish holatlarini aniqladi. Bunday uzatishlar, qoidaga ko'ra, aniqlanganidan keyinoq tezkor bartaraf qilingan. Lekin bitta mustaqil tutamdan boshqasiga translatsiya qilish Big Torrent yordamida yanada muammoli bo'lib qolgan. [107]

Torrent, Pirate Bay veb-saytlarining ko'pchiligi o'yinlarning ochilishi marosimi paytida millionlab ulanishlarni amalga oshiradi va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Shvetsiya hukumatidan yordam so'raganiga qaramasdan, Pirate Bay namoyishkorona tarzda noroziligini bildirgan va Shvetsiya hukumati Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining talabini bajarish uchun kuch ishlatmagan.

NBC 2000-yilda sportning 28 ta turi bo'yicha reportajlar uchun 2004-yilda ulanish nuqtalari sonini kengaytirib, kabelli va sputnikli kanallar bilan qamrab olishning qo'shimcha hajmini kiritdi va 2008-yilda futbol va basketbol kanallarini yaratdi. Pekindagi 2008-yilgi Olimpiya o'yinlari uchun NBC birinchi marta, musobaqalarni translatsiya qilish uchun shaxsiy nbcolympics.com ineternet-saytini qo'lladi. Ushbu yangilik natijasida bo'lsa kerak, ancha keng yoritishga, NBC barcha Olimpiya o'yinlari davrida o'zining eng yuqori reytingiga va reklama uchun eng yuqori sotishlarga erishdi.

---

[107] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 57 p.

"Birinchi Veb 2.0 O'yinlar" deb nomlangan 2008-yilda oqimli Internetni va videoni qo'llash keskin ortdi. NBCning veb-sayti 1,3 milliard baholash bilan ulanishlarni, 53 million noyob foydalanuvchilarni, 75,5 million videooqimlarni va o'yinlar vaqtida ko'rilgan 10 million soatli videoni qayd qildi. [108]

Radio va televideniyaning Yevropa birlashmasi 180 millionta keng tasmali videooqimlarni yetkazgan. Terraning Lotin Amerikasidagi olimpiya saytida 29 million videooqimlar va talab bo'yicha 10 millionli ulanishlar to'g'risida xabar berilgan. BBS Olympics direktori Rodjera Mousining ta'kidlashicha, 2008-yildagi Pekin Olimpiadasining birinchi kunida 2004-yilgi Afinadagi butun muddat davomidagiga nisbatan ko'p videooqim kuzatilgan. Xitoyda, onlayn rejimida, Olimpiya o'yinlarini shaxsiy kompyuteri orqali kuzatgan 53 million odamlar auditoriyasi paytida hissiyotlar bilan shu lahzadayoq almashish tizimi taklif qilingan. Raqamli videopotoklarni bunday ancha darajadagi va tezkor o'sishi, Olimpiya o'yinlarini translatsiya qilishdagi televideniyaning ustuvor ta'siri ortib borayotgan muammolar bilan to'qnash kelayotganligi ko'rsatkichi bo'lib qolmoqda. Markazlashtirilgan Internet-provayder tomonidan (masalan, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining o'zi tomonidan) har tomonlama yoritishni ta'minlashning mumkin bo'lmagan texnologik sabablari mavjud emas. Bunga, ikkita omillar qarshilik qiladi.

Birinchi omil – milliy liniyalarda tashkil qilinadigan televizion reklamalar, hozirga qadar daromadlarni yig'ishdagi eng samarali tijorat modeli hisoblanadi. Shunday ekan, Internet ancha to'liq qamrab olish va hodisalarni tomoshabinni kamroq jalb etish bilan yoritishga erishish imkonini beradigan qo'shimcha sifatida foydalaniladi. Xabar uzatuvchi televideniyaning ustuvorligini ta'minlashning zarurati, NBC veb-saytlariga asosiy hodisalarni potokli yoritishga nisbatan musobaqalarning yorqin lahzalari videomateriallarini qayta o'zgartirilgan tanlash taklif qilingan.

Ikkinchi omil: auditoriya, sportning shaxsiy yaxshi ko'riladigan turlarida, musobaqalarida va milliy o'ziga xoslikda taqdirlash istiqbollarida fokuslashtirilishi paytidagi shaxsiy milliy yo'nalganlikka orientirlangan Olimpiya o'yinlarini qamrab olishga moyillik an'anasiga ega.

---

[108] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 57 p.

2008-yilda, olimpiya televideniyasini ko'rishi va Xitoy, Fransiya, Buyuk Britaniyadagi o'yinlarni yoritilishi paytida, o'ziga jalb qiladigan jihatlari aniqlangan. Fransiyada, masalan gandbol (BBS orqali kam yoritiladigan sport turi) borgan sari dominant bo'lib kelmoqda, chunki fransiyalik jamoa ancha darajadagi progressga erishgan.

Buyuk Britaniya raqamli yoritishga 2012-yilga kelib to'liq o'tgan va BBS tomonidan Londondagi O'yinlarni yoritish birinchi bora to'liq tarzda raqamli rejimda amalga oshirilgan. [109]

Tomoshabinlar oqimli video paytida, yoritish sayti orqali hodisalarni ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'lgan imkoniyat taklif qilingan va u, ancha faol foydalanila boshlandi. Lekin ushbu jarayon uchun BBS veb-sayti markaziy bo'lib qoladi. BBS xabarlar taxtasini va bloglarni ham qo'llashi va nashr qilishi vaqtida, ijtimoiy tarmoq orqali interfaollik, asosiy qamrab olish paytida nisbatan marginal bo'lib qoladi. Shu bilan birga, yuqori yechimga ega bo'lgan televideniya ham yaratiladi. 3D filmlarga nisbatan ishtiyoqqa qaramasdan, Olimpiya o'yinlarini 3D formatda yirik tarzda yoritishni amalga oshirish, kinoteatrlarda to'g'ridan-to'g'ri efirda translatsiya qilishning imkoniyati bo'lsa ham, hali ancha qiyin muammo bo'lib qolmoqda.

Raqobat qiluvchi mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri tasvirlash kuchi shundayki, unda juda katta televizion auditoriyalar, borgan sari ortayotgan sarf-xarajatlar paytida o'yinlarni o'tkazish huquqini yutib olish uchun qimmat tenderli ko'riklarni qo'llab-quvvatlash va o'zini oqlashiga yordam berishi orqali safarbar qilinadi. Aynan, yulduzlarni, bayon qiluvchi sharxlarni, milliy o'xshashlikni, hayotiylikni va noaniqlikni bitta fazoda to'planishi, Olimpiya o'yinlariga madaniy hodisada bo'lishi kerak bo'lgan noyob kuch beradi.

Televideniya dastlab AQSH dan daromadlarning katta oqimini keltirdi, lekin 1988-yildan boshlab, homiylardan keladigan daromadlar va jahonning boshqa mamlakatlaridan keladigan televizion daromadlarning katta oqimini olib keldi.

Televideniyaning ustunligi dalilining o'zi o'yinlarni boshqa usulda transformatsiya qildi. U, milliy g'ururni isbotlash va ko'rsatish uchun ommaviy investitsiyalarni yuqori mujassamlashtirilishi va rag'batlantirilishi paytida soddalikka chek qo'yib, tijoratlashtirishga

---

[109] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 58 p.

olib keldi va dopingdan foydalanishga ko'maklashdi. U, o'yinlar shaharlari industriyada, savdoda va turizmda ilgari borishini global jarayonining bir qismiga aylantirdi.

Ushbu yuqori dabdabalik o'yinlarni kafolatlangan xavfsizlik halqasi ichida o'tkazishga majbur qildi. Televideniya o'yinlarning bayram potensialini katta qismini o'g'irladi.[110]

Televizion sportni 1960-yillarning o'rtasida tezkor o'sishi, Olimpizm madaniyatiga uchta asosiy shakllarda qayta o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatdi.

Birinchi shakli – AQSH ning asosiy tarmoqlari o'rtasidagi televizion huquq uchun ko'rik ostidagi savdo Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi har jihatdan, xususan, iqtisodiy tomondan ancha yuqori pog'onaga ko'tardi.

Ikkinchi shakli – Olimpiya o'yinlarining ortib ketgan ommaviyligi, 1970-yillarda jismoniy madaniyat bilan shug'ullanishni ortishini tezkor tarqalishi sportning va dam olish uchun tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha industriyaning ayovsiz raqobati birgalikda, Olimpiya o'yinlarini homiylar uchun o'ziga jalb qiladigan tadbirga aylantirdi.

Uchinchi shakli – o'ziga xos global hodisaga aylanishi bilan Olimpiya o'yinlari global marketing va global jozibalilik uchun birinchi va uncha ko'p bo'lmagan imkoniyatni taklif qildi.

Olimpiya marketingining asosiy qirrasi – qarama-qarshilik hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, reklamani joylashtiradigan shaxslar va homiylar, avvalam bor, reklamani televizor orqali ko'rsatilishiga talabgor. Lekin Olimpiya o'yinlari harakat joylarini reklama qilinishiga imkon bermaydi (jihozlar bilan ta'minlaydigan savdo markalari bundan istisno). Chegaralash, O'yinlar ortiqcha tijoratlashtirilganligi xavfiga javoban 1928-yilda kiritilgani paradoksdir. Reklamani man qilish bilan yagona boshqa muhim hodisa – Uimbldon turnirlari hisoblanadi.[111]

Masalan, homiylar televizion fazoga ega bo'lmaydi, buning o'rniga, ular assotsiatsiyadan jahonda eng taniqli ramzlarni, beshta halqani, jahondagi ustuvorlik bilan assotsiatsiya qilinadigan ramzni xarid qilish imkoniga ega bo'ladi. Televideniya orqali ko'rsatishning

---

[110] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 59 p.

[111] O'sha kitob, 2012. – 59 b.

yagona usuli – reklamani qo'shimcha sotib olish hisoblanadi. Paradoks shundan iboratki, "sof stadion" tomonidan yuzaga keltirilgan tijoratdan "yuqori" bo'lishga intilish, o'yinlarning noyobligi ruhini yaratilishiga ko'maklashdi va shu tufayli, ularning raqobatbardoshligini o'sishiga ko'maklashdi. Aslida, ushbu tijoratdan yuqori bo'lishning noyob ruhi shunchalik muhimki, bunda o'yinlarni o'tkazilishi paytida mamlakatda qabul qilinadigan qonunchilik, olimpiya obyektivlaridagi kameralar diapazoni doirasida har qanday reklamani maxsus tarzda olishga majburdir.

1990-yilga qadar o'tkazilgan Jahon Kubogi, Olimpiya o'yinlari va boshqa sport hodisalari global televizion hodisaga aylantirilgan. Shu tufayli, ular to'g'ri strukturalashtirilgani paytida reklamadan va homiylikdan daromadlarni oshirishning juda katta potensialiga ega bo'lishgan. Shu paytgacha sport bilan bog'liq bo'lgan asosiy tijorat faoliyati sport tovarlarini sotishda ifodalangan.

1956-yildan boshlab, bir-biriga dushman bo'lgan Dassler oilasi tomonidan boshqariladigan ikkita firma – "Adidas" va "Puma" olimpiya tijorati uchun kurash olib borishgan. "Adidas" firmasidan Xorst Dassler avvaliga alohida sportchilar bilan keyin esa, milliy jamoalar bilan kelishuvlarni tuzish bo'yicha mutaxassis bo'lib qoldi. U, butun jamoa Olimpiya o'yinlarida televideniya bo'yicha, butun dunyoda translatsiya qilinadigan reportajlarda Adidas firmasining liboslarida ko'rinishini anglagan. Masalan, u, ancha kambag'al mamlakatlarga qulay narxlarni taklif qilgan va shu bilan Adidas firmasini dominant mavjudligini ta'minlagan. U, butun jahon bo'yicha paydo bo'layotgan sport xodimlarini kuzatishi va ular kelajakda qaror qabul qiladigan rahbarga aylanishlarini bila turib, do'stona aloqalarni o'rnatish rejalarini tuzishgan va tarmoq mutaxassisi bo'lib qolgan. U, 1974-yili FIFA rahbari bo'lib saylangan Juan Avelanj bilan yaqin aloqalarni o'rnatish bilan alohida shug'ullangan. [112]

Ikkita sport hodisasi – 1982-yilgi Jahon Kubogi va 1984-yildagi Olimpiya o'yinlari homiylik tijoratini transformatsiya qilinishiga yordam bergan. Dassler, Patrik Nelli bilan ishlab, 1982-yilgi Jahon Kubogidagi homiylikdan katta miqdordagi mablag' olishga erishgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, qisman zodagonlik akti tufayli, qisman

---

[112] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 59 p.

o'zini havaskor statusiga mansubligi tufayli, tijoratlashtirish masalasida ehtiyotlik qilgan (1980-yilga qadar). Pul undirishga dastlabki urinishlarning biri – Tokioda 1964-yilda amalga oshirilgan. "Olimpiya" deb nomlangan sigaretalarning yangi markasi OCOG tashkilotiga 1 million AQSH dollari miqdorida daromad keltirgan, lekin Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi aralashgan va tamaki mahsulotlariga homiylik qilishni man etgan. 1985-yilga qadar Tashkiliy qo'mitalar yordamida, joylarda homiylik qilishdan olinadigan daromadlar o'sib borgan.

Lekin 1981-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi amerika televideniyasi mablag'lariga o'ta tobelik xavfi tufayli, tashvishga tushgan va 1981-yilda moliyalashtirishning yangi manbalarini tadqiq qilish bo'yicha Qo'mita tuzgan. Bu vaqtda, Los-Andjelesdagi 1984-yilgi o'yinlarning tashkilotchilari ovoz berish bilan faqatgina xususiy moliyalashtirishga asoslanishni belgilangan jamoatchilik fikrining bosimi ostida, mahsulotning chegaralangan toifalari tamoyilini, ularning har biri bo'yicha monopoliyali homiylik paytida rivojlantirish orqali, homiylarni ancha jadal izlashga majbur bo'lishgan. Adidas firmasining rahbari bilan FIFA Prezidenti Juan Avelanj o'rtasidagi ittifoq Jahon kubogini xuddi shu tamoyillar asosida o'zgartirgan. Bu vaqtda, Dassler Yaponiyaning Dentsu agentligi bilan Xalqaro sport va dam olish tashkilotini (ISL) tuzish uchun hamkorlik munosabatlarini rivojlantirgan.[113]

ISL shartnomalarni tuzish paytida televideniya bilan homiylar o'rtasida muzokaralarni tashkil qilish uchun vositachi sifatida tuzilgan. U, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan Milliy Olimpiya qo'mitalarini asosiy tovarlarni ishlab chiqarish sohasidagi o'z huquqlaridan, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi uni o'yinlar homiylariga markazlashtirilgan holda sotishi uchun voz kechishlariga ishontirish paytida TOP dasturini ishlab chiqish uchun ko'rik-tanlovsiz tanlangan.

Dasslerning aloqalari tufayli, 1986-yilga kelib, uning rahbar xodimlari kamtarsizlik bilan: "Biz uncha katta bo'lmagan kompaniyamiz – bizning uchta mijozimiz bor – Olimpiya o'yinlari, jahon kubogi va yengil atletika bo'yicha jahon chempionati" deb maqtanishlari mumkin bo'ldi. Dassler paytida, asosiy ta'sir

---

[113] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 59 p.

o'tkazuvchi shaxs sifatida, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi homiylikning global olimpiya tizimi – TOP ni tashkil qildi va u, ilk bor, 1988-yili qo'llanildi.

«The Olympic Programme» (TOP) vositachiligida yirik korporatsiyalar – ularning ichida eng mashhuri – NBC va uning tarmoq kompaniyasi "General elektrik", o'yinlarning rivojlanishiga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. [114]

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1988-yilgi Olimpiya o'yinlaridan keyin televizion daromadlar va homiylik bo'yicha umumiy kalitni kelishish bo'yicha markazlashtirilgan nazoratni ancha katta qismini o'z zimmasiga olgan. Homiylikning ustunligi paytida mahsulotlarning chegaralangan toifalarini kiritilishi 1992-yili 12 ta asosiy homiylar bo'lganligini anglatadi, lekin ularning har biri 10-20 million AQSH dollari miqdorida daromad keltirishdi.

Keng tarqalgan fikrning dalolat berishiga ko'ra, Dassler o'z ta'sirini Avelanjni va Samaranchni saylashga ko'maklashish uchun qo'llagan va endi, o'z mukofotini kuch, ta'sir qilish va pul ko'rinishida olmoqda.

O'zaro bog'liq manfaatlarni birlashtirish paytida, u, markaziy figura bo'lgan va uning kuchi ancha ta'sirchan bo'lgan. Uni 1987-yilda vafot etganligiga qaramasdan, u ishlab chiqqan transformatsiya 1990-yillarning boshidagi sport atrofidagi kishilarni belgilagan.

Olimpiya harakatidan kelib tushgan daromadlarning deyarli yarmi, hozirgi kunga qadar televideniyadan tushadi, lekin hozirda, 45% homiylikdan tushadi, 5% esa – chiptalarni sotishdan tushadi va tomoshaboplikni umuman va bir butun sifatidagi muhimligini tushuntiradi. Shuni aytish lozimki, Olimpiya o'yinlari paytida, xuddi boshqa muhim hodisalardagi kabi, chiptalarning ko'p qismi olimpiya "oilasi"ga – homiylarga, korporativ mehmondo'stlikka va OAV ga beriladi. Muhim sport tadbirlarini tashkil qilish paytida, chiptalarning 60% dan kami oddiy kishilarga sotiladi. Umuman, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi ushbu daromadlarning 8% ni olib qo'yadi, qolgan qismi esa, Milliy Olimpiya qo'mitalari va Olimpiya o'yinlarining Tashkiliy Qo'mitasi o'rtasida taqsimlanadi.

1985-yili tashkil qilingan TOP dasturi, masshtabli darajada rivojlanmagan bo'lsada, hozirgi kunda musobaqalarning ajralmas

---

[114] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 59 p.

qismi bo'lib qoldi. Dasslerning vafotidan so'ng, Adidas va ISL 2001-yilda bankrot bo'ldi. Hozirgi vaqtda TOP dasturi o'zining yettinchi bosqichida (TOP 7) va to'qqizta korporatsiyalarni o'z ichiga oladi (Coca-Cola, Acer, Atos, GE, McDonald's, Omega, Panasonic, Samsung va Visa). Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi ushbu korporatsiyalar – olimpiya "oilasi"ning qismlari va sherik hisoblanadi – "Olimpiya o'yinlarining Xalqaro sheriklari, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining sheriklari, Vankuverdagi 2010-yilgi Olimpiya o'yinlarining sheriklari, Milliy olimpiya qo'mitalarining sheriklari va 2010-yilda Vankuverda va 2012-yilda Londonda musobaqalashgan barcha jamoalarning sheriklari" hisoblanadi.

Chegaralangan mahsulotlar toifasini joriy qilinishi daromadlarni oshirish uchun juda samarali mexanizmi bo'ldi. Homiylar istiqbolda sotish va brendlarning tanilishidan "daromadni" ishlab chiqarishiga umid qilishadi. Ushbu ustuvorliklarni oxiriga qadar baholash qiyin.[115]

TOP 5 ning 11 ta kompaniyalari quyidagilar: Coca-Cola, John Hancock, Kodak, McDonald's, Panasonic, Samsung, Atos Origin, Sports Illustrated/Time, Visa International va Xerox.

"TOP homiylariga bir qator imtiyozlar, jumladan yetarli miqdordagi chiptalar beriladi. 2012-yilgi Olimpiada o'yinlarini o'tkazish joyida yagona alkogolsiz ichimlik Coca-Cola mahsuloti va yagona fast-fud McDonald's bo'ldi. Partizanlik marketingi qonunlari olimpiyachi taqsimchilarga, ularning raqobatchilari mahsulotlarini tomoshabinlardan olib qo'yish imkonini beradi. Chiptani xarid qiluvchilar faqatgina Visa kartasi qabul qilinishini ko'rishlari mumkin. TOP dasturi – global va markazlashtirilgan holda tashkil qilingan hisoblanadi. Har bir tashkiliy qo'mita ham mahalliy homiylikni sotishi mumkin, lekin TOP raqobatchilari bilan shartnoma tuza olmaydilar va TOP dasturining asosiy mahsuloti toifalaridan qochishi kerak. Homiylar ham o'z raqobatchilaridan huquqiy himoya olishadi. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi ovoz berish natijalari e'lon qilinganidan keyinoq, o'yinlarning poytaxti bilan kontrakt tuzishni tavsiya qiladi. Unga asosan, Tashkiliy qo'mita, hukumat tomonidan brendni himoya qilishni ta'minlash uchun qonunchilik instrumentini berilishini ta'minlaydi. O'yinlar poytaxti, milliy tashkiliy qo'mita va Olimpiya o'yinlarining Tashkiliy Qo'mita "O'yinlarni, har qanday

---

[115] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 60 p.

olimpiya jamoasini va o'yinlar o'tkaziladigan yilni yoki har qanday olimpiya jamoasi va o'yinlarni o'tkazish yilini nazarda tutgan o'yinlar bilan aloqani" himoyasini ta'minlashi kerak". Buyuk Britaniyaning qonunchiligida 1995-yildan Olimpiya ramzini, Olimpiya so'zini va "Tezroq, balandiroq, kuchliroq" so'zlarini va shunga o'xshash so'zlarni noqonuniy qo'llashning oldini olish bo'yicha Olimpiya ramzlari to'g'risida qonun mavjud edi. O'yinlarni o'tkazish huquqi Londonga berilganidan keyin mavjud qonun "2006-yildagi London Olimpiya va Paralimpik O'yinlari Qonuni" bilan yangilandi va to'ldirildi, bu, zararli marketing bilan kurashish imkonini ta'minladi. Ushbu Qonun nafaqat olimpiya tashkilotchilaridan, balki har bir kishidan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining talablarini bajarishni talab qiladi. [116]

Qonunda, "Reklama to'g'risidagi qoidalar" o'yinlar poytaxti bilan tuzilgan kontrakt har qanday shaxsga qo'yilgan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlashi kerak"ligi aytilgan. Ushbu qonun tomonidan o'yinlar bilan, Olimpiya, London, Yoz va 2012 tipidagi so'zlarni qo'llash bilan biron-bir aloqa bo'yicha sanksiya berilmagan urinishlarni himoyalashni ta'minlash bo'yicha o'ta qattiq vakolatlar suiiste'mol qilish uchun zamin yaratdi.

Ushbu Qonun – korporatsiyalarni tilning o'zini nazorat qilish usullarini izlashga ancha keng an'analarining qismi hisoblanadi.

Bitta sharhda "2012-yilning Olimpiya o'yinlari to'g'risidagi Qonunlar hattoki o'zining masshtabida ham chegaralovchi hisoblanadi, hattoki "X London Olimpiadasini qo'llab-quvvatlaydi" yoki "2012-yilgi o'yinlarni katta ekranda ko'rish uchun barga kel" kabi oddiy xabarlar London Olimpiada assotsiatsiyasining huquqlarini buzishi mumkin".

Qonun, barchaga ma'lum bo'lgan foydalanuvchilarni (masalan, "Olimpiya" kafesi) mavjud bo'lishiga imkoniyat beradi va yangiliklar va jurnalistikaga nisbatan holatlarni o'z ichiga oladi va "dalillar to'g'risida halol ta'kidlash"ni talab qiladi. Lekin minimum, bitta universitet Qonunni buzishdan qo'rqib, "Olimpiya" so'zini qo'llash bilan seminarlar seriyasini bekor qilgan. Sog'lom fikr ustuvor bo'lishi belgilari mavjud va ushbu vakolatlar ma'qul keladigan doiraga qadar chegaralanadi.

---

[116] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 61 p.

Lekin himoyalash nafaqat tijoratli homiylikka tegishli, balki siyosiy oppozitsiyaga va ayrim holatlarda fuqarolik huquqi bilan emas, ko'proq kriminal huquq bilan qo'llab-quvvatlanadi". Antiolimpiya shiorlarini qo'llaydigan odamlarga jinoyat qilgan, degan ayb qo'yilishi mumkin. Bunday imtiyozlar berilgan kompaniyalar va davlat tomonidan amalga oshiriladigan himoya, o'zining korporativ faoliyati jarayonida yuqori yetuk standartlarga sodiqligini namoyish qilishlari kerak. Xususan, davlat, odamning xalqaro huquqlarini buzilishi paytida, ushbu mamlakatda yoki yana bironta joyda ish yuritayotgan kompaniyalarni himoyasi bilan shug'ullanishi kerak emas.

McDonald's va Coca-Cola kompaniyalari shubhali yozuvlari bo'lgan ikkita kompaniya sifatida ajratiladi. McDonald's o'zining veb-saytida inson huquqlariga nisbatan hech qanday majburiyat olmaydi.

Oxirgi 25-yil davomida olimpiya harakati tomonidan yuzaga keltirilgan, puxta loyihalashtirilgan va sermahsul "media-bog'" kutilmaganda begona o'tlar – chaqirilmagan, oldindan aytib bo'lmaydigan, ijtimoiy oriyentirlangan kommunikatsiyalarning raqamli vositalari bilan qoplandi.

Asosiy sport yulduzlari – Olimpiya o'yinlarining va media-madaniyatda dominant bo'lgan taniqli shaxslarning global tomoshasini kesishgan nuqtasi hisoblanadi, bunda, yulduzlarning obrazi raqobatlantirish vositasi bo'lib qolgan.

Intellektual mulk sifatida sportdagi borliq to'g'risidagi masala qarama-qarshilikda ifodalanadi: Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi harakatlarni tasvirda sotadi, ijrochilar esa, buning uchun haq olishmaydi. Ular, bunday yuzaga kelgan holatga qachongacha murosa qilishadi? Yirik sport yulduzlari o'z manfaatlarini ilgari surish va rioya qilinishi uchun agentlarga ega bo'lgan davrda, ularni intellektual mulkka va tasvirga bo'lgan huquqlari mavjud olimpiya moliyalari strukturasi uchun yuridik muammolar arenasi bo'lib qolishi mumkin. .[117]

---

[117] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 51 p.

Olimpiya o'yinlaridan 2005–2008 yy. Daromadlar (million AQSH dollarida)

Manba	*2005-2008*	*Foiz miqdori*
TV-namoyish	*2570*	*47,16*
TOR homiylik dasturi	*866*	*15,89*
Mahalliy homiylik	*1555*	*28,53*
Chiptalarni xarid qilish va sotish	*274*	*5,03*
Litsenziyalashtirish	*185*	*3,39*
Jami:	***5 450***	

Olimpiya o'yinlaridan oxirgi to'rtyillikda olingan marketing daromadlari (million AQSH dollarida)

Manba	***1993-1996***	***1997-2000***	***2001-2004***	***2005-2008***
TV-namoyish	*1251*	*1845*	*2232*	*2570*
TOR homiylik dasturi	*279*	*579*	*663*	*866*
Mahalliy homiylik	*534*	*655*	*796*	*1555*
Chiptalarni xarid qilish va sotish	*451*	*625*	*411*	*274*
Litsenziyalashtirish	*115*	*66*	*87*	*185*
Jami:	*2630*	*3770*	*4189*	*5450*

Manba: barcha raqamlar XOQ dan (2010 y.) Olympic Marketing Fact File (Lausanne: IOC).

Televizion huquqlarini 2010–2012 yy.sotish haqidan olingan daromadlar
(million AQSH dollarida)

Region	**To'lovlar**	**Umumiy summa foizi**
Amerika	2231,25	67,41
Yevropa	672,00	20,30
Osiyo	217,22	6,56
Yaqin Sharq/Afrika	39,20	1,18
Okeaniya	136,50	4,12
Hokazolar (raqamli vositalar, OAV va h.k)	14,00	0,42

Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasi uchun telenamoyish daromadlari
(million AQSH dollarida)

Yozgi Olimpiya o'yinlari

Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasi uchun telenamoyish daromadlari

O'tkazilgan yili	***O'tkazilgan joyi***	***Daromad***
1992-yil	Barselona	441
1996-yil	Atlanta	546
2000-yil	Sidney	797
2004-yil	Afiny	733
2008-yil	Pekin	851

Qishki Olimpiya o'yinlari
Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasi uchun telenamoyish daromadlari

O'tkazilgan yili	*O'tkazilgan joyi*	*Daromad*
1994-yil	Lillexammer	229
1998-yil	Nagano	308
2002-yil	Solt-Leyk Siti	443
2006-yil	Turin	406

Manba: XOQ (2010 y.) Olympic Marketing Fact File (Lausanne: IOC)[118].

Reklama-homiylik dasturlari. Olimpyia harakatiga homiylik qilish istagini bildirgan kompaniyalar olimpiya sportidagi marketing maqsadlariga qat'iy rioya qilishi kerak. XOQ reklama-homiylik dasturlarida ishtirok etish uchun nomzodlarni saralash tartibini qat'iylashtirdi. 1980-1990-yillarda faqatgina jahon bozorida katta obro'ga ega bo'lgan va mahsuloti butun dunyoga mashhur bo'lgan kompaniyalar hamkorlikka jalb qilingan. Bunday yondashuv homiy kompaniyalar sonining kamayishiga olid keldi. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab XOQning reklama-homiylik dasturlarida atigi 9-12 ta kompaniya ishtirok etgan.

Reklama-homiylik dasturini ishlab chiqish XOQ tomonidan ancha yuqori professional darajaga olib chiqilgan. Bu maqsadda tijorat faoliyati sohasidagi xalqaro mehnat taqsimotining imkoniyatlaridan foydalanilmoqda.

1985-yilda XOQ Shveysariyaning ISL kompaniyasi bilan TOP deb nomlangan, mutlaqo yangi tamoyillarga asoslanuvchi olimpiya reklama-homiylik dasturini ishlab chiqish bo'yicha shartnoma tuzgan edi. XOQ g'oyasiga ko'ra bu dastur nafaqat u tomonidan amalga oshirilayotgan tijorat faoliyatining samaradorligini oshirish, balki uning milliy darajadagi hamda Olimpiya o'yinlarini o'tkazishga bog'liq tijorat faoliyatini yurituvchi firma va kompaniyalar bilan aloqalarini mustahkamlashi kerak edi.

---

[118] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 61 p.

Homiy kompaniyalar tavsifi. ***"Coca-cola".*** Bu kompaniya birinchi marta 1928-yilda IX Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazishni qo'llab-quvvatlashda ishtirok etgan. Hozirgi davrgacha "Coca-cola" kompaniyasi olimpiya harakatining asosiy homiylaridan biri bo'lib kelmoqda.

IBM. Kompaniya 1960-yildan buyon olimpiya harakatini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Kompaniya tomonidan XVII Olimpiya o'yinlari ma'lumotlarni elektron qayta ishlash tizimlari bilan ta'minlangan. Kompaniyaning asosiy vazifasi har bir Olimpiya o'yinlari davomida musobaqalar to'g'risida axborot to'plash va ularni tomoshabinlar, mutaxassislar va OAVga berishdan iborat. Kompaniya Olimpiya o'yinlarining rasmiy Web-saytlarini yaratadi.

"John Hancock". Kompaniya 1993-yildan boshlab olimpiya harakati bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Kompaniya o'zining xizmatlarini jahon moliya bozorida tavsiya qiladi. Kompaniya asosiy e'tiborni sportchilarning moliyaviy ta'minotiga qaratadi. "John Hancock" kompaniyasi reklama faoliyati bilan ham keng shug'ullanadi. Kompaniyaning maqsadlaridan biri – xalqlar o'rtasida do'stlik, birdamlik, tinchlik, haqqoniy o'yin tamoyillarini tarqatishga qaratilgan.

"Kodak". Bu kompaniya I Olimpiya o'yinlaridan boshlab olimpiya harakatini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Parijda (1924 y.) bo'lib o'tgan VIII Olimpiya o'yinlarida kompaniya birinchi marta professional fotograflarni fotoplyonkalar bilan ta'minlagan edi. Kompaniya o'zining yangi texnologiyalari, xizmatlari va mahsulotlarini taqdimot qilish maqsadida Olimpiya o'yinlaridan foydalanadi. Barselonada (1992 y.) bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida kompaniya ilk bor "Kodak Photo CD" tizimini namoyish qilgan. Lillexammerdagi (1994 y.) XVII qishki Olimpiya o'yinlari va Atlantadagi (1996 y.) XXVI yozgi Olimpiya o'yinlarida kompaniyaning raqamli kameralari keng ommaning e'tiborini tortgan.

Olimpiya harakati homiylik dasturlarini qo'llab-quvvatlagan bu kompaniyalardan tashqari butun jahonda mashhur kompaniya va firmalar – "Xerox" – 1964-yildan, "McDonald's" – 1976-yildan, "Sports Illustrated/Time" – 1980-yildan, "Panasonic" – 1988-yildan, UPS – 1994-yildan, "Visa" – 1986-yildan boshlab XOQ bilan hamkorlik faoliyatlarini yuritib kelmoqda.

Litsenzion dasturlar (IOC Licensing). XOQning iqtisodiy faoliyatida litsenzion dasturlari muhim ahamiyatga ega. Turli xil mahsulotlarda reklama belgisi sifatida sport ramzlaridan (emblemalar, komanda hamda klub nomi va b.) foydalanish, tijorat maqsadlarida ramzlardan foydalanish va sotish huquqini litsenziyalash XOQ tomonidan amalga oshiriladi. Stokgolmda (1912 y.) bo'lib o'tgan V Olimpiya o'yinlarida litsenziyalash imkoniyatlari birinchi marta tavsiya qilingan.

Olimpiya o'yinlari davomida suvenirlar, har xil buyumlar, mahsulotlar bilan savdo qilish huquqlari litsenziyalash orqali beriladi. Litsenzion dasturlari asosida olimpiya esdalik tangalari, olimpiya pochta markalarini ishlab chiqarish bo'yicha XOQ turli kompaniya va firmalar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Xulosalar

➢Ikkinchi jahon urushiga qadar faqatgina to'rtta mamlakat (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya) harakatdagi rivojlangan televizion texnologiyalarga ega bo'lgan.

➢Olimpiya o'yinlari daromadning to'rtta asosiy manbasini yuzaga keltiradi – chiptalarni sotish, televizion huquqlarni sotish, homiylik va mahsulotlarni ilgari surish bilan litsenziyalashtirish.

➢Olimpiya harakatidan kelib tushgan daromadlarning yarmi, hozirgi kunga qadar televideniyadan tushadi.

➢Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi televizion huquqlarni sotishdan va homiylardan kelib tushadigan mablag'larni to'playdi va ularni Tashkiliy qo'mitaga, Milliy olimpiya qo'mitalariga va Xalqaro sport federatsiyalarga qayta taqsimlaydi.

➢Reklama-homiylik dasturini ishlab chiqish XOQ tomonidan yuqori professional darajaga olib chiqilgan.

Nazorat savollari:

Olimpiya sporti hodisalarni namoyish etishda televideniya qanday ahamiyatga ega?

XOQning televizion kompaniyalar bilan qanday hamkorlik dasturlarini amalga oshiradi?

Televizion daromadlarning katta qismidan qanday xarajatlarini qoplash uchun foydalaniladi?

O'yinlar va ommaviy axborot vositalarining (OAV) rivojlanish davrlari qanday xususiyatlarga ega?

Nechanchi Olimpiya o'yinlarida yangi texnologiya sifatida televideniyadan birinchi marta foydalanilgan?

Olimpiya xartiyasinig nechanchi moddasiga XOQ roziligi asosida Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasi tomonidan teletranslatsiya huquqini sotish to'g'risida qo'shimcha kiritildi?

XOQ tomonidan qanday marketing dasturlari amalga oshiriladi?

Nechanchi Olimpiya o'yinlarida teletranslatsiyalar ilk bor bir kontinent chegarasidan chiqib, global xarakterga ega bo'ldi?

XOQ homiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilishning qanday usullaridan foydalanadi?

Qaysi kompaniyalar olimpiya harakatining doimiy sponsori bo'lib kelmoqda?

Eslab qoling!

- **Olimpiya o'yinlari uchun televideniya davri 1936-yilda Berlindan boshlangan.**
- **Olimpiya o'yinlaridan uzatilgan birinchi real televideniya Londonda Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish paytida 1948-yilda amalga oshirilgan.**

Olimpiya o'yinlarida boykotlar uchta asosiy sabablar boyicha e'lon qilingan:

- **"sovuq urushning" bir qismi sifatida;**
- **aparteid, "irq" yoki imperializm sababli,**
- **siyosiy-g'oyaviy kelisha olmagan mamlakatlar nuqtayi nazari sababli sodir bo'lgan.**

18-§. Olimpiya o'yinlari va siyosat

XX asrning 1970-yillarida yirik xalqaro sport musobaqalari va Olimpiya o'yinlari davomida "sport va siyosat" muammosi bilan bir qatorda "sportda millatchilik" muammosi ham paydo bo'lgan.

Sportda millatchilik muammosining mohiyati Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimida mamlakatlar terma jamoalarining saf tortib chiqmasligi, ularning milliy bayroqlari ko'tarilmasligi, olimpiya

g'oliblari sharafiga davlat madhiyasi ijro etilmasligi, sportchilar o'z mamlakat belgisi qo'yilgan sport formalarida chiqmasligi kabi salbiy talablardan iborat edi.

Sport jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida faqatgina jamiyatning butun siyosiy-iqtisodiy tizimi bilan bog'liq holda mavjud bo'lishi mumkin. Hozir ham "Sport – siyosatdan holi" konsepsiyasining tarafdorlari bor ekanligiga qaramay, zamonaviy sportning amaliyoti uning siyosat bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat bermoqda. Hatto zamonaviy olimpiya harakatini asoschilari bo'lgan Pyer de Kuberten va uning tarafdorlari ham sportning siyosatdan ustunligini ta'kidlashgan, amalda undan xalqlar o'rtasidagi tinchlik va birdamlikni mustahkamlash, taraqqiyparvar kuchlarni birlashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun foydalanishga intilganlar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida olimpiya harakatiga rahbarlik qilgan liberal guruhlar vakillariga "Sport – siyosatdan holi" konsepsiyasi avvalo maqsadga erishish uchun kerak bo'lgan: olimpiya harakatini keng miqyosdagi xalqaro hodisaga aylantirish uchun turli mamlakatlar hukumatlarining siyosiy intilishlaridan nari bo'lish va millatlararo umumiy manfaatlarga tayanish, buning uchun esa hech bo'lmasa keskin siyosiy muammolarga nisbatan sportning betarafligi, neytralligi to'grisidagi tasavvurini yaratish kerak edi.

XX asrning boshlarida AQSHda sportdagi g'alabalarni davlat manfaatlarining targ'iboti bilan bog'lashga intilish boshlangan. Ma'lumki, zamonaviy Olimpiya o'yinlarining birinchi davrida ularda AQSH sportchilari eng katta yutuqlarga erishganlar.

Aynan shuning uchun AQSH matbuoti XX asr boshlarida davlat Olimpiya o'yinlari g'olibi, deb tan olinishi mumkinligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan hamda Olimpiya o'yinlarida davlatlar egallagan ochkolar hisobini yuritish tizimini kiritgan, XOQ esa uni tan olishdan bosh tortgan.

Birinchi jahon urushidan so'ng Pyer de Kuberten siyosiy muammolar olimpiya maydoniga ko'chirilmasligi kerakligini ta'kidlab, olimpiya harakatini siyosatning ta'siridan himoyalashga uringan. Biroq g'olib davlatlarning vakillari bo'lgan XOQ a'zolari urushda mag'lub bo'lgan davlatlarni – Germaniya, Avsro-Vengriya, sobiq Ittifoq – olimpiya harakatidan chiqarib tashlashni talab qilgan. Lozannadagi yig'ilishda (1919 y.) VII Olimpiya o'yinlari (1920 y.)

Vengriya poytaxti Budapeshtdan Belgiyadagi Antverpen shahriga ko'chirilgan.

Germaniya va uning ittifoqchilari, shuningdek sobiq Ittifoqning VII Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki bilan bo'g'liq bo'lgan siyosiy qarorlarni qabul qilishdan o'zini chetga olish maqsadida XOQ ushbu Olimpiya o'yinlariga taklif qilish huquqini tashkilotchi-shaharga topshirgan edi, u esa sobiq Ittifoq, Germaniya va Birinchi jahon urushida bu davlat bilan ittifoqchi bo'lgan davlatlarni VII Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum qilgan.

Xuddi shunday yo'l bilan Ikkinchi jahon urushini boshlagan va unda mag'lub bo'lgan davlatlar – Germaniya va Yaponiya terma jamoalari 1948-yilda Sankt-Moritsdagi V qishki Olimpiya o'yinlari hamda Londondagi XIV Olimpiya o'yinlariga kiritilmagan.

Yuqori natijalar sporti va ayniqsa olimpiya harakatining butun tarixi shuni ishonarli tarzda ko'rsatib berdiki, hatto sportni siyosatdan ajratish shu asosda u yoki bu qarorlarni qabul qilish kerakligini ko'p marta takrorlanishi ham aslida siyosiy maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilgan. Masalan, XX asrning 70-80-yillarida sport vositasida siyosiy izolatsiyadan chiqishga harakat qilgan Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) shu yillar mobaynida "sport – siyosatdan holi" pozitsiyasini yoqlab kelgan.

"Sport – siyosatdan holi" degan fikr mutlaqo tanqidni ko'tara olmaydi. Olimpiya harakatining bir asr vaqt davomidagi tarixi bunga guvohlik beradi. 1936-yil Germaniyaninng Garmish-Partenkirxen shahrida bo'lib o'tgan IV qishki va Berlindagi XI yozgi Olimpiya o'yinlarni bunga yaqqol misol qilib ko'rsatish mumkin. O'sha o'yinlarda fashist Germaniyasining hukumati sport va Olimpiya o'yinlaridan siyosiy va milliy maqsadlarda foydalangan.

Sotsialistik davlatlar sportchilarining olimpiya arenalariga chiqib kelishi bilan Olimpiya o'yinlari siyosiy tuzumlar o'rtasidagi musobaqalarga, "sovuq urushning" muhim quroliga aylandi. Olimpiya o'yinlaridagi g'alaba u yoki bu tuzumlarning nisbatan "sog'lomroq" ekanligini namoyish qiluvchi ko'rsatkich sifatida qaraldi.

Olimpiya sporti bilan siyosatning bog'liqligini tahlil qilganda, siyosiy maqsadlarda undan foydalanishning bir nechta yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish. Zamonaviy davrda sportni ommaviyligi, keng jamoatchilikni sport yulduzlariga bo'lgan qiziqishi ortib borgan

sari turli mamlakatlarning davlat va hukumat rahbarlari, hokimiyat tepasidagi partiya boshliqlari o'zining taniqliligini oshirish maqsadida sportga, mashhur sportchi va murabiylarga ko'proq e'tibor qaratayotganligi.

Ikkinchi yo'nalish. Turli mamlakatlar hukumatlarining o'z mamlakatining iqtisodiyotda erishgan yutuqlarini targ'ib qilish, siyosiy tan olinishga erishish maqsadida nufuzli xalqaro musobaqalar – birinchi navbatda Olimpiya o'yinlariga mezbonlik qilish huquqini qo'lga kiritish uchun intilishi. Olimpiya o'yinlari atrofidagi siyosiy vaziyatning tahlili tashkilotchi davlatlarning hukumatlari siyosiy maqsadlarga erishish uchun Olimpiya o'yinlaridan maksimal tarzda foydalanganliklaridan dalolat bermoqda.

Uchinchi yo'nalish. Turli mamlakatlarning jahon hamjamiyatidagi nufuzini ko'tarish uchun sport va Olimpiya o'yinlaridan keng miqyosda foydalanish. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, XX asrning 50-80-yillarida yuqori natijalar sportidagi, shu jumladan Olimpiya o'yinlaridagi g'alabalarni u yoki bu davlatni siyosiy va iqtisodiy tizimining samaradorligi, uning fan, madaniyat, ta'limda erishgan yutuqlari darajasi bilan bog'lashga intilish kuchli edi. Bunday bog'liqlik har doim ham ochiq namoyon bo'lmagan, mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy darajasini aks ettiruvchi omil sifatida sportdan foydalanishga bo'lgan intilish aniq ko'rinib turar edi.

To'rtinchi yo'nalish. Davlatlarni ichki va tashqi siyosat masalalarida o'zining mustaqilligini yoki boshqa mamlakatlar siyosatiga o'zining ta'sirini namoyish etish uchun sportdan foydalanish.

Beshinchi yo'nalish. Siyosiy bosim o'tkazish, davlatlarning siyosatini diskreditatsiyalash, zamonaviy davr muammolariga jahon hamjamiyatining e'tiborini jalb qilish maqsadida yirik xalqaro sport musobaqalarini, jumladan Olimpiya o'yinlariga ham boykot e'lon qilinishi.

Oltinchi yo'nalish. Siyosiy tashkilotlar va alohida shaxslar tomonidan dunyoda sodir bo'layotgan alohida voqealar, jarayonlar va hodisalarga jahon hamjamiyatining e'tiborini qaratish uchun sport va Olimpiya o'yinlaridan foydalanish.

"**Germaniya**, G'arb va Sharq. Rossiya 1912-yildagi o'yinlarda ishtirok etgan, Sovet Ittifoqi birinchi marta 1952-yilda ishtirok etgan.

Urushdan keyingi qarama-qarshiliklarni tugatilishida erishilgan yutuqlar Germaniya va Yaponiyani musobaqalarda ishtirok etishlariga yo'l ochib bergan. Ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan keyin Yevropa ikkita ta'sir sohasiga aylandi: g'arbiy Yevropa AQSH ta'siri ostida va sharqiy Yevropa Sovet Ittifoqi ta'siri ostida bo'lgan. Germaniya Sovet Ittifoqi, Amerika, Buyuk Britaniya va Fransiya zonalariga, shuningdek Germaniyaning sharqiy (sho'rolar) qismida joylashgan Berlin ham ikkiga bo'lingan. Berlinning G'arbiy qismi keyingi 35-yilda Sovet Ittifoqi uchun provakatsiya bo'lgan. 1940-yillarda Sovet Ittifoqi tomonidan qo'llanilgan blokadasi tovarlarni G'arbdan havo yo'llari orqali ommaviy olib o'tilishi bilan belgilangan. 1962-yilda sharqiy nemislar Berlin devorini qurishgan bo'lib, u, jismoniy to'siq sifatida muvaffaqiyatli bo'lgan, lekin targ'ibot nuqtayi nazaridan G'arbga juda katta ramziy g'alaba keltirgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1950-yilda vaqtinchalik G'arbiy Germaniya Olimpiya qo'mitasini tan olgan. Lekin parallel ravishda Sharqiy Germaniyaning Milliy Olimpiya qo'mitasi xalqaro sport federatsiyalariga qo'shilishga erishishni boshlagan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining Vena sessiyasida 1951-yilda kuchli bahslar bo'lib o'tgan. Ayrim ishtirokchilarning ta'kidlashicha, Milliy Olimpiya qo'mitasi qonuniy davlatning qismi bo'lishi kerak (Sharqiy Germaniya tan olinishiga erishishda harakat qilishni to'xtatmagan). Ayrim a'zolar jahon yoshlarini birlashtirishni, ikkala Milliy Olimpiya qo'mitalarini tan olishni va kelajakdagi birlashishni ustavda yozib qo'yilishini istashgan, shu bilan birga, boshqalar, bu ajralishni ko'rsatadi deb hisoblashgan. Birlashgan nemis jamoasidan tashqari Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi dastlabki muvaffaqiyatsiz ikkita Milliy Olimpiya qo'mitalari g'oyasini ilgari surgan.

1952-yildagi o'yinlarda ishtirok etgan nemis jamoasi tarkibiga faqat G'arbiy Germaniya sportchilari kirgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi bilan Sharqiy Germaniya Milliy Olimpiya qo'mitasi o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashishi tan olishga qarshi ovoz berilishiga olib keldi. 1955-yili Sovet Ittifoqi Sharqiy Germaniyani "sho'rolar zonasi" statusidan ozod qildi va uni mustaqil davlat sifatida tan oldi. Shunda, Sharqiy Germaniyaning Milliy Olimpiya qo'mitasi yagona jamoani shakllantirilishiga qarshi bo'lmasligi sharti bilan rasmiy tan olingan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi uchun

harakatlantiruvchi kuch pragmatizm bo'lgani vaqtida, ko'pchilik Yevropalik zodagonlar kommunistik omilga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lishgan, masalan, amerikalik millioner Eyveri Brendedj (Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi prezidenti 1952–1972 y.y.). [119]

G'arbiy Germaniya Sharqiy Germaniyani tan olmaganligiga qaramasdan ikkala Milliy Olimpiya qo'mitalari 1956-1964-yillardagi O'yinlarda ishtirok etgan. Musobaqalar ishtirokchilari umumiy bayroqqa, emblemaga, uniformaga va yashash joyiga ega bo'lgan. Bunday aloqa, "sovuq urush" vaqtidagi munosabatlardagi taranglik kuchaygan davrga qaramasdan, juda yaxshi bo'lgan. Rimda 1960-yilda bo'lib o'tgan O'yinlarda, xuddi Melburndagi kabi, ikkala Germaniya bitta jamoa sifatida ishtirok etishgan, ular g'olib bo'lishganida ushbu davlatlarning birini davlat madhiyasi emas, balki Betxovenning to'qqizinchi simfoniyasidan "Quvonchga qasida" ijro etilgan. 1961-yilning avgust oyida Berlin devori o'rnatilgan va unga javoban G'arb mamlakatlari sharqiy germaniyalik sportchilarni chang'i sporti va xokkey turnirlarida ishtirok etish uchun viza olishlariga qarshilik qilishgan.

1960-yillarda Sharqiy Germaniyaning mavjudligi – o'rnatilgan dalil ekanligi aniq bo'ldi va bu, xalqaro tan olinishini kafolatladi. Xalqaro Federatsiyalarning ko'pchiligi Sharqiy Germaniyani alohida mamlakat sifatida qabul qildi va IAAF ikkala mamlakatlarga G'arbiy va Sharqiy Germaniyaning alohida jamoalari sifatida 1966-yilgi Yevropa chempionatlarida ishtirok etishga ruxsat berdi. Sharqiy qo'mita rezolyutsiyada "Sharqiy Germaniyaning geografik hududi" sifatida belgilanganligiga qaramasdan, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi ikkala Milliy Olimpiya qo'mitalarini tan olishga ruxsat berdi.

Mexikoda 1968-yili ikkala Germaniya ilk bora sport musobaqalarida ishtirok etishgan va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi "Germaniya Demokratik Respublikasi" (GDR) degan nomni qabul qilishga rozi bo'lgan.

1970-yillarga kelib, G'arbiy Germaniya hukumati o'zining Ostpolitik (sharqiy siyosat) dasturini ishlab chiqadi, u, birlashish mumkin degan umidda, birgalikda tinch yashashga yo'naltirilgan edi. GDR 1970- va 1980-yillarda Olimpiya o'yinlarida juda katta muvaffaqiyatga erishgan, 1991-yildan keyin tadqiqotchilar sharqiy

---

[119] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 120 p.

Germaniya arxivlarini o'rganishganidan keyin, rag'batlantiruvchi dorilarni tizimli qo'llanilganini tasdiqlaganlar.[120]

Xitoy va Tayvan. Xitoy, 1920-yillardan boshlab Olimpiya harakatida ishtirok etib kelgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining birinchi a'zosi sifatida 1922-yili saylangan va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Xitoyning Milliy Olimpiya qo'mitasini tan olgan. Kommunistik revolutsiyadan keyin ko'pchilik millatchilar, jumladan Milliy Olimpiya qo'mitasining ayrim ishtirokchilari Formozaga (Tayvan) qochib ketishgan, lekin Milliy Olimpiya qo'mitasi tan olinishini saqlab qolgan. Keyinchalik, Eyveri Brendej Milliy Olimpiya qo'mitasi manzili o'zgartirganligini tasdiqlagan xolos. Lekin keyinchalik lord Killanin (Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining prezidenti 1972–1980 y.y.) Lozannada manzilni bunday o'zgartirilgani to'g'risida iz ham yo'qligini xabar bergan.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) 1952-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga "Umumxitoy sport komissiyasi"ni tashkil qilganligi to'g'risida xabar bergan va Milliy Olimpiya qo'mitasi sifatida tan olinishini so'ragan. Tayvan ham tan olinishi va 1952-yilgi O'yinlarga taklif qilinishi uchun kurashgan. Bu, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini yana qiyin ahvolga solgan. U, Xitoy Milliy Olimpiya qo'mitasini tan olish masalasini ko'rib chiqishidan oldin, ikkala jamoalarni ham qabul qilishga qaror qilgan. Ushbu, diplomatik pragmatizmga qaramasdan, Xitoy jamoasi O'yinlarga jo'nab ketganiga qaramay, Tayvan past ketishni xohlamagan va ular, o'yinlarda ishtirok etish uchun Xelsinkiga kech kelishgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1954-yilda XXR hamda Tayvan Milliy Olimpiya qo'mitalarini tan olgan. Xitoyning qo'mitasi "Xitoy Respublikasining Olimpiya qo'mitasi" sifatida mavjud bo'lgan (1985-yilda Xitoy Xalq Respublikasining Olimpiya qo'mitasiga o'zgartirilgan). Formoza qo'mitasi "Xitoyning Olimpiya qo'mitasi" nomini saqlab qolgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi hududlarni mamlakatlar sifatida emas, balki Milliy Olimpiya qo'mitalari nazorati ostida tan olishini xabar qilgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1956-yili, bir tomondan, ikkita nemis mamlakatlarini bitta jamoa tarkibiga kirishga muvaffaqiyatli

---

[120] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 120 p.

ishontirgan, boshqa tomondan esa, Xitoy hamda Formoza Milliy Olimpiya qo'mitalarini tan olishga rozi bo'lgan.

Bu safar, Xitoy e'tiroz bildirgan va 1956-yilgi o'yinlarda ishtirok etmagan. 1947-yili saylangan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining uchinchi a'zosi 1956-yilning boshida Formozaning Milliy Olimpiya qo'mitasini safdan chiqarishni talab qilgan. Brandej buni e'tiborsiz qoldirgan. Keyinchalik, shu yili XXR norozilik belgisi sifatida Melburnni tashlab chiqib ketgan va 1958-yili Olimpiya harakatidan hamda barcha Xalqaro federatsiyalar tarkibidan chiqqan. Nisbatan ochiqlik ("Yuzta gullar ochilsin") davridan keyin Xitoy ancha qattiq mafkuraviy pozitsiya ("Katta sakrash") va Eyveri Brandejni qoralashi va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasidan chiqishi orqali "imperialistik" tashkilotlardan izolatsiyalanish davriga kirgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining xitoylik a'zosi Shou Ti-Tung iste'foga chiqqan.

XOQ Formoza qo'mitasi Xitoy vakili bo'lishga da'vogarlikni davom ettirishi mumkin emasligini, lekin u, amalda boshqaradigan hududni aks etuvchi nomni tanlashi orqali takroran ariza berishi kerakligini aytishi bilan masalani hal qilishga uringan. Bu, ancha mo'tadil taklif AQSH da katta bahsga sabab bo'lgan, u yerda, Formozani chiqarib tashlagan (yolg'on) vakil sifatida Brendej kuchli tanqidga uchragan. Formoza MOQ 1960-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tan olinishiga mos ravishda Xitoy Respublikasi sifatida ma'lum bo'lishini taklif qilgan. XOQ ushbu nomni qabul qilgan, lekin ular, Rimdagi musobaqalarda Formoza sifatida musobaqalarda ishtirok etishini talab qilgan. Jamoa, "Formoza" deb yozilgan bayroqni ko'tarib o'tgan, lekin "Norozilik ostida" degan yozuvi bor plakatni ko'tarishgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi 1968-yili "Xitoy Respublikasi Olimpiya qo'mitasi" degan nomni tasdiqladi. Amerikaning tashqi siyosati 1970-yillarda Xitoy bilan munosabatlarni tiklash yo'lidan borgan va 1972-yili Prezident Nikson Xitoyga tashrif buyurgan. BMT 1971-yili XXR ni tan olgan, lekin Formoza/Tayvanni ro'yxatdan chiqargan va uni Xavfsizlik Kengashidagi o'rnini Xitoyga bergan. XOQ agarda Xitoy, Olimpiya qoidalarini va Tayvanni davom etayotgan ishtirokini qayta qabul qilinishi to'g'risida qaror qabul qilgan.[121]

---

[121] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 120 p.

1950-yillarning o'rtasidan boshlab, XOQda milliy kurashlarni boshqarish masalalarida katta qiyinchiliklar yuzaga keldi va 1956-yili sharpant'e va Buassonadaning so'zlari bilan aytganda, "og'ir bulutlar Olimpiya osmonida paydo bo'ldi".

Bu, dramatik siyosiy hodisalar yili bo'ldi: Jazoirning mustaqilligi uchun urushning eskalatsiya qilinishi (1954–1962 y.y.), mahalliy liberal rejimni yo'qotish uchun Budapeshtdagi Rossiya tanklari, Angliya va Fransiyani polkovnik Nasser tomonidan Suvaysh kanalini milliylashtirilishiga javoban Misrga hujum qilishi. Ispaniya, Gollandiya, Italiya, Shveysariya, Iroq va Misr o'yinlarda ishtirok etmasliklarini e'lon qilishdi. Isroil armiyasini safarbar qilib, uch kishidan iborat ramziy delegatsiyani yubordi. Vengriya bilan SSSR o'rtasidagi suv polosi bo'yicha o'yin match-revanshga aylandi va ayrim guvohlarning so'ziga qaraganda, suv qonga bo'yalgan. Milliy kurashning ushbu fonida bitta ijobiy internatsionalistik hodisa ro'y bergan – yopilish marosimida, xuddi ochilish marosimidagi kabi jamolar tarkibida o'tishning o'rniga 4000 nafar ishtirokchilarning 500 nafar vakillari "yagona tantanali yurish bilan o'tdilar" .

Shimoliy Koreya 1964-yili jamoa tarkibiga kirishga intilgan, lekin XOQ birlashgan Koreya jamoasi bo'lishini talab qilgan. Shimoliy Koreya bunga rozi bo'lgan, lekin Janub rad etgan. Shunda, XOQ bu holatda shimoliy Koreyani o'yinlarda ishtirok etishiga ruxsat berishini aytgan. Janub qarshilik ko'rsatishni to'xtatmaganligi sababli, Shimoliy Koreya o'yinlarga alohida jamoa sifatida qatnashgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi nafaqat boshqa joyda qabul qilingan siyosiy qarorni bartaraf qilgan, balki intervensionizmning faol tarafdori bo'lganligini taxmin qilish mumkin. Shunga qaramasdan, u, yuqori tamoyillarga mos ravishdagina yoki aniq konstitutsion tamoyilga bog'liq ravishda emas, balki ko'proq ma'lum holatlarga pragmatik javob bergan.[122]

Falastin, Isroil va Yaqin Sharq. Falastinliklar musobaqalarda "mandatli" hudud sifatida Buyuk Britaniyaning bayrog'i ostida ishtirok etishlariga qaramasdan, Ikkinchi jahon urushiga qadar, ularning Olimpiya qo'mitasi mavjud bo'lgan. Shunday qilib, Falastin 1948-yilgi o'yinlarga taklif qilingan. BMT Falastinni bo'linishini tavsiya qilgan va 1947-yili Isroil davlati tashkil qilingan. Falastin

---

[122] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 121 p.

Milliy Olimpiya qo'mitasi Isroilning Olimpiya qo'mitasi bo'lib qoldi va uning niyati ayrim Arab mamlakatlari "Sionistlar" bayrog'iga qarshi bo'lsa ham, o'yinlarda Isroil bayrog'i ostida ishtirok etish bo'lgan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi boykot xavfi ostida yana bir marta qisqa muddatli pragmatik qaror qabul qilgan va Isroilni qonuniy huquqqa ega emas deb e'lon qilgan. Uning ta'kidlashicha, dastlabki Olimpiya qo'mitasi "Falastin" milliy nomi ostida tan olinganligi va mazkur Falastin qo'mitasi yo'q bo'lganligi tufayli, bundan tashqari "Isroil" tan olinishini so'rmaganligi sababli, u, o'yinlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lmagan.

Shundan so'ng Isroilning yangi Milliy Olimpiya Qo'mitasi tomonidan rasman tan olingan va isroillik jamoa 1952-yili Xelsinkidagi Olimpiadada ishtirok etgan. Melburndagi o'yinlarga yettita mamlakat boykot e'lon qilgan: Ispaniya, Shveysariya va Niderlandiya Sovet Ittifoqi armiyasini Vengriyaga kiritilishiga; Livan, Misr va Iroq Isroilni Sinayga va Gaza Sektoriga bosib kirishiga qarshi chiqishi tufayli.

Falastin 1986-yilda Osiyoning Olimpiya kengashiga a'zolikka qabul qilingan va 1993-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Falastinni Olimpiya maqsadlaridagi mamlakat sifatida tan olgan. Ushbu ikkala hodisalar Isroilda va butun dunyo sionistlarida g'azablanish reaksiyasini chaqirgan. Isroil 1996-yilda siyosiy urush olib borishi bilan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini "Falastin" nomini qo'llashni man etilishiga uringan va uning o'rniga "Falastin ma'muriyati, Falastin avtonomiyasi yoki Falastin delegatsiyasi" nomlarini taklif qilgan. Falastinlik jamoalar 1996-yilgi Olimpiadada ishtirok etishgan. Endryu Yang tomonidan 1996-yilda tashkil qilingan qabulda Isroil va Falastin Olimpiya delegatlari yarashishgan. Tabriklar bilan almashgan Isroil va Falastin Olimpiya delegatsiyalari jahon OAV lari tomonidan keng yoritilgan.[123]

Falastin Ozodlik Tashkilotining yetakchisi Yosir Arofat 2004-yilda falastinliklar 2004-yilgi Olimpiya o'yinlari vaqtida tinchlik shartlariga rioya qilishlarini e'lon qilgan. 2004-yilning noyabr oyida Arofatning o'limidan keyin va Falastinda XAMAS hokimiyatining,

---

[123] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. - 121 p.

Isroilda esa o'ng qanotning kuchayishi bilan munosabatlar ancha mustahkamlandi.

"Aparteid va Janubiy Afrika". «Madaniy boykot» Janubiy Afrikaning aparteid rejimini izolatsiya qilinishida va jamoatchilik tomonidan qoralanishida sezilarli rol o'ynagan. Janubiy Afrikani sport boykot qilishi yuqori turgan, bu muammoga birinchi darajali e'tibor qaratilgan va boykotni boshqa hududlarga kengaytirilishi rag'batlantirilgan. Bu ham kompaniyani o'tkazuvchi shaxslardan, tashkilotlar va mamlakatlardan maqsadga yo'naltirilgan kuchni talab qilgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi sport boykotining yetakchi kuchi bo'lgan.

Janubiy Afrika birinchi marta 1908-yilgi musobaqalarda ishtirok etgan va shundan buyon, o'z jamoasini har bir o'yinga jo'natgan.

Qora tanli ishtirokchilar to'liq oq tanli Olimpiya qo'mitasi tomonidan hech qachon tanlanmagan. Bu 1950-yillarda afrikalik ishtirokchilari bo'lmagan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi uchun muammo bo'lmagan. Faqatgina 1959-yili Xalqaro Olimpiya Qo'mitasida Sovet Ittifoqi vakili Aleksey Romanov boshchiligida kompaniyaning o'tkazilishi boshlangan.

Janubiy Afrika 1961-yilda respublika bo'ldi va segregatsiyani o'tkazadigan qo'shimcha qonunlarni kirita boshlagan. 1963-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Afrikaning Milliy Olimpiya qo'mitasi bilan uchrashgan, lekin 1964-yilgi o'yinlarga Janubiy Afrikaga taklifnomalar yuborilmagan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Janubiy Afrikaning Milliy Olimpiya qo'mitasi irqiy diskriminatsiyaga qarshi barcha eshitadigan xabar bilan chiqishi kerakligini talab qilgan va javob bo'lmaganidan keyin, ularning sportchilari 1964-yilgi o'yinlardan chiqarib yuborilgan. Diplomatik hujumga nisbatan qarshi harakat va ayrim yetarlicha noaniq va mantiqsiz kelishtiruvchi harakatlar Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tarafdorlarini jipslashishiga olib keldi. Janubiy Afrika Xalqaro Olimpiya Qo'mitasidan 1968-yilgi Olimpiya o'yinlariga taklifnoma oldi. Lekin Afrikadagi sportning Yuqori kengashi (BCCA) va Janubiy Afrikaning irqchiligi bo'lmagan Olimpiya qo'mitasi (SANROC) Qora Afrika mamlakatlarining va AQSH da Garri Edvards boshchiligidagi qora tanlilarning teng huquqli bo'lishi uchun kurashchilarning qo'llab-quvvatlashi bunga qarshi bo'lgan.

Taxminan 40 ta mamlakatlardan keladigan boykot xavfi Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini Janubiy Afrikani ishtirok etishini man qilishga majbur qildi. Janubiy Afrika tomonidan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini o'zining ichki ishlariga aralashmasligini so'rab kibor bilan bergan javobi, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan berilgan qo'llab-quvvatlashni yo'qotilishiga olib keldi va 1970-yili Janubiy Afrika tashkilotdan chiqarib tashlandi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, 1960-yillarning boshida Afrikaning Milliy Olimpiya qo'mitasidan sportda aparteid mavjud emasligi yoki ildizi bilan yo'qotilishi to'g'risida xabarni kutgan. Janubiy Afrikaning Milliy Olimpiya qo'mitasi (SANOC), Janubiy Afrika hukumatiga ochiq qarshi chiqishga qobiliyatli emas yoki xohlamaydigandek ko'rinadi va shu tarzda, Janubiy Afrika 1964-yilgi o'yinlarga taklifnoma olmagan.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasida ko'pchilik irqchilikka qarshi yurish ishtirokchilari bo'lmasa ham tashkilot Janubiy Afrikani noqonuniy deb e'lon qilgan strukturalarning biri sifatida ish olib borgan. Olimpiya o'yinlarining ortib borayotgan ramziy hokimiyati to'g'risida butun bir tarix gapiradi va boykotlar, siyosiy qarshiliklar davri bo'lishini oldindan aytadi. 1966-yilda VSSA tashkil qilingan bo'lib, u, Janubiy Afrikaga qarshi kompaniyani olib borish uchun yaratilgan. SANOCning, jumladan Olimpiya o'yinlaridagi aralash jamoaning ayrim kompromiss takliflari, ularni takroran o'yinlarga qo'yilishiga Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini ishontirishgan. Bu, Milliy Olimpiya qo'mitalarida va boshqa tashkilotlarda jo'shqin reaksiyani chaqirgan, ko'pchilik mamlakatlar va shaxslar boykot qilish xavfini solishgan. [124]

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Janubiy Afrikani ishtirok etishdan chetlashtirish uchun nufuzni qutqaradigan formulani yaratilishiga jalb qilingan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi yigirmanchi asrda hal qilishi kerak bo'lgan murakkab masalalarni hisobga olgan holda, harakatda parchalanish yoki muvaffaqiyatsizlik hech qachon bo'lmaganligi ancha darajadagi yutuq hisoblanadi. Bu, Yevropa zodagonlari ta'siri ostida bo'lgan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining o'ziga xos strukturasi tufayli bo'lishi mumkin, uni qudratli mamlakatlarning hokim sinfiga yaqinligi, ayrim paytlarda, diplomatiyaning alternativ shakli sifatida

---

[124] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.- 123 p.

funksiya qilishiga imkon bergan. Bunda, ushbu ta'sir G'arbiy Yevropa bilan chegaralanmagan.

Yevropaning bo'linishi va sharqda kommunistik davlatlarning paydo bo'lishidan keyin, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi o'z mamlakatlarida ta'sir ko'rsatishga ega bo'lgan sharqiy Yevropaning yangi apparatchilarini qabul qila olgan. Bunga qaramasdan, 1970-yillarning o'rtasiga kelib, aparteid muammosi va "sovuq urush" boykotlar to'lqinini chaqirgan bo'lib, ularda televideniya davrida O'yinlarning ramziy kuchi oldingi vaqtdagiga nisbatan ancha ahamiyatli bo'ldi.

Aynan shu davrda, Xuan Antonio Samaranch Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining prezidenti etib tayinlangan. Samaranch, prezidentlar ichida eng diplomatik bo'lgan, o'zining nozik diplomatik tajribasini, oshkora xushmuomalaligining nozik san'atini va shaxsiy bosimini qo'llashi orqali Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining hokimiyatini saqlash va oshirishga erishgan". [125]

Siyosat va Olimpiya o'yinlari. Olimpiya xartiyasining 51-qoidasida "Olimpiya o'yinlarini norozilik, namoyishlar yoki siyosiy, diniy yoki irqiy targ'ibot uchun platforma sifatida qo'llash man etiladi" deb yozilganiga qaramasdan (Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (2007) Olimpiya xartiyasi: 98) zamonaviy Olimpiya harakati urushlar, boykotlar, noroziliklar, ish tashlashlar va hattoki terroristik aktlarga duch kelmoqda.

Olimpiya o'yinlari jahon televizion hodisasi bo'lib qolganligi tufayli, ular ramziy siyosiy chiqishlar uchun oddiy holatga aylandi. 1960-yillarning yakunidan boshlab va undan keyin Olimpiya o'yinlari ikkita asosiy shakldagi ramziy siyosatga jalb qilindi. Bu, obro'li musobaqalarda ishtirok etish, medallarga erishish, o'yinlarning xo'jayini bo'lish hamda ularda, boykotning har xil shakllari orqali ishtirok etishdan voz kechish va o'yinlar bunday eng yirik jahon hodisasi bo'lganligi tufayli, o'yinlar imkon beradigan "platformadan foydalanib" ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilikni ifodalash uchun o'yinlar tomonidan beriladigan reklama-targ'ibot imkoniyatlaridir.

Olimpiya o'yinlari 1968-1984-yillar davrida ramziy siyosiy musobaqa mujassamlashgan joy bo'lib qoldi. O'yinlarning siyosati va asosiy momentlarini afsonalashtirilishi ko'rib chiqiladi, xalqaro

---

[125] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.- 124 p.

munosabatlar va siyosiy iqtisodiyotdagi asosiy uchta an'analarga katta e'tibor qaratiladi: 1960-yillardan to 1980-yillarga qadar boykotlarni e'lon qilish va siyosiy teatrning yuzaga kelishi; milliy rivojlanishga ko'maklashishning ortishi va o'yinlarni o'tkazilishi joyiga obro'li siyosat shakli sifatida qiziqishni jalb qilish; neoliberalizm 1980-yillardan boshlab, qanday qilib borgan sari xalqaro siyosiy iqtisodiyotning "sog'lom mazmuni" bo'lishi bilan Olimpiya o'yinlarining iqtisodiy investitsion imkoniyatlarini ortishi.[126]

Ushbu an'analar tarang holatda bo'ladi va oshirib yuboriladi, masalan, ularning har birini 1984-yilgi Los-Andjelesdagi Yozgi Olimpiya o'yinlari illyustratsiya qilishi mumkin. Shu vaqtning o'zida, boykotlar va siyosiy teatrning (1976, 1980, 1984) sababi bo'lgan, Meksikadagi 1968-yilgi Olimpiya o'yinlaridagi "Qoralar hokimiyati" – musht bilan salomlashish kabi hodisalarga boshidan boshlab diqqatni mujassamlashtirgan.

Shunday qilib, 1960-yillardan boshlab, meros va barqarorlik siyosatini rivojlanishini identifikatsiya qilish orqali o'yinlar siyosatini shakllantirgan xalqaro siyosiy va iqtisodiy kontekstni tadqiq qilish davom ettirilgan.

Olimpiya o'yinlardagi siyosat. Olimpiya o'yinlaridagi siyosatni har xil kontrastlar va xususiyatlari nuqtayi nazaridan bayon qilish mumkin. Masalan, Olimpiya o'yinlariga siyosiy aralashishning bir nechta har xil turlari bo'lgan:

- Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan mamlakatning ichki siyosati;
- har xil siyosiy yoki mafkuraviy bahslarga asoslangan xalqaro raqobat va o'yinlarni milliy dasturlarni ilgari surish uchun qo'llash;
- O'yinlarni o'zlarining milliy hukumatlariga qarshi siyosiy namoyishlar uchun forum sifatida qo'llaydigan ishtirokchilar;
- o'zining siyosiy maqsadlarini ilgari surish uchun qo'llaydigan ishtirokchi bo'lmaganlar;
- Olimpiya yutuqlarini o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ustunligi bilan tenglashtirishga urinadigan ishtirokchi mamlakatlar;
- Olimpiya siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi.[127]

---

[126] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.- 124 p.
[127] O'sha kitob. 2012. – 127 b.- 128 b.

Berlinda 1916-yili o'tkazilishi mo'ljallangan O'yinlar eng dastlabki o'yinlardan bo'lib, ular ikkinchi tipdagi siyosiy holat bilan to'qnash kelgan. 1914-yili Birinchi jahon urushi boshlangan paytda, ittifoq davlatlar o'yinlarni boshqa joyga o'tkazish uchun bosim o'tkazishgan. O'yinlarni boshqa alternativ joyga o'tkazilishining iloji bo'lmaganligi tufayli, ular zamonaviy o'yinlar tarixida birinchi marta bekor qilingan. 1936-yili Berlinda o'tkazilgan o'yinlar sharmandali "natsistlar o'yini" deb nom olgan. Muammo, Germaniyada natsistlar rejimi ostida yahudiylarni diskriminatsiya qilinishi to'g'risidagi masala atrofida yuzaga keldi. Natsistlar, ortib borayotgan jahon oppozitsiyasini kompensatsiya qilish uchun tayyorgarlikka kuchlarini ayashmagan.

1936-yilgi Olimpiya o'yinlarini Berlinda o'tkazilishi, Germaniyani Yevropa mamlakatlari ichida o'zining holatini tiklaganligini ko'rsatish uchun maxsus belgilangan. Lekin hokimiyat tepasida natsistlar turishgan va Adolf Gitler ushbu hodisani, o'zining irqiy ustuvorligi to'g'risidagi nazariyasini namoyish qilish uchun platforma sifatida qo'llagan. "Natsistlar o'yini" juda kuchli targ'ibot tadbiri bo'lishiga qaramasdan, sport mashqlari orqali nemislarning ustuvorligini ko'rsatishga urinish barbod bo'ldi, chunki afro-amerikalik sportchi Djessi Ouens to'rtta oltin medalga ega bo'lib, o'yinlarning qahramoniga aylandi. Uzunlikka sakrash musobaqalari vaqtida Ouensning nemis raqibi Luts Long, uni natsistlar oldida ochiqchasiga qo'llab-quvvatladi. Long Ikkinchi jahon urushi vaqtida o'ldirilgan, lekin Ouens, uning oila a'zolarini urushdan keyin ham ko'p yillar davomida qo'llab turgan.

Urushdan keyingi, 1948-yilgi Londondagi Olimpiya o'yinlari katta siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi, chunki ishtirok etish, siyosiy tan olish va qonuniylikning ramzi bo'lib qoldi. Germaniya va Yaponiya urushdagi roli tufayli, Londondagi o'yinlarga taklif qilinmagan, Sovet Ittifoqi esa, taklif qilingan bo'lishiga qaramasdan ishtirok etmagan. Buyuk Britaniyani sportchilarning ovqatlanishlari uchun mas'uliyatini chegaralash uchun ishtirokchilar o'z mahsulotlariga ega bo'lishlari kerak, deb qaror qabul qilingan. Yangi inshootlar qurilmagan, lekin Uembli stadioni urushda buzilmagan bo'lib, O'yinlarni o'tkazilishi uchun yaroqli deb topilgan. Erkak sportchilar qirol harbiy havo kuchlari lagerida, ayollar esa – Southlands kollejining (hozirda Roxempton universitetining qismi) yotoqxonasida joylashtirilgan.

Londonda 1948-yilda o'tkazilgan o'yinlar televideniyada namoyish qilingan birinchi o'yinlar bo'lgan, shu bilan birga Buyuk Britaniya aholisida deyarli televizor bo'lmagan. 1948-yilgi Olimpiya o'yinlari atrofidagi qizg'in bahslarga va natijalar bo'yicha xavotirlikka qaramasdan, ular katta muvaffaqiyatga ega bo'lgan. 59 ta mamlakatdan kelgan 4000 nafarga yaqin sportchilar musobaqalarda ishtirok etgan.[128]

Misr Suvaysh kanalining statusini belgilash bilan bog'liq bo'lgan janjal tufayli, 1956-yilda Melburnda o'tkazilgan o'yinlardan chiqarib yuborilgan. O'sha yilning o'zida Polsha va Vengriyada Moskvaning rejimiga qarshi namoyishlar o'tkazildi va ular, Budapeshtda sho'rolar armiyasi qurolsiz aholini o'qqa tutishiga olib kelgan, Melburnda esa, Vengriya va Sovet Ittifoqidan kelgan sportchilar o'rtasida mushtlashish sodir bo'lgan.

Olimpiya o'yinlari birinchi marta Osiyo qit'asida Tokioda 1964-yili o'tkazilgan. Bu Olimpiadada o'zini urushdan keyingi muvaffaqiyatini namoyish qilish uchun shaharni rekonstruksiya qilinishiga 3 milliard AQSH dollari sarf qilingan. Atom bombasini portlatilishi tufayli Xirosima buzilgan kuni tug'ilgan Yosinori Sakai ochilish marosimida olovni ko'tarib yurish uchun tanlangan.

Sportdagi muvaffaqiyat ko'pincha ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy ustunlikni qo'llab turishga millatchilik urinishlari bilan bog'liq. Medallarning olimpiya jadvallari, o'zida bevosita ifodalangan urush natijalari ko'rsatkichlari rolini oladi. Lekin bu, aholini milliy ustunlikka qanchalik muvaffaqiyatli ishontirishi yoki milliy g'ururni rivojlantirishi mumkinligi, bahs yuritadigan masala hisoblanadi.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining ichki tuzilishi va siyosati Olimpiya o'yinlarining natijalariga ta'sir ko'rsatgan. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi – o'zini mavjudligini e'lon qilgan va o'zini-o'zi boshqaradigan assotsiatsiya bo'lib, 1981-yilga qadar deyarli to'liq erkak vakillardan iborat bo'lgan. Korrupsiyada ayblanganidan keyin Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi shikoyatlarni ko'rib chiqishni o'z burchi deb bilgan. O'sha vaqtdagi va hozir ham davom etayotgan siyosiy bahslar 2000-yillarda nashr qilingan ikkita kitobning nomida a'lo darajada yakunini topgan: *The Olympic Turnaround* va *The Great Olympic Swindle* (Katta olimpik qalloblik). Xalqaro Olimpiya

---

[128] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 127 p.- 128 p.

Qo'mitasi bir tomondan samarali, islohot qilingan va tiklangan organ sifatida idrok qilinadi. Boshqa tomondan – manipulatsiya qiladigan, reklama-targ'ibot va islohot qilinmagan organ sifatida idrok qilinadi.[129]

Olimpiya o'yinlari siyosatidagi uchta an'ana. Oxirgi 50 yil ichidagi Olimpiya o'yinlarining siyosatini tasniflashga urinib ko'ramiz. Umuman olganda, biz, uchta an'anani belgiladik:

- boykotlardan siyosiy teatrning shakli sifatida, Olimpiya o'yinlarida yoki u bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlarda guruh yoki alohida shaxs sifatida ishtirok etishdan o'zini tortish protestini ifodalanishi sifatida foydalanish;
- Olimpiya o'yinlaridan obro'ni oshirish uchun foydalanish (sabab, jamoatchilik-siyosiy yoki iqtisodiy mafkura yoki Olimpiya o'yinlarining poytaxti, hudud yoki milliy joylashish sifatida);
- neoliberalizmni – Olimpiya o'yinlarini tashkil qilish uchun ongli konteks sifatida rivojlantirish (*30-jadval).*

30-jadval

Olimpiya o'yinlari siyosatidagi uchta tendensiya (1968–2016 yy.)

Boykot va siyosiy teatr	Reklama-targ'ibot siyosati	O'yinlar neoliberalizmi
1968 Meksika	1972 Myunxen	1976 Monreal
1980 Moskva	1992 Barselona	1984 Los-Anjeles
1984 Los-Anjeles	2000 Sidney	1996 Atlanta
1988 Seul	2004 Afina	2012 London
	2008 Pekin	
	2016 Rio-de-Janeyro	

Boykotlar va Olimpiya o'yinlaridagi siyosiy teatr. Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq bo'lgan boykotlarning soni birmuncha istehzoli ko'rinishga ega, chunki zamonaviy O'yinlarning tashkil qilinishini asosida yotgan noyob fikrlarning biri – bironta ham davlat-millat o'zining siyosiy ustuvorligiga erishishi uchun manipulatsiya qilmaydigan erkin sport birlashmasini yaratishdan iborat bo'lgan (*31-jadval).*

[129] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. -128 p.

31-jadval

Olimpiya o'yinlarida boykotlar va siyosiy muammolar, 1948–2014 yy.

Olimpiya o'yinlari	Boykot	Sabablari /boshqa masalalar
London 1948		Ikkinchi jahon urushidagi natsistlar blokining ikki yirik vakili Germaniya va Yaponiya; Sobiq Ittifoq taklif qilingan, biroq uning sportchilari ishtirok etmagan.
Xelsinki 1952	Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)	XXR XOQ tan olgan Xitoy Respublikasiga (Tayvan) qarshi chiqqan – XXR Olimpiada musobaqalarida 1980-yilgi qishki Olimpiya o'yinlariga qadar ishtirok etmagan. Sobiq Ittifoq birinchi marta qatnashgan, biroq Sharqiy Germaniya ishtirok etish to'g'risidagi talabnomasiga rad javobini olgan va Germaniya jamoasi to'lig'icha g'arbiy germaniya sportchilaridan iborat bo'lgan.
Melburn 1956	Misr, Iroq va Livan (Suaysh inqirozi); Niderlandiya, Ispaniya va Shveysariya (Sobiq Ittifoqning Vengriyaga bostirib kirishi); Xitoy Xalq Respublikasi Xitoy Respublikasining (Tayvan) Olimpiya o'yinlarida	Misr hukumati tomonidan Suaysh kanali milliylashtirilgach, Isroil, Birlashgan Qirollik va Fransiya qo'shinlari Misr hududiga bostirib kiradi; Sobiq Ittifoq va Vengriya orasidagi siyosiy qarama-qarshiliklar suv polosi bo'yicha yarim final o'yinida

	ishtirok etishiga ("Formoza" nomi ostida) qarshi norozilik bildiradi.	nazoratdan chiqib ketadi – "suvdagi qon" matchi.
Tokio 1964	Indoneziya va Shimoliy Koreya (XOQ 1963-yilgi GANEFO o'yinlarida ishtirok etgan jamoalarga ta'qiq e'lon qilgandan so'ng).	Janubiy Afrika Respublikasi aparteid tufayli 1992-yilga qadar XOQ dan chiqarilgan.
Mexiko 1968		Medal topshirish marosimida 200 metrga yugurish bo'yicha birinchi va uchinchi o'rinni egallagan afroamerikalik atletlar Tommi Smit va Jon Karlos tomonidan "Qoralar hokimiyatini" sharaflash namoyishi o'tkazildi. Olimpiya o'yinlari boshlanishidan o'n kun oldin Tlatelolkoda namoyishchilarining ko'pchiligi hukumat qo'shinlari tomonidan otib tashlangan edi.
Myunxen 1972		Isroil olimpiya terma jamoasining a'zolari falastinning "Qora sentabr" deb nomlangan terrorchilik tashkiloti tomonidan garovga olingan.
Monreal 1976	Tanzaniya afrikadagi 22 ta mamlakatning boykotiga boshchilik qilgan.	Regbi bo'yicha Yangi Zellandiya terma jamoasining Janubiy Afrika Respublikasi bo'ylab safar o'tkazganiga qaramay XOQ Yangi Zellandiyaga Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishni taqiqlashdan bosh tortdi.

31-jadvalning davomi

Moskva 1980	AQSH prezidenti Jimmi Karter Sobiq Ittifoqning Afg'onistonga bostirib kirishiga qarshi norozilik tariqasida Olimpiya o'yinlarini boykot qilish haqida qaror qabul qiladi hamda qatnashish huquqiga ega 62 ta mamlakat vakillari Olimpiya o'yinlarida ishtirok etmagan.	Liberty Bell Classic (shuningdek "boykot qilingan Olimpiya o'yinlari" nomi bilan mashhur bo'lgan) tadbir Filadelfiyadagi Pensilvaniya universitetida o'tkazilgan bo'lib, unda Moskvadagi Olimpiya o'yinlarini boykot qilgan 29 mamlakat sportchilari ishtirok etgan.
Leyk-Plesid 1980	Xitoy Respublikasi (Tayvan) "Xitoy Taybeyi" nomi ostida ishtirok etishdan bosh tortdi.	Shu vaqtga qadar qishki Olimpiya o'yinlari boykot qilingan yagona holat.
Los-Anjeles 1984	Sobiq Ittifoq hamda uning 14 ittifoqchilari, shuningdek Eron va Liviya Olimpiya o'yinlarini boykot qilishdi.	Sharqiy blok "Do'stlik-84" deb nomlangan o'zining shaxsiy multisport tadbirini o'tkazishni tashkillashtirdi.
Seul 1988	Shimoliy Koreya, Albaniya, Kuba, Efiopiya, Madagaskar, Nikoragua va Seyshal orollari.	Texnik nuqtayi nazarda Shimoliy Koreya Janubiy Koreya bilan urush holatida edi (bu holat hozirgacha saqlanib qolgan).
Sochi 2014	2008-yil avgustida Gruziya hukumati 2014-yilgi qishki Olimpiya o'yinlarini boykot qilishga chaqirdi.	Rossiyaning 2008-yilda Janubiy Osetiyadagi urushda ishtirokiga javoban. Sochi Gruziya da'vo qilayotgan hudud Abxaziyadan 20 mil (32,19 km) masofada joylashgan.

Manba: Baimerand Molnar (2010); Hill (1996); Toohey u Veal (2007).

Olimpiya o'yinlaridagi boykotlar uchta asosiy sabablarga ko'ra e'lon qilingan: "sovuq urush"ning qismi sifatida; aparteid, "irq" yoki imperializm sababli; mamlakatlarning nuqtayi nazarida siyosiy mafkuraviy kelishmovchiliklar oqibatida.

Xelsinkida 1952-yilda bo'lib o'tgan o'yinlarda "sovuq urush"ning taranglashganligini boshlanishi aytilgan. Olimpiya o'yinlarida birinchi marta kapitalistik G'arbiy Germaniya ishtirok etgan, SSSR ham 1917-yilgi rus revolutsiyasidan keyin o'yinlarda ilk bora qatnashgan. SSSR dastlab, o'z sportchilariga Leningrad shahrida mehmonxona berishni va ularni har kuni samolyotda Finlandiyaga olib borishni rejalashtirgan. Oxirida, kommunistik sharqiy blok sportchilari uchun alohida yotoq ajratilgan. Sharqiy Germaniyani ishtirok etishiga rad javobi berilgan va nemis jamoasi to'liq G'arbiy Germaniya sportchilaridan tashkil topgan. 1956–1964-yillari ikkala Germaniya o'zlarining shaxsiy olimpiya kelishuviga erishishga va o'yinlarda birlashgan jamoa sifatida ishtirok etishga majbur bo'lgan.

Melburnda 1956-yilda o'tkazilgan O'yinlarga uchta alohida norozilik ta'sir ko'rsatgan, ularning har biri o'zicha kapitalistik va kommunistik mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchilik bilan bog'liq bo'lgan. Xalqaro olimpiya komissiyasi Tayvanni tan olganidan keyin Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) olimpiya harakatidan chiqib ketgan va 1980-yilga qadar qaytmagan. [130]

Misr, Iroq va Livan Isroilni Sinay yarim oroliga bostirib kirishiga qarshi norozilik bildirgan, Ispaniya, Shveytsariya va Niderlandiya esa, Sovet Ittifoqini Vengriyaga kirib kelishi tufayli o'yinlarni boykot qilishgan. O'yinlar vaqtida SSSR va Vengriya jamoalari o'rtasidagi konflikt, ushbu mamlakatlarning sportchilari suv polosi bo'yicha yarim final o'yinida uchrashganda janjal ko'tarilgan. G'alaba yetakchi o'rinda bo'lganligi sababli Vengriya jamoasiga berilgan. SSSR va Vengriya jamoalari o'rtasidagi match "suvdagi qon" sifatida tarixda qolgan.

Olimpiya o'yinlarida boykotlar va siyosiy namoyishlar. 1980-yilda Olimpiya o'yinlari birinchi marta sotsialistik davlatda o'tkazilgan. Biroq "sovuq urush" siyosati olimpiya harakatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan va bir qator kapitalistik mamlakatlarning

---

[130] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. -128 p.

sportchilari o'yinlarda qatnashmagan. AQSH boshchiligida GFR, Yaponiya, Kanada, Shveysariya, Norvegiya, Argentina milliy olimpiya qo'mitalari Olimpiya o'yinlarida ishtirok etmagan. Buning sabablari, birinchidan, "sovuq urush" siyosati ta'sirida, ikkinchidan, Jahon hamjamiyati sobiq Sovet Ittifoqi harbiy qo'shinlarining Afg'onistondan chiqib ketishini talab qilganligi, lekin bu talab bajarilmaganligi oqibatida sodir bo'lgan.

Moskva shahrida 1980-yili bo'lib o'tgan o'yinlarni Sovet Ittifoqi qurolli kuchlari Afg'onistonga bostirib kirganligiga qarshi 60 tadan ortiq mamlakatlar, jumladan G'arbiy Germaniya va Yaponiya boykot qilishgan. Amerikaliklar boshchiligidagi boykot natijasida o'yinlarda ishtirok etgan mamlakatlarning soni 120 tadan to 81 tagacha qisqargan, bu, 1956-yildan boshlab, eng kam miqdor.

Buyuk Britaniya va Fransiya boykotni qo'llab-quvvatlashgan va Margaret Tetcher boshchiligidagi Buyuk Britaniya hukumati sportchilarini o'yinlarda ishtirok etmasligi uchun ularga qattiq bosim o'tkazgan. [131]

Buyuk Britaniya olimpiya assotsiatsiyasida (BOA) to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish bo'lmaganligi sababli, u bosimga bardosh bera oldi va qatnashish istagi bo'lgan sportchilarga ruxsat berdi. Raqobatning yetishmasligi tufayli, Moskva o'yinlari Buyuk Britaniya sportchilari uchun muvaffaqiyatli bo'ldi va ular umumiy medallar bo'yicha to'qqizinchi o'rinda bo'ldi.

Lekin boykotga qo'shilgan mamlakatlarning aniq sonini aniqlash qiyin bo'lgan, chunki umuman olganda 62 ta vakolati bo'lgan mamlakatlar ishtirok etishmagan, ularning ayrimlari moliyaviy qiyinchiliklari tufayli ishtirok etmagan, faqat noqulay holatda qolmasliklari uchun boykotga qo'shilganligini ta'kidlashgan.

Liberty Bell Classic deb nomlangan ("Boykot Olimpiya o'yinlari" sifatida ham ma'lum bo'lgan) tadbir Filadelfiyaning Pensilvaniya universitetida o'tkazilgan bo'lib, unda Moskvadagi o'yinlarni boykot qilgan 29 ta mamlakatdan sportchilar ishtirok etishgan.

1984-yildagi Olimpiya o'yinlarida sobiq sovet sportchilari va bir qator sotsialistik davlatlar ishtirok etmagan, chunki AQSH hukumati sportchilar xavfsizligini ta'minlanishiga kafolat bermagan edi.

---

[131] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 129 p.

O‘yinlarda siyosiy sabablarga ko‘ra GDR, Bolgariya, Polsha, Kuba, Mongoliya va boshqa davlatlarning sportchilari ishtirok etmagan.

G‘arb mamlkatlari tomonidan 1980-yilgi o‘yinlar boykot qilinganidan keyin SSSR boshchiligidagi 14 ta sotsialistik mamlakatlar 1984-yilgi Los-Andjelesdagi o‘yinlarni boykot qilishgan. Ular Los-Andjeles Olimpiya qo‘mitasi Olimpiya o‘yinlaridan tijoratli daromad olish uchun foydalanib, olimpizm ruhini buzganligini ta’kidlashgan. Buning o‘rniga, sharqiy blok “Do‘stlik-84” deb nomlangan shaxsiy multisport musobaqalarini tashkil qilgan. Eron va Liviya ham har xil sabablarga ko‘ra o‘yinlarni boykot qilishgan. Buning izidan amerikalik mediamagnat Ted Tyorner Xayrli iroda o‘yinlarini tashkil qilgan. Birinchi Xayrli iroda o‘yinlari 1986-yili Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan. Ularda 79 ta mamlakatdan 3000 nafar sportchilar ishtirok etishgan bo‘lib, ular 182 ta oltin medal uchun kurashishgan. Keyinchalik, Xayrli iroda o‘yinlari, uning asoschisi Ted Tyorner tomonidan Time Warner Australia kompaniyasiga sotib yuborilgan. Ushbu kompaniya, o‘yinlarni bekor qilishidan oldin, 2001-yili Brisbenda “Xayrli iroda” o‘yinlarini o‘tkazilishini tashkil qilgan. [132]

Ilk bora, 1972-yilgi Myunxen o‘yinlaridan keyin 1988-yilgi Seulda Olimpiya o‘yinlarida tashkillashgan boykot bo‘lmagan. Janubiy Koreya bilan texnik jihatdan urush holatida bo‘lgan Shimoliy Koreya ishtirok etmagan va unga Albaniya, Kuba, Efiopiya, Madagaskar, Nikaragua va Seyshel orollari qo‘shilgan. Qolgan masalalarda o‘yinlar ko‘pchilik to‘siqlarga duch kelmagan va Janubiy Koreya uchun ularning muvaffaqiyati diktaturadan demokratiya yo‘lidagi muhim bosqich bo‘lgan. XOQning prezidenti Xuan Antonio Samaranch Shimoliy Koreyaga birgalikdagi tadbirni, masalan, demilitarizatsiya qilingan zonada marofonni o‘tkazish to‘g‘risida ancha darajadagi yolg‘on va’da berib, 1988-yilgi o‘yinlarni boykot qilinishidan qochish uchun epchillik bilan manevr qilgandek ko‘rinadi. Samaranch buyuk tinchlik elchisi bo‘lgan va Shimoliy Koreya qo‘llab-quvvatlashning katta qismini yo‘qotgandek tuyuladi.

1980-yillarga kelib, Reyganning boshqarishi va o‘n yillikning oxirida Sovet Ittifoqini kutilmaganda parchalanib ketishi vaqtida “sovuq urush” siyosatining ikkinchi cho‘qqisi to‘g‘ri keldi. 1980 va

[132] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 129 p.

1984-yilgi boykotlar siyosatchilarni qo'llab-quvvatlashga erishishi uchun, ulardan yetarlicha og'ir kurashni talab qilgan.

1980-yilda Buyuk Britaniyaning olimpiya qo'mitasi davlat tomonidan moliyalashtirishga ega bo'lmasdan turib, Margaret Tetcher tomonidan bosimga ma'lum darajada qarshilik ko'rsatilgan. Xuddi shunga o'xshab, 1984-yili Sovet Ittifoqi Los-Andjelesdagi o'yinlarni boykot qilmochi bo'lganida, barcha kommunistik blok mamlakatlarini o'z ortidan boshlay olmagan. Bu boykot qurol sifatida diskreditatsiya qilishning boshlanishi bo'ldi, shuning uchun o'yinlar davom etmoqda va hech kim ularda kimlar bo'lmaganligini eslamaydi.[133]

1960-yilda Rimda Janubiy Afrikalik sportchilar o'yinlarda 32-yillik tanaffusdan oldin oxirgi marta ishtirok etishdi. Ushbu Rimdagi Olimpiya o'yinlarida Vil'ma Rudol'f va Kassius Kley (keyinchalik Muhammad Ali nomi bilan tanilgan) afroamerikalik sportchilar ishtirok etishgan va oltin medallarni qo'lga kiritishgan. Barcha masofani yalangoyoq bosib o'tgan marafonchi sportchi Abebe Bikila Afrika mamlakatini vakili sifatida birinchi qora tanli Olimpiya chempioni bo'lgan. Asosiy siyosiy iztirobdan xolis bo'lgan Rim o'yinlari Italiya uchun rekord miqdordagi sportchilarni – 83 ta mamlakatdan 5348 nafar ishtirokchilarni jalb qilgan vitrina bo'ldi. Ko'pchilik mamlakatlar 1960-yillarda Janubiy Afrika va Rodeziya bilan sport aloqalarini, ular tomonidan aparteid siyosatini o'tkazilishi tufayli to'xtatishgan. Janubiy Afrikalik sportchilar to 1992-yilga qadar Olimpiya o'yinlariga taklif qilinmagan.

Oldingi boykotlarga qaramasdan (masalan, 1964-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi GANEFO o'yinlarida ishtirok etgan jamoalarni chetlashtirish to'g'risida qaror qabul qilganidan keyin Indoneziya va Shimoliy Koreya Tokiodagi o'yinlardan chetlatilgan), aynan 1968-yilda Mexiko o'yinlari va ularda "Qoralar hokimiyati"ning olqish-lashini namoyish qilinishi, boykotlarni Olimpiya o'yinlaridagi siyosiy teatr sifatida keyingi ikki o'n yillik davomida (jumladan, 1976, 1980 va 1984 y.y.) davom etishiga sababchi bo'lgan.

Mexikodagi 1968-yilgi Olimpiya o'yinlarigacha ko'pchilik meksikaliklar sportga yirik miqdordagi mablag'ni sarflash o'zini oqlamaydi, deb taxmin qilingan. Ko'pchilik buning o'rniga mablag' uy-joyga yoki ijtimoiy ta'minlash bo'yicha nafaqaga sarflanishi

---

[133] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 129 p.

kerakligini ta'kidlagan. Ochilish marosimini boshlanishidan o'n kun oldin, talabalarni hukumat siyosatiga qarshi namoyishiga eng qattiq javob berilgan. Tlatelol'koda namoyishchilarining 200 nafardan ortig'i hukumat qo'shinlari tomonidan otib tashlangan. Meksikalik talabalarni o'ldirilishi, ushbu hodisa asosiy OAV tomonidan yoritilmagan va o'yinlar haqida ko'pchilik kitoblarda ham bu to'g'risida mualliflar hech narsa yozmaganlar, Olimpiya o'yinlari siyosiy jihatdan "egallab olinishi" mumkin bo'lgan foydali platforma bo'lganligini tushunishga o'z hissasini qo'shgan.[134]

Mexiko, Tlatelol'koda odamlarning otib tashlanishi 1968-yil. Tlatelol'koda odamlarning otib tashlanishi, "Tlatelol'kodagi tun" nomi bilan ma'lum bo'lib, hukumat tomonidan talabalar va boshqa namoyishchilar 1968-yil 2 oktabrida kunu tun Mexiko shahrining Tlatelol'ko tumanidagi Plaza de las Tres Culturas maydonida (uchta madaniyat maydoni) davom etgan. Meksikaning rasmiy ommaviy axborot vositalari hukumat kuchlarining o'q otishi, namoyishchilar tomonidan hukumat askarlariga qarab o'q otilishi tufayli boshlanganligini yozishgan. Aslida, 2000-yili omma e'tiboriga yetkazilgan rasmiy hujjatlarning ko'rsatishicha, snayperlar prezident qo'riqchilari bo'lgan.

O'q otish bo'yicha yangi ochib tashlangan axborot Meksikaning Proceso jurnali bilan AQSH Milliy xavfsizligi arxivi o'rtasidagi hamkorlik tufayli ommaga yetkazilgan. AQSH da 1994-yili Axborot erkinligi aktiga va Meksikadagi va AQSH dagi arxiv tadqiqotlariga mos ravishda olingan Milliy xavfsizlik arxivining hisobotlari bo'yicha Tlatelol'koda odamlarning otib tashlanishini tadqiq qilish amalga oshirilgan. Bu vaqtda, Meksikada hali ham Instituttsion-revolutsion partiya (IRP) rahbarlik qilayotgan bo'lib, Tlatelol'kodagi fojia to'g'risidagi haqiqat hali ham parda ortida qolgan.

Hisoblarga qaraganda, ushbu fojiada 30 dan to 1000 nafargacha odam qurbon bo'lganligiga qaramasdan, guvohlarning aytishicha yuzlab odamlar halok bo'lgan. Meksikaning Hujjatlar Loyihasi direktori Keyt Doylning xabariga ko'ra, faqatgina 44 nafar namoyishchilarning o'limi to'g'risidagi dalillar topilgan.

1968-yil jahonda tartibsizliklar yili bo'lgan: Yevropada talabalarning noroziliklari, Vetnamda urush davom etgan, Martin Lyuter

[134] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.- 134 p.

King va Robert Kennedi o'ldirilgan, SSSR qo'shinlari Chexoslovakiyaga kirgan. Shu bilan birga, Sharqiy Germaniya birinchi marta Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan.[135]

Tommi Smit va Djon Karlos 200 metr masofaga yugurishda birinchi va uchinchi bo'lib kelib, amerikaning madhiyasi ijro etilgan vaqtda, AQSH dagi rasizmga norozilik tariqasida "Qoralar hokimiyati" olqishlashini namoyish qilishgan. Ikkinchi bo'lib finishga yetib kelgan avstraliyalik oq tanli Piter Norman inson huquqlarini qo'llab-quvvatlash yo'lida xuddi Tommi Smit va Djon Karlos kabilardek belgini taqib olishgan, lekin ushbu moment tarixdan chiqarib tashlangan.

"Qoralar hokimiyati"ning olqishlanishi. 1968-yil 16-oktabr kuni Tommi Smit 200 metr masofaga yugurishda 19.83 sekundlik natija bilan jahon rekordini o'rnatib birinchi, avstraliyalik Piter Norman ikkinchi, Djon Karlos uchinchi bo'lib marraga kelgan amerikalik ikkala sportchi ham medallarni yalangoyoq holatida olgan. Smit qorasharf taqqan, Karlos esa – trenirovka libosining molniyasini ochib olgan. Uchchala sportchilarning hammasi ham Olimpiya harakatini inson huquqlari uchun belgisini ko'kraklariga taqib olganlar. Ikkala amerikalik sportchi taqdirlash marosimiga qora qo'lqopda chiqmoqchi bo'lishgan, lekin Karlos ularni esidan chiqarib tashlab kelgan.

Aynan Piter Normanning taklifiga ko'ra Karlos chap qo'liga Smitning qora qo'lqopini bittasini kiyib olganligi tufayli, xuddi "Qoralar hokimiyati"ning an'anaviy olqishlashini namoyish qilish maqsadida o'ng qo'lini ko'tarish o'rniga chap qo'lini ko'targan. Amerikaning davlat madhiyasi «Yulduzlar qoplagan bayroq»ni yangrashi vaqtida Smit va Karlos olqishlash belgisi sifatida boshlarini egishgan: oddiygina harakat butun jahonda asosiy yangilik bo'lgan. Bunday, nisbatan uncha katta bo'lmagan oddiygina harakat katta rezonansni chaqirishi mumkinligi, Olimpiya o'yinlarini keyingi ikki o'n yillik davomida siyosiy teatr uchun asosiy platforma bo'lishiga yo'l ochib bergan.

"Olimpiya o'yinlari – reklama-targ'ibot imkoniyati sifatida ham ko'rilmoqda. Hozirgi vaqtga qadar, eng yirik o'yinlar – 1972-yili Myunxenda (G'arbiy Germaniya) bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlari bo'lgan. Yigirma yil o'tgach, Ikkinchi jahon urushidan keyin, o'yinlar

[135] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.- 134 p.

tinchlik timsoli bo'lib qolishi kerak edi. O'rnak bo'lib qolgan arxitekturaga va to'laqonli o'tayotgan musobaqalarga qaramasdan, Myunxendagi o'yinlar ko'pincha, 11 nafar isroillik sportchilarning o'limiga olib kelgan terroristik akt sifatida yodga olinadi. [136]

O'yinlar boshlanganidan besh kun o'tgach, "Qora sentabr" tashkilotiga mansub bo'lgan sakkizta falastinlik terroristlar Olimpiya shaharchasiga bostirib kirib, ikki nafar isroillikni o'ldirishgan va Isroil Olimpiya jamoasining to'qqiz nafar boshqa sportchilarini garovga olib ushlab turishgan.

Falastinliklar Isroil hukumatidan 200 nafar maxbuslarni ozod qilinishini talab qilishgan. Yuzaga kelgan mushtlashishda garovda ushlab turilgan barcha to'qqiz nafar isroilliklar va bir nafar politsiyachi halok bo'lgan. XOQ prezidenti Eyveri Brandejning qaroriga ko'ra, o'yinlar 34 soatlik tanaffusdan keyin davom ettirilgan. Jami 17 kishi halok bo'lgan, lekin bir-biriga o'q otish paytida nima ro'y bergani hanuzgacha aniqlanmagan. Asosiy masalalar hali ham qoniqarli javob topmay qolmoqda: Isroillik garovga olingan odamlarni kim o'ldirgan? Politsiyami yoki terrorsitlarmi? Prezident Eyveri Brandejni "o'yinlar davom ettirilishi kerak" degan so'zlari uchun isnod ustuniga mixlab qo'yishgan, lekin u, boshqacha qaror qabul qila olarmidi? Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining boshqa prezidenti bunday holatda nima ish tutar edi?

Monrealda 1976-yili Afrikaning 30 taga yaqin mamlakatlari Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Yangi Zellandiya jamoasini o'yinlarda ishtirok etishiga ruxsat berganligi tufayli, oxirgi daqiqada boykot tashkil qilgan. Birinchi kundan keyin ayrim mamlakatlar o'yinlarda ishtirok etishdan bosh tortishgan. Yangi Zellandiyaning regbi bo'yicha All Blacks terma jamoasi 1964-yildan buyon Olimpiya o'yinlariga qo'yilmaydigan Janubiy Afrika terma jamoasi bilan yaqinda uchrashuv o'tkazgan. Bahslar, 1500 metrga va milyaga yugurishda oldingi jahon rekordini o'rnatgan tanzaniyalik Filbert Bey bilan ikkala rekordlarni yangilagan Yangi Zellandiyalik Djon Uoker o'rtasida uzoq muddat kutilgan uchrashuvni oldini olgan. Uoker 1500 metrga yugurishda ham oltin medal sohibiga aylangan. Tayvan ham, kommunistik Xitoy tayvanliklarni o'yinlarda ishtirok etish huquqidan mahrum qilinishini talab qilib Kanadaga (o'zini savdo bo'yicha

[136] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012 - 134 p.

sherigiga) bosim o'tkazganligi tufayli, o'yinlarda ishtirok etishdan voz kechgan.[137]

1976-yili Monrealda Olimpiya obyektlarining qurilish narxini yuqoriligi tanqidga uchragan. Ko'pchilik obyektlarning qurilishi yakuniga yetkazilmagan. Bunga javoban, qisman, Kanadada Olimpiya o'yinlarining ichki siyosatiga qarshi kuchli kurash olib borilgan.

Los-Andjelesda 1984-yili bo'lib o'tgan o'yinlar ko'pchilik qirralari bo'yicha Olimpiya o'yinlari siyosatining keyingi bosqichiga o'tishning burilish momenti bo'ldi. Monrealda 1976-yili o'tkazilgan Olimpiada o'yinlaridan keyin sanoati rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda hukumat siyosatining yondashuvlarini, jumladan eng yirik sport tadbirlarini tanqidiy tahlil qilish boshlandi.

Buyuk Britaniyada – tetcherizm, AQSHda – reyganizm paydo bo'ldi, u, davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (jumladan, Olimpiya o'yinlarini tashkil qilinishini) hal qilishga qurbi yetmasligini ko'rsatdi.

Olimpiya o'yinlarining Tashkiliy Qo'mitasi tahlikaga, ayniqsa moliyaviy tahlikaga va xavfsizlikning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan tahlikaga duch kelayotgan bir vaqtda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi yaqinda tijoratlashtirilgan o'yinlar ustidan nazorat qilishni saqlab qolgan. Shaharlar o'yinlarni tashkil qilishga bergan talabnomalari ommaviy diplomatiya sifatida qo'llanilmoqda va milliy hukumatlar "yumshoq kuch" shakllarini boshqarish imkoniyatidan foydalanishmoqda.

Aynan shunday tarzda, 1996-yilgi Atlantadagi o'yinlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashsiz o'tkazilgan. Bu o'yinlarni tijoratlashtirilishiga olib keldi, bu holat ko'pchilikni hayron qoldirdi. Undan tashqari, 1996-yil 27 iyul kuni, Centennial Olympic Park bog'idagi o'yinlar vaqtida qo'lbola bomba portladi va ikki kishi halok bo'ldi, 110 kishi yaralandi. Ushbu holat terroristik hujum sifatida eslansa ham, sabablari va unga javobgar bo'lgan guruhlar hozirga qadar ma'lum emas.

Atlantada taxminan 10000 sportchi 197 ta mamlakatdan ishtirok etgan (Gongkong va Falastin muxtoriyati shu jumladan). Atlantaning tanlanishi an'analar ustidan tijoratli fikr yuritadigan islohotchi liberallarning g'alaba qozonganligini ko'rsatdi. Atlanta bilan bog'liq

---

[137] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.- 134 p.

muammolar va undan keyin korrupsiya Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini uyatchanlik bilan Yozgi Olimpiya o'yinlarini 2004-yili Gretsiyada o'tkazilishiga ovoz berishiga olib keldi.[138]

2000-yilgi Sidneyda bo'lib o'tgan o'yinlar ilgari o'tkazilganlari ichida eng yirigi bo'ldi: ularda 10651 nafar sportchilar ishtirok etib, 300 ta medallar to'plami uchun kurash olib borgan. Masshtabining kattaligiga qaramasdan, tadbir yaxshi tashkil qilingan va 1996-yilgi portlashdan keyin obro'sini yo'qotgan Olimpiya harakatiga ishonchni qayta tiklagan. Aborigenlar oilasidan bo'lgan va milliy qahramonga aylangan Keti Frimen Olimpiya olovini yoqish sharafiga ega bo'lgan.

2004-yilgi Olimpiya o'yinlari, XXVIII Olimpiada Afinada o'tkazilganida, o'zining dastlabki manbaiga qaytgan. Gretsiya 2000 yil oldin qadimgi Olimpiya o'yinlarining vatani bo'lgan va Afinada 1896-yili birinchi zamonaviy Olimpiya o'yinlari tashkil qilingan. Lekin 2004-yilgi o'yinlar tarixdagi eng xavfsiz va eng yirik – tinch davrdagi xavfisizlikni ta'minlash bo'yicha eng qimmat Olimpiya o'yinlari bo'lgan.

Pekinda 2008-yili tashkil qilingan Olimpiya o'yinlari huquqni himoya qiluvchi tashkilotlarning g'azabini chaqirgan, ularning ta'kidlashicha, Xitoyga o'yinlarni tashkil qilish uchun berilgan ruxsatnoma, uning repressiv rejimini qonunlashtirgan. Norozilik bildirganlarning ta'kidlashicha, Xitoy Olimpiya o'yinlarini targ'ibot instrumenti sifatida qo'llaydi. O'yin tarafdorlarining ta'kidlashicha, Olimpiya o'yinlari Xitoyda ijtimoiy liberalizatsiya jarayonini tezlashtiradi. Tayvanlik hukumat rahbarlari Pekin o'yinlarini faol qo'llab-quvvatlashgan va ushbu hodisa, qo'shnisiga qarshi kuchni qo'llayotgan Xitoyning xavfini kamaytiradi, deb hisoblashgan. Pekinni tashkilotchi shahar sifatida tanlanishi siyosiy va iqtisodiy fikr yuritishlar bilan o'ta yuqori darajada belgilangan va Tyananmen maydonidagi xunrezlik 1989-yili bo'lib o'tgan, lekin Xitoy 2000-yillarga kelib, juda katta kengayib borayotgan bozorga aylangan bo'lsa kerak, deb taxmin qilingan.

«Bitta dunyo – bitta orzu». O'yinlar, bunday shiorlar bilan targ'ibot uchun instrument sifatida qo'llanilishi mumkin. Bu, Olimpiya olovi estafetasidan birlashishga global da'vat sifatida va shu vaqtning o'zida – homiylar uchun Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq

---

[138] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.- 135 p.

bo'lgan jahonga tanilish imkoniyati sifatida foydalanishga urinish bo'lgan. Ushbu o'yinlar, Pekindagi Olimpiadaning obro'si uchun eng qimmatli bo'ldi. [139]

Olimpiya olovi estafetasi konflikt uchun eshigini ochdi va shu tarzda, siyosiy teatrni o'yinlarga qaytardi. O'yinlar tashkilotchilari Pekinda «Bitta dunyo – bitta orzu» shiorini asosiylaridan biri sifatida qo'llagan paytida, butun dunyoda Olimpiya olovi estafetasi Xitoydagi inson huquqlari va Xitoy – Tibet o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi noroziliklar ostida o'tgan.

2014-yili Rio-de-Janeyro shahridagi Marakana stadionida futbol bo'yicha jahon chempionatining final o'yini bo'lib o'tgan, ikki yil o'tgach esa, Rio-de-Janeyro Yozgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan vaqtda, butun jahonning nigohi Joao Havelange (Engenhao) nomli Olimpiya stadioniga qaratilgan. Braziliyada futbol bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tganidan ikki yil o'tgach, 2016-yili Rio-de-Janeyro shahrida Olimpiya o'yinlari o'tkazildi.

Shunday qilib, bir qaraganda, sport va yirik sport tadbirlari va ayniqsa, Olimpiya o'yinlari – rivojlanishning ishonchli instrumenti bo'lib ko'rinishi mumkin. Lekin ular, tengsizlikka yoki neoliberal rivojlanishga undamaydi. Amalda, sport tadbirlarini tashkil qilish, neoliberal dasturlarni ilgari surish uchun eng ma'qul qobiq bo'lishi mumkin, chunki ular, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning dastlabki tamoyilidan chetga og'ishi mumkin emas. Sport hodisalarining ikkita eng yirik tashkilotchilari – FIFA va Xalqaro Olimpiya Qo'mitasini musobaqalarni "Janubda" (2010-yilda Janubiy Afrika va 2014 va 2016-yillarda Rio) yoki bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda (2018-yilda Rossiyada futbol bo'yicha jahon chempionatini) o'tkazilishiga nisbatan burilishi, sport va ijtimoiy rivojlanishni yaqindagi birlashtirishga urinishlar bilan bog'liq.[140]

Alohida tadbirlarni va eng yirik hodisalarni muhokama qilish va OAV larida yoritilishi iste'moldagi, qurilishdagi, bardosh berish siyosatidagi va kommunikatsiyalardagi to'rtta asosiy muammolarni aniqlaydi:

---

[139] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 137 p.
[140] O'sha kitob, 2012. – 137 b.

1. Iste'mol: sport (va sport tadbirlari) iste'molning – turizm, iste'molchiga oriyentirlanish va jahon bo'ylab sayohat qilishning maqsadini kapitalistik madaniyatini o'sishi va tarqatilishini hududiy emas, balki markaziy shakli bo'lib qolmoqda. Bu yetarli bo'lmagan iste'mol imkoniyatiga nisbatan muammoni – o'yinlar haqiqatan ham ommabopmi yoki ommabop emasligi muammosini yuzaga keltiradi.

2. Qurilish: loyihalashtirish, qurilish, "ibodatli inshoot" obyektlarini qo'llab-quvvatlash an'anaviy savollarni yuzaga keltiradi: obyektlar o'z vaqtida tayyor bo'ladimi? O'rnatilgan narxlarda quriladimi? Mos ravishdagi standartlar bo'yicha quriladimi? Obyektlar qurilgan joyidagi hamjamiyatga qo'shilgan ulushdan ko'ra, mamlakatlar o'rtasidagi keng xalqaro va iqtisodiy munosabatlarni aks etishi orqali monumentalizmga katta hissa bo'ladimi?

3. Bardosh berish siyosati: sport mega-hodisalari bilan bog'liq bo'lgan xavfsizlik texnologiyalari va kuzatishning texnik vositalari rivojlanayotgan bozorda 9/11 ga qadar keltirilgan. Jamoatchilik nazorati va kuzatishning texnik vositalari muhim bo'lishi mumkin, lekin kim uchun? Janubiy Amerikadagi boshqa yirik musobaqalardagi, 2014 va 2016-yillarda Braziliyada bo'lib o'tgan ikkita mega-hodisalar vaqtidagi kabi xavfsizlikni ta'minlash borasida katta ish amalga oshirilgan..

4. Kommunikatsiyalar: jahon auditoriyasiga erishish; uzatiladigan axborotni boshqarish. Barcha ishlar o'ylab qo'yilganidek bo'lmaganda nima qilish kerak?

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, rivojlanayotgan mamlakatlar yirik hodisalarni tashkil qilishi paytida, bir necha turdagi xavf-xatarlarga duch keladi, ularning ichida jahon OAV larida negativ ifodalanadiganlari oxirgi o'rinda bo'lmaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi hodisalarning yoritilishi, biron bir narsa kutilmaganidek o'tganida, har doim negativ taqrizga mansub bo'ladi. [141]

Bugungi kunda Olimpiya o'yinlarining siyosati terrorizmni oldini olish, xavfsizlik, kuzatishlar va erkin harakatlanish va fikrni ifodalashni, inson huquqlari va turgan joyidan yoki mos ravishdagi uy-joydan chiqarib yuborilishni chegaralash bilan bog'liq bo'lgan fuqarolar huquqlari atrofida aylanadi. Bunday muammolar Pekin Olimpiadasi vaqtida, masalan, 2008-yilgi Olimpiya olovi estafetasiga

---

[141] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 144 p.

nisbatan yuzaga kelgan noroziliklar 2012-yili Londondagi o'yinlarda bir necha ming odamlarni jalb qildi va ular 2016-yili Braziliyaning Rio shahridagi Olimpiya o'yinlari vaqtida davom etdi. Taqsimlash siyosati bilan tan olish siyosati, jumladan aborigenlarning huquqlari o'rtasidagi tarang munosabatlar, ushbu hodisalarning bir qismi bo'lib qolmoqda» .

Olimpiya o'yinlari siyosatidagi uchta tendensiya (1968–2016 yy.)

Boykot va siyosiy teatr	***Reklama-targ'ibot siyosati***	***O'yinlar neoliberalizmi***
1968 Meksika	*1972 Myunxen*	*1976 Monreal*
1980 Moskva	*1992 Barselona*	*1984 Los-Anjeles*
1984 Los-Anjeles	*2000 Sidney*	*1996 Atlanta*
1988 Seul	*2004 Afina*	*2012 London*
	2008 Pekin	
	2016 Rio-de-Janeyro	

Manba: Baimerand Molnar (2010); Hill (1996); Toohey u Veal (2007).[142]

Xulosalar

➢Olimpiya sporti bilan siyosatning bog'liqligi, siyosiy maqsadlarda undan foydalanishning bir nechta yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin.

➢Olimpiya o'yinlari, 1968-1984-yillar davrida, boykot siyosiy qurol bo'lib qolgan ramziy siyosiy musobaqani mujassamlashgan joyi bo'lib qolgan edi.

➢Olimpiya xartiyasida "Olimpiya o'yinlarini norozilik, namoyishlar yoki siyosiy, diniy yoki irqiy targ'ibot uchun platforma sifatida qo'llash man etiladi" degan tamoyillariga qaramasdan Olimpiya harakati urushlar, boykotlar, noroziliklar va hattoki terroristik aktlarga duch kelgan.

[142] John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012. – 144 p.

Nazorat savollari:

Xalqaro olmpiya harakatida Olimpiya o'yinlari va siyosat muammosi qachon paydo bo'lgan?

Olimpiya xartiyasining nechanchi moddasida Olimpiya o'yinlaridan siyosiy norozilik chiqishlar maydoni sifatida foydalanish taqiqlangan?

"Sport – siyosatdan holi" konsepsiyasining maqsadi nimadan iborat?

Birinchi Jahon urushidan keyin qaysi davlatlar va nima sababdan Olimpiya o'yinlariga kiritilmagan?

Ikkinchi Jahon urushidan keyin qaysi davlatlar va nima sababdan Olimpiya o'yinlariga kiritilmagan?

Siyosiy maqsadlarda olimpiya sportidan foydalanishning nechta yo'nalishlari bor?

Nechanchi Olimpiya o'yinlari davomida siyosiy mojarolar va terrorchilik sodir bo'lgan?

Olimpiya o'yinlarida boykotlar qanday asosiy sabablar boyicha e'lon qilingan?

Nima sababdan va nechanchi Olimpiya o'yinlari boykot qilingan?

Xalqaro olimpiya harakatining qaysi muammolari hal qilingan?

III BOB. MAVZULARI BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Qadimgi olimpiya o'yinlarining asoschilari kim bo'lgan?

a) Ifit va Likurg; **b)** Gerakl va Dionis;
c) Pelops va Avgiy; **d)** Zevs va Gera.

2. Qadimgi olimpiya o'yinlari nechenchi yilda va qayerda o'tkazilgan?

a) miloddan av. 776 y., Olimpiya; **b)** milodiy 632 y., Afina;
c) mil av. 586 y., Olimpiya; **d)** mil av. 408 y., Sparta.

3. Qadimgi Olimpiya o'yinlariga kimlar kiritilmagan?

a) qullar; **b)** ayollar; **c)** chet elliklar; **d)** hamma javoblar to'g'ri.

4. Qadimgi Gretsiyada 192,27 m ga yugurish masofasi qanday nomlangan?

a) stadiy; **b)** stadion; **c)** marafon; **d)** kross.

5. Qadimgi olimpiya o'yinlari davrida "muqaddas tinchlik" yunon tilida qanday atalgan?

a) ekexeyriya; **b)** akademiya; **c)** garmoniya; **d)** paraolimpiya.

6. Qadimgi olimpiya o'yinlariga kimlar kiritilgan?

a) ozod yunon erkak fuqarolar; **b)** ozod ayol fuqarolar;
c) barcha fuqarolar; **d)** qullar.

7. Qadimgi olimpiya o'yinlarida murabbiy qanday nomlangan?

a) pedotrib; **b)** arbitr; **c)** referi; **d)** pedagog.

8. Qadimgi olimpiya o'yinlari davrida "muqaddas tinchlik" qancha davom etgan?

a) 3 oy **b)** 1 oy **c)** 10 oy **d)** 3 yil

9. Qadimgi olimpiya o'yinlarining barham topishiga nima sabab bo'lgan?

a) xristian dini ta'sirining kengayishi;
b) A.Makedonskiy imperiyasining vujudga kelishi;

c) salb yurishlari sababli;
d) Yunonistonning Rim tomonidan bosib olinishi.

10. Qadimgi olimpiya o'yinlarida hakamlar qanday nomlangan?
a) ellanodik; b) gumanist; c) atletik; d) pedonom.

11. Qanday sport turi qadimgi olimpiya o'yinlarida asosiy hisoblangan?
a) yugurish; b) sakrash; c) pentatlon; d) futbol.

12. Qadimgi olimpiya o'yinlarining g'oliblari qanday nomlangan?
a) olimpionik; b) ellanodik; c) chempion; d) filantrop.

13. Qadimgi olimpiya o'yinlarida 24 stadiyga yugurish masofasi qanday nomlangan?
a) dolixodrom; b) stadiodrom; c) ippodrom; d) kosmodrom.

14. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) qachon tashkil qilingan?
a) 1881 y. b) 1894 y. c) 1896 y. d) 1900 y.

15. Nechanchi yildan qadimgi olimpiya o'yinlarida bolalar qatnashgan?
a) miloddan avv. 632 y. b) milod.avv. 648 y.
c) milod avv.720 y. d) milodiy 394 y.

16. Qadimgi olimpiya o'yinlari nechanchi yilda va kim taqiqlagan?
a) milodiy 394 y, imperator Feodosiy I;
b) milodiy 390 y., imperator Feodosiy;
c) miloddan avv. 60 y., imperator Avgust;
d) milodiy 520 y,. imperator Yustinian.

17. Nima sababdan qadimgi Olimpiya o'yinlari taqiqlangan?
a) xristian dinining vujudga kelishi; b) harbiy mojarolar;
c) moliyaviy qiyinchiliklar; d) islom dinining tarqalishi.

18. Birinchi Xalqaro sport federatsiyasi nechanchi yilda tashkil qilingan?

a) 1881 y. **b)** 1904 y. **c)** 1896 y. **d)** 1932 y.

19. XOQning birinchi prezidenti etib kim saylangan?

a) Pyer de Kuberten; **b)** Eyveri Brendej; **c)** Demetrius Vikelas; **d)** Maykl Killanin.

20. XOQ faoliyatida qanday hujjat asosiy hisoblanadi?

a) xartiya; **b)** konsepsiya; **c)** instruksiya; **d)** edikt.

21. I Olimpiya o'yinlari qachon va qayerda o'tkazilgan?

a) 1894 y. Parij ; **b)** 1896 y. Afina ; **c)** 1904 y. Afina; **d)** 1908 y. London.

22. Zamonaviy olimpiya harakatining ahamiyati nimadan iborat?

a) Xalqaro sport uyushmalari tashkil qilindi;
b) sport natijalari rivojlanishiga ta'sir etdi;
c) Xalqaro sport musobaqalarining qoidalari yaratildi;
d) hamma javoblar to'g'ri.

23. Xalqaro sport harakati vujudga kelishining asosiy sabablari?

a) sport sohasida xalqaro hamkorlik, sport tajribalari bilan almashish;
b) harbiy ishlar sohasidagi taraqqiyot;
c) sport musobaqalarini tashkil qilish;
d) katta daromadli musobaqalar tashkil qilish.

24. «Olimpiada» so'zi nima ma'noni anglatadi?

a) o'yinlar orasidagi 4 yillik davrni; **b)** yunon ma'budasini;
c) planeta nomi; **d)** Zevsning tug'ilgan yili.

25. Xalqaro sport va olimpiya harakatini qaysi tashkilot boshqaradi?

a) XOQ **b)** MOQ **c)** BMT **d)** YUNESKO

26. I Olimpiya o'yinlari qachon o'tkazilgan?

a) 1896 y. Afina; **b)** 1894 y. Parij; **c)** 1898 y. Afina; **d)** 1908 y. London.

27. Nima sababdan VI, XII, XIII Olimpiya o'yinlari o'tkazilmagan?

a) jahon urushlari; b) iqtisodiy inqiroz;
c) siyosiy munosabatlar; d) jahon ko'rgazmalari.

28. Nechanchi Olimpiya o'yinlari Butun jahon ko'rgazmalari bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan?

a) II va III Olimpiya o'yinlari;
b) I va II Olimpiya o'yinlari;
c) III va IV Olimpiya o'yinlari;
d) IV va V Olimpiya o'yinlari.

29. Birinchi qishki I Olimpiya o'yinlari qachon o'tkazilgan?

a) 1924 y. Shamoni; **b)** 1920 y. Antverpen;
c) 1928 y. Sankt-Morits; **d)** 1932 y. Leyk-Plesid.

30. Olimpiya Xartiyasi nechta bo'limlardan iborat?

a) 5 ta bo'lim; **b)** 2 ta bo'lim; **c)** 8 ta bo'lim; **d)** 4 ta bo'lim.

31. Olimpiya o'yinlarini ramzi va bayrog'i qachon ta'sis etilgan?

a) 1914 y., Pyer de Kuberten;
b) 1905 y., Demetrius Vikelas;
c) 1988 y., Xuan Antonio Samaranch;
d) 1913 y., Pyer de Kuberten.

32. Qachon Olimpiya o'yinlarida ilk bor olimpiya mash'ali yoqilgan?

a) 1928 y. **b)** 1900 y. **c)** 1912 y. **d)** 1936 y.

33. XVI Olimpiya o'yinalarining ot sporti musobaqalari qayerda o'tkazilgan?

a) Stokgolm; **b)** Sidney; **c)** Melburn; **d)** Adelaida.

34. Olimpiya o'yinlarida qachondan boshlab ayollar ishtirok etgan?

a) 1900 y. **b)** 1896 y. **c)** 1936 y. **d)** 1952 y.

35. I Paraolimpiya o'yinlari nechanchi yilda o'tkazilgan?

a) 1960 y, Rim; **b)** 1964 y, Tokio;
c) 1968 y, Tel-Aviv; **d)** 1972 y, Xaydelberg.

36. Doping-nazorati nechanchi Olimpiya o'yinlaridan boshlab joriy qilingan?

a) XIX Olimpiya o'yinlari, Mexiko 1968 y.
b) XXII Olimpiya o'yinlari, Moskva 1980 y.
c) XI Olimpiya o'yinlari, Berlin 1936 y.
d) XVI Olimpiya o'yinlari, Melburn 1956 y.

37. Nechanchi yilda Olimpiya oltin ordeni ta'sis etilgan?

a) 1975 **b)** 1914 **c)** 1941 **d)** 1980

38. Lozannadagi Olimpiya muzeyi kimning tashabbusi bilan ochilgan?

a) Xuan Antonio Samaranch; **b)** Zigfrid Edstryom;
c) Jak Rogge; **d)** Demetrius Vikelas.

39. Qaysi sportchi ayollar o'rtasida birinchi olimpiya chempioni bo'lgan?

a) Sharlotta Kuper, tennis;
b) Margaret Ebbot, golf;
c) Larisa Latinina, gimnastika;
d) Fanni Blankers-Koen, yengil atletika.

40. Olimpiya Oltin ordeni qaysi tashkilot tomonidan ta'sis etilgan?

a) XOQ **b)** YUNESKO. **c)** XSF **d)** BMT.

41. «Olimpiya o'yinlarida asosiysi g'alaba emas, ishtirok etish!» shiori qachon va kim tomonidan aytilgan?

a) London 1908 y., ingliz ruhoniysi;
b) Afina 1896 y., yunon ruhoniysi;

c) Berlin 1936 y., nemis ruhoniysi;
d) Moskva 1980 y., sovet ruhoniysi.

42. XOQ qanday xizmatlar uchun Olimpiya oltin ordeni bilan taqdirlaydi?
a) Olimpiya harakatiga ko'shgan ulkan hissasi uchun;
b) Sportdagi rekordlar uchun;
c) Olimpiya o'yinlaridagi yuksak natijalari uchun;
d) «Ginnes Rekordlari» kitobiga kirganligi uchun.

43. Qishki Olimpiya o'yinlari necha kun davom etadi?
a) 12 kun **b)** 16 kun **c)** 20 kun **d)** 14 kun.

44. Olimpiya harakatining ahamiyati nimadan iborat?
a) milliy va xalqaro sport uyushmalari tashkil topdi.
b) musobaqalar o'tkazildi
c) sport reklama qilindi
d) professional sport rivojlandi.

45. I Olimpiya o'yinlari dasturiga nechta sport turlari kiritilgan?
a) 9 **b)** 10 **c)** 18 **d)** 24

46. 1896-1912-yillarda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarining asosiy xususiyatlari?
a) o'yinlarni tashkil etgan mamlakatlar jamoasi 1-o'rinni egallagan;
b) musobaqalar tashkiliy darajasi yuqori bo'lgan;
c) professional sport keng ommalashgan;
d) sport rekordlari ko'p bo'lgan.

47. Jahon talabalari sport musobaqalari qachon «Universiada» deb nomlandi?
a) 1959 y. **b)** 1949 y. **c)** 1924 y. **d)** 1974 y.

48. XI Olimpiya o'yinlarida kim eng yaxshi sportchi bo'lgan?
a) Jeyms Ouens; **b)** Jonni Veysmyuller;
c) Karolina Radke; **d)** Sharlotta Kuper.

49. Olimpiya harakatining rivojlanishi nechta bosqichdan iborat?

a) 3 **b)** 4 **c)** 6 **d)** 2

50. Olimpiya harakati a'zosi bo'lish uchun MOQga qanday talab qo'yiladi?

a) XOQ tomonidan tan olinishi;
b) havaskorlar sportini qo'llab-quvvatlash;
c) MOQ nizomi mavjudligi;
d) olimpizm g'oyalariga rioya qilish.

51. Xalqaro Olimpiya Akademiyasi qachon tashkil etilgan?

a) 1961 y. **b)** 1980 y. **c)** 1993 y. **d)** 2000 y.

52. Yozgi Olimpiya o'yinlari dasturiga olimpiya sport turi qanday aniqlanadi?

a)sport turi 4ta qit'aning 75 ta mamlakatida keng tarqalishi
b) shart;
b) 5ta qit'a 70 ta mamlakatida keng tarqalishi shart;
c) 4ta qit'a 80 ta mamlakatida keng tarqalishi shart;
d) 3 qit'a 50 ta mamlakatida keng tarqalishi shart.

53. VIII Olimpiya o'yinlari qahramoni kim bo'lgan?

a) Paavo Nurmi; **b)** Jeyms Ouens; **c)** Jeyms Konolli; **d)** Luis Spirös.

54. Regional o'yinlarning asosiy vazifasi nimadan iborat?

a) jahonning turli hududlarida olimpiya sport turlarini rivojlantirish;
b) ommaviy sportni rivojlantirish;
c) nogironlar sportini rivojlantirish;
d) professional sportini targ'ibot qilish.

55. Kim V Olimpiya o'yinlarining eng yaxshi sportchisi?

a) Jim Torp; **b)** Robert Garret; **c)** Dorando Piyetri;
d) Margaret Broneri.

56. Ikkinchi jahon urushidan keyin JTvaS sohasida qanday o'zgarishlar bo'lgan?

a) Jismoniy tarbiyaning ikki qarama-qarshi yo'nalishi paydo bo'lgan;
b) SSSR va AQSH orasida «sovuq urush» boshlangan;
c) mustamlaka tuzumi inqirozga uchragan;
d) xalqaro sport harakati vujudga kelgan.

57. Nechanchi Olimpiya o'yinlaridan boshlab marafon yugurishi 42 km bo'lgan?

a) IV Olimpiya o'yinlari 1908 y.;
b) VIII Olimpiya o'yinlari 1924 y.;
c) XI Olimpiya o'yinlari 1936 y.;
d) V Olimpiya o'yinlari 1912 y.

58. Olimpiya o'yinlari dasturiga marafon yugurishni qachon va kim kiritgan?

a) 1896 y. Afina, akademik Mishel Breal;
b) 1896 y. Afina, metsenat Georgiy Averoff;
c) 1900 y. Parij, baron Pyer de Kuberten;
d) 1908 y. London, general Robert Baden-Pauel.

59. Rossiya sportchilari birinchi marta qachon Olimpiya o'yinlarida qatnashgan?

a) 1908 y. London; **b)** 1896 y. Afina;
c) 1936 y. Berlin; **d)** 1984 y. Los-Anjeles.

60. I Osiyo o'yinlari qachon o'tkazilgan?

a) 1951, Deli; **b)** 1956, Qatar;
c) 1994, Xirosima; **d)** 2010 Guanjou.

61. Qaysi sport turi olimpiya dasturiga «ko'rgazmali» mavqei berilmasdan kirgan?

a) stol tennisi; **b)** tennis; **c)** voleybol; **d)** kurash.

62. Qaysi sport turidan birinchi xalqaro sport federatsiyasi tuzilgan?

a) kurash; **b)** gimnastika; **c)** tennis; **d)** futbol.

63. «Basketbol» so'zi nima ma'noni anglatadi?

a) savat va to'p; **b)** paqir va to'p;
c) qo'l va to'p; **d)** oyoq va to'p;

64. Voleybolni qachon va kim ixtiro qilgan?

a) 1895 y. Vilyam Morgan;
b) 1891 y. Jeyms Neysmit;
c) 1896 y. Jon Boland;
d) 1882 y. Dzigoro Kano.

65. «Boks» so'zi ingliz tilidan qanday tarjima qilinadi?

a) zarba; **b)** kaft; **c)** qo'l; **d)** ring.

66. «Olimpiya volontyorlari» kimlar?

a) ko'ngilli yordamchilar;
b) tez yordam xodimlari;
c) xizmatchilar;
d) tadbirkorlar.

67. MOQ qaysi tashkilot g'oyalarini amalga oshiradi?

a) Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining;
b) YUNESKOning;
c) Sport uyushmalarining;
d) BMTning.

68. Pyer de Kuberten "Sport qasidasi" she'rini qanday taxallus bilan imzolagan?

a) G.Xoxrod, M.Eshbax;
b) Z.Shenker, G.Xoxrod;
c) E.Fuks, Z.Shenker;
d) D.Torp, M.Eshbax.

69. XXIX Olimpiya o'yinlarining ramzi qanday ma'noni anglatadi?

a) Beyjingga xush kelibsiz;
b) Xitoyga xush kelibsiz;
c) Olimpiya o'yinlariga xush kelibsiz;
d) Osiyoga xush kelibsiz.

70. Olimpiya harakatining rivojlanishi nechta bosqichdan iborat?

a) qadimgi davr; b) Kuberten davr;
c) zamonaviy davr; d) hamma javob to'g'ri.

71. Qachon sobiq Ittifoq terma jamoasi ilk bor Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan?

a) 1948 y. London; **b)** 1952 y. Xel'sinki;
c) 1956 y Mel'burn; **d)** 1960 y. Rim.

72. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining asosiy hujjati Olimpiya Xartiyasi qachon tasdiqlangan?

a) 20 iyun 1894-y. **b)** 23 iyun 1894-y.
c) 26 iyun 1896-y. **d)** 25 iyun 1900-y.

73. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining rezidensiyasi (shtab-kvartirasi) qayerda joylashgan?

a) AQSH, Vashington shahri;
b) Shveysariya, Lozanna shahri;
c) Rossiya, Moskva shahri;
d) Fransiya, Parij shahri.

74. «Hakamlarning Olimpiya qasamyodi» an'anasi nechanchi-yilda va qaysi davlat taklifi bilan kiritilgan?

a) 1920 y. Belgiya; **b)** 1944 y. AQSH;
c) 1948 y. Fransiya; **d)** 1968 y. Sovet Ittifoqi.

75. Yozgi Olimpiya o'yinlari necha kun davomida o'tkaziladi?

a) 10 kun; b) 12 kun; c) 16 kun; d) 20 kun.

76. Olimpiya Oltin ordeni nechanchi yilda ta'sis etilgan?

a) 1894 y. b) 1928 y. c) 1956 y. d) 1974 y.

77. Xalqaro sport harakati rivojlanishining asosiy sabablari nimadan iborat?

a) musobaqalar umumiy qoidalarining nashr etilishi;
b) Yevropa va jahon rasmiy birinchiliklarining o'tkazilishi;
c) Xalqaro sport federatsiyalarning tuzilishi;
d) hamma javoblar to'g'ri.

78. Nechanchi yilda birinchi qishki Olimpiada o'tkazilgan?
a) 1924 y. b) 1952 y. c) 1996 y. d) 2010 y.

79. Olimpiya ramzi - rangli halqalar qanday tartibda joylashgan?
a) yashil, sariq, moviy, qora, qizil;
b) qora, qizil, sariq, moviy, yashil;
c) moviy, qizil, sariq, yashil, qora;
d) moviy, qora, qizil, sariq, yashil.

80. I qishki Olimpiya o'yinlari qachon va qayerda o'tkazilgan?
a) 1924 y. Shamoni;
b) 1952 y. Xelsinki;
c) 1996 y. Atlanta;
d) 2010 y.Turin.

81. Nechanchi yilgacha qishki va yozgi Olimpiya o'yinlari bir-yilda o'tkazilgan?
a) 1992-yilga qadar, 1924 y.; b) 1924-yilda;
c) 1960-yildan boshlab; d) 1998-yilga qadar.

82. Qishki O'yinlarni o'tkazish to'g'risidagi qaror qachon qabul qilingan?
a) 1924 y. b) 1925 y. c) 1956 y. d) 2014 y.

83. Nechanchi yilda qishki va yozgi Olimpiya o'yinlarining oralig'i 2 yilni tashkil etishi to'g'risida qaror qabul qilingan?
a) 1994 b) 1998 c) 1996 d) 2012

84. Olimpiya dasturiga kiritilishi uchun qishki sport turi jahonning nechta mamlakatida keng rivojlangan bo'lishi kerak?
a) 20 ta mamlakatida; b) 25 ta mamlakatida;
c) 22 ta mamlakatida; d) 50 ta mamlakatida.

85. Kyorling qanday sport turi?
a) muz ustida kegli o'yinining turi;
b) tramplindan murakkab sakrash turi;
c) maxsus taxta ustida uchish turi;
d) chana sportining turi.

86. Kyorling qachon va qayerda paydo bo'lgan?

a) XIV asrda Shotlandiyada; **b)** 1966-yil AQSHda;
c) 1972-yil Norvegiyada; **d)** XVII asrda Shvetsiyada.

87. Qachon snoubording musobaqalari ilk bor Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan?

a) XVII qishki Olimpiya o'yinlarida;
b) XVIII qishki Olimpiya o'yinlarida;
c) III qishki Olimpiya o'yinlarida;
d) XXII qishki Olimpiya o'yinlarida.

88. Chang'ida tramplindan sakrash bo'yica birinchi olimpiya chempioni kim bo'lgan?

a) Norvegiya sportchisi Yakob Tullin Tams;
b) Shveysariya sportchisi Jan Simmen;
c) Shveysariya terma jamoasi;
d) Koreya sportchisi Kim Ki Xun.

89. Qishki Olimpiya o'yinlarida ayollar o'rtasida birinchi uch karra olimpiya chempioni kim bo'lgan?

a) Soni Xeni; **b)** Lidiya Videman;
c) Keti Terner; **d)** Lina Cheryazova.

90. XVII qishki Olimpiya o'yinlarida umumjamoa hisobida O'zbekiston terma jamoasi nechanchi o'rinni egallagan?

a) 68 ta mamlakat orasida 14-o'rinni;
b) 89 ta mamlakat orasida 12-orinni;
c) 69 ta mamlakat orasida 12-orinni;
d) 70 ta mamlakat orasida 16-orinni.

91. 1896–1935-yillardagi televideniyaga xos xususiyatlar nimadan iborat bo'lgan?

a) Fotosuratlar namoyish qilingan;
b) Simsiz telegraf va radio paydo bo'lgan;
c) Birinchi fil'mlar paydo bo'lgan;
d) Televideniya va kinoxronika vositasi bo'lmagan.

92. Olimpiya xartiyasinig nechanchi moddasiga va nechanchi yilda XOQ roziligi asosida teletranslatsiya huquqini sotish to'g'risida qo'shimcha kiritildi?

a) 1896 y. 60-modda;
b) 1936 y. 46-modda;
c) 1952 y. 44-modda;
d) 1958 y. 49-modda.

93. Nechanchi yilda va qayerdan Olimpiya o'yinlari uchun televideniya davri boshlangan?

a) 1916-yilda Berlindan; b) 1936-yilda Berlindan;
c) 1948-yilda Londondan; d) 1924-yilda Parijdan.

94. XOQ televizion huquqlarni sotishdan va homiylardan kelib tushadigan mablag'larni qaysi tashkilotlarga qayta taqsimlaydi?

a) Olimpiya o'yinlari Tashkiliy qo'mitasiga, Milliy olimpiya qo'mitalariga va Xalqaro federatsiyalarga;
b) Reklama-homiylik va litsenzion dasturlarini ishlab chiqish komissiyasiga;
c) Xalqaro Olimpiya Qo'mitasiga, Milliy olimpiya qo'mitalari Assotsiatsiyasiga;
d) Olimpiya o'yinlari shahriga.

95. Nechanchi yillar televideniyani yangi texnologiya sifatida paydo bo'lish davriga kiradi?

a) 1896 – 1935-yillar; b) 1936 – 1967-yillar;
c) 1968 – 1987-yillar; d) 1988-yildan – hozirgi vaqtga qadar.

96. Nechanchi yilda va qayerda Olimpiya o'yinlaridan uzatilgan birinchi real televideniya amalga oshirilgan?

a) 1912-yilda Stokgolmda; b) 1920-yilda Antverpenda;
c) 1940-yilda Tokioda; d) 1948-yilda Londonda.

97. Ikkinchi jahon urushiga qadar harakatdagi rivojlangan televizion texnologiyalarga nechta mamlakat ega bo'lgan?

a) 2 ta mamlakat; b) 4 ta mamlakat;
c) 10 ta mamlakat; d) 25 ta mamlakat.

98. Ikkinchi jahon urushiga qadar harakatdagi rivojlangan televizion texnologiyalarga qaysi mamlakatlar ega bo'lgan?

a) AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya;
b) Yaponiya, Italiya, Rossiya, Gollandiya;
c) AQSH, Germaniya, Ispaniya, Yaponiya;
d) Sobiq Ittifoq, AQSH, Yaponiya, Misr.

99. Nechanchi yilda televideniya Olimpiya o'yinlarini translatsiya qilishda ustuvor ommaviy axborot vositalariga aylangan?

a) 1960 y. b) 1980 y. c) 1988 y. d) 2016 y.

100. Nechanchi yilda tomoshabinlarga birinchi marta Olimpiya o'yinlari rangli tarzda namoyish qilingan?

a) 1930-yillarda;
b) 1948-1952-yillarda;
c) 1968-yilda;
d) 2012-2016-yillarda.

101. Xelsinkidagi 1952-yilgi Olimpiya o'yinlarini nechta mamlakatlar translatsiya qilgan?

a) 60 ta;
b) 19 ta;
c) 8 ta;
d) 2 ta.

GLOSSARIY

Tushunchalar	O'zbek tilida izoh	Ingliz tilida izoh
Qadimgi Olimpiya o'yinlari	Qadimgi Gretsiyadagi diniy va sport bayramlari	Antique Olympic game Religious and sports holiday of the Ancient Greece's
Qadimgi Olimpiya	Qadimgi Olimpiya o'yinlari o'tkazilgan shaharcha	Ancient Olympia One of policies (cities) , capital of Games of antique time
"Muqaddas tinchlik"	Qadimgi Olimpiya o'yinlari davomida e'lon qilingan tinchlik	Sacred the reword during ancient Olympic games
Stadiy	Qadimgi Olimpiya o'yinlarida yugurish masofasi	Stages Run distance on ancient Olympic games
Stadiodrom	Qadimgi Gretsiyada 175m dan 192,27 m gacha yugurish masofasi	Run on a distance from 175 m 192,27m of the Ancient Greece's
Pentatlon	Qadimgi Olimpiya o'yinlarida beshkurash sporti	Five kinds of sports on ancient Olympic games
Pankration	Qadimgi Olimpiya o'yinlarida ikkita sport turi	Two kinds of sports on ancient Olympic games
Pedotrib	Qadimgi Olimpiya o'yinlaridagi murabbiylar	Trainers in ancient Olympic games
Ellanodik	Qadimgi Olimpiya o'yinlarining hakamlari	Judges in the ancient Olympic
Olimpionik	Qadimgi Olimpiya o'yinlarining g'oliblari	The winner time of ancient Olympic games
Diaulos	Qadimgi Olimpiya o'yinlarida 2 stadiyga yugurish masofasi	Run on 2 stages on ancient Olympic games
Dolixodrom	Qadimgi Olimpiya o'yinlarida 24 stadiyda yugurish masofasi	Run on 24 stages on ancient Olympic games

Olimpiada	Olimpiya o'yinlari o'rasidagi to'rt yillik davr	The Olympic Games Games are spent each 4 years
Olimpiya Xartiyasi	Olimpiya xartiyasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan qabul qilingan olimpizm asosiy tamoyillari, qoidalari va rasmiy izohlari berilgan hujjatdir.	The Olympic Charter is the codification of the Fundamen-tal Principles of Olympism, Rules and Bye-laws adopted by the International Olympic Committee.
Xalqaro Olimpiya Akademiyasi	Xalqaro olimpiya akademiyasi 1961-yil 14-iyunda rasmiy ravishda tashkil qilingan.	International Olympic Academie established in 1961 year.
Olimpiya shiori	Olimpiya shiori – tezroq, balandroq, kuchliroq – 1886-yili yuzaga kelgan va Dominikan diniy xizmatchi Pyer Didonga mansub hisoblanadi, Kuberten uni tanigan.	The Olympic Motto - citius, altius, fortius (faster, higher, stronger) - was derived froml 886 and the credo of Pierre Didon, a Dominican priest whom Coubertin knew.
Olimpiya harakati	Olimpiya harakati. Olimpiya harakati XOQ rahbarligidagi harakat bo'lib, o'z tarkibida Olimpiya xartiyasiga rioya qiladigan sportchilar, tashkilotlar va boshqa shaxslardan iborat.	Olympic movement Under the supreme authority and leadership of the International Olympic Committee, the Olympic Movement encompasses organisations, athletes and other persons who agree to be guided by the Olympic Charter.
Olimpizm	Olimpizm – bu tana, iroda va ong qadr qimmatini	Olympism is a philosophy of life, exalting and combining

	muvozanatlashgan bir butunlikka birlashtiruvchi hayot falsafasidir.	in a balanced whole the qualities of body, will an mind.
Olimpiya o'yinlari	Olimpiya o'yinlari – bu individual va jamoa sport turlari bo'yicha mamlakatlar o'rtasida emas, balki sportchilar o'rtasidagi musobaqalardir. Olimpiya o'yinlari yozgi va qishki Olimpiya o'yinlaridan iborat.	Olympic Games* The Olympic Games are competitions between athletes in individual or team events and not between countries. The Olympic Games consist of the Games of the Olympiad and the Olympic Winter Games.
Olimpiya halqalari	Olimpiya halqalari beshta har xil rangli halqalarning birlashgan ramzlaridan iborat. Beshta halqalar – chapdan o'ngga- ko'k, qora, qizil, sariq va yashil ranglarda berilgan.	The Olympic symbol. The Olympic symbol consists of five interlaced rings of equal dimensions (the Olympic rings), used alone, in one or in five different colours. When used in its five-colour version, these colours shall be, from left to right, blue, yellow, black, green and red.
Xalqaro badminton federatsiyasi (XBF)	Xalqaro badminton federatsiyasi (XBF) 1934-yilda tashkil topgan.	International badminton federation (IBF) established in 1934 year.
Xalqaro gandbol federatsiyasi (XGF)	Xalqaro gandbol federatsiyasi (XGF) Kopengagenda 1946-yilda tashkil topgan.	International handball federation (IHF) established in 1946 year.
Olimpiya madhiyasi	Olimpiya madhiyasi "Qadimgi, doimiy va o'lmas ruh" yunon poemasidan kelib	The Olympic Anthem derives from a Greek poem: 'Ancient, eternal and immortal spirit', put

	chiqqan va Spiros Samaras tomonidan musiqaga solingan. U ilk bor, 1896-yili ijro etilgan bo'lib, rasmiy tarzda 1958-yili qabul qilingan.	to music by Spyros Samaras. First performed in 1896, it was only officially adopted in 1958.
Olimpiya emblemalari va tumorlari	Olimpiya emblemalari va tumorlari (1972-yildan boshlab) har bir Olimpiya o'yinlari uchun ishlab chiqilgan.	Olympic emblems and mascots (since 1972) are designed for each Games.
Olimpiya olovi, mash'ala va estafeta	Olimpiya olovi, mash'ala va estafeta qadimda bo'lganga o'xshasada, 1928-yilgi Amsterdamdagi o'yinlarda birinchi bora qo'llanilgan. 1936-yildan boshlab olov Olimpiyada "quyosh nuridan" o't oldiriladi. Olimpiya olovini tashkilotchi shaharga estafetasi muhim hodisa bo'lib qoldi, lekin 2008-yildan boshlab, u, xuddi shunday xalqaro marshrut bo'ylab o'tkazilmasligi mumkin. Olimpiya olovi barcha o'yinlar vaqtida yonib turadi.	The Olympic flame, torch and relay, whilst appearing to have great lineage, only dates from Amsterdam, 1928. From 1936, the flame was lit at Olympia from 'the sun's rays'. The torch relay to the host city became a major event but, following 2008, it is unlikely it will follow such an international route. The Olympic flame burns throughout the Games.
Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ)	Xalqaro Olimpiya qo'mitasi xalqaro nodavlat notijorat tashkilot, assotsiatsiya shaklida va yuridik	The International Olympic Committee (IOC) The IOC is an international non-governmental not-for-

	shaxs maqomiga ega tashkilot.	profit organisation, of unlimited duration, in the form of an association with the status of a legal person.
Xalqaro tennis federatsiyasi (XTF)	Xalqaro tennis federatsiyasi (XTF) 1912-yilda Parijda tashkil qilingan.	International tennis federation (ITF) established in 1912 year in Paris.
Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining vazifasi	Kuberten tomonidan 1894-yili tashkil qilingan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi – olimpiya harakatining yuqori organi hisoblanadi va uning vazifasi "olimpizmni butun dunyoda ommalashtirish va olimpiya harakatini boshqarish"dan iborat.	Founded by Coubertin in 1894, the IOC is the 'supreme authority' of the Olympic movement with the mission: 'To promote Olympism throughout the world and to lead the Olympic movement'.
Milliy olimpiya qo'mitalari Bosh Assambleyasi (MOQ BA)	Milliy olimpiya qo'mitalari Bosh Assambleyasi (MOQ BA) 1968-yilda Mexikoda tashkil qilingan.	General Assembly of National olympic commitees (GA NOC) established in 1968 year in Mexiko.
Xalqaro sport federatsiyalari Bosh Assotsiat-siyasi (XSF BA)	Xalqaro sport federatsiyalari Bosh Assotsiatsiyasi (XSF BA) Lozannada 1967-yilda tashkil qilingan.	General Association of International sports federations (GA ISF) established in 1967 year in Lausanne.
Xalqaro sport psixologiyasi Jamiyati (XSPJ)	Xalqaro sport psixologiyasi Jamiyati (XSPJ) 1964-yilda Rimda tashkil qilingan.	International Cociety of sports Psychology (ISSP) established in 1964 year in Rome.

Xalqaro sport akrobatika Federatsiyasi (XSAF)	Xalqaro sport akrobatika Federatsiyasi (XSAF) 1973 y. Moskvada tashkil topgan.	International federation of sports akrobatics (IFSA) established in Moscow in 1973 year.
Xalqaro stol tennisi federatsiyasi (XSTF)	Xalqaro stol tennisi federatsiyasi (XSTF) 1926-yilda Berlinda tashkil qilingan,	International table tennis federation (ITTF) established in 1926 year in Berlin.
Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi (XOAF)	Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi (XOAF) 1920-yilda Fransiyada tashkil qilingan.	International weightlifting federation (IWF) established in 1920 year in France.
Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (XFAF)	Xalqaro futbol assotsiatsiyalari federatsiyasi (XFAF) 1904-yilda Fransiyada tashkil qilingan.	Federation football Internatio-nal Association (FIFA) established in 1904 year in France.
Xalqaro jismoniy tarbiya va sport tarixi assotsiatsiyasi	Xalqaro jismoniy tarbiya va sport tarixi Assotsiatsiyasi Surix (Shveysariya) da 1973-yilda tashkil qilingan.	International Association the History of physical education and sport established in 1973 year in Zurich (Switzerland).
Olimpiya o'yinlari sport turlari	Olimpiya o'yinlari sportning 36 ta har xil turlarini qamrab olgan: 26-28 ta yozgi Olimpiya o'yinlari va 7-8 ta qishki Olimpiya o'yinlarida.	The Olympic Games involves around 36 different sports: 26-28 in the Summer Games and 7-8 in the Winter Games.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni. "Xalq so'zi", 2015-yil 5-sentabr.

2.Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.* –T.: "O'zbekiston", 1998.

3.Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.: "O'zbekiston", 2005.

4.Karimov I.A. O'rta asr Sharq mutafakkirlari va olimlarining jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va ahamiyati. Xalqaro anjumanda so'zlagan nutqi. 16-may, 2014 y.

5.O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish Jamg'armasi homiylik kengashi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2013, 2014, 2015, 12-fevral 2016 yy.

6.Abdiyev A., Jumanov O., Ne'matov B. Sport alifbosi. –T.: 2007.

7.Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. –T.: O'qituvchi, 1992.

8.Akramov A.K., O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zDJTI nashr, 1997.

9.Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish. –T.: 2005.

10. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). –T.:1996.

11. Vardiashvili I. Afinadan Sidneyga qadar. Qarshi,"Nasaf", 2004.

12. Djalilova L.A. Olimpizm madaniyatini shakllantirish vositalari. –T.: «Fan-sportga» Respublika ilmiy-nazariy jurnal. №3-2014.

13. Djalilova L.A. Olimpiya bilim asoslari faniga kirish. Qadimgi Olimpiya o'yinlari. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

14. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi faniga kirish. Qadimgi dunyoda jismoniy tarbya. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

15. Djalilova L.A. O'rta asrlarda chet el mamlakatlarda jismoniy tardiya va sport. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

16. Djalilova L.A. Yangi va eng yangi davrda chet elda jismoniy tarbiya va sport. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

17. Djalilova L.A. Qadimgi davrda Markaziy Osiyo xalqlarining jismoniy tarbiyasi. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

18. Djalilova L.A. O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyoda jismoniy tarbiya. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

19. Djalilova L.A. Markaziy Osiyoda zamonaviy sport turlarining targalishi. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

20. Djalilova L.A. O'zbekistonda 1917-1991-yillarda jismoniy tarbiya va sport. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

21. Djalilova L.A. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport (1991- hozirgi davrgacha). O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

22.Djalilova L.A. Zamonaviy Olimpiya o'yinlarining qayta tiklanishi. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

23.Djalilova L.A. Xalqaro sport va olimpiya harakati. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

24.Djalilova L.A. Xalqaro olimpiya tizimi. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2015.

25. Djalilova L.A.Xalqaro sport va olimpiya harakati. O'quv-uslubiy tavsiyalar. –T.: "ITA-PRESS", 2016.

26. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. –T.: Sharq, 1998.

27. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni. –T.:1998.

28. Niyozov I. Olimpiya sport o'yinlari. Uslubiy qo'llanma. –T.: 2006.

29. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma. –T.:«Sharq», 2002.

30. Temur tuzuklari. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.

31. Xoshimov K. Pedagogika tarixi. –T.:"O'qituvchi",1996.

32. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Darslik. –T.: 2008

33. Ernazarov E. Olimpiada – jahon sporti bayrami. Ilmiy-ommabop risola. –T.: "Sharq", 2008.

34. Ergashev Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: 2015.

35. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. –T.: "Ibn Sino", 2000

36. O'zbekistonning yangi tarixi.1-3 kitob. –T.: "Sharq", 2000.

37. Выдрин В.М. История и методология науки о физической культуре. СПб.: 2002.

38. Нормуродов А., Моргунова И. Олимпийские игры. Учебное пособие. –Т.: 2011.

39. Платонов В.Н., Гуськов С.И. Олимпийский спорт. Учебник. Киев: «Олимпийская литература», 1994.

40. Энциклопедия Олимпийского спорта. Под редакцией В.Н.Платонова. Киев: «Олимпийская литература», 2004.

41. Фетисов В.А. О критериях и показателях развития физической культуры и спорта в зарубежных странах. М.:2015.

42. Moragas, M. de, Rivenburgh, N. K. and Larson, J. F. (eds) (1996) Television in the Olympics, London: John Libbey.

43. Barney, R. K., Wenn, S. R. and Martyn, S. G. (2002) Selling the Games: The IOC and the Rise of Olympic Commercialism, Salt Lake City: University of Utah Press.

44. Smit, B. (2006) Pitch Invasion: AdidasPuma and the Making of Modern Sport, London: Allen Lane.

45. Billings, A. (2008) Olympic Media: Inside the Biggest Show on Television, London: Routledge.

46. Bairner, A. and Molnar, G. (eds) (2010) The Politics of the Olympics, London: Routledge. Gaffney, C. (2010) 'Mega-events and socio-spatial dynamics in Rio de janeiro, 1919-2016, Journal of Latin American Geography 9 (1): 7-29.

47. Hayes, G. and Karamichas, J. (eds) (2011) Olympic Games, Mega-Events, and Civil Societies: Globalisation, Environment, and Resistance, Basingstoke: Palgrave.

48. Rachel Bladon. The Story of Olympics: An Unofficial History. Oxford, Macmillan Publishen Limited, 2012.- 80 p.

49. John Horne, Garry Whannel. Understanding the Olympics. Routledge. Taylor-Francis Group. London and New York. 2012.

INTERNET-SAYTLARI

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.ziyonet.uz – O'zbekiston Respublikasi madaniy-ma'rifiy portali.
4. www.natlib.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi.
5. www.olympic.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qomitasi.
6. www.paralympic.uz – O'zbekiston Raralimpiya assotsiatsiyasi.
7. www.fan-sportga.uz-djti.uz – O'zbekiston Respublikasi "Fan-sportga" ilmiy-nazariy jurnali.
8. www.sport-futbol.uz – O'zbekiston "Sport+futbol" gazetasi.

MUNDARIJA

KIRISH..... 3

I bob. JISMONIY TARBIYA VA OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

1-§ "Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi" faniga kirish. Qadimgi davrda jismoniy tarbiya..... 5

2-§ O'rta asrlarda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport (V- XVII asr)..... 22

3-§ Yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sport (XVII-XIX asrlar)..... 39

4-§ Eng yangi davrda chet el mamlakatlarida jismoniy tarbiya va olimpiya harakati (XX asr boshlari – hozirgi davrgacha)..... 55

I bob mavzulari bo'yicha test savollari..... 68

II bob. O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA OLIMPIYA HARAKATI

5-§ Markaziy Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda jismoniy tarbiya..... 75

6-§ Markaziy Osiyo va O'zbekistonga zamonaviy sportning kirib kelishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)..... 95

7-§ O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi (1920–1990 y.y.)..... 111

8-§ O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport (1991 – hozirgi davrgacha)..... 123

9-§ O‘zbekistonda olimpiya harakatining rivojlanishi..... 147

II bob mavzulari bo‘yicha test savollari..... 168

III bob. XALQARO OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

10-§ Olimpiada va Olimpiada sari yo‘l. Qadimgi Olimpiya o‘yinlari..... 182

11-§ Zamonaviy Olimpiya o‘yinlarining qayta tiklanishi. Tarixiy sharh..... 194

12-§ Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi va strategik jarayon..... 212

13-§ Olimpiya ta’limi tizimi..... 238

14-§ Olimpiya o‘yinlari..... 252

15-§ Qishki Olimpiya o‘yinlari..... 293

16-§ Kontinental va regional o‘yinlar..... 325

17-§ Olimpiya sporti va televideniya..... 343

18-§ Olimpiya o‘yinlari va siyosat..... 373

III bob mavzulari bo‘yicha test savollari..... 406

GLOSSARIY..... 420

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 426

L.A. DJALILOVA

JISMONIY TARBIYA VA OLIMPIYA HARAKATI TARIXI

Toshkent – «Voris-nashriyoti» – 2017

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	F.Tishaboyev
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Rahmatullayeva

E-mail: voris-nashr@mail.ru Tel: 244-58-81 (170-10-13).
Nashr.lits. AI№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 26.12.2017.
Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 26,75. Nashriyot bosma tabog'i 27,0.
Tiraji 300. Buyurtma №293.

«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.

ISBN 978-9943-978-63-8